



ILMIY AXBOROTNOMA

НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК

SCIENTIFIC JOURNAL

2018-yil, 4-son (110) GUMANITAR FANLAR SERIYASI

Tarix, Falsafa, Sotsiologiya, Filologiya, Pedagogika, Psixologiya, Iqtisodiyot, Huquqshunoslik

Samarqand viloyat matbuot boshqarmasida ro'yxatdan o'tish tartibi 09-25.
Jurnal 1999-yildan chop qilina boshlagan va OAK ro'yxatiga kiritilgan.

BOSH MUHARRIR
BOSH MUHARRIR O'RINBOSARLARI:

R. I. XALMURADOV, t.f.d. professor
H.A. XUSHVAQTOV, f.-m.f.n., dotsent
A. M. NASIMOV, t.f.d., professor

TAHRIRIYAT KENGASHI:

M. X. ASHUROV	- O'zFA akademigi	A. A. ABULQOSIMOV	- geogr.f.d., professor
T. M. MO'MINOV	- O'zFA akademigi	J. D. ELTAZAROV	- fil.f.d., professor
SH.A.ALIMOV	- O'zFA akademigi	D. I. SALOHIY	- fil.f.d., professor
S.N. LAKAYEV	- O'zFA akademigi	S. A. KARIMOV	- fil.f.d., professor
T.RASHIDOV	- O'zFA akademigi	T. SH. SHIRINOV	- tar.f.d., professor
S. S. G'ULOMOV	- O'zFA akademigi	M.D.DJURAKULOV	- tar.f.d., professor
N. N. NIZAMOV	- f.-m.f.d., professor	I. M. SAIDOV	- tar.f.d., professor
A. S. SOLEEV	- f.-m.f.d., professor	B. O. TO'RAYEV	- fals.f.d., professor
I. A. IKROMOV	- f.-m.f.d., professor	O.M. G'AYBULLAYEV	- fals.f.d., professor
B. X. XO'JAYAROV	- f.-m.f.d., professor	J.YA.YAXSHILIKOV	- fals.f.d., professor
I. I. JUMANOV	- f.-m.f. d., professor	M. Q. QURONOV	- ped.f.d., professor
E. A. ABDURAXMONOV	- k.f.d., professor	X. I. IBRAGIMOV	- ped.f.d., professor
N. K. MUXAMADIYEV	- k.f.d., professor	N. SH. SHODIYEV	- ped.f.d., professor
J. X. XO'JAYEV	- b.f.d., professor	E. G'. G'OZIYEV	- psixol.f.d., professor
Z. I. IZZATULLAYEV	- b.f.d., professor	SH. R. BARATOV	- psixol.f.d., professor
Z. F. ISMAILOV	- b.f.d., professor	B. Q. QODIROV	- psixol.f.d., professor
S. B. ABBOSOV	- geogr.f.d., professor	R. A. SEYTMURATOV	- i.f.d., professor
L. A. ALIBEKOV	- geogr.f.d., professor	B. X. TO'RAYEV	- i.f.d., professor

MUNDARIJA/СОДЕРЖАНИЕ/CONTENTS

TARIX/HISTORY		
Normurodova G.B.	XIX asr oxiri XX asr boshlarida Buxoro amirligida ziyolilar qatlami: qarashlar va ziddiyatlar	4
Xushvaqtoev N.H.	Samarqand tarixi manbashunosligini yoritishda Zarafshon okrugi ish yuritish hujjatlarining tarixiy tahlili	7
Axmedov T.	Samarqand tarixini yoritishda arxiv manbalarining tavsifi (Zarafshon okrugi boshlig'i mahkamasi materiallari bo'yicha)	9
Муллаев А.	Концепция нового шелкового пути: взгляд из Узбекистана	12
Djuraev H. X.	Buxoro xattotlik maktabining asoschilari (XV-XVI asrlar)	18
Tursunmuratov T.	Axborot-kommunikatsion texnologiyalari rivojlanishi sharoitida milliy xavfsizlik va barqarorlikni ta'minlashning dolzarb masalalari	23
Махкамова Н. Р.	Развитие исторической мысли в Узбекистане в 20-е гг. XX в. (по страницам журнала «Коммунистическая мысль»)	26
Эгамбердиева Г.	Развитие международного туризма на шелковом пути и его популяризация	33
Abdullayev D.N.	Turkiston o'lkasida tashkil etilgan dastlabki xayriya jamiyatlari	36
Darmonova M.	Toshkent shahar davlat arxivining sovet davriga oid jamg'armalar tavsifi (1917-1991 yillar)	40
Rasulova D.B.	Fransuz tadqiqotchisi Genri Mozerning Markaziy Osiyodagi ilmiy ekspeditsiyasi	43
Qoryog'diev Z.O.	Zarafshon vohasi lo'larining an'anaviy turmush tarzidagi etnoijtimoiy jarayonlar	48
Zaripov O.O.	Naqshbandiya tariqati muzeyi	52
FALSAFA/PHILOSOPHY		
Otaqulov Sh.	Fuqarolik jamiyati va demokratik siyosiy tartibotning tadrijiy rivojlanishi	58
Eshonkulova N.A.	Inson va jamiyat baxt-saodat subyektlari sifatida	61
SOTSILOGIYA/SOCIOLOGY		
Saitqosimov A.	Jamoatchilik fikrini o'rganish – jamiyat barqarorligi va inson manfaatlarini ta'minlashning zaruriy sharti	66
Matibaev T.	Ijtimoiy adolat va ijtimoiy hamkorlik fuqarolik jamiyat poydevori	69
FILOLOGIYA/PHILOLOGY		
Tagayeva S.U., Mustanova Sh.A.	Für predlogining leksik-semantik xususiyatlari va ularning o'zbek tilidagi talqini	73
Jo'rayev M.	Astral mifologiya va o'zbek xalq taqvimida "Tuqush" hisobi	75
Ernazarova G.	Iqbol Mirzo she'riyatida muhabbat mavzusi talqini	80
Sulaymonov I.	"Boburnoma"da g'oliblik va mag'lublik tasviri	84
Rahimova G.	"Qora dastor to chirmadi mohim..."	88
Yo'ldoshev M.M., Bozorova U.Q.	Seyshel - kreol va fransuz tillarini qiyoslab o'rganish jarayonida aniqlangan grammatik hodisalar haqida interpretatsiya	90
Isakova N.A.	About borrowings in the Uzbek language (on the examples of the newspaper "Khalk suzi")	92
Ziyaev A.	Turli tizimli tillarda "deintensifikatsiya" kontseptual semantikasi verbalizatorlarining kognitiv tipologiyasi	94
Османова Т.В., Юлдашева С.М.	Целевая функция словосочетаний в развитие речи учащихся начальных классов	97
Djuraeva S.R.	O'zbek she'riyati tarixini o'rganish masalalari	102
Islamova D.	Hamid Olimjonning «o'zbekiston» she'rida qo'llanilgan transpozitiv so'zlarning uslubiy va funksional-semantik xususiyatlari.	105
Yakubov F.O'.	Olmon shoir va yozuvchilarining asarlarida nemischa-o'zbekcha	109

	prozaik tarjimalar	
Ashurova Z.Sh.	O'zbek bolalar she'riyatining lingvopoetikasi xususida	112
PEDAGOGIKA/PEDAGOGICS		
Fayziyev M.A., Shoniyazova I.M.	Ta'lim sohasida media vositalaridan foydalanishning psixologik-pedagogik jihatlari	115
Asqarov I. B.	Bo'lajak kasb ta'limi pedagoglarida tadqiqotchilik ko'nikmalarini shakllantirishning psixologo-pedagogik asoslari	118
Jiyankulova R. X.	Umumkasbiy ta'lim fanlarini o'qitishda milliy-ma'naviy qadriyatlardan foydalanishni takomillashtirish	123
Qodirov B.N.	Ta'limda ommaviy ochiq onlayn kurslaridan foydalanish istiqbollari	126
Kayumova N.A.	Informatika o'qituvchisini tayyorlashning metodik tizimini takomillashtirish	129
O'roqov Sh.R.	Bo'lajak kollej o'qituvchisining kasbiy faoliyatini modellashtirish	132
Taylanova Sh.Z.	"Avesto"dagi ilmiy pedagogik qadriyatlar tizimi nazariyasi	137
Ibragimov A.A.	Xalq ta'limi xodimlari malakasini uzluksiz oshirishga ko'p vektorli yondashuv modeli	140
Aminov I.B. Tugalov R.	Masofadan o'qitish tizimining asosiy tamoyillari va texnologiyalari	148
Mingboyev U.X.	O'quvchilarda kommunikativ kompetensiyani shakllantirishda informatika vositalaridan foydalanish	152
Otabayev I.A.	Modulli o'qitish texnologiyasi – ishlab chiqarish tahlimini samarali tashkil etish vositasi sifatida	156
Tolipova T.Q.	Boshlang'ich ta'lim samaradorligini ta'minlashning pedagogik-psixologik asoslari	161
Xolmuratova Sh.A.	Oliy o'quv yurt talabalari o'rtasida millatlararo munosabatlar madaniyatini shakllantirish	165
Хусаинова Л.Ю.	Классификация технических средств обучения и их функции	169
Tajibayev S.S.	Harakatli o'yinlar yordamida o'smir bokschilarning himoya ehnikasini rivojlantirish samaradorligi	173
Gulyamov K.M.	Bo'lajak amaliy san'at o'qituvchilarining kasbiy-pedagogik kompetensiyalarini shakllantirish jarayonining modeli	177
PSIXOLOGIYA/PSYCHOLOGY		
Xalilova N.I.	Bola shaxsida refleksivlik xususiyatini rivojlantirishda oilaviy tarbiyaning o'rni	183
Мусинова Р.	Проблемы и перспективы формирования креативного мышления в раннем школьном возрасте.	185
Sadriddinov S.R.	Psixologik himoya konsepti: nazariy tahlilning ijtimoiy-psixologik bayoni	190
IQTISODIYOT/ECONOMICS		
A'zamov D.	O'zbekistonda innovatsion tendensiyalar sharoitida sog'liqni saqlash sohasining mehnat resurslarini shakllantirishga ta'siri	194
Abduramanov X.X., Nasimov D.A.	O'zbekistonda demografik xavfsizlikni ta'minlash yo'nalishlari	185
Suyarov A.Sh., Gadoyeva M.X.	Mehmonxonalarda ovqatlantirish xizmatlarini tashkillashtirishda xorij tajribasidan foydalanish muammolari	203
HUQUQSHUNOSLIK / LAW		
Kuvandikov Z.O.	Korrupsiya taraqqiyot kushandasi	208
Kuchkarova F.	Jinoiy – huquqiy hodisalarning ichki tabiatiga xos sabab-oqibat dialektikasining ba'zi masalalari	210
UNIVERSITET HAYOTIDAN		
Mualliflarga		

UDK: 9(575,1)

**XIX ASR OXIRI XX ASR BOSHLARIDA BUXORO AMIRLIGIDA ZIYOLILAR QATLAMI:
QARASHLAR VA ZIDDIYATLAR****G.B. Normurodova***Samarqand davlat universiteti*

Annotatsiya. Maqolada XIX asr oxiri XX asr boshlari Buxoro amirligida ziyolilar bo'g'ini to'g'risida yoritilib, o'zaro qarashlarida ikki guruhga bo'lingan ziyolilarning birinchisi amirlikda eski tartib va usullarni saqlab qolishni yoqlagan "qadimchilar" va jamiyatda yangilanish va islohatlar tarafdori bo'lgan ilg'or ziyolilar o'zaro qiyoslanib tahlil etildi.

Kalit so'zlar: vassal, ziyolilar bo'g'ini, "qadimchilar", ilg'or ziyolilar, eski usul va odatlar, modernizatsiya, islohat.

Интеллигенция Бухарского эмирата в конце XIX начале XX века: взгляды и противоречие

Аннотация. Данная статья освещает слой интеллигенции в Бухарском эмирате конца XIX - начала XX века, взаимно сопоставляя анализируются две группы интеллигентов: сторонники старого строя «кадимисты», стремящиеся сохранить старые методы и порядок в эмирате и передовая интеллигенция, сторонники новизны и реформ в обществе.

Ключевые слова: протекторат, интеллигенция, "кадимисты", передовая интеллигенция, старые методы и обычаи, модернизация, реформы.

The intelligentsia of the Bukhara Emirate at the late 19th and early 20th centuries: views and contradictions

Abstract. In the article the layer of intelligent people in Bukhara Emirate at the late 19th and early 20th centuries are studied. Here through comparison there given analysis of two groups of intelligents: those who strived for keeping the old regime and methods in the Emirate and advanced intelligent people who were fighting for novelties and reforms in society.

Keywords: protectorate, intelligency, "kadimists", advanced intelligency, old methods and customs, modernization, reforms.

Har bir tarixiy davrda ilm ahli doimo ilmu-ma'rifat va ma'naviyatga intilib bu sohada munosib o'rin tutib kelgan. Shu munosabat bilan, podsho Rossiya mustamlakachiligi davrida Turkiston o'lkasi, Buxoro va Xiva xonliklari og'ir va murakkab sharoitida ma'rifat g'oyasini baland ko'tarib chiqqan jadid namoyondalari va ularning tarixiy faoliyati ham alohida e'tirofga loyiq. O'rta Osiyo xonliklari orasida o'ziga xos o'rin tutgan Buxoro amirligi XIX asr oxiri XX asr boshlarida yarim mustamlaka davlat sifatida, sezilarli ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy o'zgarishlarni boshidan kechirdi. Buxoro amirligida kechgan murakkab tarixiy vaziyat natijasi o'laroq, aholining ziyolilar guruhi o'rtasida ma'naviy-ma'rifiy qarashlarda bir-biriga zid bo'lgan bo'linish yuzaga keladi. Ularning birinchisi ruhoniylarning kattagina qismi bo'lgan huquqshunoslar, mudarris va mullolarni o'z ichiga olgan "qadimchilar" dan va ikkinchi guruh esa yangicha ilg'or qarashlar, islohat va yangilanishlar tarafdori bo'lgan ziyolilardan tashkil topgan edi. Buxoro amirligi ma'naviy-ma'rifiy hayotida o'zgarishlar zarurati kerak bo'lgan bir sharoitda, ikkinchi guruh ilg'or ziyolilarning o'rni muhim bo'ldi. Chunki amirlikda yuz bergan ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar tufayli, "martabali savdogarlar" vakillari Buxoroda birjalar tashkil qilish, yo'l tarmoqlarini yaxshilash, "tarozi va o'lchovlarning aniqligini qattiq nazorat qilish" va savdo aloqalari masalalari bilan qiziqqan bo'lsalar, ziyolilarning mazkur taraqqiyparvar qismi buxoro jamiyatini modernizatsiya qilish tarafdori bo'lib chiqdilar [1].

XIX asr ikkinchi yarmidan Markaziy Osiyo ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayotida faol rol o'ynagan ilg'or ma'rifatparvarlar davlat mustaqilligini yo'qotilishiga asosiy sabab, O'rta Osiyo jamiyatining siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy qoloqligida ekanligini juda yaxshi tushunib etganlar. Ular turli ijtimoiy qatlamlar orasidan chiqqan va eng asosiy zakovatli bo'lib, ilg'or ziyolilarning birinchi avlodi bo'ldilar [2]. Ana shu negizdan keyin jadidlar o'sib chiqib ularning g'oyalarini rivojlantirdi va ma'rifatdan siyosatga qarab yo'l olgan.

Yangi ziyolilar qarashlari markazida eng avvalo, aholining barcha ijtimoiy qatlamlari orasida hukm surgan savodsizlikni tugatish, eski ta'lim tizimini isloh qilish, qoloq, eski va behuda odatlarga

chek qo'yish singari maqsadlar ilgari surildi. Tadqiqotchilar fikriga ko'ra, ular ayniqsa, diniy mutaassiblik, behuda sarf-harajatlarga olib keluvchi an'anaviy odatlarga tanqidiy yondoshgan [3]. Agar bunday qarashlar debochasini Ahmad Donish kabi ma'rifatparvarlar boshlab bergan bo'lsa, ularning g'oya va qarashlarini Sadridin Ayni, Abdulvohid Munzim, Mirkomil Burhonov, Usmonxo'ja Po'latxo'jaev, Xolidxoji Mehri, Mulla Vafo, Abdurauf Fitrat singarilar rivojlantirdilar.

Afsuski, demokratik o'zgarishlar tarafdori bo'lgan mazkur ziyolilarning xalq ommasi orasida dastlabki ta'sir doirasi tor edi. Ularning xalq ma'orifi cohasida dunyoviy, g'arb ta'limiga asoslangan yangi usul maktablarini ochish, o'sib kelayotgan avlodga har tomonlama ham diniy, ham dunyoviy bilimlarni berishga qaratilgan sayi-harakatlari, afsuski yangilikka qarshi turgan "qadimchilar"ning ham diqqat markazida bo'ldi. Xo'sh, "qadimchilar"ni kimlar tashkil etgan edi? Nima uchun bu guruhni "qadimchilar" deb atashga zarurat bo'ldi? "Qadimchilar" ziyolilarning o'ziga xos bo'g'inini tashkil etib, ular asosan eski tuzumning "eski usul" va tartiblarini, an'anaviy ta'lim tizimini saqlab qolish tarafdori bo'lishgan. Bularning orasida ruhoniylar tabaqasi vakillari xususan, mudarris va mullalar, madrasa talabalari (mullabachalar) va boshqa muayyan toifa amaldorlar ham bo'lgan.

"Qadimchilar"ning asosini ruhoniylar qatlami vakillari tashkil etgani holda, ular aholining o'ziga xos savodli, intizomli, vaqf mulklaridan ta'minot oluvchi tabaqasi sanalib, o'sha davrda son jihatdan aholining 3 % ini tashkil etgan [4]. Ziyolilarning bu bo'g'ini amirlikning boshqaruv, sud va ma'orif sohalarida asosiy rol o'ynagan kuchlar bo'lgan. Shu bois, yangi usul ta'limi borasidagi qarashlar va targ'ibotlarga ular avvalboshdanoq qarshi chiqqan. Chunki, bu ularning ta'lim tizimi, sud sohalarida chuqur faoliyatiga mone'lik qilishi bilan birga, xalq orasida ilgarigi nufuzidan ayirishi mumkin bo'lgan xavotirga sabab edi.

Muhammad Baljuvoni ma'lumotiga ko'ra, XX asrning boshlarida Buxoroda mudarrislar soni 800 nafarga etgan ekan. Buxoro shahrida 80 ga yaqin madrasa, 296 masjid, 18 ta Jome' masjidi, 80 ta qabriston va mozor, 13 kutubxona, 96 ta qiroatxona, 200 ga yaqin maktab mavjud bo'lib ularda mudarris va ulamolar xizmat qilgan [5]. Zero, bu davrda ham Buxoro amirligi butun O'rta Osiyo bo'yicha musulmon aholiga kuchli diniy ta'sir ko'rsatgan xudud bo'lib qolgan. F. Xo'jaev bu borada bejizga, "Turkiston va Rossiyaning o'n minglab musulmonlari, Buxoro madrasalarida ta'lim olganlar" deb ta'kidlamagan edi [6].

Amirlikda ziyolilarning ushbu ikki guruhi o'rtasidagi ilk bor ochiq ajralish 1908 yilda yuz bergan edi. Bir yillik ta'limdan so'ng, A. Burxonovning yangi usul maktabida ota-onalar, ruhoniylar va shaharlik obro'li kishilar ishtirokida o'quvchilar uchun tantanali imtihon tashkil etiladi. Imtihon jarayonida yangi usul maktablar faoliyatiga baho berish yuzasidan tortishuvlar bo'ladi. Mulla Ikrom boshchiligida bir guruh kishilar, yangi usulmaktablarni xalqni rivoji va mamlakat taraqqiyoti uchun foydali deb hisoblaydi. Ikkinchi guruh mullo Abduroziq boshchiligidagilar esa, yangi usul maktablarining zararliligi hamda din va davlatga qarshi ekanligini uqtiradi [7]. Shunday qilib, ushbu voqeilikdan so'ng ziyolilar uzil-kesil qarashlari bir-biriga zid bo'lgan ikki guruhga ajraladi. Biroq, kelishib olinmagan bu masala taraqqiyparvar ziyolilarni anchagina xavotirga soladi, chunki ta'limni isloh etish va xalqni ma'rifatli qilishdek zahmatli harakatda o'zaro birdamlik zarurligini ular yaxshi tushunib etganlar.

Bu borada Abdurauf Fitrat o'zining "Munozara" nomli risolasini kirish qismida quyidagilarni bejizga kuyunib yozmagan edi: "Vatandoshlarimga ma'lum bo'lsinki, mana uzoq vaqtlardan buyon, yangi va eski maktablar masalasida noittifoq bo'lgan sotqinlar tufayli, birlashgan xalq bir-biridan norozi bo'lgan ikki guruhga bo'linib ketdi. Musulmonlarning bundan ortiq baxtsizligi bo'lmaydi. SHu bois, kimki o'zini islom diniga sodiq deb bilsa, aholi orasida bunday xalokatli noittifoqlikni yo'q qilishga harakat qilmog'i lozim. Vatandoshlarimiz o'zlarining kelishmovchiliklarini tashlab, haqiqat yo'lga hamjihatlik bilan poyqadamlarini qo'yishlari lozim" [8].

Keyinchali, har qanday to'siqlarga qaramasdan, milliy taraqqiyparvar - jadidlarga aylangan bu ilg'or ziyolilar xalq, jamiyat ma'naviyatini yuksaltirish, demokratik o'zgarishlarni amalga oshirishga kirishdilar. Ular yangi usul maktablarida o'qigan, ilmi va zamon talabiga javob bera oladigan yoshlarni tarbiyalash uchun kurashdilar. Taraqqiyparvarlarning ijtimoiy-siyosiy qarashlariga 1905 yildagi rus inqilobi, 1905-1911 yillardagi Erondagi inqilob va 1908 yildagi YOsh turklar inqiloblari katta ta'sir ko'rsatdi. Mazkur xududlar ilg'or kuchlarining faoliyati ham amirlik ziyolilarning liberal qarashlari va demokratik kayfiyatlarini o'sishiga turtki bo'ldi. S. Ayniyning ma'lumotiga ko'ra, dastlab besh-olti nafar kishi "taraqqiyparvar" va "islo hatchilar" nomi ostida shakllanib bordi. Bu

guruh mashhurlari orasida Bo'riboy, Mirxon Porsozoda, Qori Burhon, Mirza Muhiddin Mansurzodalar bor edi [9].

Buxorolik ziyolilar ma'orif yo'lidagi islohatlar zaruratiga erishish uchun saroy amaldorlari, ular orqali esa amirni ishontirishga harakat qildilar. 1908 yil oktyabrda Amir Abdulahadxon amirlik fuqarolari uchun fors tilidagi maktab loyihasini tasdiqlagan. Bu amirlik siyosiy hayotida "islohatchilik harakatini boshlanishi yo'lida" muhim qadam bo'lgan [10]. Yangi usul maktablari qisqa vaqt mobaynida amirlik aholisining ilg'or qismi orasida mashhur bo'lgan. Hatto, buxorolik savdogarlar ruslar bilan savdo ishlarini olib borib, bunday maktablarga ehtiyoj sezganlari uchun, kechqurunlari bu maktablarga qatnaganlar. SHu orqali, kattalar uchun kechki kurslar tashkil etiladi. Biroq amirlikda mutaassiblikka berilgan ulamolarning qarshiligi kuchli bo'lib, natijada mullalar tomonidan maktablarni toshbo'ron qilinib yopilishiga olib keladi. Maktablar tashkil etganlar esa bir muncha vaqt qochib yashirib yurishga majbur bo'lgan.

Ma'rifatchilik va va tor doirada madaniylashtirishdan ish boshlagan jadidchilik harakati siyosiy harakatga aylangach, o'z oldiga jamiyat va uni boshqarishni qayta qurishdek vazifalarni qo'ydi. Bu siyosiy talablar "yosh buxoroliklar" inqilobchilar partiyasi paydo bo'lishidan avvalroq yuzaga kelgan[11]. Ularning safi tobora kengayib, xorijda o'qib, xorijdagi milliy taraqqiyparvarlik harakatlar tajribasini o'rganib qaytgan yosh kuchlar kelib qo'shilgach, ular aniq siyosiy vazifalar talabi bilan chiqdilar. Soliqlarni kamaytirish, amaldorlar zulmini cheklash, dehqonlar hayotini engillashtirish kabi talablar shular jumlasidan bo'ldi. Podsho hokimiyatining ag'darilishi yosh buxoroliklarda demokratik islohatlar o'tkazishga umid bog'ladi, ularning zo'r bergan sayi-harakatlari tufayli, islohatlar o'tkazishga mo'ljallangan manifest e'lon qilinishiga erishildi. Biroq, bularning barchasi qog'ozda ifodasini topib amalda joriy bo'lmadi. Jadidlarga qarshi qaratilgan qatag'onlar esa, ularni yashirin holatda faoliyat olib borishiga majbur etdi.

Shunday qilib, XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Buxoro amirligida kechgan murakkab tarixiy vaziyat natijasida, ziyolilar bo'g'ini o'rtasida ajralish ro'y berdi. Bular ruhoniylarning kattagina qismini o'z ichiga olgan "qadimchilar" va islohat va yangilanishlar tarafdorlari bo'lgan yangi ziyolilardan tashkil topdi. Ijtimoiy tuzumning "eski usul" va tartiblarini, an'anaviy ta'lim tizimini saqlab qolishni zo'r berib yoqlagan "qadimchilar" jamiyatni modernizatsiya qilishga qaratilgan har qanday hatti-harakatga qarshilik ko'rsatdilar. Buxoro jamiyatining ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy qoloqlik sabablarini anglab etgan ilg'or ziyolilar esa, bu yo'ldagi to'siq va illatlarni bartaraf qilish, xalqning ma'naviyatli va ma'rifatli qilishni o'z oldiga maqsad qildilar. Ijtimoiy-siyosiy hayotda tartibsizlik, suiste'mollik, diniy muttassiblik chuqur ildiz otgan Buxoro amirligi taraqqiyoti uchun aynan mana shu ziyolilarning o'rni muhim bo'ldi.

Adabiyotlar

1. Россия и Средняя Азия: Политика и ислам в начале XX - начале XXI вв. Том 1. - М.: ЛЕНАНД, 2010. – С.408.
2. История общественно-культурного реформаторства на Кавказе и в Центральной Азии (XIX – начало XX века). – Самарканд: МИЦАИ, 2012. –С.83.
3. Paolo Sartori. Ijtihad in Bukhara: Central Asian Jadidism and Local Genealogies of Cultural Change // Jesho (Journal of the Economic and Social History of the Orient), 59 (2016). - P.194.
4. Ходжаев Файзулло. К истории революции в Бухаре. – Ташкент: Узбекское государственное издательство, 1926. – С. 8.
5. Вохидов Ш., Холиқова Р. Марказий Осиёдаги давлат бошқаруви тарихидан. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2006. –Б.34-35.
6. Ходжаев Ф. К истории революции в Бухаре. – Ташкент: Узбекское государственное издательство, 1926. - С.8.
7. Ходжаев Ф. К истории революции в Бухаре. – Ташкент: Узбекское государственное издательство, 1926. - С.8.
8. Россия империяси Ташки сиёсат архиви: РИ ТСА, 147-фонд: Ўрта Осиё столи, 486-рўйхат, 101-иш, варақ 30.
9. Айни. Садриддин. Таърихи инқилоби Бухоро. – Душанбе: Адиб, 1987. – Б.25.
10. Политическое положение Бухарского эмирата и Хивинского ханства в 1917-1920 гг. – СПб.: Петербургское Востоковедение, 2005. - С. 61.

11.Алимова Д., Рашидов У. XIX аср охири – XX аср бошларидаги Бухородаги сиёсий ҳаракатлар ва курашлар. – Бухоро, 2009. – Б.26-27.

UDK: 902 (575.1)

**SAMARQAND TARIXI MANBASHUNOSLIGINI YORITISHDA ZARAFSHON OKRUGI
ISH YURITISH HUJJATLARINING TARIXIY TAHLILI**

N.H. Xushvaqtov

Samarqand davlat universiteti

E-mail: nxushvaqtov1995@mail.ru

Annotatsiya. Ilmiy maqola XIX asrning ikkinchi yarmi Samarqand tarixi manbashunosligini arxiv hujjatlar asosida ilmiy-uslubiy tahlil etishga qaratilgan. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy Davlat arxivi fondida saqlanayotgan Zarafshon okrugi tarixiga oid arxiv hujjatlarning muhim ahamiyatga ega ekanligi aniqlangan. Xususan, okrug mahkamasining ayrim ish yuritish rasmiy arxiv hujjatlarini tarixiy-manbashunoslik asoslari tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar: Samarqand, Zarafshon, okrug, idora, manbashunoslik, arxiv, fond, rasmiy hujjatlar.

**Исторический анализ документов Зарафшанского округа отделения по истории
источников Самарканда**

Аннотация. В статье анализируется история Самарканда во второй половине XIX века на основе архивных документов. Были идентифицированы архивные документы по истории Зарафшанского округа, хранящиеся в Центральном Государственном архиве Республики Узбекистан. Проанализировано историко-исходное исследование официальных архивных документов округа.

Ключевые слова: Самарканд, Зарафшан, округ, архив, фонд, источники, офис, официальные документы.

**Historical analysis of the documents of the Zarafshan district of the department on the history of
the sources of Samarkand**

Abstract. In the article the history of Samarkand in the second half of the 19th century on the basis of archival documents are analyzed. Archival documents on the history of the Zarafshan district kept in the Central State Archives of the Republic of the Uzbekistan were identified. The historical-initial study of the official archival documents of the district is analyzed.

Keywords: Samarkand, Zarafshan, archive, county, fund, sources, office, official documents.

Mamlakatimizda uzoq va yaqin tariximiz haqida ma’lumotlar beruvchi eng ishonchli manbalarni ilmiy jihatdan tahlil qilishga keng miqyosda e’tibor berilmoqda. Natijada, O‘zbekistonning yangi tarixi sahifalari qimmatli va ishonchli ma’lumotlar bilan boyitib borilmoqda.

Tariximizni yoritishda tarixiy manbalarning o‘rni muhim ahamiyatga ega. Yurtimiz hududlari tarixini o‘rganishda, ular haqida qimmatli ma’lumotlar beruvchi arxiv hujjatlarni tarixiy ilmiylik jihatdan tahlil qilish orqali, tadqiqot olib borilayotgan davr haqida yanada ko‘proq va yangi tarixiy ma’lumotlar to‘plash mumkin. Manbashunoslik – tarix ilmining asosiy va muhim sohalaridan biri bo‘lib, turli yozma manbalarni o‘rganish hamda ulardan ilmiy nazariy va amaliy jihatlarini tadqiq etadi.

Samarqand o‘zining qadimiy va boy o‘tmishi bilan insoniyat sivilizatsiyasi tamadduniga hissa qo‘shgan, sivilizatsiyalar chorrahasida joylashgan tarixiy hudud sifatida e’tirof etib kelinmoqda. Samarqandning har bir tarixiy davri bosqichlarini qayta chuqur o‘rganish orqali, tadqiqot asosida topilgan yangi ma’lumotlarni tarixiy tahlil etish usuli asosida hudud tarixi haqida yangi adabiyotlar yaratish tadqiqotning bosh vazifasidir.

Arxivda saqlanayotga tarixiy hujjatlarni ilmiy tahlil qilish asosida Samarqand tarixi manbashunosligining yangi sahifalarini boyitishda va undagi ma’lumotlarni tarixiy tahlil asosida yangi davr adabiyotlari kiritish orqali tarix sahifalarini boyitish tadqiqotning bosh maqsadi hisoblanadi.

Mustamlakachilik davrigacha Samarqand Buxoro amirligi tarkibida bo‘lgan. Bu davrda amirlik hududi qariyb 200 ming kv.km.ni tashkil etgan. Amirlik chegarasi janubda Amudaryoning

chap qirg'ig'idan boshlanib, Sirdaryogacha shimolda qozoq juzlari, sharqda Pomir tog'lari, g'arbda Xiva xonligi bilan chegaradosh bo'lgan. Buxoro va Samarqand shaharlari joylashgan Zarafshon vodiysi amirlikning markaziy hududi hisoblangan [1].

1867-yilda Turkiston o'lkasini idora qilish va boshqarishga qaratilganligi uchun general – gubernatorlik boshqaruvi o'rnatildi. Bosib olingan hududlar ma'muriy-hududiy birliklarga bo'lingan holatda boshqarilgan. K.P.Kaufman 1868-yil 28-iyunda Samarqandda Amir Muzaffar bilan Buxoro amirligini Rossiya imperiyasining protektoratiga (homiyligiga) aylantirgan shartnoma imzoladi. Samarqand bosib olinganidan so'ng Samarqand va Kattaqo'rg'on beklilari birlashtirilib, 1868-yil iyunda Zarafshon okrugi tuzildi. Keyinchalik bu okrugga Panjikent va Zarafshon vodiysi yuqorisidagi tog'li tumanlar qo'shib olinadi [2].

XIX asrning ikkinchi yarmi Samarqand tarixi o'zining hali o'rganilish darajasi yuqoriligi bilan boshqa davrlardan ajralib turadi. Zarafshon okrugi mahkamasi faoliyatida ish yuritish hujjatlari o'zining o'rganilayotgan davrga xos bo'lgan xususiyatlarni batafsil tahlil qilish va aniqlash uchun ahamiyatlidir.

Tahlil etilayotgan tadqiqot mavzuning manbaviy bazasini rasmiy ish yuritish hujjatlari, matbuot va arxiv materiallari, xotiralar tashkil qiladi. Ma'lumotlar ko'lamini jihatidan O'zbekiston Respublikasi Markaziy Davlat arxivining hujjatlari jamg'armasidagi arxiv materiallardan qimmatli ma'lumotlarga ega bo'lishimiz mumkin [3].

Samarqand tarixining yoritilishida O'zRMDA fondida saqlanayotgan 5 –jamg'arma “Zarafshon okrugi arxiv hujjatlari”, 18-jamg'arma “Samarqand viloyati arxiv hujjatlari”, 20-jamg'arma “Samarqand uyezdi boshqarmasi arxiv hujjatlari” dan iborat bo'lib, ushbu jamg'armalarda saqlanayotgan qimmatli arxiv hujjatlar Samarqand tarixini yoritib berishda hujjatlarining mahkama ish yuritish uslubidagi manbaviy ahamiyatini aniqlash muhim ahamiyatga ega.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy Davlat Arxivida Zarafshon okrugi tarixiga oid arxiv hujjatlari beshta kitob(katolog)larda keltirilgan hujjatlar jamlanmasidan iborat. Ular 5-jamg'armada saqlanadi va quyidagilardan iborat:

- 1868-1882-yillarga oid tartib raqami 1-1122 bo'lgan rasmiy hujjatlar;
- 1882-1884-yillarga oid tartib raqami 1123-1549 bo'lgan rasmiy hujjatlar;
- 1885-1881-yillarga oid tartib raqami 1550-2758 bo'lgan rasmiy hujjatlar [4];
- 1881-1886-yillarga (to'rtinchi va beshinchi katolog bitta kitobda jamlangan) oid tartib raqami 2759-3296 bo'lgan rasmiy hujjatlar tarkibidan iborat [5].

Yuqorida biz tahlil qilgan fond hujjatlari ro'yxatlari (katolog) jamlanmasi 1955-1956-yillarda O'zbekiston SSR Markaziy davlat arxivi tomonidan tayyorlangan.

Markaziy arxiv fondida saqlanayotgan okrug mahkamasi ish yuritish rasmiy hujjatlarining ayrimlari ustida tahlil olib borildi. Zarafshon okrugu boshqaruviga oid arxiv hujjatlari 5-jamg'armada 1- tartib raqamli 16-ish yurtish hujjati bo'lib, hujjatning varog'lari miqdori 79 tani tashkil etadi. Hujjatning davriy muddati – 1868-yilning 29-iyunidan to 1871-yilning 24-fevralini o'z tarkibiga qamrab oladi [6]. Davriy chegarsi 1870-yil 2-iyun-1870-yil 31-oktabrga tegishli bo'lgan arxiv hujjatida okrugning tarkibiy qismlari haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Arxiv hujjatlarda keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra, «Zarafshon okrugini boshqarishning Muvaqqat Nizomi» 1868-yil 29-iyunda qabul qilingan. Ushbu arxiv hujjat tahlili natijasida, uning tartib raqami №46 ekanligi ma'lum bo'ldi. Unda okrugni dastlabki boshqarish buyicha qoidalari va boshqaruv organi shtat birliklari tasdiqlangan. Ushbu tarixiy rasmiy hujjat Turkiston general-gubernatori general-adyutant Konstantin Petrovich fon Kaufman (1867-1881) tomonidan imzolangan [7].

1868-yil 22-iyunga tegishli bo'lgan rasmiy hujjatda Turkiston general- gubernatori tomonidan Zarafshon okrugi boshlig'iga «Zarafshon okrugini boshqarish to'g'risidagi» Nizomning 77- bo'limiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish bo'yicha rasmiy buyrug'i bo'lib, unda 77-bo'limning ikki banddan iborat ekanligi va okrug ish yuritish boshqarmasining moliyaviy jihatlar haqida aytib o'tilgan [8].

1869-yil 16-oktyabrga tegishli bo'lgan arxiv hujjati Zarafshon okrugi boshlig'ining ma'ruzasi hisoblanadi. Ma'ruza hisobot shaklida ya'ni okrugni vaqtinchalik boshqarish to'g'risidagi Nizomga tayanilgan holatda yozilgan bo'lib, Turkiston general-gubernatoriga taqdim etilgan. Ma'ruza quyidagi to'rtta yo'nalishlarga bo'lingan tarzda bayon etilgan [9]:

- okrugning boshqaruv idorasi;

- okrugning xo‘jaligi;
- okrugning moliyaviy (arxiv hujjatda bugalteryasi) holati;
- okrugning moddiy holati;

1869-yil 24-oktyabrga tegishli bo‘lgan rasmiy arxiv hujjatida Zarafshon okrugining umumiy shtat birliklari va ularga berilgan oylik maoshlar haqida ma’lumotlar hisoblanadi [10]. Ushbu hujjatni o‘rganish orqali quyidagi ma’lumotlar olindi:

- ushbu rasmiy hujjat okrugni boshqarish to‘grisidagi Muvaqqat Nizomga asoslangan holda tuzilgan;
- okrug ikkita bo‘limdan ya’ni Samarqand va Kattaqo‘rg‘on bo‘limlaridan iborat;
- okrugda jami 34 ta mansabdor faoliyat (vaqtincha shtat birlikda) olib borgan;
- bo‘limlardagi alohida lavozimlar va ularning oylik maoshlari aniq ko‘rsatib o‘tilgan.

Zarafshon okrugi boshlig‘ining ish yuritish idorasiga tegishli 1870-1873-yillarga oid bo‘lgan rasmiy hujjatlar ro‘yxatidan, okrug boshlig‘i tomonidan chiqarilgan rasmiy buyruq va ko‘rsatmalarning aniq muddatlari haqida ma’lumotlar mavjud. Bundan tashqari 5-jamg‘armada okrug bo‘limlari to‘g‘risida va okrugning administratsiyasi to‘g‘risida ma’lumotlar beruvchi ko‘plab rasmiy arxiv hujajtlari mavjud [11].

Tadqiqotda Zarafshon okrugi mahkamasi ish yuritish hujjatlarini tarixiy-manbashunoslik tahlili asosida yoritib berildi va quyidagi ilmiy-nazariy xulosalar chiqarildi:

- Zarafshon okrugi mahkamasi ish yuritish hujjatlari o‘z davrining rasmiy hujjatlari sifatida e’tirof etilganligi;
- Okrug tashkil etilganligi to‘g‘risidagi Nizomning tarixiy hujjat sifatida, o‘rganilayotgan davrni yoritishdagi birlamchi manba sifatidagi ahamiyatining yuqoriligi;
- Okrug tarixiga tegishli bo‘lgan arxiv fondida saqlanayotgan rasmiy hujjatlar miqdorining ko‘pligi, ushbu davrni navatorlik darajasi yuqoriligidan dalolat beradi.

Zarafshon okrugi mahkamasi ish yurituv hujjatlariga tarixiy – manbashunoslik doirasida yondashuv asosida Samarqandning XIX asr oxiri – XX asr boshlari davri tarixining yangi sahifalarini boyitish imkonini beradi. Zero, manbashunoslik – yurtimiz tarixi to‘g‘risida xolis va obyektiv bilim olishga, boy va qadimiy madaniyatimizni o‘rganishga xizmat qiluvchi tarix fanining muhim sohalaridan biridir.

Adabiyotlar

1. Ўзбекистоннинг янги тарихи. 1-китоб. Туркистон чор россияси мустамлакачилиги даврида. Т., «Шарк», 2000, 464-б.
2. Самарқанд тарихи. -Т:”ФАН”, 1-жилд, 484-б.
3. Н.А.Абдурахимова, Ф.Р.Ергашев. Туркистонда чор мустамлака тизими. -Т:”Академия”.2000, 154-б.
4. ЦГА Узб. Канцелярия начальника Зарафшанского округа. Фонд №5. Книга 3.
5. ЦГА Узб. Канцелярия начальника Зарафшанского округа. Фонд №5. Книга 4-5.
6. ЦГА Уз, ф. 5, оп. 1, дело 16, л. 79.
7. ЦГА Уз, ф. 5, оп. 1, д. 1, л. 79.
8. ЦГА Уз, ф. 5, оп. 1, д. 1, л. 18.
9. ЦГА Уз, ф. 5, оп. 1, д. 1, л. 21-29.
10. ЦГА Уз, ф. 5, оп. 1, д. 1, л. 30-32/37-39.
11. ЦГА Уз, ф. 5, оп. 1, д.1-а.

UDK 930.25 (575.1)

SAMARQAND TARIXINI YORITISHDA ARXIV MANBALARINING TAVSIFI (Zarafshon okrugi boshlig‘i mahkamasi materiallari bo‘yicha)

T. Axmedov

Samarqand davlat universiteti

E-mail: tolkinahmedov2015@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada XIX asr ikkinchi yarmi Samarqand viloyati tarixini yoritishda asosiy manbalardan biri hisoblangan Zarafshon okrugi boshlig‘i mahkamasi ish yuritish faoliyatiga oid ayrim hujjatlarining tavsifi berilgan. Juda katta sondagi ishlar orasidan dastlabki tahlil uchun okrugning

tashkil etilishi, chegaralarining shakllanishi va boshqaruvi bilan bog'liq bo'lgan muhim hujjatlar ajratib olingan.

Kalit so'zlar: yo'l ko'rsatkich, jamg'arma, ro'yxat, saqlov birligi, ish, muvaqqat qoidalar, alohida ma'muriy-hududiy birlik, tog'li tumanlar, shtatlar birligi.

**Характеристика архивных источников при освещении истории самарканда
(По материалам канцелярии начальника Зеравшанского округа)**

Аннотация. В данной статье дана характеристика некоторых документов канцелярии начальника Зеравшанского округа, которые являются одним из главных источников при освещении истории Самаркандской области во второй половине XIX века. Из множества дел проанализированы важные документы, связанные с образованием округа, его управления и установлениям его границ.

Ключевые слова: путеводитель, фонд, опись, единица хранения, дело, временные правила, особый административно-территориальная единица, нагорные тюмени, единица штатов.

**Characteristics of archive sources in researching history of Samarkand
(by the files of Office of the Governor of Zarafshan district)**

Abstract. In this article is given characteristics of some documents of Office of the Governor of Zarafshan district which are the main sources in researching history of Samarkand province in second half of XIX century. From the big quantity of files for the primary analyze are selected documents depending with organization of the district, forming of its borders and administration rule.

Keywords: guide-book, fund, list, unity of preserve, file, temporary rules, special administrative-territorial unit, mountainous districts, personnel unity.

Inson, jamiyat, davlat, turli davrlarda va dunyoning turli qismlarida sodir bo'lgan voqealar haqida faqat tarixiy manbalarga tayanibgina ma'lumot olish mumkin. Biroq ularni nafaqat olish, tanqidiy baholash, to'g'ri talqin etish ham lozimdir.

Hayotiy tajriba, kundalik turmush tarzi, turli avlod vakillari o'rtasidagi munosabatlar, urf-odatlar va an'analar, o'z vatani, shahri, qishlog'i, o'lkasi, o'z xalqi yoki etnik guruhi, urug'i yoki oilasining o'tmishini bilish istagi kishilarni hujjatlarga, arxiv ma'lumotlariga, eski buyumlarga, fotolavhalarga va boshqalarga murojaat etishga undaydi [1].

XIX asr 60-yillaridan boshlab Rossiya imperiyasi mustamlakachiligi ostida chuqur siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy o'zgarishlarni boshdan kechirgan Turkiston, uning markaziy hududi bo'lgan Samarqand viloyatining tarixi bilan bog'liq bo'lgan manbalarni o'rganish, tahlil qilish, shu vaqtga qadar ilmiy muomilaga kiritilmagan manbalarni ilmiy jarayonga tortish, O'zbekiston va jahon tarixi fanining qator savollariga javob topish dolzarb vazifalardan hisoblanadi.

Ushbu vazifalarni yechish tadqiqotchilardan so'zsiz Samarqand viloyatining yaqin o'tmishi bilan bog'liq bo'lgan manbalarni topishni, ularni o'rganishni, tahlil etishni, solishtirishni va zamonaviy manbashunoslik fanining tamoyillaridan kelib chiqqan holda to'g'ri va xolisano talqin etishni talab etmoqda.

Yuqorida bildirilgan fikrlardan kelib chiqib, Samarqand viloyatining XIX asr ikkinchi yarmi – XX asr boshlaridagi ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy tarixi bilan bevosita bog'liq bo'lgan arxiv materiallarining qisqacha tavsifini berish lozim. Ma'lumki, 1887 yil 13-yanvarda, 1886 yil 12-iyunda Rossiya imperatori Aleksandr III tomonidan tasdiqlangan "Turkiston o'lkasini boshqarish to'g'risidagi Nizom"ga muvofiq Samarqand viloyati tashkil topdi[2]. Ungacha Samarqand viloyatining bugungi kunda ham asosiy qismini tashkil etuvchi Zarafshon vohasi Zarafshon okrugi deb yuritilgan edi. Zarafshon okrugi Turkiston general-gubernatorligining alohida ma'muriy hududiy birligi sifatida 1868-1886 yillarda mavjud bo'ldi va okrug hayotining turli sohalari bilan bog'liq bo'lgan arxiv hujjatlari O'zbekiston Respublikasi Markaziy Davlat Arxivining I-5 – jamg'armasi[3]da saqlanmoqda.

O'zR MDAning 1948 yilda G.N. Chabrov va N.A. Xalfinlar tomonidan tuzilgan yo'l ko'rsatkichida I-5-jamg'armasida saqlanayotgan saqlov birliklari (hujjatlar) ning umumiy soni 4004 ta ekanligi ko'rsatiladi. Jamg'arma ro'yxatlaridagi oxirgi raqam 4080 bo'lsada, amalda ro'yxatdagi ishlarning soni 3962 tadan iborat.

I-5 – jamg‘armasida saqlanayotgan hujjatlarning ro‘yxatida (1-ro‘yxat) ularning arxiv raqami, ish yuritish raqami, nomi, ish holatida bo‘lgan sanalari va hajmi keltirilgan bo‘lib, ular bilan tanishish natijasida ishlarining quyidagi bo‘limlar bo‘yicha ro‘yxatdan joy olganligini ko‘rishimiz mumkin: 1. Farmon beruvchi; 2. Ssuda; 3. Harbiy-yurish; 4. Xo‘jalik; 5. Jurnal; 6. G‘aznazilik; 7. Hisob-kitob (buxgalteriya);

1868 yildan boshlanadigan ishlar ro‘yxatidagi dastlabki hujjatlarda Zarafshon okrugining tashkil etilishi, uni boshqarish bo‘yicha muvaqqat qoidalar va shtatlar, Zarafshon okrugining Samarqand va Kattaqo‘rg‘on bo‘limlari, shuningdek, okrug va Sirdaryo viloyatining Jizzax uyezdi o‘rtasida chegaralarning belgilanishi va Zarafshon okrugiga Panjikentning qo‘shib olinishi bilan bog‘liq ma‘lumotlar keltirilgan. Jumladan, 1-ish «Zarafshon okrugi boshqaruvi bo‘yicha muvaqqat qoidalar va shtatlar» [4] deb nomlanadi va 79 ta varaqdan iborat. Hujjat 1868 yil 29 iyundan, ya‘ni, Zarafshon okrugini boshqarish bo‘yicha muvaqqat qoidalar o‘lka boshlig‘i fon Kaufman tomonidan tasdiqlangan vaqtdan boshlab, 1871 yil 24 fevralga qadar ish holatida bo‘lgan. 1870-1871 yillarda Zarafshon okrugi tarkibiga Zarafshon daryosining yuqori oqimida joylashgan bir nechta mayda beklklarning qo‘shib olinishi munosabati bilan shu paytgacha amal qilib kelgan muvaqqat qoidalarga ayrim o‘zgartirishlar kiritilgan, deb hisoblash mumkin.

Zarafshon okrugi boshlig‘i mahkamasi 1868 yil sentabrda shakllantirilgan bo‘lib, dastlab quyidagi bo‘limlardan iborat bo‘lgan: 1) Farmon beruvchi; 2) Xo‘jalik; 5) Hisob-kitob (buxgalteriya)[4]. 1869 yilga kelib esa mahkamada farmon beruvchi va xo‘jalik bo‘limlari qoldirilgan[5].

Zarafshon okrugi tashkil topgandan so‘ng zudlik bilan A.K.Abramov raisligida komissiya tuzildi[5]. Komissiya oldiga butun Zarafshon okrugi va uning ikki bo‘limlari chegaralarini aniqlashtirish vazifasi qo‘yilgan bo‘lib, bu to‘g‘risidasi ma‘lumotlarni I-5-jamg‘armasining «Kattaqo‘rg‘on va Samarqand va Jizzax uyezdi o‘rtasidagi chegaralarni o‘tkazish to‘g‘risida» [6] deb nomlangan 2-ishidan topish mumkin. Mazkur komissiyaning taqdimiga ko‘ra, sobiq Samarqand va Kattaqo‘rg‘on beklklari hududlari o‘rnida ikkita bo‘lim tashkil etildi. Samarqand bo‘limi 11 ta aholi manzillarini o‘z ichiga olgan uchta tumandan[4], Kattaqo‘rg‘on bo‘limi esa 16 ta qishloqni birlashtirgan bitta tumandan iborat bo‘ldi[4]. 1868 yil avgust oyining boshlarida Panjikent Zarafshon okrugiga qo‘shib olindi[5]. Bu to‘g‘risida jamg‘armaning «Panjikentning Zarafshon okrugiga qo‘shib olinishi to‘g‘risida» [7] nomi ostida qayd etilgan va 17 varaqdan iborat 3-ishi orqali aniq ma‘lumotlar olish mumkin. Jumladan, ishning 2-varag‘ida Panjikent shahridan tobelik izhor etib va Panjikentni Zarafshon okrugiga qo‘shib olinishini so‘rab vakillar yuborilganligi to‘g‘risida ma‘lumotlar berilgan[7].

1869 yilda Zarafshon okrugi boshlig‘i mahkamasida okrug bo‘yicha topograf lavozimi ta‘sis etildi. U okrugning relfili-topografik xaritasini tuzishi va geologik-qidiruv ishlarini olib borishi lozim bo‘lgan [4]. Bu Zarafshon vohasi Rossiya imperiyasining o‘lkani o‘zlashtirish nuqtai nazaridan katta ahamiyatga ega bo‘lganligi ko‘rsatadi.

1870 yilda Zarafshon daryosining yuqori oqimida joylashgan Matchoh, Kshtut, Falgar va boshqa mayda beklklar okrugning Samarqand bo‘limiga qo‘shib olindi [8]. Bu haqda jamg‘armaning 52 varaqdan iborat «Farob, Mohiyon va Kshtut beklklarining Samarqand bo‘limiga qo‘shib olinishi va ularning okrugga qo‘shib olinishining ahamiyati to‘g‘risida» [9] nomli 35-ishida ma‘lumotlar berilgan. Tez orada okrugning Samarqand bo‘limi tarkibida markazi Panjikent bo‘lgan Tog‘li tumanlar boshqarmasi tashkil etildi[10]. I-5-jamg‘armaning «Tog‘li tumanlar boshqaruvi bo‘yicha ma‘muriyatning yangi shtatlarini tasdiqlash haqida» [11] deb nomlangan 90-ishi bilan tanishish natijasida Tog‘li tumanlar boshqaruvi bo‘yicha shtatlarning sal keyinroq, 1873 yilda tasdiqlanganligiga guvoh bo‘lamiz. Bu yerda Tog‘li tumanlar boshqaruvining o‘zi qachon tashkil etildi, degan savol ochiq qolmoqda.

Zarafshon okrugi boshlig‘i mahkamasining hujjatlari bilan dastlabki tanishuv natijasida quyidagi xulosalarni chiqarish mumkin:

1. Zarafshon okrugi boshlig‘i mahkamasi hujjatlari Samarqand viloyatining yaqin o‘tmishi bilan bog‘liq manbalarning muhim qismini tashkil etadi. Ularni o‘rganish, tahlil qilish va zamonaviy fan talablaridan kelib chiqib talqin etish dolzarb hisoblanadi.

2. O‘zR MDA yo‘l ko‘rsatkichi va I-5 – jamg‘armasi ro‘yxatlarining bugungi holati ularni yangilash lozimligini talab etmoqda. Zero, bu to‘g‘risida Turkiston general-gubernatori mahkamasi ish yuritish faoliyatining etakchi tadqiqotchilaridan B.Ergashev ham o‘z tavsiyalarini berib o‘tgan[12].

3. I-5-jamg'armasida saqlanayotgan hujjatlarning o'rganilishi, ularni ilmiy jarayonga tortish natijasida Samarqand viloyatining 1868-1886 yillardagi ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy tarixi bo'yicha ko'plab yangi ma'lumotlarni qo'lga kiritish, shuningdek, arxiv ma'lumotlarining viloyat tarixini o'rganishdagi ahamiyatini ochib berish mumkin.

Adabiyotlar

1. Источниковедение: Теория. История. Метод. Источники российской истории: Учеб. пособие/ И.Н. Данилевский, В.В. Кабанов, О.М. Медушевская, М.Ф. Румянцева. М.: Российск. гос. гуманит. ун-т, 1998. – 702 с.
2. Положение об управлении Туркестанским краем, Издание 1886, СПб: Государственная типография, 1886 Т.II, Часть 2, стр.1
3. O'zR MDA, I-5 – jamg'arma, Zarafshon okrugi boshlig'i mahkamasi.
4. O'zR MDA, I-5 – jamg'arma, 1-ro'xat, 1-ish
5. Саидкулов Т.С. Очерки историографии истории народов Средней Азии: Учеб.пособие для студ. Ч.1. – Т: Укитувчи, 1992. – 192 с.
6. O'zR MDA, I-5 – jamg'arma, 1-ro'xat, 2-ish
7. O'zR MDA, I-5 – jamg'arma, 1-ro'xat, 3-ish
8. Кастельская З.Д. Из истории Туркестанского края (1865-1917), Изд-во «Наука», – М.,1980. – 122 с.
9. O'zR MDA, I-5 – jamg'arma, 1-ro'xat, 35-ish
10. Центральная Азия в составе Российской империи / [С.Н. Абашин, Д.Ю. Арапов, Н.Е. Бекмаханова]. – М.: Новое литературное обозрение, 2008. -451 с.
11. O'zR MDA, I-5 – jamg'arma, 1-ro'xat, 90-ish
12. Эргашев Б.Э. Делопроизводственная деятельность канцелярии Туркестанского генерал-губернаторства (историко-источниковедческий анализ): /Б.Э.Эргашев. МВССО РУз, Самаркандский гос. ун-т. –Ташкент: Фан, 2015. – 224 с.

УДК: 9 (575.1)

КОНЦЕПЦИЯ НОВОГО ШЕЛКОВОГО ПУТИ: ВЗГЛЯД ИЗ УЗБЕКИСТАНА

А. Муллаев

Институт истории Академии наук Республики Узбекистан

Аннотация. В современных международных отношениях концепция восстановления Великого Шелкового пути выступает в качестве предпосылки для установления многосторонних отношений, развития политических, экономических и культурных связей. В частности, в международных отношениях Центральной Азии важную роль имеет Экономический коридор Великого Шелкового пути. В данной статье на основе официальных источников и научной литературы анализируется инициатива Китая «Один пояс один путь», ее значение и вопросы участия Узбекистана в данном проекте.

Ключевые слова: Китай, Центральная Азия, Великий Шелковый путь, «Экономический коридор Великого шелкового пути», транспортно – коммуникативные связи, устойчивое развитие.

New silk road conception: view from Uzbekistan

Annotation: In modern international relations the concept of restoration of Great Silk Road acts as the preconditions for the establishment of multilateral relations, development of political, economic and cultural ties. In particular, in the international relations of Central Asia play an important role in “Economic corridor of the Silk Road”. In this article, on the basis of official sources and scientific literature analyzes the initiative of China “One belt and one road” and it's participation of Uzbekistan.

Keywords: China, Central Asia, The Great Silk Road, “Economic corridor of Silk Road”, transport-communication partnerships, sustainable development.

Zamonaviy ipak yo'li: O'zbekistondan bir nazar

Annotatsiya: Zamonaviy xalqaro munosabatlarda Yangi Ipak yo'li konsepsiyasi ko'p tomonlama siyosiy, iqtisodiy va madaniy kabi aloqalarda dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Xususan,

Markaziy Osiyodagi xalqaro munosabatlarda Buyuk Ipak yo'lining iqtisodiy koridori muhim ahamiyatga ega. Mazkur maqolada Xitoy tashabbusida amalga oshirilayotgan "Bir yo'l – bir kamar" loyihasi va unda O'zbekistonning ishtiroki rasmiy manbalar va ilmiy adabiyotlar asosida tahlil qilingan.

Kalit so'zlar. Xitoy, Markaziy Osiyo, Buyuk Ipak yo'li, "Buyuk Ipak yo'li – bir makon, bir yo'l", transport-tuzilma hamkorligi, barqaror taraqqiyot

Введение

Двусторонние и многосторонние связи сотрудничества, являются основными факторами развития общества. На протяжении всей истории люди и общества всегда старались налаживать экономические, политические, социальные и культурные отношения на основании чего шло развитие страны в целом. Важную роль в качестве основания и важного толчка для развития взаимных отношений играли правовые документы, международные и межрегиональные организации, а также многосторонние договора и различные проекты. В историческом развитии региональных и международных отношений в Центральной Азии, важное значение приобретал и Великий Шелковый путь. Великий Шелковый путь занял достойное место в истории человечества в качестве своеобразного социально-политического, экономического и культурного института вобравшего в себя все необходимые инфраструктуры. Великий шелковый путь объединял не только соседей по региону, Азию и Европу, но и страны дальнего зарубежья не только экономическими, политическими и культурными связями, но и играло значительную роль в усовершенствовании имеющихся контактов. На сегодняшний день, все большую актуальность в мире приобретает не только исторические, но и современные традиции, Социальные структуры и изучение сущности такого явления как шелковый путь. В частности, в высших учебных заведениях и научных учреждениях развитых стран осуществляют деятельность научные центры специализирующиеся в изучении шелкового пути [1]. Эти учреждения осуществляют свою деятельность в США, Франции, Корее, Японии, Индии, Пакистане, Китае, и изучают историю, и место в современных международных отношениях Великого Шелкового пути.

В конце XX начале XXI века, в современных международных отношениях начало развиваться усовершенствование в рамках концепции Шелковый путь взаимных экономических, политических, культурных, транспортно-коммуникационных отношений между государствами на основании восстановления Великого Шелкового пути. В частности, одним из новшеств в этой области стала концепция нового Великого Шелкового пути через море и сушу выдвинутое Китайской Народной Республикой. Настоящий путь ставит перед собой задачу внедрения в систему современных международных отношений Евразийской интеграции и соседних стран региона, а также Центрально - азиатского региона.

Сущность концепции Нового Шелкового пути

Идея создания нового шелкового пути было объявлено руководителем Китайской Народной Республики Си Цзинпином на встрече руководителей стран Центральной Азии проходившем в Астане в августе 2013 года. После этого, Китайский руководитель 7 сентября 2013 года, в своей речи в парламенте Индонезии [2], вместе с высказыванием своих мнений о шелковом пути, возвел его в ранг концепции на уровне межгосударственных и межрегиональных концепций.

Китай принялся осуществлять этот крупный проект в глобальном масштабе. В частности, Китайская национальная комиссия по развитию и реформам, совместно с министерством иностранных дел и министерством торговли подготовило концепцию «Один пояс – один путь», в рамках концепций «Экономический пояс шелкового пути» и «Морской шелковый путь XXI века». Проект занял место среди проектов новой истории в качестве крупных, глобальных проектов XXI века. В официальных источниках, настоящая концепция упоминается как «Экономический пояс шелкового пути», «Шелковый путь XXI века», «Пояс и путь», «Один пояс – один путь». Кроме того, в китайских официальных источниках, этот проект упоминается как “海上丝绸之路” [3] (yì dài yì lù), в современных источниках на английском языке, упоминается как “One belt and one road”, “The New Silk Road” [4], а в источниках на русском

языке «Экономический пояс Шелкового пути», «Экономический пояс Шелкового пути и Морской Шелковый путь XXI века» [5], на узбекском языке, проект именуется как «Бир камар ва бир йўл».

Предусматривается, что настоящий проект составит основу Китайских экономических и дипломатических отношений с 65 странами Восточной, Южной, Юго-восточной и Центральной Азии, Ближнего Востока, Северной Африки, а также Европы.

Проект предусматривает соответствие дипломатических отношений между странами Азии, Европы, Ближнего Востока и Африки, свободных торговых зон, стандартизацию торговых правил объединению и интеграции финансовой сферы между странами а также развитие программ международных программ по развитию культуры и образования.

Проект современного современный шелковый путь включает в себя 38,5% территории всей планеты земля, соответственно в нее будут привлечены 62,3% всего земного населения, которые способны производить 24% всей продукции производимой 30 % ВВП всех стран [6].

Современный шелковый путь далек от политики, соответственно состоит из множества практических проектов предусматривающих экономическое развитие. Однако, некоторые западные критики рассматривают ее как финансовую экспансию «Экономический коридор Великого Шелкового пути» по инициативе Китая состоит из 5 основных частей, под одной общей стратегической концепцией:

- Экономические связи.
- Объединение транспортных путей.
- Свободная торговля.
- Свободный оборот средств.
- Объединение стран.

Настоящая концепция предусматривает объединение двух сухопутных и двух морских путей, часть его суши начинается в Китайском городе Сиань, и расширяется в сторону городов Ланчжоу и Урумчи. Далее через страны Центральной Азии продвигается к Ближнему Востоку, а затем доходит до Европы. Вторая его морская часть начинается в Китайском городе Гуандун и продвигается к острову Хайнань посредством которой выходит к индийскому океану. Каждую из этих двух путей объединяется в Венеции [7].

Для осуществления настоящего проекта 29 декабря 2014 года, правительством Китая был создан фонд шелкового пути в Пекине [8]. Настоящему фонду были выделены капитальные средства в размере 40 млрд. долл. США [9].

Узбекско-китайские отношения в рамках проекта Нового Шелкового пути

Узбекистан является важным стратегическим и постоянным партнером Китая. Партнерские отношения между Узбекистаном и Китаем признаны в широких международных кругах, что подтверждается рядом партнерских соглашений подписанных между двумя странами в рамках дружественных и обоюдоуважаемых отношениях. 27 декабря 1991 года Китай признал независимость Республики Узбекистан [10].

После этого, 2 января 1992 года, в ходе визита в Узбекистан министра внешней торговли и экономического сотрудничества КНР Ли Лянцзина, между двумя странами был подписан протокол [11] о создании дипломатических отношений между двумя странами. После этого, в Ташкенте и Пекине были организованы посольства двух стран [12].

За годы независимости Республики Узбекистан, дружественные и партнерские отношения Узбекского и китайского народа продолжались и появилась возможность активной внешнеполитической деятельности. Между Узбекистаном и Китаем установлены политические, торгово-экономические, кредитно-финансовые и культурно-гуманитарные партнерские взаимоотношения. Начала развиваться атмосфера активного политического общения основанного на взаимном доверии, открытости и уважении между странами в системе современных международных отношений. В частности 23 декабря 2013 года, был принят «Закон Республики Узбекистан о ратификации контракта о дружбе и сотрудничестве между Республикой Узбекистан и Китайской народной республикой» (9 сентября 2013 года, Ташкент) [13].

Взаимные визиты глав государств в первую очередь, а также всех делегаций разных уровней будучи важным этапом взаимного сотрудничества послужили расширению и

углублению узбекско-китайских отношений. В целях расширения связей сотрудничества между двумя странами и создания основ нового этапа развития узбекско-китайских отношений, Первый Президент Республики Узбекистан И.Каримов семь раз побывал с официальным и государственным визитом в Китае. В частности, в 1992, 1994, 1999, 2005, 2011, 2012 и 2014 годах [14].

Кроме того, Республика Узбекистан является постоянным участником саммита Шанхайской организации сотрудничества. В рамках концепции современного шелкового пути, Узбекистан заинтересован в партнерских отношениях с Китаем. Кроме того, правительство Китая при осуществлении проекта концепции шелкового пути исходит из интересов каждой страны прохождения этого маршрута. В рамках осуществления этого проекта активно участвует в инфраструктуре стран Центральной Азии, в частности незаменимую помощь в строительстве железной дороги «Ангрен-Пап» оказало правительство Китая, поскольку железная дорога «Пап-Ангрен» служит развитию Ферганской долины, а также созданию транзитных железных, международных путей Китая – Центральная Азия – Европа. С этой целью, с 2013 года, по 22 июня 2016 года инженерами Узбекистана и Китая была запущена железная дорога «Ангрен-Пап» [15]. Настоящий огромный проект стоимость которого равна 1 миллиарду, 635 миллион долларов США, принимали участие более 1 000 рабочих – специалистов, 3 000 железнодорожников, 300 рабочих электромонтажников китайской компании «China Railway Tunnel Group». В части железнодорожного пути «Ангрен - Поп» проходящего через Камчикский перевал длиной 123, 1 километра, 19,2 километра составляет туннель [16].

Разработка электрифицированной железнодорожной линии «Ангрен - Поп» проходящий через Камчикский перевал и расположенный на высоте 2,200 метров над уровнем моря, создает возможности перевозки пассажиров и груза между регионами ферганской долины и остальной частью Республики Узбекистан. Вместе с этим, он служит важной веткой транзитного железнодорожного коридора Китай-Центральная Азия-Европа [17].

Также, Китай активно развивает с близлежащими странами партнерские отношения в области энергетики, транспорта и торговли. В частности, примером тому может служить важный энергетический проект между Китаем и Центральной Азией предусматривающий проведение газопровода длиной 1760 километров, по которому туркменский газ через территорию Узбекистана и Казахстана будет поставляться в Китай. Узбекистан имеет важное стратегическое значение по экономическому потенциалу в образовании экономического коридора Великого Шелкового пути [18], именно поэтому отношения между Китаем и Узбекистаном поднимаются на новый уровень, в частности уровень товарооборота между двумя странами в 2015 году достиг 5028,7 миллиона долларов США [19].

Важную веху в плане современного шелкового пути составляет железнодорожная ветвь Узбекистан-Кыргызстан-Китай. Железная дорога Узбекистан-Китай-Кыргызстан соединяет Китай со странами Центральной Азии, Афганистана, Ирана с Восточной Европой через Турцию, то есть район Кашгар расположенный в провинции Хинжиян Китая будет соединен через Кыргызстанский Карасув с Андижанской областью Республики Узбекистан, а через нее путь будет пролегать до Турции через которую железнодорожная ветвь будет соединена с Европой. В случае успешного претворения в жизнь настоящего проекта Узбекистан превратится в важную транзитную точку в регионе. Именно по этой причине во время встреч в Самарканде в декабре 2016 года Президента Республики Узбекистан Ш.Мирзиёева и Президента Кыргызстана А.Атамбаева были рассмотрены актуальные проблемы взаимоотношения двух стран, в частности обсужден проект в рамках Экономического пояса Шелкового пути [20].

В странах, традиционно располагавшихся на историческом и современном шелковом пути, на сегодняшний день проживает около 2 миллиардов человек, что еще раз доказывает широкий экономический потенциал этого проекта. В частности, Узбекистан расположенный в экономическом и культурном центре Центральной Азии активно участвует в проекте «Экономический коридор Великого шелкового пути» и предусматривает достижение хороших результатов в сфере международной торговли и экономических отношений. Это в свою очередь дает возможность превращения таких городов Узбекистана как Ташкент, Самарканд, Фергана и Бухара в крупные экономические и логистические центры центральной Азии.

На страницах газеты “Жэньминь жибао” имеющей 300 миллионов интернет – пользователей и публикуемым тиражом три миллиона газету, отмечаемым средствами массовой информации Китая и Узбекистана, Самарканд отмечен в качестве индустриального и инновационного центра Великого Шелкового пути. А столица Республики Узбекистан город Ташкент, исходя из большого транспортно-коммуникационного, производственного и научного потенциала является сердцем настоящей сети. Кроме того, еще одно крупное китайское издание, газета «Global Times» объявил о запуске новой страницы, в которой собрана информация о городах расположенных на великом шелковом пути, в странах Центральной Азии. На этой странице были также размещены фоторепортажи о деятельности промышленных предприятий организованных совместно с китайскими предпринимателями в специальной индустриальной зоне «Джизак», а также фотографии площади Регистан. Как отмечают зарубежные эксперты, настоящие факты служат для получения более широкой информации, об экономических и инвестиционных возможностях Узбекистана [21].

Взаимоотношения в рамках ШОС

Узбекистан осуществляет активную сотрудническую деятельность и в рамках международных региональных организаций, экономических и финансовых структур Китая. В частности, между Узбекистаном и Китаем установлены отношения в рамках крупных международных организаций, таких как ООН и ШОС. Узбекистан являлось активным членом ШОС неоднократно выступает с актуальными, региональными инициативами в рамках организации. Республика Узбекистан принимает участие в деятельности настоящей международной организации с момента подписания соглашения о входе в состав организации в июне 2001 года.

Узбекистан является сторонником неукоснительного осуществления правил готовности развития международного сотрудничества, не противодействия другим странам и организациям, а также открытости в рамках проекта ШОС. Кроме того, Узбекистан поддерживает деятельность ШОС в борьбе против международного терроризма, экстремизма, сепаратизма и наркобизнеса. 1 января 2004 года, было принято решение о начале работ в городе Ташкенте исполнительного комитета МАТТ и в городе Пекине секретариата ШОС, то есть органов, осуществляющих постоянную деятельность организации. Кроме того, Узбекистан три раза являлся председателем ШОС с момента образования данной организации в 2003-2004, 2009-2010 и 2015-2016 годах. Еще одним из актуальных направлений деятельности ШОС является развитие транспортно-коммуникационных региональных сетей. По этому поводу, в рамках международного транспортного направления Е-40 становится необходимым доведение до конца реконструкции автомобильных дорог. Узбекистан практически полностью выполнил свои обязательства по реконструкции части транспортного пути Е-40 проходящего через его территорию [22].

Узбекистан заинтересован в создании регионального и глобально – стабильной транспортной системы. По этой причине, страна активно участвует во всех проектах и концепциях по восстановлению Великого Шелкового Пути, и развитию транспортной системы.

В частности, по этой причине, были разработаны резолюция № 70/197 от 22 декабря 2015 года, генеральной ассамблеи ООН, а также проведена первая глобальная конференция на тему развития стабильной транспортной системы в городе Ашхабад являющейся столицей Республики Туркменистан 26-27 декабря 2016 года по предложению генерального секретаря ООН. На этом мероприятии участвовали также представители Республики Узбекистан, которые ознакомили присутствующих с рядом позиций страны по стабильной региональной транспортной системе. В частности, Узбекистан, сообщил о своем активном участии в рамках проекта и поддержки экономического коридора Шелкового Пути по инициативе Китая, о стабильной транспортной системе.

Кроме того, Узбекистан является активным инициатором осуществления проекта железной дороги Узбекистан-Туркменистан-Оман, подписанный в августе 2011 года в Ашхабаде. 6 марта 2017 года, Президент Республики Узбекистан Ш.Мирзиёев, побывал с государственным визитом в Республике Туркменистан, и в качестве практического подтверждения своих намерений подписал контракт и участвовал в мероприятии официального открытия автомобильного и железнодорожного моста через Амударью [23].

Заключение

Узбекистан исторически и до современных дней располагается на важной геополитической и геоэкономической территории. Именно по этой причине, Узбекистан активно участвует в современных международных отношениях в качестве страны с важным геостратегическим значением в Центральноазиатском регионе. Это в свою очередь, служит всесторонней интеграции, престижными международными организациями и развитыми странами мира, интеграции нашей страны в мировое сообщество в рамках региональных и глобальных международных отношений. В этой связи, следует отметить, что Республика Узбекистан, укрепляет основы внешнеполитической деятельности на национальном законодательном уровне. В частности, указы Президента Республики Узбекистан о действиях по развитию страны принятое 7 февраля 2017 года, а также концепции внешнеполитической деятельности, принятое в августе 2012 года, являются одним из этапов на этом пути. В частности, в качестве главенствующих направлений развития Республики Узбекистан 2017-2021 годов, в качестве пятого направления стратегии деятельности, указано «Укрепление международного престижа страны формирования атмосферы добрососедства, стабильности и безопасности отношений с соседями, укрепления суверенитета и независимости нашей страны направленное на осуществление внешнеполитической деятельности в духе взаимных интересов, глубоко продуманных обеспечением религиозной толерантности, международной безопасности и стабильности» [24].

В качестве активного инициатора концепции экономического коридора шелкового пути, Узбекистан является сторонником развития современных международных отношений, экономического взаимовыгодного пространства процессов региональной и глобальной интеграции.

На наш взгляд, активное участие Республики Узбекистан в экономическом коридоре великого шелкового пути по инициативе китайской стороны, служит дальнейшему экономическому развитию страны, что проявляется следующим:

Во-первых, данный проект сможет помочь на новых этапах многостороннего сотрудничества с соседями Центральноазиатского региона, в качестве крупного исторического проекта XXI века.

Во-вторых, служит развитию экономической и хозяйственной интеграции в международном сообществе, создавая возможности выхода на мировой рынок страны, в рамках данного проекта.

В-третьих, страна будет иметь возможность важного развития и создания стабильной транспортной системы центральной азии и на территории Республики Узбекистан в рамках экономического коридора великого шелкового пути.

В-четвертых, будет служить укреплению дружественных, культурных, политических и экономических отношений между странами проекта, охватившего 65 стран мира.

В заключении можно сказать, что Республика Узбекистан, исторически и сегодня служит укреплению престижа этого проекта в качестве активного участника стратегического проекта, как страна имеющее важное геополитическое и геоэкономическое значение в Центрально Азиатском регионе и на пути Великого Шелкового пути.

Литература

1. www.silkroadstudies.org/; www.silkroadcentre.org/; www.silkroad.iaau.edu.kg/
2. http://www.asean-china-center.org/english/2013-10/03/c_133062675.htm
3. <http://maritimesilkroad.org.hk/tc>
4. Theresa Fallon. The New Silk Road: Xi Jinping's Grand Strategy for Eurasia. // American Foreign Policy Interests, 37:140–147, 2015. ; Alexander Cooley. One Belt, One Road, Many Headaches: The Economic, Political, and Social Challenges of OBOR in Central Asia. //The Central Asia Security Workshop. Washington. CAP Papers 159. March 8, 2016. P.4-7. ; Antoine Bondaz . One belt, one road": China's great leap outward. Paris. 2015. P.18.; One Belt One Road: Insights for Finland. //Helsinki. Team Finland Future Watch Report. January 2016. P. 21.

5. Шаймергенов Т. Экономический пояс Шелкового пути: большой проект, большие вопросы. // Индекс безопасности № 3 (114), Том 21. С.121-126.; Островский А.В. Китайский проект “Экономический пояс Шелкового пути”. Как путь к международному экономическому сотрудничеству. // Азия И Африка сегодня. № 2. 2016. С. 8-12.
6. Helen Chin, Winnie He. The Belt and Road Initiative: 65 Countries and Beyond. // Hong Kong. Fung Business Intelligence Centre. May 2016. P.2.
7. “One Belt, One Road”: an economic roadmap. // The Economist Corporate Network Asia, Beijing, Hong Kong, Jakarta, Kuala Lumpur, Seoul, Shanghai, Singapore, Tokyo. 2016. P.3.
8. <http://www.silkroadfund.com.cn/enweb/23773/index.html>
9. <https://www.gfmag.com/magazine/february-2017/china-seeks-build-silk-road-project-finance>
10. <http://mfa.uz/uz/cooperation/countries/199/> (15.01.2017)
11. http://www.lex.uz/pages/getpage.aspx?lact_id=2612590&twolang=true (16.12.2016)
12. http://lex.uz/pages/getpage.aspx?lact_id=1658828&twolang=true (16.12.2016)
13. http://lex.uz/pages/getpage.aspx?lact_id=2299436&twolang=true (22.01.2017)
14. Рахимов М., Рахматуллаев Ш., Турсунова Р., Назаров Р. Очерки новейшей истории Узбекистана. Т.: Адабиёт учкунлари. 2015. С. 298.
15. Mirzokhid Rakhimov. The Pap-Angren Railway and Its Geoeconomic Implications for Central Asia.//<https://www.cacianalyst.org/publications/analytical-articles/item/13354-the-pap-angren-railway-and-its-geoeconomic-implications-for-central-asia.html> (28.02.2017)
16. <http://www.railwaygazette.com/news/infrastructure/single-view/view/two-presidents-open-angren-pap-railway.html> (25.02.2017)
17. <http://uza.uz/oz/politics/angren-pop-elektrlashtirilgan-temir-y-li-strategik-amkorlikn-23-06-2016> (26.01.2017)
18. Korpakar R. 25 Years of Uzbekistan-China Relations: Enhanced Economic Engagements marked by Political Understanding.//<http://www.vifindia.org/article/2017/february/16/25-years-of-uzbekistan-china-relations-enhanced-economic-engagements-marked-by-political-understanding> (25.02.2016)
19. Обзор состояния экономики и основных направлений внешнеэкономической деятельности Республики Узбекистан. // Торговое представительство российской в Республике Узбекистан, г. Ташкент. 2016 год. С.106.
20. <http://podrobno.uz/cat/economic/EEK-zheleznaya-doroga-iz-kitaya-v-uzbekistan-budet-prodolzhena/> (02.03.2017)
21. “Народное слова” 7 июль.2014 год
22. “Народное слова” 5 июнь 2010 год.
23. <http://uza.uz/oz/politics/zbekiston-va-turkmaniston-strategik-sherik-davlatlar-06-03-2017> (07.03.2017)
24. Сборник документы закони Республики Узбекистан. –Ташкент: 6-сон. 13 февраль 2017 год. – С.25-15.

UDK: 9(575,1)

BUXORO XATTOTLIK MAKTABINING ASOSCHILARI (XV-XVI ASRLAR)

H. X. Djuraev

Buxoro davlat universiteti

Annotatsiya. Ushbu maqolada O‘rta Osiyoda xattotlik san’atinig keng taraqqiyoti Temur va temuriylar davridan boshlanib, husnixat san’ati dastlab Xuroson poytaxti Hirotda rivojlanib, u erdan Buxoroda xattotlik maktabining shakllanishida va dastlabki vakillari husnixatda mohir xattotlarning muxtasar hayot faoliyati haqida yozma manbalar hamda ilmiy adabiyotlar tahlili orqali fikr mulohazalar bildirilgan.

Kalit so‘zlar: Temuriylar, Hirot, O‘rta Osiyo, Buxoro, Samarqand, maktab, xattot, Mir Ali Tabriziy, Sulton Ali Mashhadiy, Mir Ali Xiraviy, nasta‘liq, qog‘oz, qalam, qo‘lyozma, miniatyura, kitobat san’ati va kutubxona.

Аннотация. В данной статье идёт речь о широком распространении в Средней Азии искусства каллиграфии с начала времен Тимур и тимуридов, развития искусства каллиграфии началось со столицы Хуросона в Герате, затем искусство перешло в Бухару где образовались школы каллиграфов. Автор делится своими рассуждениями о письменных источниках и научной литературы представителей школ каллиграфии.

Ключевые слова: Тимуриды, Герат, Средняя Азия, Бухара, Самарканд, школа, каллиграф, Мир Али Табризи, Султан Али Машхади, Мир Али Хирави, насталик, бумага, карандаш, рукопись, миниатюра, искусство книгописания и библиотека.

Abstract. The article is about development of the art of calligraphy in Central Asia, where it started in the edge of Temurids in Hirat, capital of Khuroson, and developed through to Bukhara. This article also states the stages of calligraphy development in Bukhara and discusses both handwritten and scientific evidences of the lives of talented calligraphers of Bukhara.

Keywords: Temurids, Hirat, Central Asia, Bukhara, Samarkand, school, calligrapher, Mir Ali Tabriziy, Sulon Ali Mashhadiy, Mir Ali Hiraviy, naskh, paper, pencil, manuscript, miniature, art of book writing and library.

XIV-XV asrlarda Temuriylar hukmronligi davrida O'rta Osiyoda qisqa muddatli bo'lsa ham markazlashgan davlati tashkil topib, mamlakat hayotida iqtisodiy, siyosiy va madaniy hayotga yuksalish ro'y berdi. Ayniqsa, XV asr Hirotda, Samarqandda O'rta Osiyo xalqlari madaniyati yuksaklikka ko'tarildi. Mirzo Ulug'bek, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Xondamir, Kamoliddin Behzod, Sulon Ali Mashhadiy va Mirzo Bobir bu davrning buyuk aql egalari bo'ldilar.

Temuriylar davrida bugungi Afg'oniston, Eron hamda O'rta Osiyo bir davlat sifatida Temur farzandlari tomonidan idora etilgani uchun turkiy xalqlar, shu jumladan, o'zbek xalqi madaniyati qisman Xurosonda, ayniqsa, uning poytaxti bo'lmish Hirotda taraqqiy etadi. XVI asr shayboniylar davridan boshlab Buxoro, Xiva va Qo'qon kabi madaniy markazlarda to XIX asrgacha Hirotda xattotlik maktabi husnixat san'atida yuksak namuna hisoblangan. So'nggi to'rt asr davomida Buxoro, Xiva, Samarqand va Qo'qonda tashkil topgan, taraqqiy etgan xattotlik maktablari, asosan, Mir Ali Tabriziy, Sulon Ali Mashhadiy, Muhammad bin Nur, Darvesh Muhammad Toqiy va Mir Ali Hiraviy kabi san'atkor xattotlardan ta'lim olib, ularning eng yaxshi an'analarni davom ettirish natijasida yuqori kamolot bosqichiga ko'tariladi.

XIV asrdan boshlab O'rta Osiyo va Xurosonda katta iqtisodiy va siyosiy o'zgarishlar ro'y beradi, ayniqsa XIV asrning so'nggi choragida Temur imperiyasining barpo bo'lishi munosabati bilan O'rta Osiyo xalqlari madaniy hayotida ma'lum ko'tarilish boshlandi. Yozma adabiyot, kitobat ishlari va bular bilan uzviy bog'liq bo'lgan husnixat san'ati ham rivojlanib boshlaydi.

Xuroson va Movarounnahrda XV va XVI asrlarda me'morchilik san'ati keng taraqqiy etgan. Temur va temuriylar davrida bunyod qilingan Samarqand, Hirotda, Balx, Mozori Sharif, Xiva, Buxoro va boshqa shaharlardagi madrasa, masjid, maktab, xonaqoh va turli xil jamoat binolari, saroylar, ulug' zotlar maqbaralarining naqshini tashkil qilgan asosiy badiiy omillardan biri husnixat san'atidir. Biz Buxoro, Samarqand va Hirotda shaharlaridagi o'rta asr binolariga ko'z tashlar ekanmiz, ulkan binolarning gumbazlari, peshtoqlari va binoning ichki bezaklarida husnixat asosiy o'rinlardan birini ishg'ol etganini ko'ramiz. Kishi ko'zini qamashtiruvchi koshinlar orasiga yozilgan turli o'lchov, rang-barang bo'yoqlardagi yozuvlar o'zining rang, chiziq va shakliy mutanosibligi, jozibadorligi bilan kishini maftun qiladi.

O'rta Osiyoda xattotlik san'atini keng taraqqiyoti Temur va temuriylar davridan boshlanadi. Husnixat san'ati dastlab Xuroson poytaxti Hirotda rivojlanib, u erda Sulon Ali Mashhadiy boshliq yirik xattotlik maktabi tashkil topadi. Maktabning o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, bu erda asosan, XIV asrda Mir Ali Tabriziy yaratgan nasta'liq xat uslubi Sulon Ali Mashhadiy tomonidan takomillashtiriladi. Bu uslub yirik va mayda nasta'liq kitobat ishlarida keng qo'llanib, badiiy va tarixiy asarlar faqat nasta'liq xatida kitobat qilingan. Diniy va ba'zi ilmiy asarlar esa nasx xatida ko'chirilgan. Kufiy, riqo', suls, va nasx xatlari esa ko'proq me'morchilik, naqqoshlik san'atida va SHarq epigrafiyasida ishlatilgan [1].

Amir Temur davlatni yuksaltirishda ilmu fanning ahamiyati beqiyosligini yaxshi bilgan. Shu sababli olimu ulamolarga katta izzat-ikrom ko'rsatgan. Amir Temur dastlab Shahrisabzda, so'ng Samarqandda qo'lyozma kitoblar to'plangan kutubxonalar barpo etgan [4]. Sohirqironning Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlariga qilgan yurishlari vaqtida qo'lga kiritilgan nodir qo'lyozma asarlar, qimmatbaho o'ljalari qatorida Samarqadga keltirilgan. Samarqand kutubxonasida papirus qog'oz o'ramlari, bobilcha sopol lavhalar, javohir bandakli kitoblarga jamlangan. Amir Temur vafotidan so'ng ushbu kutubxona Mirzo Ulug'bek ixtiyoriga o'tgan. Ulug'bek davrida kutubxona mashhur asarlar bilan boyigan. Unda ja'mi 15 ming jildlik kitob saqlanganligi haqida ma'lumotlar bor.

Samarqand kutubxonasi o'rta asrning o'ziga xos hunarmandchilik korxonasi bo'lib, ularda qo'lyozma asarlarni to'plash va saqlash bilan birga, ulardan nusxalar ko'chirish, turli manzarali rangor-rang tasvir va naqshinkor lavhalar bilan sahifalarini bezash hamda muqovalash kabi kitobsozlik bilan bog'liq bir qancha amaliy ishlar bajarilgan. Bunday saroy kutubxonalarining boshliqlari "kutubxona dorug'asi" yoki "kitobdor" atalib, uning qo'l ostida ko'plab xushnavis xattot, qo'li gul naqqoshu musavvirlar, mohir lavvohu va sahhoflar kitob yaratishga oid turli buyurtmalarni bajarganlar.

XV asrning 1- yarmida Hirotda Ulug'bekning ukasi Boysung'ur ustaxona-kutubxonasida 40 dan ziyod xattot va bir qancha naqqosh qo'lyozma asarlardan nusxalar ko'chirish va ularni bezash bilan band bo'lgan. Har bir qo'lyozma kitob bir necha mutaxassis qo'lidan o'tardi. 1421-1929 yillarda shu ustaxona-kutubxona boshlig'i Ja'far Boysung'uriy tomonidan Abulqosim Firdavsiyning mashhur "Shohnoma" asari ko'chirtirilib, u 20 ta turli mazmundagi rangdor miniatyuralar bilan bezatilgan. Noyob san'at asari hisoblangan bu kitob Tehron muzeyida saqlanmoqda [8].

XV- asrning 2- yarmida Hirotda kitobat san'ati yanada rivoj topadi. Husayn Boyqaro va Alisher Navoiy saroy kutubxonasini nodir asarlar bilan boyitishga g'oyat g'amxo'rlik qiladilar. Alisher Navoiy o'zbek xalqi ma'naviy xazinasini boyitgan asarlar yozish bilan birgalikda badiiy qo'lyozma san'atini yanada rivojlantirishga katta hissa qo'shdi. Uning bevosita ko'magi bilan Kamoliddin Behzod, Sulton Ali Mashhadiy, Shoh Muzaffar kabi o'nlab kitobsoz-ustalar etishib chiqdi. Navoiyning ukasi Darveshali Devonxona kutubxonasining dorug'asi etib tayinlanadi. U kutubxonaga Hirotning ko'plab xushnavis kotibu xattotlarini va mohir naqqoshu musavvirlarini to'playdi. Hirotning mashhur xattotlaridan Sulton Ali Mashhadiy va Mirali kotiblar Sulton Husayn va Alisher Navoiy buyurtmalari bilan ko'plab kitoblarni ko'chirib, nusxalarini ko'paytirganlar. Boburning yozishicha, birgina Sulton Ali Husayn Boyqaro uchun har kuni 30 bayt va Navoiy uchun 20 bayt kitob sahifasiga ko'chirilgan ekan. Bu davrda ayniqsa, Sulton Ali Mashhadiyning shogirdi Rafiqiy taxallusi bilan shuhrat topgan Mirali kotib o'rta asrning bu beqiyos nozik san'ati sohasida katta muvaffaqiyatlar qozongan edi.

Hirotni xattotlik maktabi. Hirotni Xurosonning eng katta va mashhur shaharlaridan bo'lib, olimlar, fozillar, shoirlar va xattotlar bilan to'lgan xushmanzara bog'-bo'stonlari, turli meva va suvlarining ko'pligi bilan shuhrat qozongan [5].

Sulton Boysung'ur Temuriy shahzodalardandir. U 35 yoshida 1427 yilda vafot etgan. "Davlatshoh tazkira"da ko'rsatilishicha, uning kutubxonasida 40 nafar mashhur xattotlar tun-kun kitobat bilan shug'ullanar edilar. Xattotlik, zarafshonlik, oltin hallash, naqsh, lavha, rasm, miniatyura va boshqa badiiy san'atlar ishlash Boysung'ur davrida ravnaq topgan. Istanbulning har bir kutubxonasida hech bo'lmaganda bir nusxa uning davrida ko'chirilgan asar mavjud. Sulton buyrug'i bilan ko'chirilgan qo'lyozmalardan "Faraj ba'da shiddat"ning tarjimai va "Nusxat ul-arvoh" kitobi diqqatga sazovordir.

Eronliklarning aytishicha, to'rt kishi to'rt xatda - suldsda Boysung'ur Mirzo, ta'liqda Mir Imod, nasxda Mirzo Ahmad, shikasta xatda Darvesh Abdulmajid Talqoniy ustod emish.

Badiuzzamon Mirzo (1506-1507 hukmronlik yili) Sulton Husayn o'g'illaridan bo'lib, Shayboniyxon qo'lidan qochib, (XVI- asrda Muhammad Shayboniyxon podshohlik taxtini egallab, Balxni Mirzo Badiuzzamon bin Sulton Husayn mirzo tasarrufidan olib, Hirotni hamda butun Xurosonni o'zining tasarrufiga kiritdi) [7] Ismoil Safaviydan [7] panohtilagan. 1514 yilda vafot etgan.

Badiuzzamon turli xatlarda ustod bo'lib, ayniqsa, nasta'liq xatida g'oyat go'zal yozar edi.

Xoja Mir Ali Tabriziy nasta'liq xatining ixtirochisi (voze') - "Qiblat ul-kuttob" (kotiblarning oldingisi) degan laqab bilan shuhrat qozongan. U nasta'liq xatiga xos bir ravish bilan olti turli xat asosida alohida xat ixtiro qilishga kirishgan nomdor xattotdir. Sulton Ali Mashhadiy uning haqida tubandagi so'zni aytadi:

"Qalami mayda, yirik bo'lgan nasta'liq xatini ixtiro qiluvchi Xoja Mir Alidir. Dunyo va inson vujudga kelgandan beri bu xat bo'lmagan edi. U nasta'liqni nasx va ta'liq xatidan olib, o'tkir zehni va

ilohiy qobiliyati bilan ixtiro etdi. Uning qamish qalamidan shakar tomardi, chunki xattotning joyi Tabrizning toza tuprog'idandir",-deb hurmat bildirgan.

Mir Ali zamonigacha ta'liq xati qo'llanardi. Devon, risolalar va maktublar ta'liq xati bilan ko'chirilayotgan bir vaqtda Mir Ali Tabriziy nasta'liq xatini ixtiro qiladi hamda ta'liq xatiga nasx qalamini uradi. SHuning uchun ham xatiga "nasxi ta'liq" nomi berilib, engillik uchun "nasta'liq" deb atalgan.

Mir Ali Tabriziy Temur davrida (1369-1405 yillarda) yashagan. Uning shogirdlaridan ikki kishi - biri mavlono Ja'far Shohruh mirzo zamonida xushxatlikda nom chiqargan. Ikkinchisi, Mir Abulhay kitobat san'atida, insho va tahrirda tengi yo'q kotib bo'lib, sulton Abu Sa'id zamonida inshonavislik shu kishiga topshirilgan edi [11].

Sulton Ali Mashhadiy o'zini Mir Ali Tabriziyning shogirdi deb hisoblagan va nasta'liq xati uslubini klassik darajaga ko'targan yirik san'atkor xattotlardan eng mashhuri Sulton Ali Mashhadiy bo'lgan (836/1432-33 yilda tug'ilib, 926/1513-20 yilda vafot etgan) [1].

XVI asrda [2] Temuriylar saltanati inqirozga yuz tutib, siyosiy hukmronlik Shayboniylar [6] qo'liga o'tishi bilan Buxoroda madaniy hayot ma'lum darajada taraqqiy topadi. Hirot xattotlari, rassomlari va madaniyat arboblardan bir qismi Buxoroga ko'chib o'tdi [6]. U erda Buxoroning o'ziga xos bo'lgan yangicha kitobat va husnixat san'ati rivoj topadi. XVI va XVII asrlarda yashab ijod etgan Buxoro xattotlari husnixat bobida o'ziga xos uslub - Buxoro xattotlik maktabini yaratadilar.

Buxoro xattotlik maktabi. Bu maktab XVI-XVII asrlarda taraqqiyotning yangi bosqichlariga ko'tariladi. Bu erda xattotlik san'ati tez rivojlanib, mashhur xattotlar etishib chiqadi. Bu davrda Buxoroda madaniy hayot ma'lum darajada taraqqiyot pillapoyasiga ko'tariladi. Hirot xattotlari va musavvirlaridan bir qismi Buxoroga keladi. Buxoroning o'ziga xos bo'lgan yangicha kitobat va husnixat san'ati rivoj topadi. XVI-XVII asrlarda yashab ijod etgan Buxoro xattotlari o'ziga xos uslub - maktab yaratadilar. Tarix sahifalarida Mir Ali Hiraviy Fathobodiy, Mirzo Ismatulloh Munshiy, Sodiq Munshiy Jondoriy, Mir Ma'sum Buxoriy, Avaz Badaliy Buxoriy, Hoji Yodgor [6], Abdulmajid Mahdum Buxoriy, Subhonquli, Muhammad Rizo Namadiy, Mirzo Mavlon Buxoriy, Mirzo Muhammadjon, Mirzo Ishoq kabi zarrinqalam sohiblari - mohir xattotlarning nomlari tez-tez uchrashi buning yorqin dalilidir. O'sha davrda Buxoroda kufiy, suls, g'ubop, nasx, nasta'lik va xatlari juda rivojlanadi.

XVI-XVII asrlarda Mir Ubayd Buxoriy (vaf. mil. 1601 y.) tomonidan Buxoroda nasx xati asosida yangi xat ravishi "Nasxi Buxoriy" ("Mir Ubaydiy") xati ixtiro qilinadi. Bu xat nasx xatidan ko'ra kattaroq (yirikroq) bo'lib, u jozibadorligi va mo'jizakorligi bilan har qanday kishini ham o'ziga maftun etadi.

Buxoro shahrida 360 tadan ortiq masjid, 138 ta maktab-madrasalarida bir yilda 20 mingdan ziyod talabalar diniy-dunyoviy fanlardan tahsil olishardi. Buxoro amirligida xattotlik va kitobat maktablari faoliyat ko'rsatardi.

Buxoroda yashab o'tgan olim Sharifjon Mahdumning "Tazkirai xushnavison", Qozi Ahmadning "Xattotlar va musavvirlar haqida risola" asarlari va ulardan keyingi avlodlarga qoldirilgan ishlarning davomi sifatida ushbu tadqiqot Buxoro xattotlik maktabini yaratib va yuzdan ziyod mashhur mohir xattotlari So'fi Buxoriy, tirnoq bilan qog'ozni bo'rttirib yoziladigan "noxun" xatining ustasi Nizomiddin Buxoriy, tabiat go'zalligidan ilhomlanib o'ziga xos maktab yaratgan husnixat sohibi Domlo Bobobek va minglab qo'lyozma asarlar kolleksiyasini jamlagan olim SHarifjon Mahdum Sadr Ziyu XIX asr oxiri XX asr boshlari Buxoro ilmiy-adabiy muhitida xattotlik tarixida e'tiborga loyiq.

Rahmonquli madrasasi Do'st chuhra og'asi guzarida, 24 hujrali, hijriy 1206 yili (1791-1792) G'ulom Muhammad Aminxoja naqib tomonidan qurilgan. Yillik vaqf mablag'i 30 ming tangadan iborat edi.

Ushbu madrasada ma'rifatparvar, munajjim, ensiklopedistik olim va ajoyib ijodkor xattot Ahmad Kalla laqabi bilan mashhur Ahmad Donish (1826-1897) ta'lim olgan.

Professor Oxunjon Safarov Rahmonquli madrasasi o'rni Ko'chai sangin guzarida ekanini ko'rsatadi. Bu ko'cha qadimda Mir Qoracha guzari tarkibida bo'lgan. U Do'st chuhra og'asi guzari bilan qo'shni edi. Ko'chai sangin mazkur guzarda ham davom etgan bo'lishi mumkin.

Mazkur madrasa haqida tadqiqotchi Oxunjon Safarov quyidagi qiziqarli fikrlarini bayon qiladi: "Ko'chai sangin hozir ham shu nom bilan yuritiladi. Unda o'tmishda kitobatchilik va san'at bilan shug'ullanuvchilarni tayyorlashga ixtisoslashgan Rahmonquli madrasasi mavjud. Ahmad Donishning ona tarafdan bo'lgan katta bobosi mulla Abdurahimbek ushbu madrasada mudarrislik qilgan, onasi

Sakinaning otasi, ya'ni ikkinchi bobosi Abdurahmon ham shu madrasada o'qib, kitob ko'chirish va lavvohlik bilan shug'ullangan. Keyinchalik ular tarbiyasi va ta'sirida Ahmad Donish ham xattotlik, lavvohlik, naqqoshlik va rassomlik hunarlarini o'rganishga qunt qilgan.

Ahmad Donishning otasi mulla Nosir Sug'diy ham shu madrasada tahsil ko'rgan va masjidiga imomlik qilgan. Biroq bu masjid hozir vayrona holatida, uni qayta ta'mirlamoqchi bo'lishgan-u, chala tashlab qo'yishgan, kiraverishda birov nonvoyxona qurib olgan. Hozir Kuchai sanginda eski imoratlar deyarli qolmagan".

Sho'rolar davrigacha jamiyatda kotib, xattotlarning faqat shu soha egalarigagina xos bo'lgan maqomi, hurmati bor edi. Ular yozuvni oliy san'at darajasiga ko'tarishgandi. Bu san'at ilm-fanning sehrli jilvasi edi. Simyog'ochga qo'ngan qaldirg'ochlar kabi yorug'lik tolalari ilohiy yozuvlar satrlariga qo'nib olardi. Mohir xattotlar ko'chirgan kitoblar yuqori baholangan va yaxshi narxga sotilgan. Muhammad Sharif Mahdum Sadr Ziyo kitoblarga juda qiziqqan va to'plagan. "Asomi kutub" asarida xattotlar va ular ko'chirgan asarlar haqida qimmatli axborotlar beradi, ba'zi kitoblarni qanday narxlarga sotib olganini ham yozib qo'yadi. Ulardan ayrimlarini keltiramiz.

"Qozi Muborakshoh bar "Sullam" 20 ming tanga,

Izoh: - **Tilla** - 1 tilla tanga "tilla" deb atalgan. Uning og'irlik miqdorini belgilab zarb ettiruvchisi nomi ham ba'zan hisob-kitob aniqligini ko'rsatish uchun qo'llangan. Masalan, "10 ashrafi Rahimxoniy" yo boshqa shaklda. Ular o'z davrida kepakiy, rahimxoniy deb atalgan bo'lishi mumkin, lekin XIX-XX asrlarda oylik maoshlar o'sha paytda yuritilgan tangalar og'irligi o'lchami bilan belgilangan.

1 tilla tanga XIX asr o'rtalarigacha, Xan'kov ma'lumotiga ko'ra, 21 kumush tanga qiymatiga teng bo'lgan. Yana bir manbada 1 tilla 18 kumush tanga bilan barobarligi ko'rsatilgan.

Tanga - Odatda, "tanga" deyilganda "kumush tanga" nazarda tutilgan ekan. 1 tanga 44 mis tanga miqdoriga teng bo'lgan. Biroq mis tanga "tanga" deb atalmagan.

Pul - "pul" - mis tanganing nomi bo'lgan. Bir pul "bir mis tanga" deganidir.

Ushbu pul birliklarining xalqaro miqyosdagi qiymati 1820 yili quyidagicha bo'lgan: 1 tilla - 18 tanga. 1 tanga - 24 pul.

"Fatovoyi bahr ar-roik" asarining etti jildi 30 ming tanga, "Fasl ul-xitob" 30 ming tanga, "Devoni Mavlaviy Jomiy", kotib Mir Ali Jomiy ko'chirgan, 20 ming tanga, "Chor unsur", Bedil asari, mashhur kotib Mavlaviy Abdulla Balxiy ko'chirgan, 15 ming tanga, "Javohir ul-fiqo", mavlona Soki Muhammad Balxiy ko'chirgan, 20 ming tanga, "Oxund Shayx bar "Tahzib", Sayyid Nazar Nasafiy ko'chirgan, 4 ming tanga.

Bu xattotlar ko'chirgan ba'zi qo'lyozmalarni ko'rgandim. Muhammad SHarifjon Mahdum ular haqida yozganida sira bo'rtirmagan. Simyog'ochdagi qaldirg'ochlar qatori kabi u satrlarga yorug'lik tolalari qo'nib olgandi... Ularda ilohiy sehr jilva qilardi. Tomosha qilishdan ko'z charchamaydi, ulardan nur oladi. Xattotlar olamiga ular orqali boriladi. Bu oliy san'at dunyosida madrasalar kutubxonalarining xizmati ham yaqqol ko'rina boshlaydi. Ular, axir, kotiblarning doimiy xaridorlari, buyurtmachilari safida edi.

Sharq qo'lyozmalari xazinasida saqlanayotgan tilshunoslik va falsafaga oid asarlarning ko'p qismi dag'al va xunuk xatda ko'chirilgani ajablanarli edi. Hozir barchasi oydinlashayotir. Buxoro shahri va uning atrofida uch yuzdan oshiq madrasada o'n mingdan ortiq talaba ilm olardi. Darsliklar, o'quv qo'llanmalari suv va havodek zarur edi. Kutubxonasi yo'q, vaqf mulklariz birinchi darajali quyi toifaga mansub madrasalar ham qir-qelliktadan kam bo'lmagan. Tilshunoslikka oid asarlar barcha madrasalarda bo'lishi shart edi. Madrasalar kutubxonalari ularni xattot bo'lmagan talabalarga ham ko'chirtirgan, evaziga ancha arzon narxda haq to'lagan. Talabalar, albatta, qo'shimcha daromad qilish imkoniyatidan foydalanishga urinishgan. Bu holat madrasalarda kitoblarning ko'chirilishi sabablaridan biridir. Dag'al va xunuk xatli kitoblar shunday ehtiyojlar mahsuli edi.

Madrasalar kutubxonalari qimmatbaho kitoblarni ham ko'chirtirgan. Madrasa talabalari orasida mohir xattotlar ham bo'lgan va maxsus buyurtmalar bilan san'at asari darajasida kitoblar ko'chirishgan. Bunday qo'lyozmalarning qanday baholanishini yuqorida ko'rdik.

XX asrning birinchi choragida Buxoroda kutubxonalar va ularda saqlanayotgan qadimiy, ilm-fanning turli sohalariga oid qimmatli kitoblar ko'p edi. Tadqiqotchi Shavosil Ziyodovning aniqlashicha, ularning orasida uchtasi katta kutubxona bo'lgan va ulardan ilm ahli foydalangan. Buxoroda Muhammad SHarifjon Mahdum Sadr Ziyo (vafoti 1932), Hishmat (1857-1927), qozi Burxoniddin, Abduvohid Buxoriyning katta shaxsiy kutubxonalari bor edi. [13] Ular tadqiqotchilar

tomonidan o'rganilgan va ommaga etarlicha ma'lumotlar etkazilgan. Hammaga ma'lum bo'lgan so'zlarga etib kelib shu joyda to'xtatdik.

Adabiyotlar

1. Абдуллаев Т., Фахриддинова Д., Хакимов А. Песень в металле. Т.: -1986. С. 29.
2. A.Murodov. O'rta Osiyo xattotlik san'ati tarixidan. Т.: "Fan". 1971.
3. Вячеслав Гегамович Сааков. История Бухары. Т.: «Шарк». 1996.
4. Yoqut Namaviy. Mu'jam ul-buldon. VIII jild, O'zFASHI.
5. Mirzo Salimbek. Kashko'li salimiy tavorixi muttaqadimin va muttaaxirin. В.: "Buxoro". 2003.
6. Пугаченкова Г.А., Ремпель Л.И. Очерки искусства Средней Азии. – М., 1982. С. 93.
7. Ўзбекистон республикаси энциклопедияси Т.: - "Ўзбекистон миллий энциклопедияси". 2006.
8. Усманова З., Ахроров И. Терракоты Бухары. Культура Среднего Востока. Изобразительное и прикладное искусство. – Ташкент, 1990, С. 43.
9. Хабиб. Хат ва хаттотон. Истамбул. -1887.
10. Husen Jo'rayev. Benazir san'at mutolasi. Т.: "Navro'z". -2014. -124.B
11. Шарифжон Махдум Садр Зиё. Рисолаи хаттотон. Бухоро -1925. XIX аср.
12. Вамбери А. Путешествие Средней Азии. Перевод З.Д. Голубевой. М.: Изд-во "Восточная литература", 2003. С. 90, 166-167. (Нақшбандия. Арминий Вамбери ва Мулло Содик. 2013. 2/11. -Б.34).
13. SH. Ziyodov. XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Buxorodagi qozilar kutubxonasiga doir ma'lumotlar // XIX asr oxiri - XX asr boshlarida Buxoro. Respublika ilmiy-nazariy anjumani materiallari. - Buxoro, 2016.

UDK: 9(5):327

AXBOROT-KOMMUNIKATSION TEXNOLOGIYALARI RIVOJLANISHI SHAROITIDA MILLIY XAVFSIZLIK VA BARQARORLIKNI TA'MINLASHNING DOLZARB MASALALARI

T. Tursunmuratov

Toshkent shahridagi Inxa universiteti

Annotatsiya. Maqolada IKT texnologiyalar rivojlanishining mintaqaviy va milli xavfsizlik va barqarorlikka ta'siri tizimli tahlil qilingan. Milliy xavfsizlikka tahdidlarni oldini olishda ilmiy-texnologik salohiyatga asoslangan samarali mexanizmlari o'rganilgan.

Kalit so'zlar: ilmiy-texnologik salohiyat, mintaqaviy xavfsizlik, barqarorlik, an'anaviy va noan'anaviy tahdidlar, axborot-kommunikatsion texnologiyalari, axborot jamiyati, informatsion jamiyat, xalqaro tashkilotlar.

Приоритетные задачи обеспечения региональной и национальной безопасности в условиях развития информационно-коммуникационных технологий

Аннотация. Статья посвящена изучению положительных и отрицательных аспектов влияния ИКТ на региональную безопасность и стабильность. Следовательно, особое внимание уделяется по вопросам нейтрализации угроз и вызовов региональной безопасности на основе эффективного использования научно-технологического потенциала.

Ключевые слова: научно-технологический потенциал, региональная безопасность, стабильность, традиционные и нетрадиционные угрозы, информационно-коммуникационные технологии, информационное общество, международные организации.

Priority tasks for ensuring regional and national security in the context of the development of information and communication technologies

Abstract. The article is devoted to studies of positive and negative aspects of impact of ICT on international and regional security. Hence, the emphasis is given to the neutralizing threats and challenges to regional security through effective use of scientific and technological potential.

Keywords: scientific-technological potential, regional security, stability, traditional and nontraditional threats, information and communication technologies, information society, international relations.

Axborot-kommunikatsion texnologiyalarning rivojlanishi davlatlar uchun ma'lumotlar alamashish, iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirish, ichki imkoniyatlardan unumli foydalanish va xavfsizlikni ta'minlash kabi sohalarda katta imkoniyatlar berdi. Bu texnologiyalar yutuqlaridan unumli foydalanish natijasida davlat boshqaruvi, transport-kommunikatsion tizimlar faoliyati va qator boshqa tizimlar faoliyatida sezilarli darajada ijobiy o'zgarishlar yuz berdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev ta'kidlaganidek, barchamizga ayonki, O'zbekiston boy qazilma va tabiiy resurslarga, qudratli iqtisodiy va insoniy salohiyatga ega. Biroq bizning eng katta boyligimiz - bu xalqimizning ulkan intellektual va ma'naviy salohiyatidir. [1]

Axborot-kommunikatsion tizimlarning keng masshtablar bilan yuzaga kelishi va ulardan amalda foydalanish davlat va jamiyat o'rtasidagi bog'lanishga, fuqarolarning siyosiy ongini oshirishga va siyosiy guruhlar, partiyalar faoliyatiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Zamonaviy texnologiyalar yutuqlaridan unumli foydalanish davlatning iqtisodiy jihatdan yuksalishiga, uning sanoatni rivojlantirish asosida sifatli mahsulotlar ishlab chiqishi va xalqaro bozorda o'z o'rnini mustahkamlashga keng imkoniyatlar berdi. Ilmiy-texnologik taraqqiyotning global va mintaqaviy xavfsizlik va barqarorlik holatiga ta'sirini ijobiy va salbiy jihatlari orqali tavsiflash mumkin. Bu jihatlarda axborot texnologiyalari, yadroviy texnologiyalar va hozirgi paytda alohida e'tibor berilayotgan nanotexnologiyalar rivojlanishi natijalari misolida yaqqol namoyon bo'lmoqda. Axborot-kommunikatsion texnologiyalarning rivojlanishi davlatlar uchun ma'lumotlar alamashish, iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirish, ichki imkoniyatlardan unumli foydalanish va xavfsizlikni ta'minlash kabi sohalarda katta imkoniyatlar berdi. Bu texnologiyalar yutuqlaridan unumli foydalanish natijasida davlat boshqaruvi, transport-kommunikatsion tizimlar faoliyati va qator boshqa tizimlar faoliyatida sezilarli darajada ijobiy o'zgarishlar yuz berdi. Shu bilan birga, axborot texnologiyalarining rivojlanishi natijasida qator salbiy oqibatlar yuzaga keldi. Rivojlangan mamlakatlar bilan boshqa davlatlar texnologik rivojlanganlik darajasi o'rtasidagi katta farqni yuzaga kelishi natijasida ular o'rtasida "imkoniyatlar taqsimoti"ning buzilishi axborot-kommunikatsion texnologiyalari rivojlanishining bunday oqibatlaridan biriga aylandi.

Jahon axborot - kommunikatsiya tizimining jadal sur'atlar bilan rivojlanishi va umumiy ma'lumotlar to'plamining kengayishi, xalqaro arenada radikal faoliyat olib borayotgan aktorlarning zamonaviy axborot texnologiyalaridan o'z manfaatlarini yo'lida keng foydalanish imkonini yaratdi. Ular tomonidan "axborot quroli"dan mafkuraviy va psixologik ta'sir etishda samarali foydalanishga hamda shu yo'l bilan raqib tomonining irodasini sindirishga harakatlari kuzatiladi.[2]

Axborot-kommunikatsion texnologiyalar sohasida erishilgan yutuqlardan unumli foydalangan va bu sohada milliy dasturlarni rivojlantirishga erishgan davlatlar globallashuv sharoitida yuzaga kelgan yangi imkoniyatlardan foydalana olmoqdalar. Ular xalqaro miqyosda yuz berayotgan siyosiy va iqtisodiy jarayonlardan o'zlarining milliy manfaatlarini himoya qilgan holda foydalanish bilan birga, globallashuv jarayonining salbiy ta'sirini neytrallashtirish borasida samarali mexanizmlarni yaratishga erishmoqdalar. Bir tomondan, fan va texnologiyalar yutuqlari davlatning rivojlanishi va insoniyat oldida turgan dolzarb muammolarni echishga qaratilsa, ikkinchi tomondan, ular harbiy va siyosiy sohadagi maqsadlar yo'lida ishlatiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev tashabbuslari asosida qabul qilingan 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi doirasida qo'yilgan vazifalar mamlakatimizning innovatsion taraqqiyoti, milliy xavfsizligimiz va barqarorligimizni ta'minlash va jahon hamjamiyatida davlatimizning munosib o'rin egallashiga qaratilgan bo'lib, bu vazifalar orasida inormatsion-kommunikatsion texnologiyalarga, xususan Elektron hukumatni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratiladi.[3]

Yuqori texnologiyalar rivojlanishining natijalari asosida tug'ilgan va qisqa vaqt ichida jadal tus olgan globallashuv jarayoni davlatlar o'rtasidagi iqtisodiy, siyosiy munosabatlarga kirib borib, xalqaro munosabatlarning shakllanishi va rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsata boshladi. Hozirgi globallashuv

sharoitida rivojlanayotgan davlatning raqobatbardoshligi, uning jahon hamjamiyatidagi tutgan o'рни shu mamlakatning fan va texnologik sektorini rivojlanganlik darajasi, global texnologik, innovatsion va ishlab chiqarish tizimiga qo'shilish darajasi bilan aniqlanadi. Bu o'rinda fan va texnologik inqilob xalqaro munosabatlar paradigmasi transformatsiyasining asosiy omillaridan biri sifatida shakllanayotganini ta'kidlash maqsadga muvofiq bo'lar edi. Bugungi kunda globallashtirish sharoitidan kelib chiqqan holda, xavfsizlik tushunchasining harbiy va harbiy-siyosiy munosabatlar doirasidan kengroq ma'noda, iqtisodiy, ijtimoiy, ekologik, texnologik, axborot, madaniy va boshqa sohalaridagi rivojlanish jarayonlari bilan hamohanglikda talqin etilishi taqazo etilmoqda.

Global, mintaqaviy va milliy xavfsizlikka bag'ishlangan katta sondagi ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilgan bo'lsada, xavfsizlik tushunchasi turli nazariyalarda turlicha izohlangan va yagona ta'rifga erishilmagan. Bugungi kunda, qator olimlar tomonidan xavfsizlikni ijtimoiy model ob'ekti sifatida olingan holda tizimli tahlil etilishi, xavfsizlik holatining har tomonlama baholanishi uchun katta imkoniyatlar bermoqda. Xavfsizlik muammosining yangi metod asosida o'rganishda, falsafiy kategoriya sifatida ijtimoiy tizim olinadi. Ijtimoiy tizimning hayotiy faoliyati uchun zarur bo'lgan elementlar ushbu tizimning progressiv rivojlanish jarayonidagi xavfsizligini ta'minlashning asosini tashkil etadi. [4]

Mintaqaviy xavfsizlikni ta'minlashda "tashqi" tahdidlarni bartaraf etish bilan bir qatorda "ichki" xarakterga ega bo'lgan muammolarni barataraf etishga ham alohida e'tibor qaratilishi lozim. Mintaqaning ichki holatiga bag'ishlangan tadqiqotlarning aksariyat qismi unda yuz berayotgan siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy jarayonlarga kuchli e'tibor qaratilgan holda amalga oshirilgan bo'lib, bu jarayonlarning salbiy oqibatlari ma'lum bir tizim asosida baholanishi kuzatiladi.

Xavfsizlik muammolarini o'rganish borasida yartilayotgan yangi nazariyalar mavjud an'anaviy qarashlarni siqib chiqarishi kuzatilmoqda. Bugungi kunda tizimli tahlil asosida xavfsizlikni to'liq tushuntirib beradigan alohida fan mavjud emas. Xavfsizlikni ta'minlash jarayoni murakkabligi bu sohada ayni bir paytning o'zida qator yo'nalishlarda ish olib borishni taqozo etadi. Masalan, mintaqaviy xavfsizlikni ta'minlashda siyosatchilar, iqtisodchilar, ekologlar, tibbiyot xodimlari, jurnalistlar, bashoratchilar va boshqa soha vakillarining hamjihatlikda ish olib borishi natijasidagina ma'lum yutuqlarga erishish mumkin. Umumiy so'z bilan aytganda, zamonaviy texnologiyalar rivojlangan bugungi sharoitda, mintaqaviy xavfsizlikni ta'minlash fanlararo va paradigmatlararo yondashuvlarning umumiy kontseptsiyasi asosida amalga oshirilishi lozim.

Fan va texnologiyalar, xususan axborot texnologiyalar sohasida erishilgan katta yutuqlar ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy sohalar bilan birga milliy va mintaqaviy xavfsizlikni ta'minlash masalalarida ham o'z aksini topdi.

Ilmiy-texnologik taraqqiyotning global va mintaqaviy xavfsizlik va barqarorlik holatiga ta'sirini ijobiy va salbiy jihatlari orqali tavsiflash mumkin. Bu jihatlari axborot texnologiyalari, yadroviy texnologiyalar va hozirgi paytda alohida e'tibor berilayotgan nanotexnologiyalar rivojlanishi natijalari misolida yaqqol namoyon bo'ladi. Xalqaro munosabatlar Vestfal modelining inqirozga uchrashi va bu modelning boshqa ko'rishga o'tishi to'g'risidagi ilmiy xulosalarni qator ilmiy asarlarda uchratish mumkin.

Dunyoning Vestfal modeli 1648 yilda imzolangan paytdan boshlab, XX asrning oxirigacha, yuqori texnologiyalarning ta'sirida ushbu modelning emirilishi hamda industrial davrning postindustrial davrga almashinishi paytigacha yashadi. Ilmiy-texnologik salohiyatning jamiyatda yuz berayotgan ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy jihatlarni tahlil etish mobaynida ushbu omilning qator salbiy ta'sirlari mavjudligini ham kuzatish mumkin.

Zamonaviy texnologiyalar rivojlanishi natijasida informatsion jamiyatning paydo bo'lishi industrial rivojlangan davlatlar bilan insoniyatning qolgan qismi o'rtasida katta farqni yuzaga keltirdi. Bu esa o'z navbatida ma'lum bir davlatlar tomonidan keng miqyosda o'zlarining siyosatlarini targ'ib etishga, buning natijasida siyosiy turg'unlikning buzilishi va dunyo siyosiy tartibining o'zgarishiga olib kelishga zamin yaratadi. Yuqori texnologiyalar sohasida yuz bergan inqilobni globallashtirish jarayonining harakatlantiruvchi kuchi va asosiy omili sifatida qarash mumkin.

Fan va texnologiyalarning rivojlanishi jamiyatning deyarli hamma sohalariga kirib borgani holda, undagi tizimni keskin o'zgarishiga olib kelmoqda.[5]

Markaziy Osiyo mamlakatlarining milliy manfaatlaridan kelib chiqqan holda ilmiy-texnologik salohiyat yuksalishining ustuvor yo'nalishlarini aniqlash ularning mustaqil va barqaror rivojlanishi uchun mustahkam zamin yaratadi.

Zamonaviy texnologiyalarning xalqaro va mintaqaviy xavfsizlikka ta'sirining etarli darajada to'la tahlil etishda bu jarayonning tarixiy jihatlarini o'rganish bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar natijalariga e'tibor berish katta ahamiyat kasb etadi. Davlatning innovatsion taraqqiyoti uning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi, milliy xavfsizligini ta'minlashdagi imkoniyatlari darajasi va jahon hamjamiyatidagi o'rnini belgilab qolmasdan, balki mintaqaviy va xalqaro xavfsizlik holatiga ham sezilarli darajada ta'sir etadi.

Adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va faravon, demokratik o'zbek davlatini birgalikda barpo etamiz. – T.:O'zbekiston, 2016. -13b.
2. Munavvarov M.Z. Imperativ vneshney politiki Respubliki Uzbekistan v usloviyax globalizatsii i informatizatsii mejdunarodnx protsessov. Diss... kand. polit. nauk. - T.: UMED, 2007. – S. 70
3. 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strtaegiyasini “xalq bilan muloqot va inson manfaatlarini yili”da amalga oshirishga oid Dalvat dasturini o'rganish bo'yicha Ilmiy-uslubiy risolva. T: “Ma'naviyat. 2017 y. – B.49.
4. Axtrskaya N. Bezopasnost kak ob'ekt sotsialnogo modelirovaniya. // Izdanie tsentra issledovaniy kompyuternoy prestupnosti. <http://www.crime-research.ru/library/Akhtirsk0603.html>
5. Lebedeva M.M. Sovremenne texnologii i politicheskoe razvitie mira: nove vozmojnosti i nove problem. // Mejdunarodnaya jizn. – Moskva, 2001. № 2. - s. 45-53.

УДК: 9:796.5(575.1)

РАЗВИТИЕ ИСТОРИЧЕСКОЙ МЫСЛИ В УЗБЕКИСТАНЕ В 20-Е ГГ. XX В. (ПО СТРАНИЦАМ ЖУРНАЛА «КОММУНИСТИЧЕСКАЯ МЫСЛЬ»)

Национальный университет Узбекистана им. Мирзо Улугбека

Н. Р. Махкамова

E-mail: mnadira2000@mail.ru

Аннотация. Анализ работ, вышедших в 20-30-е гг. XX в., дает возможность хорошо проследить динамику развития исторической мысли в Узбекистане в этот период. Исторические труды в 20-е гг. значительно отличались от работ 30-х годов, а тем более от работ последующих периодов. Прежде всего, для всех них, независимо от занимаемой авторами научной позиции, было характерно детальное и в целом объективное освещение событий, происходящих в эти годы.

Ключевые слова: Узбекистане, Исторические, Туркестана, Турккомиссии, Туркбюро, буржуазными, демократами

XX asrning 20-yillarida o'zbekistonda tarixiy bilimlarning rivojlanishi (“kommunistlar fikri” jurnali misolida)

Annotatsiya: Ilmiy maqolada XX asrning 20-30 yillarida O'zbekistonda tarixiy bilimlarning rivojlanishi dinamikasi tahlili bayon etilgan. Ushbu davrda tarixiy bilimlarning rivojlanishi uchun yuqori darajada ishlar olib borilgan. Ilmiy yo'nalishdagi bilimlar ham rivojlanib borganligi keltirilgan. Yoritilayotgan davrning manbalari asosida ma'lumotlar aniq keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlari: O'zbekiston, manbashunoslik, tarixshunoslik, Turkiston, Turkbyuro, Turkkomissiya, burjuaziya, demokratiya.

Development of historical thought in uzbekistan in the 20th years. xx century. (on pages of the journal "communist thought")

Abstract. Analysis of works published in the 20-30-ies. XX century, makes it possible to follow the dynamics of the development of historical thought in Uzbekistan during this period. Historical works in the 20-ies. considerably differed from the work of the thirties, and even more so from the work of subsequent periods. First of all, for all of them, regardless of the scientific position

occupied by the authors, it was typical to have a detailed and generally objective coverage of the events taking place in these years.

Keywords: Uzbekistan, Historical, Turkestan, Turkburo, bourgeois, democrats

Анализ работ, вышедших в 20-30-е гг. XX в., дает возможность хорошо проследить динамику развития исторической мысли в Узбекистане в этот период. Надо отметить, что исторические труды в 20-е гг. значительно отличались от работ 30-х годов, а тем более от работ последующих периодов. Прежде всего, для всех них, независимо от занимаемой авторами научной позиции, было характерно детальное и в целом объективное освещение событий, происходящих в эти годы. А поскольку в исторической науке пока еще только складывался идеологический диктат, в них достаточно свободно проявлялся плюрализм мнений.

Основная полемика по наиболее актуальным проблемам периода развернулась на страницах научно-исследовательского журнала «Коммунистическая мысль», который с 1926 г. начал издавать САКУ. Как отмечалось во вступительной статье редакционной коллегии, его идейное лицо должно было быть ясным и понятным каждому, «как в силу своего выразительного названия «Коммунистическая мысль», так равно и в силу того обстоятельства, что это орган Коммунистического Университета»[1]. В шести изданных книгах были опубликованы труды П. Галузо, И. Меницкого, А. Силонова, В. Лаврентьева, Ф. Ходжаева, Т. Рыскулова и др. Все эти авторы наряду с изучением проблем социально-экономического положения колониального Туркестана пытались исследовать те изменения, которые происходили в результате осуществления политики советской власти в городе и кишлаке, анализируя эти преобразования через призму специфических условий среднеазиатского региона.

Одним из принципиальных вопросов, очень злободневных в тот период, был вопрос о степени участия народных масс Туркестана в революционных событиях 1917 г. Вопреки декларативным заявлениям партийного руководства Туркестана о том, что местное население принимало активное участие в революционных событиях 1917 г., а все последующие революционные мероприятия советской власти находили у него горячую поддержку, в 20-е годы был опубликован ряд работ крупных партийных работников Г.И. Сафарова [2], С. Муравейского [3], Т. Рыскулова [4], Ф. Ходжаева [5], Л. Резцова [6], в которых высказывалась другая точка зрения. Так, Г.И.Сафаров, являясь членом Турккомиссии и Туркбюро ЦК РКП(б), в 1921 г. писал, что в Туркестане "мало-мальски широкого революционного движения не было", а февральская революция вообще "пришла сюда по телеграфу". Он объяснял это спецификой Туркестана, где между толщей угнетенных наций и русским пришлым населением стояла «непроходимая стена взаимного непонимания на почве национального неравенства», поэтому «для классового интернационального пролетарского движения здесь было слишком мало почвы», а революция приобрела сразу же «роковой колонизаторский уклон» [7], и с первых же дней она «утвердилась как власть тонкого слоя русских рабочих» [8]. Об этом же писал в 1924 г. в журнале «Пролетарская революция» С. Муравейский, возглавлявший Туркестанский Истпарт: «Туркестанское туземное дехканство (крестьянство) никакого участия в революции не принимает, почти не участвует в ней и население «старых» городов. Причиной этого была созданная великодержавной российской политикой грань между туземным населением и русскими» [9]. Ту же мысль развивал Ф.Ходжаев в 1927 г. в брошюре "Десять лет борьбы и строительства". Он писал, что дехкане, составлявшие основную массу населения, имели очень смутное представление об Октябрьской революции, они "лишь смутно знали тех, кто стоял во главе этого движения и смутно представляли себе, что им несла эта новая революция" [10].

По поводу работ Г.И. Сафарова и Ф. Ходжаева на страницах журнала «Коммунистическая мысль» не было бурных дискуссий. Оппоненты этих авторов обвиняли их в немарксистском взгляде на оценку революционных событий в феврале и октябре 1917 г. в Туркестане. Так, А. Силонов в статье «Февральская революция в Средней Азии» высказывал мнение о том, что революционные события 1917 года в одинаковой степени охватили как центральные, так и окраинные области Российской империи. «Совершенно очевидно, – писал А. Силонов, – что... все те глубокие экономические и классовые противоречия, которые породили Февраль, а затем и Октябрь, находились в любой из частей прежней матушки России.

Противоречия эти подтачивали фундамент царского самодержавия. Средняя Азия, как и другие районы, в этом процессе подтачивания принимала участие, а в период развертывания событий показала, что она, как и всякая другая часть России, является ареной борьбы классов, таки или иначе отстаивающих классовые интересы» [11]. А.Е. Федоров утверждал, что «Февральская революция всколыхнула рабочие массы Туркестана и при поддержке и сочувствии дехканских масс в октябре 1917 г. построили советскую власть» [12].

Однако, новоявленные историки-марксисты, будучи умными людьми, не могли не признавать очевидных фактов, хотя и настойчиво пытались придавать этим фактам оттенок классовой борьбы. «Мало-мальски широкого революционного движения здесь не было вплоть до революции 1917 года, – писал А. Силонов. – Это движение, могущее развернуться в то время по двум линиям, с одной стороны, отражая классовую борьбу среди коренного населения, и с другой стороны, – борьбу всей нации против Российской империи, на самом деле не развернулось» [13]. Таким образом, с одной стороны он подвергал критике позицию Г. Сафарова, а с другой фактически подтверждал ее, подчеркивая, что в национальном движении в Средней Азии отсутствовала революционная четкость и политические партии, которые могли бы стать во главе какого-либо класса или всей нации. Более того, критикуя Г. Сафарова за его утверждения, что в Средней Азии не было широкого революционного движения, в то же время А. Силонов сам признавал, что «масса дехканства была пассивна. Она смотрела и ждала, когда революция даст ей что-нибудь более осязаемое» [14]. Само собой разумеется, что широкого движения при пассивном дехканстве, составляющего основную часть населения в регионе быть не могло.

Следует отметить, что если оценка работ вышеуказанных деятелей в более поздней советской историографии давалась неоднозначная, с учетом сложившейся в 20-е гг. ситуации, то работы Г. Сафарова подверглись резкой критике. Ему просто не оставили шанс встать в один ряд со «сбившимися» с пути в поисках истины (а единственной непреложной истиной являлась марксистско-ленинская теория), но осознавшими в результате долгих идеологических метаний свои ошибки С. Муравейским, П. Галузо, А. Силоновым, В. Лаврентьевым и др. Г. Сафаров был обвинен в участии в «троцкистско-зиновьевской» оппозиции, в неверии в революционные силы масс, принижении рабочего класса в освободительной борьбе народов, отрицании закономерного характера революционного и коммунистического движения.

Во второй половине 20-х годов появляются интересные и смелые работы по истории революционного и национально-освободительного движения в средней Азии: Т. Рыскулова «Революция и коренное население Туркестана» (1925 г.), Е. Федорова «Очерки национально-освободительного движения в средней Азии» (1925 г.), «Очерки революционного движения в средней Азии» (1926 г.). Последняя работа представляет собой сборник, в который вошли статьи, посвященные джадидизму (Ф. Ходжаева), движению местного населения в 1905 г. (Е. Федорова), восстанию 1916 г. (Т. Рыскулова), басмачеству в Фергане (Гинзбурга). Эта книга сразу же привлекла внимание научной общественности. И хотя марксистами в ней было найдено много «ошибок», но даже самый ярый марксист 20-х гг. П. Галузо в своей рецензии на нее, опубликованной в первом номере журнала «Коммунистическая мысль» под псевдонимом Г. Туркестанский, вынужден был признать, что она представляла собой ценный вклад в литературу по истории революционного и национально-освободительного движения в крае. Что же касается некоторых марксистских «изъянов» ее авторов, то это «не являлось их виной, а бедой». «Пионеру всегда трудно, – писал Г. Туркестанский. – Авторам сборника пришлось выполнять роль пионеров по исследованию некоторых моментов по истории Средней Азии в такое время, когда опереться еще положительно не на кого и не на что» [15]. Эта рецензия хорошо иллюстрирует допущение свободомыслия в научном творчестве историков, когда их марксистские «изъяны» еще не воспринимались как действия «врагов народа», а допускалась дискуссионная борьба ученых за свою научную позицию.

Характерной чертой процесса становления исторической науки в республике в 20-е годы была практика широкого дискуссионного обсуждения обществоведами наиболее острых проблемных вопросов.

Так, в 1926 г. на страницах журнала «Коммунистическая мысль» развернулась бурная полемика о характере восстания 1916 г. Т. Рыскулов – крупный партийный деятель, уроженец Туркестана, который согласно его положения, казалось бы должен был быть активным

сторонником и пропагандистом классовой марксистско-ленинской теории, занял объективную позицию гражданина и патриота своей республики, прекрасно знающего его историю. Он считал, что восстание 1916 г. было национально-освободительным движением угнетенных царизмом народов Туркестана против колониальных властей, а «всякое движение угнетенных народностей, – писал он, – против угнетающих национальностей, непременно носит национальный характер» [16].

Его оппоненты преподаватели САКУ И. Меницкий и П. Галузо, присланные из Москвы и работавшие в Туркестане 3 года, считали, что восстание 1916 г. носило четко выраженный классовый характер. «В событиях 1916 г. в Туркестане, – писал И. Меницкий, – мы имели выступление угнетенных классов с протестом против гнета невыносимой эксплуатации, как своей туземной буржуазии, так равно и всех других эксплуататоров без различия национальностей... подчеркивание национального момента по существу неверно и политически вредно» [17].

Его поддерживает П. Галузо: «Для марксиста должно быть бесспорно, что всякие национальные задачи, в конечном итоге, решаются борьбой классов против классов» [18].

Полемизуя с И. Меницким и П. Галузо, Т. Рыскулов, однако, в силу своего служебного положения, не мог полностью отказаться от классовой теории. Его высказывания представляют сегодня большой интерес для исследователей, поскольку налицо внутренняя борьба образованного человека, который стремясь к объективности, вынужден в силу партийного долга служить новой идеологии, навязываемому ему новому мышлению: «По социальному составу повстанцы 1916 года состояли в преобладающем своем составе из угнетенных классов, но приняли участие, частично, элементы и из других слоев населения. Хотя основными побудительными причинами у главной массы повстанцев служили социально-классовые мотивы, но объективно, все восстание направлено было, конечно, в сторону интересов общенационального революционного движения» [19].

Анализируя материалы этой дискуссии, нельзя не остановиться на таких интересных фактах, когда стремление «истинных» марксистов доказать классовый характер восстания 1916 г. приводило их просто к абсурдным вымыслам. Так, И. Меницкий писал: «Дехкане и кочевники Туркестана великолепно понимали, что только русский мужик, победив в назревающей революции, положит конец хищнической колонизаторской политике» [20]. Очевидно, что ни о какой надежде туркестанского дехкана на русского мужика в 1916 г. не могла идти речь, поскольку именно русским крестьянам-переселенцам колониальная администрация раздавала отнятые у него лучшие земли. А П. Галузо пошел еще дальше заявив, что «в характере восстания 1916 года было все для того, чтобы сомкнуться с движением русских рабочих и движением русского крестьянства против общих врагов – царизма, русского помещика, туземного бая с русской торговой и промышленной буржуазией». «Неужели не понятно, – восклицает он, – что революция 1917 года выросла из восстания 1916 года!» [21].

Такие заявления могли сделать только люди, не знающие историю региона. Именно это имел в виду Т. Рыскулов, когда писал: «Чтобы правильно понять события 1916 года, необходимо более полнее уяснить самый ход восстания, изучить предыдущие периоды истории Туркестана, результаты колониальной политики царизма» [22].

Анализируя ход этих бурных дебатов с элементами жесткой критики, можно условно разделить их участников на две группы: наиболее ярые приверженцы марксистско-ленинской теории – И. Меницкий, Н. Кузьмин, вторая группа – это представители умеренного, соответственно близкого к объективному изложению и анализу фактов, направления – Т. Рыскулов, Е.Федоров, Ю. Анищев. Однако, следует отметить, что все эти деятели являлись очень умными и образованными людьми своего времени и, судя по их выступлениям не могли не вникать в истинное положение дел. Даже в очень пафосных выступлениях марксистов, таких как Н. Кузьмин, мы видим попытку объективной оценки: «Движение 1916 года должно быть подробно изучаемо. Но изучать его надо по-марксистски, т.е. изучать, а не наладить какую то теорию и затем подводить под нее все факты, а если они не подходят, то отрицать» [23]. Как показало время, в последующие периоды именно с таким «подведением» под марксистско-ленинскую теорию столкнулась историческая наука.

Еще одним вопросом, который вызвал острую полемику на страницах «Коммунистической мысли» была научная оценка джадидизма в связи с выходом в 1926 году

работы Ф. Ходжаева «К истории революции в Бухаре». Главным оппонентом автора работы был Г. Туркестанский (П. Галузо), который обвинял Ф. Ходжаева в отсутствии ясности в постановке вопроса о классовой сущности борьбы в Бухаре, в непонимании того, что силы, совершившие бухарскую революцию, зрели не один год и что джадиды представляли собой «идеологический отблеск на поверхности классовой борьбы». В этой рецензии мы опять сталкиваемся с настойчивыми попытками историка-марксиста, плохо знающего местную историю, подогнать под марксистско-ленинскую теорию классов ситуацию Бухарского эмирата, не имеющую ничего общего с классовой борьбой: «Мы обнаруживаем в работе, – пишет П. Галузо, – описание того..., как джадиды – партия торговой буржуазии – вдруг отрываются от всех классов и классовых группировок, беспомощно болтают в воздухе ногами а поисках на кого бы опереться, берут за точку опоры всех сразу, затем пересаживаются с лошади на лошадку, пока наконец не усаживаются на дехканина, а отсюда прямо в коммунисты...»[24].

Ф. Ходжаев на эту рецензию опубликовал на страницах этого же журнала свой ответ: «Тов. Туркестанский, – писал он, – пытаюсь доказать недоказуемое, утверждает, что автор этих строк отождествляет джадидизм с коммунизмом... Каждому ясно, что это две разные вещи... Он, ... смешав в одну кучу джадидов и младобухарцев, захотел позабыть разложение этих последних после, так называемых, «колесовских событий» и не учел маленького факта изменения в составе младобухарцев с февраля 1917 г., происходивших вплоть до 1920 г., т.е. момента революции в Бухаре за счет дехкан и солдат эмирской армии»[25].

Если проанализировать работу Ф. Ходжаева и рецензию на нее П. Галузо, становится ясно, что нападки последнего были не объективными, слабо обоснованными и еще раз подтверждали тот факт, что он, как и в дискуссии о характере восстания 1916 года практически очень плохо знает историю среднеазиатского региона. Прежде всего, рецензент, не понимая сути движения джадидизма, упорно употребляя термин «партия джадидов» (тогда как в Бухарском эмирате такой «партии» не было), пытался найти в их взглядах «классовую сущность»[26]. П. Галузо обвинял Ф. Ходжаева в том, что тот скрывает классовую сущность джадидов «под ничего не говорящим выражением «национально-революционные» элементы и ему «не понятен классовый смысл борьбы в Бухаре», что он «не уяснив себе основное хочет убедить себя и читателя, что революция в Бухаре была восстанием всех против эмира, причем власть эмира понимается как что-то совершенно отвлеченное, ни с каким классом не связанное». Сам же П. Галузо считал, что «эмират был властью торгово-ростовщической буржуазии», а социальный смысл революции в Бухаре составляла «борьба буржуазии и дехканства против торгово-ростовщического капитализма»[27]. Более нелепой оценки политической ситуации в Бухарском эмирате в конце XIX-начале XX вв., данной П. Галузо в его рецензии, трудно придумать, тем более, что в работе Ф. Ходжаева совершенно четко, объективно и достоверно были раскрыты суть политической власти в эмирской Бухаре, социальная структура ее общества, цели движения джадидов [28]. Он был совершенно прав, когда в своем ответе П. Галузо написал, что подход рецензента к его работе и его тон «имели характер не совсем объективного анализа, а скорее указывали на определенную предвзятость [29].

Оценивая значение работы Ф. Ходжаева «К истории революции в Бухаре» с позиций сегодняшнего дня не надо забывать, что он занимал высокий пост главы правительства, был сыном своего времени и, как и Т. Рыскулов, вынужден был подчиняться классово-партийной идеологии. Все это наложило определенный отпечаток на направленность работы. Это хорошо иллюстрирует его оценка партии младобухарцев: «Младобухарская организация выявила два противоположных взгляда на революцию и характер революции в Бухаре, получившие свое оформление: для одной части в ориентации на басмачество, ... и для другой, – в окончательном закреплении в коммунистическую партию Бухары,... для которой джадидизм и идеи младобухарской организации стали чуждыми и враждебными, как движение, могущее отбросить назад, а не вперед к целям пролетарской революции»[30]. Но в то же время такие факторы, как то, что Ф. Ходжаев жил в Бухарском эмирате и хорошо знал его внутривластную ситуацию, формировался как общественный деятель под влиянием идеологии джадидов и имел твердую гражданскую позицию, обусловили высокий

информационный уровень работы, предельную объективность и достоверность изложенного материала.

Рецензия П. Галузо (Г. Туркестанского) положила начало негативному отношению историков к движению джадидов: «Разбор классовой сути джадидов приводит нас к выводу, ... что джади́ды были самыми обыкновенными мелко-буржуазными демократами, ... в смысле социальной никакой эволюции у них не происходило. Джади́ды, как родились буржуазными демократами, так такими же демократами влились в коммунистическую партию...» [31]. Представители движения были обвинены в панисламизме, пантюркизме, поскольку их деятельность никак не вписывалась в рамки новой идеологии. Официальная оценка джадидизма была четко и бескомпромиссно сформулирована секретарем компартии Узбекистана А. Икрамовым: «Разбор классовой сути джадидов приводит нас к выводу, ... что джади́ды были самыми обыкновенными мелко-буржуазными демократами, ... в смысле социальной никакой эволюции у них не происходило. Джади́ды, как родились буржуазными демократами, так такими же демократами влились в коммунистическую партию...» [32].

Эта точка зрения, родившаяся в 20-е годы XX в., затем прочно утвердилась в советской исторической науке. И только благодаря достижению Узбекистаном независимости стало возможным дать объективную оценку этому феномену в нашей истории. Под руководством профессора Д.А. Алимовой в республике сформировалась научная школа по изучению движения джадидизма, роли лидеров джадидской интеллигенции в развитии политической и культурной жизни края, значения для современников их творческого наследия.

Происходящие в общественно-политической жизни республики события со всей очевидностью свидетельствовали, что во второй половине 20-х годов в исторической науке процесс установления марксистско-ленинской идеологии в качестве единой мировоззренческой системы продолжал активно продвигаться. Из общей проблемы истории компартии Туркестана были отдельно выделены вопросы истории большевизма; усилился марксистско-ленинский подход к изучению этих вопросов, определились узловые моменты в их исследовании. В свете этого интересно выделить статью Е. Зелькиной «Как не нужно писать историю коммунистической партии Туркестана» [33], в которой подвергалась резкой критике статья Е. Федорова «К истории КПТ» [34]. Обе эти статьи были также опубликованы на страницах журнала «Коммунистическая мысль». Е. Федоровым была предпринята первая попытка изложить историю компартии Туркестана в целом. Автором был привлечен широкий круг источников: материалы съездов КПТ и советов, партийные документы центральных органов. В статье поставлены такие вопросы, как место национального вопроса в политике партии, структура партийного аппарата. Основной критике со стороны Е. Зелькиной подверглись такие положения, как так называемая «троцкистская» интерпретация вопроса о возникновении компартии, об истоках ее большевизации: «В этом очерке совершенно не показана, как росла, укреплялась и большевизировалась партия, в борьбе с какими уклонами росли ее кадры, как она преодолевала многочисленные антипартийные уклоны в своей среде. Между тем, только такая постановка истории партии, как история ее большевизации, вырывает ее из академических кабинетов, связывает с текущей политической жизнью, «политизирует» (это как раз то, чего следует категорически избегать в исторической науке – Н.М.) историю партии» [35].

Работа Е. Зелькиной по сути явилась тем краеугольным камнем в развитии исторической мысли, который практически ставил жирную точку в долгих спорах, дискуссиях, высказываниях многочисленных точек зрения, иначе говоря в плюрализме мнений в пользу окончательного выбора идеологии и направления, по которому должна развиваться историческая, а точнее историко-партийная наука в Узбекистане. Однако, парадокс заключался в том, что призывая к «политизации» истории, к ее фактическому искажению, автор при этом остается верным духу своего времени, говоря об особых условиях колониальной революции, о медленном темпе перерастания буржуазно-демократической революции в социалистическую, о сравнительно большем удельном весе национальной буржуазии и национальной интеллигенции и о пассивности пролетарских и полупролетарских элементов коренного населения и их идейном подчинении национальной буржуазии, которая, по мнению Е. Зелькиной входила в компартию не для борьбы за коммунизм, а потому, что считала рамки партии наиболее удобной формой для проведения в жизнь идей национализма. По сути так оно и было. Со стороны

большинства лидеров джадидской интеллигенции и даже представителей мусульманского духовенства вступление в ряды коммунистической партии было своеобразным тактическим ходом. Это вовсе не свидетельствовало о том, что они безоговорочно приняли большевистскую доктрину. Известный представитель джадидизма Мунаввар Кори Абдурашидханов, выступая в 1919 году на Ташкентском городском партсобрании, сказал следующее: «Я вошел в коммунистическую партию потому, что считаю это полезным для моего узбекского народа, если для блага моего народа нужно будет войти в какую-нибудь другую партию, я в нее войду». Это во многом символичное высказывание, долгие годы, вплоть до ареста и гибели являлось жизненным кредо наиболее ярких представителей джадидизма.

~Литература

1. От редакции. // Коммунистическая мысль. Кн.1 – Ташкент, 1926, с.4
2. Сафаров Г. Колониальная революция. (Опыт Туркестана). - М.: Госиздат. 1921.-147 с.
3. Муравейский С. (Лопухов). Сентябрьские события в Ташкенте в 1917 г. (по архивным материалам и опросам участников). // Пролетарская революция. 1924. № 10, с.139-161
4. Рыскулов Т. Революция и коренное население Туркестана.(Сборник главнейших статей, докладов, речей и тезисов). С предисловием автора. Ч.1. 1917-1919.-Ташкент. 1925.-218 с.
5. Ходжаев Ф. Десять лет борьбы и строительства (К десятой годовщине Октября).- Самарканд-Ташкент: Госиздат УзССР. 1927.-42 с. //Избр. труды. Т.П.-Ташкент: Фан. 1972.-С.110-157.
6. Резцов Л. Октябрь в Туркестане.-Ташкент: Средазкнига. 1927.-119 с.
7. Сафаров Г. Указ соч.- С.83, 85
8. «Правда», 1920, 20 июня
9. Муравейский С. Указ. соч., с.138
- 10.Ходжаев Ф. Избр. труды. Т.П.-С.112,113.
- 11.Силонов А. Февральская революция в Средней Азии. // Коммунистическая мысль. Кн. 3. – Ташкент, 1927, с.240
- 12.Федоров Е. О восстании 1916 г. в Туркестане. // Коммунистическая мысль. Кн. 2 – Ташкент, 1926, с.167
- 13.Силонов А. Указ. соч., с. 246
- 14.Силонов А. Указ. соч., с. 264
- 15.Туркестанский Г. Очерки революционного движения в Средней Азии. // Коммунистическая мысль. Кн. 1. – Ташкент, 1926, с. 213
- 16.По поводу выступления тов. Меницкого. // Коммунистическая мысль. Кн. 2. – Ташкент, 1926, с. 177
- 17.Меницкий И. О характеристике событий 1916 г. в Туркестане. По поводу ст. Тов. Рыскулова «Восстание туземцев в Туркестане». // Коммунистическая мысль. Кн. 2. – Ташкент, 1926, с.151
- 18.Галузо П. 16 год в Туркестане и как не следует о нем думать. // Коммунистическая мысль. Кн. 2. – Ташкент, 1926, с. 168
- 19.Рыскулов Т. По поводу выступления тов. Меницкого... – С.178
- 20.Меницкий И. указ. соч., с. 154
- 21.Галузо П. Указ. соч., с.172
- 22.Рыскулов Т. Указ. соч., с.173
- 23.Кузьмин Н. О марксистском понимании восстания 1916 г. // Коммунистическая мысль. Кн. 2. – Ташкент, 1926, с.192
- 24.Туркестанский Г. Об одном историческом документе. // Коммунистическая мысль. Кн. 2. – Ташкент, 1926, с.137
- 25.Ходжаев Ф. Справка и ответ. // Коммунистическая мысль. Кн. 3. – Ташкент, 1927 , с.155
- 26.См. Туркестанский Г. Об одном историческом документе... – Сс. 137,138,145
- 27.См. Туркестанский Г. Об одном историческом документе... – Сс. 141, 142, 144
- 28.Ходжаев Ф. К истории революции в Бухаре.. Избр. труды. Т.1. – Ташкент, 1970, с.76-89

- 29.Ходжаев Ф. Справка и ответ. // Коммунистическая мысль. Кн. 3. – Ташкент, 1927, с. 154
- 30.Ходжаев Ф. Справка и ответ... – с.161
- 31.Туркестанский Г. Об одном историческом документе. – С. 143
- 32.Туркестанский Г. Об одном историческом документе. – С. 143
- 33.Зелькина Е. Как не нужно писать историю коммунистической партии Туркестана. // Коммунистическая мысль. Кн. 3. – Ташкент, 1927, сс. 162-167
- 34.Федоров Е. К истории КПТ. // Коммунистическая мысль.. Кн. 2. – Ташкент, 1926, сс.48-91
- 35.Федоров Е. К истории КПТ. // Коммунистическая мысль.. Кн. 2. – Ташкент, 1926, сс.48-91

УДК: 9(575.1)

РАЗВИТИЕ МЕЖДУНАРОДНОГО ТУРИЗМА НА ШЕЛКОВОМ ПУТИ И ЕГО ПОПУЛЯРИЗАЦИЯ

Г. Эгамбердиева

Национальный университет Узбекистана им. Мирзо Улугбека

E-mail: mnadira2000@mail.ru

Аннотация. В статье анализируются основные мероприятия, в частности, научные конференции, форумы, проведенные под эгидой ЮНЕСКО и ЮНВТО, способствующие изучению, популяризации и продвижению туристического бренда «Шелковый путь», участие в них республики Узбекистан.

Ключевые слова: историко-культурный туризм, популяризация, Шелковый путь, научные конференции, стратегический сектор экономики, привлечение инвестиций, Узбектуризм, Всемирная Туристическая Организация (ЮНВТО).

Xalqaro turizm taraqqiyotida ipak yo‘li va uning ommalishtirilishi

Annotatsiya. Ilmiy maqolada asosan YUNESKO va Butunjahon turizm tashkiloti (UNWTO) tomonidan o‘tkazilgan xalqaro miqyosdagi konferensiyalar, forumlar va anjumanlar tahlil qilingan. Xalqaro turistik brendini rivojlantirishda “Ipak yo‘li” ning ahamiyati yoritilgan.

Kalit so‘zlar: tarixiy-madaniy turizm, ommalashtirish, Ipak yo‘li, ilmiy konferensiya, iqtisodiy hamkorlik, investitsiya, O‘zbekturizm, Butunjahon turizm tashkiloti (UNWTO).

Development of international tourism on the silk road and its popularisation

Abstract. The article analyzes the main activities, in particular, scientific conferences, forums held under the auspices of UNESCO and UNWTO, which contribute to the study, promotion and promotion of the tourist brand "Silk Road", the participation of the Republic of Uzbekistan in them.

Keywords: Historical and cultural tourism, popularization, Silk Road, scientific conferences, strategic sector of economy, attraction of investments, Uzbektourism, World Tourism Organization (UNWTO).

В развитии международного туризма на Шелковом пути большую роль играет его популяризация и изучение.Ряд прошедших в последние годы (2015 – 2017 гг.) международных конгрессов и конференций, еще раз поддерживают неослабевающий интерес научной общественности к тематике Великого Шелкового пути.

Так в декабре 2015 в Республике Корея прошла международная научная конференция «Восточная сказка о Шелковом пути» 2015, организованная ЮНЕСКО совместно с муниципальными органами власти города Кёнджу и провинции Кёнсан-Пукто. На заседании собрались выдающиеся научные сотрудники и эксперты Республики Корея, Японии, Китая и других стран на территории Великого Шелкового пути, а также представители города Кёнджу и провинции Кёнсан-Пукто.

Губернатор Ким Кван-Йон и мэр Чой Ян Сик в своей речи подчеркнули важную роль провинции Кёнсан-Пукто и города Кёнджу на территории маршрутов восточного Шелкового пути, а также значение вклада в дело поощрения культурных и торговых обменов среди

народов в этих регионах на протяжении всего тысячелетия, главным образом, в период правления династии Силла (57 г. до н.э. – 935 г. н. э.). Ораторы обратили внимание на присутствие древней традиции Буддизма в этих регионах как свидетельства обмена вероисповеданиями и убеждениями здесь и на других территориях восточного Шелкового пути.

Основными темами обсуждения на международной конференции стали "Влияния и символы восточного Шелкового пути", "Охрана и сохранение культурного наследия Шелкового пути", "Нематериальное наследие Шелкового пути", "Подводное наследие Шелкового пути" и "Поощрение взаимопонимания и терпимости путем свободного обмена знаниями и обменами на Шелковом пути".

В ходе конференции было рассмотрено, главным образом, наследие восточного Шелкового пути на Корейском полуострове, в Китае и Японии, учитывая достигнутые успехи в рамках инициативы Шелковый путь в Средней Азии и Афганистане, о которых также шла речь во время этого заседания.

Конференция дала уникальную возможность для диалога и обмена между экспертами Шелкового пути из Китая, Японии, Узбекистана, Республики Корея, Казахстана, Ирана и Соединенного Королевства. Кроме того, участники конференции смогли посетить исторические памятники в Кёнджу, такие как Пещерный храм Соккурам, Пульгукса, а также выставку Шелковый путь и Национальный музей Кёнджу[1].

В рамках Международного фестиваля искусств «Сердце Евразии» 28 мая 2016 года в г. Уфе в Конгресс-холле состоялась Международная научно-практическая конференция «Перекресток культур: межкультурный диалог и сотрудничество на евразийском пространстве». Международный форум прошел под эгидой ЮНЕСКО при поддержке МИД РФ и Российской Комиссии по делам ЮНЕСКО. В работе конференции приняли участие представители Узбектуризма регионов Узбекистана, России и зарубежных стран. Участники обсудили ряд важных вопросов: охрана и использование историко-культурного наследия в Евразийском пространстве; культурное наследие в пространстве межэтнического взаимодействия в Евразии; национальная идентичность; религия и культура; традиции народов Евразии; современное искусство, межкультурное взаимодействие по линии проекта ЮНЕСКО «Шёлковый путь» и других инициатив в этой области[2].

Со 2 по 25 сентября 2016 г. состоялся международный симпозиум на тему «Мир шелка» в Ханчжоу (Китай), целью которого стало изучение способов рукоделия из шелка в разных регионах мира и освящение культурных и технологических воздействий посредством шелководства и производства шелка.

Мероприятие было организовано Китайским Национальным музеем шелка при поддержке китайской провинции Чжэцзян, отметив тем самым открытие новых зданий музея. Симпозиум был официально открыт торжественной речью представителей провинции Чжэцзян, китайской компании по социальным и гуманитарным наукам, Китайского Национального музея шелка и ЮНЕСКО. В заседании приняли участие эксперты и исследователи из Узбекистана, Китая, Японии, Республики Корея, Монголии, Таджикистана, Индии, Ирана, Российской Федерации, Болгарии, Италии, Франции, Дании, Финляндии, Великобритании, США, которые представили историческое и современное состояние шелководства и производства шелка.

На экспозиции по шелковому искусству «Мир шелка» Китайского Национального музея шелка были представлены шедевры из шелка VIII века до наших дней из разных китайских учреждений, а также из Национального Музея Токио в Японии, Национального Дворца-музея Кореи, Российского Государственного музея Востока и Энтомологического Музея Падуя в Италии.

Симпозиум был организован параллельно с ежегодным заседанием Международной Ассоциации по исследованию текстиля Шелкового пути (IASSRT).

В ходе симпозиума были проведены культурные мероприятия, демонстрирующие производства шелка и другие, связанные с шелком культурные аспекты[3].

С 13 по 15 октября 2016 года в Улан-Баторе в Монголии прошла Международная конференция по Шелковому пути «Кочевой туризм и устойчивые города». Целью конференции стало изучение культуры кочевого народа и возможностей развития туризма на Шелковом

пути, развитие нового туристического брэнда и повышения осведомленность о необходимости охраны и защиты наследия кочевников[4].

С 26 по 28 октября 2016 года в Валенсии, Испания, состоялся Международный конгресс на тему «История Шелкового пути в Испании и Португалии», организованная факультетами истории и географии Университета Валенсии, Агентством по туризму Валенсии и Департаментом Образования, исследований, культуры и спорта. Мероприятие проводилось совместно с отделом международных отношений проректорского управления по территориальному участию и планированию Университета Валенсии, Института Конфуция, координатором онлайн-платформы ЮНЕСКО «Шелковый путь» в Испании, а также морской корпорацией «Болуда».

Данное заседание было организовано на примере встречи, названной университетом Барселоны «Испания и Португалия на Шелковом пути: десять веков производства и торговли между востоком и западом», которая прошла в штаб-квартире Международного университета Менендеса Пелайо в Валенсии в 1993 году. С тех пор учреждения Валенсии способствовали возрождению ремёсел Шелкового пути, что привело к инициативе проведения "Валенсия - Город шелка 2016 года», поддержанной парламентом Валенсии.

Основной целью Конгресса, в котором активное участие приняли представители Узбекистана, стало исследование роли Пиренейского полуострова, которую он сыграл в развитии культурных, экономических и социальных отношений на Шелковом пути. Кроме того, в связи с географическим положением Испании и Португалии на юго-западе евразийских маршрутов, была изучена его роль в расширении Шелкового пути и в Америку. Таким образом, в ходе конгресса было рассмотрено историческое влияние шелковой торговли на Пиренейском полуострове. Проанализировано появление шелкового производства на Пиренейском полуострове после мусульманского вторжения, развитие и рост шелковой промышленности в Гранаде, Андалусии позднего средневековья, в период Габсбургской династии в Толедо; Мурсии в современную эпоху. Особое внимание ученые обратили на период XVIII века, на протяжении которого Мадрид играл роль производителя, потребителя и посредника в распространении шелка. Также были изучены вопросы торговли различными сортами шелка на испанском колониальном рынке и влияние шелковой торговли на экономику Каталонии. Современная эпоха было рассмотрена в рамках влияния появления шелка в регионе Арагон и в Португалии в переходный период от средневековья к современности. Рассматривались и вопросы влияния Манильских галеонов, испанских торговых судов, на развитие коммерческих маршрутов из колониальной Мексики, которые в дальнейшем приобрели глобальный статус[5].

В апреле 2017 г. в Китае прошел Международный молодежный форум, посвященный наследию Великого Шелкового пути. Он был организован ЮНЕСКО. В форуме принимали участие представители молодежи из стран, через которые проходил легендарный торговый путь, в том числе из Казахстана, Кыргызстана, Таджикистана, Туркменистана, Азербайджана, Армении и Грузии.

В городах Чанша и Гуаньчжоу в течении недели обсуждалась роль молодежи в защите и сохранении культурного наследия Шелкового пути. В рамках форума, в частности, были созданы специальные программы обучения в этой сфере и учреждены стипендии[6].

Также мы можем констатировать, что:

- во-первых, существует ряд экономически выгодных и альтернативных друг другу проектов возрождения транспортной составляющей ВШП, предложенных и разработанных лидерами стран Европы и Азии;
- возрождаемый ВШП включает в себя не только наземные коммуникации – авто и железные дороги, но и морские маршруты;
- строительство и прокладка новых путей, реконструкция старых зачастую осложняет нестабильной политической и экономической ситуацией в ряде государств, несовершенством законодательств, столкновением геополитических интересов;
- развитие и популяризация туризма на Шелковом пути будут всемерно способствовать не только развитию экономик стран ВШП, но и поддержанию мира и укреплению безопасности.

Литература

2015.

1. Конференция «Восточная сказка о Шелковом пути»
www.ru.unesco.org/silkroad/content/konferenciya-vostochnaya-skazka-o-shelkovom-puti
2. Международная научно-практическая конференция «Перекресток культур: межкультурный диалог и сотрудничество на евразийском пространстве» в Уфе, Республика Башкортостан. // www.ru.unesco.org/silkroad/content/mezhdunarodnaya-nauchno-prakticheskaya-konferenciya-perekrestok-kultur-mezhkulturnyy-dialog
3. «Мир шелка»: обсуждение вопроса о многообразии шелкового искусства. // www.ru.unesco.org/silkroad/content/mir-shelka-obsuzhdenie-voprosa-o-mnogobrazii-shelkovogo-iskusstva
4. Международная конференция по Шелковому пути «Кочевой туризм и устойчивые города» // www.ru.unesco.org/silkroad/content/mezhdunarodnaya-konferenciya-po-shelkovomu-puti-kochevoy-turizm-i-ustoychivye-goroda
5. Международный конгресс: «История Шелкового пути в Испании и Португалии». www.ru.unesco.org/silkroad/content/mezhdunarodnyy-kongress-istoriya-shelkovogo-puti-ispanii-i-portugalii
6. В Китае стартовал молодежный форум, посвященный наследию ВШП. www.un.org/russian/news/stori.asp

UDK: 930(575.1)

**TURKISTON O'LKASIDA TASHKIL ETILGAN DASTLABKI XAYRIYA
JAMIYATLARI**

D.N. Abdullayev

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti

Аннотация: Мақола Туркистон о'лқасида маҳаллий аҳоли учун турли хил жамиятлар ва муассасалар ташкил этилганлиги, уларнинг асосий ташаббускорларини маҳаллий бадавлат кishилар, ядид ма'рифатпарварлари ва илм аҳли ziyolilari ташкил этганлиги, Туркистон о'лқасида амалга оширилган xayriya, sahovatpeshalik va homiylik жамиятда ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy jarayonlarni tubdan isloh qilishda, maҳalliy aholining ilm-fan, ta'lim sohasida yuksalishiga, Turkistonning dunyoni ko'rish orzusiga o'z hissasini qo'shganligi va qadriyat sifatida shakllanganligi bayon etilgan.

Калит со'злар: imperiya, fuqarolik jamiyati, e'tibor, g'amxo'rlik, ijtimoiy himoya, xayriya, mehr-muruvvat, sahiylik, homiylik, siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy jarayonlar.

Первоначальное благотворительное общество за период туркестанского края

Аннотация: В данной статье излагается об образовании различных обществ и учреждений для местного населения Туркестанского края, основными инициаторами, которого были местные богатые люди, джадидские просветители и интеллигенция. Благотворительности, спонсорские дела совершенные в Туркестанском крае служили коренному реформированию социальных, экономических, культурных процессов в обществе внесли свой вклад для осуществлению мечты Туркестана увидеть мир и формировании ценностей.

Ключевые слова: империя, гражданское общество, внимание, забота, социальная защита, благотворительность, милосердие, щедрость, социальный, экономический, культурный процесс, политический.

Charity organizations which were held in the country of Turkestan

Annotation: The article devotes to the establishment of various societies and institutions for the local population Turkistan region, their main initiators were local wealthy men, jaded educators and scholars, and radically reformed social, economic and cultural processes in a charity, generous and sponsored society in Turkistan, the rise of the local population in science, education, Turkistan's contribution to its value.

Keywords: Empire, civil society, attention, care, social protection, charity, charity, generosity, sponsorship, political, social, economic, cultural processes.

O'zbekistonning yangi rivojlanayotgan pallasida o'ziga xos, o'ziga mos taraqqiyot yo'lidan borayotgan bir davrda tarixni yanada chuqurroq o'rganib, uni to'g'ri, xolisona yozish va bugungi yosh avlodga yetkazish masalalari dolzarbliki taqazo etadi. Rivojlangan davlatlar qatoriga intilayotgan yurtimizda jamiyat taraqqiyotining har bir sohasi (siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy)ga e'tibor oshib bormoqda. Mamlakatimizda fuqarolik jamiyatini rivojlantirishda aholi turmush darajasini oshirish, ijtimoiy himoya tizimini yanada kuchaytirishga oid yangi chora-tadbirlar ishlab chiqilib, amaliyotga tadbir etilmoqda. Ijtimoiy himoyaning muhim omili bu –fuqarolar va ularga bo'lgan e'tibor, g'amxo'rlik sanaladi. Tarixiy ildizlari o'tmishga borib taqalgan ijtimoiy himoya tizimidagi milliy qadriyatlar hisoblangan xayriya, mehr-muruvvat, saxiylik, homiylik masalalari tariximizning turli davrlarida turlicha qarashlar, yangicha yondashuvlar tizimida shakllanib kelgan. Chor Rossiyasi Turkiston o'lkasini bosib olgungacha bo'lgan davrda tariximizda xayriya, saxiylik va homiylik masalalari sharqona tarzda namoyon bo'lgan. Bundan keyingi tarixiy bosqichda esa yangicha yondashuvlar, qarashlar ostida milliy qadriyatlar rivojlanib bordi. XIX asr oxiri – XX asr boshlariga kelib, Turkiston o'lkasida saxiylik, xayriya va homiylik masalasi o'zgacha talqinda tus oldi, ya'ni turli xil jamiyat, uyushma, muassasalar negizida aholiga ijtimoiy xizmat ko'rsatish, beg'araz yordam, ko'maklashuv turlari paydo bo'ldi.

Turkiston o'lkasida xayriya jamiyatlarining tuzilishi XIX asrning 70 – yillariga to'g'ri keladi. Turkiston o'lkasida birinchi xayriya tashkiloti 1872 yilda viloyat mamuriyati tomonidan ochilgan "Vasiylik bo'yicha viloyatga qarashli bolalar uyi" deb nomlangan, ushbu tashkilotning o'zi bir necha jamiyatlarga bo'lingan va ular mustaqil faoliyat olib borgan. Ularning birinchisi, og'ir sharoitdagi fuqarolar uchun 70 kishilik Fon Kaufman nomidagi "Bolalar uyi" (1872), ikkinchisi, "Aleksandrga qarashli bolalar uyi" (1882) [1] edi. Ushbu tashkilotlar Turkiston o'lkasida yashovchi rus bolalarini qabul qilib, ularga o'qish va yozish o'rgatilgan. Turkiston o'lkasi mahalliy aholi kam ta'minlangan, muhtoj bo'lgan oilalar bolalarining bu tadbirlarga jalb etilmaganligi Rossiya imperiyasi tomonidan Turkiston mahalliy aholisi hayoti borasida ijobiy o'zgarishlar bo'lmaganligidan dalolat beradi. Shuningdek, Turkiston o'lkasida "Rossiya Qizil Xoch jamiyatining Turkiston tumani ma'muriyati", "Turkiston xayriya jamiyati", "Yarador va bemor harbiylar jamiyati", "Oq xochning harbiy xayriya jamiyati", "Jonzotlar himoyachilari, vokal va dramatik sanatni sevuvchilar" jamiyati kabi bir qator xayriya tashkilotlari tuzilgan. Xayriya jamiyatlari a'zolari rus aholisining turli qatlamlari vakillarini o'z ichiga olgan va ular Turkiston o'lkasidagi rus aholisi uchun faoliyat yuritardi.

XIX asr so'nggi choragida, Turkiston o'lkasida Rossiya imperiyasi xayriya tashkilotlarining umumiy soni 64 tani tashkil etgan. Ulardan 32 tasi xayriya jamiyat[2]lari, 19 tasi xayriya muassasa[3]lari, 3 tasi cherkov xayriya jamoalari hisoblangan. 1872 – 1901 yillar davomida Turkiston o'lkasida ruslar tomonidan ochilgan 83 xayriya tashkiloti faoliyat olib borgan[4]. Ta'kidlash joizki, Turkiston mintaqasi uchun sakson uchta xayriya tashkiloti Rossiya imperiyasining boshqa bosib olgan hududlariga nisbatan juda kam hisoblangan. Turkiston rus ma'muriyatining rasmiy ma'lumotlariga ko'ra, mintaqaning har 100 ming aholisi uchun 0,97 xayriya tashkiloti to'g'ri kelgan[5]. Ruslar tomonidan xayriya tashkilotlari Turkiston o'lkasida asosan, shaharlarda ochilgan. Ushbu tashkilotlar asosan Turkiston o'lkasidagi rus xalqi uchun, kamdan kam hollarda esa mahalliy aholiga yordam ko'rsatgan. Ruslar tomonidan tashkil etilgan xayriya tashkilotlari eng arzon oshxonalar, bepul uy-joylar va bolalar uylari bilan chor Rossiyasidan kelgan muhojirlarni qo'llab-quvvatlash ishlariga e'tibor qaratgan[6]. Mahalliy aholiga yordam berish uchun kichik tibbiyot bo'limlari tashkil etilib, ular o'lkaning markazdan uzoq bo'lgan hududlarida ochilgan, shu sababli tub aholi bor imkoniyatlardan ham yetarlicha foydalana olmagan. Mavjud rus xayriya tashkilotlari faoliyati rus xalqi uchun juda past darajada bo'lgan bo'lsa, mahalliy Turkiston o'lkasi aholisi uchun deyarli sezilmagan. Ma'lumot o'rnida aytish mumkinki, 1872 yilda ochilgan Turkiston xayriya jamiyati mahalliy aholi uchun xizmat ko'rsatuvchi yagona jamiyat bo'lgan. Masalan, 1901 yilning kuzida Turkiston xayriya jamiyati teatrlashtirilgan va lotereya o'yinlariga doir bir qator tadbirlar o'tkazgan, yozgi ta'til paytlarida bolalar uchun hunarmandchilik to'garaklari tashkil etgan. Ushbu tadbirlarda mahalliy xalqlar ham ishtirok etishgan.

Mahalliy aholi tomonidan xayriya jamiyatlarining tashkil etilishi va rivojlanishi Turkiston o'lkasining ozodligi uchun ijtimoiy-madaniy kurash olib borgan jadidlar faoliyatining bir yo'nalishi sifatida namoyon bo'ladi. Turkiston o'lkasida musulmon xayriya jamiyatlarini tashkil etish masalasi ilk bor 1906 yilda "Taraqqiy" gazetasida muhokama qilingan. Toshkent musulmonlari ziyolilari tuzilajak xayriya jamiyatlari faoliyati masalasiga Rossiya imperiyasining boshqa hududlaridagi

musulmonlarning e'tiborini qaratishga harakat qilganlar. O'sha davrda xayriya masalasiga doir Toshkentda maqola yozilgani, unda muallif Turkiston o'lkasida hech qanday xayriya jamiyati yo'qligini afsus bilan qayd etgani 1908 yilda "Vaqt" gazetasida bosilib e'lon qilingan. Maqolada ijtimoiy-iqtisodiy ko'mak beruvchi jamiyatlarni tashkil qilish, maktablarni ochish, kambag'allarga yordam berish o'rniga, yoshlar aysh-ishratdan bosh ko'tarmaganligini, boylarning to'ylarda isrofgarchilikka yo'l qo'yayotganligi ta'kidlab yozilgan[7]. Shuningdek, taniqli ma'rifatparvar Laziz Azizzoda (1895-1987) Turkiston o'lkasidagi tiklanish davrining shakllanishi va rivojlanishi to'g'ridan-to'g'ri ta'lim, matbuot va xayriya jamiyatlari bilan bog'liqligini, "Tarjimon" musulmon matbuoti bu sohalarining faoliyatini yoritishdagi o'rni va rolini qayd etib o'tgan. XIX asr oxirida, Turkiston ijtimoiy hayotida xayriya ko'rinishining barcha turlari mavjud edi. Ularning aksariyati Buxoro amirligi va Xiva xonligi tomonidan qo'llanilgan. Turkiston o'lkasida dastlab xayriya jamiyatlari bo'lmagan aksincha, mahalliy aholining boy qatlami tomonidan alohida amalga oshirilgan. Misol sifatida Turkiston o'lkasida mahalliy aholidan ko'ngilli shaxslar o'z mablag'larini masjidlar, maktablar, ko'priklar, yo'llar qurilishiga sarf etganlar. Masalan, Toshkentning obro'li boylaridan biri sanalagan Mira'zam Miroxunov aholiga xayriya sifatida 2500 oltin hisobidagi ipak qurti urug'ini taqdim etgan, shaharning boshqa savdogari Isxoqxonboy Toshkentning musulmonlar yashaydigan qismi qurilishiga 1000 rubl sarf etgan, andijonlik Mirkomilboy Mo'minboyev Kultepa shahrida madrasa, rus-tuzem maktablari, kasalxona va hammomlar qurish uchun 500 ming rubl ehson qilgan. Yana bir jihatiga e'tibor beradigan bo'lsak, boshqa musulmon hududlaridan farqli tarzda Turkistonda beg'araz yordam, xayriya ishlari pul tarzida emas asosan, non, oziq-ovqat, don, kiyim-kechak va poyabzal ya'ni, natural xo'jalik shaklida amalga oshirilgan. Turkiston o'lkasida "Turkiston xayriya jamiyati" tashabbusi bilan 1899 yili Toshkentda, keyinchalik, Eski Marg'ilonda mahalliy musulmon aholisi uchun ikkita "G'amxo'rlik uyi" tashkil etildi. Ular uchun musulmonlarning boy qatlami tomonidan katta miqdorda pul berildi. Marg'ilonda savdogar Yusufali Saidxo'jayev ushbu tashkilotlarga pul to'plash bilan shug'ullangan. [8] Keyinchalik bu muassasa Turkiston Xayriya jamiyatining mahalliy bo'limi tomonidan qo'llab-quvvatlangan[9].

XIX asr so'nggi choragida Turkistonda xayriya munosabatlarida maxalliy aholi boy qatlamining faoliyati yuqori ahamiyat kasb etgan bo'lsa, XX asr birinchi choragida rus jamiyatlarining ta'sirida Turkistonda mahalliy ziyolilar, jadidlar, ma'rifatparvarlar tomonidan xayriya jamiyatlari tashkil etila boshlandi. Jadidchilik harakatining Turkistonda mustaqillik uchun kurashida musulmon xayriya jamiyatlarining tuzilishi siyosiy, ijtimoiy va madaniy ahamiyat kasb etdi, ta'lim va madaniyat sohalarini inobatga olgan holda rivojlantirishni ta'minladi va Turkistonning turli hududlarida jadidlar tomonidan asos solingan xayriya jamiyatlari orasida "Tarbiyayi atfol", "Jamiyat taraqqiyoti maorifi Buxoro", "Jamiyati xayriya", "Ko'mak", "Imdodiya" eng mashhur jamiyatlar sifatida nom qozondi. Bu va boshqa jamiyatlar faoliyatlari davomida insonparvarlik tamoyillariga asoslangan beg'araz yordam va xayriya yo'nalishlaridan bordi. Misol uchun, 1909 yil 12 may kuni Toshkentda Turkiston jadidlarining dastlabki "Jamiyati xayriya" tashkiloti talabalarni chet ellarda o'qitish ishiga rahbarlik qildi. Uning ko'magida yoshlar chor Rossiyasining Peterburg, Saratov, Qozon, Ufa, Orenburg shaharlaridagi oliy maktab va madrasalariga, shuningdek, Istanbul, Qohira kabi xorijiy shaharlardagi dorilfununlarga o'qishga yuborila boshlandi. Shuningdek, 1909 yil 18 iyulda Buxoro shahrida tuzilgan jadidlarning "Tarbiyayi atfol" jamiyati shu yilning o'zida Fitrat, Usmonxo'ja Po'latxo'ja o'g'li, Ato Xo'ja, Mazhar Burxonov kabi ko'pgina yoshlarni Istanbulga o'qishga yo'llagan. Turkistonda faoliyat olib borgan jamiyatlar ko'magida Buxorodan chet elga tahsil olish uchun yuboriladigan talabalar soni 1911 yili 15 nafarga, 1912 yili 30 nafarga yetgan[10]. Keyinchalik shunday talabalar orasidan Fitrat, G'ozli Olim Yunusov, Xolid Said, Eson afandi Musayev kabi yozuvchi, olimlar, Mustafxo'jayev, Ubaydulla Xo'jayev, Norbo'tabekov kabi yetuk huquqshunoslar yetishib chiqdi. Bularning o'zaro tashabbusini ko'rgan O'zbek bilim hay'ati ham o'z tashabbusi orqali umid bilan ishga kirishib va chetga ketuvchi talabalarining o'zlaridan bir komissiya tuzib va bunga o'z a'zosi bo'lgan Sayyid Alixo'jani boshliq etib, "Ko'mak" nomi ostida yana bir xayriya uyushmasini tuzganligi[11] ham Turkistonda xayriya munosabatlariga bo'lgan e'tiborning o'sganligidan dalolat beradi. "Ko'mak" tashkilotining yuzaga kelish jarayonini Salimxon Tillaxonov o'z maqolasida quydagicha tasvirlaydi. "Ko'mak" uyushmasining maqsadi Turkiston talabalariga oliy tahsil asoslarini yaratmoq, xorijga va ichki Rossiyaga borib o'quvchilarning ishlarini yengillashtirishdir. Tashkilot, birinchi navbatda "Toshkent dorilfununi va boshqa maktablarda o'quvchilar o'qishda davom etib turgan chog'laridagi ko'rgan qiynliklarni tajribadan kechirganlaridan keyin va kelgusida o'quvchilarini va yuqori tahsillarini

tamom qilmoqlari uchun tashkil etildi”, - deydi. “Rossiyada va chet ellarda ko‘radigan qiyinliklarini ko‘zda tutib: Sayyid Alixo‘ja, Ibrohim Orifxonov, Kamol Dodaxo‘ja o‘g‘li, Rizqi Raximiy, Abduvohid Jahongir, To‘lagan Mo‘min o‘g‘li, Ochil Xo‘ja, Ahmad Shukriy, Tohir Shokiriy va Salimxon Tillaxonovlar to‘planib 1922 yil 2 mayda “Ko‘mak” uyushmasini uyushtirdilar” [12]. Bir jihatga e‘tibor qaratish kerakki, “Ko‘mak” uyushmasi tashkil etilgandan so‘ng kecha-kunduz ishlab turli joylardan“ gadoylik qilib bo‘lsa-da” bir kishini chetga yuborishga intilgan va bunga erishgan. Manbalarda uyushma tomonidan chetga birinchi bo‘lib, Abduvahhob Murodiy o‘qish uchun yuborilganligi qayd etib o‘tiladi[13]. Shuningdek, 1923 yil yanvarda o‘zbek maorifi jonkuyarlari Munavvarqori, Shokir Rahimiy, Mannon Ramz, Abdulhamid Sulaymon (Cho‘lpon), Elbek, Shahid Eson, Zahridin A‘lam, Salimxon Tillaxonov, Xolmuhammad Oxundiylar ishtirokida Toshkentning Eski shahar xalq maorifi bo‘limida o‘tgan majlisida Turkistondagi mavjud holat muhokama etilib, “Nashri maorif” tashkiloti tuzilishi e‘lon qilinadi. Shu yig‘ilishning o‘zida jamiyatning ustavi ham qabul qilinadi. Jamiyatning vujudga kelishida bu paytda Toshkentning Eski shahar ijro qo‘mitasi raisi vazifasida ishlagan M.Ramzning xizmati katta bo‘lib, “Nashri maorif” jamiyatiga rais etib Toshkentning Eski shahar tumani xalq ta‘limi boshqarmasi mudiri Shokirjon Rahimiy, uning o‘rinbosari etib Munavvarqori, kotib vazifasiga Mirkomil Aliyev, g‘aznachi vazifasiga Saidnosir Mirjalilov tayinlangan. Tashkilotning faol targ‘ibotchilari sifatida Avloniy, Cho‘lpon, Xolmuhammad Oxundiy, Tolibjon Musaboyev, Salohiddin Muftiyzoda, Zufar Nosiriy hamda sobiq “Ko‘mak” tashkilotining raisi Salimxon Tillaxonov faoliyat olib borganlar. “Nashri maorif” o‘zining moddiy imkoniyatlarini yanada oshirish maqsadida vaqf mulklaridan foydalanish uchun “Mahkamayi shar‘iya” bilan ham hamkorlikni yo‘lga qo‘yib, beg‘araz yordam, xayriya va homiylik ishlarini amalga oshirgan. 1924 yil yanvariga kelib Markaziy “Nashri maorif” tashkilotida faqatgina rais sifatida Munavvarqori va uning kotibi G‘ozi Olim Yunusov qolgan edi. Tez orada 1924 yil 30 yanvar kuni “Nashri maorif” va “Ko‘mak” uyushmalarini rasman birlashtirish bahonasida chaqirilgan yig‘ilishda Shokirjon Rahimiy “Nashri maorif” jamiyatining faoliyatini to‘xtatish taklifini ilgari surdi. Shundan so‘ng bu tashkilotning tugatilishi to‘g‘risidagi qaror qabul qilindi[14]. Ushbu jamiyat faoliyati uzoqqa bormagan bo‘lsada, lekin o‘sha davr ijtimoiy-madaniy hayotida tub o‘zgarishlarga sababchi bo‘ldi.

Shunday qilib, XIX asrning oxiri XX asr boshlarida Turkiston ijtimoiy-iqtisodiy hayotida turli xil xayriya jamiyatlari, tashkilot va muassasalarining faoliyati ikki xil bosqichda o‘tganligi bilan xarakterlanadi. Birinchi bosqich, XIX asrning so‘nggi choragida, Turkiston o‘lkasida xayriya, hayr-ehsonga bo‘lgan munosabatlar yakkalik tarzida namoyon bo‘ldi, shuningdek bu davrda Rossiya imperiyasining Turkiston o‘lkasida yashovchi rus millatiga mansub fuqarolariga bo‘lgan e‘tibor tufayli xayriya va homiylikka bo‘lgan munosabat shakllandi. Turkiston o‘lkasida xayriya bobida ruslar amalga oshirgan ishlar mahalliy Turkiston aholisi uchun ham ijobiy natijalar ko‘rsatdi. Ikkinchi bosqich, XX asr birinchi choragida xayriya va homiylik nafaqat xususiylik balki, jamoaviylik tarzida namoyon bo‘la boshladi. Turkiston o‘lkasida mahalliy aholi uchun turli xil jamiyatlar va muassasalar tashkil etildi. Bularning asosiy tashabbuskorlarini mahalliy badavlat kishilar, jadid ma‘rifatparvarlari va ilm-ahli ziyolilari tashkil etdi. Turkiston o‘lkasida amalga oshirilgan xayriya, sahoatpeshalik va homiylik jamiyatda ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy jarayonlarni tubdan isloh qilishda, mahalliy aholining ilm-fan, ta‘lim sohasida yuksalishiga, Turkistonning dunyoni ko‘rish orzusiga o‘z xissasini qo‘shdi va qadriyat sifatida shakllanishda davom etdi.

Adabiyotlar

1. Абдирашидов З.Исмаил Гаспринский и Туркестан в начале XX века: связи-отношения-влияние. – Т.: Akademnashr, 2011. – 247-248с.
2. **Jamiyat** – (arabcha, yig‘ilish; uyushma; guruh) 2. Biror maqsadda tuzilgan ixtiyoriy birlashma, ixtiyoriy tashkilot. O‘zbek tilining izohli lug‘ati J harfi. A.Madvaliyev tahriri ostida, “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti. – T. 2006-2008. – 68 bet.
3. **Muassasa** – (arabcha, idora, korxon, tashkilot; institut) xo‘jalik, savdo-sotiq ishlarining biror sohasini boshqaruvchi yoki ilmiy, ta‘lim-tarbiyaviy ishlarini olib boruvchi, belgisi shtat va ma‘muriyatiga ega bo‘lgan tashkilot. M: Davlat ta‘lim muassasalari. Ijtimoiy muassasalar. Ilmiy muassasalar. O‘zbek tilining izohli lug‘ati M harfi. A.Madvaliyev tahriri ostida, “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti. – T. 2006-2008. – 623 bet.

4. Абдирашидов З. Исмаил Гаспринский и Туркестан в начале XX века: связи-отношения-влияние. – Т.: Akademnashr, 2011. – 248 с.
5. Абдирашидов З. Исмаил Гаспринский и Туркестан в начале XX века: связи-отношения-влияние. – Т.: Akademnashr, 2011. – 250 б.
6. Абдирашидов З. Исмаил Гаспринский и Туркестан в начале XX века: связи-отношения-влияние. – Т.: Akademnashr, 2011. – 255 б.
7. Kandi gazetalarimizdan. Vaqt (Tashkandan maktub) //Tarjuman. 1908. №3.
8. Tashkand // Tarjuman. 1899. №38; [Eski Margelanda...] // Tarjuman. 1899. №47.
9. Средняя Азия. Благотворительность в России... – С.24.
10. Irzayev B. O'zbek yoshlari va xorijiy ta'lim. – Toshkent: Akademnashr, 2018. – 9 bet
11. Irzayev B. O'zbek yoshlari va xorijiy ta'lim. – Toshkent: Akademnashr, 2018.
12. Salimxon. "Ko'mak" ning javobi // Turkiston. 1923 yil 29 iyul.
13. Humsonliq. So'nggi ko'makni kimlardan kutishimiz kerak? // Turkiston. 1923 yil 27 yanvar
14. Irzayev B. O'zbek yoshlari va xorijiy ta'lim. – Toshkent: Akademnashr, 2018. – 55 bet.

UDK: 094.9

**TOSHKENT SHAHAR DAVLAT ARXIVINING SOVET DAVRIGA OID
JAMG'ARMALAR TAVSIFI (1917-1991 yillar)**

M. Darmonova

O'zbekiston Respublikasi fanlar akademiyasi tarix instituti

E-mail: mashxura.darmonova@mail.ru

Annotatsiya. Mazkur maqolada Toshkent shahar davlat arxividagi sovet davriga doir fondlarning tarkibi yoritib berilgan. Arxiv saqlorida jami 661 ta fond mavjud bo'lib, bulardan 600 tasi sovet davri, ya'ni 1917-1991 yillarga oid fondlar hisoblanadi. Maqolada ushbu fondlardagi davlat hokimiyati va boshqaruv organlari, sud va prokuratura organlari, xalq xo'jaligi korxonalari, xalq ta'limi va fan muassasalari, mehnat va ijtimoiy ta'minot muassasalari, kasaba uyushmalari va jamoat tashkilotlari hujjatlari tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: arxiv atamasi, yig'majild, jamg'arma, arxiv ishi, islohot, axborot texnologiyalari, axborotlashtirish, alohida qimmatli hujjatlar, elektron hujjat, elektron kartoteka, xalqaro tajriba, Milliy arxiv fondi (MAF).

Описание фондов ташкентского городского архива в советский период (1917-1991гг.)

Аннотация. В данной статье освещается содержание фондов Ташкентского городского архива, относящихся к советскому периоду. В хранении архивов имеется всего 661 фонд, 600 из них относятся к советскому периоду (1917-1991гг.). В статье анализируются документы органов государственной власти и государственного управления, органов судов и прокуратуры, учреждений, организаций и предприятий народного хозяйства, учреждений, организаций и предприятий народного образования, науки, организаций по труду и социального обеспечения и других общественных организаций.

Ключевые слова: архивная терминология, дело, фонд, архивное дело, реформирование, особо ценный документ, информационные технологии, информатизация, электронный документ, картотека, мировой опыт, Национальный архивный фонд (НАФ).

The description of archival funds of Tashkent city at the soviet period (1917-1991)

Annotation. The article illustrates the structure of funds of Tashkent City State Archive relating to Soviet period. There had been 661 funds in the archive whose 600 keep documents of Soviet period, that is to say, from 1917 to 1991. There has been analysed the documents of administrative bodies, courts, public prosecutors' offices, factories of public economy, public education bureaus, scientific organizations, organizations of labour and social support and other organizations in the article.

Keywords: archival terminology, file, fund, archival affairs, reformation, confidential documents, important documents, information technologies, digitalizing, digitalized documents, card catalogue, world experience, national archive fund (NAF).

O'zbekiston SSR Ministrlar Sovetining 1973 yil 16 fevraldagi 55-sonli qarori[6] va Toshkent shahar hokimining 8 avgustdagi 632-sonli qarori asosida Arxiv bo'limi hamda uning tarkibida Toshkent shahar davlat arxivi tashkil etilgan[7].

Arxivda 1917 yildan shu bugungi kunga qadar 650 ming saqlov birligidan ortiq bo'lgan doimiy saqlanuvchi MAF hujjatlari, 80 mingdan ziyod shaxsiy tarkib hujjatlari, shuningdek, shahar davlat arxivining Uchtepa binosida 170 ming saqlov birligida shaxsiy tarkib hujjatlari hamda 522 ming saqlov birligida MAF hujjatlari saqlanmoqda.

Tugatilgan korxonalar, tashkilot va muassasalardan jami – 1961 ta fond saqlovga qabul qilindi, bulardan 686 ta fond Toshkent shahar davlat arxiviga qolgan 1275 ta fond Idoralararo shaxsiy tarkib hujjatlari markaziy arxivi saqloviga qabul qilingan.

Bugungi kunda arxiv saqlovida jami 661 jamg'arma mavjud bo'lib[3], bulardan sovet davri, ya'ni 1917-1991 yillarga doir 600 ta jamg'arma va mustaqillik davri, ya'ni 1991 yildan to shu kunga qadar 61 ta jamg'armalar iborat. Ushbu jamg'armalarning 19 tasida alohida qimmatli hujjatlar saqlanadi va jamg'armadagi hujjatlar 745 ming saqlov birligini tashkil etadi.

Toshkent shahar davlat arxivida sovet davriga oid jamg'armalar quyidagi yo'nalishlarga bo'lib tizimlashtirilgan:

1. Davlat hokimiyati va davlat boshqaruv organlarining jamg'armalari;
2. Sud va pokuratura organlarining jamg'armalari;
3. Xalq xo'jaligi korxonalari, tashkilotlari va muassasalarining jamg'armalari;
4. Xalq talimi va fan muassasalarining jamg'armalari;
5. Mehnat va ijtimoiy ta'minot muassasalarining jamg'armalari;
6. Kasaba uyushmalari va jamoat tashkilotlarining jamg'armalari[1].

Xususan, arxivda sovet davriga oid davlat hokimiyati va davlat boshqaruv organlarining jami 20 dan ortiq, sud-huquq tizimining 18 ta, harbiy muassasalarning 6 ta, rejalashtirish va statistika tashkilotlarining 2 ta, moliya va iqtisodiy muassasalarning 15 ta, ishlab chiqarish va sanoat korxonalarining 70 dan ziyod, (35 ta zavod, 13 ta fabrika, 2 ta firma, 4 ta kombinat, 21 ta artel), aloqa korxonalarining 7 ta, qurilishning 17 ta, transport korxonalarining 1 ta, savdo-sotiq, kooperatsiya va umumiy ovqatlanish muassasalarning 23 ta, kommunal xo'jalikning 6 ta, qishloq xo'jaligining 1 ta, xalq talimi va fan muassasalari: maktabgacha ta'lim muassasalarining 2 ta (f.170, 251), maktab, texnikum, bilim yurti, oliy ta'lim muassasalarining 100 ga yaqin (92 ta), bolalar va mehribonlik uylarining 8 ta, madaniyat muassasalarining 11 ta, tibbiyot muassasalarining 18 ta, arxiv tashkilotlarining 1 ta, mehnat va ijtimoiy ta'minot muassasalarining 4 ta, kasaba uyushmalari va jamoat tashkilotlarining 7 ta, maxsus va boshqa umumiy tashkilotlarning 30 dan ortiq jamg'armalari mavjud.

Sovet davriga doir davlat hokimiyati va davlat boshqaruv organlarining jamg'armalari tahlil etilganda, 1-jamg'armadan 10-jamg'armagacha Toshkent shahar hokimligi va tumanlar hokimiyatlarining hujjatlaridan iborat. Hujjatlarda Toshkent shahar va tumanlar hokimlarining qarorlari, yig'inlarining farmoyishlari, mahalliy hokimiyat organlari faollari yig'ilishlarining qarorlari va bayonnomalari, Toshkent shahar kengashlarining markaziy tarmoq qo'mitalari s'ezdlari, plenumlari, prezidiumlarining bayonnomalari, bayonnomalarga ilova hujjatlar, tavsiyalar, yig'ilish stenogrammalari kabi ma'lumotlar aks etadi[2].

Masalan, 1-jamg'arma 1929 yil 29 noyabrda tashkil etilgan bo'lib, hozirgi Mirobod tuman (o'sha davrda Lenin deb nomlangan[4]) hokimligi hujjatlaridan iborat. Jamg'armada 1930-1970 yillar uchun 858 saqlov birligida yig'majildlar saqlanadi.

1968 yil 23 aprelda Hamza tumani xalq deputatlari sovetiga doir hujjatlar saqlovi uchun 544 (S-0544) - jamg'arma tashkil etilib, unga Kuybishev va Lenin rayonlari hudud jihatdan umumlashtirildi. Jamg'armada 1968-1992 yillar uchun 853 saqlov birligida hujjatlar saqlanmoqda.

Toshkent shahar mehnatkashlar deputatlari soveti ijroiya komitetining (S-0010) [5] fondi 1917 yil 2 martda tashkil etilgan bo'lib, ushbu jamg'armada sovet davriga oid (1917-1991 yillar uchun) 10081 ta hujjatlar davlat saqloviga qabul qilingan. Jamg'armada Turkiston ASSR Markaziy ijroiya qo'mitasi, O'zSSR Markaziy ijroiya qo'mitasi, TASSR Xalq komissarlari kengashi va Toshkent shahar mehnatkashlar deputatlari soveti ijroiya komitetining dekretlari, qarorlari, buyruqlari, farmoyishlari va hokim qarorlari kabi materiallar mujassamlashgan. SHuningdek, ushbu davrda bo'lib o'tgan s'ezd materiallari va stenografik hisobotlar, 1917 yil

Oktyabr to'ntarishiga tayyorgarlik va to'ntarishning nafaqat Toshkent, balki butun Turkiston o'lkasida o'tkazilishi, Turkistonda sovet hokimiyatining o'rnatilishi va xo'jalik, madaniy qayta qurish masalalari yoritilgan. Turkiston Respublikasining e'lon qilinishi, ishlab chiqarish korxonalarini milliyashtirish, ishlab chiqarishda ishchilar nazoratini o'rnatilishi, frontdagi holatlar to'g'risidagi operativ ma'lumotlar, xalq qo'zg'olonlariga qarshi kurash to'g'risida hujjatlar mujassamlashtirilgan. O'rta Osiyo milliy-hududiy chegaralanishiga tayyorlanish va uni o'tkazish (1924 yil), sanoat korxonalari, ijtimoiy hayot, fan, ta'lim, madaniyat, tibbiyot, iqtisodiyotning rivojlanishi, "Hujum" harakati, II jahon urushi davrida Toshkent shahriga ko'chirilgan korxonalar, rejalashtirish, rekonstruktsiya qilish, 1966 yil er qimirlashidan so'ng shahar qurilishi kabi ma'lumotlar o'z aksini topgan.

Sud va prokuratura organlari jamg'armalarida Toshkent shahrida mavjud bo'lan huquqiy munosabatlar, me'yorlar, an'anaviy xalq sudlarini tugatilishi va yangi turdagi sovet sud tizimini joriy etilishi, davlat va xo'jalik organlari faoliyati ustidan nazorat olib borilishi kabi masalalar mujassamlashtirilgan. 61, 62, 63, 239, 273 – jamg'armalarda 1925-1967 yillarga oid xalq sudlarining 9836 saqlov birligida yig'majildlar mavjud bo'lib, jamg'armalarda xalq sudlarining statistik hisobotlari, 1925-1926 yillardagi Beshyog'och va SHayxontoxur sud uchastkalari, 1925-1929 yillardagi yangi shahar sud uchastkalarining asosiy faoliyatiga doir hujjatlari, xalq sudlarining fuqarolik va ma'muriy ishlari hujjatlari saqlanadi.

51, 59, 223, 229, 234, 244, 279, 319, 367, 368, 369 kabi jamg'armalarda 1929-1975 yillar uchun tuzilgan ro'yxatlarda jami 6710 saqlov birligidagi Toshkent shahar va tuman prokuraturalarining yig'majildlari saqlanib kelinadi. Ushbu jamg'armalarda asosan SSSR, O'zSSR rahbariyatlari va prokurorlarining buyruqlari, SSSR, O'zSSR Oliy Sudining hamda Toshkent shahar prokurorining ish faoliyatiga oid hujjatlari mavjud. Bundan tashqari, shahar prokurorlari tezkor yig'ilishlarining bayonnomalari, shahar va tuman prokuraturalarining yillik hisobotlari, shahar va tuman prokuraturalarining nazorat dalolatnomalarining umumiy sharhlari jamlangan.

319-jamg'armada Toshkent shahar prokuraturasining hujjatlari saqlanadi. Jamg'arma 1944 yil iyul oyida tashkil etilgan bo'lib, davlat saqlorida dastlab 1944-1969 yillar uchun 489 saqlov birligida hujjatlar bo'lsa, 1970-1995 yillarga oid 416 saqlov birligida yig'majildlar qabul qilingan. Bular asosan Toshkent shahar prokurorining buyruqlari, ma'ruzali yozishmalari, prokuraturalar ishi bo'yicha ma'lumotlar, buxgalteriya hisobotlari, shtatlar jadvallari, xodimlar bo'yicha hisobotlar, 1981-1982 yillar prokuraturalar ishining umumiy muhokama hisobotlari, ma'lumotlari, analizlari, 1982-1983 yillardagi huquqni himoya qiluvchi organlar koordinatsion yig'ilishining bayonnomalari, 1990 yil jamoa yig'ilishlari materiallari kabi hujjatlardan iborat.

Xalq xo'jaligi korxonalari, tashkilotlari va muassasalari keng qamrovli bo'lganligi sababli, ularni rejalashtirish va statistika, moliyalashtirish, ishlab chiqarish, qurilish, transport, savdo-sotiq, kommunal xo'jaligi va maishiy xizmat kabi tarmoqlarga bo'lib tahlil qilinadi.

Rejalashtirish va statistika yo'nalishidagi 7-jamg'arma Toshkent shahar mehnatkashlar deputatlari sovetining rejalashtirish komissiyasi (Gorplan) 1929 yil 9 sentyabrda tashkil etilgan. Davlat saqloviga 1930-1971 yillar uchun 749 saqlov birligida yig'majildlar, 1972-1991 yillar uchun 1824 saqlov birligida yig'majildlar qabul qilingan. Jamg'armani Toshkent shahar hokimligining qaror va farmoyishlari, O'zSSR davlat rejalashtirish va shahar rejalashtirish Prezidiumi yig'ilishlarining bayonnomalari, 1946-1950 yillar hamda 1956-1960 yillar istiqbolli rejalari, ishlab chiqarish, kommunal xo'jalik, transport, maorif, sog'liqni saqlash, madaniyat va ijtimoiy ta'minotni rivojlantirish yillik rejalari, shahar xo'jaligini rivojlantirish rejalarini bajarilishi yuzasidan sharhlar, shaharda ishlab chiqarishni rivojlantirish bo'yicha iqtisodiy tahlillar, 1933-1937 yillar Toshkent shahrini tuzilishi va qurilishini rejalashtirish bo'yicha materiallar, 1971-1972 yillar kapital qurilishlar bo'yicha hisobotlar, 1976-1981 yillarda tabiat muhofazasi va tabiat resurslaridan oqilona foydalanish rejalari mazmunidagi hujjatlar tashkil etadi.

Toshkent shahar Statistika boshqarmasining hujjatlari 28-jamg'armada saqlanadi. Ushbu jamg'arma 1926 yil tashkil etilgan bo'lib, unda 1926-1967 yillar uchun 15862 saqlov birligida yig'majildlar, 1968-1992 yillar uchun 10402 saqlov birligida yig'majildlar saqlanadi.

Moliyalashtirish yo'nalishi Toshkent shahar mehnatkashlar deputatlari soveti ijroiya komitetining Moliya bo'limi (42-jamg'arma) va tumanlar Moliya bo'limlari (15, 16, 17, 18, 20, 29, 225, 280, 386, 519, 558, 565-jamg'armalar)ning hujjatlaridan iborat.

42-jamg'arma 1930 yil 18 aprelda tashkil etilgan bo'lsa-da, hujjatlarining boshlang'ich chegarasi 1924 yildan boshlanadi. Jamg'armada 1924-1968 yillarga oid 4821 saqlov birligida yig'majildlar, 1969-1991 yillarga oid 5259 saqlov birligida yig'majildlar saqlanadi. Jamg'armaning tarkibini SSSR Moliya Xalq kommissariati, SSSR va UzSSR Moliya Ministrligi, Toshkent shahar Moliya bo'limi (Tashgorfinotdel) hamda tuman moliya bo'limlarining (rayfinotdelov) buyruqlari, Xalq xo'jaligi moliyalashtirish yillik rejalari, Toshkent shahar va tumanlar moliya bo'limlarining ish rejalari, shahar va tumanlarning byudjeti hamda ularning chizmasi, rejalarning bajarilishi bo'yicha yillik hisobotlar, shaharning moliyaviy-xo'jalik faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxonalari, tashkilotlari, muassasalarining hujjatlari, shtatlar jadvallari va smeta harajatlari tashkil etadi.

Xalq xo'jaligining ishlab chiqarish yo'nalishiga 23-jamg'arma – Xalq xo'jaligi Toshkent shahar soveti (Tashsovnarxoz) 1917-1920 yillar uchun 1318 saqlov birligidagi yig'majildlar, 43-jamg'arma – Mahalliy ishlab chiqarish boshqarmasi 1957-1962 yillar uchun 886 saqlov birligidagi yig'majildlar, 102-jamg'arma – «Uzbeksel'mash», 155-jamg'arma – «Uzbekxlopkomash» zavodi, 203, 351, 161, 391, 378, 118, 219, 285, 121, 344, 84, 115, 384, 151, 195, 248, 231 – jamg'armalar kiradi.

Mehnatni muhofaza qilish, kasaba uyushma va jamoat tashkilotlarining sovet davridagi faoliyati (F. 14), Toshkent shahar kasaba uyushmalari soveti (F. 204), “ZNIANIE (Bilim)” jamiyati Toshkent shahar tashkiloti (F. 243), DOSARM (F. 182) kabi fondlarda o'z aksini topgan.

Umuman olganda, Toshkent shahar davlat arxivi jamg'armalaridagi hujjatlarining tarixiy ahamiyatini tahlil etish asosida ushbu hujjatlar zamonaviy Toshkent qiyofasini o'zgarishi, shahardagi urbanizatsion jarayonlarni o'rganishda muhim manba sifatida tadqiq etish dolzarb sanaladi.

Adabiyotlar

1. Справочник по фондам государственного архива г. Ташкента. Редактор Д.Г.Остроумова. УзНИИНТИ. – Ташкент, 1990. – С. 88.
2. TSHDA, S. 0001-0010 – fondlar.
3. TSHDA joriy arxivi. Toshkent shahar davlat arxivi doimiy fondlar va xujjatlar hisobi to'g'risidagi ma'lumot. 22-varaq.
4. Toshkent shahar hokimining 1992 yil 7 maydagi qaroriga asosan Lenin rayoni Mirobod tumani deb ataldi.
5. Toshkent shahar mehnatkashlar deputatlari soveti ijroiya komiteti. 1977 yil oktyabrda O'z SSR yangi Konstitutsiya qabul qilgandan so'ng Toshkent shahar xalq deputatlari soveti ijroiya komiteti, 1992 yil 10 yanvardan Toshkent shahar hokimligi (F.№ 582) deb nomlandi.
6. O'zR MDA, R. 4 00-fond, 1-ro'yxat, 3215-yig'majild, 1-varaq.
7. O'zR MDA, R. 400-fond, 1-ro'yxat, 3189-yig'majild, 13-varaq.

УДК 9 (575.1)

FRANSUZ TADQIQOTCHISI GENRI MOZERNING MARKAZIY OSIYODAGI ILMIY EKSPEDITSIYASI

D.B. Rasulova

Samarqand davlat universiteti

E-mail: durdonarasulova@inbox.uz

Annotatsiya. Mazkur maqolada fransuz tadqiqotchisi Genri Mozerning Markaziy Osiyodagi sayohati tafsilotlari keng yoritilgan. Xususan, Toshkent, Samarqand, Buxoro, Xiva hududlarida bo'lgan tadqiqotchining ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayot haqidagi ma'lumotlari bayoni maqolada o'z aksini topgan. Turkiston o'lkasining sug'orish tizimi masalalariga ham urg'u berilib, sug'orish tizimining eng qadimgi davrlaridan boshlab – XIX asr oxirlariga bo'lgan davrdagi qisqacha retrospektiv tahlili keltirilgan.

Kalit so'zlar: Markaziy Osiyo, Turkiston, Toshkent, Samarqand, Buxoro, Xiva, sayohat, sug'orish tizimi, tadqiqotlar, tarix, etnografiya, madaniyat, din, san'at.

Научная экспедиция французского исследователя Генри Мозера в Центральную Азию

Аннотация. В данной статье подробно освещаются исследования французского путешественника Генри Мозера в Центральную Азию. В частности, в статье отражено описание сведений о социально-экономической и культурной жизни прибывшего исследователя в Ташкент, Самарканд, Бухару и Хиву. А также сделано ударение на вопросы ирригационных систем Туркестанского края, показан ретроспективный анализ систем орошения с древнейших времен до конца XIX века.

Ключевые слова: Центральная Азия, Туркестан, Ташкент, Самарканд, Бухара, Хива, путешествие, система орошения, исследования, история, этнография, культура, религия, искусство.

The scientific expedition of french scientists Henry Moser in Central Asia

Annotation. In the article researches of French traveller Henry Mosera to the Central Asia are in detail shined. In particular, the description of data on a social and economic and cultural life of the beaten researcher in Tashkent, Samarkand, Bukhara and Khiva is reflected. And also the accent on questions of irrigational systems of Turkestani edge is made, shown the retrospective analysis of system of an irrigation since the most ancient times till the end of XIX century.

Keywords: the Central Asia, Turkestan, Tashkent, Samarkand, Bukhara, Khiva, travel, system of an irrigation, research, history, ethnography, culture, religion, art.

Sayohatlar tarixi – o‘rganilishi qiziqarli, o‘qilishi maroqli bo‘lgan tarixiy manbalar hisoblanadi. Bunday turdagi manba va adabiyotlar nafaqat ilmiy doira vakillarini, balki keng jamoatchilikning e‘tiborini ham tortadi. Bunday asarlar hayotiy voqealar asosida yozilishi hamda tarixiy jarayonlar yig‘indisi ekanligi bilan birlamchi manba sifatida tan olingan.

XIX-XX asr boshlarida ko‘plab nemis, fransuz va ingliz sayyohlari yurtimizga tashrif buyurgan. Ularning yozib qoldirgan esdaliklari, memuarlari va ilmiy asarlari o‘sha davr ijtimoiy-iqtisodiy hayoti haqida keng ma‘lumotlar beradi. Evropaliklar nafaqat sayyoh sifatida mintaqani kuzatgan, aksariyat ko‘pchilik tadqiqotchilar fransuz hukumati tomonidan tashkil etilgan va mablag‘ bilan ta‘minlangan maxsus ilmiy ekspeditsiyalarga ham rahbarlik qilgan.

O‘sha davr matbuotida ham chet ellik tadqiqotchilarning ilmiy izlanishlariga quyidagicha baho berilgan: “Markaziy Osiyo mintaqasini o‘rganishda rus olimlari katta ishlarni amalga oshirganlar, lekin xorijiy tadqiqotchilar geografiya, tarix va boshqa fanlar yo‘nalishida ahamiyatli ishlarni amalga oshirdilar” [2: 69-70]. Ochiqcha aytganda, Turkistonga oid to‘liq sistematik asarlar ham chet elliklarga tegishlidir. Ularning ilmiy merosi rus mualliflarining asarlariga o‘xshab asosan biror narsa o‘rgatish xarakteriga ega emas edi. Ba‘zi Yevropa olimlarining asarlarini kompilyativ xarakterda yozilgan deyilsa-da, lekin chet elliklar ruslarning asarlarida uchramaydigan ayrim jihatlarini mohirona qayd etganlar.

Genri Mozer (*Henri Moser, 1844-1923*) – asli kelib chiqishi shveysariyalik. Lekin, 1827-1848 yillar davomida Sankt-Peterburgda oilaviy tartibda “Moser” soat ishlab chiqarish fabrikasiga asos solib, Rossiya hududlarida yashagan. G.Mozerning moliyaviy imkoniyatlari yuqori bo‘lganligi uchun Markaziy Osiyo mintaqasiga jami to‘rt marotaba – 1868-1869, 1870, 1883-1884, 1889-1890 yillarda sayohat qilgan [8: 214].

Uning olib borgan tadqiqotlari natijalari 1886 yil Parijda chop etilgan “*A travers l’Asie Centrale. Impression de voyage*” – “Markaziy Osiyo bo‘ylab. Sayohat taassurotlari” deb nomlangan asarida aks ettirilgan. Kitobning so‘z boshisida u o‘z faoliyatiga “*la traversée du continent asiatique en entier*”, [1; 82] ya‘ni “Osiyo kontinentini to‘liq bosib o‘tgan” tadqiqotchi sifatida baho beradi.

Mazkur asar Fransiya Ichki ishlar vazirligi (kitob savdosi seksiyasi) buyurtmasi asosida chop etilib, undan 170 ta gravюра, 100 dan ortiq suratlar joy olgan. Asar memuar xarakteriga ega bo‘lib, tadqiqotchining sayohati va shaxsiy taassurotlari asosida yozilgan. Umumiy hajmi 463 sahifadan iborat bo‘lgan yirik manba jami 16 bo‘limdan iborat. Ayrim boblar to‘liq O‘zbekiston tarixi masalalariga bag‘ishlangan. Toshkent, Samarqand, Buxoro va Xiva hududlarida kechgan ijtimoiy-iqtisodiy hayot, davlat boshqaruvi, madaniy jarayonlar va etnografik ma‘lumotlar keng yoritilgan, sayohatning yo‘l xaritalari ham ilova qilingan.

G.Mozer ko‘p yillar davomida Peterburgda istiqomat qilgan. Shuning uchun ham rus tilini yaxshi bilgan. Lekin, u mutaxassis sifatida geodist, tabiatshunos, arxeolog yoki filolog ham

bo'lmagan. Yoshligida sifatli ta'lim olgan G.Mozer sayohatga tayyorgarlik ko'rish uchun Turkiston haqidagi rus va yevropa manbalarini diqqat bilan o'rgangan. Agarda uning o'zida tabiat in'om etgan kuzatuvchanlik xususiyatlari va ilmiy tayyorgarlik bo'lmaganda, hech qanday moliyaviy imkoniyatlar ham unga sayohat davomida yetarli darajada ma'lumotlar to'plashga yordam bera olmas edi.

Sayohat tafsilotlari Orenburgdan jo'nash bilan boshlanib – Kazalinsk – Uralsk – Toshkent – Samarqand – Miyonqol – Buxoro – Amudaryo – Xiva – Kaspiy orti – Ashxobod – Tehron – Konstantinopol bilan yakunlangan.

Asarning kirish qismida muallif tomonidan kitobning yaratilishi haqida quyidagi fikrlar keltirilgan: “Ikki yil oldin menda sayohatlarim natijalarini aks ettiruvchi kitob yozish maqsadi tug'ildi. Men ko'plab mamlakatlarda bo'lgan safarlarim natijasida bir necha tezis va maqolalar yozishga muvaffaq bo'ldim. Ular nufuzli ilmiy jurnallarda nashr etildi. Bugun esa kitob holida chop etildi”.

G.Mozerning faoliyatiga hatto general-gubernator M.G.Chernyaev ham ishonch bildirib, rus podshosi tomonidan yuborilgan Vinjensteyn missiyaga hamrohlikda Toshkentdan Buxorogacha borish taklifini bildirgan edi. Mazkur sayohatdan chuqur ta'sirlangan G.Mozer o'z asarini hurmat ramzi sifatida general-gubernator sharafiga bag'ishlagan va kitobda uning suratini keltirilgan. Shuningdek, muallif tomonidan ekspeditsiyaga hamrohlik qilgan do'stlariga ham minnatdorlik bildirgan. Ekspeditsiya a'zolari – Jyul Jyurgensen (*Jules F. U. Jurgensen*) – asar yozish haqida ko'rsatma berib, uni nashr etishiga ko'maklashgan. Evert van Muyden (*M. Evert van Muyden*) – sayohat davomida suratga tushirgan, gravyuralar ishlagan mahoratli rassom, Teo Zobrist (*M.Théo Zobrist*) – kotib vazifasini bajarib, sadoqat bilan xizmat qilgan.

Asarda yurtimiz geografik hududlariga oid tarixiy voqealar bayoni 3-bobdan boshlangan. Kazalinskdan Toshkentgacha bo'lgan quruqlik yo'lini ta'riflashda muallif “Orsk va Kazalinsk o'rtasidagi sayohatimiz davomida Qora-qum (sable noire), yo'lining ikkinchi yarmidan Toshkentgacha Qizil-qum (sable rouge) ni, Buxoro darvozasigacha bo'lgan joylarda Oq-qum (sable blanc)ni kesib o'tdik” [9: 53] kabi iboralar asosida tabiatning bio xilma-xilligini badiiy obrazdek ifodalaydi.

O'sha davrdagi eng dolzarb iqtisodiyot masalalari asarda quyidagicha tavsiflangan: “Turkiston iqtisodiyoti ahamiyati jihatidan ustuvor mavqega ega. Bunda yangi aloqa yo'llariga asos solish va u orqali Turkiston mahsulotlarini Rossiyaga jo'natish birinchi darajali ahamiyat kasb etadi. Markaziy Osiyo iqtisodiyotining poytaxti sanalgan Toshkent bosib olingandan keyin, uning Rossiya bilan savdo-sotiq aloqalari kuchaydi. Ayni paytda Rossiyaning manufaktura mahsulotlari Turkiston bozorlarini to'ldirgan, yoki Hindistondan keltirilgan ingliz mahsulotlarini o'rnini egallamoqda” [9: 56] . Biroq, o'sha paytda tashqi savdo aloqalari faqat karvon yo'li orqali amalga oshirilib, u bir kunda atigi 25 verst yo'l bosib o'tgan. Yo'l xarajati anchagina qimmat bo'lib, bularning hammasi savdo-sotiqning rivojlanishiga to'sqinlik qilgan.

Toshkent bozorlarini ta'riflashda uning o'ziga xos xususiyatlariga quyidagicha e'tibor qaratilgan: “Toshkent bozorlari Markaziy Osiyodagi eng yirik savdo markazlaridan biri ekanligi bilan ham muhimdir. Sartlarning “xiyoboni” bu ularning bozorlaridir. Ular bozorga o'zlarining ehtiyojlari uchun emas, asosan kunni omma orasida o'tkazish va sayr qilish uchun borishadi. Toshkent bozorlari nafaqat savdo-sotiq joyi, balki mahalliy hunarmandchilikning barcha turlari ustaxonasi ham hisoblanadi. Bugungi kunda hunarmandlar uchun katta hajmdagi metall xom-ashyosi Rossiyadan keltirilmoqda” [5: 137-138] .

Buxoroning tavsifiga to'xtalganda aytish joizki, fransuzzabon manbalarda “Noble Boukhara” – “Nufuzli Buxoro” yoki “Boukhara Chérif” – “Buxoroyi Sharif” nomlari bilan islom dinining markazi sifatida e'tirof etiladi. Buxoroda bo'lgan ekspeditsiya a'zolari shaxsan amir Muzaffar qabulida bo'lishgan. Safar davomida Buxoro amirligining zamonaviy holati, urf-odatlarini, saroy hayoti va boshqaruvi, mahalliy aholining yashash tarzi haqida ko'plab ma'lumotlar yig'ilgan. Buxoroda mavjud ta'lim tizimiga to'xtalib, uni quyidagicha ta'riflaydi: “Dastlabki ta'lim 5 yoshdan boshlanib, 7-8 yoshgacha davom etadi. Talabalar alfavit bilan tanishib, yozishni o'rganadilar. Shundan so'ng ularga Qur'ondan mayda fragmentlar o'rgatiladi. Keyinchalik “Farzi-Ayn” va “Chor kitob”ni o'rganishga kirishadilar. Ularni tugatgan talabalar madrasaga o'qishga qabul qilinadi” [10: 137-138]. Bundan tashqari asarda Buxoro amiri Muzaffarxon davrida rus hukumati va amirlik o'rtasidagi munosabatlar ham keng yoritilgan [2: 72-73].

Manba bilan tanishgan kitobxon uning shunchaki sayyoh emasligini, ya'ni kerakli joylarda va ko'p hollarda mutaxassis sifatida ma'lumotlarni asoslay olishini anglashi mumkin. Biroq, ayrim masalalar noto'g'ri talqin qilingan holatlar ham uchraydi. Masalan, ruslar tomonidan Turkistonni

bosib olinishi kabi siyosiy masalaga, oddiygina javob tarzida “Ruslar o‘z hududlarini dashtliklar hujumidan asrash uchun harakat qildilar va Markaziy Osiyoning ichki hududlariga kirib keldilar” degan mohiyat berilgan. Vaholanki, ushbu tajovuzkorlik urushlari ekanini ochib berishga xohish bo‘lmay, bunda rus hukumatining ko‘rsatgan yordami birlamchi omilga ega ekanligidan dalolat beradi.

G.Mozer sayohat davomidagi qiziqarli voqealarni eslab, uni quyidagicha izohlaydi: “Men tang ahvolda qolganligim sababli qirg‘iz do‘stlarimdan yaxshi otlarni 25 so‘mdan to 30 so‘mgacha sotib olardim. Keyinroq ularni toshkentlik ofitserlarga qimmatroq sotardim. Hech narsa ehtiyojday insonni yangi g‘oyalar ishlab chiqishga turtki bo‘la olmaydi” [9: 8]. Lekin bu tarzda yashash uchun pul topish yo‘li rus hukumati a‘zolarining e‘tiroziga sabab bo‘ldi.

Tadqiqotchi Buxorodan so‘ng Xivaga qarab yo‘l oladi. Xivadagi ijtimoiy-iqtisodiy tuzum, o‘sha davr hayoti va xivaliklar elitasining dunyodagi o‘rnini o‘rganib, tahlil qilgan. U Xiva xoni saroyidagi vaziyatni chuqur o‘rganib, uni Buxoro amirligidagi hayot bilan taqqoslaydi.

Shunisi ahamiyatliki, Markaziy Osiyo mintaqasini tasvirlashda, G.Mozer uni o‘troq va ko‘chmanchi hayot tarziga bo‘ladi. Boshqa tomondan aholini turk-tatar va oriylar kabi etnik guruhlarga bo‘lib o‘rganadi. Uning ta‘kidlashicha, qirg‘izlar (hozirgi qozoqlar) turk-tatarlar, sartlar esa oriylardir. Bunday qarashlar Jirar de Rial, Bonvalo yoki boshqa o‘sha davr tadqiqotchilarining birortasida ham uchramagan. XIX asrning oxirida oriylar qabilalarini o‘rganish rivojlanib, ko‘plab sayohatchilar bu masalaga murojaat etishgan.

Sayohat natijasida Sharq haqida juda qimmatli kolleksiya yaratilgan. Keyinchalik G.Mozer uni Bern tarixiy muzeyiga topshirgan. U Sankt-Peterburg, Vena, Parijdagi maxsus uyushmalar bilan diplomatik aloqada bo‘lib turgan [4].

G.Mozerning yana bir ahamiyatga molik asari **“L’Irrigation en Asie Centrale: étude géographique et économique”** – *“Markaziy Osiyoda sug‘orish tizimi: geografiya va iqtisodiyotni o‘rganish”* deb nomlanadi. Uning 1890 yildagi tadqiqotlari natijasida yozilgan mazkur asar so‘z boshi va 6-bobdan iborat [11].

G.Mozer mazkur asarning kirish qismida tadqiqotni olib borishda yaqindan yordam bergan do‘stlari tabiatshunos G.Kapyu (G.Capus), G.Korde (H.Cordier) va kotibi, rus millatiga mansub bo‘lgan M.S.Andersonga minnatdorchilik bildiradi. “Menda Turkistonda o‘tgan yillarim behuda ketmaganligini ko‘rsatib berish maqsadi bor edi. Uning mevasi ushbu nashrdir. Yana hali nimalar bo‘lishini vaqt ko‘rsatadi” [11: 4] – deb e‘tirof etgan G.Mozer olib borgan tadqiqotlari albatta o‘z samarasini berishini alohida ta‘kidlagan.

Muallif asarni yozishdan avval shu sohada yaratilgan barcha manbalar bilan tanishib, tahlil qilib keyin ushbu tadqiqotga kirishgan. Ulardan rus olimlari [3] hamda xorijiy olimlarni [6] ko‘rsatib o‘tish mumkin. Demak bu tadqiqotchining olib borgan izlanishlari shunchaki debyutantlik qiziqishlari emas, balki ilmiy asoslangan fikrlardan iborat ekanligidan dalolat beradi. Shu sababli ham uning fikrlarida mintaqa iqlimi haqidagi chuqur mulohazalarni kuzatish mumkin. Masalan, sivilizatsiyalarning kelib chiqishini u quyidagicha baholaydi: “Qadimdan sivilizatsiyalar suv bor hududlarda ya‘ni daryo bo‘ylarida shakllangan. Lekin shunday sivilizatsiyalar borki asrlar davomida yashaydi, boshqalari esa tezda tanazzulga yuz tutadi. Bunda o‘sha joydagi suv, tuproq, va iqlim muhim o‘rin tutadi. Agar insoniyat mehnat qilib, yaxshi hosil yetishtira olsa o‘sha joy madaniyati rivojlanib, kengayib, rivojlanib borgan yoki aksincha” [11: 9]. Muallifning ushbu fikrlaridan shunday xulosa qilish mumkinki, qayerda suv, tuproq unumdor bo‘lsa, o‘sha er doimo madaniyat namunasi sifatida asrlar davomida yashab keladi. Bunda albatta, sug‘orish tizimining ustun mavqega ega ekanligi muallif e‘tiborining asosiy o‘rnini egallaydi.

Turkistonning iqlimi va tuprog‘iga baho berar ekan, G.Mozer uning xususiyatlarini quyidagicha ta‘riflaydi: “Shimoliy Osiyo, Yevropa va Amerikada iqlim noqulay bo‘lganligi sababli mahalliy o‘simliklarning hosildorligi ham past. Ovchilik va baliqchilik qishloq xo‘jaligi sohasidan ko‘ra yaxshi rivojlangan. Markaziy Osiyo mintaqasi ayniqsa Turkiston hududlarida tuproq serhosil. Hosildorlikni yuqori bo‘lishida yana bir asosiy omil haroratning mo‘tadilligi hamda sug‘oriladigan suv tarkibining turli tabiiy jinslarga boyligi bilan xarakterlanadi”. Demak, tadqiqotchining fikricha Shimoliy Osiyo, Yevropa va Amerikada hosildorlikni oshirish uchun iqlimning tabiiy to‘siqlari mavjud bo‘lib, ushbu nuqsonlarni bartaraf etish imkoni yo‘q. Shuning uchun ham ushbu hududlarda tabiat qancha hosil bersa shu bilan qanoatlanish kerakligiga ishora qilinmoqda. Turkistonda esa sharoitga, iqlimdagi kamchiliklarni bartaraf etishga o‘rin qolmagan. Tabiatga ta‘sir etish ehtiyoji

bo'lmaganligi sababli ham, hosildorlik sifatli urug', me'yoridagi sug'orish asosida ta'minlanishi ko'zda tutilmoqda.

Asarda Markaziy Osiyo mintaqasining tuprog'i va iqlimi tavsiflanib, unda sivilizatsiya markazlari, dasht va cho'l zonalarini farqlanish mezonlari keltirilgan. Mintaqa hududini geologik tadqiq etishda uning o'ziga xos xususiyatlari ham ko'rsatib o'tilgan. Masalan, sahro va dasht zonalarini farqlash bo'yicha quyidagicha xulosa beriladi – Markaziy Osiyoda to'liq sahro bo'lgan hudud mavjud emas. Hech narsa o'smaydigan, quruq cho'l zonasi yo'q. Har qanday sahroda ham ma'lum ma'nodagi vegetatsiyani kuzatish mumkin. Qizilqum va Qoraqumda ham keng tarqalgan saksovul (Halimodendron) o'sadi. Cho'lning dasht zonasidan farqli tomonlari uning mineralogiyasi, petrografiya hamda tuproq ostidagi yer qatlamlaridagi farqli tomonlar bilan belgilanadi. Cho'lda iqlim juda quruq atmosfera va namlikning yetishmasligi bilan xarakterlanadi.

Bundan tashqari, Markaziy Osiyo tuprog'ining o'ziga xos xususiyatlari, vegetatsiya tizimi, temperatura, shamolning tezligi ham tahlil etiladi. Shuningdek, qadimda So'g'diyona, Marg'iyona, Baqtriya va Marvda mavjud bo'lgan sug'orish tizimi, Amudaryoning qadimgi kanallari, Sirdaryo yaqinida oqib o'tgan ariqlar o'rganilgan. La'lni va obi kabi Markaziy Osiyo sug'orish tizimining asosiy yo'nalishlari sharhlanib, uni boshqarish va tashkillashtirish amaliyotiga urg'u berilgan. Ayni paytda Zarafshon vodiysidagi, Buxoro amirligidagi sug'orish tizimlari ham muallifning e'tibordan chetda qolmay, kelajakda amal qilish kerak bo'lgan tavsiyalar ham ishlab chiqilgan.

Asarda G.Mozer tomonidan Turkiston orografiyasi [12] va gidrografiya [7] alohida paragraf bag'ishlangan. Bunda tadqiqotchi tomonidan Turkiston irrigatsiyasining eng qadimgi davrlari ya'ni So'g'diyona, Baqtriya va Marg'iyonadagi sug'orish masalalari ham o'rganilgan. Shu bilan birga sug'orish tizimi va qadimiy sivilizatsiyalar paydo bo'lish tarixida sezilarli iz qoldirgan Xitoy, Amerika, Shimoliy Hindiston va Misrdagi sug'orish tizimi bilan solishtirilgan.

Ayni vaqtda, Mozer tadqiqotlarida Zarafshon vohasi hamda Buxoro amirligidagi sug'orish tizimiga aloqador masalalar ham o'rin olgan. Zarafshon vohasi gidrografiya to'xtalib, sug'orish tizimining yagonaligi, filtrlash tamoyillari, kanallardagi damba va to'g'onlar ham keng tavsiflangan.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, G.Mozerning mazkur asarlari yurtimiz ijtimoiy-iqtisodiy hayoti, tabiati, iqlimi hamda sug'orish tizimi tarixini o'rganishda muhim manba hisoblanadi. Unda sug'orish tizimi, inshootlari, usullari va mahalliy an'analar yaxshi o'rganilib, tahlil qilib berilgan. Shuningdek, dunyoda sug'orish tizimi rivojlangan davlatlar tajribasi ham o'rganilib, mahalliy tizim bilan qiyosiy tahlil etilgan. Tadqiqotchi sug'orish tizimini o'rganganda, uning geografik va iqtisodiy xususiyatlarini ham e'tibordan chetda qoldirmagan. Har bir hudud va tizimga alohida yondashib, eng nozik qirralari ham ochib berilgan.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, G.Mozer garchi yevropalik bo'lsa-da, mahalliy sug'orish tizimini eng qadimgi holatini ham o'rganishga harakat qilgan. Uning bunday sa'y-harakatlari zamonlar osha o'zgargan inshootlar va sug'orish usullarining eng qadimgi ildizlarini topishga undaydi. Qolaversa, fransuz sayyohlari va olimlarining tadqiqotlari Markaziy Osiyo mintaqasi bo'yicha orografiya, gidrografiya, irrigatsiya, mineralogiya, geologiya, tipografiya, toponimika kabi yordamchi fan sohalarining tadqiqi uchun muhim manba hisoblanadi.

Adabiyotlar

1. Венгерский путешественник по Кошгарии г.Берченжей //Туркестанские ведомости. 1887 26 май, №21, – С.82.
2. Швейцарец о Туркестане. Новости. 1885, № 312. //Туркестанский сборник. Санкт-Петербург: В.С.Балашева, 1887. – Т.398. – С. 69-73.
3. Das Ferghanah-Thal, par M. de Middendorf. ; Pays du Turkestan (en russe), par Kostienko. ; Histoire du Khanat de Khokand, par V. P. Nalivkine. 1889.
4. Dictionnaire historique e biographique de la Suisse. v.5.p.21. Neuchatel, Administration de la dictionnaire historique et biographique de la Suisse. 1930.
5. Fontpertuis F.de. L'Asie Centrale. Une excursion dans le Turkestan russe, à Boukhara et à Khiva. Paris, L'économist français. 1886. 10 avril, P. 444-447. // Туркестанский сборник. Санкт-Петербург: В.С.Балашева, 1887. – Т.414. – С.137-139.
6. Capus G. Notes agronomiques // Annales agronomiques. 1883.; G.Capus. Climat et végétation du Turkestan // Annales des sciences naturelles Botanique, t. XV, 199-213 p.;

- G.Capus. Reboisement dans la Turkestan // La Geographie.; Les Sables du Ferghanah // Archives des Missions scientifiques, 1882.
7. Hidrografiya (grekcha, suv havzalarini sharhlash) – amaliy fanlar yo‘nalishi bo‘lib, okean, dengizlarning fizik xususiyatlarini, qirg‘oqqa yaqin hududlarni, ko‘l va daryolarni o‘lchash va sharhlash bilan shug‘ullanadi. Shuningdek, navigatsiya (kemalar qatnovi) tizimining xavfsizligi nuqtai nazaridan prognozlash hamda iqtisodiy taraqqiyot, xavfsizlik va mudofaa, ilmiy tadqiqotlar va atrofimizni o‘rab turgan muhitni himoya qilish kabi dengizchilik ishini qo‘llab-quvvatlash bilan shug‘ullanadi.
 8. Gorshenina S. La Route de Samarcande. L’Asie Senrale dans l’objectif des voyageurs d’autrefois. – Geneve: Editions Olizane, 2000. – P. 214.
 9. Moser H. A travers l’Asie Centrale. La steppe kirghize, le Turkestan russe, Boukhara, Khiva, le pays des Turcomans et la Perse. Impression de voyage . – Paris: E.Plon, Nourrit et Cie, Imprimeurs-Éditeurs, 1885. – P. 463.
 10. Moser H. A Boukhara. Paris, La gazette géographique. 1885, № 50, P. 492-498. // Туркестанский сборник. Санкт-Петербург: В.С.Балашева, 1887. – Т. 414. – С.137-139.
 11. Moser H. L’Irrigation en Asie Centrale: étude géographique et économique. – Paris: Societe d’édition scientifique, 1894. – P. 379.
 12. Orografiya (grekcha, “oros”- tog‘, “grapho” - tasvirlayman) – yoki morfometriya geomorfologiya va tabiiy geografianing sohasi bo‘lib, rel’eflarning tashqi xususiyatlari va kelib chiqishidan qat’iy nazar o‘zaro joylashuviga qarab klassifikatsiyalash va tasvirlash bilan shug‘ullanadi.

UDK: 397.4

**ZARAFSHON VOHASI LO‘LILARINING AN‘ANAVIY TURMUSH TARZIDAGI
ETNOIJTIMOIY JARAYONLAR**

Z.O. Qoryog‘diev

Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari institutining Buxoro filiali
E-mail: koryogdiyev.zufar@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada Zarafshon vohasi lo‘lilarining an‘anaviy turmush tarzi va undagi etnoijtimoiy jarayonlar ilmiy adabiyotlar hamda dala etnografik materiallari orqali qiyosiy tahlil qilingan. Lo‘lilarning vohaga kirib kelish tarixi, kundalik hayot tarzi va ko‘chmanchi turmush tarzidan turg‘unlashuv jarayonlariga o‘tish bilan bog‘liq etnomadaniy o‘zgarishlar tadqiq qilingan.

Kalit so‘zlar: etnoijtimoiy jarayonlar, etnik guruh, turg‘unlashuv, e‘tiqod, etnik stereotip, jamoaviy mehnat, etnoassimilyasiya.

Этносоциальные процессы в традиционном образе жизни цыган Зеравшанского оазиса

Аннотация: В статье сопоставительно анализируются этносоциальные процессы в традиционном образе жизни цыган Зеравшанского оазиса по научным литературам и полевым этнографическим исследованиям. Исследуются этнокультурные трансформации, связанные с историей прихода цыган в оазис, их образ жизни, переход от кочевой жизни к процессу оседания.

Ключевые слова: этносоциальные процессы, этническая группа, оседать, религия, этнический стереотип, общественный труд, этноассимиляция.

Ethnosocial processes in a traditional Gypsies (luli) lifestyle of Zerafshan oasis

Abstract: This article is devoted to the comparative analysis of ethnosocial processes in a traditional Gypsies lifestyle of Zerafshan oasis, according to the scientific literatures and the field ethnographic investigations. The ethnocultural transformations connected with the history of Gypsies arrival to the oasis, their lifestyle, transformation from nomadism into settlement is investigated.

Keywords: ethnosocial processes, ethnic group, to settle, religion, ethnic stereotype, ethnoassimilation.

Dunyo miqyosida yashovchi turli xalqlardagi etnoijtimoiy jarayonlarni, ularning tarixini, hozirgi kundagi zamonaviy etnomadaniy aloqalarini ilmiy asosda tadqiq qilish Etnologiya fanining

dolzarb vazifalaridan biridir. Qolaversa, etnoslararo munosabatlar qizg'in kechayotgan bugungi davrda turli xalqlarning milliy mentaliteti va ijtimoiy-madaniy jarayonlar dinamikasini tadqiq qilish juda muhim masalalardan biri hisoblanadi.

Ushbu zaruratdan kelib chiqib, maqolada Zarafshon vohasi lo'lilarining etnoijtimoiy jarayonlarini etnografik materiallar asosida tahlil etishga imkon qadar harakat qildik. Tarixdan ma'lumki, lo'lilarning azaldan o'z hududi va milliy davlatchiligi bo'lmagan, ular dunyoning deyarli barcha mamlakatlari bo'ylab tarqalib ketgan. Afsuski, hozirga qadar lo'lilar tarixi va etnografiyasi etarlicha o'rganilmagan. Lo'lilarning turmush darajasida qanday transformatsion jarayonlar yuz bermasin, ular madaniyati qanchalik modernizatsiyalashmasin, atrofidagi xalqlarda lo'lilar haqida o'ziga xos stereotiplar mavjud bo'lib kelmoqda. Lo'lilar odatda boshqa etnik guruhlardan alohida, ulardan ajralgan holda hayot kechirib keladilar. Shuning uchun ularning ijtimoiy, huquqiy, maishiy holatini o'rganish nafaqat ilmiy, balki amaliy ahamiyat ham kasb etadi. Etnik stereotip (u yoki bu etnoslar haqida, ularning mentaliteti haqidagi barqaror, soddalashgan tasavvur) va avtostereotip (o'zi haqidagi tasavvurlar) [5] kabi tushunchalarni chuqur tahlil qilish millatlararo munosabatlarni o'rganishda muhim hisoblanadi. So'nggi yillar mobaynida mamlakatimizda millatlar o'rtasida tolerant munosabatlar rivojiga katta e'tibor qaratilayotgani bunday ijtimoiy muammolarning tarixiy va etnopsixologik omillarini to'g'ri anglash imkonini bermoqda.

Dastavval lo'lilarning kelib chiqish tarixi haqida qisqacha ma'lumot berib o'tsak. Tarixiy-etnografik adabiyotlarda lo'lilarning qachon va qayerdan kelib chiqqanligi, ularning ona vatani yoki vatandoshlari kimlar ekanligi bir muncha bahs-munozarali masala bo'lib, bu borada olimlarning turli talqinlarini ko'rishimiz mumkin. O'z navbatida, lo'lilarning o'zlari ham ushbu savolga aniq javob aytishga qiynalishlarini inobatga oladigan bo'lsak, buni tabiiy hol deb baholash mumkin. Zeroki, jahongashta lo'lilar uzoq davrlar mobaynida er kurrasining turli mintaqalariga tarqalib, ko'plab xalqlar orasiga kirib borishi asnosida ularning tili va odatlari qisman o'zgardi. Lo'lilar turli xalqlar orasida muayyan vaqt yashab turib, beixtiyor ulardan ko'p narsalarni o'zlashtirganlar. Shunday ekan, qaysi bir xalq boshqa xalqqa nisbatan ularga hayot tarzi, tili, tashqi ko'rinishi jihatidan yaqinroq ekanligi haqida xulosa chiqarish birmuncha mushkul hisoblanadi.

Ammo, aksar tarixchi olimlarning ishlarida lo'lilar qadimdan Hindiston diyorida istiqomat qilganlari va aynan u yerdan keyinchalik butun dunyo bo'ylab tarqalganliklari haqida fikrlar qayd qilingan. Xususan, A.Shile [3] o'zining "Цыгане" nomli maqolasida lo'lilarning Hindistondan tarqalishini bu mamlakatning buyuk sarkarda Amir Temur tomonidan fath etilishi bilan bog'laydi. Uning qayd etishicha, Amir Temur qo'shini Hindistonga kirib borishi bilan uddaburon lo'lilar o'zlarining xavfsizligini ta'minlash maqsadida ixtiyoriy ravishda ayg'oqchi-josuslar va armiyaga oziq-ovqat yetkazib beruvchilar sifatida amirning xizmatiga kirishadi. Bu vazifalar lo'lilar uchun ham manfaatli edi, ham ularning turmush tarziga hamohang edi. Shu sababli lo'lilar Amir Temur qo'shini bilan birgalikda Kavkazorti mamlakatlarigacha yetib borishgan.

Yuqoridagi qaydlarning haqiqatga yaqinligini, ya'ni lo'lilarning Hindistondan kelib chiqqanliklarini toponimik tadqiqotlar ham tasdiqlaydi. O'zbekistonning turli mintaqalarida lo'lilarni turli nomlar bilan atashgan bo'lib, ularni "lo'li", "jo'gi", "mo'ltoni" deb ham atashadi. Bu Karachi va Mo'lton shaharlari nomi bilan bog'liq, degan farazlar mavjud. Markaziy Osiyo lo'lilarining ayrim guruhlari jo'gi (hindcha - kambag'al, qashshoq), "hindistoniy", "bo'lujji" deb atalishi ham lo'lilarning asl vatani Hindiston bo'lganligini tasdiqlaydi. Shuningdek, ba'zi ma'lumotlarga ko'ra, lo'lilarning dastlabki guruhlari milodning boshlarida – V-VII asrlarda va keyingi davrlarda Shimoliy Hindistondan tarqala boshlagan. Ularning ayrim guruhlari Hindistondan Balujiston – Afg'oniston – Eron – Kavkaz – Turkiya orqali Yunonistonda, ikkinchi yo'l Hindiston – Eron orqali Markaziy Osiyoda tarqalgan.

Shu asnoda lo'lilar Markaziy Osiyoga, xususan Zarafshon vohasiga bundan ko'p asrlar oldin kelib joylashganlar. Ularning lingvistik xususiyatlari o'zgargan hamda moddiy va ma'naviy madaniyatning ayrim unsurlari atrofdagi xalqlar bilan assimilyasiyalashgan. Mintaqada yashovchi aksariyat lo'lilar ikki tilda, ya'ni o'zbek va tojik tillarida so'zlashsalarida, tojik tili ularning turmush tarzida asosiy til hisoblanadi. O'tmishda lo'lilarning yerga egalik huquqi bo'lmagan va ular bir joydan ikkinchi joyga ko'chib yurishiga to'g'ri kelgan. Keyinchalik lo'lilar shaharlarga hamda qishloq aholi punktlariga yaqin joylarda doimiy to'xtash joylariga ega bo'la boshlaganlar. Samarqand va Buxoro atrofidagi shunday to'xtash joylaridan lo'lilar istiqomat qiladigan turar joylar hamda kvartallar shakllana boshladi. Xususan, Buxoro shahri atrofidagi Otbozor mahallasida 80 ta xo'jalik, Bohauddin Naqshband ko'chasida 70 ta xo'jalik, Galaosiy shaharchasida 100 ta xo'jalik, Geologlar ko'chasi va

Sadriddin Ayniy mahallalarida 100 dan ortiq xo'jalik istiqomat qiladi. Har bir xo'jalikda o'rtacha 10 nafar kishi istiqomat qilishini hisobga oladigan bo'lsak, Buxoroda taxminan 3500 nafar atrofida lo'lilar yashashining guvohi bo'lishimiz mumkin. Dala tadqiqotlari davomida guvohi bo'lganimizdek, ba'zi lo'li xonadonlari kamida 2-3 ta oilalardan iborat bo'lib, hatto 15-20 nafar qarindoshlar bir xonadonda istiqomat qiladilar. Bunday yirik xo'jaliklardan iborat lo'li mahallani katta tajribaga ega vakil boshqaradi. Vakillikka mahallaning yoshi ulug', hurmat-e'tiborga ega oqsoqollaridan biri munosib ko'riladi va uning boshchiligida barcha ishlar amalga oshiriladi. Xususan, Buxoro shahrida joylashgan "Otbozor" mahallasining oqsoqoli - bir necha yillar Buxoro aeroportida ishchi, so'ng Vobkent tumanidagi kolxozda kolxozchi bo'lib ishlab kelgan Panji bobo Azamatov boshchiligida hozirgi kunda mahallaning ijtimoiy munosabatlari tartibga solib kelinmoqda. U kishining ma'lumot berishicha, "mahalla katta hududni o'z ichiga olib, bu yerda o'zbeklar va lo'lilar hamjihatlikda, o'zaro inoq bo'lib yashab kelishmoqda." [1] Bu mahallada turli kasb egalari va ijtimoiy-iqtisodiy toifaga mansub kishilar istiqomat qiladilar.

Voha lo'lilari etnografiyasini o'rganish asnosida ularni shartli ravishda uch ijtimoiy toifaga bo'lish mumkin. Birinchi ijtimoiy guruh o'qimishli yoki ziyoli lo'lilar bo'lib, bu toifa nisbatan ozchilikni tashkil qiladi. Dala etnografik tadqiqotlari natijasida ular orasida olim, shifokor, harbiy va boshqa kasb egalari kam uchradik. Ikkinchi ijtimoiy guruh jamiyatning o'rta bo'g'iniga mansub lo'lilardan iborat. Bu guruhga mansub lo'lilar asosan dehqonchilik, fermerlik, hunarmandchilik bilan shug'ullanadilar. Shuningdek, ular orasida musiqachilar va milliy cholg'u asboblari mohirona ishlata oladigan san'atkorlar ko'pchilikni tashkil qiladiki, ularni voha aholisi juda yaxshi musiqachilar sifatida bilishadi. Uchinchi toifa lo'lilar tilanchilik va folbinlik bilan shug'ullanishadi va ularni aholi gavjum bo'lgan barcha joylarda uchratish mumkin. Lo'lilarning fikricha, tilanchilik bilan shug'ullanish bugungi kunda nisbatan kamayib bormoqda. Buning sababi - etnoassimilyasiya, ya'ni lo'lilar orasida ma'lumotli odamlarning ko'payishi, shuning natijasida ularning atrofdagi voqeliklarga munosabatlari o'zgarib, dunyoqarashlaridagi o'sish, o'zbeklar bilan aralashib ketish jarayoni, desak xato bo'lmaydi.

Biroq, lo'lilar qaysi makon yoki zamonda bo'lmasin o'zlarining an'anaviy mashg'ulotlari tilanchilikdan butkul voz kechmay kelayaptilar. Ularning bu odatlarining ham moddiy, ham falsafiy asoslari bor. Moddiy asosi shundan iboratki, lo'lilar o'zlari uchun qulay makonni izlab ko'chib yurishlari, doimiy mashg'ulot turi bilan shug'ullanishlariga to'sqinlik qilgan. Kun kechirish, tirikchilik uchun pul topishning oddiy usuli esa tilanchilik bo'lgan. Ammo, bu ham asosiy sabab emas, nazarimizda. Lo'lilarda "O'z ruhiyatini dunyo bo'ylab izla!" degan falsafa, qoida mavjud. Ular uchun o'z ruhiyatini topish, ozodlik ruhini topish, hech qayerga va hech narsaga bog'liq bo'lmagan ruhni topish ajdodlardan meros qadriyat hisoblanadi. Hozirga qadar lo'lilar uchun bu keng olam o'z uyi, o'z Vatanidir. Ular dunyo kezib o'z rizq-nasibalarini terishni sharaf deb biladilar. Lo'li oilalarida yoshu-qari birdek ishlaydi, barchaning o'ziga xos vazifalari bor. Keksa ayollar fol ochish, mahallalar bo'ylab aylanib, mol ayirboshlash bilan shug'ullanishsa, kekse yoshli erkaklar yelkalariga qopni tashlab olib, ko'cha kezib tilanchilik qilishadi. Erkaklari hunarmandchilik, dehqonchilik, ko'chalardan ikkilamchi xom ashyolarni yig'ish va qayta ishlashga topshirish kabilar bilan shug'ullansalar, ayollari aholi eng gavjum joylarda xayr-ehson so'rash bilan band bo'ladilar. Lo'li bolalari esa tarbiyani, hayot darsini ko'chada o'rganishadi. Ayrim lo'lilarning bashang qiyinish, dabdabali hayot kechirish imkoniyati bo'lsa ham ular bunday hashamatdan o'zlarini tiyib, arzon matodan eski kiyimlar kiyib yurishni afzal ko'rishadi. Lo'lilarning fikricha, inson bu dunyoga yalang'och keladi va yalang'och ketadi. Agar u bunday hashamatga o'rgansa, sekin-asta hashamatning, nafsning quliga aylanadi. O'zaro muloqotda bo'lgan lo'li onaxonlardan biri shunday deydi: "Biz lo'lilar sizlarning uyingizga eshikma-eshik yurmasak, kasal bo'lamiz. Bolalarimiz, nevaralamiz oyoqyalang, yalang'och yursa ham, kasal bo'lmaydi. Lekin, uyda o'tirsak, ukol-dori olamiz, kasalxonaga yotamiz. Aytishlaricha, turli xalqlarga rizq arpa ko'rinishida teng taqsimlangan ekan, lo'lilarga esa rizqni berishda arpa ularning orqasidan sochib yuborilgan ekan. Shuning uchun biz odamlarning orqasidan yurib rizqimizni teramiz. Bizlarning rizqimiz sizlarning ustingizda, bir kishini aka deymiz, bir kishini uka deymiz. Ursangiz ham, so'ksangiz ham yana boraveramiz." [2] Demak, lo'lilarda tilanchilik qilish qadriyat darajasiga ko'tarilgan mashg'ulot sanaladi. Bu qadriyatni hurmat qilish esa o'zaro munosabatlarda inobatga olinsa, o'rinni bo'lardi.

Yuqoridagi mashg'ulotlar bilan shug'ullanish evaziga orttiriladigan lo'lilarning kundalik daromadi kamtarona hayot kechirish uchun etarli bo'lib, ular orasida mulkiy tabaqalanish kuchli emas. Urushlar davri, boshqa etnos vakillari bir burda nonni topolmay yurgan ocharchilik yillari, jahon

iqtisodiy inqirozi va boshqa tangliklar ham lo‘lilarning hayot tarziga uncha sezilarli ta‘sir qilmagan. Chunki, ularda doimo umumiy moddiy ta‘minot manbai bo‘lib, bir burda noni va rizq-nasibasi mavjud.

Lo‘lilarda diniy qadriyatlar ham o‘ziga xos jihatlariga ega. E‘tiqodi jihatdan vohada yashaydigan lo‘lilar musulmonlardir. Lo‘lilar barcha musulmonlardek dafn etish, namoz o‘qish, xatna qilish kabi amallarni bajaradilar. Shu bilan birga ularda islom dinigacha bo‘lgan ibtidoiy dinlar elementlari, xususan, jin, pari, alvasti, yovuz kuchlar haqidagi tasavvurlar izlari ko‘plab saqlanib qolgan. Ular piyoz, achchiq qalampir, non, o‘tkir buyumlar, qo‘chqor shoxlari, bo‘rining tirnoqlari balo-qazolar va yomon ko‘zdan asrashiga qat‘iy ishonishadi. Lo‘lilarda jayra yoki uning tikanlari ham shunday ilohiy kuchga ega, degan tasavvur bor. Qarshi lo‘lilari uchun jayra go‘shini sevib iste‘mol qilish odati saqlangan bo‘lsa, Samarqand lo‘lilari esa qadimiy totemistik tasavvurlarning ayrim unsurlari tufayli, bu jonivor qachonlardir inson bo‘lganligini aytishadi va uning go‘shini iste‘mol qilish ta‘qiqlangan.[4]

Shunga o‘xshash lo‘lilarning o‘zlariga xos qadriyatlarini saqlab qolish uchun ham ular o‘z etnoslari doirasida asrlar davomida biqiq hayot kechirib kelganlar. Ular o‘z muammolarini har kimga ham aytavermaganlar. Begonalar bilan ochiq muloqotga osonlikcha kirishmaydilar. “Lo‘li mahalla” ular uchun begonalar yaqin yo‘lay olmaydigan qal‘a misoli bo‘lgan. Shu sababli ularning jamiyatga assimiliyalashuvi qiyin kechgan. Lo‘lilarning atrofida yashaydigan xalqlar ularning ichki hayot tarzini, fe‘l-atvorini, dardu-tashvishini, kamchiligu-yutuqlarini bilmaganliklari uchun turli uydirmalar paydo bo‘lgan. Bu uydirmalar xalqlarning lo‘lilarga nisbatan o‘zgacha nigoh bilan qarashiga olib kelgan va o‘z o‘rnida lo‘lilarning ham boshqa xalqlarga qo‘shilishiga to‘sqinlik qilgan. Ammo, lo‘lilar bugungi kunga kelib atrofidagi etnoslardan butkul aloqani uzgan, deb aytolmaymiz. Etnografik dala tadqiqotlari davomida shu narsaga guvoh bo‘ldikki, lo‘lilar o‘zbeklar bilan iliq qo‘ni-qo‘shnichilik munosabatlari olib bormoqdalar. Bir-birlarining to‘y-ma‘rakalarida, ta‘ziyalarida ishtirok etadilar. Lo‘lilarda jamoaviylikka intilish ruhi kuchli ekanligini payqash esa qiyin emas.

Xulosa qilib aytganda, lo‘lilar qadimiy etnik guruh bo‘lib, dunyoning boshqa joylarida yashovchi lo‘lilar kabi Zarafshon vohasi lo‘lilari ham Hindistondan kelib chiqqanlar. Lo‘lilar ko‘p asrlar davomida darbadar turmush kechirdilar. Vohaga ko‘chib kelganlaridan so‘ng mahalliy o‘troq aholining ta‘siri doirasida ularda o‘troqlashuv jarayoni kechdi. O‘troq yashashga o‘tish darhol ro‘y bermay, bu uchun ikki asrga yaqin davr kerak bo‘ldi. Bu jarayon lo‘lilarning etnomadaniyatiga ijobiy ta‘sir etdi. Bu ijobiy o‘zgarishlar lo‘lilarning ma‘naviy madaniyatida, maishiy hayotida, oila-nikoh va qo‘ni-qo‘shnichilik munosabatlarida, bilim olish imkoniyatlarining vujudga kelishida, ish bilan ta‘minlanganlik darajasining ortishida yaqqol namoyon bo‘ladi. Hozirgi davrda lo‘lilarning o‘troq hayotga moslashuvi, ijtimoiy mehnat ko‘nikmalarini egallashi bilan bog‘liq sezilarli o‘zgarishlar yuz bermoqda. Mamlakatda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlarning mohiyatini anglab borayotgan lo‘lilar o‘zlarining azaliy kasb-korlari bilan shug‘ullanish barobarida jamiyat hayotining turli jabhalarida faoliyat yuritishga harakat qilmoqdalar. Bugunga kelib lo‘lilar mamlakat fuquroligiga ega hamda ishlab chiqarish korxonalariga, obodonlashtirish, fermerlik, tadbirkorlik va boshqa ko‘plab sohalarga kirib bormoqdalar. Ammo, o‘troqlashtirish va ijtimoiy mehnatga jalb qilish borasida ko‘rilgan chora-tadbirlarga qaramay, ushbu etnik guruh savodxonlik darajasi past, ijtimoiy va madaniy jihatdan jamiyatning qoloq qismi bo‘lib qolmoqda. Ayrim lo‘li bolalari maktabgacha ta‘lim muassasasi va maktablarga qatnamaydilar. Buni ota-onalar moddiy imkoniyatning cheklanganligi, o‘quv qurollari va kiyim-kechak uchun mablag‘ berolmasliklari bilan izohlaydilar. Maktabga bormagan va xat-savod chiqarmagan farzandlar esa biror yaxshiroq ish o‘rniga ega bo‘lolmaydilar. Mahalliy hokimiyat organlari hamda jamoat tashkilotlari bunday salbiy ko‘rinishlarni bartaraf etish uchun lo‘lilar bilan ishlashda jahon amaliyotida to‘plangan tajribalar va aniq chora-tadbirlar asosida ish olib borsalar maqsadga muvofiq bo‘lar edi.

Adabiyotlar

1. Dala yozuvlari. Buxoro viloyati, Buxoro shahri, Otbozor mahalasi, 2018 yil.
2. Dala yozuvlari. Buxoro viloyati, Buxoro shahri, 2018 yil.
3. Народы России. Этнографические очерки. Издание редакции журнала «Природа и люди». Типография товарищества «Общественная польза», большая подъяческая, 39. Санктпетербург, 1878. 452 с.

4. Снесарев Г.П. Реликты домусульманских верований и обрядов у узбеков Хорезма. М.: "Наука", 1969. 301 с.
5. www.slovarnik.ru. *Этнодемография* // Толковый словарь обществоведческих терминов. Н. Е. Яценко. 1999

UDK: 94(575.4)

NAQSHBANDIYA TARIQATI MUZEYI

O.O. Zaripov

Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari institutining Buxoro filiali
E-mail: baqtoria@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada Naqshbandiya tariqati muzeyining tashkil qilinishi uning eksponatlar fondi, fondagi mavjud eksponatlar tahlil qilingan. Muzey fondidagi eksponatlar turiga ko'ra klassifikatsiya qilinib tadqiq qilingan.

Kalit so'zlar: Bahouddin Naqshband, muzey, naqshbandiya, tasavvuf, tariqat, hunarmandchilik, ekzpozitsiya, ko'rgazma.

Музей Тарикат Накшбандия

Аннотация: В статье рассматривается музей тариката Накшбандия, основание музея и его фонда экспонатов, анализированы экспонаты имеющиеся в фонде. Экспонаты в музейном фонде были классифицированы и изучены по типам.

Ключевые слова: Бахоуддин Накшбанд, музей, накшбандия, суфизм, тарикат, ремесла, экспозиция, выставка.

Museum of Tarikat Naqshbandiya

Abstract: In the article the museum of the Nakshbandiya tariqa, the foundation of the museum and its exhibits fund are analyzed. Exhibits in the museum fund were classified and studied by type.

Keywords: Bakhouddin Naqshband, museum, Naqshbandiya, Sufism, Tarikat, crafts, exposition, exhibition.

Hozirgi kunda dunyoda 100 mingdan ortiq turli xildagi muzeylar mavjud. Ular ichida tariqat va tasavvuf, uning insoniyatga bergan ma'naviy merosi va rivojlanish tarixiga bag'ishlangan muzeylar sanoqli. Bulardan eng mashhurlari Turkiyaning Konya shahridagi "Mavlono" muzeyi va Qozog'istonning Aktyube shahridagi "Ruhoniyat" muzeyini misol qilib keltirish mumkin. Naqshbandiya tariqat muzeyi – jahonda tasavvuf va Naqshbandiya tariqatining falsafiy merosi, tariqat namoyondalarining xo'jalik va diniy mashg'ulotlari hamda buyumlariga bag'ishlangan yagona muzey hisoblanadi.

Muzey O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1992 yil 28 oktyabrdagi "Bahouddin Naqshbandiyning 675 yilligini nishonlash to'g'risida"gi № 497-sonli farmonga asosan tashkil qilingan. Muzey Buxoro shahridan 12 kilometrlik masofada bo'lgan Bahouddin Naqshband ansambli hududidagi XVIII asrning 2-yarmida barpo qilingan Doniyolbiy madrasasida joylashgan. Muzeyning umumiy maydoni 550 m², ekspozitsiya maydoni esa 114 m² tashkil qiladi. Madrasada mavjud 11 ta xona (hujra)ning 8 tasi ekspozitsiyalar uchun ajratilgan, 3 tasi muzey ma'muriyati va xo'jalik xonasi sifatida foydalaniladi. Muzey ekspozitsiyasi muzey-qo'riqxonaning etnografiya, xo'jalik buyumlari va kitoblardan iborat. Muzeydagi eksponatlar umumiy soni 197 ta bo'lib, asosiy fondga 185 ta, yordamchi fondga 12 ta eksponat mavjud.

Muzeydagi eksponatlar fondini tashkil qilishda Buxoro Davlat muzey-qo'riqxonasi etnografiya va xo'jalik buyumlari fondidan foydalanilgan. Sufiylar va darvishlarga aloqador buyumlarni yig'ish Buxoro Davlat muzey-qo'riqxonasi tashkil qilingan paytdan boshlangan. Naqshbandiya tariqati ahli hunarmand doiralari bilan yaqin aloqada bo'lganligi ma'lum, shuning uchun muzey ekspozitsiyasida o'rta asr hunarmandchiligining ko'plab namunalari: XIV – XIX asrlar Buxoro keramikasi, matolari, mis to'qimali buyumlar ekspozitsiya namoyishiga qo'yilgan.

Muzeyda ko'rgazmaga qo'yilgan mavjud eksponatlarning to'liq detalizatsiyasi quyidagicha:

№	Tartib raqami	Nomi
1-xona, 1-vitrina		
1.	1.	Oy va besh qirrali tug‘ uchun moslama. Temir. Buxoro. XX asr.
2.	2.	Panja. Yozuv, gumbaz ikki minora tasvirlangan. Buxoro. XX asr.
3.	3.	Qur‘on. Toshbosma. Buxoro. XX asr.
4.	4.	Lavh. Ikki qismdan iborat kitob qo‘yiladigan moslama. Buxoro. XX asr boshi.
5.		Tasbeh. Buxorodagi Xo‘ja Zayniddin xonaqosida saqlangan.
1-xona, 2-vitrina		
6.	1.	Tambur. XX asr boshlari. Buxoro.
7.	2.	Nay. XX asr boshlari.
8.	3.	Shoyi mahalliy artel mahsulot.
9.	4.	Qolip. Bodomi naqshi. XIX asr oxiri. Buxoro.
10.	5.	Qolip. "Qobuli" qora rang uchun.
11.	6.	Qolip. XIX asr oxiri. Buxoro.
12.	7.	Ilonsimon naqshli gulbosma. Buxoro tumani
13.	8.	Alocha. Shoyi mato. XX asr boshi. Buxoro.
14.	9.	Adras. Shoyi mato. XIX asr oxiri. Buxoro.
15.	10.	"Qalami" mato. XIX asr oxiri. Buxoro.
1-xona, 3-vitrina		
16.	1.	Grafin bo‘yni. SHisha bo‘laklari. X – XII asrlar. Buxoro.
17.	2.	Sepoya – sopol idish pishiriladigan moslama. Usta Sa‘dulla Rahmatullaev. Buxoro.
18.	3.	Simob ko‘zacha. Sopol. X – XII asrlar. Buxoro.
19.	4.	Dekor parchasi. Buxoro. Turki Jandi maqbarasi. X asr.
20.	5.	Dekor parchasi. Buxoro. Namozgoh masjidi. XII asr.
21.	6.	G‘undak. Tandir yasashda ishlatiladigan asbob.
22.	7.	Quvur. Sopol. XII asr Buxoro.
2-xona, 3-vitrina		
23.	1.	Xoja Abdulbaqo "Jome ul maqomot". Qo‘lyozma XIX asr.
24.	2.	Quyma chelak. Mis. XX asr. Buxoro.
25.	3.	Sarxum. Mis. XX asr boshi. Buxoro.
26.	4.	Chilkalit ¹ . Mis. XX asr boshi. Buxoro.
27.	5.	Qumsoat ² . Yog‘och. XX asr boshi. Buxoro.
28.	6.	Aso. Yog‘och. XX asr boshi. Buxoro.
2-xona, 4-vitrina		
29.	1.	Dastsho‘y. Mis. XIX asr. Buxoro.
30.	2.	Manqal. Chuyan. XX asr. Buxoro.
31.	3.	Chelak. Mis. XX asr boshi. Buxoro.
32.	4.	Mexlos. La‘li tayyorlashda ishlatiladigan asbob.
33.	5.	Dunula. Mayda buyumlar yasashga mo‘ljallangan asbob.
2-xona, 5-vitrina		
34.	1.	Sirlangan kosa. Sopol. IX – X asrlar. Buxoro.
35.	2-3.	Sirlangan kosa. Sopol. XII – XIV asrlar. Buxoro.
36.	4.	Sirlangan tovoq. Sopol. XII asr. Buxoro.

¹ Chilkalit – fors. "qirq kalit" azayimxonlar turli xil ko‘zlardan, sehrdan asrash uchun duolar o‘qilgan suv ichiladigan o‘rtasida qirq kaliti bor idish.

² Qumsoat – 10 minutga mo‘ljallangan.

37.	5.	Sirlangan kosa. Sopol. Buxoro.
2-xona, 6-vitrina		
38.	1.	Tug'. (3 uchli o'rtasida arab yozuvida Ixlos surasi yozilgan)
39.	2.	Tug'. (soqqali)
40.	3.	Tug'. (o'rtasida Alloh, Muhammad, Ali yozuvlari tushirilgan)
3-xona, 7-vitrina		
41.	1.2.4.	Tovoq. XX asrning boshlari. Buxoro.
42.	3.	Ovqat saqlanadigan idish. XX asrning boshlari. Buxoro.
43.	5.	Cho'mich. XX asr boshlari. Buxoro.
3-xona, 8-vitrina		
44.	1.	Bo'yoq surtilgan qog'oz. XX asrning boshlari. Buxoro.
45.	2.	Qolip. XX asrning boshlari. Buxoro.
46.	3.	Qolip. XX asrning boshlari. Buxoro.
47.	4.	Qolip. XX asrning boshlari. Buxoro.
48.	5.	Qolip. XX asrning boshlari. Buxoro.
49.	6.	Kuloh – darvishningbosh kiyimi. XX asr boshi. Buxoro.
50.	7.	Aso. Yog'och. XIX asr. Buxoro.
51.	8.	Kashkul. XX asrning boshi. Buxoro.
52.	9.	Erkaklar to'ni. XIX asr.
3-xona, 9-vitrina		
53.	1.	Qozon. XX asr boshlari. Buxoro.
54.	2.	Cho'ipi. XX asr boshlari. Buxoro.
55.	3.	Ko'za. XX asr boshlari. Buxoro.
56.	4.	Cho'ipi. Temirdan. XX asr boshlari. Buxoro.
57.	5.	Tarozi. XX asr boshlari. Buxoro.
58.	6.	Kashkul – obkadu (suvqovoq). XX asr boshlari. Buxoro.
59.	7.	Shoyi. Mahalliy artel mahsuloti.
60.	8.	“Qalami” matosi. XX asr boshlari. Buxoro.
61.	9.	Erkaklar to'ni. XX asr. Buxoro.
62.	10.	Aso. XX asr. Buxoro.
3-xona, 10-vitrina		
63.	1.	Mahsulot saqlanadigan quti.
64.	2.3.	Tamoncha – yog'och belkurakcha, xumlarni siliqlash uchun ishlatilgan asbob.
65.	4.	Qoshiq. XX asr boshlari. Buxoro.
66.	5.	Qoshiq. XX asr boshlari. Buxoro.
67.	6.	O'qlov. XX asr boshlari. Buxoro.
68.	7.	Cho'mich.
5-xona, 11-vitrina		
69.	1.2.3.4.	Shayx Sayfiddin Boharziy maqbarasi dahma parchalari. Yog'och. O'ymakorlik. XIII asr.
5-xona, 12-vitrina		
70.	1.	Qozon. XX asr boshlari. Buxoro.
71.	2.	Kashkul. XX asrning boshlari. Buxoro.
72.	3.	Chilkalit. Osmo kalitlari bilan. XX asr boshi. Buxoro.
73.	4.	Mis likopcha. – Eronliklar masjididan olingan. XX asrning boshi.
74.	5.	Satil. Mis. XX asr. Buxoro.
75.	6.	Miyonband – belbog'. XX asr boshi. Buxoro.

76.	7.	Oq yaktak. Qur'ondan oyatlar yozilgan.
77.	8.	Aso. (Hassa)
6-xona, 13-vitrina		
78.	1,2,3,4.	Dehqonchilik ish qurollari.
79.	5.	Dastsho'y. Mis. XX asr. Buxoro.
80.	6.	Sandiqcha. Yog'och. Buxoro. XX asr boshi.
81.	7.	Xompo'sh. Mis. Buxoro. XX asr boshi.
82.	8.	“La'l qoshiqcha” – (podnos) Mis. Buxoro. XX asr boshi.
83.	9.	Suv saqlanadigan xum. XX asr boshi.
84.	10.	Stol “taglik”. Yog'och. Buxoro. XX asr boshi.
85.	11.	Oftoba. XX asr boshi.
86.	12.	Satil. Mis. XX asr. Buxoro.
7-xona, 14-vitrina		
87.	1.	Ko'zacha. XX asr boshi. Buxoro.
88.	2.	Ko'za. XX asr boshi. Buxoro.
89.	3,4.	Ko'za. XX asr boshi. Buxoro.
90.	5.	Xumcha. Sopol. X – XI asr. Poykent.
91.	6.	Aso. XX asr. Buxoro.
92.	7.	Ko'za. XX asr boshi. Buxoro.
7-xona, 15-vitrina		
93.	1.	Lavh. XX asr boshi. Buxoro.
94.	2.	Kuloh – darvishning bosh kiyimi.
95.	3.	Aso. Yog'och. XIX asr. Buxoro.
96.	4.	Erkaklar to'ni. XX asr. Buxoro.
7-xona, 16-vitrina		
97.	1.	Bahouddin Naqshbandning shajarasi.
98.	2.	Bahouddin Naqshbandning avlodlari.
7-xona, 17-vitrina		
99.	1.	Shoyi mato. XIX asr oxiri. Buxoro.
100.	2.	Alocha. XIX asr oxiri. Qarshi. Mato.
101.	3,4.	Beqasam. XIX asr. Buxoro.
7-xona, 18-vitrina		
102.	1.	Charx. To'quv asbobi. XX asr boshi. Buxoro.
103.	2.	Kashkul. XX asrning boshlari. Buxoro.
104.	3,4.	Moku. XIX asr oxiri. Buxoro.
105.	5,6,7.	Qolip. XX asr boshi. Buxoro.
106.	8.	“Qalami” mato. XIX asr oxiri. Buxoro.
9-xona, 19-vitrina		
107.	1.	Qur'on qo'lyozma. XVIII asr.
108.	2.	Mutakki. Qur'on o'qilganda suyanaladigan tayoqcha. XX asr boshi. Buxoro.
9-xona, 20-vitrina		
109.	1.	Arizacho'p. Arizalar solish uchun g'ilof. XX asr boshi.
110.	2.	Ulug'bek madrasasi peshtoqiga o'rnatilgan mashhur lavha. XV asr. Buxoro. ³
111.	3.	Lavh. XX asr boshi. Buxoro.
112.	4,5,6.	Qalamdon.

³ “Ilm olishga intilish har bir musulim va musulima uchun farzdir” hadisi yozilgan.

113.	7.	Mutakki. Qur'on o'qilganda suyaniladigan tayoqcha. XX asr. Buxoro.
9-xona, 21-vitrina		
114.	1.8.	Dastsho'y. XIX asr.
115.	2.4.5.6.7.	Oftoba. XIX asr. Buxoro.
116.	3.	Choynak va piyolalar. Mis. XIX asr. Buxoro.
117.	9.	Aso. Yog'och. XX asr. Buxoro.
10-xona, 22-vitrina		
118.	1.	Lavh. Ikki qismdan iborat kitob qo'yiladigan moslama. XX asr boshi.
119.	2.	"Maqomot" bosma uslubda.

Ushbu eksponatlar ichida markaziy o'rinni XVIII asrga tegishli Qur'oni Karim, "Maqomati Xoja Porso" qo'lyozmasi, tasavvuf namoyondalarining she'riy to'plamlari egallaydi.

Tariqat rahnamolarining va a'zolari kiyim-kechaklarining ko'rgazmasi muzey bo'limlari ichida alohida o'rin tutadi. Tariqat ahli o'ziga xos kiyim-bosh kiyishgan ular asosan bosh kiyimi – kuloh, janda – chopon va belbog'dan iborat bo'lgan. Kuloh – konussimon shaklga ega bo'lgan, kashta naqshli do'ppi. Naqshbandiya tariqati a'zolari odatda to'rt tomoniga Qur'on oyatlari tushirilgan parchadan tikilgan kuloh – do'ppi kiyishgan. Uning rangi odatda oq bo'lgan.

Ko'rgazmadagi yana bir ahamiyatga molik ashyo bu oq matodan tikilgan ko'krak qismiga qora ipakdan Qur'on oyatlari yozilgan chopon. An'anaga ko'ra oyatlar va duolar kiyimning ko'krak qismiga tushirilgan, chunki tumorlarni ham yurak ustida, ko'krakda osib yurishgan. Choponning orqa qismida ham zar ipda naqshlar tushirilganligi uning tariqat ahlining zodagonlaridan biriga tegishli bo'lganligidan guvohlik beradi. Bu chopon maxsus marosimlarda kiyilgan bo'lishi mumkin. Ko'rgazma taqdim etilgan kiyim-kechaklar XIX asr oxiri XX asr boshlariga tegishli.

Marosim ashyolari ichida alohida o'rin tutuvchi yana bir ashyo bu Xo'ja Zayniddin xonqosidan olingan XVI asrga tegishli tasbeh hisoblanadi. Tasbehning faqat 446 donasi saqlanib qolgan. Muzey inventarizatsiya kitobida yozilgan ma'lumotlarga ko'ra tasbeh xonaqoda o'tkazilgan dafn marosimlarida mayitning atrofiga qo'yilgan.

Muzey ekzpozitsiyalarida avliyolar qabri ustida o'rnatiladigan "panja" – tug'larning bir qator turlari ko'rgazmaga qo'yilgan. Panja – qo'lning besh barmog'i ochiq holdagi tasviri, yog'ochdan yasalgan tug'ning ustki qismiga o'rnatilgani uchun "toji tug'" deb ataladi. Odatda panja temir, mis yoki bronzadan ba'zan oltindan yasalgan. O'rta Osiyoda avliyolar qabrlari ustida panjali tug' ko'tarish an'nasini ko'plab uchratish mumkin. Bahouddin Naqshband yodgorlik majmuasi ham buning yorqin misoli.

Qabrda dafn qilingan shaxsning muqaddasligi va tabarrukligi ramzi bo'lgan panja-tug'ning o'rnatilish sabablari turlicha talqin qilinadi. Musulmon olamining ko'pchilik qismi uchun ushbu panja – besh islom arkonini anglatsa, ba'zilar uni Iskandar Zulqarnayning vafotidan so'ng qo'llarini ochiq holda chiqarib qo'yib, uning dunyodan hech narsa olib ketmayotganligini ko'rsatish to'g'risidagi vasiyati bilan bog'liq afsonaga bog'lashadi.

Ekspozitsiyaning nodir eksponatlaridan biri XIV asrga taalluqli Shayxul olam Sayfiddin Boxarziyning (1190-1261 yillar, Buxoro Kubraviya tariqati namoyondalaridan biri) qabri ustiga o'rnatilgan yog'och o'ymakorligi naqshlari bilan bezatilgan dahma parchalari hisoblanadi. Arxiv hujjatlariga ko'ra, qabr ustiga o'rnatilgan parcha yomon holatga tushganligi sababli u 1926 yil kuzida maqbaradan Buxoro muzeyiga ko'chirilgan.

Muzey ekspozitsiyalarining yakunlovchi bo'limida Bahouddin Naqshband yodgorlik majmuasining hozirgi kundagi hayoti, Naqshbandiya tariqati va tasavvufga bag'ishlangan yangi ilmiy nashrlar, dunyoning turli mamlakatlardan tashrif buyurgan ziyoratchilarning fotosuratlarini joylashgan.

Yuqoridagi ma'lumotlardan kelib chiqib biz Naqshbandiya tariqati muzeyi eksponatlarini quyidagicha yo'nalishlarda klassifikatsiya qilishimiz mumkin:

1. *Tasavvuf va tariqat ahillariga tegishli buyumlar* – muzey ekponatlari ichida markaziy o'rin tutadi. Tasavvuf va tariqat, darveshlikka oid kiyim-kechak va maishiy buyumlar. Bu eksponatlar O'rta Osiyo hududida tasavvufning xususan Naqshbandiya tariqatining vujudga kelishi va rivojlanish tarixini ochib beruvchi buyumlar hisoblanadi.

2. *Diniy marosimlarga va ularni o'tkazishga oid eksponatlar* – sufiylar va tariqat ahillarining mashg'uloti hamda diniy marosimlarga tegishli buyumlar. Bu ashyolar orqali biz oddiy musulmon diniy marosimlari va tasavvufdagi o'ziga xos diniy marosimlar bilan bog'liq farqli jihatlarni ko'rimiz mumkin. Kiyinishdagi so'fiylarning ma'lum bir qoidalari, marosimlarda ishlatiladigan maxsus buyumlar bunga misol bo'lishi mumkin.

3. *Diniy adabiyotlar* – Qur'oni Karim va tasavvuf namoyondalarining falsafiy merosiga bag'ishlangan qo'lyozmalar, kitoblar. Hozirgi zamon olimlarining Naqshbandiya tariqati uning tarixi va falsafasiga bag'ishlangan asarlari.

4. *Hunarmandchilik buyumlari* – Bahouddin Naqshband yashagan davr XIV asr hayoti muhitini tasvirlovchi eksponatlar. Milliy hunarmandchilikning turli yo'nalishlari: mato va gazlamalar tayyorlash, matolarga rang berish, kulolchilik, temirchilik, yog'och o'ymakorligi, kashtachilik buyumlari namunalari. Naqshbandiya tariqatining o'ziga xosligi shundaki tariqat a'zosi albatta biror bir hunar egasi bo'lishi shart bo'lgan. Tariqat asoschisi Bahouddin Naqshband ham matolarga rang berish, ularga naqsh tushirish bilan shug'ullangan. Biz ushbu kasb bilan bog'liq asbob-uskunalarini ham muzey eksponatlari ichida ko'rishimiz mumkin.

5. *Xo'jalik va uy-ro'zg'or buyumlari* – mahalliy aholining va sufiylarning maiyshiy turmushiga oid buyumlar, dehqonchilik ish qurollari. XIX – XX asrlarga tegishli Buxoro vohasi aholisining uy-ro'zg'or buyumlari, darveshlarning kundalik turmushida ishlatgan buyumlari.

6. *Buxoro tarixiga oid eksponatlar* – Buxoro vohasining turli hududlaridan topilgan ilk o'rta asrlar, o'rta asrlarga oid arxeologik ashyolar, tarixiy yodgorliklar va XIX – XX asrlarga oid tarixiy buyumlar.

7. *Muzey va Bahouddin Naqshband yodgorlik majmuasining tashkil etilishi va hozirgi kundagi hayotiga oid eksponatlar*. Eksponatlar ichida Naqshbandiya tariqati tarixi va falsafasi yo'nalishida faoliyat yuritayotgan ilmiy tadqiqochilarning mavzuga doir ilmiy maqolalari, nashrlari ko'rgazmaga qo'yilgan.

Muzeyda ko'rgazmaga qo'yilgan ushbu ekspozitsiyalar yagona tarixiy-madaniy birlikni tashkil qilib, muzeyni yodgorlik majmuasi bilan bog'lab turadi. Bu ekspozitsiyalardan biz Naqshbandiya tariqatining o'z moddiy va madaniy merosi bilan O'rta Osiyo madaniyati rivojiga qo'shgan hisasi ko'rgazmasi deb xulosa qilishimiz mumkin. Shundan kelib chiqib, hozirgi kunda muzey infratuzilmasini takomillashtirish va tashrif buyuruvchilarning sonini ko'paytirish maqsadida Buxoroda mavjud tarixiy-yodgorliklar va muqaddas qadamjolarida ko'chma ko'rgazmalar tashkil qilish tavsiya etiladi.

UDK:32(572.1)

FUQAROLIK JAMIYATI VA DEMOKRATIK SIYOSIY TARTIBOTNING TADRIJIY RIVOJLANISHI**Sh. Otaqulov***Toshkent davlat pedagogika universiteti*

Annotatsiya. Maqolada davlat hokimiyati organlari faoliyati ustidan kuchli jamoatchilik nazoratini amalga oshirish fuqarolik jamiyatini barpo etishning muhim shartlaridan ekanligi va demokratik siyosiy tartibotning bosqichma-bosqich rivojlanib borishi haqida fikr yuritiladi.

Kalit soʻzlar: Fuqarolik jamiyati, demokratik davlat, siyosiy tartibot, shaxs erkinligi, davlat hokimiyati, konsepsiya, huquqiy davlat, oʻzbek modeli, mahalla instituti, ijtimoiy sheriklik, jamoat nazorati, vakillik demokratiyasi, ijtimoiy faollik.

Эволюционное развитие гражданского общества и демократического политического порядка

Аннотация. В данной статье размышляется об установлении сильного общественного контроля за деятельностью органов государственной власти, что является важной предпосылкой для построения гражданского общества и демократического политического порядка.

Ключевые слова: гражданское общество, демократическое государство, политический порядок, личная свобода, органы государственной власти, понятие, государственные и местные институты узбекской модели социального партнерства и социального контроля, социальная активность.

The society of citizenship and educational developing of democratic political

Abstract. The article implementation of strong public control over the activities of public authorities is an important prerequisite for building a civil society and a democratic political order.

Keywords: civil society, democratic state, political order, personal freedom, public authorities, the concept, state and local Institute of the Uzbek model of social partnership and social control, representative democracy, and social activity.

Mustaqillikka erishilgandan soʻng huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyatini barpo etishga qaratilgan bosqichma-bosqich islohotlar jarayoni tarixiy ahamiyatga molik. Zero, islohotlarning har bir bosqichi oʻziga xos xususiyatlarga ega boʻlib, unda keyingi, undan yuqoriroq bosqich uchun asoslar yaratiladi.

Islohotlarni davrlash, ularni bosqichlarga boʻlish ilmiy ahamiyatga ega. Chunki islohotlar evolyutsiyasi jamiyat siyosiy tizimi va siyosiy tartibotini ham demokratlashuv jarayonlari, ularni ham bosqichma-bosqich kechayotganligi bilan oʻzaro aloqadorligini ilmiy jihatdan asoslash imkoniyatini yaratadi. Zero Oʻzbekiston Respublikasi “oʻzbek modeli” asosida taraqqiyot odimlarini belgilar ekan, uni ilmiy asoslarga bogʻlaydi, koʻr-koʻrona emas, balki har tomonlama oʻylangan, uzoq muddatni oʻz ichiga oluvchi mustahkam strategiyaga tayanib siyosat yurgizadi.

Siyosiy iqtisodiy va huquqiy sohalarni liberallashtirish siyosati aynan jamiyat siyosiy tartibotini ham tobora liberallashuvi va demokratlashuvining ifodasidir.

2010-yil 12-noyabrida jamiyat siyosiy tartibotini yanada demokrat-lashuvida muhim tarixiy bosqichga asos solindi-“Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish” konsepsiyasi qabul qilindi va oʻtgan yillar davomida keng koʻlamli islohotlarni bosqichma-bosqich amalga oshirishda fuqarolik jamiyatining yangi bir qator institutlarini yaratish, ularning dastavval qonunchilik asoslarini shakllantirish vazifasi ilgari surildi. 2005 yil 23 iyunda Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining “Oʻzbekistonda fuqarolik jamiyati institutlarining rivojlanishiga koʻmaklashishi chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi qarori qabul qilindi.

Mazkur qarorda “Oʻzbekistonda bozor iqtisodiyoti rivojlangan demokratik huquqiy davlat, ochiq fuqarolik jamiyati barpo etish yoʻlidagi eng muhim vazifa mustaqil, barqaror, aholining keng qatlamlari tomonidan qoʻllab-quvvatlanadigan va xalq orasida chuqur ildiz otgan turli-tuman fuqarolik jamiyati institutlarini yaratish va rivojlantirishdan iborat” deb taʼkidlanadi.

Ushbu qaror va Konsepsiya o'rtasida o'zaro bog'liqlik shundaki, taraqqiyotning "o'zbek modeli" taqazo etgan besh asosiy tamoyil davlatning bosh islohotchiligi, iqtisodiyotning har qanday mafkura va siyosatdan xoliligi, kuchli ijtimoiy siyosat, qonun ustuvorligi va bozor munosabatlariga bosqichma-bosqich o'tish tamoyillari fuqarolik jamiyatini yaratish uchun asos qilib olinadi. Fuqarolik jamiyati mahalla institutidan tashqari qator ijtimoiy institutlarni ham o'z ichiga oluvchi ijtimoiy tizim ekanligi e'tirof etiladi.

Albatta, O'zbekiston sharoitida jamoaviylik prinsipi katta mavqe'ga ega, mahalla darhaqiqat xalqimizning tarixiy qadriyatidir. Mahalla institutiga hozirda qator vakolatlar berildi, uning huquqiy asoslari mustahkamlanib, fuqarolar yig'inlari raislarining siyosiy va huquqiy savodxonligiga katta e'tibor berilmoqda. Biroq, gap shundaki, biz barpo etayotgan fuqarolik jamiyati nafaqat milliy qadriyatlar, balki umum e'tirof etilgan umuminsoniy ijtimoiy qadriyatlar asosida barpo etildi. Agar hokimiyatlar bo'linishi umuminsoniy ijtimoiy qadriyat deb olinsa, fuqarolik jamiyatining boshqa bir qator ijtimoiy institutlari ham umuminsoniy qadriyat sifatida fuqarolik jamiyatida teng huquqli faoliyat yuritishi lozim bo'ladi.

Milliy mustaqillik mamlakatimizni jahon hamjamiyatiga uyg'unlashish, jahonda tarixan shakllangan ijtimoiy tizim va siyosiy tartibotlar shakliga moslashish, ayniqsa vakillik demokratiyasini parlament institutining asosiga olish imkoniyatini yaratdi.

Ayniqsa vakillik demokratiyasini davlat boshqaruvida asosiy prinsip deb olinishi fuqarolik jamiyati asoslarini g'oyaviy jihatdan mustahkamlaydi. O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.A.Karimov "O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari" asarida ham bu jihatga katta e'tibor beradi va "siyosiy partiyalarsiz va jamoatchilik harakatlarsiz respublikada vakillik demokratiyasini tasavvur qilib bo'lmaydi" deb ta'kidlagan [1]. Jamiyat siyosiy tartibotini bosqichma-bosqich demokratlashuvi keng qamrovli ijtimoiy hodisalar bilan uzviy bog'liq. Ayniqsa ma'naviy-ma'rifiy sohadagi islohotlar, birinchi navbatda xalqimizning mustamlakachilik davrida toptalgan, ta'qiqlangan ma'naviy-madaniy merosimizni qayta tiklash borasida hukumatimiz tomonidan amalga oshirilgan ulkan ishlar jamiyat siyosiy tartibotini tobora demokratlashuvi bilan bog'liq. Imom Buxoriy, Imom Moturudiy, Marg'iloniy, Bahoviddin Naqshband kabi o'nlab buyuk siymolar nomi qayta tiklandi, xalqimiz ushbu allomalarning ma'naviy merosidan bahramand bo'lish imkoniyatiga ega bo'ldilar.

Yuqorida tilga olingan mutafakkirlarimizning tavalludlarini mustaqillik yillarida keng nishonlanishi milliy ma'naviy merosimizni qayta tiklanishida katta rol o'ynadi.

Jamiyat siyosiy tartibotining demokratlashuvi milliy-ma'naviy merosimizni qayta tiklanishi, barpo etilayotgan yangi milliy davlatchilik va fuqarolik jamiyati uchun asosga aylanishiga olib keldi. SHaxs, fuqaro ma'suliyati, ko'pchilik manfaatini hisobga olib ish yuritish demokratik tartibot uchun xosdir. Jamiyat siyosiy tartibotini demokratlashuvi, shu boisdan, bunday tartibot uchun dastavval ma'naviy asoslarni shakllantirishni, barkamol insonni taqazo etadi.

O'zbekiston o'zini demokratik huquqiy davlat deb e'lon qilar ekan, bundan kelib chiqadigan barcha vazifalar, vakolatlar, huquq va majburiyatlarni so'zsiz tan oladi. Mazkur shaklning mushtarak bo'lishi o'ta muhim bo'lib, u o'tish davrida, ushbu davlat tizimining yanada muqobil ekanligini tasdiqlashga har tomonlama asos bo'la oladi.

Birinchidan, kuchli hokimiyat davlatga o'z islohotchilik vazifalarini amalga oshirishga, ijtimoiy-siyosiy jarayonlarni nazorat ostida saqlashga imkoniyat beradi.

Ikkinchidan, kuchli hokimiyat keskin sakrashlarga yo'l qo'ymasdan, rivojlanishning tadrijiy, bosqichma-bosqich kechishini yo'naltirilgan tartibda boshqarish imkoniyatini beradi.

Uchinchidan, uning sharofati bilan, hududda ijtimoiy intizom va tartibni, fuqarolar o'rtasidagi birdamlik va millatlararo totuvlikni ta'minlash imkoniyatlari yanada oshadi.

To'rtinchidan, kuchli hokimiyat, jamiyatda siyosiy beqarorlik va ijtimoiy tanglikni keltirib chiqaradigan kuchlar bilan bo'ladigan kurashda ishonchli va qudratli kuch hisoblanadi.

Beshinchidan, fuqarolarning konstitutsiyaviy erkinligi va huquqlarini himoya qilishda, shuningdek, jamiyatning o'ta boy va o'ta kambag'al qatlamlarga keskin ajralishi jarayonining oldini olishda kafolatchi sifatida namoyon bo'ladi.

Oltinchidan, kuchli hokimiyatni madaniy-ma'naviy, ijtimoiy makonni, shuningdek, professional-ma'rifiy va tibbiy sog'lomlashtirish majmualarini rivojlantirish uchun zarurdir.

SHo' o'rinda ta'kidlash joizki, kuchli hokimiyat, faqatgina, xalqning o'ziga bo'lgan ishonchi va hurmatiga sazovor bo'lib, unga tayansagina, shuningdek qonunlarga amal qilgan holda o'z qurilishi

va boshqaruvining demokratik tamoyillarini rivojlantirib borsagina, jamiyatdagi har qanday o'zgarishlarga tez va mas'uliyat bilan munosabat bildirgan holda, dastavval aholining ijtimoiy ahvoli, kayfiyatini saqlash va ko'tarishga qaratilgan mexanizm va uslublarni ishlab chiqsa, hamda ulardan samarali foydalana olsagina, yuqorida qayd qilingan sifatlarga ega bo'la oladi. SHu bilan bir vaqtda, Respublikaning birinchi Prezidenti Islom Karimov ta'kidlaganidek, "Samarasiz boshqaruv bo'g'inlari qanchalik ko'p bo'lsa, fuqarolik jamiyatini qurish shunchalik qiyin kechishi hech kimga sir emas.

Biz davlatning qudratiga hokimiyat va boshqaruv idoralarining soni va miqyosiga qarab emas, aksincha ularning ish tizimi qanchalik samara berayotganiga qarab baho berishimiz lozim" [2].

Fuqarolik jamiyatini shakllantirishning istiqbollari haqida so'z yuritilar ekan, shuni yodda saqlash lozimki, uning rivojlanishi va bundan keyingi manbalari, avvalambor, ijtimoiy o'zini-o'zi boshqarishning an'anaviy murakkab shakllariga borib taqaladi. Bu shuning uchun ham muhimki, boshqaruvni jamoatchilik asoslarining bundan keyingi mustahkamlanib borishi mobaynida davlat o'z vazifalarining kattagina qismini o'zini o'zi boshqarish organlari hamda jamoat birlashmalari hisobiga o'tkazish orqali zimmasidan soqit qilib boradi. Ammo, bu degani-jamoat birlashmalari davlatning o'rnini bosadilar va davlat faoliyati bilan shug'ullanadilar degani emas. Davlat va jamoat tashkilotlarining faoliyatlari bir-birini to'ldirib va mazmunan boyitib turadi. Bunda har ikkala tomonning o'ta muhim ijtimoiy muammolarni teng hal qilishdagi ijtimoiy sherikchilik xarakteri namoyan bo'ladi.

Ma'lumki, inson uning huquq va erkinliklari oliy qadriyat bo'lishi insonparvar demokratik huquqiy davlatning asosiy vazifasi tabiatan turlicha bo'lgan fuqarolar va jamoat birlashmalari inson bilan davlat o'rtasidagi aloqani amalga oshiruvchi, davlatning hokimiyatni suiste'mol qilishiga yo'l qo'ymaydigan fuqarolik jamiyatining har tomonlama rivojlanishi uchun zarur shart sharoitlar yaratib berishdan iborat. Boz ustiga, fuqarolik jamiyatining siyosiy poydevorini shaxsning barcha huquq va erkinliklarini ta'minlash, barqarorlikka, xavfsizlikka, adolatga hamda hamkorlikka erishish maqsadida jamiyatning rivojlanishi uchun zarur bo'lgan huquqiy davlat va demokratiya tashkil etishini unutmashimiz lozim. Demokratik davlat fuqarolari shaxsiy erkinlik huquqidan foydalanishi barobarida davlatning tegishli barcha institutlari bilan birgalikda kelajak uchun mas'ullikni his qilishadi.

Darhaqiqat, fuqarolik jamiyati hokimiyat bilan jamiyat o'rtasida o'zaro kelishuvga yo'naltirilgan munosabatlar o'rnatiladigan demokratik siyosiy tizim sharoitidagina rivojlanishning yuqori darjasiga ko'tariladi. Fuqarolik jamiyatida demokratik protseduralar hokimiyat faoliyati sifatini baholovchi ommaviy huquqqa va jamiyat manfaatlari yo'lida hokimiyatga ta'sir etish mexanizmlariga asoslanadi. Zero, demokratiya sharoitida fuqarolik jamiyati institutlari va davlat alohida-alohida, ayni paytda, umumiy tizimda bir-biriga bog'liq tarzda mavjud bo'lishadi.

Fuqarolik jamiyatining maqsadi jamiyat har bir a'zosining manfaatlarini himoya qilishdan, hokimiyat faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini o'rnatishdan, shu jamiyatning ichki hamda tashqi siyosatini shakllantirishdan iborat. Fuqarolik jamiyatining har bir instituti o'z maqomidan kelib chiqqan holda, ushbu vazifaga mas'ul hisoblanadi.

Fuqarolik jamiyati mamlakatning iqtisodiy va siyosiy rivoji, xalqning farovonligi, siyosiy madaniyati hamda ongi o'sishi darajasidan kelib chiqqan holda, demokratik taraqqiyotning muayyan bosqichidagina shakllanadi. Boshqacha aytganda, fuqarolik jamiyati va demokratik rivojlanish bir-biri bilan uzviy aloqada bo'ladi. Fuqarolik jamiyati qanchalik taraqqiy topgan bo'lsa, davlat shunchalik darajada demokratlashgan hisoblanadi. Demokratiya sharoitida fuqarolik jamiyati institutlari va davlat mustaqil holda mavjud bo'lsalarda, lekin umumiy tizimda bir-biriga bog'liq qismlar hisoblanadi. Fuqarolik jamiyatining davlat jamiyati maqomi, avvalo, ana shu haqiqat bilan belgilanadi. Aynan shu bois fuqarolik jamiyati demokratiyaning umum tan olingan normalari, inson huquqlari hamda erkinliklari to'la ta'minlangan huquqiy jamiyat sifatida ijtimoiy taraqqiyotning oliy yutug'i hisoblanadi. Hokimiyat bilan fuqarolik jamiyati o'rtasidagi munosabat rasmiy shartnoma asosida, ya'ni amaldagi mavjud qonunlar doirasida ko'riladi, ularning o'zaro hamkorligi esa hamjihatlikka yo'naltirilgan.

Fuqarolik jamiyatining muhim tarkibiy instituti hisoblanadigan jamoat tashkilotlarining birlamchi va asosiy funksiyasi, ularning davlat hokimiyatini muayyan darajada chegaralash, ya'ni davlat hokimiyati organlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirish ekanligini e'tirof etish joiz.

Mazkur funksiya siyosiy tartibotning mohiyatidan kelib chiqib, turlicha ko‘rinishlarda ya’ni, demokratik davlatlarda hokimiyat faoliyati ustidan nazorat qilish va uning suiste’molchiliklarga yo‘l qo‘yishining oldini olish (ogohlantirish), nodemokratik davlatlarda esa jamiyatni demokratlashtirish vositasi sifatida maydonga chiqishlarida namoyon bo‘ladi. SHu bilan birga, nodemokratik tartibotli davlatlarda jamoat tashkilotlari suiiste’molchiliklar va qonuniylikka rioya etilmaslik holatlarini aniqlashda muhim rol o‘ynaydilar.

Demokratik boshqaruv shakli mavjud bo‘lgan davlatlarda jamoat tashkilotlari bunday holatlar ro‘y bergan taqdirda ulardan keng jamoatchilikni xabardor qiladi. Aytish mumkinki, jamoat tashkilotlarining roli aynan demokratik jarayonlarning rivojlanish davrida uni qo‘llab-quvvatlash va mustahkamlashda ko‘rinadi [3-5].

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash joizki, fuqarolik jamiyatida jamoat tashkilotlari tomonidan amalga oshiriladigan jamoatchilik nazorati-fuqarolarning o‘z huquqlari va burchlarini boshqalar bilan birgalikda ado etadigan, jamiyat boshqaruvini shakllantiradigan, shaxs-jamiyat-davlat o‘rtasidagi muvozanatni ta’minlab turishga xizmat qiladigan ijtimoiy institut sifatida maydonga chiqadi. Davlat hokimiyati organlari faoliyati ustidan kuchli jamoatchilik nazoratini amalga oshirish fuqarolik jamiyatini barpo etishning muhim shartlaridan hisoblanadi. Zero fuqarolarning faolligi, ijtimoiy hodisalarga befarq bo‘lmasligi hamda har bir davlat xizmatchisi o‘z faoliyatining jamoatchilik nazorati ostida ekanligini chuqur his etishi mamlakat taraqqiyotiga xizmat qiladi.

Adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi, birinchi Prezidentining “O‘zbekistonda fuqarolik jamiyati institutlarining rivojlanishiga ko‘maklashish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori // O‘zbekiston nodavlat notijorat tashkilotlari milliy asosatsiasi ma’lumotnomasi. –T., 2007, 375-bet.
2. Karimov I.A. O‘zbekiston XXI asr bo‘lag‘asida: Havfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari.-T.: “O‘zbekiston”, 1997. -174-bet.
3. Karimov I.A. O‘zbekistonning siyosiy-ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyillari. – T.: “O‘zbekiston”, 1995-B-17.
4. Boydadaev. M.“O‘zbekiston Respublikasida davlat boshqaruvi tizimi shakllanishi va rivojlanishining huquqiy asoslari”.-T.: “Akademiya” 1997 y.
5. Nazarov SH. “Demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirishda jamoat tashkilotlarining o‘rni” T.: TDYUI, 2012 – B.-62-63.

UDK: 1(09)

INSON VA JAMIYAT BAXT-SAODAT SUBYEKTLARI SIFATIDA

N.A. Eshonkulova

O‘zbekiston Milliy universiteti

Annotatsiya. Maqolada insoniyat tarixiy taraqqiyoti davomida shakllangan baxt-saodat haqidagi tasavvurlar, unga erishish yo‘llari haqida turli qarashlar o‘z aksini topgan. Shaxs va jamiyat baxtini uyg‘unlikda olib qaragan buyuk mutafakkirlarning qarashlari, ilgari surgan g‘oyalari muammoning o‘ziga xos yechimi va zamonaviyligi bilan alohida ajralib turishi ijtimoiy-falsafiy tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: inson, baxt-saodat, fenomen jamiyat, oila, ma’naviyat, tafakkur.

Человек и общество как субъекты счастья

Аннотация. В статье отражены сформировавшиеся в течение исторического развития человечества представления о счастье, различные воззрения о путях его достижения. Приводится социально-философский анализ воззрений просветителей и что их идеи о гармонии счастья личности и общества являются специфическим решением проблемы счастья и в современном мире.

Ключевые слова: человек, счастье, феномен общество, семья, духовность, разум.

Man and society as subjects of happiness

Abstract. The article reflects the ideas about happiness formed during the historical development of mankind, different views on the ways of achieving it. A socio-philosophical analysis of the views of the Enlighteners is given and that their ideas about the harmony of the happiness of the individual and society are a specific solution to the problem of happiness in the modern world.

Keywords: man, happiness, phenomenon, society, family, spirituality, reason.

Inson ma'lum bir ijtimoiy, etnik, tarixiy madaniy paradigmalar shakllangan muhitda tug'iladi, o'sadi, shaxs sifatida shakllanadi, hayotiy maqsadlariga erishadi. Antropologik tadqiqotlar ko'rsatadiki, inson ijtimoiy muhitdan qanchalik qochishga, uning talablarini inkor etishga intilmasin qandaydir ijtimoiy jihatlari, xislatlari bilan jamiyat mahsuli ekanini yashira olmaydi. Masalan, uzoq chekkada, bir o'zi yashashni istagan kishi ijtimoiy hayotdan orttirgan tajribalariga muvofiq kun ko'rishi, tirik qolishi mumkin. Shaxsiy hayotida shunday tajriba o'tkazgan, yakka, "o'zing bilan o'zing suhbatlashishdan huzurli narsa yo'q" deb uqtirgan amerikalik faylasuf G. Toro ham "avval biz jamiyatda yashaydigan insonlar, keyin esa davlat fuqarolari bo'lishimiz kerak", deb yozadi. Mazkur dialektik bog'liqlik, jamiyat bilan shaxs o'rtasidagi aloqalar insonning xarakteriga, hayotiy maqsadlari va baxt haqidagi tasavvurlariga ta'sir etmay qolmaydi.

O'z davrda ideal, fozil va baxt-saodatli insonlar yashaydigan jamiyat haqidagi g'oyalarni ilgari surgan Abu Nasr Farobiy, jamiyat va shaxs o'rtasidagi bog'liqlik haqida quyidagilarni yozadi: "Fozillar shahri odamlaridan ba'zilar hamma uchun mushtarak umumiy bo'lgan bilimlarni o'rganib ish yuritadilar, ba'zilar esa faqat muayyan mavqedagi odamlar bilishi zarur bo'lgan bilimlarni o'rganish va ish yuritish bilan shug'ullanadilar. Bu odamlarning har biri, shunday umumiy va xususiy bilimlar va faoliyatlar orqali saodatga erishadilar" [3]. Demak, baxt-saodatga erishuv ikki jamiyat va shaxs amallarining mavjulgini taqozo etadi. Ammo shaxs amallarining o'zi emas, ularning tinmay takomili muhim. Bu takomil jamiyat ehtiyojlariga muvofiqlikdadir. Faoliyatning ijtimoiy deterministik xususiyati inson hatti - harakatlarining jamiyat talablariga, ehtiyojlariga muvofiqligida aks etadi. Bundan insonning baxt-saodatga intilishi ham istisno emas. Bizning fikrimizcha, ushbu intilishlarni quyidagi yo'nalishlarga ajratib tadqiq etish mumkin:

1. Borliqni bilishdan zavq olish, gnoseologik izlanishlarga berilishni hayotiy maqsadga aylantirish.

2. Ijtimoiy borliqni takomillashtirishdan o'ziga evdemonik ma'no topish.

3. Transendentdan, irratsionaldan "oliy baxt" izlash.

4. Insonlarni sevib, sevilib yashashni saodat bilish va odat qilish.

5. Hayotiy ideal izlash va unga ergashishdan hayotiy mazmun topish, umr mohiyatiga yetish.

6. Sotsial munosabatlar, avvalo, oilaviy hayotdan baxtiyorlik izlash.

7. Iztiroblardan, baxtsizlikdan baxt-saodat qidirish.

Olamni, hayot sirlarini bilish, aqlu tafakkuri bilan yangi ilmiy kashfiyotlar qilishga intilish yolg'iz insonga xos xislatdir. "Injil"da qayd etilishicha, Odam Ota va Momo Hovo ta'qiqlangan daraxt mevasini totib ko'rib, bilishga bo'lgan ehtiyojini namoyish etib, gnoseologik qiziqishlari jannatda yashashdan ustun ekanini tasdiqlaganlar. Islomda esa "Iymon yalang'ochdir, uning libosi taqvo, ziynati hayo, mevasi esa ilmdir", "Olim Allohning er yuzidagi ishonchli kishisidir" deyiladi [6]. Muhammad payg'ambarga Qur'oni Karimning o'qi, o'qi, o'qi tarzida nozil etilishi, ma'lum qilinishi insondagi bilishga bo'lgan qiziqishni ifoda etadi. Xullas, gnoseologik qiziqish insonning shunday tabiatiga aylanganiki, u butun fikri zikri, borlig'i bilan yon atrofidan, hayotdan mohiyat izlab o'zini baxtiyor sezadi. Imom G'azzoliy yozganidek: "Ilm tanholikda hamroh, xilvatda do'st, to'g'ri yo'l ko'rsatuvchi dalil, xursandligu xafalik paytida ko'makchi, do'stlar oldida vazir, begonalar oldida yaqin do'st va jannat yo'lining minorasidir... Zero ilm ko'r qalb ko'zini ochuvchi, qorong'u zulmatda nur bag'ishlovchi va zaif badanlarga kuch-quvvatdir. Ilm bilan bandalar arboblar darajasiga ko'tariladi, oliy martabalariga yetishadi... Ilm bilan qarindoshlik aloqalari bog'lanadi, harom bilan halol ajratiladi. Ilm peshvo imomdir, amal unga ergashadi. Ilmdan bahramand insonlar baxtli, mahrumlar esa, baxtsizdir" [6].

Nima uchun ilm baxt manbai? - degan ratsional savol uyg'onishi mumkin. Ma'lumki, Islom dini va Muhammad payg'ambar aqoidi qaror topmasdan oldin Arabistonda johiliya davri bo'lgan. Mazkur davrda nafaqat ko'pxudolik, shuningdek, ko'pgina ibtidoiy urf odatlar mavjud edi. Masalan, o'z tuqqanlariga uylanish, qizlarni tiriklay ko'mish, tirik jonlarni, kishilarni qurbonlik keltirish kabi

yovvoyi odatlar shular jumlasidandir. Shuning uchun ham Islomda u bosqich johillik (johiliya) davri deb ataladi, chunki unda oddiygina insoniy bilimlar ham yetishmasdi. Islomning ilmga e'tibor berishi bejiz emas, u arablarni johillikdan, yovvoyi odatlardan xalos qilishga yetaklaydi. Buni u ilm, islomiy ma'rifat, deb atadi.

Ilm-fan, hozirgi talqinda, insonni jamiyat manfaatlariga xizmat qilayotganini ko'rsatuvchi voqelikka aylangan. Ilm-fan o'z mohiyati va xususiyatiga ko'ra, ijtimoiy hodisadir. U bilan shug'ullangan inson jamiyat bilan munosabatlarga kirishadi, u duch kelayotgan muammolarni aqlu-idroki yordamida hal qilishga intiladi. Bugungi zamon "ilm -ilm uchun" degan tor, subyektivistik yondashuvni rad etadi, ilmiy kashfiyotlar ijtimoiy taraqqiyotni ta'minlashga, jamiyatni yanada insoniy va go'zal qilishga yordam berishi darkor. F.Jolio Kyuri yozganidek: "Olimlar, noyyetuk sotsial tuzum va ilm-fan natijalarini egoistik va yomon niyatlarda foydalanuvchilarni hamrohi bo'lmasligi kerak" [7]. Demak, ilm, ilmiy izlanishlar olib boruvchi inson jamiyatga foyda keltiradigan, uni takomillashtirishga xizmat qiladigan shaxsdir. Uning bu boradagi baxti, omad bir tomondan, ilm-fan ravnaqiga, ikkinchi tomondan, jamiyat taraqqiyotiga xizmat qilganida ko'zga tashlanadi.

Gnoseologik izlanishlar, umuman, ijod sohasi insonning o'ziga, tadqiqotchiga ma'naviy ruhiy qoniqish, xursandlik, omad keltirgani o'ta muhim hisoblanadi [8]. Ushbu ichki psixologik omil ilmni maftunkor, u bilan shug'ullanuvchi insonni shod, baxtiyor qiladi.

Shuningdek, insonlarni sevib va sevilib yashash ham hayotni chin insoniy va zavqli, huzurbaxsh qiladi. Insonlarni sevish, e'zozlash orqali hayotni sevish, e'zozlash mumkin. Ammo sevilish mudom antropologik va psixologik muammo bo'lib kelgan. Shuning uchun V.Alimasov yozadi: "Sevganlar ko'p, sevilganlar oz. Sevganlar ham, sevilganlar ham ayol hukmida" [2]. Boshqa bir joyda u insonlarni sevish va sevilib yashash murakkab voqeliklar ekaniga ishora qilib yozadi: "Kelishing ham ixtiyoringda emas, ketishing ham. Sevish ham ixtiyoringda emas, sevilishing ham. Nima ixtiyoringda? Kelish bilan ketish, sevish bilan sevilish orasida azoblanib yashash" [2]. Demak, sevish va sevilish baxt bo'lsa, ularga yetish azoblanish orqaligina mumkindir. Azoblanmay sevish mumkinmi? Azoblanmay sevilishchi? Ularning evdemonologik ahamiyatini kim o'lchaydi, kim biladi? Odam Ota va Momo Hovo davridan beri sevish va sevilish haqida fikr yuritishadi, ammo ularning retseptlari topilmadi. Hayratli hol shundaki, antik davrda, hatto, Gegel fikriga ko'ra, o'rta asrlargacha haqiqiy sevgi bo'lmagan, balki vajdiy ehtiros, instinktini qondirishga intilish bo'lgan [9]. Bu fikrning noto'g'riligini tarix, xalq og'zaki ijodi, miflar tasdiqlaydi. Insonlarning bir-birlariga intilib, bir-birlarini sevib yashashga qachon o'rganganlarini aniqlash qiyin, biroq bu ularning birga yashashiga xalaqit qilmagan. Agar shunday oliyjanob tuyg'u bo'lmaganida "kishilar hamon g'orlarda yashashardi". Aynan sevgi, keng ma'noda hayotga muhabbat, kishilarni bir birlarini e'zozlab, bir-birlari bilan ahil, ittifoq bo'lib, bir-birlarini tabiiy ofatlardan, tashqi hujumlar va xavf xatarlardan asrab, himoya qilib yashashga o'rgatgan. Sevgi altruizm, fidoyilik, hayot mohiyatini anglash negizi. Shunday tuyg'u tufayli madaniyat, sivilizatsiya barpo bo'lgan.

Hayotiy ideal izlash va unga ergashishdan mohiyat, mazmun topish insonni baxtli yashashga eltishi mumkin. Baxt fenomenining ideal bilan bog'liq ayrim qirralarini S.Agzamxodjaeva o'rgangan. U yozadi: "Baxt", "baxtiyor hayot qurish" barcha kishilarga, barcha jamiyatlarga xos idealdir. G'arb falsafasida baxtiyor hayot qurish, kishilarni baxtli qilish g'oyasi ijtimoiy ideal sifatida Aristoteldan beri muhokama qilinadi" [1]. "Baxt va baxtiyor hayot" axloqan yetuk inson bilan bog'langan. Kishining baxtiyor yashashi uning mol mulki, lavozimi bilan emas, ezgu amallari, ezgu niyatlari tufaylidir. Axloqan yetuklik ham ezgulik konsepsiyasidan kelib chiqib talqin qilinadi. "Ezgu amalli shunday bir kishini tanlash zarurki, deb yozadi Seneka, u mudom ko'z oldingda tursin va shunday yashaginki, go'yoki ushbu ideal senga tikilib, sening harakatlaringni kuzatayotgandek bo'lsin... Boshqaning fikrlarida yashab, uni to'g'ri yashashga o'rgatgan baxtiyordir! Ammo boshqani ideal bilib o'zi komillikka intiladigan yanada baxtiyordir! Bizga axloqimizni tuzatadigan kimdir namuna bo'lishi darkor, chunki egri chiziqni faqat chizgich bilan to'g'rilash mumkin" [1].

Hayotiy ideal o'ziga xos, kishi hayot yo'lini ko'rsatib turadigan mayoqdir. Turmush mashaqqatlari kishi xayolini, maqsadlari va niyatlarini o'zgartirib yuborishi mumkin. Tez o'zgaruvchan dunyo uchun hech nima muqaddas, muqim emas, u eng qadrli hisoblangan an'analarni ham o'z ketidan chopishga majbur etadi. Hayotdan orqada qolmaslik uchun kishi hayotiy maqsad va umidlarini o'zgartirishga majbur. Shunday ekan, idealni barqaror qadriyat sifatida qabul qilish hayotdan orqada qolishga olib kelmaydimi? Maxsus tadqiqotlar ko'rsatadiki, idealga kishilar yuqori talab qo'yishadi. U avvalo, yuksak axloqiy sifatlarga ega bo'lishi lozim. Savol-javoblarda qatnashgan

respondentlarning 76 foizi namuna bo'ladigan qahramon, ideal o'zining yuksak axloqiy fazilatlarini bilan boshqalarga ibrat namunasi bo'lishi mumkin, 71 foizi shunday shaxs ideal bizga hayotiy idealimizni topishga, 70 foizi aniq ijtimoiy ehtiyojlarni himoya qilishga, 69 foizi yovuzlikni, zo'ravonlikni bartaraf etishga, 68 foizi qonuniylikni, adolatni o'rnatishga, 52 foizi xavf xatarni, ofatlarni quvishga, 43 foizi jamoa bo'lib yashashga va uning manfaatlariga xizmat qilishga, 31 foizi murosada yashashga, 30 foizi milliy an'analarni, etnomadaniyatni asrashga, 29 foizi xalqlar o'rtasidagi do'stlik aloqalarini mustahkamlashga o'rgatadi, deb ko'rsatadi[10]. Ammo ushbu respondentlarning deyarli 40 foizi o'zini ideal, namuna bo'ladigan shaxs, deb bilmaydi, 59 foizi esa yon atrofida shunday kishilar uchramasligini ko'rsatadilar[10]. Demak, hayotiy ideal topish oson emas, shu bois ko'pchilik uni o'tmishdan qidiradi. O'tmishni, tarixiy shaxslarni ideallashtirish esa insonga xos xislatdir. Aslida kishiga yon atrofida real ibrat, namuna jonli ta'sir etadi, unga baxtli yashash sirlarini o'rgatadi. Shuning uchun kishilardagi, ayniqsa, yoshlardagi hayotiy ideal izlash tajribasini tadqiq etish, bu borada hayot dinamikasiga muvofiq keladigan an'analarni shakllantirish darkor. Hayotiy ideal tanlash, izlash tasodifiy hodisa bo'lmasligi, u ijobiy hayotiy tajribalarni o'zida mujassamlashtirgan, yuksak axloqiy normalarni o'zida ifoda etadigan namuna bo'lishi kerak. Ideal, namuna baxtli hayot kechirmagan, g'am iztiroblar, quvg'in va ta'qiblar ostida umr kechirgan bo'lishi mumkin (Ibn Sino, Mansur Xalloy, Mashrab, Abdulla Qodiriyning ayanchli qismati misol), ammo uning oliyanob, gumanistik merosi havas uyg'otadi, kishiga nimalarga intilib yashashni o'rgatadi.

Sotsial munosabatlarda, avvalo, oiladan baxt izlash kishidagi eng barqaror tuyg'u, istakdir. Oila tasodifiy kishilar uyushmasi emas, unga duch kelgan talablar, ko'rsatmalar, da'vatlar to'g'ri kelavermaydi. Qur'oni Karimda aytilishicha, Alloh kishilarning sokinlik topishi, oralarida mehru muhabbatning marhamat bo'lishi uchun oilani kashf etgan [5]. "Nahl" surasida deyiladi: "Alloh sizlarga o'zlarizdan juftlar qildi va sizlarga juftlarizdan bolalar va nabiralari qildi hamda sizlarni pok narsalardan rizqlantirdi" [5]. Agar mazkur ta'kidlardan kelib chiqsak, oila insonga sokin turmush ato etadi, mehru muhabbat bilan yashashga o'rgatadi, juft tanlashni, farzandlar va nabiralari ko'rib baxt-saodat nimaligini totib yashashga o'rgatadi. "Oila har bir jamiyatning boshlang'ich hujayrasi hisoblanadi. Oila mustahkam, tinch, halol va pok bo'lsa, jamiyat ham osoyishta, mustahkam, farovon bo'ladi. Aksincha, oilalarda parokandalik, buzg'unchilik bo'lsa, halol haromning farqi qolmasa, o'sha jamiyat buziladi, tinchlik yo'qoladi, oxir oqibat u chuqur tanazzulga yuz tutadi" [4].

Sotsial munosabatlar inson va jamiyat, davlat, nodavlat institutlari o'rtasidagi rang barang aloqalardan iborat. Kishining ushbu munosabatlarda baxtli yashashi yoki o'zini baxtiyor, omadli subyekt sifatida namoyon qilishi turli-tuman omillarga bog'liq. Eng muhimi, inson shu muhit uchun zarurligini, uning faoliyati nimanidir o'zgartirishini, takomillashtirishini his qilishi darkor. Ob'ektiv borliq, muhit mudom ham shaxsning ijtimoiy faolligi uchun zarur sharoitlar yaratavermaydi. Sotsial munosabatlarning shaxs xohishlaridan keng rejalar borki, goho ular o'rtasida nomuvofiqlik, ziddiyat tug'ilishi tabiiy holdir. Aslida sotsial munosabatlarga turtki beradigan tuyg'u u shaxs ehtiyojlari va qiziqishlaridir. Sotsial munosabatlar mexanistik tarzda ijobiy tomonga o'zgaravermaydi, unga ko'pincha konservatizm, turg'unlik xos. Shuning uchun shaxs, uning ijtimoiy faolligi sotsial munosabatlarni takomillashtirib, olg'a siljitib turadi. An'anaviy jamiyatlarda bu shaxs bilan ijtimoiy borliq o'rtasida ziddiyatlar keltirib chiqarishi mumkin. Odatda aynan shunday ziddiyatlar kishini o'z idealiga, hayotiy maqsadiga ergashib baxt topishiga sabab bo'ladi. Shu o'rinda sotsiumning baxt saodat subyekti ekani ham ko'zga tashlanadi. Ammo bu ziddiyatlar ta'siridan tug'ilgan tuyg'udir.

Sotsial munosabatlar, jamiyatning baxt fenomeniga ijobiy voqelik sifatida ta'sir ko'rsatishi kerak. Buni quyidagicha talqin qilish mumkin. Birinchidan, jamiyat baxt ulashmaydi, ammo u kishilarga baxtli yashashi uchun zarur imkoniyatlar yaratib beradi. Bunday imkoniyatlarsiz shaxs o'zining inson sifatida nimalarga qodirligini anglamaydi, bilmaydi. Ikkinchidan, jamiyat shaxsni ongli, tafakkurli, ijodkor subyekt sifatida shakllanishini kafolatlaydi. Aynan yaratuvchanlik quvvatiga ega ekanini anglagan shaxs o'zini baxtiyor sezadi, jamiyat bergan saboqlar va qulayliklardan to'la foydalanishga intiladi. Uchinchidan, inson ijtimoiy mavjudot (Aristotel), uning bu fazilatini jamiyatdagi munosabatlar, rang-barang aloqalar, hayot tarzi va nihoyat, kundalik amaliyot shakllantiradi. Ijtimoiy borliq deb ataluvchi ushbu omil insonning butun borlig'iga, tasavvurlari va ongiga singganki, inson faqat ular ta'sirida yoki ularning baholashida o'zini baxtiyormi yoki badbaxt ekanini biladi. Baxt fenomeni uchun tashqi ta'sir, jamiyatdagi qadriyatlarining, ya'ni makromuhitning baholari muhim. To'rtinchidan, sotsial munosabatlar oila, yaqin kishilar davrasi, mehnat jamoasi, qo'shnilar, qarindosh urug'lar, mahalla, xullas, insonning har kuni qiladigan aloqalarini

shakllantiradigan mikromuhitlar baxt haqidagi tasavvurlarga bevosita ta'sir etuvchi ob'ektlar hisoblanadi. Ularning ta'sirini o'z paytida A.Shopengauer qayd etgan. Beshinchidan, sotsium jamiyat ta'siri qanchalik kuchli bo'lmasin, baxt shaxsiy, individual xususiyatga, qadrga ega fenomendir. Bu borada V.Alimasov yozadi: "Fikr qilib shunga yetdimki, baxtdan ham o'ta shaxsiy narsa yo'q, sizga baxt bo'lib ko'ringan narsa men uchun o'tkinchi, menga baxt ko'ringan narsaning esa boshqa uchun qadri keraksiz xascha. Kingadir yiqqani baxt, kingadir sochgani, kingadir suydirgani baxt, kingadir kuydirgani, kimdir "baxtim elimda" deydi, kimdir "belimda". Hamma bir xil baxtli bo'lishni istaydi, ammo har kim o'zicha baxtli"[2]. Shunday personalistik yondashuv boshqa tadqiqotchilarda ham kuzatiladi. Ammo "Hech qachon va hech qayerda Erk, Adolat va Baxt kurashsiz qo'lga kiritilmagan" [2].

Demak, shaxs baxtni yakka o'zi tasavvur etsada, unga faqat o'z hayotiga taalluqli fenomen sifatida qarasada, bu uning mutlaq o'ziga tegishli, mutlaq o'z xohishidan kelib chiquvchi, mutlaq o'zigina hal etishi mumkin hodisa ekanini bildirmaydi. Jamiyat nafaqat o'rnatgan munosabatlari, shuningdek, e'zozlaydigan, amal qiladigan va qo'llab-quvvatlaydigan qadriyatlar orqali ham insonning baxtli yoki baxtsiz yashashiga ta'sir etadi. Aynan shuning uchun ham jamiyat, shaxs bilan yonma-yon, bab - barobar baxt fenomeni, subyektidir.

Adabiyotlar

1. Agzamxodjaeva S. Ijtimoiy ideal va ma'naviy hayot. - Toshkent: Falsafa va huquq inst. nashr., 2007. –B.31;32.
2. Alimasov V. Falsafa yoxud fikrlash lazzati. - Toshkent: Ma'naviyat, 2001. - B.19; 28; 3; 6.
3. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. -Toshkent: Abdulla Qodiriy nomidagi Xalq merosi nashr., 1993. – B. 163.
4. Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Baxtiyor oila. - Toshkent: Sharq, 2012. – B. 4.
5. Qur'oni Karim. A.Mansur tarjimasi. - Toshkent: Cho'lpon, 1992. - B. 368; 238.
6. Imom Abu Homid G'azzoliy. Birinchi kitob. - Toshkent: Movarounnahr, 2003. – B. 20-21; 33.
7. Афоризмы.Сост. Т.Г.Ничипорович. - Минск: Совр. лит., 1999. - С.47.
8. Селье Г. От мечты к открытию. Как статья ученым. - Москва: Прогресс, 1987. -С.21.
9. Философия любви. Т.1. - Москва: Изд. полит. лит-ры, 1990.- С.11-12.
- 10.Замилова Р.Р. Герои и героическое: этико философский анализ. - Тошкент: НОШИР, 2013. -С.64; 94; 95.

UDK: 316

**JAMOATCHILIK FIKRINI O'RGANISH – JAMIYAT BARQARORLIGI VA
INSON MANFAATLARINI TA'MINLASHNING ZARURIY SHARTI****A. Saitqosimov***Jizzax davlat pedagogika instituti*

Annotatsiya. Ushbu maqolada fuqarolik jamiyati barqarorligi, qonun ustivorligi, aholi farovonligi va inson manfaatlarini ta'minlashda muhim jarayonlardan biri jamoatchilik fikrini o'rganishning ahamiyati ilmiy tahlil etilgan. Shuningdek, jamoatchilik fikrining insonlarni jamiyat hayotidagi turli jarayonlar va muammolarga munosabatini yuzaga chiqarishdagi, ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatga real baho berishdagi o'rni o'rganilgan.

Kalit so'zlar: fuqarolik jamiyati, inson manfaatlari, jamoatchilik fikri, jamiyat barqarorligi, ijtimoiy jarayonlar, demokratik taraqqiyot, ijtimoiy ong.

**Изучение общественного мнения – необходимое условие обеспечения интересов
человека и стабильности в обществе**

Аннотация. В данной статье рассматривается роль общественного мнения в процессе обеспечения стабильности общества, верховенства закона и интересов человека. Исследуется значимость общественного мнения как форма общественного сознания, выражающая отношение людей к актуальным проблемам бытия, его место при получении реальной оценки общественно-экономического положения в обществе.

Ключевые слова: гражданское общество, интересы человека, общественное мнение, стабильность общества, социальные процессы, демократический прогресс, общественное сознание.

**The study of public opinion as a necessary condition for ensuring human interests and
stability in society**

Annotation. This article studies the role of public opinion in the process of ensuring the stability of society, the rule of law and human interests. It also covers importance of public opinion as a form of public consciousness, expressing the attitude of people to the actual problems of life, its place in obtaining a real assessment of the socio-economic situation of society.

Keywords: civil society, human interests, public opinion, stability, society, social processes, democratic progress, public consciousness.

Davlat bilan fuqarolik jamiyati bahamjihat faoliyatining, uning siyosiy tizimi barqarorligini ta'minlovchi muhim jarayonlardan biri jamoatchilik fikrini o'rganishdir. Davlat hamisha jamoatchilik fikri bilan boxabar bo'lib turishga intiladi. Bu esa, jamoatchilik fikrini tartibga solish va uni o'rganishning strategik tizimlarini ishlab chiqishni, jamiyatda siyosiy, falsafiy, psixologik, sosiologik tadqiqotlarni kuchaytirishni talab qiladi. Bu sohada jamiyatimizda amaliy qadamlar qo'yildi, lekin to'laqonli maqsadlarga erishish uchun uning tashkiliy va metodologik tizimlari to'laqonli ishlab chiqilishiga ehtiyoj mavjud.

Shuning uchun bu borada taklif etiladigan maqsadlar tizimi jamiyat taraqqiyotining real sharoitlariga moslashtirilgan, jamoatchilik fikrini aniqlashdek muhim siyosiy ahamiyatga ega bo'lgan ish bilan shug'ullanuvchilarning asosiy faoliyat yo'nalishlarini belgilashi lozim. Chunonchi, siyosiy tizimning tashqi sharoiti va ichki holatining o'zgarishlariga aniq munosabatlarni aniqlash jarayonlari chinakam barqaror, o'zini rivojlantirishga layoqatli tizimni ta'minlaydi va uning moslashuv qobiliyatini oshirishning qat'iy usuli hisoblanadi.

Falsafa qomusiy lug'atda jamoatchilik fikri talqini quyidagicha izohlanadi: "Ommaning, aholi ko'pchilik qatlamining voqyea-hodisalarga, ijtimoiy jarayonlarga nisbatan munosabatini ifodalovchi fikrlari, g'oya, qarash va tasavvurlari. Jamoatchilik fikri ijtimoiy hayet ta'sirida stixiyali shakllanib borishi yoki siyosiy tashkilotlar va mafkuraviy muas-sasalarning omma ongiga ta'sir ko'rsatishi natijasida maqsadga muvofiq, o'zgarib borishi mumkin. U ijtimoiy ongning o'ziga xos umumlashgan ifo-dasi sifatida, alohida fikrlarning o'zaro almashinuvi, boyishi va uyg'unlashib borishi natijasida yuzaga keladi". [1]

Jamoatchilik fikri kishilarning u yoki bu hodisaga nisbatan bildirgan e'tiroziy yoxud e'tirofiy munosabatlari, taklif va istaklari yig'indisidir. Jamoatchilik fikri moxiyatini umumiy tarzda va to'g'ri baholashda amerikalik sosiolog Uolter Lipman nuqtai nazari e'tiborga loyikdir. "Jamoatchilik fikri, deb ta'kidlaydi u, kishilarning umumiy, jamoaviy manfaatlari ifodasidir". [2]

Jamoatchilik fikrini o'rganish ehtiyoji bir tomondan, davlat va jamiyat tuzilmalarining demokratiya tamoyillariga nechog'li asoslanishiga, ikkinchi tomondan esa mavjud empirik manbalarni ilmiy analitik mushohadalash, nazariy qayta ishlash, sintezlash holatlariga bevosita bog'liq, holda shakllanadi. Ana shu ikki jihatlardan biror biri bo'lmasa jamoatchilik fikrini o'rganish ham uni demokratik uslublarda shakllantirish ham samarali kechmaydi.

Shuning uchun "Ijtimoiy fikrning demokratik taraqqiyot va davlat boshkaruvi tizimiga ta'sirini oshirish - turli nodavlat tashkilotlar, siyosiy partiyalar, harakatlarni jonlantirish hamda xaqiqiy siyosiy plyuralizm, fikrlar, dalillar plyuralizmini shakllantirish bilan bog'liq jarayondir. Bu borada siyosiy guruhlar, partiyalar o'z izdoshlarining ijtimoiy taraqqiyotga oid fikr, taklif va talablarini umumlashtirib maydonga chiqishadi. Jamiyatda ijobiy va siyosiy raqobat muhitining qaror topishi taraqqiyotning turli yo'nalishlarida zng afzal uslub va vositalarni ishlab chiqishga qulaylik yaratadi". [3]

Jamoatchilik fikri ijtimoiy ongdan ham davlat yoxud tuzumning direktiv qarashlaridan ham, yoki alohida shaxs fikr-qarashlaridan ham farq qiladi. Jamoatchilik fikri ijtimoiy ongning hosilasi, jamiyat turli tabaqalarining fikr-qarashlari, munosabatlarining real va umumlashma ifodasidir. Mamlakatda amalga oshirilayotgan barcha islohotlar, maqsadli ijtimoiy o'zgarishlar, yangilanishlar jarayoni jamoatchilik fikrida namoyon bo'ladi.

Olimlarning fikricha, "Hozirgi islohotlar davrida jamoatchilik fikri ahamiyatining oshib borishi kishilarning islohotlar yanada kuproq adolatga erishishga yordam berishiga ishonishlari bilan bog'liq. Aslida, siyosiy hokimiyatni amalga oshirish mexanizmida jamoatchilik fikri mavjud siyosiy institutlarga ta'sir ko'rsatish omili sifatida o'rin egallaydi. Gap undan oqilona foydalana olishda. Shundagina jamoatchilikning hokimiyat mexanizmiga kirib borishi, qarorlar qabul qilish va ularni amalga oshirishdash ishtiroki to'g'risida so'z yuritish mumkin. Qolaversa, vaziyatni xolis baholash, islohotlarga keng ommani jalb qilish ham jamoatchilikning fikrisiz yuz bermaydi." [4]

O'zbekistonda ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash fuqarolarda milliy mafkurani shakllantirish jarayonida ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, milliy, madaniy sohalaridagi islohotlar yuzasidan ijtimoiy fikrdagi o'zgarish va unga ta'sir qiluvchi omillarni izchil o'rganib borishni talab qiladi. Ijtimoiy fikr yuzasidan amalga oshirilgan ilmiy ishlar tahlili barqarorlikni ta'minlashda, fuqarolik jamiyatini shakllantirishda, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishda, ma'naviy-madaniy yuksalishda, kishilar ongiga milliy mafkurani singdirishdagi roli haqida turli qarashlar shakllanganligini ko'rsatadi.

Shuningdek. siyosiy psixolog A.I. Pirogovning fikricha, "Ijtimoiy fikr xalqni jipslashtirishi, vatanparvarlik ruhida tarbiyalashi, davlat va jamiyat o'rtasidagi aloqalarning uzilib ketmasligini ta'minlashi, siyosiy-iqtisodiy tashabbuslarni qo'llab quvvatlashi kerak. U davlat va jamiyat boshqaruvining subyektlari tomonidan siyosiy qarorlar qabul qilishda bevosita rol o'ynaydi". [5]

Ijtimoiy fikr jamiyatda siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, ekologik va texnologik muammolarga kishilar fikr va munosabatlari bo'lib, jamiyatda turli qarorlar qabul qilinishida asos bo'ladi. Ijtimoiy fikr muayyan jamiyatda yashovchi fuqarolarining fikrlari, yondoshuvlari, qarashlari, e'tiqodi yig'indisi, ommaviy ongning holati, ijtimoiy voqyelikning iqtisod, siyosat, o'z o'zini anglash, madaniyat sohalaridagi fakt, voqyehodisalariga bo'lgan munosabatlari shakli sifatida talqin qilish mumkin.

Bugungi ijtimoiy-siyosiy jarayonlarga real baho berishda empirik sosiologik tadqiqot natijalari o'ziga xos o'rin tutadi. Xususan, jamiyat hayotidagi jarayonlarga, ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatga real baho berishda sosiologik so'rov natijalariga tayanish muhim ahamiyat kasb etadi. Empirik sosiologik tadqiqotlar natijalari voqyelikni o'zida aks ettirib, hayotiy jarayonlarni baholash va prognozlashtirish uchun zaruriy ahamiyatga ega. Zero, empirik sosiologik tadqiqotlar asosida jamoatchilik fikri yotadi. O'z navbatida «...jamoatchilik fikri-fuqarolik jamiyatining holatini o'zida aniq aks ettiradigan bamisoli bir ko'zgu». [6]

Jamoatchilik fikri:

1. Xalqimiz ijtimoiy-madaniy taraqqiyoti jarayonlarida muhim ahamiyat kasb etadi.

2. Mohiyat e'tiboriga va pirovard maqsadlariga ko'ra jamiyat a'zolarini shaxsiy va jamoaviy takomilga, o'zaro ahillik, mehr-muhabbatga asoslanuvchi yakdillikka olib borish omili vazifasini o'taydi.

3. Jamiyatning taraqqiyot mezonini va maromiy amal qilish muvozanati hamda barqarorlikning asosiy omili vazifasini o'taydi.

4. *Jamiyatda qonun ustivorligini yanada mustahkamlash, jamiyatda huquq va tartibotni mustahkamlash zarurligini omma ongiga singdirishda muhim vazifani o'taydi.*

U shuningdek, jamiyatda axloqiy, siyosiy va huquqiy madaniyatni tarkib toptirishda, shuningdek, mustaqillikniig ma'naviy asoslarini mustahkamlashga alohida ahamiyatga ega bo'lib, konkret sosiologik tahlillar vositasida ochib beriladi, shaxs ma'naviyatining takomili turli xil jamoalar, uyushmalar, shuningdek mahallalar faoliyatlari misolida ham o'rganiladi.

Adabiyotlarda ta'kidlanishicha, "Bu jarayon o'z navbatida jamoatchilik fikrini hokimiyat tuzilmalari ustidan jamoatchilik nazoratini o'rnatishning muhim vositasiga aylantiradi. Jamiyat hayotining turli sohalarida jamoatchilik fikri bilan hisoblashish, ommaviy axborot vositalarini erkinlashtirish, oshkorlik va qonunchilik muhitini barqaror qilish - bularning hammasini jamoatchilik nazoratini o'rganishga xizmat qiladi". [7] Ma'lum voqyealar haqidagi axborot va munosabatlarni tez va keng tarqalishi hamda oshkor qilinishida ommaviy axborot vositalari (OAV)ning o'rni beqiyosdir. OAVning to'rtinchi hokimiyat darajasiga ko'tarilishi ham ular tarqatadigan xabar va yangiliklarning jamoatchilik fikrini shakllantirish va o'zgartirishga ta'siri bilan belgilanadi.

Hozirgi davr ijtimoiy taraqqiyot tendensiyasi jamoatchilik fikrini qudratli kuch sifatida maydonga chiqqanligi bilan izohlanishi bejiz emas. «Bundan bir necha o'n yillar burun– deb yozadi taniqli amerikalik olim, jamoatchilik nazorati nazariyasi bo'yicha qator fundamental tadqiqotlar muallifi V.Lippman, – jamoatchilik fikrining siyosiy va ijtimoiy hayotga nisbatan ko'rsatajok ta'siri bu qadar sezilarli emas edi. Bugungi kunga kelib esa jamoatchilik fikri ijtimoiy o'zgarishlarning harakatlantiruvchi omillaridan biri sifatida amal qilmoqda». [8]

Shuning uchun ham, taraqqiyotning o'zbek modelini, bu yo'ldagi amaliy islohotlarni qo'llab - quvvatlash hamda unda faol eshtirok etish borasidagi munosabatlarni ifodalovchi, jamiyat a'zolarining barcha tabaqa va qatlamlarini birlashtiruvchi jamoatchilik fikrini shakllantirish va muttasil saqlab qolish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Keng xalq ommasining ijobiy munosabatini maqsadga muvofiq shakllantirish, doimiy o'rganish va hisobga olish taraqqiyotni ta'minlashda to'g'ri yo'ldan adashmaslik va oqilona qadam qo'yishga tobora kuchli omilga aylanib bormoqda. "Shu jihatdan ham bugungi kunda ijtimoiy fikrga tayanish jamiyatda mavjud real jarayonlarga to'g'ri baho berishda muhim ahamiyat kasb etadi". [9]

Jamoatchilik fikrini shakllantirish mexanizmini yo'lga qo'yish maqsadlarida quyidagilar taklif etiladi:

1. Mamlakatimizda jamoatchilik fikrini faqat o'rganuvchi emas, balki uni shakllantirish ishlari bilan ham bevosita shug'ullanuvchi oliy malakali kadrlar tayyorlash ishlarini qo'yish, jamoatchilik fikrini shakllantiruvchi sosiolog mutaxassislar tayyorlash ishlarini yanada takomillashtirish.

2. Jamoatchilik fikrini o'rganuvchi mutaxassislar, Oliy o'quv yurtlarida faoliyat yuritayotgan professor-o'qituvchilarni rivojlangan mamlakatlarda malaka oshirishlari, xorijdagi ish tajribalarni o'zlashtirish imkoniyatlarini yanada kengaytirish lozim.

3. Ommaviy axborot vositalarida sosiologik markazlar tomonidan o'rganilgan ijtimoiy fikr natijalarini tezkor tarzda berib borish. Shuningdek, ommaviy axborot vositalarida doimiy e'lon qilib boriluvchi «Sosiolog minbari» ruknini joriy etish zarur.

4. Jamiyatda sosiologik tadqiqotlar ko'lamini kengaytirish maqsadida sosiologik tadqiqot markazlari faoliyatini tashkiliy-huquqiy ta'minlash maqsadida Respublika Sosiologiya ilmiy-amaliy markazini tuzish maqsadga muvofiqdir.

5. Viloyatlar va tumanlarda axborot va mafkuraviy xurujlarga qarshi faoliyat yurituvchi aholining fikrini doimiy o'rganib boradigan sosiologik tadqiqotlar bilan shug'ullanadigan markazlarni ko'paytirish va ularning moddiy-texnik bazasini rivojlantirish lozim.

Adabiyotlar

1. `Фалсафа қомусий луғат. Тошкент, "Шарк", 2004. –Б 124.
2. Lippman W. Public opinion. N.Y., etc, 1992. p 96.

3. Рўзиев Р. Демократия тараққиёт гарови. Т., “Фалсафа ва ҳуқуқ институти”, 2005. –Б. 62.
4. Исломбеков У. ва бошқ. Кучли давлатдан кучли жамият сари. Т., “Академия”, 2005. – Б. 49.
5. Пирогов А. "Политическая психология". Изд.: "Триеста" - Москва, 2005 г. 368 с .
6. Каримов И.А. Ўзбекистонда демократик ўзгаришларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамияти асосларини шакллантиришнинг асосий йўналишлари // Биз танлаган йўл-демократик тараққиёт ва маърифий дунё билан ҳамкорлик йўли. Т.11. - Т.: Ўзбекистон. 2003. 26 б.
7. Мажмуа. Ўзбекистон жамиятни демократлаштириш ва янгилаш, мамлакатни модернизация ва ислоҳ қилиш йўлида. -Тошкент:Академия, 2005. – Б 120.
8. Lippmann W. Public opinion. N.Y., 1992. P. 96.
9. Холбеков А. «Бошқарув социологияси» Т.Академия, 2007. – Б 69.

UDK: 316

IJTIMOIY ADOLAT VA IJTIMOIY HAMKORLIK FUQAROLIK JAMIYAT POYDEVORI

T. Matibaev

*O'zbekiston temir yo'lchilari va transport quruvchilari Respublika Kengashiga qarashli
"Sixotgox" sanatoriy profilaktoriyasi*

Annotatsiya. Ushbu maqolada demokratik fuqarolik jamiyatining poydevoriga asos bo'lgan ijtimoiy adolat va ijtimoiy hamkorlikka e'tibor qaratilgan. Shuningdek, adolat, demokratiya tushunchalarining kelib chiqishi va Sharq mutafakkirlarining bularga oid fikr-qarashlari, ilmiy xulosalari keltirilgan.

Kalit so'zlar: ijtimoiy adolat, ijtimoiy hamkorlik, fuqarolik jamiyat, demokratiya, mutafakkir, jamiyatshunos, olimlar, faylasuf, fikr, tabiiy huquq, tabiiy holat, millat, erkinlik, tenglik, kelishuv.

Социальное справедливость и социальное сотрудничество фундамент гражданского общества

Аннотация. В этой статье основное внимание уделяется социальной справедливости и социальному сотрудничеству, которые основываются на фундаменте демократического гражданского общества. В нем также описываются концепции справедливости, происхождения демократии и взгляды восточных мыслителей.

Ключевые слова: социальная справедливость, социальное партнерство, гражданское общество, демократия, мыслители, социологи, ученые, философы, идеи, естественные права, естественное состояние, национальность, свобода, равенство, гармония.

Social justice and social cooperation are the foundation of civil society

Annotation. This article focuses on social justice and social cooperation, which are based on the foundation of a democratic civil society. It also describes the concepts of justice, the origin of democracy and the views of Eastern thinkers.

Keywords: social justice, social partnership, civil society, democracy, thinkers, sociologists, scientists, philosophers, ideas, natural rights, natural state, nationality, freedom, equality, harmony.

Adolat tushunchasi insoniyatning eng qadimgi sotsial g'oyalaridan biri bo'lib, u butun insoniyat tarixi orqali o'tib kelgan. Ammo jamiyatni adolatli tashkil etish orzusi va uning hayotdagi haqqoniy mavjudligi o'rtasida doimo ziddiyat bo'lib keladi. Shunga qaramay uni “naqd qilib qo'yishga” urinish to'xtamagan. Shu nuqtai nazardan insoniyat sivilizatsiyasining butun tarixi ijtimoiy adolatni kengaytirish tarixi hamdir. Ijtimoiy fanlar doirasida ham adolat problematikasi doimo markaziy o'rinlardan birini egallab kelgan. O'tmishdagi yirik faylasuf, mutafakkir va jamiyatshunos olimlar u yoki bu tarzda adolat masalalarini tahlil etib, uning ochilmagan jihatlarini ishlab chiqqanlar. Adolat tushunchasining kelib chiqishi (sotsiogenez) to'g'risidagi ta'limotni buyuk ajdodimiz Abu Nasr Farobiy yaratishga uringan. Buyuk mutafakkir adolat adolat g'oyasini jamiyat rivojining davrlariga nisbatan qarab chiqqan. Bunda u insoniyat jamiyatining kelib chiqishida tabiiy ehtiyojlar yotishini, bu ehtiyojlarni uyg'unlashtirish esa adolat tuyg'usini shakllantirishini ta'kidlagan edi [1].

Yuz bergan ulkan ijtimoiy o'zgarishlar kishilar ongida, dunyoqarashida, siyosiy-xuquqiy fikrda, ahloqiy me'yorlarda ijtimoiy adolat g'oyasining uzil-kesil shakllanishiga olib kelgan. Bu haqida Sharqning boshqa bir mutafakkiri – Abu Ali ibn Sino qiziqarli fikrlarni bayon qilgan. Ibn Sino fikricha, o'zaro bog'liqlik va almashuv jarayonida insonlar bir-birlarini qandaydir muxtojlikdan xoli etadilar. Buning uchun insonlar o'rtasida o'zaro kelishuv zarur bo'lib, bu kelishuv tufayli adolat qoidalari va qonunlari o'rnatiladi [2]. Dastlabki kapital to'plash davrida ommaning ezilishi jamiyatni tenglik asosida tashkil etish haqidagi utopiyani ham tug'dirdi. Ammo XV asrda Niderlandiya va Angliyadagi, XV asrda Buyuk fransuz inqiloblari oqibatida ilohiy huquq o'rnini shaxs huquqi, cherkov o'rnini davlat, feodal mutlaq monarxiyalari o'rnini burjuaziya siyosiy hokimiyati egalladi. Ijtimoiy rivojlanishdagi bu o'zgarishlar yangi davr faylasuflarining siyosiy qarashlarida o'z ifodasini topdi va adolatning **“ijtimoiy kelishuv” konsepsiyasi** shakllana boshladi. Bu mutafakkirlar uchun insonning **“tabiiy huquqi” g'oyasi** xos bo'lib, uning mazmunini bora-bora **“ijtimoiy kelishuv” konsepsiyasi** to'ldira bordi. Mustaqil individlar o'z **“tabiiy huquqlari”** bilan **“tabiiy holatdagi”** jamiyatni tashkil etadilar va o'zaro ziddiyatlar oldini olish maqsadida **“tabiiy holat”**dan chiqib, o'zaro shartnoma tuzdilar – davlatni yaratadilar degan g'oya bu davrda ustuvor bo'lgan.

“Umuman, ijtimoiy adolat demokratiyaning asosi bo'lib, halqimiz birgalikda kelishib yashash deganda, avvalo, ijtimoiy adolatni idrok etadi” [3]. Metodologik jihatdan bu teran fikrdir. Zero, aynan ijtimoiy adolat va demokratiyaning o'zaro uyg'unligiga asoslangan ijtimoiy hamkorlik va barqaror taraqqiyotgina strategik maqsadlarimizga erishish uchun zamin yaratdi.

Sharq falsafasining muhim jihatlaridan biri, bu **“meyor”** tushunchasiga salmoqli e'tibor berilishidir. Aslida, ijtimoiy adolat va ijtimoiy hamkorlik – meyorga asoslangan qadriyatlar, Bu mayor muvozanatini – huquq va burch, erkinlik va zaruriyat, ijtimoiy tafovut va tenglik o'rtasidagi o'ziga xos bog'liqlikni anglatadi.

XX asr boshidagi jadidchilik harakati namoyondalari o'z davrining ilg'or mutafakkirlari bo'lib, mustaqil milliy taraqqiyot mohiyatini chuqur anglab etgan. Zaki Validiy Tug'on haqida shunday yozgan: **“Demokratiyaning birdan-bir, yagona retsepti yo'q. Uning maqsadi millatlarga va jamiyatlarga o'z ixtiyorlariga muvofiq hayot kechirish imkoniyatini berishdadir. Demokratiya turli millatda turlicha bo'lishi mumkin. Lekin uning asosiy bir sharti bor: millat va jamiyat orasidagi mas'uliyatga hamkorlashib, shunga muvofiq ravishda ish qonunlariga bo'ysunish kerak bo'ladi”**[4].

Barqaror rivojlanuvchi adolatli jamiyat yo'lida odamlarning ijtimoiy hamkorligi va demokratiyani qanday mehanizmlar mustahkam bog'lab turadi. Demokratiyaning jamiyat oldidagi mas'uliyati, barchaning qonun oldida tengligi kabi qoidalar ijtimoiy hamkorlikka tayanadimi? Bu o'rinda ijtimoiy hamkorlik jamiyatda demokratiya, adolat va mustahkam taraqqiyot uchun qay darajada kafolat bo'la oladi. Masalaning bu tarzda quyilishi uni demokratiya, ijtimoiy hamkorliklarning uch tomonlama o'zaro bog'liqligida qarab chiqishni taqozo etadi.

Barqaror rivojlanuvchi adolatli jamiyat yo'lida odamlarning ijtimoiy hamkorligi va demokratiyani qanday mehanizmlar mustahkam bog'lab turadi. Demokratiyaning jamiyat oldidagi mas'uliyatli, barchaning qonun oldidagi tengligi kabi qoidalar ijtimoiy hamkorlikka tayanadimi? Bu o'rinda ijtimoiy hamkorlik jamiyatda demokratiya, adolat va mustahkam taraqqiyot uchun qay darajada kafolat bo'la oladi. Masalaning bu tarzda qo'yilishi uni demokratiya, ijtimoiy adolat va ijtimoiy hamkorlikning uch tomonlama o'zaro bog'liqligida qarab chiqishni taqozo etadi.

Mazkur bog'liqlikning asosiy jihati insonparvarlikdir. Insonparvar jamiyatdagina demokratiya qardlanadi. Antiq davrda hokimiyatining asosiy me'yori odamlar ommasiga qarama-qarshi bo'lgan donishmand hisoblangan. Bu fikr keyinchalik nasroniylikka ko'chib o'tgan. Sharq dunyo qarashidagi adolatli shox g'oyasida ham bu an'ananing ta'sirini sezish mumkin.

Albatta, bunday holatda hokimiyat ijtimoiy tashkil etishning va shu ma'noda ijtimoiy hamkorlikning ham birdan-bir kuchi deb hisoblangan, ya'ni ijtimoiy tartibni ma'muriy jihatdan tashkil etishga ustuvor ahamiyat berilgan. Xatto, kuch ishlatish adolatni tiklashning asosiy vositasi deb tushunilgan. Ijtimoiy tartib va adolatni ta'minlashda demokratik tamoyillar va institutlar, yanada keng manoda, ijtimoiy kelishuvning rolini anglash esa insoniyat tarixida nisbatan kech shakllangan. Masalaning yana bir muhim jihati shuki, demokratiya insonning aynan ijtimoiylik jihatini, uning boshqalar bilan murosada yashay bilish qobiliyatini o'stirish bilangina o'zini o'zi ta'minlay oladi. Shu ma'noda, u ijtimoiy hamkorlik qoidalarga tayanadi.

Ma'lumki, inson – murakkab mavjudod. U boshqalar uchun zid bo'lgan mayllarga ega bo'lishi, ammo shu vaqtning o'zida o'zgaralar bilan hamkorlikka moyil holda, turli o'zgarishlar hamda

xavfsizlikka intilishi mumkin. Insonning ana shunday ziddiyatli tabiatidan ijtimoiy harakat va jarayonlar yuzaga keladi: odamlar bir tomondan shaxsiy erkinlikka intiladi, ikkinchi tomondan esa, ijtimoiy tenglikni talab qilishga moyil bo'ladi. Insonlar o'z manfaatiga sodiq qolish bilan birga, umumiy manfaatlarga ega bo'lishni ham xoxlaydi.

Demak, masala mazkur qarama-qarshi tendensiyalarni o'zaro muvofiqlashtirishdadir.

Turli jamiyatlarda bu muammoning echimiga ijtimoiy hamkorlik mehanizmlari orqaligina erishiladi. Aynan hamkorlik erkinlik va tenglikni muvozanatga keltirishga xizmat qiladi. Demokratiya "ziddiyat – kelishuv – birdamlik" orqali o'ziga yo'l ochar ekan, kishilarning o'zaro roziligi, kelishuviga tayanadi. Gap shundaki, demokratiya – bu yolg'iz o'z maqsad va talablarini amalga oshirish vositasi bo'lmay, balki o'zaro munosabatlarning maqbel qoidalariga rioya etish hamdir.

Demokratiya – barcha uchun o'rnatilgan qoidalar majmui. U kishilarning g'oyalari kurashi va kelishuvi orqali yanada to'laroq va ko'proq ijtimoiy adolatga erishish qurolidir. Demokratiya – ikka pallali tarozi bo'lib, uning bir pallasida fuqarolarning huquqlari tursa, ikkinchi tomonida burch va majburiyatlari turadi. Insonlar aynan o'z huquqlarini mustahkamlash istagida zimmlariga majburiyatlar ham oladi.

Demokratiya tarixan uzoq davrni bosib o'tgan va bosib o'tmoqda. Teng huquqlilik, hamjihatlik, ko'pchilikning hokimiyati. Uni chegaralash va nazorat qilish, bag'rikenglik, fuqarolar asosiy huquqlarining ta'minlanganligi, hokimiyatning bo'linishi, umumiy saylovlar, oshkorlik, fikrlar xilma-xilligi va raqobati – bularning barchasi demokratiyaning asosiy ko'rsatkichlaridir. Ushbu ko'rsatkichlarning har biri, bir tomondan, fuqarolarning intilishlari asosida va ikkinchi tomondan, ko'pchilikning xoxish-istagi muvozanati negizida yuzaga chiqadi.

Bu qanday namoyon bo'ladi? Ma'lumki, demokratiyada u yoki bu jihatga moyillik ustuvor bo'lib qolishi mumkin. Masalan, erkinlik va tenglik, barchaning siyosiy jarayonlardagi ishtiroki va samaradorlik, ko'pchilikning hokimiyati va ozchilikni muhofaza qilish, davlatning huquqiy asoslari va ijtimoiy yo'naltirilganligi o'rtasida farq, tafovut, ba'zan xatto nizo kelib chiqishi mumkin. Bunday vaziyatda ijtimoiy hamkorlik qoidalarini to'g'ri va oqilona yechimni topish, ya'ni ijtimoiy muvozanatni ta'minlashi mumkin.

Aslida, har qanday demokratik jamiyatda davlat va jamiyat o'rtasida o'ziga xos shartnoma, kelishuv bo'lishi kerak. Shunga muvofiq siyosiy hokimiyat chegaralanadi, fuqarolar va guruhlarining hokimiyatni suiste'mol qilishidan hamda o'zini o'zi himoyalashning rasmiylashtirilgan usullari qaror topadi.

Bunda demokratik qoidalar orqali hokimiyatni chegaralashning qonunan mustahkamlangan usullari – umumiy saylov huquqi. Konstitutsiyaviy targ'ib ta'minlanadi. Ammo rasmiy jihatlarining o'zi yetarli emas. Muhimi, rasmiy tartib-qoidalarini amalga oshirishda hamkorlik qoidalariga ham rioya etishdir. So'z va axborot erkinligi, axborot olish manbalarining ochiqqligi shular jumlasiga kiradi.

Xo'sh, demokratlashuvning o'zi nima? Slovakiyalik siyosatshunos V.Vasovich fikricha, demokratlashuv – demokratiyani shunchaki konstitutsiyaviy-siyosiy bayon qilish emas, balki demokratiyaning umume'tirof etilgan elementlarini shakllantirishdir [5].

Modomiki, fuqarolik jamiyatining uch qadriyati – demokratiya, adolat va ijtimoiy hamkorlikning o'zaro bog'liqligi haqida so'z yuritar ekanmiz, bu qadriyatlarining o'zi qanday kafolatlanadi, ularning qanday belgilovchi yo'nalishlari bor, degan savollarga javob topishi zarur bo'ladi. Fikrimizcha, buning bir qancha omillari mavjud. Jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy farovonligi qanchalik yuqori bo'lsa, uning demokratik rivojlanish yo'lidan borish imkoniyatlari shunchalik ko'p bo'ladi.

Demokratik jarayon haqida gap ketar ekan, demokratlashuv sharoitlari to'g'risidagi masalaga ham to'xtalish lozim. Har qalay, ijtimoiy falsafa, qiyosiy siyosatshunoslik, sotsiologiya fanlari doirasida o'z vaqtida demokratiya va iqtisodiy omilgagina emas, balki u, asosan, demokratik g'oyalarning ommalashganlik darajasiga ham bog'liqligi haqidagi fikrlar keng tarqaldi [6].

Shuni ishonch bilan ta'kidlash kerakki, demokratlashuvning eng muhim shartlaridan biri – jamiyatda ijtimoiy hamkorlik qoidalarining qaror topishidir. Bunga global demokratlashuvning hozirgi bosqichi ham guvohlik beradi. Shu aniqki, ayrim mamlakatlarda demokratiya garchi inqirozli muammolarni hal eta olmasada, iqtisodiy tushkunlik sharoitida ham vujudga keladi [7].

Ustiga-ustak, iqtisodiy yuksalishgagina tayanish, ko'pincha ijtimoiy-iqtisodiy tengsizlik bilan kechishi va bu, o'z navbatida, jamiyatdagi demokratik kelishuvga zarar etkazishi mumkin. Shuning uchun ijtimoiy totuvlik, hamkorlik hamda iqtisodiy o'sishning o'zaro uzviy modelini topish orqaligina

demokratik tartibning legitimligini ta'minlash mumkin. Zero, hech bir mamlakatda ijtimoiy totuvliksiz va hamkorliksiz demokratiya bo'lgan emas. Tabiiyki, bu modelning o'zi ham faqat barqaror taraqqiyot sharoitida ta'minlanishi mumkin. Aslida mutlaq adolatli sotsium, ya'ni jamiyatning o'zi yo'q va bo'lmaydi ham. Lekin, shu bilan birga hech bir kishi adolatsiz jamiyatda yashashga rozi bo'lmaydi. Faqat mutelikka va tobelikka mukkasidan ketgan insonlargina bunga rozi bo'lishlari mumkin. Agarda halol mehnat qilgan yoki jamiyat ravnaqi uchun yelib-yugurib xizmat qilgan kishilar zo'rg'a qo'l uchida hayot kechirsayu, ochiqchasiga harom-xarish yo'llar bilan boyib ketganlar hammaning ko'z oldida shohona davron sursa, bunday jamiyatning kelajagi bo'lmaydi. Chunki, odamlar adolatning kuchiga, imkoniyatlariga ishonib yashaydilar. Biz barpo etayotgan huquqiy davlatda, adolatsizliklarning hech qanday ko'rinishiga yo'l qo'ymasligi darkor. Nega deganda, "Odamlar hamma narsaga chidashi mumkin, lekin adolatsizlikka chiday olmaydi" Bu chuqur ma'noli so'zlar bugungi kunda har qachongidan ham ko'ra muhim va dolzarb ahamiyat kasb etayotganini sezish, anglash qiyin emas [8].

O'z navbatida, Prezident Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "Ayni vaqtda mamlakatimiz bosib o'tgan taraqqiyot yo'lining chuqur taxlili, bugungi kunda jaxon bozori kon'yunkturi ham keskin o'zgarib, globallashuv sharoitida raqobat tobora kuchayib borayotgani davlatimizni yanada barqaror va jadal sur'atlar bilan rivojlantirish uchun mutlaqo yangicha yondashuv hamda tamoyillarni ishlab chiqish va ro'yobga chiqarishni taqozo etmoqda" [9]. Shu nuqtai nazardan, davlatimiz rahbari tashabbusi bilan ishlab chiqilgan 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasining rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi bugun izchillik bilan amalda tatbiq etilayotganidan ko'zlangan asosiy maqsad isloxtlar samarasini yanada oshirish, davlat va jamiyatning har tomonlama va jadal rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish, mamlakatimizni modernizatsiya qilish hamda hayotning barcha sohalarini liberallashtirish bo'yicha ustuvor yo'nalishlarni amalga oshirishdir.

Adabiyotlar

1. Abu Nasr Farobiy. Fozil odamlar shahri. Qodiriy nomidagi ma'naviy meros nashriyoti. 1993 yil 18-19 betlar.
2. Abu Ali Ibn Sino. Tib qonunlari. Uch jildlik saylanma. J. 1.-T.: Qodiriy nomidagi halq merosi nashriyoti. 1994 yil.
3. Karimov I.A. El-yurtga halol, vijdonan xizmat qilish har bir rahbarning muqaddas burchi. Xalq deputatlari Andijon viloyati kengashining navbatdan tashqari sessiyasidagi nutqi// Xalq so'zi 2004 yil 26 may
4. Validiy Ahmad Zakiy Turkiston turkiylar va milliy istiqlol. Turkchadan Sh. Turdiev tarjimasini. // O'zbekiston adabiyoti va san'ati 1994 yil 7 yanvar
5. Васович В переход к демократии в посткоммунистических странах (парадоксы перехода – демократизации вестник МГУ серия 18 Социология и политология 1988 №2 – С 20-21
6. Gastil E/ The Past Present and Future of democracy // journal of International Affairs. Vol/8
7. Сморгунув Л.В Методологические проблемы сравнительного исследования третьей волны демократизации вестник МГУ серия 12 Политические науки 1997 №5 С 66
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz "O'ZBEKISTON" NMIU, 2017.: 193 b.
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning 2017 yil 7 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi farmoni // Xalq sozi 2017 yil 8 fevral

UDK: 43

**FÜR PREDLOGINING LEKSIK-SEMANTIK XUSUSIYATLARI VA ULARNING
O'ZBEK TILIDAGI TALQINI**

S.U. Tagayeva, Sh.A. Mustanova

Samarqand davlat universiteti

Annotatsiya. Ushbu ilmiy maqolada für predlogining leksik-semantik xususiyatlari ochib berilgan, shuningdek, gyrig predlogning o'zbek tilidagi talqini izohlangan.

Kalit so'zlar: predlog, so'z birikma, ekvivalent, vazifa, dinamik harakat

Лексико- семантические особенности предлога и их узбекские значения

Аннотация. В этой научной статье анализированы лексико-семантические особенности предлога **für**, а так же узбекское значение этого предлога даны с примерами.

Ключевые слова: предлог, словосочетание, эквивалент, функция, динамическое действие

Lexical-semantic peculiarities of the preposition für and its explanation in Uzbek

Abstract. This scientific article is about lexical-semantic peculiarities of the preposition **für**, and its explanation in the Uzbek language with some examples.

Key words: preposition, word combination, equivalent, function, dynamic activity

Für predlogining semantik doirasi juda keng bo'lib, u anglatadigan (ifodalaydigan) ma'nolar va tushunchalar mundarijasi xilma-xil, turli-tuman.

Ushbu old ko'makchi (predlog) kurash, biror narsa uchun faol chiqish qilish, musobaqalar, tanlov kabi harakatlarni qo'llab-quvvatlash ma'nolarini ifodalovchi so'zlar bilan qo'llaniladi. Masalan:

kämpfen – бороться за-что-либо – biror narsa uchun kurashmoq;

fechten, streiten – сражаться- jang qilmoq;

aufstehen – восставать – qarshi chiqmoq;

im Wettbewerb stehen – соревноваться – musobaqa qilmoq;

stimmen – голосовать – biror kishi yoki narsa uchun ovoz bermoq;

agitieren – агитировать – за что-либо – biror narsa uchun tashviqot qilmoq;

In grosser Einmütigkeit entscheiden sie sich für ihre Kandidaten. – Они отдали свои голоса за свои кандидаты большим единодушием. – Ular o'z nomzodlari uchun yuqori yakdillik bilan ovoz berdilar.

Maqsadni ifodalovchi munosabatlar bevosita o'rnini to'ldirish, zararni qoplash(kompensatsiya) ifodalovchi munosabatlar bilan uzviy bog'langan bo'ladi. Kundalik hayotda tijorat (kommersiya)ga oid so'zlar bilan qo'llaniladigan **für** predlogi kompensatsiya munosabatini, aloqani nozik maqsad orqali ifodalaydi, chunki xaridor tovar yoki uning o'rniga tovar ekvivalentini pul, natura, yoki xizmat shaklida olishga harakat qiladi, sotuvchi esa, xaridorga ekvivalent sifatida taqdim etadi. Bunday o'rinda boshqa nozik farqlar bilan **zu, um, auf, gegen** predloglari qo'llanilishi mumkin. Masalan:

kaufen, erhandeln – покупать -qandaydir miqdordagi pul bilan

bestellen- заказывать (на какую-л. сумму) – qandaydir miqdordagi pulga buyurtma bermoq

zahlen, bezahlen – платить за что-л. – biror narsa uchun (pul)to'lamoq;

Geld über Geld – набавлять цену на что-л. – biror narsaning ustiga baho qo'yumoq; bahosini oshirmoq;

arbeiten - работать – ishlamoq,**dienen** – служить (за какую-л.оплату) – qandaydir haq, pul uchun ishlamoq,xizmat qilmoq.

Für zehn Rubel kampfte ich mir die ganze Sammlung von Gorkiy Werken – за десять рублей я купил полное собрание сочинений (произведений) Горького – Gorkiyning to'liq asarlari to'plamini o'n so'mga sotib oldim.

Biror shaxsga yetkazilgan ma'naviy va moddiy zararni to'plashni ifodalovchi so'z birikmalari ham odatda **für** predlogi bilan qo'llaniladi.Bunday holatlarda **für** predlogi bajaradigan funksiyani (vazifani) faqat **wegen** predlogi o'tashi mumkin.Masalan; **sich entschuldigen** – *извиняться за кого-л, за что-л. – biror kishi yoki narsa uchun uzr so'ratoq; um Verzeihung bitten – *uzr, kechirim**

so'ramoq; tadeln- порицать за что-л. – *biror narsa uchun tanbeh bermoq; strafen* – штрафовать – *jarimaga tortmoq; j-n für etw. verantwortlich machen* – возлагать на кого-л. , ответственность за что-л. – *biror narsa uchun mas'uliyatni biror kishi zimmasiga yuklamoq; Mit bewegten Worten dachte Dichter für die hohe Auszeichnung (ND)* – Взволнованными словами (но) благодарил за высокую награду – *Shoir hayajonli so'zlar bilan yuqori (yuksak)mukofot uchun minnatdorchilik bildirdi.*

Für predlogi “bo’sh o’rinni egallash”yoki biror kishi uchun qandaydir majburiyatlarni bajarishni anglatishda ham qo’llanilishi mumkin. Masalan; *Ersatz* – замена, замещение кого-л., чего-л. – *o’rinni bosish, olish (biror kishining yoki narsaning); arbeiten* – работать за кого-л. – *biror kishi uchun ishlamoq; auslegen, zahlen* – платить за кого-л. (в долг) – *biror kishi uchun gapirmoq; Kandidat, Prätendent, Bewerber* – кандидат, претендент на что-л. – *biror narsaga nomzod, da’vogar. Als Kandidat für diesen hohen Posten wurde Professor Nasarow genannt* – В качестве кандидата на эту высокую должность был назван профессор Назаров. *Ushbu yuqori mansabga professor Nazarov nomzod sifatida ko’rsatildi.*

Zamon funksiyasini ifodalaganda **für** predlogi **auf, über, während, durch** predloglariga o’xshab ketadi. **Für** predlogining o’ziga xos hususiyati shundaki, u biror harakatni bajarishga mo’ljallangan ma’lum vaqtni ko’rsatadi. O’tgan zamonda sodir etilgan harakatni ifodalaganda **für** harakat yoki holatning davomiyligini anglatadi. **Während** predlogi esa harakatning ma’lum vaqt doirasida (ichida) qanday hodisa sodir etilayotganini bildiradi. **Für** predlogi biror harakatni sodir etish uchun «ma’lum muddatgacha» tushunchasini ifodalashda ham qo’llanadi. Masalan; *Ob er mich vielleicht für die Ferien nach Hamburg einlädt? überlegt Robert, während er seine Suppe isst.* – Sho’rva ichayotgan paytida «meni Gamburgga ta’tilga taklif qilarmikan» degan hayolga bordi Robert. *Er würde für einen oder zwei Tage strenge Diät empfehlen.* - Ему предписали строгую диету на один или два дня. – *Unga bir-ikki kun qattiq parhez qilishni tavsiya etishdi.*

Hozirgi nemis tilida **für** predlogi maqsad munosabatlarini ifodalash bilan birga, asosiy funksiyasi bo’lgan harakat sabablarini ko’rsatishga xizmat qiladi. Ushbu funktsiya **wegen, durch, vor, zu gegen** predloglariga ham xosdir.

Für va **zu** predloglari boshqalariga nisbatan dalil, asos, sabab, vaj, da’vat kabi tushunchalarni ifodalovchi so’zlar bilan ko’proq birikadi. Mazkur predloglar o’rtasida aniq chegara bo’lmasa-da, yuqoridagi so’zlar bilan **für** predlogiga nisbatan **zu** predlogi tez-tez qo’llanadi. Bunday ma’noli so’zlar qatoriga quyidagilar kiradi. Masalan; *Ursache* - причина чего-л. – *biror narsaning sababi; Grund, Grundlage* – основание для чего-л. [1.120-b] *biror narsa uchun asos; Argument* – довод, аргумент – *bois, аргумент, Beweis* – доказательство – *isbot; Bedingung* – условие – *shart-sharoit; Chance* – шанс – *imkoniyat; Mittel* – средство – *vosita; Zeichen* – знак – *belgi va boshqalar;*

Sein Vater war für ihn nicht nur sein Lehrer, sondern auch sein bester Freund – для него отец был не только учителем, а был самым лучшим другом – *Otasi uning uchun nafaqat muallim, balki eng yaxshi do’st edi.*

Marie kaufte ein Tütchen Samen für den Balkon. Мария купила немного семян для посева на балкона – *Mariya balkonga ekish uchun gul urug’I sotib oldi. Die Stille ist die Ursache dafür.* – Причина этому тишина. *Buning sababi jimlik.*

Kelib chiqish nuqtai nazaridan **für** predlogi dastlab yuqori nemis tilida **furi** shaklida bo’lib, oldin, (перед) – *olg’a* (вперед) ma’nolarini anglatgan. Shu bois u asl ma’nosi dinamik (o’sib boruvchi)harakat bo’lgani uchun harakat sodir bo’lishining uzliksizligini ta’kidlagan holda, bir predmetning ikkinchisi ortidan bevosita, to’g’ridan-to’g’ri kelishini ko’rsatadi. Masalan; *Tag für Tag* – день за днем, изо дня в день, - *kun ortidan kun, Woche für Woche* – неделя за неделей – *hafta ortidan hafta, Schritt für Schritt* – шаг за шагом, постепенно – *qadam-baqadam; asta-sekin; Rubel für Rubel* – рубль за рублем, каждый рубль – *so’tma-so’t, tiyinlab.*

O’zbek tilida “*so’tma-so’t, so’mlab*” yig’ish, to’plash kabi birikmalar odatda iste’molda emas, shu sababli uning o’rniga «*tiyinma-tin*», *tiyinlab* yig’ish, to’plash birikmasi qo’llaniladi.

Für predlogi ishtirokidagi so’z birikmalari turli-tuman ma’no va tushunchalarni anglatgani ularning konkret yoki abstrakt otlar bilan hosil bo’lganligidan dalolatdir. Masalan; *Mann für Mann* – один за другим, все поголовно – *biri ketidan boshqasi, barchasi; Wort für Wort* – слово в слово, дословно – *so’zma-so’z, birorta so’zni qoldirmasdan, Strich für Strich* – точь в точь, тютелька в тютельку – *aynan, xuddi o’zi; Zug für Zug*; - как две капли воды (похожи – *xuddi ikki tomchi suvdek (bir-biriga) o’xshash(o’xshaydi); Szene für Szene* – «цена за ценой, скандал за

скандалом» - *sahna ketidan sahna; janjal, mojaro ketidan, mojarо ketidan janjal, janjal, mojaro, to'xtovsiz, uzluksiz, mutassil janjal, mojaro. Ushbu ruyxatda keltirilgan so'nggi so'z birikmasining ikkinchi ma'nosi turg'un iboraga yorqin misoldir.*

Damals ...als er mir szene für Szene machte, ... da schrieb ich ihm. – *Тогда, когда он устраивал мне скандал за скандалом, я и писал ему – и мен билан to'xtovsiz mojaro qilavergach, men unga yozib yubordim.*

Adabiyotlar

1. Седин В.Н. Предлоги немецкого языка. ВШ, М.1963. 120 ст.
2. Немецко-русский словарь (под ред. А.А.Лепинга и Н.П. Страховой), 80000 слов, изд.4, Изд-во «Советская Энциклопедия», Москва, 1965
3. Леман, Абрикосов, Т.А. Обучение немецкой лексике, Учпедгиз министерства просвещения РСФСР, М., 1979.174 ст
4. Маркова, А.П. и Рогачёва М.А. Aus dem Leben berühmter Gelehrten und Erfinder, Изд-во «Просвещение» М., 1979 .36 ст.
5. Segehrs Anna. Die Toten bleiben jung, Verlag für fremdsprachige Literatur, Moskau, 1959.
6. Зегерс, Анна. Barhayot o'liklar. Abdulhad Abdullayev va Husan Ro'zimatov tarjiması, O'zbekiston davlat badiiy adabiyot nashriyoti, Toshkent, 1962. 56 b.

UDK: 811.512.133'367.63(043.3)

ASTRAL MIFOLOGIYA VA O'ZBEK XALQ TAQVIMIDA “TUQUSH” HISOBI

M. Jo'rayev

O'zbekiston Respublikasi fanlar Akademiyasi O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti

Annotatsiya. Maqolada Markaziy Osiyo xalqlarining Hulkar Yulduzi kulti bilan bog'liq astromifologik tasavvurlari hamda shu asosda kelib chiqqan “to'g'al” nomli xalq fenologik taqvimi xususida so'z yuritiladi. Bu taqvim asosida kelib chiqqan folklor materiallari, jumladan, mifologik qarashlar, maqol va iboralar tahlilga tortiladi.

Kalit so'zlar: o'zbek mifologiyasi, folklor, xalq taqvimi, astral kult, asromifologiya, maqol, fenologik taqvim, mifologik tasavvurlar.

Астральная мифология и подсчет «Тукуша» в узбекском календаре

Аннотация. В статье изучены астромифологические представления народов Центральной Азии, связанные с культом звезды Хулкар, т.е. Плеяды и раскрываются сущность и своеобразные особенности народного фенологического календаря “тугал”. Анализируются этнофольклорические материалы, в том числе, мифические верования, пословицы и поговорки, возникшие на основе этого древнего календаря.

Ключевые слова: узбекская мифология, фольклор, народный календарь, астральный культ, асромифология, пословица, фенологический календарь, мифологические представления.

Astral mythology and “Tuqush” counting in Uzbek calendar

Abstract. In the article astromyphological representations of the peoples of Central Asia, connected with the cult of the Hulkar star, are studied. Pleiades and reveal dryness and peculiar features of the folk phenological calendar "Tugal." Ethnophilic materials are analyzed, including mythical beliefs, proverbs and sayings that arose on the basis of this ancient calendar.

Keywords: Uzbek mythology, folklore, folk calendar, astral cult, asromythology, proverb, phenological calendar, mythological ideas.

Markaziy Osiyo xalqlarining qadim ajdodlari juda olis zamonlardayoq osmondagi sayyoralar hamda Yulduzlarning joylashuvi, samo gumbazidagi harakat yo'nalishini kuzatishga asoslangan astrologik tajribalarga ega bo'lishgan. Manbalarda ajdodlarimiz qadim zamonlardan buyon Yulduzlar holatiga qarab ob-havo o'zgarishlari, yil fasllarining almashinishini aniqlaganliklarini dalillaydigan ko'plab ma'lumotlar uchraydi. Qadimgi turkiylar osmon yoritqichlarini mo'tabar tutish an'anasiga qat'iy amal qilishgan. Chunonchi N.Y.Bichurinning keltirishicha, qadimgi turkiylar hoqoni ertalab o'z qarorgohidan chiqib shafaq uzra ko'tarilayotgan quyoshga, kechasi esa oyga ta'zim bajo keltirgan. U yuzining chap tomonini yuqori tarafga qaratib (demak, kunchiqarga qarab – M.J.) o'tirgan.[1] Ular har

bir ishni boshlashdan avval “oy va Yulduzlarning joylashuviga qarab” ish ko‘rganlar. Oy to‘lin bo‘lganda dushmanlari ustiga yurish qilganlar, agar to‘lin oy kichraya boshlasa jangda talafot ko‘rishdan cho‘chib, yurishni to‘xtatishgan.[1] Uxuanlar ham “yer, osmon, quyosh, oy, Yulduzlar va vafot etgan oqsoqollar haqiga ho‘kiz va qo‘ylarni qurbonlik qilganlar”. [1]

Ajdodlarimiz qadim zamonlardan oq har bir osmon yoritqichi va Yulduzlarni muayyan nomlar bilan atab, ular to‘g‘risida xilma-xil asotiriy tasavvurlar va inonch-e‘tiqodlarni yaratganlar. XI asrning ulug‘ tilshunosi Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk” asarida “*Erän tyz*” (Mezon Yulduzi), “*Baqir soqum*” (Mirrix sayyorasi), “*Temur qazynuq*” (Qutb Yulduzi), “*Ulkär*” (Hulkar Yulduzi), “*Qaraqush*” (Mushtariy sayyorasi), “*Jetikan*” (Yetti qaroqchi) kabi astronomik atamalar keltirilgan.[2] O‘rta asrlarga mansub “Attuhfatuz zakiyatu fillug‘atit turkiya”da “*aitolun*” – to‘lin oy (166), “*aq ajg‘ir*” – bir Yulduz nomi (167), “*ariqtaq*” – Javzo Yulduzining nomi (170), “*jadikar*” – Hulkar (195), “*jashiq jamli*” – Suhayl Yulduzi (200, “*jashiq*” – temir qalpoq ma‘nosini bildirgan - M.J.), “*jitkir*” – Yulduz nomi (203), “*jiti*” – o‘tkir ma‘nosini bildirgan. Qorako‘l shevasida ham “*yitti*” suzining ma‘nosi “o‘tkir” demakdir - M.J.), “*tämir qazuq*” – Temir qoziq (356), “*tälkä kördi*” – Yulduzga qaramoq (264), “*älkä*” – Hulkar (270), “*cholpan*” – cho‘lpon (273) kabi kosmonimlarning keltirilganligi ham turkiy xalqlar juda chuqur astromifologik tushunchalarga ega bo‘lganligini ko‘rsatadi.[3]

Turkiy xalqlar orasida qadimdan “Yulduz hisobi”ni yaxshi biluvchi kishilar bo‘lganligini yozma manbalar ham tasdiqlaydi. Qadimgi qipchoq tili haqida nodir materiallarni o‘zida aks ettirgan “Bulgat al-Mustaq” asarida “*Yulduz eri*”, ya‘ni “munajjim” so‘zi uchraydi. Unda yozilishicha, Qumaniya degan joyda yashovchi turkiy qavm Yulduzlarga alohida e‘tibor qaratadi va ularga topinadi”. [4] Ajdodlarimizning Yulduzlar bilan bog‘liq astral qarashlari folklarning turli janrlarida ham o‘z aksini topgan. Xususan, o‘zbek xalq ertaklarining obrazlar tizimidagi *Yulduzboz* («Kulsa-gul, yig‘lasa – dur», 111-bet), *Yulduzsanar* («Oltin beshik», 234-bet), *Yulduzchi* («Oltin beshik», 226-bet; «Gulpari», 171-bet) kabi ertak personajlari nomi ham astral kultlar zamirida yuzaga kelgan. Etnograf O.Murodov tomonidan Zarafshon vohasidan yozib olingan shomon “munojot”ida “Yulduz pari tili bilan sizdan madad tilarman” misrasi mavjud.[5] Bu esa o‘zbek mifologiyasida astral tabiatga ega bo‘lgan pari obrazi ham mavjud bo‘lganligidan dalolat beradi. XIX asrda O‘rta Osiyodan to‘plangan etnografik materiallarning guvohlik berishicha, Yulduzlar holatini yaxshi biladigan kishilarni «Yulduzchi» deb ataganlar. Xalq orasida bunday «Yulduzchi»lar osmon yoritqichlarida, jumladan, Yulduzlarda yashaydigan ruhlar bilan muloqot qilish orqali odamlar taqdirini aytib beradi, degan tasavvur mavjud bo‘lgan.[6]

O‘zbek hisobdonlari ham Hulkar, Temir qoziq, Cho‘lpon, Etagan, Qambar Yulduz, Tarozi kabi Yulduzlarning harakatiga qarab ish ko‘rganlar va shu asosda xalq orasida «Yulduz hisobi» nomi bilan yuritiluvchi taqvim kelib chiqqan.[7] Ayniqsa, dehqonchilik va chorvachilik ishlari bajarishda Hulkar Yulduz to‘pining harakati va osmon gumbazidagi holatiga qarab ish yuritilgan. Xalqimiz orasida Hulkar Yulduzlarining samo gumbazidagi harakatlanish tartibi va yo‘nalishi hisobdonlar amaliyotidagi ko‘plab taqvimiy tushunchalarning kelib chiqishiga asos bo‘lgan. Cho‘ponlar Hulkar tug‘sa, havo salqin bo‘ladi deyдилar. Hulkar tuqqandan keyin qo‘yni qo‘zidan ayiradilar. Hulkar botgach esa suruvga qo‘chqor qo‘shadilar.[8] Qorako‘l tumanining Osiyo qishlog‘ida yashovchi 1926-yilda tug‘ilgan Sattor buva Ahmedov bilan suhbatlashayotib, Hulkar Yulduzlar turkumi haqida so‘raganimizda, u “*Hulkar Yulduzini cho‘ponlar aniq biladi, bolam. Hulkar tug‘sa tong sovir, Tarozi tug‘sa suv sovir*”, degan edi.[9]

Hulkar Yulduzi ufq tomonga og‘a boshlasa, tez orada issiq kunlar boshlanib, ko‘klam kelishidan darak beradi. Bu Yulduzni kuzatib keladigan hisobdonlar orasida “Hulkar yonboshlagandan so‘ng yoz kelmay nima qilsin” degan gap bor.[10] Chunki Hulkarning Sharq tomonga qarab og‘ishi fasl almashishidan, ya‘ni qish o‘rnini bahor egallashini bildiradi. Hulkar Yulduzining mana shu og‘ishi bo‘yicha mayning oxiriga borib ko‘rinmay qolishi, yog‘ingarchilik kunlarning boshlanishidan darak beradi. Agar Hulkar ko‘rinmay qolgach yomg‘ir ko‘p yog‘sa, yil barakali bo‘ladi deyдилar. Bu Yulduzning ko‘rinmas bo‘lib, er ostiga kirib ketgan vaqtdan (26 iyuldan 4 avgustgacha) to‘ yana samoda paydo bo‘lgunga qadar o‘tgan davr «yoz chillasi» hisoblanadi. Chunki xalq orasida mavjud bo‘lgan astromifologik tasavvurlarga ko‘ra, Hulkar qirq kun davomida er ostida bo‘lib, o‘t-o‘lanlarning ildizidan qitiqlaganligi uchun ular baravj bo‘lib o‘sar emish. Qirq kundan keyin Hulkar yana paydo bo‘lib, tongda ko‘rina boshlashi esa shabnam tushib, tez orada havoning sovishidan darak beradi. Bu Yulduz bilan tabiat hodisalari orasidagi aloqadorlik borligini payqagan ajdodlarimizning

astral qarashlari “Hulkar tug‘sa – suv er betiga chiqadi” yoki “Hulkar tug‘sa, oq tong soviy boshlaydi”[10] kabi maqollarda ham o‘z ifodasini topgan.

Hulkar Yulduzining harakatini kuzatib borish asnosida vaqt hisobini yuritishning o‘ziga xos usullaridan biri – “*to‘qush hisobi*” kelib chiqqan. V.P.Nalivkin tomonidan o‘tgan asr oxirida yozib olgan ma‘lumotlarga ko‘ra, o‘zbek xalq taqvimining “to‘qson”, “chilla” kabi muddatlari Hulkar Yulduzining tug‘ishi va samo gumbazidagi harakatlanish davriga asoslangan ekan. Tadqiqotchi bir hisobdonning Hulkar Yulduziga asoslangan vaqt hisobi haqidagi quyidagi hikoyani keltirgan: “Kechasi uydan chiqib kunchiqar tarafga qarasangiz, Hulkar deb ataladigan Yulduzlarga ko‘zingiz tushadi. Hulkar Yulduzining o‘ziga xos xususiyati shundaki, savr oyining oxirida u osmonda ko‘rinmay qoladi va er ostiga tushib ketadi. Oradan qirq kun o‘tib, ya‘ni saraton oyining avvalida yana paydo bo‘ladi. Bu davrda ertapishar uzum navi – chillaki xol otgan, tuyalarning junini qirqish muddati boshlangan bo‘ladi. Saratonning birinchi kunidan havo qattiq isiy boshlaydi. Qirq kungacha davom etuvchi bu davr yozning eng issiq payti hisoblanadi va “chilla” deb ataladi. Saratonning boshida “Hulkar tug‘adi” va u kundan-kun vaqtliroq chiqadigan bo‘lib, osmonda tobora yuqorilab harakatlana boshlaydi. Kech kuz kunlarining birida tongga yaqin ufqning qoq tepasida, naq quyosh botadigan joyida doxil bo‘ladi. O‘zbeklar ana shu damdan boshlab “to‘qson kirdi” deydilar”.[11] Hulkar Yulduzining harakatiga asoslangan bunday vaqt hisobidan xorazmlik dehqonlar ham foydalanishgan. Xorazmlik dehqonlarning hisobi bo‘yicha, may oyining boshida Hulkar Yulduzi ko‘rinmay qolishi yomg‘irli davr boshlanishiga belgi qilinadi. Iyun oyida Hulkar Yulduzi ko‘rina boshlagach, kuzgi bug‘doy pishadi.[12]

Xalqimiz ta‘biricha, Hulkar botgach, yoqqan yomg‘ir mo‘tabar hisoblanadi. Chunonchi, Samarqand viloyatining Bulung‘ur tumanidagi So‘loqli qishlog‘ida yashovchi hisobdon Abdug‘affor Shukurovning bizga 1987 yilda bergan ma‘lumotiga ko‘ra, “Hulkar botgandan so‘ng savr “yig‘loq” kelsa, ya‘ni yog‘ingarchilik ko‘p bo‘lsa, yil barakali keladi. Agar “qurg‘oq” kelsa, kuz kamhosil bo‘lar ekan”. Hisobdonlar Hulkar Yulduzlarining chiqishi va botishiga qarab turib, yil fasllari, issiq va sovuq havo oqimining o‘rin almashish tartibini aniqlaganlar. Buxoro viloyatining Qorako‘l tumanidagi Osiyo qishlog‘ida yashovchi 1922 yilda tug‘ilgan xalq hisobdoni Sattor buva Ahmedovdan yozib olingan ma‘lumotlarga qaraganda, may oyining o‘rtalarida Hulkar ufq tomonga og‘a boshlasa, tez orada kunlar isib, pishiqchilik boshlanadi. Bunday paytda “Hulkar yonboshlagandan keyin yoz kelmay nima qilsin?” deydilar. Hulkar tongga yaqin ko‘rinish bera boshlashi bilan tez orada salqin tushadi. Shuning uchun hisobdonlar “Hulkar tug‘sa, oq tong ham soviy boshlaydi” deydilar. Shuningdek, “Hulkar tug‘sa, suv er betiga chiqadi” degan naql ham bor. Buning boisi, Hulkar chiqa boshlagandan keyin har kun ertalab ozroq shabnam tushadi. Bu Yulduzning botishi va chiqishini muttasil kuzatgan hisobdonlar agar Hulkar suvga botsa, oy bo‘yi yog‘in-sochinli keladi, namgarchilik ko‘p bo‘ladi deb ta‘bir qiladilar. Hulkarning erga botishi esa qurg‘oqchilik nishonasi deb qaraladi.

Janubiy Tojikistonda yashovchi laqay o‘zbeklari ham yoz faslining tugashi va kuzning boshlanish muddatini erta tongda ufq uzra Hulkar Yulduzining paydo bo‘lish davri bilan belgilashadi.[13] Qozog‘istonning janubiy hududlarida istiqomat qiluvchi qozoq dehqonlari esa navro‘z bayramining nishonlanish muddatini Ulkar (Hulkar) Yulduzining botishi, ya‘ni bu Yulduzlar to‘pining osmonning g‘arbiy yarim sharida yangi chiqqan oy bilan to‘qishishiga qarab belgilaganlar.[14]

Dehqonchilik bilan shug‘ullanuvchi turkiy xalqlarning aksariyati Hulkar Yulduzi botguniga qadar ekin-tikin ekish bilan bog‘liq ishlarni bitkazib olishga harakat qilganlar. Xususan, qo‘miqlar Hulkar botgach, zaminga urug‘ qadamaganlar.[15] Bu Yulduzning botishini qo‘miqlar kuz kelishidan nishona deb bilishgan, chunki “Uker batsa, er q‘atar” (“Hulkar botsa, er qotar, ya‘ni muzlar”) maqolida ham[16] bu Yulduzning ufq ortiga o‘tib ketishi ayozli kunlar boshlanganligining belgisi ekanligiga ishora qilingan. Tatar folklorida bu maqolning “Olkar battı, jir kattı” varianti qo‘llaniladi. Volga bo‘yi turkiy xalqlarida bu Yulduz “Olkar” yoki “Ilak yoldız” (“Elak Yulduz”) deb ataladi. Hulkar Yulduzi osmon gumbazining g‘arbiy yarim shari bo‘ylab ufqqa bosh qo‘ya boshlashi yozning avj pallasi boshlanishidan dalolat bergan. SHuning uchun ham tatarlar “Olkar jirga tushkanda sıer suga tosha”, ya‘ni “Hulkar erga tushganda sigirlar suv ichgani borar” deydilar.[17]

Xalq qarashlariga ko‘ra, kiyiklarning juftlashish davri ham Hulkar Yulduzining chiqishi bilan bog‘liq. Xususan, Samarqand viloyatining Bulung‘ur tumanidagi Qoraqursoq qishlog‘ida yashovchi xalq hisobdoni Hazratqul Muhammadqul o‘g‘lining ma‘lumot berishicha, “kiyikning olqori bilan modasi ikki boshqa yurar emish. Kuzning oxirlarida har tongda kiyikning nari toshning ustiga chiqib

Hulkarning botishiga qarab turar, qaysi kuni Hulkar botsa, modasi bilan qo'shilib birga yurar emish".[18]

Hulkar – tun yarimdan oqqandan keyin paydo bo'ladigan Yulduz bo'lib, «*Hulkar tug'di – uy muzlaydi*» maqolida ham uning kuzda doxil bo'lishi havo sovushini anglatishiga ishora qilingan.[19] Navbahor tumanidagi Qalqon ota qishlog'ida yashovchi Tursunmurod Allaberganovning aytishicha, Hulkar hisobi chorvadorlar orasida mashhur bo'lgan. Odamlar bir-biriga “Hulkar tug'dimi?”, “*Hulkar botdimi?*” deyishgan. Hulkar botsa, kiyiklar, olqorlar bir-biriga yaqinlashadilar. Hozirgi hisob bo'yicha noyabrda Hulkar botadi, ana shunda tog' olqorining takasi modasiga qo'shiladi. Martning 20-sigacha ular tug'adilar.[20]

Janubiy Tojikistonda yashovchi o'zbek-laqaylar orasida “*Hulkar botdi – er qotdi*”, “*Hulkar botdi – eshak yotdi*”, “*Hulkar botdi – omoch yotdi*”, “*Hulkar ko'rinmay er qizimas*”, “*Hulkar tuvsu – tong soviydi*”, “*Hulkar uydun ko'rinsa, uch oydan so'ng tobuston*”[21] kabi maqollarning ko'p uchrashi bu Yulduz bilan bog'liq astromifologik qarashlar keng tarqalganligidan dalolat beradi.

Hulkar Yulduzini kuzatish asosida to'plangan fenologik tajribalar “chorva hisobi”ni yuritishda ham qo'l kelgan. Hulkar Yulduzi ufqqa botishi bilan chorvadorlar qo'ylarga qo'chqor qo'shishgan. Cho'ponlar irim qilib, qo'chqorning shoxiga bitta katta tarvuzni urib yorishgan, yorilgan tarvuzning urug'lari har tarafga sochilib ketsa, chorvaga baraka kiradi deb suyunganlar. Tarvuzdagi serurug'lik xususiyati qo'ylarga ham o'tib, ko'klamda qirlar qo'zilarga to'lib ketadi, deb o'ylashgan.[22]

Hulkar Yulduzini yoz faslining o'rtasida har kuni erta tongda, ya'ni quyosh chiqishidan avval mashriqda kuzatish mumkin. Bu Yulduzning tongni qarshilab chiqib boshlashi bilan ertalab maysalar yuzini shudring qoplaydi, ya'ni “Hulkar tug'sa – suv er betiga chiqadi”. “Hulkar tug'sa, oq tong soviydi” maqoli bu davrga kelib tongda havo biroz salqinlashganini anglatadi. “Iyulda Hulkar tong bilan bab-baravar tug'adi”, deydi qozoqlar.[23] Hulkar Yulduzi osmonning qoq o'rtasiga kelib qolishi kuzak boshlanishidan darak beradi. Bu davrda kechalar ancha uzayadi, ertalab salqin bo'ladi, suv sovuydi. Kuzning o'rtasida ham Hulkar Yulduzi tepada bo'ladi. “Urkor tobogo keliptir, kysish ortosu boldu” deydi qirg'izlar. Ya'ni Hulkarning qoq tepaga kelib qolganligi qishning yarimlaganini anglatadi.[24]

O'zbek hisobdonlari Hulkarning osmondagi boshqa yoritqichlar, jumladan, oy bilan munosabatiga ham alohida ahamiyat berganlar. Natijada Hulkar bilan oyning harakat yo'nalishidagi muayyan kesishuv nuqtalarining izchil tizimiga asoslangan o'ziga xos vaqt o'lchovi yuzaga kelgan. Bu hisob xalq orasida “to'qush” yoki “to'g'al” deb yuritiladi. M.S.Andreev XX asrning 20-yillarida Toshkent viloyati bo'ylab folklor-etnografik ekspeditsiyasini o'tkazganida xalq hisobining “besh to'qush” deb ataluvchi davri bilan bog'liq quyidagi hikoyani yozib olgan: “To'qush – Hulkar Yulduzining o'z yo'lida yangi tuqqan oy bilan qo'shilishi demakdir. Taqvimiy belgilarga aylangan bunday “to'qush”lar bir yilda besh marta sodir bo'ladi: qamariy taqvim bo'yicha to'qqizinchi (9 to'qush), sakkizinchi (8 to'qush), ettinchi (7 to'qush), beshinchi (5 to'qush) va uchinchi (3 to'qush) oyida. Oxirgi qo'shilish muddati, ya'ni 3 to'qushdan so'ng arpa dumbul bo'ladi. “Besh to'qush” kirishi bilan daraxtlar kurtak chiqara boshlaydi, teraklar barg yozadi, qir va adirlar yam-yashil maysalar bilan qoplanadi. Bu davr sovuq kunlar tugab, ko'klam bolanishidan nishonadir. “*Besh to'qush bo'lsa, beshikdagi bola sovqotmas*”, “*Besh to'qush bo'lmasa, belgilik yoz bo'lmas*” kabi maqollarida ham bu davr ob-havosidagi o'zgarishlar, qish-qirovli kunlar ortda qolib, yozning iliq damlari boshlanganligi haqida so'z boradi”.[25]

O'rta Osiyoning ayrim turkiy xalqlari orasida Hulkar Yulduzi bilan bog'liq “to'qush hisobi” keng qo'llanilgan. Qozoq xalq taqvimida ham bu hisob “to'qush” deb yuritilgan hamda “oyning Hulkar Yulduzi bilan ikki marta uchrashuvi oralig'idagi vaqt”[26] ma'nosini anglatgan. Tilshunos olim S.Kenesbaev qozoqlar orasida oy nomlarining ikki xil an'anaviy atamaları yonma-yon qo'llanilishini qayd qilar ekan, ularning bir-biriga muqobil nomlarini keltirgan: 1) “to'qquz tog'ys” – ikki og'ayni (yoki oqpon); 2) “jeti tog'ys” – navruz; 3) “bes tog'ys” – kokek; 4) “ush tog'ys” – мамыр; 5) “bir tog'ys” – маусым; 6) “23 tog'ys” – saraton; 7) “21 tog'ys” – childe; 8) “19 tog'ys” – тамыз; 9) “17 tog'ys” – қыркыуак; 10) “15 tog'ys” – mizam; 11) “13 tog'ys” – qarashakaus; 12) “bir tog'ys” – qantar.[27] O'zbek hisobdonlari esa Hulkar Yulduzining ko'rinadigan vaqtini “*quyruq tug'di*”, oy bilan Hulkarning harakat yo'nalishidagi davriy kesishuv jarayoniga asoslangan an'anaviy vaqt hisobini “*to'gov*” deb ham yuritishgan.[28]

O'zbek chorvadorlarining to'g'al hisobi haqidagi nisbatan to'la ma'lumot xalq baxshisi Rahmatulla Yusuf o'g'li tomonidan yozib olingan. Ma'lum bo'lishicha, “to'g'al” oy bilan Hulkarning

juftlashishi bo‘lib, bu vaqt birligini Nurota tog‘larida qo‘y boquvchi cho‘ponlar “Qo‘ziboy mayriqning hisobi” deb yuritadilar. Nurotalik cho‘ponlar orasida “Qo‘ziboy mayriq” nomi bilan mashhur bo‘lgan bu hisobdon haqida Rahmatulla Yusuf o‘g‘li quyidagi ma‘lumotlarni keltirgan: “Bu hisob bo‘yicha, arab hisobidan, ya‘ni hijriy-shamsiy taqvim hisobidan hafta oldin oyboshi qilinadi. Masalan, jaddi 29 kun bo‘lsa, 23-chi arabiy jaddida birinchi dalv kiradi. Undan keyin “Hulkarga oyning tug‘ilishi”, ya‘ni Hulkar bilan oyning juftlashishi hodisasi ro‘y beradi. “Hulkarga oyning tug‘ilishi” hodisasining shamsiy taqvim oylariga nisbatan quyidagicha bayon qilinadi: birinchi to‘g‘al – asadda; uchinchi to‘g‘al – sunbulada; beshinchi to‘g‘al – mizonda; ettinchi to‘g‘al – aqrabda; to‘qqizinchi to‘g‘al – qavsda; o‘n birinchi to‘g‘al – jadyda; to‘qqizinchi to‘g‘al – dalvda; ettinchi to‘g‘al – hutda; beshinchi to‘g‘al – hamalda; uchinchi to‘g‘al – sarvda; birinchi to‘g‘al – javzoda; nolunchi to‘g‘al – saratonda. Shu kunlarda muqarrar havo buzilib, hech bo‘lmasa yomg‘ir tomchilab o‘tadi. Hali chorvadorlar orasida bu hisob juda mo‘tabardir”. [29] Qashqadaryolik dehqonlar e‘tiqodicha, “Hulkar to‘g‘ali har oyning 8, 9-kunlariga to‘g‘ri keladi, ba‘zida yangi oylarning 5, 5, 3, 1-kunlarida ham kelishi mumkin ekan”. [22] Xalq qarashlaricha, “to‘g‘al”/“to‘qush”/“toogol”/“to‘qov”/“tog‘is” hisobi yangi oy bilan Hulkar Yulduzi yo‘llarining kesilishi, ya‘ni bu samo yoritqichlarining har ikki marta “juftlashishi” davri oralig‘idagi vaqt birligining ifodasidir.

Ma‘lumki, oy bilan Hulkar Yulduzi yo‘llarining kesilishi muddatlarining davriy aylanmasi “siderik oy” deyiladi. Bu atama yunoncha “Yulduz” ma‘nosini anglatuvchi “sideros” so‘zidan olingan bo‘lib, “siderik oy” oyning u yoki bu Yulduz yoniga qaytib kelishi uchun ketgan vaqt birligi ifodasidir. Oy bilan Hulkar Yulduzining ikki marta “to‘qushishi” oralig‘idagi vaqt 27,32 sutkadan iborat siderik oyni tashkil etadi. Qamariy taqvim bo‘yicha bir oy, ya‘ni oy fazalarining to‘la almashinishi muddatini o‘z ichiga oladigan “sinodik oy” 29,53 sutkaga teng. Sinodik oy bilan siderik oy orasidagi farq esa 2,21 sutkani tashkil etadi. Bu esa “to‘g‘al hisobi” bo‘yicha Oy bilan Hulkarning “uchrashuvi” har oyda oldingi “to‘qush” muddatiga nisbatan 2,21 sutka avval sodir bo‘lishini ko‘rsatadi. [22]

Demak, turkiy xalqlarning an‘anaviy fenologik taqvimidagi “to‘qush” yoki “to‘g‘al” hisobi oylarining nomini anglatuvchi raqamlar oralig‘idagi farq “2”ga tengligining boisi ham ana shunda. Xulosa qilib aytganda, bu hisob Hulkar Yulduzining tug‘ilishi va osmon gumbazidagi davriy harakatlanish qonuniyatlarini muttasil kuzatish natijasida yig‘ilgan hayotiy tajribalar asosida kelib chiqqan.

Adabiyotlar

1. Бичурин Н.Я. Собрание сведений о народах обитавших в Средней Азии в древние времена. Т.1. – М. – Л., 1950. – С.50.
2. Махмуд Кошғарий. Девону луғотит турк (индекс-луғат). - Тошкент: Фан, 1967.
3. Аттухфатуз закияту филлуғатит туркия [Туркий тил (қипчоқ тили) ҳақида ноёб туҳфа]: таржимон ва нашрга тайёрловчи: С.М.Муталлибов. – Тошкент: Фан, 1968.
4. Abu'l-Hasan 'Ali b. Musa Ibn Sa'id. Kitab al-Jugrafiya., Ed. I. al-'Arabi. - Beirut, 1970. - p.206; Abu'l-Fida. Taqwim al-Bulgan. Ed. M. Reinaud, Baron MacGuckin de Slane. - Paris, 1840. - p.204 (ушбу маълумотларни берганлиги учун проф. Ш.Шомусаровга миннатдорчилик билдирамиз -М.Ж.).
5. Муродов О. Шаманский обрядовый фольклор у таджиков средней части долины Зерафшана // Домусульманские верования и обряды в Средней Азии. – М., 1975.
6. Левшиц А.И. Описание киргиз-казачьих или киргиз-кайсацких орд и степей. Сочинение Алексея Левшица. Часть 3. Этнографические известия. – СПб., 1832.
7. Боболардан қолган нақллар. Тўплаб нашрга тайёрловчилар, сўзбоши ва изоҳлар муаллифлари: М.Жўраев, У.Сатторов. – Тошкент: Фан, 1998.
8. Нарзикулов А. Деҳқон тақвими. – Тошкент: Меҳнат, 1991.
9. Муаллифнинг фольклор экспедицияси материаллари. 2005 йил.
10. Об-ҳаво даракчилари. Тўплаб, нашрга тайёрловчи ва сўзбоши муаллифи: Жўраев М. – Тошкент: Адолат, 1996.
11. Бу иқтибос М.С.Андреевнинг «Гаджикки долины Хуф» (Т.1, 1958) китобининг 172-саҳифасидан олинди.
12. Джаббаров И. Из истории техники и культуры земледелия Южного Хорезма (конец XX – начало XX вв.) // История материальной культуры Узбекистана. Вып.2. – Ташкент, 1961.

13. Кармышева Б.Х. Узбеки-локайцы Юного Таджикистана. – Сталинабад, 1954.
14. Кармышева Дж.Х. Земледельческая обрядность у казахов // Древние обряды, верования и культы народов Средней Азии. – М.: Наука, 1986.
15. Гаджиева Ш.С., Трофимова А.Г., Шихсаидова А.Р. Старинный земледельческий календарь народов Дагестана. – Махачкала, 1964.
16. Халидова М.Р. Формы космогонических представлений и верований в повествовательном фольклоре народов Дагестана // Проблемы мифологии и верований у народов Дагестана. – Махачкала, 1988.
17. Беркутов В.М. Народный календарь и метеорология булгаро-татар. – Казань: Татарское книжное издательство, 1987.
18. ЎЗР ФА Ўзбек тили, адабиёти ва фольклори институти Фольклор архиви. Инв.№1830.
19. Муаллифнинг фольклор экспедицияси материаллари. Конимех туманидаги Шўркўл кишлоғида яшовчи Жуламанова Сулувхондан 2004 йилда ёзиб олинган.
20. Муаллифнинг фольклор экспедицияси материаллари. 2004 йил.
21. Назаров Н. Лақайлар: этнография, лингвистика ва фольклор. – Тошкент: Тамаддун, 2010.
22. Раҳмонов Ф. Қашқадарё воҳаси аҳолисининг зироатчиликка оид урф-одат ва маросимлари (асрнинг XIX охири – XX аср бошлари). Тарих фанлари номзоди диссертацияси. – Тошкент, 2001.
23. Абишев Х. Элементы астрономии и погода в устном народном творчестве казахов. – Алмата, 1949.
24. Байбусинов А. Донаучные представления киргизов о природе. – Фрунзе: Мектеп, 1990.
25. Андреев М.С. Таджики долины Хуф. Т.1. – Сталинабад, 1958.
26. Қазақ энциклопедиясы. Т.1. – Алмата, 1970.
27. Кенесбаев И. Қазақ тілінің фразеологиялық создiгі. – Алмата: Ғылым, 1977.
28. Фармонов И. Ўзбек тилининг Ўш-Ўзган диалектининг баъзи лексик хусусиятлари: Филол. фанлари номз. дисс. - Тошкент, 1983.
29. ЎЗР ФА Ўзбек тили, адабиёти ва фольклори институти Фольклор архиви. Инв.№1443/III.

UDK: 894.3

IQBOL MIRZO SHE'RIYATIDA MUHABBAT MAVZUSI TALQINI

G. Ernazarova

Samarqand davlat universiteti

E-mail: shukrona16@mail.ru

Annotatsiya: Maqolada adabiyotning abadiy masalalaridan bo'lgan muhabbat mavzusi Iqbol Mirzo she'riyati misolida tahlil qilinadi. Unda shoirning muhabbat mavzusidagi she'rlari lirik qahramon kechinmalari fonida tadqiq etiladi. Shoirning mavzu talqinidagi original yondashuvi ochib beriladi.

Kalit so'zlar: she'riyat, uslub, poetik mahorat, lirik qahramon, mavzu, mazmun, obraz, lirik kechinma.

Интерпретация темы любви в поэзии Икбала Мирза

Аннотация: Статья посвящена теме любви, которая является вечной темой литературы, в случае поэзии Икбала Мирза. Стихи о любви поэта рассматриваются под влиянием лирических переживаний героя. Раскрыт оригинальный подход поэта к предмету.

Ключевые слова: поэзия, стиль, поэтический навык, лирический герой, содержание, образ, лирические чувства.

Expression of love in the poetry of Iqbal Mirzo

Abstract. The article is devoted to the theme of love, which is the eternal issue of literature, in case of poetry of Iqbal Mirzo. His poems about love are analyses under influence of lyrical emotions of heroes. Original approach of poet is revealed.

Keywords: poetry, style, poetic art, lyric hero, theme, content, image, lyric feelings.

“Muhabbat eski narsa, lekin uni har bir yurak yangilaydi”, – degan dono fikr (Hodi Toqtosh) zamirida insonning butun bir hayoti yotadi. Zero, har bir qalb atrof-olamni o‘zicha his qiladi. Go‘zallikdan o‘ziga xos ma’naviy oziq oladi, rohat topadi. Hayotning har bir qirrasiga o‘zicha munosabatda bo‘ladi va xulosalar chiqaradi. Xullas, har bir inson o‘z his-tuyg‘ulari dunyosiga ega. Odamlar bilimi va dunyoqarashi jihatidan bir-birlariga yaqin turishlari mumkin, lekin hissiyot, qalb kechinmalari, ruhiy olami nuqtai nazaridan bir-birlariga mutlaqo o‘xshamaydilar. Shuning uchun har bir qalbdagi muhabbat tuyg‘usi ham faqatgina uning o‘ziniki bo‘ladi. Uni bir qalbdan ikkinchi qalbgaga o‘tkazib yoki bir xilda sevdirib bo‘lmaydi. Bu inson qalbining anglab yetib bo‘lmaydigan sehrli olami tufaylidir. Shundan bo‘lsa kerakki, muhabbat tuyg‘usining badiiy adabiyotdagi tasviri ham turlicha.

Muhabbat tushunchasi hozir ham she‘riyatimizning yetakchi va qiziqarli mavzulari sirasidan sanaladi. Chunki she‘riyat hamisha inson qalbining go‘zal, nafis, nazokatli ehtirosli tuyg‘ularidan nurlanib keladi. Taniqli shoir J.Kamol e‘tiroficha: „Hamisha, hamma yerda nafosatni teran idrok etish va tasdiqlashga intilish shoirning bu xususidagi o‘ziga xos qarashi bilan bog‘liq“ [2, 112-bet]. Muhabbat lirikasidagi bu xususiyatni inkor qilmagan holda, har bir davr, insoniyat yashash tarzining har bir bosqichi unga o‘z ta‘sir kuchini o‘tkazib keldi. Mumtoz she‘riyatda hayo, ibo, iffat kabi fazilatlar tasviri ilgari surilgan muhabbat mavzusi an‘anaviy tarzda hozir ham davom etib kelayapti. Chunki bu fazilatlar tasvirining muhabbat lirikasida yetakchilik qilishi sevgi yoshidagi yigit-qizlar tuyg‘ularini tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan u inson hayotida ham tarbiyachi, ham sirdosh, ham maslahatchi vazifasini bajaradi va uning qalbiga to‘siqlarsiz yo‘l topa oladi. Inson muhabbatni qadrlashi, uning buyukligini anglab yashashi hayot taraqqiyoti, jamiyat rivojida muhim ahamiyat kasb etadi.

Zamonaviy o‘zbek she‘riyatida o‘z ovozi, o‘ziga xos uslubi, badiiy mahorati bilan o‘quvchilar muhabbatini qozongan shoir Iqbol Mirzoning 2007-yilda nashr etilgan „Sizni kuylayman“ deb nomlangan kitobiga turli yillarda bitilgan abadiy va o‘lmas mavzu – muhabbat haqidagi sara she‘rlari kiritilganini ko‘ramiz. Ushbu she‘rlarda shoir muhabbat tushunchasining naqadar ulug‘vorligini, inson shaxsi va hayotidagi o‘rni, jamiyatdagi mavqei barcha-barchasi muhabbat oldida bo‘yin egishini ta‘riflaydi. Bu muhabbat – insonning VATANIGA bo‘lgan muhabbati, DO‘STIGA, ONASIGA, SEVGAN YORIGA bo‘lgan muhabbati tarzida ko‘z oldimizda gavdalanadi.

Muhabbat mavzusi adabiyotimizdagi eng qadimiy mavzulardan hisoblanadi. Boshqacha qilib aytganda, ehtimol, she‘riyat o‘z tarixini ana shu mavzu bilan boshlagan bo‘lsa, ajab emas. Iqbol Mirzo haqli ravishda o‘zi iqror bo‘ladi: „*Menga muhabbat qalam tutqazgan. Keyinroq bu tuyg‘u yurt ishqiga, Vatan sevgisiga aylandi...*“ [1, 8-bet].

Shoir she‘rlarida haqiqiy hayotni, uning go‘zalligini, inson ma’naviyatining, tuyg‘ularining, ruhiy dunyosining mo‘jizakor qudratini kuylaydi va o‘zining bor mahoratini ishga solib, tuyg‘ularga rang beradi. Bunday barkamol, go‘zal ranglar va ohanglar o‘quvchi qalbidagi barcha ezgu tuyg‘ularni uyg‘otib, unga kamolot baxsh etadi. Muhabbat go‘zal, sirli bir tuyg‘u sifatida, uning azoblari dard va hijronlari ana shu sirlik va go‘zallik libosida ko‘zga tashlanadi:

Yo‘g‘u borimga bois borliqsan, sevgi,
Yagona yordan yolg‘iz yorliqsan, sevgi.
Yuragimni tars yorgan lazzatsan, lazzat,
Ongimdagi abadiy og‘riqsan, sevgi.
Kapalak chang chalganda sochilgan changsan,
Chumoli torta kelgan tortiqsan, sevgi.
Momo Havo to‘ymagan havosan, harir,
Odam Ato so‘ymagan jonliqsan, sevgi.
Cho‘kayotib tutganim xassan, men uchun –
Sevgilimdan ming karra ortiqsan, sevgi [1, 216-bet].

Shoir nazdida muhabbat ana shunday „sirli“, ana shunday „sehrli“ kuch. Shoir sevgining lirik qiyofasini „yorliq“, „lazzat“, „og‘riq“, „chang“, „tortiq“, „havo“, „jonliq“, „xas“ timsollari orqali mukammal va beqiyos chiza olganligining guvohi bo‘lamiz. Adabiyotshunos olim Izzat Sulton: „Faqat badiiy shaklda ifoda etilgan mazmunga o‘quvchiga ta‘sir ko‘rsata olishi, „yuqishi“ mumkin“ [3, 160-bet], – deb yozadi. Darhaqiqat, badiiy adabiyotda har bir ijodkor muhabbatning betakror suvratini o‘z hislari mo‘yqalamida chizadi. Shu tariqa yorga bo‘lgan ulkan sevgining, ishqning izhori – nomasi dunyoga keladi. Bu muhabbatnomada o‘sha shaxs – inson turadi. Lekin Iqbol Mirzoning „Sizni kuylayman“ nomli turkumida butunlay boshqacha xususiyat ko‘zga tashlanadi. Unda shoir bevosita

mahbubaga emas, balki unga bo'lgan muhabbat tuyg'usiga murojaat etadi. Ya'ni sevgini sevadi, muhabbatga muhabbat bilan talpinadi. Buni yana boshqacharoq tasavvur etish mumkin, muhabbatni shunday soddalik bilan tushunarli tarzda tasvirlaydi-ki, o'qish davomida inkor etolmaydigan haqiqatlar kashfidan ko'ngilning nozik torlari chertila boshlaydi:

Muhabbat, bu – yalt etgan nigoh
Va halovat abas, degani.
Muhabbat, bu – o'zingni sevmoq
Va o'zgaga havas, degani.

Hayot isi kelar ismidan,
Hayotingni kessa-da zimdan,
Muhabbat, bu – kuy to'la zindon,
Atirguldand qafas, degani [1, 46-47-betlar].

Yo'qoridagi misralarni o'qir ekanmiz, ko'z o'ngimizda muhabbatning inson botinida ham zohirida ham doimo mavjudligini, olayotgan nafasimizda ham ko'zimiz ko'rayotgan har bir narsada muhabbatning aksi borligini his qilishimiz mumkin. Muhabbatni shoir shunday ulug' narsalarga qiyoslaydiki, inson doimo ular bilan tirik, ularsiz yashay olmaydi. U quyosh, oy, yulduz bo'lishi ham mumkin. Inson hamisha muhabbat bilan tirik ekanligiga qayta-qayta guvoh bo'lamiz. Bu – hayotning rad etib bo'lmas haqiqati ekanligiga ishonch ortaverdi:

U – quyoshdir, yeta olmassan,
U – ko'zyoshdir tuta olmassan.
Muhabbat, bu – keta olmasdan
Jon talashgan nafas, degani [1, 46-47-betlar].

Shoir muhabbatning yoqimli, maftunkor, farahbahsh fazilatlarini ham, uning o'z tasavvuridagi hayo pardasiga o'ralgan o'ta nozik qomatini ham, unga soya tashlagan hijron dardlarini ham, hech narsa bilan qiyoslab bo'lmaydigan sog'inch hislarini ham, visol baxtini ham hassos qalb tuyg'ularining betakror bo'yoqlaridan ranglantiradi. Shuning uchun ham bu she'rlarda sodda tushunarlilik bilan bir qatorda inson qalbidak sirlilik mavjud va ularda ulkan bir sehvlovchi qudrat bor. Darhaqiqat, har qanday she'r jimjimador, dabdabali so'zlarisiz oddiygina bitilsa-yu, uning mantiqiy, ma'naviy, ruhiy ta'sirchanligi kuchli bo'lsa u, albatta, inson qalbini zabt etish kuchiga ega bo'ladi. She'rni o'qigan kishi o'z qalbini ana shu she'r tarjimasida ko'rganday bo'ladi.

Nazokatni qaydan olgan kapalak,
G'uvillab, nimadan so'ylaydi kaptar?
Nimaning tasviri, ayting, kamalak?
Sevgi deganlari yo'q bo'lsa agar.

Ne bois qizarib ketdi atirgul,
Nasimlar nelardan keltirdi xabar?
Kimning qiynog'ida to'lg'onar sunbul?
Sevgi deganlari yo'q bo'lsa agar.

...Ilon ham qovushar, garchi zahri bor,
Chayon o'z juftiga tutadi shakar.
Ko'ngilning yurakdan nima farqi bor –
Sevgi deganlari yo'q bo'lsa agar [1, 241-242-betlar].

Dunyoda tirik jon bor ekanki, u doimo bir-biriga intilib, bir-biridan kuch olib yashaydi. Biz buning lirik ifodasini yo'qoridagi she'r misolida kurishimiz mumkin. Shoirning tizgin savollari bir maromda qalbgaga kirib boradi. O'quvchi diliga otashin ishqning butun borlig'i va buyukligini olib kiradi. Tushunchalarini har xil obrazlarda gavdalandira olishi, shoir badiiy mahoratining o'ziga xosligidan darak beradi.

Muhabbatning naqadar ulug'vorligini, qadri baland tuyg'u ekanligini Iqbol Mirzoning turli xil shakllarda bitilgan boshqa she'rlaridan ham bilishimiz mumkin. Diliga og'u solayotgan tuyg'uning azoblaridan shoir qo'liga qalam olishga majbur. U ko'ngli buyurgan narsani satrlarga joylaydi. Aslida inson umri o'tgani va o'zini teran anglagani sayin, borlig'ini qamrab olgan ishq olovidan xalos bo'lmoqni istaydi. Shuningdek, qalbini hasratlardan bo'shatib, tinchroq yashashni istaydi, ammo

haqiqiy muhabbatiga yetolmagan inson baribir, u siz bir lahzasini tasavvur etolmaydi. U bilan hayotda bo‘lmasayam, xayolda birga yashashni orzu qilib yashaydi. Ana shu xayolidagi yor timsoli she‘rning lirik qahramoni bilan tillashadi, sirlashadi, bahslashadi.

Ruhiy evrilish holatlari qahramonlarning e‘tirofi, o‘z tilidan ko‘chgan iqror, inkor shakllarda ko‘proq uchraydi. Bu hol qahramonlar fe‘li-faoliyati orqali namoyon bo‘lgan ma‘naviy psixologiyasini yoritish vositasida yuzaga chiqadi. Adabiyotshunos Bahodir Sarimsoqov qayd etganidek: „Shoir e‘tiqodi, uning borlig‘i, suyanch tog‘lari – inson. Olam va odam taqdiri haqida qayg‘urish haqiqiy shoir qalbini junbushga keltirib turadigan darddir“ [4, 12-bet]. Iqbol Mirzoning qaysi bir she‘rini olib ko‘rmaylik, buning yanada boshqacharq ifodasini ko‘ramiz. Chunki anglagan tushunchalari, o‘zligini teranroq tushunishga olib boradi. Muhabbatning ilohiy qudratidan hayratlanadi, goh sevinadi, goh achchig‘i kelib, „qo‘l siltab“ ketgisi keladi. Biroq, dard uni bundan xalos bo‘lishiga, chekinishga imkon bermaydi. U yana „kuy to‘la zindon“ga, „atirguldand qafas“ga, „jon talashgan nafas“ga – muhabbatga qaytib yashaydi. Yana o‘sha mavzuga qo‘l uradi, orom olmoq istaydi. Bo‘lmaydi chog‘i. Sog‘inchlarini oppoq qog‘oz yuziga to‘kib solaveradi. „Qirqqa kirib ham seni unutilmadim“ deydi shoir boshqa bir o‘rinda. Demak, butunlay unutilishni istasa-da, ilojisiz, buning imkoni yo‘qligini his etadi, hech bir iloji yo‘qligini tushunadi va qalban anglay boshlaydi:

Istagim shu – qolsam edi shamol bo‘lib,
Boshginangda aylanardim savol bo‘lib.
Boshdan – oyoq gulbargiga o‘rar edim,
„Nega meni sevmading?“ deb so‘rar edim.

To‘yib nafas ololmayman ko‘ksim to‘lib,
Hech bo‘lmasa qolsam edi yomg‘ir bo‘lib.
Derazangga yuzlarimni urar edim.
„Nega meni sevmading?“ deb so‘rar edim [1, 318-bet].

Shoirning lirik qahramoni muhabbatga, ishqqa tashna. Shu sababli ham uning o‘z savoli bor. Mashuqasi uni sevib qolishi uchun shamol, yomg‘ir bo‘lmoqlikka-da tayyor. Mashuqasi bilan yuzlashmoqlik uchun shamol bo‘lib sevgilisini gulga o‘rashni, yomgir bo‘lib derazasiga urilmoqlikni istaydi. Bu lirik kechinmalarini poeziyaga olib kiradi va mukammal lirik asar yarata olganligini yo‘qoridagi she‘r misolida ko‘rishimiz mumkin. Iqbol Mirzoning aksariyat she‘rlarida misra, bayt takrori tez-tez uchrab turadi. Takrorlar eshituvchiga, o‘quvchiga tez yetib boradigan, yengil, aniq, ravon, musiqiy jozibador so‘zlar, misralar tanlanadi. Yuqorida keltirilgan she‘rning ham har bandning oxirida //„Nega meni sevmading?“ deb so‘rar edim// misrasining takrorlanib kelishi she‘rning ta‘sir kuchi, jozibasini yanada oshirishga xizmat qiladi. Har bir ijodkor tabiatni, jamiyatni va insonni o‘zicha anglaydi, badiiy idrok etadi. Badiiy so‘zning yangi-yangi ifoda imkoniyatlarini kashf etadi. Shu tariqa shoir o‘z-o‘zini qiynayotgan tuyg‘uning u bilan yor dardida yonayotganini tushunib, bilib yashaydi. Sevgi u uchun javobsiz savollardan iboratdek bo‘lib tuyuladi.

Muhabbat faslini ko‘rgan har bitta qalb biladiki, u sevgiga osonlikcha yetishgan emas. Buni hayot, muhabbat tarixidan, uning kuychisi adabiyot, she‘riyat tarixidan yaxshi bilamiz. Shuning uchun ham Iqbol Mirzoning „Sizni kuylayman“ turkumidagi har bitta she‘r hijron, ayriliq g‘amidan titragan, visol onlariga yetishish uchun ana shu g‘amgin umid, ishonch tuyg‘usi quvg‘iniga solgan qalbdagi muhabbatning jasorati sifatida qadrlidir. Ba‘zan tunlar bedor to‘lg‘onib chiqqan oshiqning ruhiy holati, betoqatlik bilan har bir sas, sadoni muhabbatning darakchisi bo‘larmikin, deya yurak yutib, quloq tutgan insonning qalb manzaralaridagi bezovtalik suvrati har bir kishining hislari, tuyg‘ulari, xayollariga g‘alayon solmay qo‘ymaydi. O‘quvchi lirik qahramon bilan birgalikda xayolan saboga iltijo qiladi. Lirik qahramon kayfiyatidagi, ruhiyatidagi tushkunlik holatini, qalbining intiqligi manzarasi ta‘sirchan chizilgan. Tasvirlarda har bir so‘z shunday sehrli qudrat kashf etadiki, o‘quvchi qalbi ana shu qudrat ta‘siriga tushadi. Ammo bundan qutulishni sira xayoliga keltirmaydi. Aksincha, uning bag‘rida olov bo‘lib yashaydi:

Hurkak xavotirda ko‘changdan o‘tdim,
Labimni tirs yorib, qiynab chanqog‘ing.
Havoni ho‘pladim, ho‘pladim o‘tni,
Shunchalar qiynimni suvga chiqmog‘ing?

Tundayam yuragim bir yomon kuydi,

Tongdayam tomog'im qaqrab uyg'ondim.
Men o'zi qanaqa olovni suydim –
Shunchalar qiyinmi suvga chiqmog'ing? [1, 178].

Shoir hijron azobini „chanqog'ing“ deb ta'riflaydi. Demakki, muhabbat dardiga muhtalo oshiq suvga tashna odam, hatto olayotgan nafasi ham o't, olov kabi. Bu kabi betakror va go'zal o'xshatishlar Iqbol Mirzo she'riyatning asosini tashkil qiladi, desak yanglishmagan bo'lamiz.

Ko'rinadiki, ushbu misralardagi lirik kechinmada oshiqning miskin iztiroblari mujassam. Bitta savol aylanadi uning telba xayolida. Har neki o'tgan, u to'liqib sevgan bo'lmasin, bir marotaba ko'rish, kuzatish orzusi diliga sira tinchlik bermaydi. Bunday iztiroblarda qolgan oshiqning iqror bo'lib, oxirida azoblarga to'lgan yuragini o'zi yupatgisi keladi va: „Bizning ko'chadan ham o'tib qolarsan!..“, deya hukm chiqaradi. Bu misralar bir qarashda oddiy, sodda ko'rinadi. Ularda hech qanday sehirlik, murakkablik yo'qdek. Lekin ular qalb ko'zi bilan o'qilsa, shu darajada ta'sirchanlik, shu darajada musiqiylik, sehirlik kashf etadiki, vujud beixtiyor ravishda munis, mehri, nafis, bokira hislar og'ushida qoladi. Bir vaqtlar qalbini larzaga solgan hislar, tuyg'ular qaytadan bosh ko'taradi. Oshiqning intiq, intizor, sog'inchlarga ko'milgan, hijrondan zada qalbining yoniq manzaralari yurakda o'zining tiniq suvratini qayta tiklaydi. Bu manzara yoshlikning, muhabbatning sirli olamiga yetaklaydi. Qisqasi, shoir qalbining sog'inch manzarasi, ruhiy olamining shunga mos holati o'quvchini sehirlaydi. Uning sehirlangan qalbi shoir hislari qanotida o'zining cheksiz tuyg'ular olamiga parvoz qiladi.

Iqbol Mirzo ijodida muhabbat lirikasi alohida o'rin egallaydi. Ilk mashqlarini muhabbat haqida yozishdan boshlagan shoir, bugungi kunga kelib, oshiq tilidan muhabbat talqinining o'ziga xos tasvirlarini chiroyli tashbehlarda, inson xarakteri qirralarini yorqin bo'yoqlarda aks ettira oladigan yetuk ijodkor sifatida shakllandi. Uning muhabbat mavzusidagi she'rlari bunga yorqin misoldir.

Adabiyotlar

1. Iqbol Mirzo. Sizni kuylayman, – Toshkent: Sharq, 2007, - B. 368.
2. Jamol Kamol. Lirik she'riyat. – Toshkent: G'.G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1986, - B. 142.
3. Izzat Sulton. Adabiyot nazariyasi. –Toshkent: O'qituvchi, 1980, - B. 360.
4. Sarimsoqov B. Muhabbatga fido she'riyat // O'zbek tili va adabiyoti. 1990. №2, 12-bet.
5. Umurov H. Adabiyot nazariyasi. – Toshkent: Sharq, 2002, - B. 207.
6. Yo'ldoshev Q. Yoniq so'z. –Toshkent: Yangi asr avlodi, 2006, - B. 548.
7. To'lakov I. She'r qalb yolqini. – Toshkent: G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1994, - B. 64.

UDK: 494.3

“BOBURNOMA”DA G'OLIBLIK VA MAG'LUBLIK TASVIRI

I. I. Sulaymonov

Samarqand davlat universiteti

E-mail: isroil-8103@mail.ru

Annotatsiya. Maqolada Boburning jang va kurash maydonlari tasvirida shaxslarning xarakteri, ichki olami, ruhiy-psixologik holatlari, ularning ruhiyatida sodir bo'ladigan o'zgarishlarni tavrirlashda muallif mahorati kabi msalalar g'oliblik va mag'lublik prizmasi orqali tahlil qilingan.

Kalt so'zlar: Bobur, muallif dunyoqarashi, Sulton Ibrohim, hind jangchilari tasviri, ruhiy holat, “g'oliblik” va “mag'lublik”.

Изображение победителя и проигравшего в «Бабурнаме»

Аннотация. В статье проведен анализ мировоззрения Бабура, его взглядов на общественно-политическую ситуацию того времени, мастерство поэта в использовании слов и выражений, его возможности раскрыть общественно-политическую обстановку того периода через психологию победителя и побежденного через призму его способностей в качестве историка, политика и беспристрастного эксперта.

Ключевые слова: Бабур, мировоззрение автора, Султан Ибрахим, психологическое состояние «победителя» и «побежденного».

Winner's and looser's image in "Baburname"

Abstract. In this article is given analysis of Babur's overview, his points on social-political situation of that time, being master of poet in using words and expressions, his abilities to reveal social-political situation of that time through psychology of winner and being winner by prisms of his abilities in terms of historician, politic and impartially expert.

Keywords: Babur, overview of autlor, Sultan Ibrakhim, Babur expert of his age, psychological condition of he«winner» and «being winner».

«Boburnoma»ning Hindiston tasviriga bag'ishlangan o'rinlarida, xususan, jang va kurash maydonlarining tasvirida Boburning xarakter xususiyatlari, ichki olami va ruhiy o'zgarishlarini ifodalovchi lavhalarga ko'p duch kelamiz. Muallif asarida bunday lahzalarni tasvirlashda beixtiyor tarixiy, esdalik asar uslubidan tabiiy ravishda chekinib, badiiy asar yaratayotgan adibga aylanib qolishini o'zi ham sezmagani ko'rinadi. G'oliblik sururi bo'lsin, Boburning lirik shoir, hayotni chindan sevuvchi, umri o'tkinchiligini va uni xush o'tkazishni qayta-qayta nazmiy asarlarida qayd etgan adib, bunda ham tasvirlarda o'zini erkin sezib, voqea-hodisalarni qalamga olishda uni badiiy ifodalashga harakat qiladi.

Tarixiy shaxslar – bek va a'yonlar, sarkardalar va oddiy askar tasvirida biz «Boburnoma» muallifining badiiy tasvirlarga boy satrlarini ko'ramizki, muallif bu paytda yaxshi kayfiyatda bo'lgan chog'ida, raqiblar ustidan g'olib kelib, g'oliblik nashidasi ta'siri ostida ifoda etilgan tasvirlarda bu hol yanada yaqqol ko'zga tashlanadi.

Boburning Hindistondagi g'alabasi unga shon-shuhrat keltirishi tabiiy hol edi, albatta. Bu g'oliblikni saqlab qolish uchun u shiddat bilan ish olib boradi, Hindistonni mayda rojalik va kichik feodallar davlatidan bir mustaqil, mustahkam davlatga aylantiradi.

Shu bois Hindistonning birinchi prezidenti Javoharlar' Neru o'zining «Hindistonning kashf etilishi» va «Jahon tarixiga bir nazar» asarlarida Boburning Hindiston tarixida tutgan o'rni haqida ancha ibratli so'zlarni yozib qoldirgan: «Bobur shu paytgacha o'tgan madaniyatli va jozibador insonlar orasida eng etuklaridan bir edi. U mazhabparastlik kabi cheklanishdan va mutassiblikdan yiroq edi» [1].

«Boburnoma»da uning hindistonlik raqiblarini o'ziga bo'ysundirish, mag'lubligini isbot etishining o'ziga xos badiiy tasviri berilgan. Bir o'rinda Bobur G'ozixon nomli hind lashkarboshisini tasvirlar ekan, uning ichki olami, ruhiyatida sodir bo'lgan o'zgarishni shu darajada badiiy ifodalaydiki, bu jarayon mag'lub G'ozixonning g'olib Bobur bilan muloqotida o'z aksini topgan. Bobur G'ozixonning ruhiyatida sodir bo'lgan o'zgarishlarni tasvirlash uchun munosib so'z va iboralarni tanlab ishlatadi: «Buyurdimkim, o'shal ikki qilichkim, bizning bila urushur uchun belga bog'lab edi, bo'ynig'a ostilar. Mundoq rustoyi va loda mardak bo'lg'aymukin, ishi bu erga etib, hanuz taallul qiladur. Ilgarrak kelturdilar. Buyurdumkim, qilichlarni bo'ynidin oldilar. Ko'rushur vaqt yukunmakta ta'xir qiladur. Buyurdumkim, oyog'ini tortib yukundurdilar. Ilgari o'lturg'uzub, bir hindustoniyl bilur kishiga buyurdimkim, bu so'zlarni biror-biror anga xotir nishon qila aytkil. ...O'zungni va o'g'lonlaringni, balujlarning darbadarliklaridin qutqordim. Xaylxonalarigiz va haramlaringizni Ibrohimning bandixonasidin xalos qildim. Uch karo'r Tatarxonning viloyatini sanga inoyat qildim. Sening haqqingda yomon bordimmukim, to'shung bila belingga ikki qilich bog'lab, cherik tortib, bizning viloyatlarning ustiga kelib, mundoq sho'r va fitna solursen. Qari mabhut mardak bir-ikki so'z og'zida-o'q puypadi, so'zlay olmadi, muqobalada ham demay mundoq muskat so'zlarga ne deya ham olg'ay edi» [2].

Yuqoridagi matnda Bobur bo'layotgan suhbatning ta'sirini oshirish uchun G'ozixonning ruhiy holatini tasvirlashda, badiiy sayqal berishda uning ruhiy holatidagi o'zgarishga e'tibor qaratib, «qari mabhut mardak bir-ikki so'z og'zida-o'q puypadi, so'zlay olmadi, muqobalada ham demay mundoq muskat so'zlarga ne deya ham olg'ay edi», deydi. Bunda Boburning so'z tanlashiga qoyil qolish kerak. U G'ozixonga aytgan ta'sirli, kishiga qattiq tegadigan so'zlarni «muskat» so'zi bilan umumiy tarzda ifodalaydiki, bu so'z achchiq, hazm qilib bo'lmaydigan ma'nosida kelib, mag'lub G'ozixonning o'sha paytdagi holati, ruhiyati va nochor ahvolda qolganligini ifodalab kelgan, ayni paytda Boburning so'z tanlash mahorati, uni o'rnida ishlata bilishidan ham darak beradi.

Bobur Hindiston sultoni Ibrohim Lo'diy bilan jangga kirishar ekan, Panipat shahri uchun bo'lgan urush oldidan ancha hayajonga tushganligi, noma'lum shahar, joy o'zi ta'kidlaganidek, «vatandin ikki-uch oychilik yo'l kelilib edi. G'arib qavme bila elning ishi tushib edi. Ne biz alarni tillarini bilur edik, ne alar bizning tilimizni» bois ma'lum darajada vahimaga tushadi. Shunda ham Boburning jasurligi, vazminlik bilan bir qarorga kelishi va sharoitni ob'ektiv baholay olishi qo'l kelib, vaziyatni o'nglab oladi. Ana shu lahzada ham g'olib Boburning shiddati, uning fikr mantiqi, juda qisqa muddatda o'zini tutib olishiga, ruhiy holatida o'zgarish sodir bo'lsa ham atrofdagilarga sezdirmasdan, to'g'ri qarorga kelishiga sabab bo'ladi. Aslida bu «g'arib qavme» bilan bir marta ham muomala qilishga to'g'ri kelmasdan, bundan keyin ular bilan bir muhitda yashashga majburligimuammosi Boburning ko'ngliga g'ulg'ula solsa-da, mag'rur holda shunday xulosaga keladi: «Cherik eli ba'zi xeyle mutaraddid va mutavahhim edilar. Taraddud va tavahhum betaqribdur. Nekim azalda Tengri taqdir qilibtur, andin o'zga bo'lmas. Agarchi alarni ham ayb qilib bo'lmas, haq alar jonibi edi. Ne uchunkim, vatandin ikki-uch oychiliq yo'l kelilib edi. G'arib qavme bila elning ishi tushub edi. Ne biz alarning tillarini bilur eduk, ne alar bizning tilimizni» [3].

«Boburnoma»da g'olib Bobur bilan mag'lub Ibrohim Lo'diyning yakkama-yakka uchrashuvi jang maydonida bo'lib o'tadi, bu lashkarboshilar faqat bir marta kurash maydonida o'zaro yuzma-yuz duch keladilar. Bobur Ibrohim Lo'diyning ruhiy holatini juda jonli, hayotiy tasvirini beradi. Bunda mag'lubligini his etgan Hind sultoni jang maydonida Boburningqorasi ko'rinishi bilanoq, unda sarosimalik boshlanadi, o'z harakatini nazorat qilolmay qoladi. Ibrohimning bunday holatini badiiy tasvirlagan muallif jang maydonidagi g'olib Bobur va mag'lublikni his etayotgan Ibrohimning ichki olamini juda jonli tasvirini bera olgan: «Sulton Ibrohimning qorasi yiroqtinkim, ko'rundi, hech erda darang qilmay, tez-o'q keladur edi. Ilgarrak kela bizning qoramizkim, alarg'a ko'rundi, bu tartib va yasolnikim, mulohaza qildilar, hasr bo'lub, turay-turmay, kelay-kelmay degandek qilib, ne tura oldi, ne burung'idek bedarang kela oldi» [4].

Boburning yuqoridgi tasviriga e'tibor bersak, Sulton Ibrohimning jang maydonidagi bu harakati muallif tomonidan shunchalik jonli ifodasini topganki, «Boburnoma»dagi shunga o'xshash tasvirlarasarni tarixiy asardan ko'ra ko'proq badiiy asar sirasiga kiritishga asos bo'ladi. Ibrohim Lo'diy ruhiy holatida Boburning jang maydonida qorasi ko'ringunga qadar bo'lgan paytdan uning nazari tushishi bilan shunchalik tez o'zgarish sodir bo'ladiki, bu o'zgarish Bobur shuhratini eshitganu uning o'zini ko'rmagan Hind lashkarboshisi uchun dahshat bo'lib ko'rinadi. Ibrohim Lo'diyning bu sarosimali harakatida biz g'olib Boburning shiddati, o'z raqibiga nisbatan ustun kelgan, jang maydonini boshqarib turuvchi g'olib sarkardani ko'ramiz. Boburning «Sulton Ibrohimning qorasi yiroqtinkim, ko'rundi, hech erda darang qilmay, tez-o'q keladur edi», «bizning qoramizkim, alarg'a ko'rundi», «turay-turmay, kelay-kelmay degandek qilib», «ne tura oldi», «ne burung'idek bedarang kela oldi», degan jumllarida nihoyatda hayotiy tasvir o'z aksini topgan. Bu tasvirda Sulton Ibrohimning xayolidan nima o'tganligi Boburga ma'lum emasku, ammo bu harakat orqali u raqibining avval bezovta bo'lgani, keyinroq esa, voqiea shiddatli tus olib, dinamizm oshgan sari Hind lashkarboshisining harakatida sarosimalik, jang maydonini aniq tasavvur qila olmaslik, raqibi Boburning vahimasi bosganligini «Boburnoma»ning zukko o'quvchisi teran anglay oladi. Chunki, Sulton Ibrohimharakatidagi bu o'zgarishlar, tashvish va iztirobli holatlar muallif tomonidan yuksak badiiyat bilan ifodalagan.

«Boburnoma»da muallifning Ibrohim Lo'diy ustidan g'alaba qozongandan keyingi faxriya tarzida bayon qilingan «ichki nutqi» mavjud bo'lib, unda g'olib Boburning bu yurtida qo'lga kiritgan yutuqlari, kurashlar natijasida chekkan azoblari, bu zahmatlar evaziga qo'lga kiritgan mulklari, shon-sharafi va g'oliblikdan shodlanib, bildirgan ichki nidosi quyidagicha beriladi: «... Bhiradin Biharg'acha afg'on tasarrufida edi, podshohi Sulton Ibrohim edi. Viloyat hisobi bila besh lak cheriki bo'lmoq kerak edi. Ul fursatta yurub, umarosi muxolafat maqomida edilar. ...Sulton Ibrohimdek qalin cheriklik va vase' mulkluk podshoh bila ro'baro' bo'lduk. Tavakkulimizga yarasha Tengri taolo ranj va mashaqqatimizni zoyi' qilmay, mundoq zo'r g'animni **mag'lub** qilib, Hindustondek keng mamlakatni maftuh ayladi. Bu davlatni o'zumizning zo'r va quvvatidin ko'rmasbiz, balki Tengrining mahzi lutf va shafqatidindur va bu saodatni o'zumuzning sa'y va himmatidin bilmasbiz, balki Tengrining ayni karam va inoyatidindur» [5].

Bu o'rinda, garchi Bobur kamtarlik bilan, komil musulmon sifatida barcha g'alabalarining bosh sababchisi Olloh ekanligini qayta-qayta takrorlasa ham, agar uning o'zida bu g'oliblikka azm bo'lmasa, shijoat va g'ayrat bo'lmasa, murodiga etishi mushkil edi. Boburning bu nidosini biz aslicha

qabul qilib, uning qalbida Oллоhga bo'lgan yuksak e'tiqod mustahkam o'rnamshgani, birzum bo'lsa ham aslo kam bo'lmaganligi, o'zining muvaffaqiyatlarini ana shu e'tiqod tufayli ishonch va sadoqat bilan izhor qilganligi ham unga maqsadiga ershish baxtini nasib etgan edi.

«Boburnoma»da hind askarlarining orasida Bobur tomonidan tasvirlangan haqiqiy fidoiylar ham borki, ular o'z mamlakatlari, yurtlarini Bobur lashkarlaridan mardonavor himoya qilganlar. Shu bilan birga, Bobur lashkarlari orasida vahimaga tushish, dushman harbiy kuchini aslidan ko'p, deb gap tarqatadiganlar ham bo'lgan. Bobur bu kabi jangchilariga nisbatan shafqatsiz munosabatda bo'lgan, ularni jang maydonida ruhiy tetikligini saqlash, dushman hiylasiga berilmaslik borasida jiddiy ish olib borgan: «Qarovulliqqa borg'onlar xabar etkura olmaslar, balki qo'rg'ong'a ham kira olmaslar. Qo'rg'on eli qo'rg'ondin yiroqroq va besurfaroq chiqarlar. Yog'iy zo'rroq kelib, bularni durbatur. Sangarxon janjuha anda shahid bo'ldi. Bu g'avg'oda Kattabek jibasiz-o'q chopib chiqar. Bir kofirni yayoqlatib olur mahalda Kattabekning bir navkarining qilichini olib, Kattabekning kitfig'a-o'q chopar. G'alaba tashvishlar tortti. Raana Sangaaning g'azosid kela olmadi. Necha mahaldin so'ng yaxshiroq bo'ldi. Vale ma'yubroq bo'lubtur. Qismtoy va Shoh Mansur barlos va har kimki, Bayanadin keldi, bilmon qo'rqqonlarimu edi, yo elni qo'rqtqonlarimu edi: Kofirning cherikini jald va jarrorliq bila asru ko'p sitoyish va ta'rif qildilar» [6].

Bunda Bobur lashkarlarining ruhiy holatiga alohida e'tibor berib, bu tushkunlikni bartaraf etish uchun kurashganini bayon etish bilan birga, lashkarning ichki dunyosi, ruhiy kechinmalari haqida ham ma'lumot bermoqda. Albatta, Boburning o'zi ta'kidlaganidek, lashkariga ham oson emasdi. Begona yurt, nomuvofiq ob-havo, begona til kishilarining ruhiy holatiga ta'sir etmasdan qolmasdi. Shunga qaramasdan, Boburning rostbayonligi ustun kelib muxolifat askarining payt poylab, «Kattabekning bir navkarining qilichini olib» Boburning bir layoqatli bekiga zarba berishi, hatto uni «g'azo» kabi o'sha davrda juda muhim bo'lgan jangdan quruq qoldirganini tasvirini bergan muallif asarida realistik tasvirga keng o'rin bergan, mazkur voqeaga badiiy tus berib, raqib askari shijoatini ko'rsatgan bo'lsa, ikkinchi tomondan asarning shu o'rnida lashkarlarining dushman qo'shinlarini aslidan ko'p deb gap tarqatgan, lashkar orasiga tahluka solishga harakat qilgan o'z safdoshlarining kamchiligini ham ochib beradiki, bu muallifning asarda rostbayonlikni shior qilishining yana bir namunasidir.

Boburning Hindistondagi faoliyatida, asosan uning g'oliblik davri ko'zga tashlanadi. Amir Temur tasarrufiga kirgan erlarga egalik qilish, buyuk bobosi saltanatini bor bo'y-basti bilan qaytadan tiklash asl maqsadi bo'lgan Bobur, butun harbiy salohiyatini ana shu maqsadga sarflaydi, bu yo'lida to'g'anoq bo'lgan raqiblariga, hatto temuriy shahzodalarga qarshi ayovsiz kurash olib borishiga ham to'g'ri keladi. Hindistonda Chanderiy viloyati uchun olib borilgan jangning tasviri «Boburnoma»dagi eng jonli, realistik lahzalardan iborat bo'lib, unda muallif yuksak badiiy mahoratini namoyon etgan. Bu tasvir, eng avvalo, hind xalqining o'z Vataniga bo'lgan muhabbati, unga sodiqligi, ushbu yo'lda hech narsadan qaytmasligi kabi jihatlarini yuksak badiiyat bilan tasvirlab bergan. Ikkinchi tomondan, bunday epizodlar asarda anchagina bo'lib, Boburning tarixiy voqealarni qanday bo'lsa boricha aks ettirish, ahd qilgan rostbayonligiga sodiq qolish, agarda bunday tasvirlar uning jang maydonidagi harakatlarining g'oyasiga ma'lum darajada zid bo'lsa ham, dushmanlarining ruhiy tetikligi, tug'ilgan yurtiga muhabbati bois Bobur lashkarlariga asir tushgandan ko'ra o'limni afzal ko'rishlarini hayotiy tasvirlab berishi katta jasorat sirasiga kiradi. Bunday lahzalar «Boburnoma»ning shuhratin yanada oshirgan, muallifning badiiy mahoratini yaqqol ko'rsatib bergan.

Bunda Bobur raqib tomoni bo'lgan hindlarning ruhiy holati, jang maydonida murakkab sharoitda ham o'zlarini tuta bilishlari, o'limga mardonavor borishlari, o'zlari emas, xotinlari, farzandlarini ham g'olib Bobur lashkarlariga asir tushishidan ixtiyoriy o'limni afzal ko'rganliklari juda jonli, hayotiy ifodasini topgan. Ushbu satrlar g'olib Boburning shu lahzadagi g'alabasini ko'rsatsa ham, ma'naviy g'oliblik hind xalqi tomonida ekanligini, hind xalqi uchun begona yurtlarga kirib kelgan lashkarlarga munosabatini bildirgan. Ikkinchi tomoni, Boburning bu tasviri go'yo tarixiy asarni emas, yuksak badiiy nasr namunasini ko'z o'ngimizda gavdalandiradi. Muallif hind lashkarlarining ruhiy holatini, o'limga tik boqib, uni qahramonlarcha qabul qilib, ruhiyatlarida hech qanday o'zgarish zohir bo'lmaganini «oldururlarini jazm qilib, xotunlarini tamom chopqulab, o'lturub, o'zlariga o'lumni ko'rub, yalang'och bo'lub, urushqa kirmishlar», degan jumlar orqali tasvirlaydi. Matndagi «oldururlarini jazm qilib, xotunlarini chopqulab, o'lturub, o'zlariga o'lumni ko'rub, «yalang'och bo'lub, urushqa kirmishlar», «ushbu havolida aksar bir-birlarini o'lturubtur», «aksar bu dastur bila do'zaxqa bordi», kabi jumlalarda esa hind lashkarining ruhiy holati, ichki kechinmalari

o'ta hayotiy ifodasini topgan: «Andak fursattin so'ngra kofirlar tamom yalang'och bo'lub kelib, urusha kirishtilar. G'alaba elni qochurub, fasildin uchurdilar. Bir necha kishini chopqulab, zoyi' qildilar. Fasilning ustidin bot borg'onlarining jihati bu ekindurkim, oldururlarini jazm qilib, xotunlarini tamom chopqulab, o'lturtub, o'zlariga o'lumni ko'rub, yalang'och bo'lub, urushqa kelmishlar. Oxir to'sh-to'shdin zo'r qilib, fasil ustidin qochurdilar. Ikki yuz-uch yuz kofir Mediniy Ravning havolisig'a kirdi. Ushbu havolida aksar bir-birlarini o'lturubtur. Andoqkim, birisi bir qilichni olib turubtur, o'zgalari birar-birar rag'bat bila bo'yunlarini uzotib turubtur. Aksar bu dastur bila do'zaxqa bordi».

Bobur yuqoridagi matnda hind lashkari bilan sodir bo'lgan, kishi tasavvur qilishi mushkil ruhiy holatni keltiradi. Bunda adib hind lashkarining ruhiy holatini yuksak darajada tabiiy, hayotiy tasvirlab beradiki, unda vatan himoyasi yo'lida jonini ham ayamaydigan kishilarning umulashma obrazi yaratilgan. Mantiqan qaraganda, o'limga jon-jahdi bilan tik boruvchi shaxs bo'lmasa kerak. Bobur hindlarning vatanparvarligini ko'rsatish uchun ularning «rag'bat» bilan o'limni qarshi olishlarini tasvirlamoqda. Bu so'z hindlarning ichki olami, o'limni pisand qilmasligi, ruhiy holatida sodir bo'lgan bu o'zgarishlarni taqdiri azalning hukmi sifatida qabul qilganligini so'z ta'siri orqali ifodalaganki, uning badiiy mahoratidan darak beradi: «Aksar bir-birlarni o'lturubtur. Andoqkim, birisi bir qilichni olib turubtur, o'zgalari birar-birar rag'bat bila bo'yunlarini uzotib turubtur», «oldururlarini jazm qilib, xotunlarini chopqulab, o'lturub, o'zlariga o'lumni ko'rub, yalang'och bo'lub, urushqa kirmishlar», jumllarida Bobur gapda qator kelgan so'zlar orqali so'z mantiqini kuchaytirmoqda. Har bir so'z oldin kelgan so'zning ta'sir kuchini oshirib, bu urush dahshatini o'quvchiga real hayotda sodir bo'lganidek ta'sirli va ishonarli ifodalab bermoqda.

Xulosa qilib aytganda, «Ona yeridan ta'qib ostida ajrab, Hind yerida qo'nim topgan Bobur ijodiga ko'chgan ruhiy kechinmalarida davrning beshafqat qonunlari o'z kuchida qolaverdi. Balki xuddi shu sabablardanidir, Bobur boshida toji, ostida taxti bo'la turib «noraso dunyo», adolatsiz «taqdiri azal»ning nayranglariyu jamiyatning noshudliklariga befarq qarolmay, u ham hamma taraqqiyparvar ijodkorlar singari o'z zamoniga sig'madi».

Adabiyotlar

1. Захириддин Мухаммад Бобур. Бобурнома. Нашрга тайёрловчи С.Ҳасанов. Тошкент. Шарқ. 2002. – 335.
2. Захириддин Мухаммад Бобур энциклопедияси. Тошкент.: Шарқ. 2014. – 744.
3. Мухаммад Ҳайдар Мирзо. Тарихи Рашидий. Ваҳоб Раҳмонов ва Янглиш Эгамова таржимаси. Шарқ нашриёт-матбаа Бош таҳририяти. Тошкент, 2010.
4. Низомиддинов Н.Ф. Буюк бобурийлар тарихи (XVI-XIX аср). Монография. Тошкент.: Fan va texnologiya, 2012 йил. – 516.
5. Қаюмов А. Асарлар. 5-жилд. Захириддин Мухаммад Бобур ижодиёти. Т.: Мумтоз сўз, 2009. – 303 б.

UDK: 894.3

“QORA DASTOR TO CHIRMADI MOHIM...”

G. Rahimova

Samarqand davlat universiteti

Annotatsiya: Ushbu maqolada Alisher Navoiy shaxsiyati bilan bog'liq bo'lgan masalalar haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: dastor, dud, ashk, azo, nujum.

“Окутала мою луну”

Аннотация: В этой статье обсуждена вопросы, связанные с личности Алишера Наваи

Ключевые слова: тюрбан, дым, слезы глаз траура, звезда.

“The theme enveloped my moon”

Abstract. in this discussion bellow some information about personality of Alisher Navai

Keywords: bacon, smoke, eye tears, mourning, star.

Hazrat Alisher Navoiy she'riyatining mavzu ko'lami keng. Unda asrlar osha kuylanib kelinayotgan ishq-muhabbat, vafo-sadoqatdan tortib, tabiat, jamiyat va ijtimoiy hayot masalalarigacha o'zining badiiy, falsafiy ifodasini topgan. Ana shunday keng qamrovli mavzulardan yana biri, ta'bir joiz bo'lsa, insonparvarlik-odamiylik mavzusi deyishimiz mumkin. Navoiy ijodida bu mavzuning alohida o'rin egallaganligi tahsinga sazovordir. U nafaqat badiiy ijodda, balki o'z amaliy faoliyatida ham yuksak insonparvarlikka sodiq qolgan ma'nan yetuk shaxs bo'lganligi shubhasiz. Shoirning "Favoyid ul-kibar" devoniga kiritilgan quyidagi g'azal fikrimizning isbotidir.

Qora dastor to chirmadi mohim,

Boshimg'a chirmashibtur dudi ohim.

G'azal matla'sining birinchi misrasini o'qigan kitobxon ko'z oldida azador kimsaning tashqi qiyofasi gavdalanadi. Uning ichki kechinmalari esa ikkinchi misradagi kishining iztiroblari tasvirida bayon qilinadi. Navoiy badiyatining yuksakligi va ta'sirchanligi ikki lirik qahramonning ichki va tashqi holatlarini tasvirlashda tabiat hodisalaridan mohirlik bilan foydalanganligidadir.

"Moh" so'zining lug'aviy ma'nosi oy, ya'ni jism. Mumtoz adabiyotda oy ko'pincha ma'shuqaga nisbatan ishlatilgan. Mazkur baytda esa lirik qahramon uchun nihoyatda qadri bo'lgan yaqin kishisi nazarda tutilmoqda. Qora rangdagi sallaning qatlam-qatlam qilib o'ralishi oying atrofini qoplagan qop-qora tunga qiyos. Yaqin kishisining bunday ahvoliga achinayotgan ikkinchi lirik qahramon qalbidan chiqayotgan o'tli oh xuddi tutab osmonga buralib-buralib ko'tarilayotgan qora tutundir.

Yog'ibtur nargis ichra jola yoxud

Ko'zida ashk erur bor ishtibohim.

Achchiq-achchiq yosh to'kayotgan ko'zning horg'inligi kuchli yomg'ir ostida qolgan bo'tako'z guli barglarining bukchayib so'lib qolgan holatiga monand. Negaki, ayriliq iztirobining ifodasi bo'lgan lirik qahramon ko'z yoshining do'lday yog'ilayotgani xuddi bo'tako'z gulidan oqib tushayotgan tomchilardir. Shoirning aynan nargis, ya'ni bo'tako'z gulini o'xshatilmish sifatida tanlaganligining boisi bu gul shaklan inson ko'ziga qiyoslanadi.

Anga hamrang o'lay, deb motamimen,

Qorarg'an ro'zgorim bor guvohim.

Hamranglik azador singari bir xil motam libosini kiyish. Bu tashqi ko'rinishning uyg'unligi zamirida ichki dard va alamning hamohangligi o'z ifodasini topgan. Chunki judolik azobi boshiga tushgan kimsaning yonida turish, uning dardini bo'lishish, g'amiga sherik bo'lish bu chin ma'nodagi iymonli insonlarga xos bo'lgan odamiylik fazilatining ifodasidir.

Darhaqiqat, Navoiy ijodida insonparvarlik alohida ahamiyat kasb etadi. Shoirning nazdida vatanga, xalqqa, insonlarga sadoqat eng avval uning taqdiri ustida g'amxo'rlikdan iboratdir. Insonga nisbatan beparvolik, uning taqdiri va baxtu saodati ustida g'am emaslik sharafli inson uchun tamomila yotdir. Navoiy hazratlari deyarli barcha asarlarida insonparvarlikni kuylagan, har bir asarida barchani bir-birlariga g'amxo'r bo'lishga chaqirgan.

Sirishkim xatlari sharhini so'rdum,

Dedi, xayli balog'a shohrohim.

Eng og'ir dard – bu judolik dardi. Bu dardni boshidan kechirayotgan kimsa o'z istiroblarini yashirib, ko'z yoshlarini tiya oladi-mi? Yo'q, albatta. Lirik qahramon ko'z yoshining xat kabi tizilib-tizilib, ya'ni quyilib oqishining sababi ham ana shu hamdardlik tuyg'usining ifodasidir.

Manga xud bu azo bo'ldi bahona,

Mudom oqmoqqa ashki goh-gohim.

Ayriliq g'ami tezda unitiladigan dard emas. Bu inson-yuragini pora-pora qiladigan, o'rtab yondiradigan, kuydirib kul qiladigan og'ir dard, alamdir. Bunday paytlarda har bir inson ichini kemirayotgan o'tli fig'onini achchiq ko'z yoshlari bilan to'kib soladi.

Yema bozi nujumi tiyradinkim,

Erur qalb uylakim, ro'kash darohim.

Nujum - yulduzlar to'dasi, tiyra – qorong'ulik, ya'ni, qop-qora osmon uzra porlayotgan yulduzlar tizimidir. Tabiatning ushbu doimiylik hodisasi baytda oniy lahzalik kechinma va kayfiyatning badiiy ifodasi sifatida xizmat qilmoqda. Qorong'u osmon - g'am-g'ussaga burkangan qalb bo'lsa, yulduzlar ko'z yoshi. Bozi - tasavvufda hamma narsadan voz kechib o'zini dard-u kulfat girdobiga solish demakdir.

Ko'zumdur tiyra, ya'ni, ey Navoiy,

Qora to'n kiydi motam ichra shohim.

Shoirning maqta'dagi ko'z oldim qorang'ulashdi, ko'nglim xira bo'ldi, g'amga botdim, chunki shohim qora libosda edi, degan e'tirofi va o'z-o'ziga murojaatidan anglashilishicha, g'azalda aks etgan voqea lirik qahramonning shunchaki his-tuyg'ulari bayoni emas. Bu kechinmalar o'z-o'zidan tug'ilmaydi va o'z-o'zidan qog'ozga tushmaydi. G'azalda tavsif etilgan, ikki do'stning birday aza tutishiga sabab bo'lgan voqea, nazarimizda, Husayn Boyqaroning nabirasi Mo'min Mirzoning bevaqt vafoti tafsilotidir.

Adabiyotlar

1. Алишер Навоий. Фавойид ул-кибар: Мукаммал асарлар тўплами. 20 томлик. 6 том. – Т.: “Фан”, 1990. -257-б.

UDK: 44:415

SEYSHEL - KREOL VA FRANSUZ TILLARINI QIYOSLAB URGANISH JARAYONIDA ANIQLANGAN GRAMMATIK HODISALAR HAQIDA INTERPRETATSIYA

M.M. Yo'ldoshev, U.Q. Bozorova

Samarqand davlat universiteti

Annotatsiya. Kreol tillari bir biridan minglab kilometr uzoqda joylashgan Fransiyaga tobe orollarda yashovchi qabilalarning tili bo'lib, fransuz tili asosida yuzaga kelgan va kreol tillari deb atalgan. Bu tillar haqida o'zbek tilshunoslari to'liq ma'lumotga ega emas. Mualliflar shu tillar guruhiga kiruvchi Seyshel-kreol tilidagi matnni fransuzcha tarjimasini orqali seyshel-kreol tilining fonetikasidagi ba'zi bir tovushlarning farqini tahlil qilishga harakat qilishganlar.

Kalit so'zlar: Seyshel, Kreol, burunlashgan tovushlar, tutash artikllar, grammatik hodisalar

Интерпретация о грамматических событиях, определенных в процессе сравнительного изучения сейшельско-креольского и французского языков

Аннотация. Креольский язык - это язык людей Дрибе, живущих в колониальных островах, далеких от Франции, он исходит из языка и называется креольским языком. В узбекской лингвистике нет никакой информации об этих языках. Авторы попытались проанализировать разницу некоторых звуков в фонетике языков Сейшель-Креоля через французский перевод текста на языке seyshel-creole в этих языковых группах.

Ключевые слова: Сейшель, креольский, носовые звуки, связанные статьи, грамматические события.

Interpretation about grammatical events defined in the process of comparative study of Seyshel-Creole and French languages

Abstract. The Creole language is the language of Dribe people living in colonial islands far from France, it came from the language and is called creole language. There is no any information about these languages in Uzbek linguistics. Authors tried to analyse the difference of some sounds in phonetics of Seyshel-Creole languages through French translation of text in seyshel-creole language in these language groups.

Keywords: Seyshel, Creole, nosed sounds, linked articles, grammatc events.

Seyshel orollari 1502-yilda Vaska da Gama tomonidan kashf qilingan. 1742-yilda fransiyaning II-de-frans orolining gubernatori Fransua Mae de Lyaburdone bu orollarda bir necha yil ekspeditsiya ishlari olib borgan. Oradan o'n to'rt yil o'tgandan so'ng 1756 yilda Fransiyalik harbiy xizmatchi kapitan L. Piko bu orollarni fransiyaning mulki deb e'lon qildi va bu orollarni fransiyaning moliya vaziri Moro de Seyshel nomi bilan Seyshel orollari deb nomladi va fransuz tili davlat tili deb e'lon qilindi. Natijada fransuz tili bilan mahalliy tillarning qo'shilishi asosida Seyshel-kreol tili shakllandi va bu til Seysheldagi bir nechta orollarning rasmiy tiliga aylandi. Hozirgi kunda bu tilda 72700 aholi gaplashadi.

Seyshel-kreol tilida lotin alifbosining 21 “a, b, d, e, f, g, i, k, l, m, n, o, p, r, s, t, u, v, w, y, z” harflari ishlatiladi. Qolgan “c, h, j, x, q” harflar umuman qo'llanilmaydi. “o, u” harflari harf birikmasi shaklida ham o+u=[u] qo'llaniladi, u- harfi “u” deb Pul, w- harfi yarim unli “v” xuddi fransuz tilidagi moi [mwa] deb o'qiladi, a, e, o, u- harflari ustiga burunlashganligini ifodalovchi belgi qo'yilgan to'rtta

burun tovushlari ham mavjud “ã, ê, ô, û”: dā, malĕ, kōsa, Sūgula. G- harfi “g” deb [g] :get [get], j va u- harlari “y” deb o’qiladi: parej, š- harfi “sh” deb o’qiladi šyĕ, xuddi fransuz tilidagi chien kabi, d- harfi “dj” deb o’qiladi: bōde [bò'dje], ț- harfi “tsh” deb o’qiladi: lațo [la'tfo], s-harfi fransuz tilidan farqli ikki unli o’rtasida ham “s” deb o’qiladi, z-harfi xuddi fransuz tilidagi kabi “z” deb o’qiladi. zéro. é, ó unli tovushlar ustidagi diakrit belgi fransuz tilidagi kabi yopiq, è, ò bu diakrit belgi esa ochiq tallafuzni ifodalaydi.

Seyshel-kreol va fransuz tillaridagi matnni tahliliga o’tamiz: Seyshil- kreol tilidagi matnni fransuz tilidagi tarjimasini bilan qiyoslab, quyidagi xulosaga keldik: Seyshel- kreol tilida fransuz tilidagi [y ø œ] kabi til oldi lablashgan unli tovushlar yo’q. Masalan: Seyshel- kreol tilida dezene [dezene] fransuz tilida déjeuner [dejøne], pli fransuz tilida plut, li fransuz tilida lui. Seyshel- kreol tilida fransuz tilidagi j tovushi o’rniga z tovushi qo’llaniladi: Seyshel- kreol tilida zur fransuz tilida jour, Seyshel- kreol tilidagi **ti** yuklamasi fe’ldan oldin qo’llanilib xarakatni o’tgan zamonga tobe ekanligini ifodalagan. Seyshel- kreol tilida **ti** ana fransuz tilida il y avait. Shuningdek, matnda fe’ldan oldin **in** yuklamasi ham qo’llanilib, harakatni tugallanganligini ifodalagan: **in al** fransuz tilida il est allé,

a yuklamasi esa xarakatni kelasi zamonga tobe ekanligini ifodalagan: Seyshel- kreol tilida **u a mor** fransuz tilida vous allez mourir.

Seyshel- kreol tilining o’ziga xos xususiyalaridan yana biri shundaki, gapda ega ot bilan ifodalangan bo’lsa, otdan keyin hamisha kishilik olmoshi qo’llanilgan: Kok i dir avek sō madam-xo’roz, u o’zining xonimiga dedi, fransuz tilida Cok dit à sa femme.

Fransuz tilidagi artikl va tutash artikllar Seyshel- kreol tilida o’zlarining grammatik funksiyalarini yo’qotib, so’z yasovchi qo’shimchalar kabi ot bilan qo’shib ketgan: laparol fransuz tilida la parol, dilo fransuzcha de l’eau, disā fransuzcha du sang, zepol fransuz tilida les epaules. Masalan: va shu kabi grammatik xodisalarni quyidagi misolda ham ko’rish mumkin.

Nou tou bezwen travy ansanm pou kree nou **lavenir**.

Nouz avons tous besoin de travayr ensanmble pour créer notr **avenir**.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, kreol tilidagi matinni fransuz tilidagi tarjimasini qiyoslab, shunday xulosa qilish mumkin, fonetika sohasida fransuz tilidagi xarflar kreol tilde qisman farq qilish mumkin (š, ț), qolgan xarflar qariyib o’xhash. Morfologiya sohasida fransuz tilidagi aniq va tutash artikllar kreol tilida o’zidan keying so’zga qo’shib so’z yasovchi qo’shimchaga aylangan. Sintaksisda esa gapda ega ot bilan ifidalangan bo’lsa, ot bilan ifidalangan egadan keyin hamisha kishilik olmoshi qo’llanilgan.

Aytilgan xulosalar quyidagi matnlar asosida tahlil qilingan:

Sūgula *avek Kōper* Kok

Ē zur ti ana ê kok bjĕ malĕ-bug. I ti reste pre ek lakaz Sūgula. Ē zur i ti ěvit

Sūgula pu vin dezene avek li. Kok i **dir**

avek sō madam, Pul: «Ler Sūgula i vini, dir li mō ra la. Mo latet in al lapes, mō lekor i derjer lakwizin».

Ler Sūgula i arive, i dir: «Bōzur, bōzur, kōper Kok! » Madam Pul i repon:

«Kok pa la, sō latet in al lapes, sō lekor i derjer lakwizin». Ler Sūgula i al get

Kok, i war zis sō lekor derjer lakwizin. Sūgula i bjĕ krwar; 'sa 1er la Kok in

zis met sō latet āba sō lezel. Ē ti ku apre, Sūgula i ātan: Kokoriko! Kōper

Kok in arive! »

Alor zot dezen bjĕ trakil.

Aprezā Sūgula osi pu al fer parej. I ěvit Kok pu vin dezen avek li dimās prosĕ

Sūgula i dir avek sō madam: «Ler Kok i vini, kup mō liku; zet mō latet dā dilo

sale; prā mō lekor, met derjer lakwizin.» Sō madam pa ti ule kupe, i dir avek Sūgula:

«U a mor». Sūgula i dir: «Nō, kupe, kōper Kok osi ti fer parej lot zur».

Madam Sūgula i bjĕ bizwĕ prā sō grā kuto, met liku Sūgula lo ě bijo... tok!

Pov Sūgula i débat dā so disā. Alor, kā Kok i arive, i demāde: «Oli Sugula?»

Madam Sūgula i rakōt li tu sa ki Sūgula in dir li fer. Alor Kok i dir: «Me Madam,

Sūgula i'n mor! Me mō pa ti fer kom sa.

Mō pa ti kup mō latet; mō ti met mō latet āba mo lezel».

Pov Sūgula...

Soungoula et Compère Coq

Il était une fois un coq bien malin. Il habitait près de la maison de Soungoula. Un jour, il avait invité Soungoula à déjeuner chez lui. Coq dit à sa femme, Poule: «Quand Soungoula viendra, dis-lui que je ne suis pas là. Ma tête est allée à la pêche, mon corps est derrière la cuisine». Lorsque Soungoula arriva, il dit: «Bonjour, bonjour, Compère Coq! » Madame Poule lui répondit: «Coq n'est pas là, sa tête est allée à la pêche, son corps est derrière la cuisine». Quand Soungoula alla regarder Coq, il ne vit que son corps derrière la cuisine. Soungoula le crut, mais à ce moment-là, Coq avait seulement mis la tête sous les ailes. Un petit moment après, Soungoula entendit: «Cocorico! Compère Coq est arrivé!» Alors ils déjeunèrent, bien tranquilles. Ensuite, Soungoula aussi voulut faire la même chose. Il invita Coq à venir déjeuner chez lui dimanche prochain. Soungoula dit à sa femme: «Quand Coq viendra, coupe-moi le cou; mets ma tête dans de l'eau salée, prends mon corps et mets-le derrière la cuisine». Sa femme ne voulait pas lui couper la tête, elle dit à Soungoula: «Tu vas mourir!» Soungoula dit: «Non, coupe-la, Compère Coq a fait pareil l'autre jour». Madame Soungoula dut donc prendre son grand couteau, elle mit le cou de Soungoula sur un billot... toc! Pauvre Soungoula se débattait dans son sang. Alors, quand Coq arriva, il demanda: «Où est Soungoula?» Madame Soungoula raconta tout ce que Soungoula lui avait ordonné de faire. Alors Coq dit: «Mais Madame, Soungoula est mort! Moi, je n'ai pas fait comme ça. Ma tête n'était pas coupée, je l'avais mise sous mes ailes». Pauvre Soungoula...

Adabiyotlar

1. Т.Б. Алисова, Т.А. Репина, М.А. Таривердиева. Введение в романскую Филологию. Москва “Высшая школа” 1987
2. www.krugosvet.ru

УДК: 42:494.3

ABOUT BORROWINGS IN THE UZBEK LANGUAGE (ON THE EXAMPLES OF THE NEWSPAPER “KHALK SUZI” (“KHALQ SOZI”))

N.A. Isakova

Samarkand state university

Abstract. This article is devoted to issues and reasons of foreign borrowings in the Uzbek language. The samples of borrowing are analysed on the basis of the newspaper «Khalk suzi» («Khalq sozi») published in different years of our state.

Keywords: borrowing, intra lingual and extralingual factor, linguistic sphere, independence

O'zbek tilidagi xorijiy o'zlashmalar haqida (“Xalq so'zi” gazetasi nashrlari asosida)

Annotatsiya. Ushbu maqola o'zbek tilidagi xorijiy o'zlashmalar masalalari va sabablariga bag'ishlangan. O'zlashma misollari “Xalq so'zi” gazetasining davlatimiz mustaqilligining turli yillarida chop etilgan nashrlari asosida tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: o'zlashtirish, ichki va tashqi til omillari, lisoniy muhit, mustaqillik

О заимствованиях в узбекском языке (на примере изданий газеты «Халк сузи» («Народное слово»))

Аннотация. Данная статья посвящена вопросам и причинам иностранных заимствований в узбекском языке. Примеры заимствованных слов анализированы на основе газеты «Халк сузи» («Народное слово») изданных в разные годы независимости нашего государства.

Ключевые слова: заимствования, внутриязыковой и внеязыковой фактор, лингвистическая среда, независимость.

Investigating modern methods of borrowing in comparison with processes of last stages of development of the language gives an opportunity to show the tendency of language's development

and speak about correlation of intralingual and extralingual factors in definite periods of language's development. Topical-ideographical classification of borrowings lets to conclude about changes both as conceptual and linguistic situation of the world population, about new innovations in social life which demand the linguistic fixation.

Every period of history is confirmed to own complex units of borrowings, they from one hand, promote to enrich and develop the Uzbek language, from the other hand, signify definite changes in the life of our society.

It is important to underline that various scientists suggested different definitions of borrowings, but all linguists agree on the opinion that borrowing is considered as a bright trait of modern lingual life. This issue is regarded not only in scientific sphere, but in the level of state politics in the questions of regulation of lingual sphere, i.e. lexical borrowings in many aspects deal with mentality of people speak the language which borrowed new lexical units of the foreign language [1].

So, any language, including borrowed words in its system, adapts it to its own system which functions according to all laws and tendencies of all layers of the language structure. Learning the borrowings from any foreign languages into the Uzbek language gives a chance to notice the tendency of language development as a whole, prove the interrelation of intra and extra lingual reasons of borrowings nowadays.

Technical-industrial production and their development cause both economical and linguistic changes. It provides us to develop progressively according to the modern time. For example, the words belong to technics are: "computer", "radio", "note-book", "telephone", "call me", "fax"; the sphere of food: "hotdog", "hamburger", "cheese-burg", "fast-food", "chocolate", "coffee", "cafe", "restaurant"; the sphere of sport: "foot-ball", "basket-ball", "hand-ball", "cricket". Though they have dictionary translation meaning in the Uzbek language, they haven't definite equivalents in our language, it means that these words borrowed from the English language are used in the literary language and came to the Uzbek language directly without any translation. It is convenient to name the things without changes. For instance, the words belong to social network: internet, download (yuklash), upload (o'rnatish), search (izlash); other spheres: leader (yetakchi), crisis (inqiroz), rhythm (maqom), photo (rasm), market (bozor), shop (do'kon), assistant (yordamchi), electric (elektrga oid), club (to'garak) global (dunyoviy), local (mahalliy). Even they have translation variants in the Uzbek language, the English samples of these words are widely used in literary language and enrich our language.

Nowadays you can notice the following signs as "open" (ochiq), "close" (yopiq) on the doors of some buildings, "enter" (kirish) and "exit" (chiqish) in the buildings, "on-air" (a'loqada) and others on the façade of tele studios. They fixed so substantially, one can understand them without any translation or definition. Several years ago, some linguists began to use the equivalents of the following words borrowed from the Russian language: "samolyot" — "tayyora", "aeroport" — "tayyoragoh", "televizor" — "oynai-jahon", "radio" — "ovoznigor", "respublika" — "jumhuriyat" and others. But they can't be fixed in our native language and the borrowed words are still used without any equivalents. Language is the social event, and its richness? Development and spreading depend on current international ethnic, economic and political processes.

In different periods of history, the role of guides of new foreign vocabulary in general usage was played by different social groups of speakers. In XX century, as many linguists consider, mass media is the first place on the hierarchy of spheres which leads new borrowings into the native language [2]. That's why, we take the newspapers as the source of our investigation.

Especially during independence years when lots of economical, industrial and political reforms were held, foreign words were borrowed into the Uzbek language. In analyzing the borrowings and their translation in the Uzbek language, different dates of the newspaper publications were used [3,4].

Following words are borrowed in the article "About Amendment to the Law "About land" from January 17, 1992 of the newspaper "Khalk suzi" ("Khalq sozi") №13 (264):

Kompaniya (fr.compagnie-small community), vazir (ar.vazir-minister), kupon (fr.coupon-stock), anjuman (pers.yigin-meeting), suveren (fr. souverain-highest), furushanda (pers. tradesman), konvensiya (lat.konventio-agreement), investor (lat.eng.investor), shirkat (arab.partnership), birja (gr. byrsa- purse), korporatsiya (lat.corporatio-corporation), ekstremistik (lat.extremus-the worst enemy) etc.

These words were borrowed in the first years of independence, some of them still remained and use nowadays, but others hadn't any trace in linguistic layer.

The following words are given from the article “To the help of entrepreneur subjects” from August, 12, 2016 of the newspaper “Khalk suzi” (“Khalq sozi”) №156 (6581):

Subyekt (lat.subjectum-under), biznes (eng.business-profession, job), tadbirkorlik (arab, pers. provider), kredit (lat.creditum-debt), mexanizm (gr.mechane-tool, machine), litsenziya (lat.licentia-permission), mikrofirma (gr.micros-small; ital.forma-sign), fermer (eng.farmer), palata (lat.palatium-castle), investitsiya (lat.investire-eng.investition-dress, provide), minitexnologiya (lat.minimus-the smallest;gr.tech-mastery, logos-doctrine), kompaniya (fr.compagnie-small community), portal (lat.porta-ger. Portal-door) etc.

As conclusion we may consider that majority of borrowed words belong to either economical-financial sphere or political sphere, it shows the intensity of reforms held in our newly independent republic. This data grows day by day because of developing tendencies in our state. Some of borrowed words remain their meaning, but others’ meanings fully have changed. Nowadays we use them so often that we couldn’t imagine that they have borrowed only one or two decades ago.

References

1. Крысин Л.П. К определению терминов «заимствование» и «заимствованное слово» // Развитие лексики современного русского языка. М.: Наука, 1965. - С. 104 - 116.
2. Bloomfield. Language. Moscow, 1968, 488-510pp
3. Newspaper ““Khalk suzi” (“Khalq sozi”) №156 (6581), August 12, 2016
4. Newspaper ““Khalk suzi” (“Khalq sozi”) №13 (264), January 17, 1992

УДК: 412-28

TURLI TIZIMLI TILLARDA “DEINTENSIFIKATSIYA” KONTSEPTUAL SEMANTIKASI VERBALIZATORLARINING KOGNITIV TIPOLOGIYASI

A. Ziyaev

Farg‘ona davlat universiteti

Annotatsiya. Ushbu maqolada zamonaviy ingliz, o‘zbek va rus tillarida universal tabiatga ega bo‘lgan “deintensifikatsiya” kontseptual makrosemantikasini voqealantiruvchi verbal vositalar tizimli ravishda qiyosiy tipologik asnoda tadqiq qilingan, ularning izomorfik va allomorfik jihatlari aniqlangan, shuningdek ularni taqozo etuvchi omillar ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: kognitiv tipologiya, deintensifikatsiya makrosemantikasi, verbalizator (fonema, morfema, leksema, sintaksema, frazeoema, tekstema), izomorf va allomorf jihatlar.

Когнитивная типология вербализаторов концептуальной семантики “деинтенсификация” в разносистемных языках

Аннотация. В данной статье исследуются с сопоставительно-типологической точки зрения вербализаторы универсальной концептуальной макросемантики “деинтенсификация” в английском, узбекском и русском языках, установлены их изоморфные и алломорфные признаки и выявлены факторы, обуславливающие последние.

Ключевые слова: когнитивная типология, макросемантика деинтенсификация, вербализатор (фонема, морфема, лексема, синтаксема, фразеома, текстема), изоморфные и алломорфные особенности.

Cognitive typology of verbalizers conceptual semantics “deintensification” in non – related languages

Abstract. This article touches upon the morphological ways of expressing the verbalizers of the conceptual macrosemantics of “deintensification” established for the first time in Modern English, Uzbek and Russian, which allowed the author to reveal the isomorphic and allomorphic features of the verbalizers and the factors preconditioning the latter.

Keywords: cognitive typology, macrosemantics of deintensification, verbalizer (phoneme, morpheme, lexeme, syntaxeme, phraseoeme, texteme), isomorphic and allomorphic features.

Kognitiv tilshunoslik o‘ziga hos istiqbolli, nisbatan mustaqil bir soha bo‘lib, u inson tomonidan borliq dunyo voqeligini til orqali anglanishi, o‘rganilishi, ya‘ni kontseptlar vositasida uning in‘ikos

etilishi, his va idrok qilinishi kabi inson miyasida kechuvchi murakkab kontseptual jarayonlar bilan chambarchas bog'liqlik, ularning natijasi o'laroq bunday omillar bevosita tilda so'zlovchi/yozuvchining kontseptosferasini tashkil etadi. Qolaversa kognitiv tilshunoslik turli-tuman kontseptlar, ularni ifodalovchi turli verbal va averbal vositalar (verbalizator va averbalizatorlar)ni kategoriyalarga ajratib o'rganadigan va ularni ko'zlangan nutq hamda muloqot maqsadlariga muvofiq holda to'g'ri qo'llay olishlik layoqatligi masalalarini ham tahlil qiladigan tilshunoslikning sohasi bo'lib hisoblanadi. Bu ma'noda yuqorida keltirilgan omillar o'z navbatida so'zlovchi/yozuvchi, shuningdek tinglovchi/o'quvchining lingvokulturologik va lingvopragmatik jihatdan mavjud bilimlari asosida muloqot olib borish uchun layoqatligi /kompetentsiyasi/ darajasini belgilaydi.

Kognitiv tilshunoslikning nisbatan yangi bir muhim yo'nalishi ham borki, u "kognitiv tipologiya"deb ataladi. Kognitiv tipologiyada «kontseptlar (kontseptual semantikalar)» obyektiv borliqni in'ikos qilishda kontseptuallashtirish, kategoriyalashtirish kabi jarayonlarining oqibat-natijalari sifatida olib qaralib (Langacker, 1987; Касевич, 1993, Демьянков, 1994; Jackendoff, 1998; Кубрякова, 2001; Стернин, 2001; Маслова, 2004; Сафаров, 2006; Попова, 2007; Юсупов, 2007; Хошимов, 2010; Маматов, 2012 va hok), mavjud tillarda ularning voqealantirish texnikasi, o'ziga xos usul va vositalari o'rganiladi, pirovardida ularning izomorfik va allomorfik jihatlari aniqlanib, ularni taqozo etuvchi omillar ochib beriladi.

Kognitiv tipologik nuqtai nazaridan olib qaralganda kontseptual oppozitsiyaga asoslangan "intensifikatsiya/deintensifikatsiya" kontseptual semantikasi har bir tilda so'zlovchi/yozuvchi tafakkurida – kontseptosferasida mavjud bo'lgan semantika bo'lib, u universal tabiatga ega. Boshqa bir qator semantikalar kabi "intensifikatsiya/deintensifikatsiya" kontseptual semantikasi – bu kuchaytirish/kattaytirish va kichraytirish (kamaytirish yoki kuchsizlantirish) kamaytirish kabi kontseptual mikrosemantikalarining oppozitsiyasiga asoslangan makrosemantik kategoriya bo'lib, u obyektiv borliqdagi predmet (inson, hayvon, hodisa) kabilarning tavsifi darajasini ma'lum jihatdan "kuchaytirish/kattaytirish/ yoki kichraytirish (kamaytirish yoki kuchsizlantirish) kamaytirish uchun voqealantiriladi.

Intensivlik kategoriyasi – belgi miqdori o'zgarishini 2 yo'nalishda - intensivlik shkalasida yuqoriga kuchaytirish yoki pastga kamaytirishni (kuchsizlantirish) ifodalaydi. Shkalada yuqori tomon *intensifikatsiya*, teskari jarayon ya'ni me'yordan pastga bu *deintensifikatsiya* jarayoni hisoblanadi. Leksemalar ma'nosi hajmini ifodalashda ma'lum bir leksik-grammatik vositalar to'plami qatnashadi, ular intensivlikatsiya va deintensifikatsiya jarayonini ta'minlaydi.

Turli tizimdagi zamonaviy ingliz, o'zbek va rus tillarida deintensifikatsiya kontseptual makrosemantikasini ifodalovchi, ya'ni voqealantiruvchi til sathlarining birliklari qiyosiy-tipologik taxlili asosida shu narsa aniqlandiki, mazkur kontseptual semantika til birliklarining quyidagi invariant turlari orqali tizimli asnodda ifodalanar ekan: 1) fonema (to'g'rirog'i, morf fonema); 2) morfema; 3) leksema; 4) sintaksema: a) frazema; b) sentensema); 5) frazeoema; 6) tekstema (diskursema). Quyida biz bularning har birini alohida empirik misollar asosida ko'rib chiqishga harakat kilamiz.

1) fonemalar orqali: a) *cho'ziq unlilar*, masalan, *ingliz tilida*: li-i-itle, sma-a-al, pre-e-etty, ha-a-ardly; o'zbek tilida: *sa-a-al, a-a-asta, o-o-ozgina, ji-i-indek, ki-i-ichkina, to-o-or, ka-a-alta, i-i-xcham*; *rus tilida*: *ma-a-аленький, мал-ю-юсенький*, ma-a-lo и т.д.: You have eaten anything - Siz *deyarli* hech narsa yemabsiz-ku; o'zbek tilida: Ortiqcha jizzaki ko'rinmaslik uchun *bosi-i-iq* tovush bilan gapirdi [10; 198]. 2). U... *g'ari-i-ib* bir kimsa edi [10; 231]; b) *cho'ziq undoshlar*, masalan, *ingliz tilida*: *s-s-slightly, l-l-little, t-t-tiny, m-m-minor*, etc; I slightly touched upon the problem (Men masalani *sal-pal* yoritib o'tdim) – Я слегка затронул эту проблему; *uzbek tilida*, *yo-yo-yo-nqa, e-e-e-eyuz, p-p-p-ov*, masalan: Suv betini yu-yu-yu-pqa muz qoplagan edi [12; 21]; Men bozorga bir r-r-r-ov tushib chiqaman [12; 29];

2) morfemalar (*prefikslar va postfikslar*) orqali, masalan, *ingliz tilida*: a) prefikslar orqali: micro-: microbiology- mikrobiologiya, microconcept -mikrokontsept; mini-: minimarket – minimarket, miniskirt – miniyubka; o'zbek tilida, masalan: kichik-: kichikko'ngil, kam-: kamxarajat, kamsuxan va h.k. ; b) postfikslar orqali, masalan, *ingliz tilida*: "-ish", masalan: reddish – qizg'ish (och qizil), greenish (och yashil), bluish – ko'kish, blackish – qoramtir va h.k.; o'zbek tilida a) *-gina*: *yaxshigina* (хорошенький), *jajjigina, mo'jazgina, murg'akkina, kichikkina* (малюсенький), *pastgina* (низенький), masalan: Navoiy...*pastgina, ko'rimsizgina* u yga kirdi [10;241]. (Навои вошел в низенький, невзрачный дом...); b)-

qina: sovuqqina, quriqqina, tumtoqqina yumshoqqina (мягонький); v) choqcha/choqqina: toychoqcha (жеребеночек), qo'zichoqqina (ягненочек); g) - *ish*: oqish (беловатый); ko'kish (синеватый), sarg'ish (желтоватый), qizg'ish (красноватый); d) -(u) mtir, masalan: oqish - oqimtir, "беловатый", ko'kish/ko'kimtir "синеватый", (ko'k-siniy, зеленый); sarg'ish/sarg'imtir "желтоватый", qoramtir "черноватый"; ж) - roq masalan: U eskiroq, juda tor kamzul, oyog'iga erkakcha tufli kiygan [11; 78] va h.k.;

3) leksemalar orqali, masalan, ingliz tilida: *rather, enough, practically, fairly, nearly, partly, slightly, scarcely, barely, hardly, mini, slightly, hardly, worthless, almost, penniless* va h.k.; o'zbek tilida: *sal, sal-pal, ozgina, xiyla, deyarli, qariyib, arang, zo'rg'a*; rus tilida: *немного, слегка, чуть, чуть-чуть, ели-ели, едва-ли*. 1. Ular frontdan sal uzoq joyda - o'rmonda edilar [10; 189]. (They were a bit farther the from the front – in the woods - Они были расположены чуть дальше от фронта – в лесу). 2. Biz tunda kishloqqa arang yetib bordik [12; 39]. (We could hardly reach the village at night – Мы ели-ели дошли до деревни ночью);

4) sintaksemalar: a) *frazemalar (so'z birikmalar)* orqali, masalan, ingliz tilida: *a bit of (ozgina), a small way more or less, very little, bit by bit, day by day, quite a little path quite a tiny way, the tiniest issue* va h.k.; o'zbek tilida, masalan: *bir qultum suv, bir qoshiq qon(imdan keching), bir xo'plam suv, bir tomchi suvga zor bo'lmoq, bir og'iz gap, bir tomchi qoni qolguncha, bir hovuch odamlar, qil ko'prik, bir tiyinsiz, hemiri yo'q, arzigulik bo'lmagan, qildek ingichka, cho'pdek ozg'in, qoq suyak, zarradek mayda, zig'irdek kichkina, uncha-muncha, yop-yolg'iz, yolg'iz o'zi, qilday joni, jindek beda, ozmi-ko'pmi* va h.k.: Buni qarang, qilday joni qolibdi-yu bu bechoraning! [10; 48]; b) *sentensemalar (sodda va qo'shma sentensemalar)* orqali, masalan, ingliz tilida: a) sodda sentensemalar: *Wait just a moment! (Bir soniya kuting! – Подождите минутку!); May I have a couple of words, sir? (Можно мне пару слов высказать? – Ikki og'iz so'z aytsam maylimi?)* va h.k.; o'zbek tilida: *Sizda bir og'iz gapim bor edi (May I have a word with you? - Можно вас на полслова?)* va h.k.; b) qo'shma sentensemalar, masalan, ingliz tilida: *She was the smallest creature I have ever seen!. (Bunaqangi kichik zotni umrimda birinchi ko'rishim edi! – Это было самое крошечное существо когда либо я видел!); o'zbek tilida: Uning zarracha aqli yo'q [12; 112]. (He has not got any wit at all – У него нет никакого ума); 5) frazeoema(frazeologik birlik)lar orqali, masalan, ingliz tilida: *a kind of, a sort of, in a part, in a way, a bit of, a shade of, in the least, in the slightest, faintly tiny (kichkina -крошечный), as thin as a rail, a drop in the ocean, a bit of, only just a bit of, just a moment, just a minute, a little while and etc. Masalan: little by little –мало -помалому – oz-ozdan, bit by bit - постепенно – sekin-asta. O'zbek tilida: cho'pdek ozg'in, qil ko'prik, qoq suyak, bir qultum suv (ga zor), zig'irdek kichkina, to'rt kunlik dunyo, bir tomchi qon, ikki og'iz so'z, so'zini ikkita qilmaslik, bir og'iz gapi bilan, karnaychidan bir puf, besh-turt so'm pul topmoq, besh-to'rtta odam, bir hovuch boylar, bitta-ikkita ahmoqni deb, bir-ikkita marta aytmoq va h.k; Bola cho'pdek ozib ketgandi [11; 100]. (The boy became as thin as a rail - Мальчик похудел как щепка) ; Ikki og'iz so'z aytsam maylimi? [11; 154]. (May I utter a couple of words? – Можно мне пару слов высказать?)* va h.k.; 6) *paremiemalar (frazeoemalarning bir turi, ya'ni maqollar yoki matallar)* orqali: ingliz tilida: 1. *Better to live one day as a tiger than a thousand years as a sheep (Лучше пожить один день как тигр, чем тысячи лет овцой – Ming yil quy bo'lib yashashagandan ko'ra bir yil yulbars bo'lib yashagan afzalroq).* o'zbek tilida, masalan: *"Bir kishi ariq qaziydi, ming kishi suv ichadi" ("One man digs a ditch, but thousands make use of it" – "Один человек копает арык, а тысячи им пользуется" или "Один проложил тропу, а все ходят"); 7) tekstemalar orqali: ingliz tilida: *Look, you are a man who can face the devil, and you are afraid of that little mouse! Oh, come on! (Qo'ysang-chi, turishingdan ot hurkiydi-ku, shu kichik bir sichqonchadan qo'rqib o'tirishingni qara-ya! – Да ладно, ты такой человек, который может бросать вызов даже дьволу, и ты так боишься просто этого маленького мышонка, брось!); o'zbek tilida: Sen uka, tog'ni ursa talqon qiladigan bolasan, nimagadir bilmayman, shu kichik bir kalamushdan shunchalik ham qo'rqasanmi-a!? E-e, qo'ysangchi-ey! (Andijonnoma, 2015, №14, 5 b.) (Hey, guy, you are as strong as a lion, and you are so much afraid of such a small rat? Hang on, hey!***

Tillarda deintensifikatsiya kontseptual makrosemantikasini voqelantiruvchi yuqorida sanab o'tilgan invariant til vositalari bilan bir qatorda ma'lum averbal vositalar ham borki, ular paralingvistik vositalar, to'g'rirog'i "averbalizator"lar deb ataladi. Averbaliizatorlar esa imo-ishora, turqu-tarovat, yuz ifodasi, ko'z, lablar, burun, qoshlar, qovoqlar, bosh, bo'yin va tananing boshqa a'zolari harakatlari orqali ifodalanadi. Bunday averbal vositalar verbal vositalardan o'zlarining biron bir vaziyat

taqozasiga ko'ra, zarur ehtiyojdan kelib chiqib, zikr etilgan semantikani voqealantirishda cheklangan holda qo'llanilishlari bilan ajralib turadilar.

Qiyoslanayotgan tillarda "deintensifikatsiya" kontseptual makrosemantikasi verbalizatorlarining izomorfik jihatlari tillar rivojlanishining umumlisoniy qonuniyatlari bilan tushuntirilsa, ularning allomorfik jihatlari u yoki bu tildagi verbalizatorlarning idiomatik tabiatga ega ekanligi, tilda so'zlashuvchi/ yozuvchilar tafakkurining o'ziga xos jihatlari mavjud ekanligi bilan, shuningdek bunday tafakkur maxsulining o'ziga xos betakror verbal vositalar orqali voqealantirilishi bilan izohlanadi.

Tipologik nuqtai nazardan olganda "intensifikatsiya/deintensifikatsiya" kontseptual makrosemantikasi verbalizatorlarining tillarda mavjud barcha sathlarning birliklari orqali voqealantirilishi umumlisoniy qonuniyatdir, chunki inson muloqoti uchun kerakli voqelik yoki ma'lumot har bir tilning maxsus verbal va (averbal) vositalari orqali voqealantirilishi tabiiy, bu ma'noda qiyoslanayotgan ingliz, o'zbek va rus tillari mustasno emas. Turli tizimli tillarda "intensifikatsiya/deintensifikatsiya" kontseptual makrosemantikasi verbalizatorlarining kognitiv tipologiyasi ularning lingvokognitiv tabiatini, shuningdek ularning struktural-semantik turlari izomorfik va allomorfik jihatlarni aniqlashga, ularni taqozo etuvchi omillarni ochib berishga keng imkon yaratadi.

Adabiyotlar

1. Демьянков В.З. Когнитивная лингвистика как разновидность интерпретирующего подхода//Вопр. языкознания. - М., 1994. - №4. С.17-33.
2. Кубрякова Е.С. Начальные этапы становления когнитивизма: лингвистика-психология-когнитивная наука // Вопросы языкознания. – М., 1994. - № 4. - С. 34 - 47.
3. Маматов А.Э. Тилга когнитив ёндашувнинг моҳияти нимада?// Ўзбек тилшунослигининг долзарб муаммолари (проф. А.Нурмонов тавлудининг 70 йиллигига бағишланган илмий-амалий анжуман материаллари).Андижон, 2012. Б.21-26.
4. Маслова В.А. Введение в когнитивную лингвистику (Учебное пособие).-Москва: Флинта - Наука, 2004. 175 с.
5. Попова З.Д., Стернин И.А. Очерки по когнитивной лингвистике. – Воронеж: Изд – во Воронежского университета, 2002. - 191 с.
6. Сафаров Ш. Когнитив тилшунослик. -Жиззах: «Сангзор» 2006. -90 б.
7. Хошимов Г.М. К теории концептов и их таксономии в когнитивной лингвистике.// Систем-структур тилшунослик муаммолари. Филология фанлари доктори, профессор Н.К.Турниёзов таваллудининг 70-йиллигига бағишланган Республика илмий-назарий конференцияси материаллари. Самарканд. 2010. 78-83 б
8. Jackendoff J..Semantics and cognition. – Cambr ridge - Mass.,1993. 145 p.
9. Langacker R.W. Foundation of Cognitive Grammar. Vol 1.Standfort, 1987. 158 p.
10. Ойбек. Танланган асарлар. Тошкент, 1957.-458 б
- 11.Турсун П. Ўқитувчи. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1972. - 552 б.
- 12.Қаҳҳор А. Танланган асарлар. – Тошкент, 1957. 568 б.

УДК: 372

ЦЕЛЕВАЯ ФУНКЦИЯ СЛОВСОЧЕТАНИЙ В РАЗВИТИЕ РЕЧИ УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ

Т.В. Османова, С.М. Юлдашева

Самаркандский государственный университет

E-mail: sevarkayuldasheva@gmail.com

Аннотация: Статья посвящена актуальным вопросам формирования синтаксического строя речи младших школьников. Синтаксические значения способствуют развитию речи учащихся в начальных классах.

Ключевые слова: речь, формирование, развитие, грамматическая сторона речи, синтаксическая единица, словосочетание.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari nutqini rivojlantirishda so'z brikmalarining maqsadli funksiyasi

Annotatsiya. Ushbu maqola boshlang'ich sinf o'quvchilari nutqining sintaktik tuzilishini shakillantirishning dolzarb masalalariga bag'shlangan. Sintaktika - o'quvchilar nutqini rivojlantirishga yordam beradi.

Kalit so'zlar: nutq, shakillantirish, rivojlantirish, nutqning grammatik tomoni, sintaktik birlik, so'z birikmasi.

Objective function in developing students of primary school

Abstract. The article is devoted to current issues of forming the syntactic structure of speech of junior school children. Syntactic meaning contributes the development of students speech in primary schools.

Keywords: speech, formation, development, grammatical aspekt of speech, syntactic unit, collocation.

Овладение речью - это способ познания действительности. Чем полнее усваиваются богатства языка, чем свободнее человек пользуется ими, тем лучше он познает сложные связи в природе и обществе. Для ребенка грамотная речь - залог успешного обучения и развития.

Развитие речи определяется потребностью ребенка в общении. На протяжении всего детства ребенок интенсивно осваивает речь.

Наряду с расширением словаря расширяется и смысловая наполненность слов. Значение слова уточняется в детском возрасте постепенно. Взрослея ребенок все лучше может объяснить значение слова.

Речь является одним из обязательных и незаменимых компонентов общения людей.

Развитие речи у ребенка есть процесс овладения родным языком, умением пользоваться языком как средством познания окружающего, усвоения опыта, накопленного человечеством, как средством познания самого себя и саморегуляции, как могучим средством общения и взаимодействия людей.

К концу младшего школьного возраста речь учащихся достигает высокого уровня развития. Огромное влияние в данном процессе оказывает учебная деятельность детей и воздействие речи учителя на учащихся. Именно от учителя зависит формирование и успешное развитие речи детей в младшем школьном возрасте.

Развитие речи учащихся - это главный методический принцип, на основе которого строится работа над языком. Задачей учителя начальных классов - работать не только над обогащением словаря учащихся, но и над увеличением подвижности того запаса слов, которым владеет ученик в данный момент, над «связыванием» воедино грамматического и речевого аспектов обучения, над реализацией коммуникативного подхода в обучении родному языку.

Необходимо поддерживать стремление ребенка активно вступать в общение всеми доступными для него неречевыми и речевыми средствами, откликаться на вопросы и предложения взрослого, инициативно высказываться, выражая свои желания, чувства, мысли. Побуждать детей использовать слова для обозначения предметов, их действий и качеств. Содействовать освоению грамматического оформления высказываний: изменению слов, согласованию их в предложениях разной структуры, образованию уменьшительно-ласкательных наименований, употреблению глаголов совершенного и несовершенного вида и т. п. Упражнять в правильном произношении гласных и простых согласных звуков. Нельзя сводить проблему формирования речи к обучению грамоте (освоению навыков чтения и письма), так как развитие речи - сложный процесс, в котором освоение письменной формы является лишь составной частью [4, 45].

Прежде всего и главнейшим образом надо заботиться о том, чтобы всеми мерами при поддержке слова содействовать формированию в сознании детей богатого и прочного внутреннего содержания, способствовать точному мышлению, возникновению и упрочению значительных по ценности мыслей, представлений и творческой способности комбинировать их. При отсутствии всего этого язык утрачивает свою цену и значение. Сущность слова складывается из его содержания и формы. Гармоническое единение того и другого обуславливает ценность слова.

Задачи, соответствующие основным компонентам развития речи:

Развитие словаря. В период начальной школе усваиваются слова из основного словарного фонда языка, отбор их зависит от словаря окружающих, от ориентировки ребенка в окружающем мире и т. д.

Воспитывая культуру устной речи, необходимо отучать детей от грубых выражений или слов просторечных, заменяя их литературными. Словарная работа осуществляется в связи с ознакомлением детей с окружающим. Сообщение слова, обозначающего какой-нибудь предмет или явление, происходит во время общего учебно-воспитательного процесса ознакомления с этим объектом.

Формирование грамматической стороны речи. Словарь является строительным материалом для языка. Грамматика устанавливает нормы изменения слов и способы их соединения в предложении. Кроме того, она определяет конструктивные модели языка (словообразовательные, словоизменительные).

Ребенок слышит от окружающих грамматически оформленную речь. Осмысливая услышанное, он усваивает грамматический строй, познает модели языка. Педагог организует разнообразную речевую практику детей, включая в систему обучения языку упражнения, которые привлекали бы внимание детей к наиболее сложным и необходимым для них конструкциям, закрепляли бы определенные правила морфологии и синтаксиса родного языка.

Известно, человеческая речь начинается с синтаксиса, с осознания его законов, с усвоения правила построения единиц языка – словосочетания и предложения, с употребления в речи этих синтаксических единиц.

Синтаксический строй речи – интегральное качество, в котором проявляется уровень общей образованности и культуры личности, её своеобразия, способности овладеть новыми навыками знаниями и умениями, воплощать полученные знания в своём мировоззрении и деятельности. Такое понимание синтаксического строя речи обеспечивает выбор методических приёмов, средств изучения синтаксиса в школе, которые решают вопросы развивающего и воспитывающего обучения применительно к каждому школьнику.

По словам известного психолога Н.И.Жинкина [2,88], письменная речь – это сложная аналитико-синтетическая деятельность, в которой действуют следующие механизмы: механизм отбора слов, механизм контроля и критики текста.

Без специальной работы по составлению вариантов предложений, по образованию словосочетаний, которые необходимо включить в состав предложений, по удержанию в памяти основы предложений, оборотов предложений, словосочетаний невозможно формирование синтаксического строя речи младших школьников.

Традиционно курс грамматики начинается с синтаксической темы «Предложение». В современных, коммуникативно-направленных курсах некоторые авторы вводят такую модель: общение – речь – текст – предложение – слово – слог – звук. Такой подход логичен, он функционален и сразу раскрывает перед учащимися систему языка и его прагматики.

Синтаксические значения и умения способствуют пониманию текста при его чтении и развитию собственной речи – устной и особенно письменной. Критерием потребности в синтаксисе служит уровень практических умений школьников: в своей речи они свободно строят и сложные предложения, и прямую речь, даже обособленные обороты, подчинительные конструкции. Всё это нуждается в теоретическом осмыслении и в корректировании с позиций культуры речи [5, 25].

Представители формального направления, приняв некоторые положения психологической концепции, сделали упор на роль форм слова в синтаксической системе.

Важным этапом в изучении русского синтаксиса явился многоаспектный подход к предложению как к синтаксической единице, имеющей и логическую, и психологическую, и формальные стороны. Сущность диалектического метода заключается в совместном рассмотрении означаемой и означающей сторон синтаксических единиц.

В основу описания синтаксических единиц кладётся как их грамматическая семантика, так и формальные средства.

В целом для изучения в начальном звене школы выделены три синтаксические единицы: словосочетание, предложение и сложное предложение, а слово и словоформа отнесены к числу синтаксических объектов, свойства которых проявляется лишь при связи с другими словами в составе синтаксических единиц [1,65].

Такое понимание синтаксиса, синтаксических единиц, их структуры позволяет сделать вывод о важности и необходимости работы над словосочетанием, предложением, сложным предложением для решения задач развития мышления и связной речи, для развития синтаксического строя речи младших школьников, для усвоения синтаксических норм русского языка, для организации взаимосвязи между различными уровнями языка: лексикой, морфологией и синтаксисом.

В языке различают уровни – уровни слова (лексический), уровень словосочетания и предложения (синтаксический) и уровень связной речи. Словосочетание в этом смысле может рассматриваться как переходное звено от лексического уровня к синтаксическому.

В речевой практике словосочетание, как правило, используется не самостоятельно, а в предложении. “Из готового предложения не ясно, как рождалось, как создавалось это предложение. Словосочетание же – это мысль в процессе становления: обучать детей словосочетаниям- значить работать над элементами мысли”.

“Модели” словосочетаний усваиваются человеком в детстве. Упражнения в выделении, составлении и использовании словосочетаний развивают речь школьников, повышает её культуру [6,4].

В словосочетании закрепляются традиционные связи между словами, так называемая сочетаемость слов: можно сказать “возникли опасения”, но нельзя сказать “явились опасения”, хотя слова “возникли” и “явились” – синонимы.

Во-первых, эта работа доступна во всех классах, очень полезна не только для развития речи, но и для синтаксического разбора, для усвоения пунктуации. Привычка ориентироваться в предложении, в его структуре и в зависимостях между членами дает основу для осознания пользования синтаксическими конструкциями в собственной речи, особенно в письменной.

Во-вторых, это составление самостоятельных словосочетаний при изучении частей речи и других грамматических и орфографических тем, при активизации различных форм частей речи и новых слов. Эти виды упражнений соединяют грамматико-орфографическую работу с развитием речи учащихся. Так, при изучении склонения имен прилагательных дети склоняют прилагательные вместе с существительными, например, “основной лес” и составляют предложения с формами косвенных падежей этих словосочетаний.

В работе над словосочетанием обращается внимание на две стороны: грамматическую структуру и семантику словосочетания, выражающего то или иное значение.

Работа над значением словосочетаний состоит и в их соотнесении с реальными предметами, явлениями. Для этого используются наблюдения, картинки и воспоминания учащихся. Пониманию значений способствует сопоставление: “яровая пшеница”, “озимая пшеница”; “еду в лес” – “еду из лесу”. Используется прием замены близкими по смыслу словами и оборотами речи: “бежит быстро”-“мчится”-“бежит сломя голову”.

Приведем типы упражнений со словосочетаниями:

- постановка вопросов к подчиненным словам в предложении, выяснение связей между словами.

- схематическое изображение связей между словами в предложении. Умение разбираться в связях между словами в предложении помогает школьникам самим строить более сложные конструкции.

- объяснение значений встретившихся в текстах словосочетаний. Например, “Лебеди стадом летели из холодной стороны в тёплые земли”. Объясняются сочетания “холодная сторона” и “тёплые земли”. Иногда объяснение словосочетаний оказывается более эффективным, чем объяснение слов, так как в них выявляются оттенки значений и сочетаемость слов.

Составление словосочетания с новыми словами, встретившимися в тексте или в процессе деятельности, помогает глубже понять значение и готовит учащихся к его употреблению в речи.

В текстах немало устойчивых сочетаний различной степени слитности и разнообразных по значениям, по эмоциональным окраскам, по сфере употребления.

Одно из главных упражнений – составление словосочетаний в связи с изучением частей речи.

Обучение словосочетанию в начальных классах проходит в двух направлениях. Во-первых, словосочетание необходимо рассматривать в структуре предложения как его составную часть; во-вторых, словосочетание изучается как распространенное название предмета.

В программе отражаются основные требования к знаниям и умениям учащихся начальных классов, включающие способность устанавливать связь между словами в предложении, выделять из предложений словосочетания [7, 47].

Формирование данных умений и навыков происходит в процессе изучения всех синтаксических тем, а также при изучении всех частей речи в разделе «Повторение».

Так как словосочетание является одной из основных синтаксических единиц, работа над ним должна вестись в начальной школе на протяжении всех лет обучения.

Словосочетание формирует предложение, лежит в основе выделения второстепенных членов предложения. Для эффективного усвоения учебного материала, а также с целью развития речевых умений младших школьников, их мышления разработана система работы над словосочетанием.

Значимость работы над словосочетанием в начальных классах определяется тем, что большое количество грамматических, орфографических и иных упражнений по русскому языку основывается не на связном тексте, не на предложении, а на словосочетании.

Однако при изучении синтаксического строя русского языка следует учитывать, что изучение словосочетания не является самоцелью, поэтому в работе над этой темой необходимо использовать упражнения, способствующие формированию и развитию речевых умений и навыков младших школьников, а также упражнения на составление предложений и построение связной речи.

Слова в составе словосочетаний и предложений вступают в определённые грамматические связи. Для того чтобы решить вопрос об отборе типов словосочетаний, нужно знать, что существуют три вида подчинительной связи: согласование, управление, примыкание.

Практическое овладение русским языком предполагает обязательное формирование навыков употребления синтаксических единиц языка. Теоретические правила, усвоенные учащимися, должны стать активным средством развития русской речи. Дети, руководствуясь этими правилами, учатся строить словосочетания, предложения, рассказывать об увиденном, знакомом материале [7, 47].

Предлагаемая система упражнений, отражающая обучение словосочетанию, нацелена на то, чтобы учащиеся поняли сущность зависимости одного слова от другого в пределах словосочетания, на совершенствование умения учащихся устанавливать по вопросам связь между словами; вычленять словосочетания из предложения; производить синтаксический разбор предложений; составлять словосочетания

Преимущества работы со словосочетанием приводит к тому, что огромное количество упражнений по русскому языку базируется не на связном тексте, не на предложении, а на словосочетании. Однако надо помнить, что словосочетание не самоцель. Поэтому, где только возможно, упражнения должны иметь выход к более высоким ступеням речевых упражнений к составлению предложений, к связной речи.

Литература

1. Рамзаева Т.Г., Львов М.Р. Методика обучения русскому языку в начальных классах.- М. Просвещение, 2005.- 240 стр.
2. Жинкин Н.И. Коммуникативная система человека и развитие речи в школе.- В сб.: Проблемы совершенствования содержания и методов обучения русскому языку. М., 2009, с.104.
3. Фигуровский И.А. Синтаксис целого текста и ученические письменные работы. – М.,1991- 150 стр.
4. Дудников А.В. Методика синтаксиса и пунктуации. – М., 2001- 210 стр.
5. Купалова А.Ю. Словосочетание предложение в школьном курсе синтаксиса. – М., 1994 – 59 стр.

6. Хасанова К. «Формирование духовно – нравственных качеств школьника». Халк таълими журнали, 2014г.- 4 с.
7. Кислицкая С.С. Особенности обучения словосочетанию учащихся начальных классов. Альманах современной науки и образования, No10 (112) 2016, -с.45-47.

UDK: 864.3.

O'ZBEK SHE'RIYATI TARIXINI O'RGANISH MASALALARI

S.R. Djuraeva

Samarqand davlat universiteti

Annotatsiya: Maqolada o'zbek adabiyotshunosligi tarkibida she'rshunoslik sohasining shakllanishi va taraqqiyoti haqida fikr yuritiladi. Muallif o'zbek she'rshunosligining tarixiy taraqqiyoti jarayonini davrlashtirish masalasi yuzasidan ilmiy –nazariy xulosalarini bayon etadi.

Kalit so'zlar: adabiyotshunoslik, muammolar, nazariy qarashlar, sharq poetikasi, fors-tojik, arab, rus, jahon, shakllanish, taraqqiyot, davrlashtirish.

Поэтапный подход к изучению вопросов истории узбекской поэзии

Аннотация: В статье раскрывается вопрос формирования и развития отрасли науки об узбекском стихосложении в составе узбекского литературоведения. Автор излагает свою научно-теоретическую концепцию по поводу поэтапного подхода к вопросу истории изучения узбекского стихосложения.

Ключевые слова: литературоведение, проблемы, теоретические воззрения, восточная поэтика, персидско-таджикский, арабский, русский, всемирный, формирование, развитие, поэтапный подход.

Step-by-step approach to studying issues of the history of Uzbek poetry

Abstract. The article reveals the issue of formation and development of the branch of science on Uzbek versification in the composition of Uzbek literary criticism. The author sets forth his scientific and theoretical conception on the step-by-step approach to the question of the history of studying Uzbek versification.

Keywords: literary criticism, problems, theoretical views, oriental poetics, Persian-Tajik, Arabic, Russian, world, formation, development, step-by-step approach.

O'zbek mumtoz she'riyatimiz nafaqat g'oyaviy-badiiy yetukligi, balki janrlar tarkibining boyligi bilan ham dunyo adabiyoti xazinasida alohida o'ringa ega. Xususan birgina adabiyotimizning gultoji sanalgan Alisher Navoiyning turkiy lirik merosida 16 xil (g'azal, mustazod, muxammas, musaddas, musamman, tarji'band, tarkibband, masnaviy, qasida, soqiynoma, qit'a, ruboiy, muammo, chiston, tuyuq, fard,) [3,4,5,10] she'riy janr qo'llanilgan edi. Keyingi izlanishlar natijasida bu ko'rsatkich 20ta [6], ba'zi ma'lumotlarga ko'ra 21 ta ekanligi aniqlandi [7]. Ya'ni Navoiy butun ijodi davomida yuqorida qayd etilgan 16 ta janrdan tashqari noma, ta'rix, lirik-epik turdagi "Xamsa", marsiya (fors-tojik tilida), tatabbu' va masal ("Xamsa"dagi) navlaridan ham foydalangan.

Adabiyotshunos R. Orzibekov Navoiyning lirik janrlar takomilidagi roli haqida to'xtalib, shunday ta'kidlaydi: "Navoiy dahosi, titanik mehnati tufayli ungacha Sharq, jumladan, o'zbek she'riyatida bo'lgan g'azal, qasida, ruboiy, qit'a, muammo, fard kabi lirik janrlar yanada takomillashdi, ularning badiiy ijod arsenalidagi roli yanada mustahkamlandi. Navoiy XV asrgacha o'zbek lirik poeziyasi janrlari tarkibida bo'lmagan soqiynoma, tarkibband, tarjiband, masnaviy-salomnoma, lug'az-chiston kabi janr va formalarda ham go'zal asarlar yaratib, arab, fors-tojik adabiyotiga xos janrlarning o'zbek adabiyoti uchun ham yashovchan ekanligini isbot etdi. Navoiy ilk bor o'zbek she'riyatiga bir necha vazn navlarini, xalq og'zaki she'riyati asosida shakllana boshlagan she'r-qo'shiq turlarini olib kirdi. U o'zigacha bo'lgan o'zbek shoirlari, chunonchi, Xorazmiy, Gadoiy, Yusuf Amiriy kabi keksa zamondoshlari ijodida ayrim namunalar yaratilgan musammat shakllarini ixtiro qildi, ustoz va zamondosh shoirlar, shuningdek o'z g'azallariga tazmin muxammas va musaddaslar yaratish usullarini boshlab berdi. Alisher Navoiyning boy va qudratli ijodi tufayli janr tarkibiga ko'ra ancha cheklangan o'zbek lirik poeziyasi XV asrning 2-yarmiga kelib janr rang-barangligi bilan ham shuhrat taratdi [5]. Navoiydan keyin so'z san'atkorlari tomonidan mavjud

she'riy janrlar rivojlantirildi, bir muncha boyitildi va ba'zilar yangi mazmun kasb etdi. Jumladan, Ogahiy lirikasida qo'llangan she'riy janrlar soni 19 taga etdi. Keyingi taraqqiyot jarayonida she'riyatimiz janriy tarkibi yanada boyidi: "Qariyb ming yillik tarixga ega bo'lgan o'zbek lirikasi asosan 61ta janr bilan ish ko'rdi, lirikada bu janrlarning ayrimlarining salmog'i pasaydi, ba'zi janrlar safdan chiqdi, ayrim janrlar yangi paydo bo'ldi" [8].

O'zbek adabiyotida lirik tur va janrlarning vujudga kelishi, shakllanishi va rivojlanishida, albatta, birinchi navbatda o'zbek xalq og'zaki ijodi, shuningdek, turkiy xalqlar uchun mushtarak bo'lgan og'zaki va yozma adabiyotning o'rni va roli beqiyosdir. Shuningdek, lirik janrlar takomilida boshqa yondosh xalqlar – arab, fors-tojik, XIX asrning oxiriga kelib rus adabiyoti va rus adabiyoti orqali jahon adabiyotining ham ta'siri katta bo'ldi. Xususan, boshqa xalqlar (arab, eron, ozarbayjon, turk, hind, yunon) bilan qadimdan davom etib kelayotgan adabiy-madaniy aloqalar va o'zaro ta'sir turli xil millatlar adabiyotida bir-biriga o'xshash syujet, obrazlar, badiiy shakllar va adabiy janrlarni vujudga keltirdi. Shuningdek, aruz, qofiya va badiiyatga tegishli ilmiy tushunchalar ham paydo bo'ldi. Buning samarasi o'laroq adabiyotshunoslikda she'r ilmi yuzaga keldi. Natijada lirika hamda uning janrlari, she'r unsurlari: qofiya, vazn, san'at va shu singlarlar she'rshunoslik ilmining alohida tadqiqot ob'ektiga aylandi.

Maqsud Shayxzoda bu haqda to'xtalganda: "Sharq klassik she'riyatining nazariy va amaliy faoliyatiga ko'rsatma va dasturamal bo'ladigan ilmlar paydo bo'lganki, bular "Ilmi bade'", "Ilmi aruz" va "Ilmi qofiya"dan iborat edilap", deb ta'kidlaydi[11].

U.To'ychiev "O'zbek poeziyasida aruz sistemasi" risolasida: "Adabiy turlar va ularga mansub bo'lgan janrlarning tuzilishi, she'r sistemalari va ularning qonun-qoidalari ham poetikaning doimiy tadqiqot ob'ekti hisoblanadi" [9], deb yuqoridagi fikrlarga qo'shilgan holda "...o'zbek adabiy tanqidi va adabiyotshunosligi ulkan rivojlanish yo'liga kirib olgan, ammo o'zbek she'rshunosligini bunday deb bo'lmaydi. "She'r nazariyasi va tarixi sohasida yozilgan ishlar soni etarli emas"[1]. Buni turkiy xalqlar aruzshunosligidagina emas, balki o'zbek aruzshunosligida ham ko'rish mumkin" [1], deb qayd etadi. To'g'ri, o'zbek adabiyotshunosligi tarixida she'r ilmiga maxsus bag'ishlangan asarlar oz miqdorni ko'rsatsa ham, lekin bu haqdagi fikr-mulohazalar bir qator ilmiy-adabiy asarlar tarkibida ham bildirilib o'tilgan edi. Adabiyotshunos Botirxon Valixo'jaev: "... o'tmishda adabiy-tanqidiy qarashlar, she'r va shoirlik haqida mulohazalar tarixiy yodnomalarda, esdalik tipidagi asarlarda, devonga yozilgan debochalarda, manoqib-holotlarda, kichik lirik janrdagi asarlarda, dostonlarning maxsus boblarida, tazkiralarda, aruz, qofiya, badoe' va sanoe'ga doir risolalarda, ba'zan esa umuman ilmi adab deb atalmish ilmlar turkumiga bag'ishlangan kitob va lug'atlarda bayon etilgan" [2], deb ta'kidlab, adabiyotshunoslik va adabiy-tanqidiy qarashlarning ifodalanish "janrlar"ini mohiyatiga qarab ikkiga - "bavosita janr"lar, ya'ni aslida adabiyotshunoslik va adabiy tanqidga bag'ishlanmagan asarlar va "bevosita janr"lar, adabiyotshunoslik va adabiy tanqid masalalaridan bahs yurituvchi asarlar; aruz, qofiya va badiiy san'atlarga bag'ishlangan asarlar guruhiga bo'ladi va ular tarkibida she'r, lirik janrlar, poetika, badiiyot, qofiya, aruz va umuman she'riyat nazariyasiga oid ma'lumotlarni uchratish mumkinligini ta'kidlaydi. Olimning mazkur qarashlarini ma'lum ma'noda she'r va she'rshunoslik ilmiga nisbatan ham qo'llasak mantiqan to'g'ri bo'ladi. Ya'ni she'rshunoslikka oid qarashlarni adabiyotshunoslik masalalariga bag'ishlanmagan asarlar, adabiyotshunoslikka bag'ishlangan asarlar va maxsus she'r ilmiga bag'ishlangan asarlar tarkibida uchratish mumkin.

Birinchi guruh asarlarda she'r va shoirlik haqida qisqacha mulohaza bildirilgan bo'lsa, ikkinchi guruh asarlarda bu muammolarga biroz kengroq to'xtalangan, uchinchi guruh asarlarda esa she'r, nazm haqida maxsus qoidalar, ilmiy g'oyalar keltirilgan, bu haqda to'liq, tugal fikrlar bildirilgan. So'nggi guruh yuqorida ko'rib o'tganimizdek maxsus "ilmi bade'", "ilmi qofiya", "ilmi aruz"ga bag'ishlangan asarlardan tashkil topgan bo'lib, bu borada Sharq va G'arb adabiyotshunosligida bir qator salmoqli ishlar amalga oshirilgan. Lekin bu bilan U.To'ychievning yuqoridagi fikrini inkor etib bo'lmaydi. Chunki, qayd etilgan asarlarning ko'pchiligi fors-tojik, arab tilida yozilgan yoki arab tili fonetikasi, grafikasiga mo'ljallangan edi. Agar she'r ilmiga bag'ishlangan asarlar fors-tojik adabiyotida XI asrdan yaratila boshlagan bo'lsa, "Shu vaqtga qadar aruz, qofiya va she'riy san'atlar haqida yaratilgan asarlarning ko'pchiligi arab tilida edi" va "buning ustiga ular asosan arab tilidagi she'riyatga tayanardi"[2]. Ya'ni ular o'zbek she'riyatining janriy xususiyatlarini yoritib berishga asoslanmagan bo'lsa-da, ular o'zbek she'rshunosligining shakllanishi va rivojlanishida ma'lum ma'noda ta'sir ko'rsatdi.

Adabiyotshunos olim B.Valixo'jaev "adabiyotshunoslik va adabiy tanqidiy qarashlarning ifodalanish holati va bu sohada bizgacha etib kelgan ma'lumotlarni nazarda tutgan holda uni qo'yidagicha davrlashtirish maqsadga muvofiq" ekanligini ta'kidlaydi:

1) Ilk qadamlar - bu davr o'zbek adabiyotshunosligi va adabiy-tanqidiy qarashlarning shakllanish bosqichi, ya'ni XI asrgacha bo'lgan davrni qamrab oladi. Bunda adabiyotshunoslik va adabiy-tanqidiy qarashlarni ifoda etuvchi janrlar ham hali etarlicha va to'liq emas edi. Mazkur davrda she'r va shoirlik haqidagi mulohazalar asosan umumiy tarzda bayon etilar va ko'pincha qorishiq holda ifodalanardi.

2) Taraqqiyot zinalari - mazkur davr o'zbek adabiyotshunosligi va adabiy-tanqidiy qarashlarning shakl va mazmun jihatidan takomillashgan davrini, ya'ni XV asrni qamrab oladi. Bu davrda adabiyotshunoslik va adabiy-tanqidiy qarashlar ham adabiyot tarixi, ham nazariyasi sohasida mulohazalarni ifoda etish bilan birga o'sha zamondagi adabiy jarayonning ayrim masalalari va namoyandalarning ijodi to'g'risida fikr yuritadi, o'tmish adabiyoti vakillari ijodiga doir kuzatish natijalarini (umuman va ma'lum asarlar yuzasidan ham) bayon etdi. Agar birinchi bosqichda badiiy adabiyot va uning vakillari haqida umumiy tor fikr yuritish asosiy o'rinni egallagan bo'lsa, ikkinchi bosqich, ya'ni taraqqiyot davrida mo'ayyanlik asosida umumlashtirishga o'tish ko'zga tashlanib turadi.

3) An'ana va yangilik - shartli ravishda shunday nomlangan davr XVI va XX asrlarni o'z ichiga qamrab oladi. Mazkur davr taraqqiyot zinalari deb atalmish bosqichda bayon qilingan adabiy-tanqidiy qarashlarga sodiq qolib, ularni qo'llab-quvvatlashi bilan birga she'r va shoirlikka doir har bir masala bo'yicha yangi fikr-u mulohazalarni ham bayon etdi. Bu davr XIX asrning 2-yarmidagi ijtimoiy-siyosiy va adabiy-madaniy hayotdagi o'zgarishlarni ham nazarda tutadi. Shunday qilib, adabiyotshunoslik va adabiy-tanqidiy qarashlar taraqqiyoti tarixini hozirgi kunda ana shu uch katta davrga bo'lib o'rganish ma'qul"[2].

Ushbu mulohazalarga tayangan holda o'zbek she'rshunosligining rivojlanish va o'rganilish tarixini quyidagicha davrlashtirish o'rindir:

1) Ilk-dastlabki qarashlar (XI, XIV asrgacha);

2) O'zbek mumtoz adabiyotshunosligida o'rganilishi:

a) XIV-XVI asr I-yarmi (Taroziy, Navoiy, Bobur asarlari);

b) XVI-XX asrning birinchi yarmi (turli she'riy parchalar takibida, Furqatning «Ilmi ash'orning qoidai avzoni» asari).

3) hozirgi o'zbek adabiyotshunosligida o'rganilishi (XX asrdan to hozirgi kungacha): a) 20-50 yillar;

b) 60-80-yillar; s) mustaqillik davri adabiyotshunosligida o'rganilishi.

She'r ilmi muammolari birgina o'zbek adabiyotshunosligida emas, balki dunyo adabiyotshunosligida o'ziga xos tarzda o'rganildi. Xususan, XX asrda rus va fors-tojik adabiyotshunosligida bir qator olimlar tomonidan tadqiqot ishlari olib borildi. Ularda umumadabiy masalalar bilan bir qatorda mumtoz adabiyotimiz namoyandalari, ularning jahon adabiyoti rivojiga qo'shgan hissasi, shuningdek, vaznlar, she'riy janrlar, badiiy san'atlar, mumtoz qofiya singari masalalar tadqiq etildi.

Xullas, she'rshunoslik ilmining shakllanishi va taraqqiyotini yaxlit tarzda o'zbek adabiyotshunosligi va jahon adabiyotshunosligi doirasida yoritish bir maqola tarkibida mumkin bo'lmaganligi sababli mazkur maqolada faqat o'zbek she'rshunosligi tarixiy taraqqiyoti davrlashtirilishga harakat qilindi.

Adabiyotlar

1. Бельчиков Н.Ф. Пути и навыки литературоведческого труда. - М.: Наука, 1975. С.184.
2. Валихўжаев Б. Ўзбек адабиётшунослиги тарихи (X-XIX асп). - Т.: "Ўзбекистон", 1993. 376 бет.
3. Исҳоқов Ё. Навоий поэтикаси. - Т.: "Фан", 1983. 47 бет.
4. Маллаев Н. Ўзбек адабиёти тарихи. 1-том, - Т.: "Ўқитувчи", 1960. 578 бет.
5. Орзибеков Р. Алишер Навоийнинг лирик жанрлар такомил ва ривождаги роли масаласига доир. Алишер Навоий ижодини ўрганиш масалалари. - Самарқанд: СамДУ, 1981. 214 бет.

6. Орзибеков. Ўзбек лирик поэзияси жанрлари ва генеологиясига доир. //Адабий жанрлар ва бадий маҳорат масалалари (Илмий мақолалар тўплами). - Самарқанд: СамДУ, 1991. 162 бет.
7. Тўйчиев У. Алишер Навоий назмида банд тартиботи ва шеър навлари. //Ўзбек тили ва адабиёти, 1991, 4-сон. Б.68-74.
8. Тўйчиев У. Адабий тур ва жанрлар (тарихи ва назариясига оид). 3 жилдлик. 2-жилд. Лирика. - Т.: "Фан", 1992. 497 бет.
9. Тўйчиев У. Ўзбек поэзиясида аруз системаси. - Т.: "Фан", 1985. 537 бет.
10. Салохий Д. Навоийнинг шеърини услуби масалалари. - Т.: "Фан", 2004. 178 бет.
11. Шайхзода М. Ғазал мулканинг султони. VI томлик. IV том. - Т.: Ф. Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1972. 198 бет.

UDK: 494.3:891.709

HAMID OLIMJONNING «O‘ZBEKISTON» SHE‘RIDA QO‘LLANILGAN TRANSPOZITIV SO‘ZLARNING USLUBIY VA FUNKSIONAL-SEMANTIK XUSUSIYATLARI

D. Islamova

Samarqand davlat universiteti

E-mail: dinara_islamova199005@inbox.ru

Annotatsiya. Mazkur maqolada Hamid Olimjonning «O‘zbekiston» she‘ri matnida qo‘llanilgan transpozitiv so‘zlarning uslubiy va funksional-semantik xususiyatlari ochib berilgan. She‘r matnida turli turkumlarga oid so‘zlarning emigratsion va immigratsion ko‘chish hollari tahlilga tortilgan.

Kalit so‘zlar. Hamid Olimjon, transpozitsiya, badiiy matn, emigratsion ko‘chish, immigratsion ko‘chish.

Стилистические и функционально-семантические особенности транспозитивных слов в тексте стихотворения “Узбекистан” Хамида Алимджана

Аннотация. В данной статье освещены стилистические и функционально-семантические особенности транспозитивных слов в тексте стихотворения “Узбекистан” известного поэта Хамида Алимджана. Анализированы случаи эмиграционных и иммиграционных транспозиций слов, относящийся к различным частям речи, в тексте данного стихотворения.

Ключевые слова. Хамид Алимджан, транспозиция, художественный текст, эмиграционный переход, иммиграционный переход.

Stylistic and functional semantic features of transpositive words in text of poem "Uzbekistan" by Khamid Alimjan

Abstract. This article highlights the stylistic and functional semantic features of transpositive words in text of poem "Uzbekistan" by famous poet Khamid Alimjan. The cases of emigration and immigration transpositions of words related to the different parts of speech are analyzed in text of this poem.

Keywords. Hamid Alimjan, transposition, artistic text, emigrated transposition, immigrated transposition.

Ma‘lumki, badiiy asar tilini o‘rganish jarayon tilshunoslikda muhim bo‘lib, yozuvchining so‘z va iboralarni qo‘llash mahoratini hamda uslubini namoyon qiladi. X. Doniyorov va B. Yo‘ldoshevlar ta‘kidlaganidek, uslub yozuvchining voqelikni individual obrazli o‘zlashtirishi, uni estetik – obrazli tasvirlash, individual badiiy talqin qilish usuli bo‘lib, uni o‘rganish bir qancha filologik, psixologik va falsafiy sohalarning o‘zaro hamkorligini talab qiluvchi muammodir. Badiiy asar tilini o‘rganish esa yozuvchi uslubi, individualligi va mahoratini aniqlashning muhim bir tomoni, xolos. Agar til – yozuvchi uslubining qalbi ekanini hisobga oladigan bo‘lsak, badiiy asarning til xususiyatlarini uning mavzusi, g‘oyasi va obrazlari bilan bog‘liq holda tekshirish yozuvchi uslubining eng muhim qirralarini aniqlashga olib kelishi muqarrardir [1.92]. Transpozitsiya ham yozuvchi uslubining muhim xususiyatlarini namoyon qiluvchi va badiiy asar tilining individualligini ta‘minlovchi asosiy vositalardan biri hisoblanadi.

Kommunikativ jarayonda tilshunoslikda ma'lum bir so'z turkumidagi birlik boshqa so'z turkumiga xos grammatik kategoriyalarni qabul qilishi kuzatiladi. J. Eltazarov ta'kidlaganidek, so'z turkumlararo aloqaning eng yuqori shakli turkumlararo ko'chish bo'lib, u tildagi universal qonuniyatlar bilan bog'liq. Til transformatsiyasi ana shunday qonuniyatlardan biridir [5.146]. Tilshunoslikda va umumiy tilshunoslikka oid turli xil manbalarda transpozitsiya atamasi turli xil nomlar bilan atalganligini va izohlanganligini ko'rishimiz mumkin.

«O'zbek tilinig izohli lug'ati»da ko'chish ya'ni transpozitsiya termini o'rniga konversiya atamasi qo'llanilgan. «Biror tizimga oid til birligini boshqa tizimga oid birlikka aylantirish bilan yangi birlik hosil qilish» [4.462], deb izohlanadi.

Azim Hojievning «Lingvistik terminlarning izohli lug'ati»da Transpozitsiya – (lot *transpositio* - o'rin almashtirish). Grammatik kategoriyalarning o'ziga xos bo'lmagan vazifada qo'llanilishi deyilsa, «Konversiya (lot. *Conversio* – aylanish, o'zgarish) so'zning fonetik va morfologik jihatdan o'zgarmay, bir so'z turkumidan boshqa bir so'z turkumiga o'tishi, shu yo'l bilan yangi so'z hosil bo'lishi» [6.45-48-94] deb izohlanadi. «O'zbek tili grammatikasi» kitobida transpozitsiya emas, balki konversiya atamasidan foydalanilgan. Ko'rinadiki, mazkur lug'atda ham, grammatikada ham tilshunoslikka oid boshqa manbalarda ham ko'chishning so'z turkumi darajasidagi turi uchun *transformatsiya*, *ko'chish*, *konversiya* va *transpozitsiya* kabi terminlarning qo'llanilishi kuzatiladi. Tilshunoslikda ham hozirgi kunda turkumlararo ko'chishda malum bir atama bilan emas, balki ko'chish, konversiya va transpozitsiya atamalaridan keng foydalanilmoqda. Tilshunoslik oldida turgan galdagi eng muhim vazifalardan biri mazkur atamani tartibga solish va fanga tadbiq etish hisoblanadi.

Transpozitsiya she'riyatda ma'lum bir so'z turkumidagi birlikdan boshqa so'z turkumiga xos grammatik kategoriyalarni qabul qilishi bilan birgalikda *ko'chim* tarkibida, *epitet* tarkibida kelib she'rning emotsional-ekspressiv ta'sirchanligini oshiradi. Jumladan, Hamid Olimjon o'zining poetik asarlarida turli xil badiiy usullardan, til vositalaridan, xususan jonli xalq tili imkoniyatlaridan keng foydalangan[1.148]. Shoir she'rlarida transpozitsiya ham emotsional – ekspressiv ta'sirchanlikni oshiruvchi va poetik asarning til imkoniyatlarini yuzaga chiqaruvchi vosita sifatida muhim o'rin egallaydi.

Tilshunosligimizda turkumlararo ko'chishda «Turli so'z turkumlarining bironta so'z turkumiga ko'chish emigratsion ko'chishni (EK), har bir so'z turkumining boshqa so'z turkumlarga ko'chish imkoniyatlari immigratsion ko'chishni (IK) ifodalaydi»[5.123]. Quyida Hamid Olimjonning «O'zbekiston» she'rining matnida qo'llanilgan transpozitiv so'zlarning turkumlararo ko'chishini ko'rib chiqamiz. So'z turkumlariaro otga *emigratsion ko'chishni* ya'ni, turli xil so'z turkumlariga xos birliklarning bitta so'z turkumiga ko'chish turlarini jadval asosida kuzatamiz.

Otga emigratsion ko'chishlar (otlashish):

№	Ko'chish tipi	Namuna	Izoh
1.	At>N:	<i>Pazandasi yopadi shirmon, Qarilari kutadi mehmon</i> - (Hamid Olimjon. Tanlangan asarlar.-Toshkent, 1951. 213-b.)	Manbada 1 marta At > N uchraydi
2.	Pro> N:	<i>Hammasining bir istagi bor, Hammasi ham xursand, baxtiyor.</i> (Hamid Olimjon. Tanlangan asarlar.-Toshkent, 1951. 212-b.)	Manbada3 marta Pro>N uchraydi.
3.	V> N:	<i>Bu o'lkada har narsa bordir, Ko'rmaganlar doim xumordir.</i> (Hamid Olimjon. Tanlangan asarlar.-Toshkent, 1951. 212-b.); <i>O'xshashi yo'q bu go'zal bo'ston, Dostonlarda bitgan guliston</i> -(Hamid Olimjon. Tanlangan asarlar.-Toshkent, 1951. 211-b.)	Fe'ning vazifaviy shakllaridan sifatdosh va harakat nomi shakli sintaktik vazifasiga ko'ra ko'chgan. Manbada 3 o'rinda V> N uchraydi
		Boshqa so'z turkumlarining otga ko'chishi she'riy matnda qayd etilmagan	

She'riy matndagi otlashish ya'ni substantivatsiya hollarida fe'ning otga ko'chishiga e'tiborimizni qaratsak. Fe'ning vazifaviy shakllaridan sifatdosh va harakat nomigina otga ko'chgan.

Harakat nomi va sifatdosh o'zlarining semantikasi va sintaktik vazifadorligi jihatidan otga yaqin bo'lsa, har ikkisinining yasalish asosi fe'ldir. Ana shu xususiyat ularning otga ko'chishini ta'minlagan.

Otning boshqa turkumlarga immigratsion ko'chishlarining quyidagi turlari qayd etilgan:

Otning immigratsion ko'chish hollari:

№	Ko'chish tipi	Namuna	Izoh
1.	N > At	<i>Qorli tog'lar turar boshida, Gul vodiylar yashnar qoshida.</i> (Hamid Olimjon. Tanlangan asarlar.-Toshkent, 1951. 211-b.)	Manbada 2 marta N>At uchraydi
		Otning boshqa so'z turkumlariga ko'chishi she'riy matnda qo'llanilmagan.	

Ko'rinadiki yuqoridagi jadvalda aksettirilgan ma'lumotlardan otdagi EKlar salmog'i IKlarga nisbatan kattaligi seziladi - EK va IK nisbati 3:1.

Sifat turkumidagi ko'chish hollari. Sifat ba'zi hollarda atributiv vazifada kelgani uchun sifatlashish miqdori chegaralanadi.

Sifatga emigratsion ko'chishlar (sifatlashish):

№	Ko'chish tipi	Namuna	Izoh
1.	N>At:	<i>Tog'lardagi qip-qizil lola, Bo'lib go'yo yoqut piyola,</i> (Hamid Olimjon. Tanlangan asarlar.-Toshkent, 1951. 211-b.)	Manbada 2 marta N>At uchraydi
2.	Num>At:	<i>Hammasining bir istagi bor, Hammasi ham xursand, baxtiyor.</i> (Hamid Olimjon. Tanlangan asarlar.-Toshkent, 1951. 212-b.)	Manbada 1 marta Num>At uchraydi
3.	Pro> At:	<i>Shunday o'lka doim bor bo'lsin, Shunday o'lka elga yor bo'lsin.</i> (Hamid Olimjon. Tanlangan asarlar.-Toshkent, 1951. 213-b.)	Manbada 6 marta Pro>At uchraydi.
		Boshqa so'z turkumlarining sifatga ko'chishi matnda qayd etilmagan	

Jadvaldan ko'rinib turibdiki she'riy matn tarkibida olmoshning sifatga ko'chishi boshqa so'z turkumlariga qaraganda ko'pchilikni tashkil qiladi.

Sifatning immigratsion ko'chish hollari quyidagi jadvalda aks ettirilgan:

№	Ko'chish tipi	Namuna	Izoh
1.	At>N:	<i>Pazandasi yopadi shirmon, Qarilari kutadi mehmon -</i> (Hamid Olimjon. Tanlangan asarlar.-Toshkent, 1951. 213-b.)	Manbada 1 marta At >N uchraydi
2.	At>Adv:	<i>Shuning uchun somonda yotmas, Shuning uchun sovugda qotmas.</i> (Hamid Olimjon. Tanlangan asarlar.-Toshkent, 1951. 213-b.)	Manbada 2 marta At >Ad uchraydi
		Sifatning boshqa so'z turkumlariga ko'chishi she'riy matnda qayd etilmagan	

Yuqorida keltirilgan jadvallardan ko'rinadiki, boshqa turkumlarning sifatga ko'chishiga qaraganda sifatning boshqa turkum a'zolari tarafiga ko'chuvchanligi chegaralangan. EK va IK nisbati - 3: 2. Bu hol, ayniqsa sifatning so'z birikmasi tarkibida aniqlovchi bo'lib kelishdek vazifasi bilan bog'liqdir.

Son turkumidagi ko'chish hollari. Mazkur she'riy matn tarkibida son so'z turkumidagi birliklarning boshqa turkumga ko'chishi ham boshqa turkumdagi so'zlarning songa ko'chishi ham chegaralanganligini ko'rishimiz mumkin. Bunga sabab qilib tilimizda miqdor tushunchasini faqat son anglatishini va shu sababli boshqa so'z turkumlari bilan aloqalari chegaralanganligini keltirishimiz mumkin. Bu xususiyat sonning ko'chishi va songa ko'chish hollarida ham o'z aksini topadi.

Songa emigratsion ko'chish (sonlashish):

№	Ko'chish tipi	Namuna	Izoh
1.	Pro > Num:	<i>Kundan-kunga o'sadi paxta, Barg chiqadi har bir daraxtda,</i> (Hamid Olimjon. Tanlangan asarlar.-	Manbada 1 marta

		Toshkent, 1951. 212-b.)	Pro>Num uchraydi
		Boshqa soʻz turkumlarining songa koʻchishi sheʻriy matnda qayd etilmagan	

Jadvaldan koʻrinib turibdiki, sheʻriy matn tarkibida faqatgina belgilash olmoshi miqdor songa koʻchganligini koʻrishimiz mumkin.

Sonning immigratsion koʻchishi emigratsion koʻchishga qaraganda keng. Sonning semantikasidagi atributivlik va sintaktik funksiyasi (aniqlovchi) uning immigratsion koʻchishlari doirasini kengaytiradi. Sheʻriy matnda mazkur koʻchish ham kamroq qoʻllanilgan.

Sonning immigratsion koʻchish hollari:

№	Koʻchish tipi	Namuna	Izoh
2.	Num> At:	<i>Hammasining bir istagi bor, Hammasi ham xursand, baxtiyor.</i> (Hamid Olimjon. Tanlangan asarlar.-Toshkent, 1951. 212-b.)	Manbada 1 marta Num>At uchraydi
		Sonning boshqa soʻz turkumlariga koʻchishi sheʻriy matnda qayd etilmagan	

Mazkur sheʻriy matn tarkibida son soʻz turkumidagi birliklarning EK va IK nisbati 1:1.

Olmosh turkumidagi koʻchish hollari. Sheʻriy matnda qoʻllanilgan transpozitiv soʻzlar orasida boshqa turkumga oid birliklarning olmoshlarga emigratsion koʻchishi(olmoshlashish) qoʻllanilmagan.

Olmoshning immigratsion koʻchish hollari:

№	Koʻchish tipi	Namuna	Izoh
1.	Pro >N:	<i>Hammasini tinglardim, ammo, Oʻxshashini topmasdim aslo.</i> (Hamid Olimjon. Tanlangan asarlar.-Toshkent, 1951. 211-b.)	Manbada 3 marta Pro >N uchraydi
2.	Pro> At:	<i>Bu shundayin ajib diyordir, Buning qiziq hikmati bordir.</i> (Hamid Olimjon. Tanlangan asarlar.-Toshkent, 1951. 213-b.)	Manbada 6 marta Pro >At uchraydi
3.	Pro > Num:	<i>Kundan-kunga oʻsadi paxta, Barg chiqadi har bir daraxtda,</i> (Hamid Olimjon. Tanlangan asarlar.-Toshkent, 1951. 212-b.)	Manbada 1 marta Pro >Num uchraydi
		Olmoshlarning boshqa soʻz turkumlariga koʻchishi sheʻriy matnda qayd etilmagan	

Mazkur sheʻriy matn tarkibida olmosh soʻz turkumidagi birliklarning emigratsion koʻchishi qoʻllanilmagan boʻlsa, uning IKga nisbati 0:3.

Ravish turkumidagi koʻchish hollari. Sheʻriy matnda qoʻllanilgan transpozitiv soʻzlar orasida faqatgina sifat turkumiga oid birliklarning ravishga emigratsion koʻchishi(ravishlashish)ikki marta qoʻllanilgan.

Ravishga emigratsion koʻchish (ravishlashish):

№	Koʻchish tipi	Namuna	Izoh
1.	At>Adv:	<i>Mehr qoʻyib oʻpgan sari oq, Oppoq boʻldi bu, aziz tuproq.</i> (Hamid Olimjon. Tanlangan asarlar.-Toshkent, 1951. 213-b.)	Manbada 2 marta At >Adv uchraydi
		Ravishlarning boshqa soʻz turkumlariga koʻchishi sheʻriy matnda qayd etilmagan	

Ravishning immigratsion koʻchish hollari sheʻriy matn tarkibida qoʻllanilmagan. Mazkur holatda EK va IK nisbati - 1:0.

Boshqa turkumlardagi birliklar feʻl soʻz turkumiga koʻchish(feʻllashish) xususiyatiga ega emas. Chunki soʻz turkumlaridan hech qaysisi feʻl bajaradigan vazifaga moslasha olmaydi. Lekin feʻl va uning vazifadosh shakllari aksariyat hollarda boshqa soʻz turkumlariga koʻchish xususiyatiga ega.

Feʻlning immigratsion koʻchishlari:

№	Koʻchish tipi	Namuna	Izoh
1.	V> N:	<i>Hammasini tinglardim, ammo, Oʻxshashini topmasdim aslo.</i> (Hamid Olimjon. Tanlangan	Manbada V>N 3 marta uchraydi

		asarlar.-Toshkent, 1951. 211-b.) <i>Buo'lkada har narsa bordir, Ko'rmaganlar doim xumordir.</i> (Hamid Olimjon. Tanlangan asarlar.-Toshkent, 1951. 21-b.)	
		Fe'ning boshqa so'z turkumlariga ko'chishi she'riy matnda qayd etilmagan.	

Jadvaldan ko'rinadiki, fe'ning harakat nomi shakli va sifatdosh shakli ham otga ko'chmoqda. Fe'ning immigratsion ko'chish hollari she'riy matn tarkibida 3 marta qo'llanilgan. Mazkur holatda EK va IK nisbati - 0:1.

Kuzatishlarimizga ko'ra, Hamid Olimjonning «O'zbekiston» she'ri matni 94 ta jumladan iborat bo'lib, jami she'rda 19 ta o'rinda transpozitsiya kuzatiladi va har 5 jumlaning birida ko'chkin so'z qo'llanishini kuzatamiz. Bu esa she'r matnining 20% ni tashkil qiladi. Bu o'rinda shuni alohida ta'kidlashimiz mumkinki, she'rda ko'chuvchanlik asosan ma'lum so'z turkumlari doirasidagina kuzatiladi. She'r matnida qo'llanilgan birliklar orasida ko'chuvchanlik yuqori bo'lgan so'z turkumlari ot, sifat vaolmosh hisoblanadi. She'rda qo'llanilgan transpozitiv so'zlar yozuvchining yuqori badiiy mahoratga ega ekanligini, yozuvchi uslubini va individualligini ko'rsatib bergan.

Adabiyotlar

1. Doniyorov X., Yo'ldoshev B. Adabiy til va badiiy stil'. Toshkent: Fan, 1988. –208 bet.
2. Xodjayorova B. A. Transpozitsiya semantik derivatsiyani voqelantiruvchi vosita sifatida // Alma mater. Yosh o'qituvchi va magistrantlarning ilmiy maqolalar to'plami(1- kitob). – Samarqand: SamDCHTI nashri, 2013. – 144 b.
3. O'zbek tili grammatikasi , I, Morfologiya. – Toshkent: Fan, 1975. – 610 b.
4. O'zbek tilining izohli lug'ati, besh jildli. Ikkinchi jild – Toshkent, 2006. –462 b.
5. Eltazarov J. So'z turkumlari paradigmasidagi o'zaro aloqa hamda ko'chish hollari. – Toshkent.: O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. 2006. – 170 b.
6. Hojiyev A. Lingvistik terminlarning izohli lug'ati. – Toshkent: O'qituvchi, 1985, – 168 b.
7. Hamid Olimjon. Tanlangan asarlar.-Toshkent, 1951. – 528 b.

UDK 891.709

OLMON SHOIR VA YOZUVCHILARINING ASARLARIDA NEMISCHA-O'ZBEKCHA PROZAIK TARJIMALAR

F.O'. Yakubov

Jizzax politexnika instituti

Annotatsiya: Ushbu ilmiy maqolamizda olmon-o'zbek adabiy aloqalari ilmiy ishlari tarixiga nazar solib, ularning asarlarini qiyosiy o'rganishni maqsad qildik. Bunda biz mustaqillikkacha bo'lgan nemis-o'zbek adabiy aloqalaridan: nemis-o'zbek prozaik, she'r, folklor aloqalariga ajratgan holda batafsil tasnifini berdik.

Kalit so'zlar: tarjima, tarjimashunoslik, prozaik asarlar, she'r, folklor, devon, roman, povest, ballada, tragediya, epigrama , metafora, o'xshatish, epitet va metonimiya.

Немецко-узбекские прозаические переводы в произведениях немецких поэтов и писателей

Аннотация: В данной научной статье мы поставили целью, взглянув на научную историю немецко-узбекскую литературную связь, изучение их произведений сопоставлением. Мы разделив немецко-узбекскую литературную связь до независимости на прозаическую , стихотворную, фольклорную связь дали их полную характеристику.

Ключевые слова: перевод, переводология, прозаические произведения, стихотворение, деван, роман, повесть, баллада, трагедия, эпиграмма, метафора, эпитет, метонимия.

German-uzbek prose translations in the works of german poets and writers

Abstract. We are going to learn about literary relationship and research works of German-Uzbek , and their novels with comparative method . We have fully classified from German-Uzbek literary relationship German-Uzbek prose , poem and folk –lore relationship separately.

Keywords: translation, interpretation, prose novels, poem folk-lore, novel, ballad, tragedy, epigram, metaphor, similar, epithet, metonymy.

Prozaik asarlar tarjimasiga kelganda, shuni aytish mumkinki, XX asrning 70-yillarida boshlangan vositali tarjimalar 90-yillarga kelib, bevosita tarjimalar orqali davom ettirilmoqda. Rus tili orqali o'g'irilgan nemis adabiyoti prozaik asarlaridan Mirkarim Osim tarjimasida o'g'irilgan X.Manning „Sodiq fuqoro“ romani, Vahob Ro'zimatov tarjimasida o'zbeklashgan A.Zegersning „Barhayot o'lkalar“ romani, mahkam Mahmudov tarjimasida o'zbek kitobxoniga yetkazilgan Frans Kafkaning „Kuygan ko'ngil faryodi“ novellalari to'plami va boshqalarni aytish mumkin. Ayniqsa keyingi yillarda Jahon adabiyoti jurnali sahifalarida e'lon qilingan F.Nitshening „Zardusht tavollosi“ asarining Ibrohim G'ofurov tarjimasi milliy adabiyotimizning go'zal falsafiy asar va ibratli tarjima bilan boyitdi. S.Yoqubovning „Gyotening „Faust“i o'zbek tilida“ nomli maqolasi o'rganilib, tarjimonning asar tarjimasidagi yutuq va kamchiliklari misollar orqali yoritib berildi [1]. Nemis adabiyotining o'zbekcha tarjimalariga bag'ishlangan ko'pgina tadqiqot ishlari amalga oshirildi. Jumladan, Safo Ochil, Salim Jabborov, Umrbek Sotimov, Poshali Usmon maxsus tadqiqotlar bilan shug'illanishdi. Bunday tadqiqotlar sirasiga Olim Ollaberganovning ishi misol bo'la oladi. U o'z ishida dastlab Gyote va o'zbek adabiyoti haqida ularning umumiy jihatlari va Gyote asarlarini o'zbek diyoriga kirib kelishi, asardagi asosiy g'oyaviy-falsafiy tushunchalarni tarjimada aks etishi, asar qahramonlari jumladan Faust, Mefistofel va Margaritalarni tarjimadagi izohi yoritib berildi [1]. Gyote ijodining o'rganilishiga bag'ishlangan ishlari sirasiga Salim jabborovning „G'arbu Sharq devoni“, „Matn.Izoh. Tarjima“ nomli tadqiqot ishi ham kirib,tadqiqotchi „Devon“da asosan qo'yidagi masalalarni yoritib beradi, hozirgi zamon gyoteshunoslarining yutuqlariga asoslangan holda, „G'arbu-Sharq devoni“ning qiyosiy-uslubiy, adabiy-tarjimaviy tahlilini berishga, „Devon“ poetik tabiatini o'ziga xos xususiyatlarini ochib berish, „Devon“ tarkibidagi laytmotivlarning roliga, olmon shoirida chuqur falsafiy mushohadalarni o'zida ifodalagan ohanglarning boyishiga va kuchaytirilishiga ahamiyat qaratgan.

F.Shiller dramalarining o'rganilishiga bag'ishlangan ilmiy ishlar sirasiga Namanganlik O'ktamali Nurmatovning „Shiller dramalari o'zbek tilida“ nomli ilmiy tadqiqot ishi ham kiradi.Dissertatsiya muallifi o'z oldiga Shiller dramalarining amalga oshirilgan tarjimalarini o'rganishni maqsad qilib oladi hamda o'zbek tarjimonlarining tarjima jarayonida yo'l qo'ygan yutuq va kamchiliklarini o'rganib chiqadi [3]. Keyinchalik F.Shillerning dramalari Robiyaxon Abdullayeva tomonidan o'rganilib chiqildi.Ushbu ilmiy ish „Shiller va o'zbek adabiyoti“ deb nomlanadi. R.Abdullayeva o'z ilmiy ishida asosiy e'tiborni F.Shiller dramalarida mavjud bo'lgan frazeologik iboralar hamda milliy koloritni aks ettiruvchi so'zlarni tarjima masalalariga ham to'xtalib o'tgan [4]. Yana bir tadqiqot Yanglish Egamova tomonidan amalga oshirilgan bo'lib, u o'z ishida asosiy manba sifatida nemis tilidan o'zbek tiliga vositali tarjima qilingan A.Zegersning ayrim hikoyalari va „Barhayot o'lkalar“ va Haynrix Haynening „Sodiq fuqoro“ romanlarining o'zbek tilidagi tarjimalarini tahlil qiladi. Ularda mavjud bo'lgan maqol, matal va idiomatik birikmalarning tarjima muammolariga to'xtalib o'tadi va avtor uslubi tarjimada qay tarzda berilganligi masalasiga javob topishga harakat qilingan [5]. Demak, prozaik asarlarning o'rganilish tarixida nemis adabiyoti, jumladan Y.V.Gyotening asarlarida mavjud bo'lgan obrazli vositalar, jumladan metafora, o'xshatish, epitet va metonimiyalarning nemis tilidan o'zbek tiliga qiyosiy o'rganilmaganligini ko'rsatdi.F.Shillerning dramatik asarlari dastlab rus tili orqali o'zbek tiliga o'girildi. „Makr va muhabbat“ dramasini Xurshid 1921 – yili, A.Ayub 1936 – yili, K.Yashin va A.Muxtor 1939 – yilda, „Vil'gelm Tell“ dramasi 1939 – yili, N.Vazixonova va 1955-yili G'.G'ulom tomonidan, „Qaroqchilar“ dramasini Xurshid – 1921 – yil, A.Muxtor – 1955-yil, „Mariya Styuart“ dramasi 1970 – yili T.To'la tomonidan tarjima qilindi. Gans Zibening „Berhayndagi qotillik“ povesti1985-yilda nemischadan Mahmud Ro'zioxunov, Genrix Manning „Sodiq fuqoro“ romani 1970 – yilda ruschadan Mirkarim Osim tomonidan tarjima qilingan.

Prozaik asarlar tarjimalari qatoridan qo'yidagi tarjimalar ham joy olgan:

- 1970 – yillarda nemis buyuk adibi Y.V.Gyotening „Faust“ asari Erkin Vohidov tomonidan rus tili orqali tarjima qilindi. Bu asar o'zbek germanistlari orasida qo'ldan-qo'lga o'tib sevib o'qildi.
- Bruno Apits. Qashqirlar changalida. Roman. Toshkent. G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti. 1986. – 397 b. Tarj. nemischadan Yanglish Egamova. (Bruno Apitz. Nakkt unter Volfen)

- Gans Zibe. Berhayndagi qotillik. Povest. Toshkent. Gʻafur Gʻulom nomidagi Adabiyot va sanʼat nashriyoti. 1985. – 93 b. Tarj. Nemischadan Mahmud Roʻziyoxunov.
- Genrix Mann. Sodiq fuqoro. Roman. Toshkent. Gʻafur Gʻulom nashriyoti. 1970. – 459 b. Tarj. Ruschadan Mirkarim Osim.
- Lizelotta Velskopf – Genrix. „Tokey Ito. “Katta ayiq farzandlari” romanlar turkumining uchinchi kitobi. Toshkent. “Yulduzcha” nashriyoti. 1989. – 380 b. tarj. Rus tilidan Muhammad Rahmon.
- Fridrix Shiller. Makr va muhabbat. Sheʼrlar, dramalar. Toshkent. Gʻafur Gʻulom nomidagi Adabiyot va sanʼat nashriyoti. 1985. – 331 b. Tarj. Robiyaxon Abdullayeva.
- Lizelotta Velskopf – Genrix. Tokey Ito. “Katta ayiq farzandlari” romanlar turkumining uchinchi kitobi. Toshkent. “Yulduzcha” nashriyoti. 1989. – 380 b. tarj. Rus tilidan Muhammad Rahmon.

S.Saidov nemis adibasi Anna Zegersning “Barxayot oʻliklar” romanining 1962 – yili rus tilidan A.Abdullayev va N.Roʻzimatov tomonidan qilingan tarjimasini asl nusxa bilan solishtirib, 308 ta xato mavjud ekanligini aniqlaydi. Bu xatolarning 109 tasi yoki uchdan bir qismi, rus tarjimoni yoʻl qoʻygan nuqson, bularni oʻzbek tarjimonlari aynan takrorlash bilan birga oʻzlari ham 199 ta xato qoʻshganlar. S.Saidov bilvosita emas, balka bevosita original tili - nemis tilidan tarjima qilish lozim, bu davr taqozosidir, degan xulosaga keladi. Bu gʻoyatda toʻgʻri, oʻrinli talab. Biroq shuni ham esda tutish kerakki, faqat original tilidan oʻgirish vojib deyilganda edi, balki biz jahon adabiyotida vujudga kelayotgan bebaho asarlar bilan ona tilimizda juda-juda kechikib tanishgan boʻlar edik. Rus adabiyoti tarjimachilik borasida ham jahonda eng yuqori pogʻonada turadi.

Maʼlumki, Y. Gyote, F. Shiller, H. Hayne, H. Mann, A. Zegers, Aka-uka Grimmilar, F. Volf, Y. R. Bexer kabi qator nemis shoir va yozuvchilarining asarlari ham ruscha tarjimalar tufayli oʻzbek kitobxonlariga yetib keldi.

«Nemis Shekspiri» Fridrix Shiller ham adabiyotda mafkuraviy kurashlar davom etayotgan bir paytda 20-yillarda oʻzbek adabiyotiga kirib keldi. Uning «Qaroqchilar» dramasi 1920 yili, «Makr va muhabbat» esa 1921 yili shoir Xurshid (Shamsiddin Sharafiddinov) tomonidan tarjima qilindi. «Makr va muhabbat» fojiasini 1936 yili Aʼzam Ayub, 1938 yili esa Komil Yashin bilan Maʼruf Hakim oʻzbekchalashtirdi. Shillerning «Qaroqchilar» dramasi 1955 yili Asqad Muhtor tomonidan qayta tarjima qilindi. Buyuk nemis adibining «Vilgelm Tell» dramasi 1939 yili Nabi Valihonov «erkin» tarjima qilgan boʻlsa, 1955 yili uning ikki koʻrinishini-asarning yechimini Gʻ.Gʻulom oʻzbekchalashtirdi. 1966 yili shoirning «Asoratdagi Pegas» nomli sheʼri Muhammad Ali tarjimasida eʼlon qilingan boʻlsa, 1977 yili uning yana bir asari - «Mariya Styuart» tarixiy tragediyasi Turob Toʻla tarjimasida oʻzbek oʻquvchilari eʼtiboriga havola qilindi. Koʻramizki, Shiller asarlari rus tili orqali oʻgʻirilgan tarjimalar tufayli, mana, 60-yillardan beri oʻzbek adabiyotida munosib oʻrin tutib kelmoqda.

Kuzatishlar shuni koʻrsatadiki, Fridrix Shillerning «Makr va muhabbat» tragediyasi M. L. Mixaylov, N. Slavyatinskiy, N. Lyubimov tarjimalarida, «Qaroqchilar», N. Slavyatinskiy va N. Man, «Mariya Styuart» Vilmont va Pasternak, «Orlean qizi» romantik fojiasi V. G. Jukovskiy, «Vilgelm Tell» Dramasi N. Slavyatinskiy, «Genuyada Fiyeskoning fitnasi» asari Vs. Rozanov, «Don Karlos» dramasi V. Levik tarjimasida Shiller epigrammalari M. L. Mixaylov balladalar V. G. Jukovskiy va V. Levik tarjimalarnda originalga ancha yaqin, nisbatan mukammaldir. Binobarin, oʻzbek tarjimonlari ulardan asl nusxa oʻrnida foydalansalar, originalning gʻoyaviy va badiiy kamolotini oʻzbekcha tarjimada ham ancha toʻla saqlab qolishga erishish mumkin.

Xulosa qilib aytganda, biz ushbu maqolamizda mustaqillikkacha boʻlgan davr prozaik asarlar tarjimalarini kuzatuvlar jarayonida, koʻp hollarda tarjimoni amalga oshirganda bevosita emas, rus tilining ikkinchi vositachi til sifatidagi ishtirokida amalga oshirilganligini kuzatdik va bu vositachi tilidan amalga oshirilgan tarjimalar bevosita tarjimalar bilan solishtirilganda, vositachi tilidan oʻgʻirilgan tarjima maʼnosi asliyatdan uzoqroq ekanligi va bir-necha xato va kamchiliklarga yoʻl qoʻyilganligi kuzatildi.

Adabiyotlar

1. Yoqubov S. Gyotening “Faust”i oʻzbek tilida. Tarjima nazariyasi masalalari. Ilmiy ishlar toʻplami. 606 son. – T., 1979. – B. 93-96.
2. Abdullayeva M. Tarjimada milliy oʻzlikni ifodalash yoʻllari. Oʻzbek tili va adabiyoti. – Toshkent: 1985., 71 b.

3. Alloberganov A. Vosproizvedeniye yedinstva soderjaniya i formi podlinnika v poeticheskom perevode. Avtoref. dis. ... kand. filol. nauk. 1986. – 19 s.
4. Nurmatov U. Tragedii Shiller na o'zbekskom yazike. Avtoref. dis. kand. filol. nauk. – T., 1985. 20 s.
5. Abdullayeva R. Шиллер и Узбекская литература. Автореф. Дисс. на уч. степ. канд. фил. наук. – Ташкент, 1986. стр. 24.
6. Egamova Ya. Asl nusxadagi qahramonlar obrazini tarjimada qayta yaratish masalalari. F.f.n. diss. – T., 1974. 202 b.

UDK:82.1

O'ZBEK BOLALAR SHE'RIYATINING LINGVOPOETIKASI XUSUSIDA**Z.Sh. Ashurova***Samarqand iqtisodiyot va servis instituti*

Annotatsiya. Maqolada o'zbek poeziyasi rivojida tasviriy vositalarning roli haqida mulohazalar yuritilgan. Jumladan, bolalar she'riyatiga xos tegishma, masharalama, chandish, tez aytish, yepitet, badiha, chorloma singari vositalarning qo'llanishi shoir Quddus Muhammadiy asarlari misolida olib borilishiga harakat qilingan. Shuningdek, mazkur vositalarning she'riyatda ifodalanishi bolalar dunyoqarashi va tafakkurining kengayishidagi roli ham ko'rsatib berilgan.

Kalit so'zlar: bolalar adabiyoti, poeziya, lingvopoetika, she'riy janr, tasviriy vosita, epitet, tez aytish, tegishma, masharalama, chandish.

О полномочии детского человека

Аннотация. В данной статье рассмотрена роль образного выражения на развитие узбекской поэзии. В том числе, открываются особые виды поэтических жанров (тегишма, масхаралама, чандиш, тез айтиш) узбекской детской литературы на материалах произведений поэта Куддуса Мухаммади. Доказывается, что использование данного выражения в поэзии является расширением мировоззрения и мышления детей.

Ключевые слова: детская литература, поэзия, лингвопоэтика, поэтический жанр, образное выражение.

About the powers of the childhood man

Abstract. In this article, we are thinking about the role of figurative expression in the development of Uzbek poetry. Including, special kinds of poetic genres (tehisma, mashharalama, candish, tez aitysh) of Uzbek children's literature on the material works of the poet Kuddus Muhammadiy are opened. And also, it is proved that the use of this expression in poetry is an extension of the world outlook and thinking of children.

Keywords: children's literature, poetry, linguistic poetics, poetic genre, figurative expression.

O'zbek bolalar adabiyoti bo'yicha O.Safarov, R.Barakayev, S.Matchon, D.Rajabov, S.Yuldasheva singari olimlar tomonidan bir qator monografik tadqiqotlar yaratilgan. Bular ichida O.Safarovning o'zbek bolalar folklorining janrlari tarkibi va poetikasiga bag'ishlangan monografik tadqiqoti alohida ahamiyat kasb etadi. Unda bolalarga xos xalq og'zaki ijodining o'ziga xos janrlari va ularning lingvopoetik tahlili keng va atroflicha ilmiy tahlil etib berilgan.

Keyingi paytlarda badiiy asar matnini ham tilshunoslik, ham adabiyoshunoslik nuqtai nazaridan tadqiq etish barobarida lingvopoetika fani shakllanib, rivojlanib bormoqda.

Lingvopoetik masalalari tilshunos olimlardan N.Mahmudov, I.Mirzayev, M.Yo'ldoshev, G.Muhammadjonova, D.Shodiyeva singarilar tomonidan yoritib berilgan.

Biz ushbu ishimizda bolalar she'riyatida qo'llanadigan o'ziga xos ba'zi bir tasviriy vositalar tahlilini shoir Quddus Muhammadiy asarlari misolida ko'rib chiqishga harakat qilamiz.

Ma'lumki, bolalar she'riyatining asosiy qismini to'rtliklar tashkil qiladi. Ularda bolalar dunyoqarashining shakllanish jarayoniga yo'naltirish kuzatiladi:

Etikchamning bo'yi bor,
Kiyay desak juda tor.
Boyvachcha kunda kiyar,
Ko'ynasiga bizlar zor.

Bolalar she'riyatida ko'p uchraydigan janrlardan biri tegishmachoq hisoblanadi. Tegishmachoqlar qofiyadosh laqablardan o'sib chiqib, bolalarning bir-birlariga, hatto kattalarga hazillashlari, tegishlaridan tug'iladigan goh mutoyibali, goh mulozamatli, goh mazaxli yumoristik badihalari hisoblanadi.

1.Laqab-tegishmachoqlar:

Safiya safon,

Boshida chopon.

To'yga borar,

Bedasturxon.

2.Portret –tegishmachoqlar:

Yergash degan oti ekan,

Oyoqlari shoti ekan,

Noskadiday burni ekan,

Kajavaday qorni ekan,

Somonxona o'rni ekan.

Uyaltiruvchi tegishmachoqlar:

Xadicha xolam o'tirdi,

Asalga nonni botirdi,

Yoniga mushuk kelganda,

Mushti bilan qotirdi (urdi).

Yoki :

Yomg'ir yog'aloq ,

Echki sog'aloq .

Boylar bolasi-

Qorni yumaloq.

“Yomg'ir yog'ish”- tabiatga xos xodisa.jamiyatda esa suv bilan bog'liq hodisalar ko'p. She'rdagi tasvirlangan “boylar bolasi” oddiy xalqni “echkiday sog'ayotgan” amaldor otalari hisobidan tekinga qorinlarini shishirib yashayotganligini o'xshatish orqali zaharxanda bilan fosh etiladi.

Bu holat shoir ijodida shunday tasvirlangan:

...Chinor bo'laman , deпти,-

Minor bo'laman. Deпти.

Tarvaqaylab ketibdi,

O'zini unutibdi...

Bo'lib qopti baqa terak,

Yaproqsiz chaqa terak.

Bu she'rdagi terakning hammaga kerakligi aytiladi. Lekin u ulkan chinor bo'laman deyu o'zligini unutadi va keraksiz kundaga aylanishini tasviriy ifodada berilgan.

Masharalamalar hamma zamonlarda –o'tmishda ham, bugun ham yaratib kelinmoqda. Qaysi zamonda yaratilganidan qat'iy nazar, davrning tarixiy ruhiga muvofiq yozuvlar qiyofasida tasviriy ifodalar orqali fosh etiladi:

Gitler ekan badqovoq,

Afti –xunuk, karquloq.

Bosh deb olib yurgani-

Kalla emas, to'rqovoq.

Bola hali ijtimoiy voqelik mohiyatini chuqur idrok eta olmagan, anglab yetmagani tufayli obrazning asl mohiyatiga yarasha baho bera olmaydi. Natijada o'ziga tanish an'anaviy obrazli ifodalar va epitetlarga murojaat qilib, o'z nafratini masharalama orqali bayon qiladi.

Sen tug'ilib o'sishingni

U nomardlar hech ko'raolmas!

Dengizlarning orqasidan

Och qashqirdek olayishar

Urush istar , qon istashar,

Quturishib, yalanishar.

Bolalar qalbi qo'shiqqa shu qadar oshuftaki, ular hatto kundalik faoliyatlarining asosini tashkil etuvchi o'yinlari ham qo'shiqqa bog'langan.

Ular o'ynagani bir-birlarini qo'shiq aytib chaqiradilar va bu badihalar adabiyotda chorlamalar deb yuritiladi.

Bola bo'lsang, kelaver,
O'ynab-o'ynab ketaver.

Chorlamalar ko'pincha hayqirib aytiladi. O'yin ikki qarama-qarshi tarafga bo'linish asosida tashkil etilsa, cheklashmashoq aytishiladi. Cheklashmashoq odatda ikki bolaning o'zaro yashirincha kelishib –til biriktirib, o'zlariga yasama ot qo'yishlari asosida yuzaga keladi. Bu hol ularning onaboshi (o'yinboshi) bilan qiladigan savol –javoblarining sirliligini ta'minlaydi.

-Mati, mati,

Kimning navbati?

-Mening navbatim!

Yo chala mullo tovuqni,

-Toji tillo xo'rozni !

-Men toji xo'roz!

-O't men tomonga!

Bolalar onaboshi (o'yinboshi)ga murojaatda uning tashqi ko'rinishini ta'riflashni ham yoddan chiqarishmaydi:

-Onaboshi, onaboshi,

Yigitlarning qalam qoshi.

Nima yeysan? Ne olasan?

Atalami? Palov oshi?

Xullas, bolalar xilma –xil janrlardagi ancha shunday qo'shiqlarning qay birini shovqin solib, qay birini jo'r (doira shaklida o'ynab turib) bo'lib , qay birini raqsga tushib, qay birini yakkaxon holatda, qay birini yugurib, yoki sakrab , hakkalab chopgancha kuylash yoxud aytishni yaxshi biladilar. Xuddi shu asosda bolalar folklori va adabiyotida tasviriy vositalar navqiron avlodning yosh psixologik xususiyatlarini, badiiy ijodkorlik salohiyatini ifodalagan,unda bolalarning voqelikka munosabatlari, estetik –axloqiy qarashlari va rang-barang tuyg'u –kechinmalari o'z aksini topadi. Bu esa bolalar adabiyoti poeziyasi lingvopoetikasi bo'yicha keng va atroflicha izlanishlar olib borish va tadqiqotlar yaratishni taqozo etadi.

Adabiyotlar

1. Сафаров О.Жанровый состав и поэтика узбекского детского поэтического фольклора. АДД.-Ташкент, 1985.
2. Mahmudov N.Shayxzoda so'zining lingvopoetikasiga chizgilar//O'zbek tilshunosligining dolzarb masalalari .Ilmiy –nazariy njuman materiallari-Toshkent, 2009.-B.12-17.
3. Мирзаев И.Проблемы лингвопоэтической интерпретации стихотворного текста (на мат. Совр.узбекской поэзии) АДД.-Ташкент,1992.
4. Muhammadiy Quddus. Вахtimiz quyoshi.-Toshkent,1987

UDK: 681.14:371-3

TA'LIM SOHASIDA MEDIA VOSITALARIDAN FOYDALANISHNING PSIXOLOGIK-PEDAGOGIK JIHATLARI**M.A. Fayziyev, I.M. Shoniyazova***Samarqand davlat universiteti*

Annotatsiya. Maqolada ta'lim tizimida elektron mediadan foydalanish, media vositalarining muhim xususiyatlari, tarbiyaviy imkoniyatlari, media vositalarining psixologik-pedagogik jihatlari haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar. Media, multimedia, gipermatn, ergonomik talablar, illyustrasiyalar, refleksiya, virtual reallik, autizm, fobiyalar.

Психолого-педагогические аспекты использования медиа-материалов в образовании

Аннотация. В данной статье раскрываются психолого-педагогические аспекты внедрения и использования электронных медийных средств в системе образования, а также важные особенности медийных средств в образовании.

Ключевые слова: Медиа, мультимедиа, гипертекст, эргономические требования, иллюстрации, рефлексия, виртуальная реальность, аутизм, фобии.

Psychological and pedagogical aspects of the use of media in education

Abstract. The article reveals the psychological and pedagogical aspects of the introduction and use of electronic media in the education system, as well as important features of media in education.

Keywords. Media, multimedia, hypertext, ergonomic requirements, illustrations, reflection, virtual reality, autism, phobias.

Hozirgi davrdagi texnika va texnologiyalar taraqqiyoti ommaviy axborot vositalari (OAV), axborot manbalari va axborot yetkazib beruvchilar (kutubxonalar, arxivlar, internet va b.) faoliyatining beqiyos kengayishiga olib kelib, fuqarolarga uning ulkan hajmidan foydalanish imkonini yaratdi. Natijada fuqarolar ushbu axborotning ishonchli ekanligini baholash, o'z fikrini erkin aytish borasidagi huquqlarini to'laqonli amalga oshirish imkoniyatiga ega bo'lmoqda. Shuning uchun ham talabalarning media va axborot savodxonligini ta'minlashdek dolzarb masala ko'ndalang qo'yilmoqda.

«Media» atamasi (lotincha – medium, ya'ni vosita, vositachi, usul) turli ko'rinishdagi kommunikatsiya va axborot vositalarini anglatadi. Media tushunchasi mazmuniga axborotni yaratish, nusxalashtirish, tarqatish vositasi hamda mualliflar va ommaviy auditoriya o'rtasida axborot almashinuvining texnik vositalari kiradi [1].

Zamonaviy axborot va kommunikatsiya texnologiyalari «o'rtacha» o'quvchiga mo'ljallangan, o'quv materialining o'qituvchi tomonidan tasvirlanishi jamoaviy o'qitish doirasida ta'lim jarayonini individuallashtirish va faollashtirish imkoniyatini beradi. An'anaviy ta'lim tizimi usullari ommaviy axborot vositalari va kommunikatsiya imkoniyatlari sababli yangicha rivojlanishga ega bo'ladi. Media ta'lim tizimiga yangicha o'zgarishlar kiritib, o'quv fanlarini o'zgacha tarzda qayta quradi [2].

Ta'lim tizimini axborotlashtirish bilan bog'liq psixologik muammolar ko'p qirralidir. Ko'p jihatdan bu holat medialarning ta'lim jarayonidagi o'rni, o'quvchining media bilan, o'qituvchining o'quvchi bilan muloqoti muammosidir (bugungi kunda o'quvchining kompyuter bilan faol ravishda tezkor, faol va interfaol holda mavjud kompyuter dasturlari va o'quvchi orasidagi muloqot sifatida ko'rib chiqilmoqda). Demakki, bugungi kunda insonni media tomonidan boshqarish ta'siridan ozod etish muammosi tobora ilmiy ahamiyatga ega bo'lib bormoqda, bunga esa jarayonni nazorat etish, kompyuterlarni global va lokal tarmoqlarga birlashtirish orqali erishilishi mumkin.

Rossiyalik mutaxassis A.V.Osin elektron media vositalarining ta'lim tizimi uchun taqdim etayotgan yangi imkoniyatlarini ko'rib chiqar ekan, beshta yangi pedagogik usullar haqida so'z yuritadi. Masalan, interfaollik, ilk marotaba o'qituvchi ishtirokisiz attestatsiya qilish imkoniyatini beradi. Kommunikativlik axborotni qisqa muddatlarda yetkazish, o'quv jarayonini boshqarish, malakali pedagoglar bilan maslahatlashish imkoniyatini beradi, bunda ularning qayerda ekanligi muhim emas. Ammo mazkur imkoniyatlar elektron media vositalarining ta'lim-tarbiya jarayonida qo'llanilish pedagogik aspektlari kontekstida (kontekst, lotincha contextus – jips, bog'lanish, qo'shilish degan ma'noni anglatadi. Og'zaki yoki yozma nutqning nisbatan tugal qismi) ham ko'rib

chiqilishi muhim ahamiyatga ega bo'ladi. Multimedidan foydalanish ma'lumot qabul qilinishi va xotirada saqlab qolinishi uchun yangi psixologik sharoitlarini yaratib beradi. Zamonaviy axborot texnologiyalarining ta'lim sohasida qo'llanilishida ta'lim jarayoniga yo'naltirilishini talab etib, miyaning axborotni qabul qilish imkoniyatini oshiruvchi optimal funksional holatlar yaratilishi hisobiga ta'lim samaradorligini oshirish imkoniyatini beradi. U miya tomonidan axborotni qayta ishlash prinsipi asosida yotadigan neyrofiziologik mexanizmlar qo'llanilishiga tayanib, shu bilan birgalikda miyaning ta'lim olish imkoniyatlarini ta'minlaydi. Multimedia, bir vaqtning o'zida bir necha axborot uzatish kanallaridan foydalanib, turli vositalar bir-biriga yordam berishi uchun sharoit yaratib beradi. O'quvchilar oldida katta imkoniyatlar yuzaga kelib, bunda ijodiy yondashuvning turli qirralari ochilishi evaziga har bir axborot manbasi bir-biri bilan uzviylikda qo'llanila boshlaydi.

Media vositalarining muhim xususiyatlaridan biri – turli jarayonlarni obrazli, ko'rgazmali ravishda namoyon etish bo'lib, bunda ko'rgazmali variantlar turli nazariy tushunchalar bilan birgalikda namoyon bo'ladi.

Media yordamida modellashtirish obyekt yoki hodisaning turli sharoitlarda insonning barcha hissiyot a'zolari jalb etilgan holda, u haqda yorqin, obrazli tasavvur kelib chiqishiga yordam beradi. Gipermatn texnologiyasi oldin olingan bilimlarni mustahkamlash maqsadida, mantiqiy fikrlashning rivojlanishi, ta'lim mehnati ijodiy asosini kuchaytirish imkoniyatini beradi.

Zamonaviy axborotni taqdim etish vositalari ta'lim materiallariga nisbatan ergonomik talablarni hisobga olish darajasini oshirish imkoniyatini beradi: shrift hajmi va turi, matnga nafaqat rasmlar, balki tovush fragmentlari va kinokliplarni kiritish imkoniyatini beradi. Ergonomik nuqtai nazardan yangicha holat yuzaga keladi: o'quvchi o'ziga maqbul, ergonomik jihatdan ixcham ma'lumotlar ko'rinishini tanlab oladi. U mustaqil ravishda, tarmoqdan olinayotgan axborotning zarur jumlarini tanlab olishi, muayyan tartibga isbotni qurishi, fikrlash obrazini aks ettira olishi mumkin. Natijada, o'quvchilar masala mohiyatini yaxshiroq tushunib, fanga nisbatan qiziqishini orttirishi, o'quv adabiyoti bilan faolroq ishlashi mumkin bo'ladi [2].

Media qo'llanilishi individual ta'limga qaratiladi va bu holat umumiy ta'lim-tarbiya jarayonida yuz beradi. Bunda media tadqiqot obyekti va ta'lim vositasi sifatida namoyon bo'ladi. Ta'limni individuallashtirish jarayonida har bir o'quvchi faol, bevosita unga yo'naltirilgan faoliyatga jalb etiladi. Bunda fikrlash jarayoni uyg'onib, bilim olish ehtiyojlari namoyon bo'lib, ijodiy faollik rivojlanadi.

Elektron media ta'lim olish optimal tempini tanlash, materialni o'zlashtirish jarayonini nazorat qiladi, natija esa bir necha kundan keyin emas, bevosita dars jarayonida namoyon bo'ladi. O'quvchi materialni o'zlashtirish bo'yicha o'z usul va uslublariga ega bo'ladi.

Media, shu bilan birgalikda, tarbiyaviy imkoniyatlarga ham ega bo'lib, alohida yondashuv, e'tibor, tashkiliylikni talab etadi. Kompyuter bilan ishlash, o'z faoliyatini rejalashtirish, mas'uliyatli qarorlarni qabul qilish imkoniyatini beradi.

Internet tarmog'i axborot resurslari butun dunyoga mashhur san'at namunalari muzey va dargohlariga virtual sayohat qilish imkoniyatini beradi. Multimedia ensiklopediyalari va telekommunikasiya texnologiyalari, o'tmish va zamonaviy, jahon badiiy madaniyatiga hissa qo'shgan ijodkorlar ijodini tadqiq etish imkoniyatini beradi. Bunda kompyuter tasviriy san'at, badiiy ta'b shakllanishi, o'quvchilar fantaziyasi va ijodiy imkoniyatlarini ochish qurolidir [3].

Agarda an'anaviy ta'lim olish tizimi rag'batga erishish sifatida qabul qilinadigan bo'lsa (yaxshi baho olish, imtihonni muvaffaqiyatli ravishda qabul qilish), axborot va kommunikatsiya texnologiyalari qabul qilinishi o'quvchi bilim olish imkoniyatlarini shakllantirishga qaratiladi, bu esa bilim olish samaradorligini tabiiy ravishda oshiradi. Bunday imkoniyatning shakllanishi tayyorgarlik darajasidan kelib chiqqan holda o'quv faoliyati varianti va tempi tanlovi imkoniyatidan, qiziq vazifalar, ko'rsatmalar, metodik yordam ko'rinishidagi o'quvchi bilim olish sohasiga maxsus va nomaxsus ta'siri orqali amalga oshiradi (tarmoqda ishlash paytida, tizim va o'quvchi, o'quvchi va pedagog, tizim va pedagog orasida interfaol dialog orqali). Shunday qilib, axborot va kommunikatsiya texnologiyalari vositalari o'qish jarayoni psixologik omilini kuchaytiradi.

Ta'limni axborotlashtirishning ijodiy tomonlarini aks ettiruvchi ta'lim-tarbiya sohasida media vositalari qo'llanilishi yuqorida tilga olingan xususiyatlari bilan bir qatorda, ta'lim tizimini axborotlashtirishning psixologik aspektlarini tilga oluvchi qator holatlar mavjudki, ular o'ziga nisbatan salbiy munosabatni keltirib chiqaradi.

Illyustratsiyalar, rasmlar, grafika matn axborotini o'zlashtirishga ijobiy ta'sir o'tkazadi, ammo shunga e'tibor berish kerakki, turli hissiy qabul qilishlarning oddiy qo'shilishi (ko'rish, eshitish, taktil hissiyotlar) bilim olish jarayonlarini avtomatik ravishda yaxshilamaydi. O'qitish jarayonida multimedia vositalari qo'llanilishining muhim sharti simvol va kod tizimlarining foydalanuvchilar tomonidan ochilishidir.

Tematik qiziqish va bilim olish orasida bog'liqlik mavjud. Media qo'llanilgan holda o'quv ishining yaxshi tashkillashtirilishi, taqdim etilgan mavzuga nisbatan qiziqishni keltirib chiqarmaydigan maqsadsiz tadbirga aylanadi.

Kommunikatsiya elektron vositalari qo'llanilishi, o'zi bilan birgalikda muayyan yangilik effektiga ega bo'lib, materialning motivatsion va qiziqarli taqdim etilishiga ega bo'lib, ammo bu qiziqish ham muayyan vaqt o'tishi bilan pasayib boradi.

Ta'lim jarayonida mediavositalar qo'llanilishida pedagog quyidagi xususiyatlarni e'tiborga olishi lozim. Ya'ni, media ta'siri ostida yuzaga keladigan yangiliklar, an'anaviy muloqot shartlariga ko'chishi mumkin. Psixologlar tadqiqoti bo'yicha, taqdim etilayotgan material aniqligi, mantiqiyliigi va ketma-ketligi kuchayib, refleksiya mazmuni oshadi, ammo muloqot emotsional vositalari roli pasayadi.

O'qitilayotgan shaxsga nisbatan elektron media vositalari ta'siri yuqori yoki past darajada aks etishi mumkin: psixik hodisalar cheklangan doirasidan boshlab, shaxs o'zgarishidan darak beruvchi global muammolargacha (internet-bog'liqlik, xaker sindromi va boshqalar). Psixologlar, pedagoglar, axborot texnologiyalari sohasi mutaxassislari, o'yin, o'quv, professional kabi turli faoliyat turlari uchun axborotlashtirish oqibatlari tadqiqiga nisbatan katta e'tiborni tortadi. Ammo shaxs psixikasi global o'zgarishlari masalalari, keng ma'noda o'rganilmagan.

Faoliyatning turli sohalariga yuqori istalgan texnologiyalar tatbiq etilishi, asosan insonni kundalik jarayonlardan ozod etish va buning oqibatida uning rivojlanishi uchun sharoit yaratib beradi. Demak, media tatbiq etilishi ham faoliyat turlarining ko'pchiligini keraksiz faoliyat turlariga aylantiradi. Ammo medianing maqsadsiz qo'llanilishi jiddiy yo'qotishlarga olib kelishi mumkin. Masalan, maqsadsiz kalkulyatorlarning qo'llanilishi, hattoki, boshlang'ich maktabda ham og'zaki, xotirada tez sanash ko'nikmasidan mahrum etadi. Natijada o'quvchilar son tushunchasi bilan ishlashni bilishmaydi, chunki sonlar bilan bog'liq asosiy operatsiyalar haqidagi tushunchaga ega bo'lishmaydi.

Zamonaviy medialar turli axborotlarni olish imkoniyatiga ega bo'ladi. Shu sababli pedagogning vazifasi o'quvchilar tomonidan mustaqil ravishda olingan bilimlarni ta'lim olish jarayoni natijasi sifatida qabul qiladigan yangi bilimlar manbaiga aylantiradi.

Media keng tatbiq etilishi asosida o'quvchilar shaxsi emotsional rivojlantirishiga qaratilgan maxsus choralar qo'llanilishini talab etadi. Axborot texnologiyalari to'g'ridan-to'g'ri va yondashma ta'siri ostida shakllanayotgan texnokratik fikrlash, psixologlar fikriga ko'ra inson va uning qadriyatlarini (shu jumladan psixotexnikada ham) texnika, zamonaviy dunyo kundalik turmushi mazmuni, umuminsoniy manfaatlar va mazmun maqsadlari vositalari sifatida qabul qilinadi.

Turli holatlarni modellashtirish va tatbiq etish, nostandart qarorlarni amalga oshirish tasavvur, ijodiy imkoniyatlarni rivojlantirishga qaratiladi. Taniqli psixolog Y.Xazebukning ta'kidlashicha, virtual reallik tizimlari bilan ishlash imkoniyati, o'quvchilarga kibermaydonda g'oya tashlash bilan bir qatorda autizatsiyani ham keltirib chiqarishi mumkin, ya'ni yopiqlik, ichida sir saqlash va real hayotdan uzoqlashishni keltirib chiqaradi [4].

Bunda real harakatlarning muayyan virtual modellarga almashinishi yuz beradigan bo'lsa, shaxs to'laqonli rivojlanishi haqida gapirish mumkin bo'lmaydi. Shu bilan birgalikda, autizatsiya axborotlashtirish oqibati deyishimiz, shu jumladan, medianing ta'lim jarayonida qo'llanilishi haqida gapirishimiz qiyin. Aksincha, autizm kabi kasalliklar davolanishida maxsus kompyuter tizimlari qo'llanilib, virtual reallik tizimlari qator fobiyalardan davolanish imkoniyatini beradi, masalan, balandlikdan qo'rqishdan.

Shunday qilib, media qo'llanilishi oqibatlari ham ijobiy, ham salbiy bo'lishi mumkin bo'lib, u yoki bu texnologiya qo'llanilishiga nisbatan turlicha yondashuvni talab etadi. Ta'lim-tarbiya jarayonida elektron vositalar qo'llanilishini rejalashtirgan holda, pedagog o'quvchi shaxsiga xos bo'lgan o'ziga xosliklarni e'tiborga olib, dars rejasini tuzishi, materialning shaxsga yo'naltirilganligini ko'zda tutishi lozim, bu esa uning rivojlanish yo'nalishlarini belgilab beradi.

Xulosa qilib aytganda, biz zamonaviy kommunikatsiya texnologiyalaridan ko'proq ijobiy maqsadlarda foydalanish yo'llarini topishimiz maqsadga muvofiqdir. Ana shunday samarali yo'llardan

biri – ta'lim sohasini media texnologiyalari bilan yanada takomillashtirishdir. Demak, mediata'lim talabalarning intellektual salohiyatini oshirish bilan bir qatorda ularni turli mafkuraviy tajovuzlardan asrashda ham muhim o'rin tutadi.

Adabiyotlar

1. Mamatova Ya., Sulaymanova S. O'zbekiston mediata'lim taraqqiyoti yo'lida. O'quv qo'llanma. -T.: «Extremum-press», 2015. -94 b.
2. Лекционный курс (тезисы). Роль медиа в современном мире и образовании. <http://media-pedagogics.ru/lectures.html>
3. **To'lqin Eshbek.** Mediata'lim: yangi ta'lim usuli sifatida. <http://sharh.uz/munosabat/item/17008-mediatalim-axborot-tv-radio-internet>
4. Баранов О.А. Медиаобразование в школе и ВУЗе. – Тверь: Изд-во Тверского гос. ун-та, 2002. -87 с.

УДК: 37;377;377(077)

BO'LAJAK KASB TA'LIMI PEDAGOGLARIDA TADQIQOTCHILIK KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISHNING PSIXOLOGO-PEDAGOGIK ASOSLARI

I. B. Asqarov

O'rta maxsus, kasb-unar ta'limi tizimi kadrlarining malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash instituti

Annotatsiya. Ushbu maqolada tadqiqotchilik faoliyati tarkibiga kiruvchi amallarni, bo'lajak kasb ta'limi pedagoglari oldiga maqsadni to'g'ri qo'yishga, avval ancha oddiy harakatlarni, keyin ularni murakkablashtirib o'zlashtirish uchun topshiriqlarni tanlash va ishlab chiqish haqida so'z boradi. Natijada, o'qitishning barcha asosiy didaktik tamoyillarga amal qilgan holda bo'lajak kasb ta'limi pedagoglarida o'zlarining kasbiy vazifalarini kerakli darajada bajarishga imkon beruvchi, yetarlicha yuqori darajadagi tadqiqotchilik ko'nikmalarini shakllanadi.

Kalit so'zlar: tadqiqotchilik, ko'nikma, kompetentsiya, komponent, qobiliyat, kasbiy ta'lim, kasbiy sifatlar, tadqiqotchilik ko'nikmasi, tadqiqotchilik faoliyati, kasbiy kompetentsiyalar.

Психолого-педагогические основы формирования исследовательских навыков у будущих педагогов профессионального образования

Аннотация. В данной исследовательской статье рассматривается деятельность входящая в состав исследования правильной постановки перед собой определенных задач будущих преподавателей профессионального образования, к постановка или правильной цели, выбор заданий от простого к более сложному. В результате соблюдения всех основных дидактических принципов обучения будущих преподавателей профессионального образования имеют возможность выполнения профессиональных задач, достаточно развивает исследовательские навыки.

Ключевые слова: исследование, навык, компетенция, компонент, способность, профессиональное исследование, исследовательской деятельности, профессиональное качество, профессиональные компетенции.

Psychological and pedagogical basis of the formation of the research doctrine of future teachers of professional education

Abstract. In this article the matter is to set the right objectives of work performance of future pedagogues that comprise research activities, initially by doing much easier attempts, then choosing and working on complicated assignments that should be mastered.

Consequently, the research habits of professional studies pedagogues take shape sufficiently by following all the main didactic tendencies of teaching.

Keywords: research, habit, competency, component, ability, professional studies, research activities, professional competencies.

Hozirgi sharoitda bo'lajak mutaxasislarni mahsuldor harakatlarni amalga oshirish uchun ma'lum bir darajadagi tadqiqotchilik ko'nikmalariga ega bo'lishi lozim. Ta'lim oluvchilarning muammoni ko'ra bilishi, izlashi, to'g'ri ifodalashi, uni hal qilishni yo'llarini topish, o'z izlanishlari

natijasini qo'llashi, shuningdek orttirgan tajribadan yangi sharoitlarda boshqa masalalarni hal etish, foydalanish ko'nikmalariga ta'lim sifati va kasbiy tayyorgarlik darajasi bog'liq bo'ladi.

M.V.Nechayeva va N.N.Rashinaning fikriga ko'ra, "ta'limni nafaqat ta'lim oluvchilarning muayyan bilimlar yig'indisini o'zlashtirishiga, balki shaxsning rivojlantirishga, uning bilish va yaratuvchanlik qobiliyatlarini rivojlantirishga yo'naltirish kerak. Bu mustaqil, ma'suliyatli va fikr yurituvchi, hamkorlikka tayyor turadigan insonni shakllantirishga imkon berishi kerak" [7].

Oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak kasb ta'limi pedagoglarida tadqiqotchilik ko'nikmalarini shakllantirish jarayonini tashkil etish o'qitish jarayonini shaxsni rivojlantirishga (rivojlantiruvchi o'qitish nazariyasi) yo'naltirishni talab etadi. Shu bilan birga o'qitishda faoliyatli yondashuv muhim o'rinni egallaydi va u ta'lim oluvchilarning tadqiqotchilik faoliyatining o'qitishning tadqiqotchilik metodidan foydalangan hamda tashkil etish nazarda tutadi.

M.G.Gorbenkning fikriga ko'ra "o'qitishning tadqiqotchilik metodi – bu dastlabki asosi o'quv va ilmiy bilishning bosqichlari va mantiqning ma'lum darajadagi o'xshashligi mavjudligi to'g'risida g'oya xizmat qiluvchi metod bo'lib, u o'quv jarayonini tashkil etishni nazarda tutib, bunda ta'lim oluvchi hodisalar va jarayonlarni ilmiy tahlil qilishning metodologiyasi va metodikasi elementlarini o'zlashtiradi hamda o'zi uchun yangi bo'lgan bilimlarni mustaqil olish ko'nikmalarini egallaydi, faollikni, tashabbuskorlikni, qiziquvchanlikni tarbiyalashga imkon beradi, tafakkurni rivojlantiradi" [4;20 b]

Bunda muallif eng mahsuldor o'quv jarayoni nuqtayi nazaridan aynan o'qitishning tadqiqotchilik metodi muhim o'rinni egallaydi deb ta'kidlaydilar.

O'qitishning tadqiqotchilik metodining quyidagi belgilarini ajratgan:

- muammoni shakllantirish jarayoni;
- o'qituvchi ta'lim oluvchiga tayyor ko'rinishidagi bilimlarni o'zlashtirishdan hosil bo'ladi, ular bunday bilimlarga muammoni echish jarayonida erishadi;
- o'qituvchining faoliyati doimiy kuzatuv va maslahat rejimida masalani echish jarayonining boshqarishga keladi;
- o'quv jarayoni o'zining yuqori darajada mahsuldorligi dinamikligi bilan farqlanadi;
- olingan bilimlar mustahkamligi, asosiligi, etarlicha chuqurligi va haqiqiyliigi bilan xarakterlanadi;

M.G. Gorbenko tomonidan ajratilgan faoliyatning tuzilmasi elementlariga tayanib biz ta'lim oluvchining o'quv va tadqiqotchilik faoliyatlari o'rtasidagi aloqalarni aniqladik (1-jadval).

N.A Goloviznina o'z tadqiqotida o'quv jarayonida tadqiqotchilik metodini qo'llanishi yuqori sinf o'quvchilarining o'quv mehnatining alohida turi sifatidagi izlanish – tadqiqotchilik faoliyati rasmiylashtirishi deb ta'kidlagandik. o'qish jarayonining muvaffaqiyati o'quvchilarda quyidagilarni mavjud bo'lishini taqozo etadi:

- ijtimoiy va shaxsiy ahamiyatga ega maqsadlar;
- tadqiqotchilik qiziqishi;
- shaxsning sifatleri, havaskorlik, faollik, javobgarlik;
- aqliy faoliyatning maqbul usullarini egallash qobiliyati;
- o'qitish jarayonida fan metodlarini qo'llanishda mustaqillik;
- o'quv, tadqiqotchilik ishlari ko'nikma va malakalari [3;28-b].

Bo'lajak kasb ta'limi pedagoglarining tadqiqotchilik faoliyatining amalga oshirishlari bilan ifodalanadigan tadqiqotchilik ko'nikmalarning shakllanish jarayoni oliy ta'lim muassasalarida kasbiy ta'limiy yo'nalishlari ilmiy pedagogik jarayonning barcha funksiyalari yanada muvaffaqiyatli amalga oshirishiga imkon beradi.

1- jadval

Bo'lajak kasb ta'limi pedagoglarini o'quv va tadqiqotchilik faoliyati o'zaro aloqasi

Faoliyatning tarkibiy elementlari	O'quv faoliyati	Tadqiqotchilik faoliyati
Ehtiyoj	Bilim olish, o'z-o'zini rivojlantirish, kasbiy faoliyatga tayyorlanish	Zarur bilim va ko'nikmalarni mustaqil olish, kasbni mahorat, o'z-o'zini namoyon qilish darajasida o'zlashtirish
Maqsad	Tanlangan kasb bo'yicha kasbiy	Shaxsning intellektual – ijodiy

	mahoratning yuqori darajasi	rivojlanishi, yangi bilimlarni ishlab chiqish
Qilingan ishlar, harakatlar, operatsiyalar	Bilim olish, reproduktiv harakatlarni bajarish	Mustaqillikning yuqori darajasidagi bilish va intellektuallik
Vositalar	Haqiqatning psixik aks etishi va o'zgartirilishi	Haqiqatning (borliqning) o'zgartirilishi, sub`ektiv yangi bilimning yaratilishi
Predmet	Kasbiy bilimlar o'quv formatsiyasi – belgili tizim ko'rinishida	Kasbiy bilim va ko'nikmalar ilmiy axborot - belgili ma`noli tizim sifatida
Natija	Faoliyatli qobiliyatlar, dunyoqarash, kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarning shakllanishi	Faol – faoliyatli, ijtimoiy – ahamiyatli shaxs, yangi bilimlar, ishlab chiqarish ahamiyatidagi kashfiyotlar, tadqiqot metodlari, vositalari, kasbiy o'z-o'zini o'zi rivojlantirish

O'quv-tadqiqotchilik faoliyati yaxlit pedagogik jarayon bilan uzluksiz bog'langan. M.V Petrenkoning fikriga ko'ra, u quyidagilarni amalga oshiradi: “ta’lim funktsiyasini (o’quvchilarda fundamental ilmiy bilimlarni shakllantirish; tafakkurning ilmiy uslubining metodik usullarini va tavsiflarini o’zlashtirishi); tarbiyaviy (ilmiy dunyoqarashni shakllantirish, sinergetik idrok qilishni, ilmiy bilim asoslariga ijobiy munosabatda bo’lishni, intellektual rivojlanish va o’z-o’zini takomillashtirish uchun asoslarni shakllantirish); rivojlanuvchi (bilish faolligi, individual ijodiy kurtaklar, mantiqiy fikrlash va boshqalar)” [8; 16-bet].

I.A. Igoshevning fikricha: “tadqiqotchilik malakalari va ko'nikmalarini o'quvchilar tadqiqotchilik elementariga ega bo'lgan ishlarni mustaqil bajarishganda, mustaqil ravishda izlanuvchi eksperiment haqqoniyligini tekshirish metodlarini yoki taxminlarning asoslab berishida shakllanish mumkin” [5, 80 bet].

Yuqorida qayd etilganlarga asoslanib, asosan, biz bo'lajak kasb ta'limi pedagoglarida tadqiqotchilik ko'nikmalarini tadqiqotchilik faoliyatini to'g'ri tashkil etib shakllantirish mumkin deb hisoblaymiz, uni amalga oshirish jarayonida belgilangan barcha bosqichlar o'tilganda u intermozlanadi. Bundan keyin, tadqiqotchilik ko'nikmalari amaliy tajriba to'planishi natijasida yanada yuqori darajaga erishiladi.

Yuqorida qayd etilgan amallarni bajarib bo'lajak kasb ta'limi pedagoglarida tadqiqotchilik ko'nikmalarini shakllantirishga olib keladi. Tashqi predmetli faoliyatni ichki predmetli faoliyatga aylantirish aqliy harakatlarni bosqichma-bosqich shakllantirish asosida yotadi. Psixika va tashqi predmetli faoliyat birligi davomiyligiga ko'ra bu psixikada transformirlanadi, interozitsiyalanadi.

P.YA. Gal'perin konsepsiyasiga ko'ra tashqi predmetli faoliyat quyidagi bosqichma-bosqich qayta o'tish kerak [2].

1) Dastlabki mo'ljal olish bosqichi. Ta'lim oluvchi faoliyati ta'lim beruvchi faoliyati ketidan borishi kerak.

2) Materialli harakat bosqichi. Ta'lim oluvchi real predmet bilan harakat qiladi.

3) Baland ovozda chaqirish orqali harakat qilish bosqichi: ta'lim oluvchi tushunchalar bilan harakat qiladi, harakatning bajarilishi to'g'risida ovoz chiqarib gapiradi;

4) O'ziga – o'zi gapirish bosqichi: ta'lim oluvchi tushunchalar va namunalar bilan harakat qiladi, o'ziga-o'zi gapirib harakat qiladi;

5) Aqliy harakat bosqichi: ta'lim oluvchi asosan na`munalar bilan harakat qiladi va darhol harakat natijasini ko'radi.

N.L. Golovizninaning fikriga ko'ra tadqiqotchilik ko'nikmalarining shakllanish mexanizmi quyidagi operatsiyalar ketma-ketligi bilan taqdim etilishi mumkin:

- harakatning maqsadini aniqlash;

- harakatning motivatsion asosining ta`minlanishi;

- harakatni amalga oshirishda ta'lim oluvchilarning yaxshi o'zlashtirib olgan bilimlari va shaxsiy tajribasiga tayanish;

- harakatni maxsus mashqlar tuzish orqali mustahkamlash (pedagogning rahbarligi, nazorati, qo'llab – quvvatlashi asosida);

- ta'lim oluvchilarning harakatni bajarishi ustidan o'zini-o'zi nazorat qilishini o'rganish;
- harakatni mustaqil bajarish [3, 52-53betlar].

E.A. Yulpatovanning fikriga ko'ra "O'quvchilarning tadqiqotchilik faoliyati – bu o'qituvchi va o'quvchining avval sub`ektiv noma`lum bo'lgan, ya'ni uning natijasi tadqiqotchilik pozitsiyasi va tadqiqotchilik ko'nikmalari hisoblangan narsani ishlash bo'yicha o'zaro hamkorlikning ijodiy jarayondir" [9, 17b].

Shu nuqtai nazardan kasb ta'limi pedagogi uchun o'quvchilarning cheklangan bilim va malakalari bo'lishiga bog'liq (sub`ektiv no'malumning katta hajmda), ammo ikkinchi tomondan u o'quvchilarning qobiliyatlari bilan, ularning ishlab chiqarish ta'limi sharoitida o'qituvchi bilan bunday o'zaro aloqalarni amalga oshirishga tayyor turishi va bunga xohishi borligi bilan asoslanadi [1].

Mazkur darajadagi oliy ta'lim muassasalarining kasbiy ta'lim yo'nalishlari o'quv muassasalaridagi o'qitish jarayoni kasbiy ko'nikmalar va malakalarni egallash bilan bir qatorda to'liq o'rta ma'lumot olishni ham nazarda tutadi. Ammo ilmiy ishlab chiqarish ta'limi o'quvchilari faoliyatining asosiy turi kasb-hunar egallash bo'lgani uchun biz tadqiqotchilik metodini qo'llash jarayoni ishlab chiqarish ta'lim sharoitiga ko'chiramiz va tadqiqotchilik faoliyati asosida ilmiy ishlab chiqarish ta'limi o'quvchilarida tadqiqotchilik ko'nikmalarining shakllantirishini nazarda tutamiz.

Bo'lajak kasb ta'limi pedagoglarining bilimlarni o'zlashtirishi o'z navbatida quyidagi ikkita sifat jihatdan farq qiluvchi shakllarda amalga oshirilishi mumkin: bo'lajak kasb ta'limi pedagoglarining qandaydir bilish tizimi ko'rinishida taqdim etishga tayyor bilimlarni anglashi va qabul qilishi; bo'lajak kasb ta'limi pedagogining tadqiqotchilik faoliyati kashfiyot (sub`ektiv yangi bilim).

Bo'lajak kasb ta'limi pedagoglarida tadqiqotchilik ko'nikmalarni shakllantirishning asosiy bosqichi sifatida, aynan uni qo'llash bilan bog'liq faoliyatni qaraymiz. SHuning uchun oliy ta'lim muassasalarida asosiy ta'lim yo'nalishlarida bo'lajak kasb ta'limi pedagoglariga nazariy va amaliy ta'lim berish jarayonida ular shakllanadigan tadqiqotchilik faoliyatni biz avval o'zlashtirgan bilimlarni amaliy qo'llash jarayoni, shuningdek teskari jarayon, ya'ni yangi bilimlarni olish jarayoni sifatida qaraymiz. Ma'lum bir mehnat operatsiyalarni amalga oshirish jarayonida qonuniyatlarni, texnologiyalarni aniqlash natijasida sub`ektiv yangi bilimlar shakllantirish yuz beradi.

Pedagogik ta'lim metodologiyasida va nazariyasida faoliyatni jamiyatning munosabatlari tizimiga kiritilgan undan tashqari u mavjud bo'la olmaydigan tizim sifatida ta'riflanadigan faoliyatli yondashuv etakchi hisoblanadi.

Faoliyat tizim sifatida aniq bir makrotuzilmaga ega. U o'z ichiga quyidagi komponentlarni qamrab oladi:

- Faoliyatga ma'lum bir yo'nalish beruvchi motivlar;
- insonning mehnat jarayonlari bo'ysunadigan natija sifatidagi maqsad;
- aniq bir faoliyatning mazmunini tashkil etuvchi harakatlar;
- harakatlar tizimini amalga oshirishga imkon beruvchi operatsiyalar majmuasi.

Tadqiqotchilik faoliyati-faoliyatning alohida bir turi bo'lib, u shaxsning izlanuvchanlik faolligi mexanizmi (dinamik, uzluksiz, o'zgaruvchi olamda organizmning barqaroligi) saqlanishiga imkon beradi va uning tadqiqotchilik xulqi negizida qurilish natijasida yuzaga keladi. Tadqiqotchilik ko'nikmalari tadqiqotchilik faoliyatining kechishida tuzilmaviy rasmiylashtirilgani uchun, uning yakuni asosiy me'zonlaridan biri hisoblanadi. SHuning uchun ham uni yanada batafsilroq tavsiflash zarur deb hisoblaymiz.

Tadqiqotchilik faoliyati ta'lim jarayonining bir shakli bo'lib hisoblanadi va bir qator belgilarga ega:

- tadqiqotchilik faoliyati o'ziga xos inson faoliyati bo'lib, u shaxsning ongi va faolligi bilan ma'lum bir natijaga erishish istagi bilan, ijodiy xususiyati bilan tartibga solinadi;
- faol qidirish mexanizmlarini jalb etish orqali;
- sub`ektiv yangi va o'xshashi yo'q mahsuldor faoliyat;
- mahsuldor faoliyatning shaxsiy ahamiyatligi va uni amalga oshirish jarayonida yangi faoliyat usulining paydo bo'lish bilan;
- o'z ichiga quyidagi bir qator operatsiyalar va harakatlarni oladi: 1) olingan natijalarni tahlil qilish (tahlil, sintez, tasniflash va boshqalar); 2) vaziyatni baholash va uning asosida bashorat qilish (farazni qurish); 3) bo'lajak o'qituvchi harakatlarini modellashtirish.

Chet el pedagogikasida ta'lim oluvchilarning tadqiqotchilik faoliyati tafakkurini, mustaqilikni, ijodiy rivojlantirishga; o'quvchilarda tanlangan fanga asosli qiziqishni o'rgatishga imkon beruvchi an'anaviy o'qitishni metodlariga muqobil sifatida qarab chiqilgan [10, 37-b].

Bularga tayangan holda, biz oliy ta'lim muassasalarida kasbiy ta'lim yo'nalishlaridagi o'quv jarayonini quyidagi talablarga muvofiq yangi bilish yo'nalishlarini izlash tarzida ko'ramiz:

- Bo'lajak kasb ta'limi pedagoglarini ularda mavjud bo'lgan g'oyalarni va tasavvurlarni ifodalashga, ularni ochiq ko'rinishda aytishga undash;
- Bo'lajak kasb ta'limi pedagoglarini mavjud tasavvurlari bilan qarama-qarshilikka kiruvchi hodisalar bilan tanishtirish;
- Takliflar, farazlar, muqobil tushuntirishlarni ilgari surishga undash;
- Bo'lajak kasb ta'limi pedagoglariga o'z takliflarni erkin holatda tadqiq etishga imkon berish;
- Bo'lajak kasb ta'limi pedagoglariga yangi tasavvurlarni ular bu tasavvurlarning amaliy ahamiyatini baholay olishlari uchun hodisalar, vaziyatning keng doirasiga qo'llash imkoniyatini beradi.

Shunday qilib, yuqorida bayon etilganlarning barchasi bizga tadqiqotchilik faoliyatining tashqi tomoni bo'lajak kasb ta'limi pedagoglarida tadqiqotchilik ko'nikmalarini shakllantirishga imkon beruvchi o'quv texnologiyasini ifodalash to'g'risida xulosa chiqarishga imkon beradi. Ichki tomoni esa – bu o'quvchining muammoli-izlanuvchan yo'nalishdagi ongli, faol faoliyati bo'lib, uning natijalaridan biri unda tadqiqotchilik ko'nikmalarini shakllantirish hisoblanadi.

Faoliyatda ichki va tashqi tashkil etuvchilarni bunday ajratish P.I. Pidkasistiyaga tegishli: “tadqiqotchilik faoliyatini ikki ya'ni, ichki va tashqi jihatdan qarab chiqish zarur. Ichki (fikrlash) komponentining mazmuni faoliyatning umumiy va xususiy maqsadlarini ishlab chiqishdan (faoliyat natijasi ta'lim oluvchilartomonidan fikriy faoliyat mazmuni ko'rinishida ishtirok etadigan maqsadni ifodalashda anglab etiladi), predmetli va faoliyat vositalarini taqqoslashdan va so'ngra shu asosda amallarni bajarish usullarini tanlab olish va konstruksiyalanashdan iborat”.

Tashqi komponentning mazmuni – bu faoliyat mavzusi bilan ma'lum bir ketma-ketlikdagi amaliy harakatlardir. Ular tadqiqotchilik faoliyatining predmetini o'zgartirishini ta'minlaydi.

Biz bo'lajak kasb ta'limi pedagoglarining ko'nikmalari komponentlarni qarab chiqib, quyidagi bir qator harakatlarni ajratdik: “tanlash vaziyatida o'zining bilish qiziqishlarini qanoatlantirish usulini mustaqil aniqlash, yuqori malakali mutaxassis darajasiga mo'ljal olib, kasbiy bilim va ko'nikmalarini mustaqil olish”. Bundan keyin, bo'lajak kasb ta'limi pedagoglari mazkur harakatni egallagan va unda ko'nikma shakllangandan so'ng, biz bunday ko'nikmaning tuzilishini ochib berib, biz mazkur ko'nikma tarkibiga kiruvchi yanada oddiyroq quyidagi harakatlar qatorini ajratdik:

- Bilim va ko'nikmalarni egallash samaradorligi reproduktiv (kimningdir orqasidan takrorlab yoki oddiy eshitib) emas, balki kasbiy tadqiqotchilik masalalarini echish jarayonida mustaqil aniqlash;
- Qaralayotgan faoliyat ko'rinishiga mos ichki motivlarni qidirish;
- Kasbiy darajaning mustaqil ta'lim olishga tayyorligi darajasiga bog'liqligini tushunish.

Xulosa qilib aytganda, biz bo'lajak kasb ta'limi pedagoglari bajara oladigan har qanday harakat bajarilishi natijasida ko'nikmaga aylanadi –degan xulosaga kelamiz. Bo'lajak kasb ta'limi pedagoglari murakkab ko'nikmalarni egallab borganlari sari oddiy ko'nikmalar harakatga aylanadi va hokazo. Tadqiqotchilik faoliyati tarkibiga kiruvchi amallarni (harakatlarni) bunday batafsil ko'rib chiqish bizga keying ishlarning borishida bo'lajak kasb ta'limi pedagoglari oldiga maqsadni to'g'ri qo'yishga, avval ancha oddiy harakatlarni, keyin ularni murakkablashtirib o'zlashtirish uchun topshiriqlarni tanlashga va ishlab chiqishga imkon beradi. Natijada, o'qitishning barcha asosiy didaktik tamoyillarga amal qilgan holda bo'lajak kasb ta'limi pedagoglarida o'zlarining kasbiy vazifalarini kerakli darajada bajarishga imkon beruvchi, etarlicha yuqori darajadagi tadqiqotchilik ko'nikmalarini shakllanadi.

Adabiyotlar

1. Asqarov I.B. “Bo'lajak kasb ta'limi pedagoglarini tadqiqotchilik tayyorlashning tashkiliy metodik modeli” Kasb –hunar ta'limi. –T.: O'MKHTTKMO va UQT, №5 2016.
2. Гальперин П.Я. Типы ориентировки и типы формирования действий и понятий // докл. АПН РСФСР. - 1985. - №2.
3. Головизнина, Н. Л. Исследовательские умения как средство развития самодетельности старшеклассников [Электронный ресурс]: Дис. ... канд. пед. наук :

- 13.00.01 .-М.: РГБ, 2005 (Из фондов Российской Государственной Библиотеки) автореф дис к.п.н. 13.00.01 Вятский гос. гуманитарный университет, Киров -2005 - 19 с.
4. Горбенко М. Г. Педагогические принципы формирования исследовательских умений и навыков на занятиях искусством в старших классах, дис. канд. пед. Наук 13.00.08, Москва, 2006 - 199 с
 5. Игошев И.А. Формирование и развитие исследовательских навыков и умений у учащихся в процессе обучения физике // Вопросы методики и психологии формирования физических понятий. - Челябинск, 1995. - С. 84-94.
 6. Калошина И. П. Психология творческой деятельности: Учеб. Пособие для студентов ВУЗов - 3-е изд., доп. -М. ЮНИТИ-ДАНА, 2008-655 с.
 7. Нечаева М. В., Рощина Н. Н. Педагогическая система развивающего обучения Л. В. Занкова: Учеб. Пособие. - Самара: изд. Дом «Федоров» 2006 - 176 с.
 8. Петренко, М. В. Педагогические условия подготовки старшеклассников к решению познавательных задач в современной школе [Текст]: автореф. дис.канд. наук. - СПб, 2003. - 22 с.
 9. Юлпатова, Е. А. формирование исследовательских умений старшеклассников в системе профильного обучения 13.00.01 дис. канд. пед. наук Волгоград — 2007.- 137 с.
 10. Graves D. H. Bring life to learning/ D. H. Graves// Educational leadership. 2000.

UDK: 377.1:08

**UMUMKASBIY TA'LIM FANLARINI O'QITISHDA MILLIY-MA'NAVIY
QADRIYATLARDAN FOYDALANISHNI TAKOMILLASHTIRISH**

R. X. Jiyankulova

Samarqand davlat universiteti

E-mail: jiyanqulovarahima@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada bo'lajak kichik pedagoglarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda milliy-ma'naviy qadriyatlardan foydalanish yo'llarini shakllantirish ketma-ketligini ilmiy-uslubiy jihatdan asoslash masalasi qaraladi.

Kalit so'zlar: o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi, tavsifnoma, malaka, kollejlari, intellektual salohiyat, kichik mutaxassislar, kichik pedagoglar, ta'lim texnologiyalari.

**Совершенство использования национально-духовных ценностей в обучении
предмета по общепрофессиональным направлениям**

Аннотация. В статье рассмотрены научно-методические основы формирования национальных ценностей у будущих младших специалистов в процессе их профессиональной деятельности.

Ключевые слова: среднее специальное профессиональное образование, характеристика, профессиональные коллеги, интеллектуальные способности, младшие педагоги, специалисты, технологии образования.

The developing of the usage of national spiritual traditions in teaching professional-educational subjects

Abstract. In the article the issues of the formation of the usage of national-spiritual traditions in training of young pedagogs are considered.

Keywords: secondary education, secondary specialized, recommendation, professional skill, vocational colleges intellectual ability, young specialists, young pedagogs, educational technologies.

“Biz mustaqillik yo‘lini tanlar ekanmiz, degan edi O‘zbekiston Respublikasining birinchi prezidenti I.A.Karimov - o‘z uyimizni bunyod etishda ikki asosiy tamoyilga tayanishimizni boshidayoq e‘lon qilgan edik.

Birinchi va eng muhim tamoyil - biz barcha islohotlarni hayotga tatbiq etishda o'tmishimizni teran his etib, xalqimizning ruhiyatini, uning tarixiy va milliy o'ziga xos jihatlarini, an'ana va urf-odatlarini, O'zbekistonning buyuk xalqi o'zining ko'p asrlik boy tarixi davomida to'plagan fazilatlarini imkon qadar inobatga olgan holda ish tutamiz.

Ikkinchidan, O'zbekiston butun dunyo uchun ochiq va biz sayyoramizda ro'y berayotgan jarayonlarni teran va puxta idrok etishga, demokratik qurilish, bozor munosabatlariga asoslangan xo'jalik yuritish borasida rivojlangan davlatlar to'plagan ulkan tajriba asosidagi zamonaviy sivilizatsiya yutuqlari bilan tanishish, Evropa va jahon hamjamiyatiga yanada faol qo'shilishga harakat qilamiz" [1].

Shu bois, barcha sohalaridagi singari ta'lim sohasida ham ulkan islohotlar amalga oshirilmoqda. O'zbekiston respublikasi "Talim to'g'risida"gi qonuni va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"ni qabul qilinishi va amalga oshirilishi buning yaqqol isbotidir.

O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi malaka talablariga mos holda kasbiy tavsifnoma asosidagi muayyan kasbga tayyorlov jarayonini amalga oshirish va bo'lajak kichik mutaxassislarni "mehnat bozori"ga zamonaviy raqobatbardosh qilib tayyorlash hamda bundagi raqobatbardoshlik: zamonaviy kasblarga mos kasbiy tavsifnoma va kasbiy malakaga qo'yilgan talablar; umumkasbiy tayyorgarligi; ijtimoiy va ma'naviy etukligi; kasbiy tashkilotchilik sifatleri; kasbiy tayyorgarlik darajasining kasb standartiga mosligi; kasb tayyorgarligidagi texnologiya sifatleri; kasbiy faoliyatga nisbatan innovatsion yondashuv qila olishligi; vaqt va o'quv vositalari hamda qurollaridan foydalanishda tejamkorliklari bilan belgilanadi. Shuning bilan birga kasb-hunar kollejlari bo'lajak mutaxassis omma orasida yashab turmush kechirishga va kasbiy yo'nalishi bo'yicha faoliyat ko'rsatish uchun zarur bilim, ko'nikma va malakalar majmuasini o'zlashtirishga qaratilgan ongli faoliyatga asoslanib tayyorlanadilar.

Shu sababli mazkur maqolada kasb-hunar kollejlari bitiruvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda ularning kasbiy-ma'naviy etukligi (ularning egallayotgan kasbga doir milliy-ma'naviy qadriyatlardan xabardarligi jihatidan) va intellektual salohiyatligiga qo'yilayotgan zamonaviy talablarni bajarish masalalaridan birini hal qilishni maqsad qilib oldik.

Ushbu sohada olib borgan kuzatishlar va izlanishlar natijalari bo'lajak kichik pedagoglarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda innovatsion o'zgarishlar qilish lozimligini va bu orqali sezilarli sifat o'zgarishlari qilib yuqori samaradorlikni qo'lga kiritish kerakligini taqozo etmoqda. Bunga sabab bular orqali ta'lim mazmunini milliy-ma'naviy qadriyatlardan foydalanish negizida modernizatsiya qilishga imkoniyat yaratiladi [1-5].

Bunday talablar asosidagi ta'lim-tarbiya jarayonini olib borish bo'lajak kichik pedagoglarning kasbiy jihatdan intellektual salohiyatini va ma'naviy etukligini yanada rivojlantiradi, ta'lim-tarbiya maqsadlarining dolzarbligini oshirib qaralayotgan jarayonning optimal variantlaridan birini tanlash imkoniyatini beradi va bo'lajak kichik mutaxassislarni kasbiy faoliyatga tayyorlashdagi optimal variantlarni qo'lga kiritish quyidagidek ta'lim jarayonining asosiy kategoriyalarini hisobga olishni talab etadi: ta'lim metodlari; ta'lim vositalari; ta'lim texnologiyalari; o'qitishga mos ma'lumotlarni tanlab va uni axborotga aylantirish; an'anaviy ta'lim mazmuni bilan milliy-ma'naviy qadriyatlarga oid ma'lumotlarni integratsiya qilish; olib boriladigan ta'lim mazmunini va unga kiritiladigan ma'lumotlarni tahlil qilish; innovatsion o'qitish xususiyatlarini aniqlash; o'qitishni komp'yuterlashtirish; o'qitishning asosiy hamda yordamchi vositalarini aniqlash va ular asosida ta'lim berishning algoritmini asoslash hamda uni joriy etishga tayyorlash. Bu esa o'z navbatida bo'lajak kichik pedagoglarni kasbiy faoliyatga tayyorlash yo'nalishining o'quv rejasi, o'quv dasturlari, o'quv rejasidagi fanlar bloklari va ularning aloqadorligi hamda ularga mos ma'lumotlar bazasiga bog'liq bo'ladi.

Kasb-hunar kollejlarning "3141600 – Boshlang'ich ta'lim va sport-tarbiyaviy ish" yo'nalishi bo'yicha na'munaviy o'quv rejasida quyidagi fanlar bloklari bor: umumta'lim fanlari; kasbiy ta'lim fanlari (umumkasbiy va maxsus fanlar) ; o'quv amaliyoti; pedagogik amaliyot, shuningdek, diplom oldi amaliyoti; davlat attestatsiyasi; kollej ixtiyoridagi soat. Ushbu sohadagi tajribalarning ko'rsatishicha qayd etilgan fanlar bloklarining mazmun-mohiyatini milliy-ma'naviy qadriyatlarga tegishli ma'lumotlar bilan integratsiyalashtirilgan holda olib borish bo'lajak kichik mutaxassislarni kasbiy-ma'naviy etuk va intellektual salohiyatli bo'lib shakllanishiga umumdidaktik asos vazifasini o'taydi.

Ma'lumki, kasbiy ta'lim (umumkasbiy va maxsus) fanlar bloki bo'lajak kichik pedagoglarni kasbiy faoliyatga tayyorlashdagi ta'lim dasturining majburiy fanlar blokiga kirib, ular yordamida umumta'lim fanlari bloki bilan mutaxassislik (ixtisoslik) fanlari bloklarining nazariy bog'liqliklari ta'minlanadi va nazariy olgan bilimlarni amaliy faoliyatdagi o'z o'rnini topishning vositalari, omillari, shakllari hamda uslublarining hayotiylikini amaliy jihatdan asoslash ishlarini amalga oshiradi. Ushbu fanlar blokidagi o'rganiladigan fanlar 17 tani tashkil etib, u o'quv rejadagi o'quv yuklamalarining bo'lajak kichik pedagoglarni kasbiy faoliyatga tayyorlash bo'yicha ta'lim dasturidagi nisbiy ulushning 26,8 foizini tashkil etadi, ya'ni umumkasbiy fanlar blokiga 9,6 foiz, maxsus fanlar blokiga 17,2 foiz ajratilgan.

Kasbiy ta'lim fanlari bloki o'z tarkibiga umumkasbiy va maxsus (ixtisoslik) fanlari bloklarini qamrab oladi va ularning bo'lajak kichik pedagoglarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda o'ziga xos salmoqli hissasi bor, ya'ni umumkasbiy fanlar blokidagi fanlar bo'lajak kichik mutaxassislarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda kasbiy bilim va ayrim kasbiy ko'nikmalar bilan ta'minlasa, mutaxassislik fanlari blokidagi fanlar esa kasbga tegishli maxsus bilimlarni, kasbiy faoliyat bo'yicha ko'nikmalarni va usullarni egallashga imkoniyat yaratadi.

Demak, kasb-hunar kollejlarda egallashi lozim bo'lgan kasb bo'yicha bo'lajak mutaxassislarda kasbiy jihatdan shakllanishi kerak bo'lgan kasbiy ko'nikmalar va malakalar asosini tashkil etuvchi bilimlar majmuasi shakllantiriladi.

Shularni e'tiborga olib pedagogika yo'nalishida tayyorlanadigan kichik mutaxassislarning o'quv rejasidagi o'quv yuklamalariga milliy qadriyat-larga oid ma'lumotlarni singdirish yo'llarini tadqiq qildik. Buning uchun mazkur tadqiqot ishimizda kichik pedagog kadrlarni milliy qadriyatlardan foydalangan holda kasbiy faoliyatga tayyorlashning mazmun-mohiyati va unga qo'yilgan zamonaviy talablar, kichik pedagog kadrlarni milliy qadriyatlardan foydalangan holda kasbiy faoliyatga tayyorlash uchun "Qadriyatlar tizimini shakllantirish muammolarini halqilishga harakat qildik [1].

Ularda quyidagi masalalar echimi hal qilindi:

-Kichik pedagogik kadrlarni milliy qadriyatlardan foydalangan holda kasbiy ta'lim fanlarini o'qitishning tashkiliy-tuzilmaviy modeli ishlab chiqildi;

-Bo'lajak kichik mutaxassislarni ma'naviy-kasbiy etuk va intellektual salohiyatli hamda raqobatbardosh qilib kasbiy faoliyatga tayyorlashga qo'yilgan zamonaviy talablar shakllantirildi;

-Bo'lajak kichik pedagoglarda shakllanishi lozim bo'lgan kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarni e'tiborga olgan holda ularni kasbiy faoliyatga tayyorlashda uzluksiz ravishda foydalanish uchun qadriyatlar tizimi shakllantirildi va unga mos tamoyilli tizim ham ishlab chiqildi;

Bo'lajak kichik pedagoglarni kasbiy faoliyatga tayyorlashdagi kasbiy ta'lim fanlarini o'qitishda milliy-ma'naviy qadriyatlardan foydalanishning integratsiyalashgan ta'lim muhiti shakllantirildi.

Ushbu sohada olib borgan izlanishlarimiz natijalari bo'lajak kichik pedagoglarni kasbiy faoliyatga tayyorlashdagi kasbiy ta'lim fanlarini o'qitish bo'yicha milliy-ma'naviy qadriyatlardan foydalanish yo'llarini takomillashtirishni quyidagi ketma-ketlik bo'yicha olib borishga imkoniyat yaratdi:

1. Pedagogika kasb-hunar kollejlardagi pedagogika fanining "Didaktika" va metodika qismini milliy qadriyatlardan foydalangan holda o'rganish metodikasini zamonaviy pedagogik texnologiyalari asosida ishlab chiqildi. Bunda kichik pedagog kadrlarni milliy qadriyatlardan foydalangan holda kasbiy faoliyatga tayyorlash uchun shakllantirilgan qadriyatlar tizimining tarkibiy qismlaridagi manbalar bo'yicha an'anaviy ta'lim mazmuni negizida integratsiyalangan ta'lim muhiti shakllantiriladi va undan amaliyotda keng foydalanishga pedagogik shart-sharoitlar yaratilishiga asosiy e'tibor qaratiladi.

2. Kichik pedagog kadrlarni milliy qadriyatlardan foydalangan holda kasbiy faoliyatga tayyorlashning ilmiy-metodik ta'minotini takomillashtirildi. Bunda quyidagidek o'quv-uslubiy ta'minot asosiy e'tiborda bo'ladi: milliy qadriyatlar va unga mos davlat huquqiy-me'yoriy hujjatlari; bo'lajak kichik pedagoglarni kasbiy faoliyatga tayyorlash bo'yicha ichki va tashqi ta'sirlar; kichik pedagog kadrlarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda milliy qadriyatlardan foydalanishning imkoniyatlari va ular negizida innovatsion yondashuv qilishning istiqbollari; milliy qadriyatlardan foydalangan holda bo'lajak kichik pedagoglarni kasbiy faoliyatga tayyorlash bo'yicha zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlari; bo'lajak kichik pedagoglarni kasbiy faoliyatga tayyorlash bo'yicha tayyorlangan ma'lumotlar bazasidan kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayonidagi o'z-o'zini baholash mezonlari va tamoyillaridan foydalana olish ko'nikmalari va shu kabilar.

3. Kichik pedagog kadrlarni milliy qadriyatlardan foydalangan holda kasbiy faoliyatga tayyorlashda dasturlashtirilgan ta'limdan samarali foydalanish metodikasini ishlab chiqish. Bunda "O'qituvchi – komp'yuter – o'quvchi" tizimidagi tarkibiy qismlarga e'tibor berilib, ushbu tizimga kiruvchi "Qadriyatlar – ma'lumotlar banki – o'qitish – o'rganish jarayoni – natijaviy ma'naviy-kasbiy bilim, ko'nikma va malakalar" tizimidan foydalanish jarayoniga dasturiy ta'minot ishlab chiqilishiga asosiy e'tibor qaratiladi.

4. Kichik pedagog kadrlarni milliy qadriyatlardan foydalangan holda kasbiy faoliyatga tayyorlashning pedagogik samaradorligini aniqlash va ular natijalaridan amaliy faoliyatda foydalanishga ilmiy-uslubiy tavsiyalar tizimini shakllantirildi. Bunda dastlab kichik pedagog kadrlarni milliy qadriyatlardan foydalangan holda kasbiy faoliyatga tayyorlashning samaradorligini aniqlash mezon va tamoyillariga e'tibor qaratiladi. SHuningdek, bo'lajak kichik pedagog kadrlarni kasbiy faoliyatga tayyorlashni takomillashtirish maqsadida ta'lim mazmuniga milliy qadriyatlarga oid ma'lumotlarni singdirish yo'llari tadqiq etiladi hamda bu bosqichda tajriba-sinov ishlarining yo'lga qo'yilishi va olingan natijalarning matematik tahlili, umumiy xulosalar hamda tadqiqot natijalari asosida shakllantirilgan ilmiy-uslubiy tavsiyalarga e'tibor berildi.

Ushbu ketma-ketlik bo'lajak kichik mutaxassislarni yangicha sharoitlarda ishlashga tayyorlovchi innovatsion jarayonni aks ettiradi va ushbu jarayon kasbiy ta'lim fanlarini milliy-ma'naviy qadriyatlardan foydalanish asosida ijobiy pedagogik samaralarni beruvchi yangicha yondashuv uslublarini va texnologiyalarini ishlab chiqish va ularni amaliyotga keng joriy etish negizida hal etildi.

Xulosa o'rnida ta'kidlash mumkinki, bo'lajak kichik mutaxassislarni kasbiy faoliyatga tayyorlashdagi ta'lim mazmuniga milliy qadriyatlarga oid ma'lumotlarni singdirish yo'llari pedagogika yo'nalishidagi kasb-hunar kollejarida kasbiy ta'lim fanlarini o'qitishning o'quv-metodik ta'minotini takomillashtirishda asosiy-ko'rsatmaviy asos bo'la oladi.

Adabiyotlar

1. I.A.Karimov. Yuksak malakali mutaxassislar - taraqqiyot omili. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat va jamiyat qurilishi akademiyasining ochilishi marosimida so'zlangan nutqi, 1995 yil 3 oktyabr.
2. Jiyanqulova R.X. Kasb-hunar kollejarida bo'lajak mutaxassislarni kasbiy faoliyatga tayyorlashning ilmiy-pedagogik asoslari. Monografiya.– T.: "Fan va texnologiya", 2015. – 160 b.
3. Jiyanqulova R.X. Kasb-hunar kollejarida kichik mutaxassislarni tayyorlashda badiiy mehnatdan foydalanish yo'llari // Uzluksiz ta'lim sifat va samaradorligini oshirishning nazariy-uslubiy muammolari: Respublika amaliy konferensiya materiallari– Samarqand, 2010.–B. 138.
4. Jiyanqulova R.X. Kasb-hunar kollejarida tarbiyaviy ishlarni tashkil etishda milliy qadriyatlardan foydalanish // Kasb-hunar ta'limi. IMJ. – T.: 2012. - № 3. – B. 22-25.
5. Jiyanqulova R.X. Bo'lajak mutaxassislarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda milliy qadriyatlardan foydalanish // Uzluksiz ta'lim. IMJ. – T.: 2014. - № 4. – B. 115-120.

UDK: 37:004

TA'LIMDA OMMAVIY OCHIQ ONLAYN KURSLARIDAN FOYDALANISH ISTIQBOLLARI

B.N. Qodirov

Jizzax davlat pedagogika instituti huzuridagi xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish hududiy markazi

E-mail: bekmurod.qodirov.85@mail.ru

Annotatsiya. Ushbu ishda ommaviy ochiq onlayn kurslarning o'ziga xos xususiyatlari talqin qilingan. Shu bilan birga ularning e'tiborga molik jihatlari, kamchiliklari hamda ta'lim tizimida undan foydalanishning istiqbollari haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: smart-jamiyat, ommaviy ochiq onlayn kurslar, kontent, konnektivizm, ochiq ta'lim resurslari.

Перспективы использования массовых открытых онлайн курсов в образовании

Аннотация. В этой статье выявлены отличительные особенности открытые онлайн-курсов. Рассмотрены вопросы организации данных курсов, а также перспективы их использования в системе образования.

Ключевые слова: интеллектуальное сообщество, открытые онлайн-курсы, контент, подключение, обучение с открытым исходным кодом, коннективизм.

Prospects for using open online courses in education

Abstract. In the article the distinctive features of public online courses were identified. At the same time, their considerations and shortcomings and the perspectives of their use in the education system were discussed.

Keywords: smart community, open online courses, content, connectivity are open sources of studying.

Hozirgi zamonda jamiyatning ijtimoiy sohasida o'z mavqeiga ega bo'lgan axborot ko'lami kompyuter texnikasi va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirishda muhim omil bo'lib hisoblanmoqda. Futurologlarning (kelajak ta'limot vakillari) fikricha axborotlashgan jamiyatning navbatdagi bosqichi smart-jamiyat yoki bilimlar jamiyati-deb nomlanadi. Bu esa, yuksak turmush tarzining ijtimoiy va iqtisodiy jihatlarida yangi samaralarga erishishlarga imkon beradigan sub'ektlarning o'zaro ta'sirlashuvining sifat jihatidan o'zgarishiga olib keladigan Internet va texnik vositalardan unumli foydalanishning majmuaviy ko'rinishidir. 2010 yilda Janubiy Koreaning Seul shahrida o'tkazilgan "Katta yigirmatalik" sammitidagi "Smart va barqaror rivojlanish" mavzusi bunga yaqqol misol bo'la oladi.

Jahon banki smart-jamiyatga (aqlli-jamiyatga) yaqinlashayotgan mamlakatlarning milliy farovonchilik tuzilmasining o'zgarishini quyidagicha bashorat qilgan: unga ko'ra milliy forovonchilikda tabiiy resurslar ulushi 5% ni, ishlab chiqarish jamg'armasi ulushi 18% ni, bilim va ko'nikma (intellektual jamg'arma) ulushi esa 77% ni tashkil etadi. Shuni alohida ta'kidlash joizki, smart-jamiyatda ta'limning ahamiyati va qimmatini ortadi. Chunki, u mamlakat aholisining intellektual jamg'armasi shakllanishi jarayonida muhim rol o'ynaydi. Shuning uchun ham, rivojlangan mamlakatlarda ta'lim mammolarini hal etishga bo'lgan yuksak e'tiborni kuzatish mumkin. Yevropada, shuningdek Avstraliya va Janubiy Koreya kabi davlatlar ushbu sohaga katta miqdorda mablag' ajratmoqda va ta'lim tizimini rivojlantirishning istiqbolli dasturlarini ishlab chiqmoqda.

Uzluksiz ta'lim ya'ni, "butun umr davomida ta'lim olish" konsepsiyasi ko'pgina rivojlangan mamlakatlarda o'z o'rnini mustahkam egallamoqda. Bu jarayon birinchi navbatda axborotlashgan jamiyat va kelgusidagi smart-jamiyati tomonidan inson oldiga qo'yiladigan chaqiriqlarga, ya'ni: axborot va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarning jamiyat hayotidagi mavqeini kengayishi, doimiy ravishda bilimlarning o'sishi, globallashtirish va boshqalarga bog'liqdir. Albatta, uzluksiz ta'limni samarali amalga oshirishda axborot-kommunikatsiya texnologiyasini, xususan elektron va masofaviy ta'lim salohiyatini jalb etmasdan mumkin emasligini ta'kidlash lozim.

Masofaviy ta'lim hozirgi kunda ham davr talabi bo'lib qolmoqda. Hozirgi kunda jahonda 43 million onlayn o'quv kurslar orqali tahsil olayotgan talabalar mavjudligi qayd etilgan. Masalan, Xitoy va Janubiy Afrikada har o'nta talabadan bittasi masofaviy ta'lim oladi. AQSh ning 30% talabalari hech bo'lmaganda bir marotaba onlayn kursi ta'limidan o'tishgan. Shu narsaga e'tiborni qaratish lozimki, smart-jamiyatda "aqlli" texnologiyalar ishlab chiqarishdan tortib xizmat ko'rsatishning ko'pgina sohalariga kirib boradi, mutaxassislar esa ishlab chiqarish va boshqa sohalarni ommaviy avtomatlashtirilishini bashorat qilishmoqda.

Kompyuter qat'iy tavsiflangan va algoritmlashga mansub bo'lgan ishlarni amalga oshirishda inson o'rnini egallashi mumkin. Ammo, u insondan farqli o'laroq ijod qila olish qobiliyatiga ega emas. Shuning uchun smart-jamiyatda ijodiylik, kreativ-kasbiylik kabi jihatlar talab etiladi. Aynan, shuning uchun ham hozirgi davrda ta'lim natijalarini qayta baholashning umumjahon tendensiyalari o'rganilmoqda. Agar o'tmishda qadriyatlar faqat bilim va ko'nikmalar sifatida tasavvur etilgan bo'lsa, hozirda esa shaxsning umumiy rivojlanishi, uning ijodiy salohiyatiga qaratilmoqda, bu yerda asosiy e'tibor shaxsning mustaqil bilim olish va rivojlanishi bilan bog'liq kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilgan. Buni shunday talqin qilish mumkin, smart-jamiyatda bilim va axborot tezkor tarzda yangilanib boradi, demak bunda tezkorlik bilan axborotlarni topish ko'nikmasiga, mustaqil ta'lim

olishga, o'zgaruvchan muhit sharoitlariga moslashishga, yangi kasblarni egallashga talab ortadi. Demak, masofaviy va elektron ta'lim texnologiyalaridan foydalanishgina ko'p sonli kishilarning uzluksiz ta'limdagi ehtiyojlarini qondirishi mumkin.

YuNYeSKO ma'lumoti bo'yicha: "Hozirgi vaqtda jiddiy muammo yuzaga kelgan – butun jahonda ta'lim olishni hohlovchilarning soni ta'lim muassasalaridagi ish o'rinlarga nisbatan ko'pchilikni tashkil etmoqda va taxminlarga ko'ra 2025 yilga borib dunyodagi talabalar soni 165 milliondan 198 milliongacha o'sishi mumkin [1]. Dunyo bo'yicha sifatli ta'limga nisbatan o'sib borayotgan ehtiyojni qanday qondirish mumkin? Ushbu holatdan chiqish uchun esa ta'lim amaliyotiga ochiq ta'limiy resurslarni joriy etish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Mazkur resurslardan o'qitish, ta'lim berishda foydalanish, shuningdek ochiq litsenziyaga ega bo'lgan ilmiy izlanishlarga kirish mumkin bo'lgan hamda ulardan foydalanishda o'zgartirish va ommalashtirilishiga to'siqlarsiz ega bo'lishiga yo'naltirilgan.

Ochiq ta'lim resurslar 10 yildan ortiq vaqt mobaynida jahon amaliyotida faoliyat ko'rsatib kelmoqda. Ochiq ta'lim resurslarning jahon miqyosida ommalashuviga Massachuset texnologik instituti tashabbusi bilan OpenCourseWare (<http://ocw.mit.edu./index.htm>) loyihasining ishga tushirilishi sabab bo'lgan. Ushbu loyiha doirasida institutning o'quv kurslari hujjatlari (kurs rejalari, o'quv ishlanmalar, ma'ruzalar va uning videotasmalari, uyga vazifalar, imtihon savollari va boshqalar) tizimiga ochiq kirish imkonini bergan. Shuningdek, boshqa oliy o'quv yurtlari ham shu yo'nalishga amal qilgan holda keng auditoriya ommasiga o'quv va ilmiy dasturlarini namoyish etish bilan bir qatorda o'z ta'lim tizimini ommalashuvini targ'ib etish orqali butun dunyo talabalarini ta'lim olishga jalb etish ishlarini amalga oshirishga muvaffaq bo'lishmoqda.

Ommaviy ochiq onlayn kurs ochiq ta'limiy resurslarning rivojlanishi uchun yangi trend (internetdagi o'rgatuvchi) bo'lib hisoblanib, masofaviy ta'lim sohasini yangi imkoniyatlarini yuzaga keltiradi va u 2028 yilgacha ta'lim rivojlanishining istiqbolli yo'nalishi deb topilgan 30 talikdan o'rin olgan.

Birinchi ommaaviy ochiq onlayn kurs "Connektivizmand Connected Knowledge" Djordj Simens va Stiven Dauns tomonidan 2008-yildan o'tkazilgan. Ushbu o'quv kursida 2300 nafar talabalar ishtirok etgan va shundan keyin ommaviy masofaviy kurslar tashkil etila boshlangan. Bundan tashqari Stenford universitetining professori Sebastyan Trun tomonidan tekin o'tkazilgan "Sunii intellekt" onlayn kursida 190 mamlakatdan 160000 nafar talaba tahsil olib, shundan 28000 nafar talabalar kursni muvaffaqiyat bilan yakunladi. 2011 yildan boshlab dunyoning nufuzli universitetlari ommaaviy ochiq onlayn kurs harakati ishida ishtirok etishni o'zining burchi deb e'tirof etishdi va maxsus joriy etilgan ommaaviy ochiq onlayn kurs provayderlari platformalarida tashkil etildi. Ommaaviy ochiq onlayn kurs eng ommalashgan Coursera platformasi 600 dan ortiq kurslarni tavsiya etgan va Shimoliy Amerika, Yevropa, Avstraliya va Janubiy-Sharqiy Osiyo mamlakatlaridan 100 ga yaqin universitetlarni birlashtirdi.

Ommaviy ochiq onlayn kurs atamasining o'zi esa quyidagilarni ko'zda tutadi: ommaviy (bir necha yuzlab tahsil olish), ochiq (bepul, har qanday ishtirokchining ta'lim olish imkoniyati), onlayn (Internet tarmog'ida masofaviy elektron kurs) va har qanday kurs aniq maqsadlar, ish tartibi, tuzilmasiga ega bo'lishi kerak.

Albatta bir savol tug'iladi: shunga o'xshash ommaviy masofaviy ta'lim qanday shaklda amalga oshiriladi? Ommaaviy ochiq onlaynning katta qismi elektron kurslar bo'lib, unda ta'limiy kontentlar ma'ruza matni ilovasi bilan videoma'ruzalar, chuqur o'rganish uchun qo'shimcha adabiyotlar, testlar, amaliy vazifalar va yakuniy nazorat ishidan tashkil topadi. Masofaviy ta'limda teskari aloqaga katta e'tibor beriladi. Mohiyatan ta'lim oluvchilar bilan o'qituvchilar o'rtasidagi samarali o'zaro ta'sirlashuv masofaviy ta'lim sifatini belgilab beradi. Ta'lim oluvchilarning soni yuzlab va hatto minglab nafarni tashkil etsa qanday qilib o'zaro harakatlarni ta'minlashi mumkin? Bu muommoni hal etish uchun ommaviy onlayn kurslarining eng birinchi tashkilotchilaridan biri Djordj Simens yangi ta'lim nazariyasi konnektivizm (bog'lanish)ga tayangan.

Konnektivizm tarmoq nazariyasi, murakkab tashkil etilgan va o'z-o'zini mustaqil tashkil etuvchi tizimga asoslangan va ta'limni aloqalar yaratish va tarmoqlarni rivojlantirish jarayoni sifatida qaraladi. Konnektivizm nuqtai-nazaridan o'quv – bu tarmoqni shakllantirish va rivojlantirish jarayoni bo'lib, ta'lim oluvchilar muntazam ravishda yangi bog'lanishlarni birlashtirish orqali aloqalarni o'rnatadilar (bu bog'lanishlar kishilar, tashkilotlar, kutubxonalar, veb-saytlar, kitoblar, jurnallar,

ma'lumotlar bazasi yoki boshqa axborot manbaalari bo'lishi mumkin) ya'ni, ushbu aloqalarni yig'ish va ular bilan ishlash imkoniyatini ifodalaydi.

Har bir ta'lim oluvchi o'zining bilimlar tarmog'ini o'z nuqtai-nazari va tajribasiga tayangan holda kursning mazmunini anglashga intilish asosida yaratib, bloglardagi sahifalar, diagrammalar, mental xaritalar, ishlanmalar va videolarga o'xshash o'quv qurollaridan foydalanadi. Shunday qilib, onlayn kurslar tarmoq ichidagi turli bilimlar darajasiga ega bo'lgan ishtirokchilar tarkibidan tashkil topadi, yangi ishtirokchilar tarmoq ichidagi resurslardan o'zining keyingi harakati uchun foydalanadi. Bundan har bir ta'lim oluvchi boshqa kurs ishtirokchilari uchun o'qituvchi hisoblanadi. Shuni alohida ta'kidlash joizki, ta'lim oluvchilar jamoasining sa'i-harakati bilan kursning ta'limiy kontenti yaratiladi va kengaytiriladi. Ta'limning ushbu tashkiliy jarayonida o'qituvchi majburiyatlarining bir qismi ekspert zimmasiga yuklanadi.

Adabiyotlar

1. Рекомендации по работе с открытыми образовательными ресурсами (OOP) в сфере высшего образования. – М.: Институт Юнеско по информационным технологиям в образовании, 2011. – 23 с. // URL: <http://iite.unesco.org/pics/publications/ru/files/3214729.pdf>
2. George Siemens. Connectivism: A Learning Theory for the Digital Age // URL: <http://www.elearnspace.org/Articles/connectivism.htm>
3. Jeff Rice. MOOCversations: Commonplaces as Argument // INVASION OF THE MOOCs: THE PROMISES AND PERILS OF MASSIVE OPEN ONLINE COURSES. Edited by Steven D. Krause and Charles Lowe. – Parlor Press Anderson, South Carolina, 2013. – P. 86–97.

UDK 372.862

INFORMATIKA O'QITUVCHISINI TAYYORLASHNING METODIK TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH

N.A. Kayumova

Qarshi davlat universiteti

Annotatsiya. N.A.Kayumova tomonidan tayyorlangan ushbu maqolada informatika o'qituvchisini metodik tizimini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar, metodik tizimning tashkil etuvchilari va ularni takomillashtirish yo'llari ochib berilgan.

Kalit so'zlar: metodik tizim, metodik tizimni tashkil etuvchilari, mazmunni takomillashtirish, shaklni, metodni, vositalarni, nazoratni, takomillashtirish yo'llari.

Усовершенствование методической системы подготовки учителя информатики

Аннотация. Статья посвящена научным исследованиям направленных на усовершенствование методической системы учителя информатики, компоненты методической системы и способы их улучшения.

Ключевые слова: методическая система, основные компоненты методической системы, пути совершенствование основные компоненты методической системы, содержания, форма, метод.

Perfection of the methodical system at the preparation of the teacher of informatics

Abstract. The article is devoted to scientific research aimed to improving the methodical system of the teacher of computer science, the components of the methodical system, and ways to improve them.

Keywords: methodical system, the main components of the methodological system, ways to improve the main components of the methodical system, content, form, method.

Informatika o'qituvchisining metodik tizimini takomillashtirishga qaratilgan ishlar I.E.Kuznetsov, M. Abdurazokov, D. Mandik S.A.Beshenkov, M.P.Lapchik, V.I. Mixeyev, V.M. Monaxov, S.V. Panyukova, YE.A.Rakitina, I.V. Robert, A.Y. Savelyev, YE.K. Xenner, A.V. Mogilev va boshqalarning ishlari tadqiq etilib, ular tahlil etilganda asosan, dasturlash va algoritmlashga

asoslangan bo'lsa, endilikda ta'limda va boshqaruv tizimida axborot–kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishga bag'ishlangan materiallarning o'рни va roli sezilarli darajada oshmoqda.

Xususan, E.I.Kuznetsov informatika o'qituvchisining malakaviy xususiyatini hisobga olgan holda, uchta asosiy vazifasini belgilab beradi: Ular: 1) «Informatika» fani o'qituvchisi, 2) ta'limda axborot kommunikatsiya texnologiyalari(AKT)dan foydalanishni tashkil etuvchisi, 3) boshqaruvda AKT foydalanishni tashkil etuvchisi.

Dog'istonlik M. Abdurazokov ta'limni axborotlashtirish sharoitida informatika o'qituvchisini metodik tayyorlashni takomillashtirishni tadqiq etib, mazmunni takomillashtirishda web texnologiyalarni o'qitishni tavsiya etadi [1].


Yevropalik D. Mandik “Informatika” yo'nalishi talabalariga informatika o'qitish uslubiyotini takomillashtirib o'qitishni tavsiya etadi.

Amerikada o'qituvchilarni tayyorlashda kasbiy portfolio muhim o'rin tutib, tadqiqotchilar: K. Zeyxner va S. Rey lar “Portfolioni yaratilishi pedagogik faoliyat nazariyasi va amaliyotidan xabardor bo'lish, vujudga kelgan muammolarni hamkasblari bilan birgalikda muhokama qilish, o'zini-o'zi rivojlantirishga va ta'lim oxirida portfolining baholanishi talabning baholanishiga hissa qo'shadi “ – deb ta'kidlaydilar [2].

Biz tadqiqotimiz davomida pedagogik va axborot texnologiyalari integratsiyasida informatika o'qituvchisining metodik tizimini ishlab chiqish ustida ishladik [3].

Dars davomida o'qituvchi tomonidan talabalar ongida metodik tizim, uni tashkil etuvchi elementlari: ta'lim maqsadi, mazmuni, shakli, metodi, vositasi, nazorat va baholash shakllantirib borilsa, har bir mavzuni o'qitishni metodik tizim sifatida shakllantirishga o'rgatilsa, talabada metodik tizimni yaratishga refleksiv yondashuv hosil bo'ladi. Natijada talaba metodik tizimni bir mavzu, fan, butun bir yo'nalish misolida tushunib boradi (1-rasm).

Oliy ta'limning “Informatika o'qitish metodikasi” yo'nalishi bitiruvchisi har xil turdagi (umumiy o'rta maktab, o'rta-maxsus kasb-hunar ta'limi) ta'lim muassasalarida ishlashga tayyor bo'lib borishi lozim. Turli darajadagi o'quv dasturlari va darsliklardan foydalanib informatika fanini o'rgatishni tashkil qilishlari kerak.



1-rasm. Metodik tizimni yaratish ketma-ketligi.

O'rganilgan ilmiy tadqiqotlar va olib borilgan ilmiy ishlarimizdan kelib chiqib, pedagogik va axborot texnologiyalari integratsiyasida informatika o'qituvchisini tayyorlashning metodik tizimi *mazmunini takomillashtirish* uchun talabalarga:

- o'rganilgan obyekt va xodisalarni modellashtirish, loyihalashtirish va fan mavzularini metodik tizim sifatida o'rgatib borish;
- informatikani o'qitishda qo'llaniladigan pedagogik texnologiyalar, metodlar, vositalar va axborot texnologiyalaridan foydalanish ko'nikmalarini shakllantirib borish;
- informatikani o'qitishda fanlararo bog'liqlik, metapredmetli yondashuvdan foydalanishni shakllantirish.
- pedagogik dasturiy vositalar, elektron ta'lim resurslari va elektron ta'lim muhitini yaratish va undan foydalanishni o'rgatish;

- informatika o'qituvchisini metodik tayyorlashda psixologo- pedagogik, nazariy, amaliy va texnologik tayyorgarlikni shakllantirish;
- talabalarni innovatsion, loyihalovchilik va tadqiqotchilik faoliyatini amalga oshirishga o'rgatib borish zarur deb topdik.

Informatika o'qituvchisini tayyorlashning metodik tizimining *metodlarini takomillashtirish* uchun talabalarga:

- informatika fanini o'qitishda pedagogik va axborot texnologiyalari, ularning integratsiyasi imkoniyatlaridan foydalanishni o'rgatib borish;
- interfaol metodlarni tahlil va tanlash tamoyilidan foydalanib informatika mavzusiga moslab qo'llashni o'rgatish;
- informatika mavzularini o'qitishda foydalaniladigan pedagogik dasturiy vositalarni yaratish va foydalanishga o'rgatish;
- o'qitishda kirib kelayotgan innovatsiyalarni va innovatsion metodlarni o'z pedagogik faoliyatga olib kirishga o'rgatish;
- pedagogik va axborot texnologiyalari, ularning integratsiyasidan foydalanishni shartli refleksga aylantirib borish va h.k.

Talabalarga informatikadan ta'limning tashkiliy shakllari auditoriya va auditoriyadan tashqari mashg'ulotlardan tashkil topishib, auditoriya dars mashg'ulotlari shakllari asosan, uch qismdan: nazariy ta'lim (ma'ruza) va amaliy mashg'ulot va laboratoriya mashg'uloti shakllarida olib borilishi, auditoriyadan tashqari mashg'ulotlar: mustaqil ta'lim, ma'naviy-ma'rifiy, to'garak ishlari, turli bahs-munozara kechalari, soha fidoyilari bilan uchrashuv va hokazolar bo'lishini tushuntirib yetkazish lozim.

Informatikadan ta'limni tashkiliy shakllarining samaradorligiga erishish uchun ilgari loyihalashtirish zarur bo'ladi. Ta'limiy loyihalar o'qituvchi tomonidan tayyorlanadigan dars ishlanmalarda, texnologik xaritalarda, o'quv-uslubiy majmualarda o'z aksini topadi[3]..

Mashg'ulotning texnologik xaritasi dars darayonining har bir bosqichida o'qituvchi va talabalar faoliyatini vaqt meyorlari bo'yicha loyihalashtirishni belgilab olish uchun ishlatiladi

Shunday qilib metodik tizimning *tashkiliy shaklini takomillashtirish* uchun [3]:

-integratsiyalashgan darslarni tashkil etish (matematika+informatika, fizika+informatika, geometriya+informatika, musiqa+informatika va h.k)

-mashg'ulotlarni konferensiya, bahs munozara, seminarlar shaklida tashkil etish

-mashg'ulotda masofali ta'lim elementlaridan, Moodle dasturidan foydalanib darslarni tashkil etish,

-ma'ruza mashg'ulotlarini muammoli ma'ruza, ma'ruza ikkovlon, xatoli ma'ruza, vizual ma'ruza, ma'ruza-maslahat, ma'ruza-matbuot konferensiya, ma'ruza-tadqiqot ko'rinishlarida tashkil etish;

-ta'lim shakllarini loyihalashda ijodiy yondashish, kreativlik, turli qobiliyatlar, pedagogik mahoratni namoyon etish va h.k.

Metodik tizimning tarkibiy elementlaridan biri ta'lim vositalari bo'lib, ta'lim jarayonida o'quv materiallarini ko'rgazmali taqdim etish, o'rganish, shuningdek, ta'lim samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi vositalardir. Ta'lim vositalaridan o'rinli foydalanish natijasida talabalar o'quv materiallarini tezda o'rganishi, xotirada uzoq vaqt saqlanishi, tushunarli bo'lishi, fan mavzularini o'rganishda motivatsiyani vujudga kelishi, qiziqishni ortishiga olib keladi.

Ta'lim jarayonida foydalaniladigan *ta'lim vositalarini takomillashtirish* uchun:

➤ ta'limning texnik vositalari: Internet, tarmoqqa ulangan kompyuterlar, interfaol doska, multimediali vositalari, asosiy va qo'shimcha qurilmalari mavjud kompyuter sinflari, WI-FI aloqasi mavjud bo'lgan elektron o'quv zallaridan foydalanishni yo'lga qo'yish;

➤ ta'limning yordamchi vositalari: turli modellar, elektron ta'lim resurslari yozilgan disklar, o'qitishda qo'llaniladigan video-filmlar, flesh xotira, ko'rgazmali vositalar, grafiklar diagrammalar, chizma, sxemalardan foydalanib borish;

➤ ta'limning didaktik vositalari: boshqarilish imkoniyatiga ega bo'lgan o'quv-metodik qo'llanmalar, o'rgatuvchi, nazorat qiluvchi elektron ta'lim resurslari, elekt-ron o'quv-metodik majmualar, metodik ko'rsatmalar va elektron o'quv modullari (Moodle kabi)dan mashg'ulot davomida foydalanish;

➤ ta'lim jarayoniga kirib kelayotgan yangi ta'lim vositalarini tezda o'zlashtirib, pedagogik faoliyatni tashkil etishda qo'llash va h.k.

Metodik tizimda nazorat va baholash ta'lim natijasini aniqlashda muhim ahamiyatga ega. Nazorat va baholashni test, yozma va og'izaki turlaridan foydalaniladi. **Nazorat va baholashni takomillashtirish** uchun:

✓ testning faqat bir tanlovli turidan emas, balki, mantiqiy, ko'p tanlovli, moslashuvchi, ta'riflash, tanlash imkoniyatiga ega, hisoblanuvchi esse testlari foydalanishga erishish.

✓ ta'limni nazorat qilishning yozma va og'izaki turlari savolnomalarini tuzishda fikrlash talab etadigan mantiqiy, muammoli savollarni kiritishga e'tibor qaratish lozim bo'ladi.

Shunday qilib, biz bo'lajak informatika o'qituvchilarini tayyorlashda metodik tizimini zamon talablari darajasida takomillashtirib borishni o'rgatib borib, metodik tizim elementlari orasidagi uzviylik va uzlukstizlikni ta'minlanishiga natijada har bir informatika o'qituvchisining kasbiy faoliyatini amalga oshirish jarayonida o'z metodik tizimini yaratishga erishishini ta'minlanishimiz lozim.

Adabiyotlar

1. Abdurazokov M.M. Sovershenstvovaniye soderjaniya podgotovki budushhego uchitelya informatiki v usloviyax informatizatsii obrazovaniya. Avtoreferat Diss.dok.ped.nauk. -M. 2007g. -42 str.
2. Zeichner K., Wray S. The teaching portfolio in US teacher education programs: what we know and need to know / K. Zeichner, S. Wray // Teaching and Teacher Education. — 2001. — № 17. — P. 613–621.
3. Kayumova N.A. O'qitishning axborot–ta'lim tizimi sharoiti va unda axborot kommunikatsiya texnologiyalari sohasi o'qituvchilarini tayyorlash. Monografiya. –Toshkent, “Fan va texnologiya”. -2015.-192 b.

UDK: 377.3

BO'LAJAK KOLLEJ O'QITUVCHISINING KASBIY FAOLIYATINI MODELLASHTIRISH

Sh.R. O'roqov

Samarqand davlat universiteti

Annotasiya. Innovatsion pedagogik faoliyatning muhim sharti shaxsga yo'naltirilgan ta'lim sharoitida bo'lajak o'qituvchining kasbiy faoliyat modelini ishlab chiqish hisoblanadi. Model bo'lajak o'qituvchilarning kelgusi amaliy faoliyatida mavjud bo'lgan sharoitlar bilan ifodalanadigan faoliyat analogi bo'lib, ularning kasbiy kompetentligini tashxis qilishda etalon vazifasini bajaradi. Ushbu maqolada oliy ta'lim muassasalarida bakalavr tayyorlash modellarining tahlili asosida bo'lajak kollej o'qituvchilarining kasbiy faoliyatini modellashtirish muammolari tadqiq etilgan.

Kalit so'zlar: model, bakalavr modeli, profессиogramma, vazifaviy-shaxsiy yondoshish, faoliyat turlari, kompetensiyalar, o'qituvchining asosiy va qo'shimcha funksiyalari.

Моделирование профессиональной деятельности будущих преподавателей колледжа

Аннотация. Базовым элементом инновационной педагогической деятельности в условиях лично-ориентированного образования является разработка моделья профессиональной деятельности будущего преподавателя. Модель будущего преподавателя в качестве аналога профессиональной деятельности помогает выработки диагностики профессиональной компетентности. В данной статье исследованы проблемы моделирования профессиональной деятельности будущих преподавателей колледжа на основе анализа модели подготовки бакалавров.

Ключевые слова: модел, модел бакалавра, профессиограмма, личностный подход, виды деятельности, компетенции, основные и дополнительные функции преподавателя.

Modeling the professional work of future college teachers

Abstract. The basic element of innovative pedagogical activity in conditions of personal-oriented education is the development of a model of professional activity of the future teacher. The model of the future teacher as an analogue of professional activity helps to develop the diagnosis of

professional competence. This article explores the problems of modeling the professional activity of future college teachers on the basis of the analysis of the bachelor's training model.

Keywords: model, bachelor's model, professiogram, personal approach, types of activity, competences, basic and additional functions of the teacher.

Zamonaviy sharoitlarda jahon fani va innovatsion faoliyatning yutuqlaridan keng foydalanish jamiyat va davlat hayotining barcha sohalarini izchil va barqaror rivojlantirish, mamlakatning munosib kelajagini barpo etishning muhim omili bo'lib bormoqda.

Hozirgi davrda kasb-hunar kollejlarning ijtimoiy maqomi o'zgarayotganligi munosabati bilan ushbu tipdagi ta'lim muassasalari uchun zamon talabiga javob beradigan o'qituvchilarni tayyorlash zaruriyatini oshirmoqda. Shuning uchun bo'lajak kollej o'qituvchilarini tayyorlash sifatini oshirish bevosita oliy ta'limda innovatsion komponentlarga asoslangan kompetent yondashuv mazmunini takomillashtirish dolzarb pedagogik muammolardan biridir.

Kasb-hunar kollejlari bitiruvchilarini jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy hayotiga kirib ketishini ta'minlash, ularning aniq mutaxassislik bo'yicha zaruriy bilim, ko'nikma va malakalar bilan qurollantirish mazkur ta'lim muassasalarida o'quv-tarbiyaviy jarayonni tashkil etish masalasiga bog'liqdir. Bundan kelib chiqadiki, oliy pedagogik ta'lim tizimida bo'lajak kollej o'qituvchilarni tayyorlashda ta'lim jarayonining maqsadi faqatgina bilimlar bilan qurollantirish emas, balki yoshlarni tarbiyalay olish, ijodiy rivojlantirish, bilimlarni faol o'zlashtirishga tayyorlashga qodir, kafolatlangan kompetentlikka ega mutaxassisni tayyorlash bilan izohlanadi.

Kasbiy ta'limning barcha sohalarida kadrlar tayyorlashning sifati pastligini va bitiruvchilarning aksariyati raqobatbardosh emasligini yaqqol ko'rsatdi, ana shu holat mustaqil O'zbekiston Respublikasining jahon hamjamiyatiga integrallashuvi yuz berayotgan bir paytda yetarlicha jiddiy iqtisodiy talofat yetkazdi.

AQSH, Germaniya, Yaponiya, Fransiya va boshqa rivojlangan mamlakatlarning tajribasi tahlili shuni ko'rsatdiki, barcha sohalarida raqobatbardosh kadrlar tayyorlash ta'lim, fan va ishlab chiqarishning o'zaro ta'siri tufayli namoyon bo'lar ekan. Yana shuni ham qayd etish kerakki, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash fan, texnika, texnologiya va iqtisodiyotning so'nggi yutuqlari asosida ishlab chiqilgan dasturlarning mavjudligiga bog'liq ekan.

Ta'limning asosiy maqsadi talabalarni kasbiy jihatdan sifatli qilib tayyorlashdir. Buning uchun birdan bir yo'nalish bakalavr modeli, ya'ni bo'lajak mutaxassisining kasbiy sifatlarini aniqlash talab etiladi.

Model lotincha Modelus – o'lchov, namuna degan ma'nolarni anglatib, mutaxassis modeli deganda uning kelgusi amaliy faoliyatda mavjud bo'lgan sharoitlar bilan ifodalanadigan faoliyat analogi sifatida tushuniladi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015 yil 10 yanvardagi 3-sonli qarorlari bilan qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritilgan "Oliy ta'limning Davlat ta'lim standarti"da muayyan ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining quyidagi turlari keltirilgan:

- ilmiy-tadqiqot;
- tashkiliy-boshqaruv;
- loyiha – izlanish;
- ishlab chiqarish, texnologik;
- umumiy o'rta, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'lim muassasalarida pedagogik faoliyat;
- turli xizmatlar ko'rsatish. Yo'nalish bo'yicha fan, texnika va texnologiyalarning zamonaviy yutuqlari, kadrlar buyurtmachilari talablaridan kelib chiqqan holda bakalavrlarning kasbiy faoliyat turlarida qo'shimcha va o'zgarishlar bo'lishi mumkin.

Mehnat psixologiyasida bakalavr modeli kasbiy va ijtimoiy-psixologik sifatlar, bilimlar, malakalar hajmi va strukturasi in'ikosi sifatida ta'riflanadi. Shu nuqtai nazarda bakalavr modeli odatda quyidagi komponentlarni o'z ichiga oladi:

- bakalavrning faoliyati taqozo etadigan psixologik normalar - professiogrammasi;
- bakalavrning kasbiy-lavozim talablari, bakalavr faoliyati mazmunini aniq-ravshan tasvirlash, ya'ni bakalavr muayyan biror lavozimga ega bo'lganda kasbiy vazifalarni qanday hal qilishi;
- kasbiy faoliyatning zaruriy turlari va ular malakasi darajasining qo'shilishi;

Bakalavr modelining birinchi komponenti haqida batafsil to'xtalamiz. Professiogramma bakalavr modeli komponenti sifatida malakali mutaxassisning etalon modelini tashkil etadi. Professiogrammaning mazmuni va tuzilmasiga nisbatan har xil yondashishlar mavjud. Majmuaviy professiogrammada (K.K.Platonov, Yu.V.Kotelova va boshqalar) baholash natijalari, maqsadi, predmeti, usuli, vositalari, shartlari, mehnat kooperatsiyasi va tashkil qilinishi, shuningdek uning xodimga bo'lgan ta'siri, xavf-xatar turlari va jadalligi, xodimga keltiradigan foyda ham ko'rsatiladi. Analitik(tahliliy) professiogramma (Ye.M.Ivanova) kasb komponentlarining ayrim xarakteristikalarini va kasbiy faoliyatning psixologik tuzilmalari, insonning muhim professional sifatlarinigina emas, balki uning umumlashgan normativ va morfologik ko'rsatkichlarini tashkil etadi. Bunday professiogrammada birinchidan, professional faoliyatning konkret biror kishiga bog'liq bo'lmagan obyektiv xarakteristikasi va ijtimoiy tajribadan sinovdan o'tgan hamda inson psixologik xususiyatlari, simmetrik obyektiv faoliyati bilan mos kelmaydigan holda beriladi.

Biz uchun professiogramмага vazifaviy-shaxsiy yondoshish ko'proq qiziqish uyg'otadi. Bu yondashuvning mohiyati quyidagicha: asosiy kasbiy vazifa bo'lgan analiz birligi – modul ajratib ko'rsatiladi. Har bir kasbiy vazifa kasbiy-shaxsiy sifatlar bilan aloqada bo'ladi. Shu sababdan faoliyatning bu tipdagi elementi xarakteristikasiga zaruriy kasbiy vazifalar, mehnat predmeti(maqsadi), kasbiy bilimlar, mehnat va kasbiy malakalar hamda kasbiy faoliyat natijasi kiritilishi maqsadga muvofiq.

Umuman olganda professiogramma quyidagi talablarga javob berish kerak:


- mehnatning asosiy natijalari va maqsadini aniq ajrata bilish;
- har qanday mehnat konkret shaxsning manfaati uchun yo'naltirilganligini ta'kidlamog'i;
- kasbning ayrim komponent va tomonlarini ajratib ko'rsatmasdan, balki uning xarakteristikalar tizimidagi asosiy va muhim bo'lgan qirralarini izlab topish va alohida ta'kidlash lozim;
- kasb vositalari orqali inson taraqqiyotining amalga oshadigan hayotiy yo'li, mehnat qilish jarayonidagi psixik yangilanishlar dinamikasi tufayli inson o'ziga xosligini tanlashi mumkinligini namoyon etish;
- kasbning o'zidagi istiqbolli o'zgarishlarni ko'rsatish;
- amaliy vazifalarni hal qilishga yo'naltirilgan aniq vazifalarga ega bo'lish;
- zaruriy tiklab bo'lmaydigan psixologik kasbiy xislatlar, shuningdek, insonning psixologik o'ziga xos xususiyatlarini, garchi unda bo'lmasa ham, lekin kelajakda tiklanishi mumkin bo'lgan psixologik xususiyatlarni bayon etish.

Bakalavr modelini tuzishda har xil variantlar bo'lishi mumkin: bo'lajak mutaxassis shaxsiyati modeli, mutaxassis kasbiy faoliyati modeli, mutaxassisni tayyorlash modeli va boshqalar. Shuning uchun bo'lsa kerak, ushbu tushunchalardan yetarli darajada tez-tez foydalanadilar. Modomiki, xodimning barcha sifat va xususiyatlari to'g'risida gap borarkan, demak, mutaxassisning shaxsiyati modeli haqida gap boradi, bordi-yu faoliyat turlari bayoni yoki hal qilinadigan vazifalar ro'yxati berilsa, demak, faoliyat modeli haqida gap boradi; bordiyu, namunada ta'lim mazmuni, uning tuzilmasi, metodlar tizimi, o'qitish usullari va vositalari hamda talabalarni tayyorlash kabi komponentlar o'rin olgan bo'lsa, demak talabalarni tayyorlash modeli haqida gap boradi[2].

Bunda mutaxassis shaxsiyati modelini aniqlab, uning faqat dolzarb fazilatlarinigina emas, balki bo'lajak sifat va xususiyatlariga ham e'tibor berish lozim. Aks holda, shaxs modeli o'zining taraqqiyot kuchidan mahrum bo'lishi mumkin. Faoliyat modelida ushbu faoliyatning muvaffaqiyatli amalga oshishi uchun shaxsning fazilat va xususiyatlari o'z aksini topishi kerak. Muxassisni tayyorlash modelini faoliyat modeli bilan birga qo'shish maqsadga muvofiqdir. Ushbu butunlikda mutaxassis shaxsiyati modeli yetakchi holat hisoblanadi [3].

Bizningcha, ushbu izlanishlarni birlashtiradigan qat'iy vaziyat – sinergetika istilohi bilan ifodalaganda shu faktni e'tirof etish kerakki, inson o'z-o'zidan vujudga keladigan sistema hisoblanadi, ya'ni u o'z taraqqiyoti yo'lini yaratadi, o'z yo'nalishini rivojlantiradi, o'zining botiniy maqsadlariga binoan harakat qiladi.

O'qituvchi shaxsiyati taraqqiyotining har bir sohasi uning o'quvchilar bilan bo'lgan o'zaro aloqasi modelida iz qoldiradi, demak, o'qituvchi ishining samaradorligiga ta'sir ko'rsatadi. Bu juda muhim jihat bo'lib, u bo'lajak o'qituvchi modelining yana boshqa tomonlarini namoyon etadi, ya'ni shaxsiy rivojlanish faqat kasbiy kompetentlikning o'sishi orqali emas, balki yangi mazmundagi darajalarga ko'tarilish hollarida ham yuz beradi.



1-rasm. Bo'lajak kollej o'qituvchisi modeli

Endi shaxs modelining psixologik jihatlarini amaliyotga tadbiiq etilishiga qaytamiz. Hozirgi paytda bakalavr shaxsi modeli deganda «bakalavr tanlagan sohasidagi barcha vazifalarni muvaffaqiyatli hal qilishda uning ishlab chiqarish faoliyatida vujudga kelgan qiyinchiliklarni yengishda, shuningdek, mustaqil taraqqiy etish va mustaqil rivoj topishidagi umumlashgan sifatlarini to'g'ri tushinishi bilan bog'liqligi» tushuniladi.

Ilmiy adabiyotlarda yuqori malakali bakalavr modelining bir necha turi ishlab chiqilgan. Ularning tahlili bir qator ilmiy tadqiqotlarda bayon etilgan[4,5]. Tor profilga ega bo'lgan bakalavr modeli asosiga o'zida kasbiy faoliyatning mo'ljalli asoslarini shakllantiradigan faoliyatning muayyan turi bo'yicha mutaxassislar tayyorlash kiritilgan. Ushbu yondoshuvning rasionalligi ko'rgazmali tamoyildan faoliyatning konkret turida bilimlarning sohalari bo'yicha faoliyatli tamoyilga tayyorlash yaqqol ko'zga tashlanadi. Keng profilli bakalavr modellarida muayyan faoliyat turiga qo'yiladigan talablardan tashqari maxsus talablarning yaxlit kompleksi ham mujassamlashadi. Bakalavr modellarida muayyan rollar, faoliyat va turmush tarzining psixologik hamda shaxsiy xarakteristikalari birligi hisobga olinadi. Tor profilli mutaxassis – bu bilimlari va malakalari doirasi tor, lekin tahliliy qobiliyatlari va amaliy faoliyatda qo'llaydigan metodlari rivojlanganligi bilan farq qiladigan mutaxassisdir. Integral profilli mutaxassislar kasbiy faoliyatni sintez qilishi asosidagi bilimlar va faoliyatdagi vazifalarining universalligi bilan farqlanadi. Keng, kompleks profilga mansub mutaxassis tor va integral profilga intiluvchi mutaxassisga xos xislatlar egasi hisoblanadi.

Bakalavr modellarining ta'lim mazmuni o'rtasidagi bog'liqlik hammaga ma'lum: ishlab chiqiladigan modellar ta'lim mazmuni tuzilishiga ta'sir ko'rsatadi, yangi yondashuvlar esa bakalavr mutaxassislarining dinamik modellari qurilishida ta'lim mazmuniga ta'sir ko'rsatadi. Talabalar tomonidan egallashga mo'ljallangan bilim va malakalar tor profilli mutaxassis modelini ko'rsatdi. Ta'lim mazmuniga nisbatan boshqa yondashuvlar ta'limdagi yangi komponentlarni ajratib ko'rsatishga qaratilgan bo'lib, ular quyidagilardan iboratdir: ijodiy faoliyat tajribasi, o'rganilayotgan obyekt va real voqyelikka muhim emosional munosabat, shu jumladan, boshqa shaxslarga va o'ziga bo'lgan munosabat, ijtimoiy, ilmiy va kasbiy faoliyatga bo'lgan ehtiyoj va mayllar keng va integral profilli bakalavr modellarini aniq belgilab berdi. Binobarin, bakalavrning zamonaviy modellari ularga bo'lajak kasbning ijtimoiy kontekstini, mustaqil ijodiy faoliyatnatijalarini qo'shish hisobiga kengayib borishiga imkon yaratmoqda, bu jihatdan muhim omillardan biri voqyelikka bo'lgan emosional munosabatdir.

Oliy ma'lumotli bakalavr modeliga va qisman oliy ma'lumotli o'qituvchiga ham yetarli darajada e'tibor berdik, chunki bo'lajak o'qituvchi ushbu modellarga nafaqat o'z faoliyatida rioya qilishi, balki ularning o'zlari modelga kiritilgan talablarga javob berishi kerak. Demak, bakalavr modeli boshqaruv faoliyatida yetarlicha muhim o'rinni egallaydi.

Yuqorida ta'kidlangan fikrlarimizni umumlashtirgan holda ta'lim sifatini boshqarishda bo'lajak kollej o'qituvchisini innovasion tayyorlashda kompetent yondashuv modelini tuzishga harakat qildik. Ushbu model etalon sifatida oliy ta'lim muassasalarida yuz berayotgan jarayonlarni kvalimetrik baholashning muhim vositasi hisoblanadi. Uning yordamida talabalar va o'qituvchilar faoliyatini baholar ekanmiz, o'quv jarayonining samaradorligi va sifati, bo'lajak mutaxassislarining istiqboldagi kasbiy o'sishi to'g'risida xulosa chiqarish mumkin (1-rasm).

Bo'lajak kollej o'qituvchisining modelini shakllantirishda ularning kasbiy pedagogik faoliyatini maqsadi va obyekt, asosiy va qo'shimcha funksiyalari, umumiy va kasbiy kompetensiyalarga e'tibor qaratildi.

Ushbu modelda tasvirlangan bo'lajak kollej o'qituvchisining faoliyat ko'rinishlari va kompetensiyalari, kelgusida oliy pedagogik ta'lim tizimida o'qituvchilarni innovasion tayyorlash mazmunini aniqlash, va ular vositasida kasbiy kompetentlik mezonlarini ishlab chiqishga imkon beradi.

Adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisidagi nutqi. <http://www.press-service.uz/uz/lists/view/111>
2. Абдуллина О.А. Общепедагогическая подготовка учителя в системе высшего педагогического образования. –М.: Просвещение, 1984. –207 с.
3. Яковлева Н.М., Сохор А.М. Методика и техника урока в школе – М.:Просвещение, 1985.- с.208.

4. Абдуллажанова М.А. Формирование профессиональных качеств будущего учителя в процессе обучения в педвузах (на примере учителя узбекского языка и литературы): Автореф. дис. ... канд.пед.наук. –Ташкент, 1991. –17 с.
5. Юзликеев Ф.Р. Интенсификация процесса дидактической подготовки будущего учителя в педагогическом институте: Монография. –Ташкент: Фан, 1995. –203 с.

UDK; 378

“AVESTO”DAGI ILMIY PEDAGOGIK QADRIYATLAR TIZIMI NAZARIYASI

Sh.Z. Taylanova

Samarqand davlat universiteti

E-mail: tshohida84@mail.ru

Annotatsiya. Mazkur maqolada “Avesto”dagi pedagogik qadriyatlar tizimining aksiologik yondashuvni tarkib toptirishdagi imkoniyatlari, pedagogik qadriyatlar tizimi, aksiologik ongning tarkib toptirishning o‘zaro aloqadorligi ilmiy asoslangan.

Kalit so‘zlar: qadriyat, aksiologik ong, aksiologik bilish, aksiologik dunyoqarash, qadriyatlar tizimi, pedagogik qadriyatlar, pedagogik qadriyatlar tizimi.

Научно-педагогические ценности “авесто” при изучении в системности теории

Аннотация. В статье рассматриваются некоторые педагого-аксиологические аспекты, проблемы ценностных ориентаций по системе взглядов по книге «Авесто».

Ключевые слово: ценность, Авесто, педагогические ценности, система ценности.

Scientific and pedagogical values in “Avesto” when studying in the systemic theory

Abstract. In article is considered some aspects, problems shaping the system valuables to Avesto, as well as is brought forth categorization valuables to orientation, is generalized glances seen teacher on given to problem.

Keywords: tradition, Avesto pedagogical traditions. teaching traditions, educational traditions, system of traditional imaginat ions.

Istiqlol tufayli xalqimiz o‘z taqdirining egasi, tarixining ijodkori, o‘ziga xos milliy madaniyatining sohibiga aylandi. Milliy o‘z-o‘zini anglashga intilish kuchaydi. Mazkur jarayonda tarbiyaviy qadriyatlarga alohida e‘tibor qaratilishi, uning yuksak ma‘naviyatli shaxsni shakllantirishdagi ahamiyatining ochib berilishi o‘ta muhimdir. Yuksak ma‘naviyatli shaxsini shakllantirishda quyidagi tarbiyaviy qadriyatlar muhim ahamiyat kasb etadi:[1]

- boy ma‘naviyatimiz sarchashmalaridan bahramand bo‘lib borish;
- jahon madaniyati xazinasiga katta hissa qo‘shgan buyuk ajdodlarimizning ilmiy, madaniy merosi chuqurligi anglab olinganligi;
- yoshlarni o‘z o‘tmishiga, milliy, diniy an‘analarga hurmat bilan qarashi, ularni asrab-avaylash ruhida tarbiyalanayotganligi;
- o‘z millatining o‘zga millatlar oldidagi qadr-qimmatidan, obro‘-e‘tiboridan faxrlanish;
- millat manfaatini himoya qilishdagi mas‘uliyatni his etish va kelajakka ishonch.

Yuqorida qayd etib o‘tilganidek, biron-bir jamiyat o‘zining ma‘naviy va axloqiy qadriyatlarini rivojlantirmay, hamda mustahkamlamay turib o‘z istiqbolini tasavvur eta olmaydi. “Xalqning madaniy qadriyatlari, ma‘naviy merosi ming yillar mobaynida sharq xalqlari uchun qudratli ma‘naviyat manbai bo‘lib xizmat qilgan. Uzoq davom etgan mafkuraviy tazyiqqa qaramay, O‘zbekiston xalqi avloddan avlodga o‘tib kelgan tarixiy va madaniy qadriyatlarini hamda o‘ziga xos an‘analarini saqlab qolishga muvaffaq bo‘ldi”.

Qadriyatlarining mohiyati, mazmuni, namoyon bo‘lish shakllari bilan borliq muammolarning tahlili uzoq tarixga ega. Qadriyatlar mavzusi diniy dunyoqarashlar va ularning eng qadimgi shakllarida ham o‘z aksini topgan. Har bir din o‘ziga xos ilohiy qadriyatlar tizimiga ega. Ular bir-birlaridan ana shu qadriyatlar tizimi bilan ham farqlanadilar. Hozirgi zamondagi milliy va jahon dinlarining asosiy kitoblari “Qur‘on”, “Tavrot”, “Injil”, “Veda”, “Upanishad” va boshqalarga muayyan ilohiy qadriyat tizimlari o‘z ifodasini topgan. Dinlarning tarixiy shakllari takomillashib borgan sari, ulardagi qadriyatlar tizimi ham yangi-yangi qirralarini namoyon qilib boravergan.[3]

Ajdodlarimizning qadimgi kitobi “Avesto” diniy-falsafiy merosimizning eng yorqin namunasi, qadimgi xalqlarimiz umuminsoniy qadriyatlari mohiyati va ahamiyati yoritib berilgan asardir. Ma’lumotlarga ko’ra kitob bir necha avlodlar tomonidan yaratilgan. Avesto zardushtiylikning muqaddas kitobi bo’lganligidan, unda bu dinni qadriyatlar tizimi o’z ifodasini topgan. Shu bilan birga kitobda umuminsoniy qadriyatlarga, ularning inson ma’naviyati va amaliy faoliyati uchun ahamiyatga katta o’rin berilgan. Asarda yaxshilik, yorug’lik, barkamollik, hurfikrlilik timsoli bo’lgan afsonaviy xudo Axuramazda qiyofasida yaqqol namoyon bo’ladi. Kitob mualliflaridan biri Zaratushtra (Zardo’sht) fikricha, odamlar yaxshilik, yorug’lik kuchlariga ergashishi, yaxshilikni yomonlikdan, adolatni haqsizlikdan farqlab olishi, hayoti davomida Axuramazda tomonida bo’lishi lozim. Insonning bu jarayondagi qadri esa, yaxshilikning g’alabasi uchun kurashda befarq turmasligida, yashash tarzida, ma’naviy qiyofasida, ijtimoiy faoliyatida, “to’g’ri so’z” va “yaxshi ish”ida o’z ifodasini topadi. Ana shunday fazilatlariga ega bo’lgan kishigina yomonlik ustidan g’alaba qilish, yaxshilik urug’ini sochish ishiga ko’maklashishi, yaxshi nom qoldirishi, boshqalarning tahsiniga va minnatdorчилиgiga sazovor bo’lishi mumkin.[2]

“Avesto”da inson fikri, so’zlari va ishlariga ikki qarama-qarshi kuch: Voxu Mana (Ezgu fikr) va Ako Mana (Yovuz fikr) ta’sir ko’rsatadi, deyiladi. Barcha fikr, so’z va ishlar asosida aslida ezgulik va yovuzlik yotadi (“Yasna”, 30-bob). Asta-sekin axloqiy tushunchalar shaxsiy mazmun kasb eta boshlaydi. Masalan, “yaxshi so’zlar” deganda ahdda turish va berilgan va’dani bajarish kabilar nazarda tutilsa, «yaxshi amallar» deganda esa, savdo-sotiq ishlarida halol bo’lish, qarzni vaqtida to’lash, o’g’rilik va talonchilik qilmaslik, o’zgalarning moliga ko’z olaytirmaslik, buzuqliklardan o’zini tiyish, atrofdagilarga ziyon etkazadigan har qanday harakatni sodir etmaslik va hokazolar tushunilgan.

Ezgu kuchlarga yovuz kuchlar qarshi bo’lgan. Yovuz ruhlarga Drudjo (yolg’onchilik ruhi) boshchilik qilgan. Unga Yovuz fikr (Ako Mana), Talonchilik ruhi (Eshma) yordam bergan. Yovuz, yomon fikr - Ako Mana, yomon so’z – Drudjo hamda yovuz amal, yomon ish – eshma obrazlari timsoli yordamida ifoda etilgan.

Zardusht yovuzlik kuchlariga ko’maklashgan kishilarga nisbatan ayovsiz munosabatda, shuningdek, chorvachilik rivojiga xalal beruvchi yolg’onchilik ixlosmandlariga qarshi kurashda esa shafqatsiz bo’ladi. «Kimki menga sodiq bo’lsa, eng yaxshi narsaga musharraf bo’ladi, kimki sodiq bo’lmasa, unga eng yomon narsa nasib etadi... Kimki meni – Zardushtni quvvatlasa, buning evaziga istagan barcha narsalari bilan birgalikda bir juft sog’in sigir ham oladi» (“Yasna”, 46-bob), deyiladi asarda.

“Yaxshi fikr” iborasining mazmuni o’zida ilohiy qonun ruhidagi g’oyalarga ega bo’lish, yaqin kishisiga nisbatan mehribonlik ko’rsatish, muhtojlarga ko’maklashish, yovuzlikka qarshi kurashga doimo tayyor turish, kishilarning baxt-saodati yo’lida harakat qilish, ahillik, qabiladoshlar bilan birga do’stlik va totuvlikda yashashga intilish ruhidagi niyat va fikrlar musaffoligini aks ettiradi. Inson fikran ham boshqalarga hasad qilmasligi lozim. Yaxshi niyatli kishi darg’azab bo’lmaydi, jaholatlariga berilmaydi.

“Avesto” ta’limotida jismoniy va ma’naviy dunyo uch hayotiy davrga bo’linadi.

Birinchi davr eng qadimgi davr sanalib, u ilk hayotni bildiradi. Bunda ham jismoniy, ham ma’naviy dunyoda yaxshilik tantana qiladi. Dunyoda yorug’lik va insoniy saodat hukmron bo’lgan. Yagona jinoyatchi – hokim Yima Vivaxvant bo’lib, u kishilarni batamom rozi qilmoq uchun ularga mol go’shti ediradi.

Ikkinchi davr hozirgi davr bo’lib, bu davrda yaxshilik ruhlari bilan yomonlik ruhlari o’rtasida kurash davom etadi.

Uchinchi davr – bo’lg’usi hayot. Bu davrda aql-idrok va adolat tantanasi o’rnatiladi. Bo’lg’usi yaxshi hayotni Artu o’rnatib, dehqonlar badavlat, hokimiyat esa mustahkam bo’ladi, deyiladi. “Yaxshilik ta’limni va sadoqatni amalga oshirib yaxshi hokimlar hukm yuritaversinlar. Odamlarga va ularning avlodlariga baxt-saodat keltiradigan ta’limni amalga oshirsinlar”.

Xulosa qilib aytganda, “Avesto” asarida insonning barkamol bo’lib etishishida uning so’zi, fikri hamda ishi bir bo’lishiga katta e’tibor beriladi. Ushbu axloqiy uchlik g’oyasi eng qadimgi davrlardan boshlab kishilik jamiyati taraqqiyotining barcha bosqichlarida yaratilgan komil inson muammolariga bag’ishlangan Sharq falsafiy fikrlari mazmunining shakllanishiga asos bo’lgan desak, xato qilmagan bo’lamiz. Zero, unda odamning inson sifatida ma’naviy va moddiy kamol topishi uchun

zarur bo'lgan muayyan talablar o'z ifodasini topib, hayot kodeksi sifatida nafaqat Sharq, balki G'arb xalqlarining ham muqaddas ma'naviy merosiga aylangan.

“Avesto”ning katta qismi bo'lgan “Yasna”larda inson kamolini ko'rsatuvchi axloq-odob mezoni ana shu uchlikda humata (gumata) – yaxshi fikr, hukta (gukta) – yaxshi so'z va hvarta (gvarshata) – yaxshi ishlarda ifodalanadi “Men yaxshi fikr, yaxshi so'z, yaxshi ishga shon-shavkat baxsh etaman. Men yaxshilikdan iborat Mazda qonuniga shon-shavkat baxsh etaman” (“Yasna”, 14), deyiladi.

“Avesto” tadqiqotchisi A.O.Makovelskiy inson fikri, so'zlari va ishlariga ikki qarama-qarshi kuch: Voxu Manna (“Ezgu fikr”) va Apo Mana (“Yovuz fikr”) ta'sir ko'rsatadi, deydi. Barcha fikrlar, so'zlar va ishlar ichida aslida ezgulik va yovuzlik yotadi. “Yaxshi fikr” deganda ilohiy qonun ruhida yaqin kishisiga mehribon bo'lish, muhtojlarga ko'maklashish, yovuzlikka qarshi kurashishga doimo tayyor turish, kishilarning baxt-saodati uchun harakat qilish, ahillik va do'stlik, totuvlikda yashashga intilish ruhida niyatlar va fikrlar musaffoligi tushunilgan. Inson o'z fikr-xayolida boshqalarga hasad qilmasligi lozim. Yaxshi niyatli kishi darg'azab bo'lmaydi va boshqa jaholatlariga berilmaydi. Chunki bunday holatda inson yaxshi niyatini yo'qotadi, burch va adolat haqida unutadi va nojo'ya harakatlar qiladi.[4]

Zardushtiylikda axloqiylikning asosi, sahovatilik belgisi – mehnat deb ko'rsatilsa, ishyoqmaslik barcha nuqsonlarni keltirib chiqaruvchi sabab ekanligiga urg'u beriladi. Ayniqsa, dehqonchilik sohasida qilinayotgan mehnat yaxshilikni yuzaga chiqaruvchi asosiy omil deya ta'kidlanadi. Dehqonchilik bilan shug'ullanish, mo'l-ko'l hosil etishtirishga qaratilgan harakat Axura Mazda qonuniga bo'ysunish sanalgan. Don ekan kishi taqvodorlik urug'ini ekishi, Mazdaga ixlosmandlik e'tiqodini ilgari surishi, imonni oziqlantirib turishi o'n ming marta ibodat qilish bilan barobar, yuzlab qurbonlik qilishga teng deyiladi. “G'alla erdan unib chiqqanda, devlar larzaga keladi, g'alla o'rib olinayotganda devlar nola-faryod chekadi, g'alla yanchib, un qilinayotganda ular qocha boshlaydi, xamir qilinganda esa devlar mahv bo'ladi. G'allaning mo'l-ko'l bo'lishi devlarning labiga qizitilgan temir bosilgandek ularni tum-taraqay qiladi”.

“Avesto” ta'limotida jismoniy va ma'naviy dunyo uch hayotiy davrga bo'linadi: Birinchi davr eng qadimgi davr sanalib, u ilk hayotni bildiradi. Bunda ham jismoniy, ham ma'naviy dunyoda yaxshilik tantana qiladi. Dunyoda yorug'lik va insoniy saodat hukmron bo'lgan. Yagona jinoyatchi – hokim Yima Vivaxvant bo'lib, u kishilarni batamom rozi qilmoq uchun ularga mol go'shti ediradi. Ikkinchi davr hozirgi davr bo'lib, bu davrda yaxshilik ruhlari bilan yomonlik ruhlari o'rtasida kurash davom etadi. Uchinchi davr – bo'lg'usi hayot. Bu davrda aql-idrok va adolat tantanasi o'rnatiladi. Bo'lg'usi yaxshi hayotni Artu o'rnatib, dehqonlar badavlat, hokimiyat esa mustahkam bo'ladi, deyiladi. “Yaxshilik ta'limni va sadoqatni amalga oshirib yaxshi hokimlar hukm yuritaversinlar. Odamlarga va ularning avlodlariga baxt-saodat keltiradigan ta'limni amalga oshirsinlar”.

“Avesto” ta'limotiga ko'ra insonning balog'at yoshi o'n besh va mana shu yoshda inson ehtiyoj darajasida axloqiy jihatdan shakllanib ulgurgan bo'lishi kerak. Bunga esa e'tiqod va Aql orqali erishish mumkin. Ana shu tarzda inson o'n besh yoshgacha e'tiqod va Aql vositasida o'zining va hayotning mohiyatini anglab etadi. E'tiqod asosini ezgu niyat, ezgu so'z, ezgu amal va Aql asosini esa, haqiqat, bilim va adolat tashkil etadi. Bu bilan kishi eran, ya'ni mard va jasur insonga aylanadi. E'tiqod va Aqlga asosan yashaydigan eran kishi mana bu fikrni hech qachon unutmaydi: “Men bu dunyoga ma'naviy olamdan keldim, moddiy olamdan emas. Men yaratilganman, abadiy emasman. Mening ruhim Oxuramazdaga tegishli, Axrimanga emas, ya'ni ruhim ezgulikka mansub, Yovuzlikka emas. Men insonman, dev (Shayton) emas”. E'tiqod va Aql vositasida bunday fikrga kelish farr deb ataladi. Unga ko'ra “Farr” – bu inson ongida ezgulik g'oyasining yovuzlik g'oyalaridan g'olib kelishidir.[5]

Bir yuz ellik yil umr ko'rib, shundan to'qson yil ustozlik qilgan Zardo'shtning o'g'li Adurbada shunday deydi: “Men umrim davomida boylik, nochorlik va amaldorlikni bosib o'tdim. Boyligimda saxovatli va muruvvatli, nochorligimda harakatchan va aqlli, amaldorligimda bosiq va mulohazali bo'ldim”. Adurbadan fikrlaridan kelib chiqqan holda quyidagicha mulohaza yuritish mumkin:

- boy kishilar saxovatli va muruvvatli bo'lishi shart, aks holda ular ezgulik va Yovuzlikni farqlay olmaydi;

- nochor kishilar harakatchan va aqlli bo'lishi lozim, aks holda Ular Yovuzlik jabridan qutula olmaydi;

- mansabdor kishilar bosiq va mulohazali bo‘lmog‘i farz, aks holda ular Yovuzlikdan tiyila olmaydi;

- umuman olganda, inson saxovatli, muruvvatli, harakatchan, aqlli, bosiq va mulohazali bo‘lmasa ezgulik qila olmaydi.

“Avesto”da bayon qilingan axloq falsafasiga ko‘ra, odamzot, tabiat va tirik jonzotlar ettita Abadiy Muqaddaslik himoyasida bo‘ladi. Bu etti Abadiy Muqaddaslik quyidagilardir:

1. Ezgu niyat (Vohu-Mana).
2. Ezgu haqiqat (Asha-Vaxishta).
3. Cheksiz muruvvat (Spenta-Armayta).
4. Xohish mo‘‘tadilligi (Xshatra-Variya).
5. Ezgu maqsad (Xarvatot).
6. Abadiylik (Amaretat).

Bu tushunchalarga amal qilish odamlarning ongida “yaxshilik qilish – eng muhim maqsad” degan qadriyatning tarkib topishiga olib kelgan. Natijada o‘zgalarga yaxshilikni kasb qilib olgan “ijtimoiy guruhlar” paydo bo‘lgan. Masalan, “Avesto”da ana shunday guruhlardan biri sifatida Turon harbiylari ko‘rsatiladi. Unga ko‘ra Turon harbiylari ezgulikdan kuch olib, odamlar, tabiat va jonzotlarga yaxshilik qilishni kasb qilganlar; yomonlikka qarshi kurashganlar. Harbiy kishilarning bunday aqidaga ega bo‘lishi Sharq xalqlari, jumladan, O‘zbekiston xalqi hayotida muhtojlarga yaxshilik qilish va ularni qo‘llab-quvvatlash qadimdan axloqiy madaniyat unsuri sifatida qabul qilinganidan dalolat beradi.

Adabiyotlar

1. Karimov I. A. Barqarorlik shartlari hamda taraqqiyot kafolotlari //Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo‘lida. T.6. – T.:O‘zbekiston, 1998. – 125 b.
2. Avesto. / A.Mahkam tarjimai. T.: SHarq, 2001. – 385 b.
3. Kaldыbekova A., Xodjaev B. Pedagogik aksiologiya. – T.: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2009. – 80 b.
4. Ермаков Д.С. Образование для устойчивого развития// Педагогика. – 2006.- № 9. – С.23-29.
5. Жабборов И. Антик маданият ва маънавият хазинаси. – Т.: Ўзбекистон, 1999. – 221 б.

UDK 37; 371.10; 371.126.7

XALQ TA’LIMI XODIMLARI MALAKASINI UZLUKSIZ OSHIRISHGA KO‘P VEKTORLI YONDASHUV MODELI

A.A. Ibragimov

Samarqand davlat universiteti

E-mail: aibragimov74@mail.ru

Annotatsiya. Mazkur maqolada xalq ta’limi xodimlari malakasini oshirish jarayonini modellashtirishda ko‘p vektorli yondashuv modelining komponentlari, xususiyatlari, imkoniyatlari va joriy qilishning tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: ko‘p vektorlilik, motivatsion-maqsadga doir komponent, konseptual komponent, protsessual-mazmunga doir komponent, refleksiv-kommunikativ komponent.

Модель многовекторного подхода к непрерывному повышению квалификации работников народного образования

Аннотация. В данной статье освещены компоненты, особенности, возможности и организационно-педагогические условия внедрения модели многовекторного подхода в моделировании процесса повышения квалификации работников народного образования.

Ключевые слова: многовекторность, мотивационно-целевой компонент, концептуальный компонент, процессуально-содержательный компонент, рефлексивно-коммуникативный компонент.

Model of multi-vector approach in professional development of personnel of public education

Annotation. This article describes the components, features, options, and organizational-pedagogical conditions of multi-vector approach modeling the process of public education

professional development.

Key words: multi-vector, motivational-purpose component, conceptual component, procedural-composite component, reflexive-communicative component.

Malaka oshirish tizimining o'ziga xos xususiyatlari jarayonni tashkil etish va uning mazmuni shakllantirishga alohida yondashuvni talab etadi. Shu asosda tizimga pedagog xodimlar kasbiy kompetentligini oshirishni jadallashtiruvchi va uzluksizligini ta'minlovchi innovatsion shakl va usullarni tatbiq qilish muammosi paydo bo'ladi. Ya'ni, pedagog xodimlarning zamonaviy talablar darajasida shakllanishi nafaqat tayanch ma'lumotiga yoki malaka oshirish kurslaridan o'tishiga, balki asosiy ravishda pedagogik faoliyatiga hamrohlik qiluvchi kasbiy malakasini uzluksiz oshirib borish jarayoniga ham uzviy bog'liq.

Demak, bunday sharoitlarda xalq ta'limi xodimlari malakasini uzluksiz oshirishni tashkil qilish uchun ularning ta'lim faoliyatlarida aniqlangan yoki tinglovchining o'zi anglagan kasbiy qiyinchiliklari va ehtiyojlari asosida malaka oshirish dasturlarini ishlab chiqish, ta'limning barcha (formal, noformal, informal) turlaridan samarali foydalanish, malaka oshirish shakli, vaqti va hajmini erkin tanlash imkoniyatini yaratish, kasbiy kompetentligini rivojlantirishga tashqi ko'mak ko'rsatish va ilmiy-metodik kuzatuvni amalga oshirish, o'qituvchilarda loyihalash va reflektiv ko'nikmalarini rivojlantirish amaldagi tizimni takomillashtirishning asosiy vazifasi bo'lib qoladi.

Bu vazifalarni bajarishda innovatsion yondashuvlar "mutaxassisning butun umri davomida kasbiy kompetentligi va umumiy madaniyatini rivojlantirishga ko'maklashuvchi hayot faoliyati usuliga aylanadi. Shu bilan yangi pedagogik va ijtimoiy voqelikning shakllanishini ta'minlaydi" [7, 25-b.].

Xalq ta'limi xodimlari malakasini oshirish (XTXMO) tizimiga ko'p vektorli yondashuv orqali pedagoglarning kompetentligi va faoliyatining natijadorligiga yo'naltiriladigan davlat va jamiyat buyurtmasi, ularning shaxsiy va kasbiy ehtiyojlari hamda tayyorgarligining mavjud darajasini hisobga olish, ilg'or tajribalardan unumli foydalanish, o'z-o'zini rivojlantirishni tashkil qilish va mustaqil ta'limni kuchaytirish, malaka oshirishni mumkin qadar o'qituvchilarning ish joyiga yaqinlashtirish, turli ta'lim texnologiyalarini manzilli qo'llashga erishish mumkin.

Shuni alohida ta'kidlash o'rinliki, ko'p vektorli yondashuv malaka oshirish natijadorligini ta'minlashga qaratilgan bo'lib, unga quyidagi vazifalarning muvaffaqiyatli yechimi orqali erishiladi:

- malaka oshirish ta'limi mazmunini belgilashda tinglovchilarning o'z pedagogik faoliyatini ongli tahlili asosida anglangan dolzarb muammolari, ziddiyatlari va ehtiyojlarini inobatga oladigan yagona muammoli-korreksion maydonni shakllantirish;
- malaka oshirish turlari, shakllari, resurslari va tegishli subyektlari integrasiyasini ta'minlash va konsultativ faoliyat ustuvorligiga erishish;
- tinglovchilarga mustaqilligini ta'minlovchi, ichki potentsiali va ijodiy qobiliyatlarini mumkin qadar ochish va takomillashtirishga imkoniyat beruvchi hamda reflektiv ko'nikmalarini faollashtirishni nazarda tutuvchi malaka oshirish muhitini yaratish;
- pedagoglarga o'z-o'zini rivojlantirish, o'z-o'zini namoyon qilish, o'zaro rivojlantirish va o'zgalarning ilg'or tajribasini ijobiy o'zlashtirishga imkon beruvchi qulay pedagogik iqlimni ta'minlash;
- tinglovchilarning malaka oshirish motivatsiyasi, harakatchanligi va refleksiya-sini kuchaytirish hamda individual ta'lim trayektoriyasini loyihalash ko'nikmalarini rivojlantirish;
- malaka oshirish jarayonida erkin tanlov uchun qulay sharoitlar yaratish maqsadida formal pedagogik muloqot chegaralaridan chiqish, xatolarni ochiq muhokama qilish va faoliyatning ijodiy yo'nalganligini rag'batlantirish;
- malaka oshirishni tashkil qilishda o'quv-tajriba muhitini nazarda tutuvchi amaliy mashg'ulotlarga e'tiborni qaratish, jarayonda kommunikativ munosabatlarni rivojlantirish va samarali o'zaro ta'sirga yordamlashuvchi sharoitni yaratish b.

Xalq ta'limi xodimlari malakasini uzluksiz oshirishni ko'p vektorli yondashuv asosida modellashtirish jarayonida loyihalashtirilayotgan model "obyekt tarkibiga kiruvchi komponentlar, ularning o'zaro aloqadorligi, shuningdek, ishlash va rivojlanish xususiyatlarini aniq belgilash maqsadidagi tadqiqot predmetining ko'rgazmali-mantiqiy namoyishi" [17, 139-b.] sifatida qaraladi va funksional jihatdan jarayonning mohiyatini tushuntiradi.

Amalga oshirilgan tadqiqot natijalari xalq ta'limi xodimlari malakasini uzluksiz oshirishning ko'p vektorli modelini yaratish hamda uning komponentlarini tavsiflash uchun asosli dalillarga ega bo'lish imkonini berdi (1-rasm). Model o'zaro bog'liq va bir-birini taqozo qiluvchi motivlashtirish va maqsadni belgilash, konseptual, protsessual-mazmunga doir va reflektiv-kommunikativ komponentlarni o'z ichiga oladi.

Xalq ta'limi xodimlari malakasini uzluksiz oshirishning ko'p vektorli modelining *motivlashtirish va maqsadni belgilash komponenti* boshqa barcha komponentlar uchun yetaklovchi vazifasini o'taydi. Motivlashtirish va maqsadni belgilash komponenti XTXMOni ko'p vektorli yondashuv asosida uzluksizligini ta'minlash va kasbiy rivojlanishiga talablarni ifodalovchi maqsadlarni ishlab chiqish hamda ularni amalga oshirishda qulay sharoitlar yaratishni nazarda tutadi. Qo'yilgan maqsadlarga ko'ra faoliyat mazmuni, bajarish texnologiyasi va natijalarni baholash mezonlari aniqlanadi.

Shuni ham alohida qayd etish kerakki, Davlat ta'lim standartlari, malaka oshirishga qo'yiladigan Davlat talablari, mehnat bozori talab va takliflari, pedagoglarning kasbiy rivojlanishga bo'lgan ehtiyojlari yig'indisidan iborat ijtimoiy buyurtma pedagoglar kasbiy kompetentligini takomillashtirish va uzluksiz malaka oshirishning maqsadi, vazifalari, asosiy yondashuv va prinsiplarini belgilovchi muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

J.G'.Yo'ldoshev fikricha pedagogning shaxsiy sifatlaridan biri "ularga xos bo'lgan pedagogik faoliyat sababli doimo o'qishga motivatsion tayyorlik"dir. Ko'pincha o'qishga bunday prinsipial tayyorlik ularning pedagogik faoliyatidagi biror voqealar bilan yoki o'z malakasini oshirish imkoniyati to'g'risidagi axborot tufayli dolzarblashadi [4, 124-b.]. Motiv tayyorlikning, shaxs xulqining moyilligini tushuntiruvchi sababni nazarda tutadi [2, 78-b.].

Motivlarning rivojlanishi, motivlashgan yangi ma'lumotlarning paydo bo'lishi, faoliyat muhiti doirasidagi o'zgarishlar tufayli amalga oshirilishi E.G'oziyev tomonidan ta'kidlanadi. Bu o'rinda faoliyat faol vaziyat hisoblanib, mavjud ehtiyojlar, qiziqishlar doirasidagi psixologik holatlardan uzoqlashib boradi, so'ngra yangi qiziqish, ehtiyoj va intilishlarni shakllantiradi, motivlar mohiyati va shakllarini o'zgartiradi [5, 163-b.]. V.A.Slasyoninning ko'rsatishicha, "shaxsda muqarrar qiyinchiliklar, noqulay sharoitlar va boshqa holatlarni yengib o'tishda bor kuchini sarflab, mo'ljallangan maqsadga sobitqadamlik bilan intilib faol harakat qilishga xohish uyg'otadigan kuchli, yorqin, chuqur motivlar mavjud bo'lsa har qanday faoliyat samaraliroq kechadi va sifatli natijalar beradi" [15, 352-b.].

Motivatsiya (lotincha "motivus" – harakatga keltirmoq, undamoq) – A.G.Asmolov tadqiqotlarida organizmni faollikka chaqiruvchi va uning yo'nalishini belgilovchi xohish sifatida ifodalanadi. Motivatsiya insonning maqsadga yo'naltirilgan xulqini belgilaydi. Xulq regulatsiyasi uchta motivatsion omillar bilan izohlanadi: 1) ehtiyojlar bilan, faollik manbasi sifatida ko'rinadi; 2) sabab bilan, xulq yo'nalishini tanlashda belgilanadi; 3) emotsiyalar bilan, xulq dinamikasini boshqarishni amalga oshiruvchi subyektiv kechinmalar (intilishlar, xohish-istaklar va boshqalar), xulqdagi ustanovka. Motivlarni rivojlanish manbasi sifatida moddiy va ma'naviy qadriyatlarini ijtimoiy ishlab chiqarish jarayoni qaraladi. Potensial motivlar – jamiyatga xos bo'lgan obyektiv qadriyatlar, qiziqishlar va ideallar – inson tomonidan qabul qilinishi borliqda individual ongda shaxsiy ma'noni akslantiruvchi aniq harakatdagi motivlar va undovchi kuch qiyofasini oladi [11, 108-b.].

Motivlashtirish ruhiy omil sifatida pedagoglarni tegishli jarayonlardagi faolligini, harakatlari sababini, kasbiy mahoratini uzluksiz rivojlantirishga ichki rag'batni ifodalaydi. Ya'ni, motivlashtirish pedagogning ma'lum bir ehtiyojini ta'minlash bilan chambarchas bog'liq. Ehtiyoj esa insonni biror bir faoliyatga undovchi, harakatlantiruvchi va qo'zg'atuvchi eng kuchli motivdir.

Demak, motivlashtirish va maqsadni belgilash komponenti, birinchidan, tinglovchilarning kasbiy qiyinchiliklari va ehtiyojlari asosida ularni rag'batlantiruvchi motivlarni belgilash, ikkinchidan, malaka oshirishning umumiy maqsadlari va tinglovchilarning o'z faoliyatiga oid individual maqsadlari o'rtasidagi bog'liqlikni ta'minlash, uchinchidan, tinglovchilarda o'z potentsiallarini mumkin qadar namoyon qilish va samarali o'zaro ta'sirni amalga oshirish, to'rtinchidan, tinglovchilarni yaratilgan imkoniyatlardan foydalanish va ta'lim mazmunini erkin tanlash jarayonida faollashtirishni ifodalaydi.

Motivlashtirish va maqsadni belgilash komponenti	Maqsad: xalq ta'limi xodimlari malakasini oshirish uzluksizligi va natijaviyligiga erishish.
	Vazifalar: - malaka oshirishning davlat va jamiyat buyurtmasiga, tinglovchilar kasbiy ehtiyojlariga mosligini ta'minlashga ko'maklashish; - ta'lim jarayonida tinglovchilarning individual xususiyatlari va imkoniyatlarini inobatga olinishiga sharoit yaratish; - tinglovchilarning mustaqil bilim olishi, o'z-o'zini rivojlantirishi va o'z-o'zini namoyon qilishiga yordam berish.
Konseptual komponent	Nazariy yondashuvlar: shaxsga yo'naltirilgan, androgogik, kompetensiyaviy, faoliyatli, kommunikativ-kognitiv.
	Ilmiy prinsiplar: uzluksizlik, diversifikatsiyalash, individuallashtirish va differentsiallashtirish, modullilik va variativlik, ochiqlik, o'zaro ta'sir, refleksivlik, ilmiy-metodik kuzatuv, elektivlik, integrativlik.
Protsessual- mazmunga doir komponent	Mazmuni shakllantirish: - o'quv jarayonini tashkil qilishda interfaol yondashuvga asoslanish va manzillilikni ta'minlash; - o'quv mazmunini ijtimoiy buyurtma asosida modulli shakllantirish; - o'quv materialini o'zlashtirishda loyihalash texnologiyalaridan foydalanish.
	Tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlar: - pedagoglarning kasbiy mahoratini oshirishga ilmiy-metodik kuzatuvni amalga oshirish; - malaka oshirish o'quv mazmunini zamonaviy talablar asosida takomillashtirish va ta'limning formal, noformal, informal turlarini integratsiyalash; - <u>malaka</u> oshirish jarayonini individuallashtirish va uzluksizligini ta'minlash.
Refleksiv- kommunikativ komponent	Nazorat va refleksiya: nazorat, o'z-o'zini nazorat, o'zaro nazorat.
	Mezonlar: malaka oshirish motivatsiyasining oshishi; malaka oshirish faoliyatidagi harakatchanligi; refleksiv ko'nikmalarining rivojlanishi.
Natija: xalq ta'limi xodimlari malakasini oshirish samaradorligining ta'minlanishi.	

1-rasm. Xalq ta'limi xodimlari malakasini uzluksiz oshirishning ko'p vektorli modeli

Pedagog xodimlar malakasini oshirish jarayonini modellashtirishga doir metodologik yondashuvlar va tamoyillarni aniqlashda olib borilgan tadqiqotlardagi (jumladan, [8; 9; 10; 11; 12; 13; 14; 18; 19]) xulosalar hamda ilmiy izlanishlar natijalari asosida ko'p vektorli yondashuv modelining *konseptual komponenti* tarkibini quyidagi nazariy yondashuvlar va ilmiy prinsiplardan iborat qilib belgilash mumkin, degan xulosaga kelindi.

Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv pedagogning o'ziga xos xususiyatlari va individualligini rivojlantirish, harakatlarning o'zaro bog'liq tushuncha, g'oya va uslublari tizimiga tayangan holda ularning kasbiy o'sishi, o'z-o'zini anglashi va ijodiy potensialini ro'yobga chiqarish jarayonlarini

hamda qo'llab-quvvatlash va ta'minlash vositasida tashkiliy-pedagogik faoliyatga mo'ljal olishni nazarda tutadi. Bu yondashuv pedagoglarga kasbiy ehtiyojlariga asoslangan holda individual ta'lim trayektoriyasini tuzish, malaka oshirishning shakl, usul, vaqt va muddatlarini belgilashda erkinligi va mustaqilligining ustuvorligi orqali amalga oshiriladi.

Androgogik yondashuv katta yoshli ta'lim oluvchilarning alohida o'ziga xos belgilariga asoslanadi. Bu belgilar quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- katta yoshlilar ta'lim jarayonida nimani o'rganishlari haqida aniq tasavvurga va motivga ega bo'lganliklari sababli faol pozitsiyani egallaydilar;
- ularda o'z-o'zini faollashtirish, o'z-o'zini boshqarish, o'z-o'zini rivojlantirishga doir aniq ichki ko'rsatma mavjud;
- o'z rivojlanishining manbasi yoki to'sig'i bo'lishi mumkin bo'lgan ijtimoiy va madaniy tajribaga ega;
- faoliyatidagi vazifalar va muammolarni yechishga qaratilgan bilimlar va kompetensiyalarni egallashga ehtiyoj sezadi;
- ta'lim olishda o'z resurslarini tejashdan manfaatdor;
- malaka oshirishni tashkil qilishning barcha bosqichlarida o'quv jarayonini boshqarishning teng huquqli a'zosi [10; 12; 13].

Mazkur holatda uzluksiz malaka oshirish jarayonida o'qituvchi hamda tinglovchining o'zaro ta'siri to'liq ta'minlanadi va androgogning quyidagi rolli funksiyalari mustahkamlanadi: maslahatchi, supervizor, moderator, fasilitator [8, 100-b.].

Kompetensiyaviy yondashuv zamonaviy ta'limning barcha bosqichlari kabi malaka oshirish bo'g'inini ham rivojlantirishning ustuvor yo'nalishi hisoblanadi. Bunday yondashuv pedagoglarning kasbiy kompetentligini oshirishga yo'naltirilgan, kasbiy faoliyatida yuzaga keladigan muammo va qiyinchiliklarining tayyor yechimlarini bermasdan, mustaqil topishida ilmiy-metodik kuzatuvni amalga oshirish tarzida tushuniladi. Kompetensiyaviy yondashuv negizida o'z mavqeini o'zi belgilashi, o'z-o'zini rivojlantirish, o'z-o'zini namoyon qilish va kasbiy kelajagini ko'ra olish madaniyati turadi.

Faoliyatli yondashuv XTXMOni ko'p vektorli tashkil qilishda kasbiy faoliyat davomida yuzaga keladigan qiyinchiliklar va muammolar yechimini mustaqil topish, kasbiy va shaxsiy rivojlanishiga doir bilim va ko'nikmalarni mustaqil egallash, anglangan shaxsini yaratishga yo'naltirilgan faoliyat sifatida qaraladi. Mazkur yondashuv ko'p vektorli malaka oshirish jarayonini loyihalashda malaka oshirishning turli shakl va vositalarini inobatga olishga imkon beradi. Faoliyatli yondashuvda asosiy shart pedagoglarning malaka oshirishga anglangan va aniq yo'naltirilgan faoliyati bo'lar ekan, ularning faolligi, bilish faoliyati, qiziqishlari, kasbiy rivojlanishga ehtiyoji asos bo'ladi. Akademik A.M.Novikov shaxsning faoliyatini tashkil qilishning o'ziga xos xususiyatlarini bilish nuqtai nazaridan tahlil qilib, faoliyatni amalga oshirishning shaxsning shaxsiy va kasbiy sifatlariga bog'liq uchta bosqichini belgilaydi. Operatsion bosqich – “inson-bajaruvchi”, taktik bosqich – “inson-faol (harakatchan)”, harakatlarni tuzish umumiy algoritmini egallagan, strategik bosqich – “inson-ijodkor”, o'z faoliyati maqsadi va metodlarini mustaqil belgilaydigan [14, 61-b.]. Ko'rinib turibdiki, bilish faoliyatining darajasi pedagoglarning kasbiy rivojlanishida faoliyati o'zgarib borishining sifat va miqdor xususiyatlarini belgilaydi.

Kommunikativ-kognitiv yondashuv [18; 19] malaka oshirish jarayonida o'qitishni tashkil qilishning kommunikativ yo'nalganlik va kognitiv tarkibdan iborat aspektlarning birligida amalga oshiriladi. Bunday yondashuv pedagogning jamoada o'zini tutishi va o'zaro ta'sirga mo'ljal olishi, shu bilan birgalikda bilish faoliyatini faollashtirish bilan xarakterlanadi. Kommunikativ jarayonlar pedagogning kommunikativ kompetentligini real sharoitlarda rivojlantirish, guruhlarda ishlash, o'zaro ishonch, o'zaro yordam va o'zaro mas'uliyatlilikni oshirish, ilg'or tajribalarni o'rganishi va o'z tajribalarini ommalashtirish, yangiliklarga ochiqligiga yo'naltiriladi. Kognitiv jarayonlar pedagogning malaka oshirish faoliyatini amalga oshirish yo'llari va unga kasbiy va shaxsiy rivojlanishida ahamiyatga molik qadriyatli munosabatga oid bilimlarini chuqurlashtirishda dolzarbdir.

Uzluksizlik prinsipi. Tayanch prinsip sifatida pedagogning butun umri, jumladan, pedagogik faoliyati davrida ta'limiy potensialini rivojlantirishdan to'xtamaydigan va maqsadga yo'naltirilgan jarayon sifatida qaraladi hamda malaka oshirish tizimining barcha diskret unsurlarini birlashtirish, mustaqil ta'limi va kurslarda o'qish jarayonlarini qo'shib olib borish, ular orasida aniq belgilangan

chegaralarni qo'ymaslik va ta'lim muhitining ixtiyoriy bo'g'inlarida bezarar moslashish imkoniyatini yaratishni ifodalaydi.

Diversifikatsiyalash prinsipi. Mazkur prinsip malaka oshirish tizimida faoliyat turlarini kengaytirish va yangi shakllarini topish, malaka oshirish turlari va shakllarini turli-tumanlashtirish, tinglovchilarga kasbiy rivojlanish, o'zlarini namoyon qilish va mobilligini ta'minlashga qulay sharoitlar yaratishni nazarda tutadi.

Individuallashtirish va differensiallashtirish prinsipi. Malaka oshirish jarayonida pedagoglarning alohida xususiyatlari, imkoniyatlari va kasbiy kompetentligini inobatga olish orqali individual ta'lim trayektoriyasini qurishni nazarda tutadi. Malaka oshirish dasturlarini tuzishda pedagoglarning malaka toifasi, ish staji, yoshi, kasbiy mahorati darajasi, axborot texnologiyalarini qo'llay olishi, modullarni o'zlashtirish sur'ati, vaqt va manzil sharoitlari hisobga olinadi.

Modullilik prinsipi. Malaka oshirish ta'limida o'quv materialini aniq maqsadlarga erishishga mo'ljallangan alohida funksional qismlar, ya'ni modullarga bo'lish va ularni o'zlashtirish ketma-ketligini belgilash nazarda tutiladi. Bu o'rinda o'quv materialini shunday tuzilishi kerakki, unda tinglovchilarning o'z oldiga qo'ygan didaktik maqsadlariga erishishi ta'minlanishi hamda malaka oshirishning turli shakllarini uyg'unlashtirilishiga e'tibor qaratish talab etiladi.

Variativlik prinsipi. Malaka oshirish tizimining moslashuvchanligi va variativligini ta'minlash, pedagoglarga taklif etiladigan modullar, malaka oshirish shakl va usullarini tanlashga sharoit yaratish natijasida ta'lim jarayoni mazmunini o'zlashtirishni maqbullashtirish imkoniyatini berish.

O'zaro ta'sir prinsipi. Malaka oshirish tizimi ishtirokchilarining jarayonni maqbul tashkil etish, takomillashtirishga oid vazifalarni hamkorlikda hal etish, shuningdek, o'quv mazmunini ishlab chiqish va tatbiq qilish, samarali boshqaruvni amalga oshirishda barcha ishtirokchilarning manfaatlarini ko'zlash va tenghuquqliligini ta'minlash, ilg'or tajribalarni o'rganish va ommalashtirilishini belgilaydi.

Refleksivlik prinsipi. Pedagoglarni o'z kasbiy missiyasini anglashi, faoliyatini tahlil qila olishi va muammoli vaziyatlarni aniqlay olishi, shaxsiy tajribasi ma'nosini tushunishi va istiqbodagi kasbiy harakatlarini loyihalashi hamda o'z-o'zini rivojlantirish uslublarini ishlab chiqishini nazarda tutadi.

Ilmiy-metodik kuzatuv prinsipi. Pedagoglarning kasbiy rivojlanishiga ongli munosabatini shakllantirish, ularning individualligi, mustaqilligi, pedagogik vaziyatlarda eng maqbul yechimni topishi, ichki potensialini ro'yobga chiqarishiga sharoit yaratish, har taraflama konsultativ yordam ko'rsatish hamda o'z-o'zini faollashtirish va o'z-o'zini namoyon qilishga intilishini qo'llab-quvvatlash, kasbiy mahoratiga bo'lgan ishonchini mustahkamlashni ifodalaydi.

Elektivlik prinsipi (lotincha "electus" – tanlangan, saralangan). Tinglovchilarga malaka oshirish maqsadi, mazmuni, shakli, metodlari, manbalari, vositalari, muddati, vaqti, joyi va natijalarni baholashni tanlashda erkinlikni nazarda tutuvchi individual trayektoriyasini tuzish imkoniyatini ta'minlash bilan izohlanadi. Shuningdek, tinglovchilarning imkoniyatlarini hisobga oladigan, bixillashtirishdan qochish sharoitini yaratadigan va barchaga o'z qobiliyatlarini mumkin qadar namoyon qilishga imkon beradigan ko'p vektorli malaka oshirish tizimi nazarda tutiladi.

Integrativlik prinsipi malaka oshirish jarayonining barcha elementlari va subyektlarining o'zaro aloqadorlikda bo'lishini nazarda tutadi. Mazkur prinsip uzluksiz malaka oshirish ta'limi mazmuni, shakli, metod va vositalarini belgilashda butunlik va tizimlilikni ifodalaydi. Integrativlik prinsipini tatbiq qilish orqali pedagoglar kasbiy shakllanishida oliy ta'lim va malaka oshirish ta'limi orasidagi uzviylik hamda malaka oshirishning formal, noformal va informal turlarini uyg'unlashtirish ta'minlanadi.

Modelning *protsessual-mazmunga doir komponenti* XTXMOga ko'p vektorli yondashuvning tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlari hamda o'qitish bosqichlari, mazmuni, shakl va metodlarini qamrab oladi. Yuqorida keltirilgan yondashuv va prinsiplar asosida ishlab chiqilgan malaka oshirish ta'limi mazmuni pedagoglarning uzluksiz kasbiy rivojlanishini ta'minlaydi va ularning kasbiy kompetentlik darajasi va ehtiyojlarini hisobga olgan holda amalga oshiriladi.

Pedagogning uzluksiz malaka oshirish faoliyati samarali bo'lishi uchun unda o'z ichki potensialini ro'yobga chiqarish, o'z-o'zini namoyon qilish, mustaqil bilim olish, kasbiy qiziqishlarini rivojlantirish va konsultativ innovatsion faoliyatga turg'un motivatsiya shakllangan bo'lishi; o'qitishning zamonaviy usullari, ilg'or texnologiyalar, axborot-kommunikatsiya vositalari, pedagogik tadqiqot va pedagogik tashxis qurilmalari, ta'lim muhitini tashkil qilishning o'ziga xos xususiyatlarini

bilishi; pedagogik jarayonni loyihalash, modellashtirish va natijalarni oldindan ko'ra bilish ko'nikmasiga va boshqa sifatlarga ega bo'lishi lozim.

Xalq ta'limi xodimlari malakasini uzluksiz oshirishga ko'p vektorli yondashuv samaradorligini ta'minlash tegishli tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlarni yaratish orqali amalga oshiriladi.

Mazkur tushunchalar va tadqiqotimiz maqsadidan kelib chiqib xalq ta'limi xodimlari malakasini oshirishga *ko'p vektorli yondashuvni amalga oshirishning tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlari* deganda pedagogik jarayonda tinglovchilarning kasbiy rivojlanishini maqbullashtirish imkonini beruvchi o'zaro bog'liq va bir-birini taqozo qiluvchi integrativ tadbirlarni tushunamiz hamda ularni quyidagicha belgilaymiz:

1. Pedagoglarning kasbiy rivojlanishiga ilmiy-metodik kuzatuvni amalga oshirish. Mazkur shart-sharoitlar tinglovchilarning kasbiy muammolarini hal qilishda ularning ichki potentsiali va tajribalari asosida mustaqil hal qilinishiga har tomonlama ko'mak berilishini nazarda tutadi.

2. Malaka oshirish o'quv mazmunini zamonaviy talablar asosida takomillashtirish va ta'limning formal, noformal, informal turlarini integratsiyalash. O'qitishning modulli texnologiyalari va XTXMO o'quv mazmunini takomillashtirishning aloqadorligi, malaka oshirishning barcha turlaridan o'rinli foydalanish orqali modulli-jamg'ariladigan tizimni tashkil qilish orqali samaradorlikka erishish nazarda tutiladi.

3. Malaka oshirish jarayonini individuallashtirish va uzluksizligini ta'minlash. Malaka oshirish dasturlari variativligiga erishish, pedagoglarning kasbiy ehtiyojlari, individual xususiyatlari va imkoniyatlarini e'tiborga olgan holda ta'lim mazmuni, shakli, metodlari, vositalari, vaqtini belgilash hamda kasbiy refleksiyaning amalga oshirishga sharoitlar yaratish asosida pedagogning individual ta'lim trayektoriyasini tuzish nazarda tutiladi.

Modelning *refleksiv-kommunikativ komponenti* o'z-o'zini va o'zaro nazorat qilishni amalga oshirish ko'nikmasini, o'z kasbiy kompetentligini (yoki kompetentsizligini) adekvat baholash, kasbiy faoliyatidan qanoatlanish va o'z-o'zini faollashtirish darajasini tahlil qilish, kasbiy qiyinchiliklari va ehtiyojlarini anglashi, tanqidiy baholashi va korreksiyalash qobiliyati, tajribalarni almashishda hamkorlik faoliyati hamda ijodiy loyihalarini yaratish layoqatini rivojlantirishni o'z tarkibiga oladi. Bu komponent tinglovchilarning ijodkorligini oshirish, o'z-o'zini rivojlantirish va o'z-o'zini faollashtirish, o'quv faoliyatidagi sheriklari bilan muloqotga kirishish va o'zaro tajriba almashish usullarini o'zlashtirish, alohida mustaqil ishlash va guruhda ishlash ko'nikmalarini shakllantirish, malaka oshirish subyektlari bilan o'zaro ta'sirni amalga oshirishga yordamlashadi.

Refleksiv-kommunikativ komponent o'qituvchining mustaqil va guruhda ishlash ko'nikmasiga egaligi, o'z tajribalarini o'rtoqlashish va o'quv vazifalarini bajara olishi, kasbdoshlariga hurmat bilan munosabatda bo'lishi va ularni eshita olishi, o'z fikrini, qarashlarini, pozitsiyasini asoslashi va to'g'ri ifodalay olishi, ehtiyojlari, imkoniyatlari, potentsiali va individual xususiyatlariga ko'ra malaka oshirish shakllari va vositalarini to'g'ri tanlash orqali individual ta'lim trayektoriyasini tuza olishi, malaka oshirish mazmunini shakllantirishda shaxsiy takliflari bilan ishtiroki hamda o'z-o'zini boshqara olishida o'z ifodasini topadi.

Alohida ta'kidlash mumkinki, malaka oshirish samaradorligini belgilashda nazorat, o'z-o'zini nazorat va o'zaro nazorat turlaridan kompleks foydalanish natijalarning ishonchliligini va shaxsiy mas'uliyatlikni ta'minlaydi.

O'z-o'zini nazorat atamasiga pedagogika va psixologiya sohasida tadqiqot olib boradigan olimlar tomonidan tez-tez murojaat qilinmoqda. O'z-o'zini nazorat qilishning shunday shakli, unda obyekt bo'lib nazorat qilinadigan subyekt faoliyatining o'zi xizmat qiladi. O'z-o'zini nazorat shaxsiy o'quv faoliyati natijalarini ongli baholash va olingan natijani talab qilinadiganiga muvofiqlik darajasiga erishish maqsadida keyingi (zaruratga ko'ra) moslashtirishni nazarda tutadi [6, 267-b.]. Shuningdek, tadqiqotlarda o'z-o'zini nazorat qilish o'z shaxsini, mavjud fazilatlarini va xatti-harakatlarini tahlil qilish hamda u haqida fikr yuritish, ijobiy sifatlarini orttirib borish va aksincha, salbiy tomonlarini bartaraf etishga qaratilgan faoliyat sifatida baholanadi [1, 110-b; 3, 224-b.].

O'zaro nazorat kompleks pedagogik nazorat usullaridan biri sifatida o'quv vazifasi yechimi etalonini ko'rsatmagan holda ta'lim oluvchilarga bir-birlarining faoliyatini baholash taklif etiladi va bunda o'zaro rozilikka e'tibor qaratiladi. Demak, o'zaro nazorat faoliyatning o'zaro ishonch muhitidagi muloqot shaklidir. O'zaro nazorat shakllarini qo'llash tinglovchilarning faolligi va mustaqilligiga erishish va ish sur'atini individuallashtirishga imkon beradi. Ye.N. Bespalayaga muvofiq ta'lim oluvchilar o'quv faoliyati samaradorligi sifatini belgilashda o'zaro nazorat qilishning

o'rniga ortiqcha baho berishga hojat yo'q, chunki, o'zaro nazorat shaxsning halollik va adolatlilik, jamoadoshlik xislatlarini ishlab chiqishga yordam beradi va ta'lim oluvchilar faoliyatini sezilarli faollashtiradi hamda bilimlarga qiziqishini orttiradi [16, 71-b.].

Tinglovchilarning refleksiv ko'nikmalarini orttirish ularning kasbiy rivojlanishida muhim ahamiyatga ega, ya'ni refleksiya tinglovchilarning o'z faoliyati maqsadi, mazmuni, vositalari, shakllari va usullari haqida to'liq tasavvurga ega bo'lishiga olib keladi, shuningdek, faoliyatini tanqidiy baholash va korrektsiyalash imkonini beradi hamda uni faol subyektga aylantiradi.

Shunday qilib, xalq ta'limi xodimlari malakasini uzluksiz oshirishning loyihalangan ko'p vektorli modeli jarayonning ijobiy dinamikasini belgilovchi turli vektorlarni uyg'unlashtirish, malaka oshirishning barcha turlarini (formal, noformal, informal) maqbul qo'llashni ta'minlaydi hamda malaka oshirish samaradorligiga erishishga sharoit yaratuvchi o'zaro bog'liq bo'lgan komponentlar (motivlashtirish va maqsadni belgilash, konseptual, protsessual-mazmunga doir, refleksiv-kommunikativ) tizimini ifodalaydi.

Adabiyotlar

1. Ibragimov X., Abdullayeva Sh. Pedagogika nazariyasi (darslik). – T.: Fan va texnologiya, 2008. – 288 b.
2. Karimova V. Psixologiya / o'quv qo'llanma. – T.: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2002. – 203 b.
3. Pedagogika (pedagogika nazariyasi va tarixi): o'qituvchilar tayyorlash va pedagogika fani ta'lim sohasi bakalavriat yo'nalishi uchun darslik / M.Toxtoxodjaye vaning umumiy tahriri ostida. – T.: "O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati" nashriyoti, 2010. – 400 b.
4. Yo'ldoshev J.G'. Malaka oshirishning nazariy va metodologik asoslari (yoxud o'qituvchi bo'lish osonmi). – T.: O'qituvchi, 1998. – 208 b.
5. G'oziyev E. Umumiy psixologiya / Psixologiya mutaxassisligi uchun darslik, birinchi kitob. – T.: Universitet, 2002. – 238 b.
6. Азимов Э.Г., Щукин А.Н. Новый словарь методических терминов и понятий (теория и практика обучения языкам). – М.: ИКАР, 2009. – 448 с.
7. Вершловский С.Г. От повышения квалификации к постдипломному педагогическому образованию // Андрогогика постдипломного педагогического образования: научно-методическое пособие (под. ред С.Г.Вершловского, Г.С.Сухобской). – СПб.: СПбАППО, 2007. – С. 6-33.
8. Возгова З.В. Методологический регулятив развития системы непрерывного повышения квалификации научно-педагогических работников / монография. – М.: АПК и ПРО, 2010. – 239 с.
9. Возняк И.В. Формирование готовности педагогов к инклюзивному образованию детей в системе повышения квалификации: дисс... канд. пед. наук. – Белгород, 2017. – 225 б.
10. Змеев С.И. Андрогогика: основы теории и технологии обучения взрослых. – М.: PerSe, 2009. – 438 с.
11. Косолапова Ю.В. Сопровождение профессиональной деятельности учителя по введению федеральных государственных образовательных стандартов общего образования: дисс... канд. пед. наук. – Владивосток, 2015. – 241 с.
12. Кукуев А.И. Андрогогический подход в образовании взрослых. – Ростов на Дону: Булат, 2008. – 176 с.
13. Кузнецова И.Ю. Андрогогические условия развития субъектной позиции педагога в процессе повышения квалификации: автореф. дисс ... канд. пед. наук. – Кемерово, 2011. – 24 с.
14. Новиков А.М. Я – педагог. – М.: Эгвес, 2011. – 136 с.
15. Сластёнин, В.А. и др. Педагогика: Учеб. пособие для студ. высш. пед. учеб. заведений / В. А. Сластёнин, И. Ф. Исаев, Е. Н. Шиянов; Под ред. В.А. Сластёнина. – М.: Издательский центр «Академия», 2002. – 576 с.
16. Торосян Л.Д. Оптимизация самостоятельной работы студентов бакалавриата при обучении чтению на основе электронно-методического сопровождения (английский язык, экономический профиль): – дисс. ... канд. пед. наук. – Москва, 2014. – 193 с.

17. Царан А.А. Нравственное самоопределение будущего менеджера в процессе профессиональной подготовки в вузе: дис. ... канд. пед. наук. – Тольяти, 2013. – 259 с.
18. Шамов А.Н. Лингводидактические основы когнитивного подхода в организации обучения лексике на уроках немецкого языка в средней школе. – Н.Новгород: НГЛУ им. Н.А.Добролюбова, 2004. – 190 с.
19. Щепилова А.В. Коммуникативно-когнитивный подход к обучению французскому языку как второму иностранному. – М.: Школьная книга, 2003. – 488 с.

UDK: 371:004

**MASOFADAN O'QITISH TIZIMINING ASOSIY TAMOYILLARI VA
TEXNOLOGIYALARI**

I.B. Aminov, R. Tugalov

Samarqand davlat universiteti

Annotatsiya. Maqolada ta'lim jarayonida talabalarning bilim va malakalarini shakllantirish uchun masofadan o'qitish tizimidan foydalanish tamoyillari va texnologiyalari yoritilgan.

Kalit so'zlar: Masofaviy ta'lim, telekommunikatsiya, texnologiya, simulyator, elektron darslik.

Основные факторы и технологии дистанционного обучения

Аннотация. В статье рассматриваются основные принципы и технологии дистанционного обучения для формирования знания и навыков у студентов в учебном процессе.

Ключевые слова: Дистанционное образование, телекоммуникации, технологии, симулятор, электронный учебник.

Basic principles and technologies in the distance learning system

Abstract. In clause the basic principles and technologies of remote training for formation knowledge and skills of the students in educational process are examined.

Keywords: distance education, telecommunications, technology, simulator, electronic textbook.

Hozirgi kunda jamiyatni rivojlanishining zamonaviy bosqichi fan, texnika va texnologiyani rivojlanishining innovasion modellariga o'tish bilan xarakterlanadi. Bunda esa kompyuter, axborot va telekommunikasion texnologiyalar katta mavqegaga va ahamiyatga ega bo'ladi. Bunday sharoitda ta'lim jarayonini kompyuterlashtirish va axborotlashtirish, unda zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanish muammosi muhim va dolzarb masalalardan biri bo'lib hisoblanadi.

Haqiqatan ham, bugungi kunda har tomonlama rivojlanayotgan jamiyat taraqqiyotini axborot texnologiyalarisiz tasavvur etish qiyin. Axborot texnologiyalari kun sayin jadal sur'atlarda rivojlanib borayotganligi sababli ham ulardan ijtimoiy hayotning barcha sohasida foydalanish davrimizning bugungi kun masalasi bo'lib bormoqda. Ta'lim muassasalarida ham yetuk kadrlar tayyorlashdek ma'suliyatli vazifalarini amalga oshirishda axborot texnologiyalardan keng va samarali foydalanish zaruriyati paydo bo'lmoqda. Bunga esa esa ta'lim muassasalarining barcha bo'limlarini texnik jihatdan ta'minlash, Internet tarmog'idan foydalanish imkoniyatlarini to'la yaratib berish orqaligini samarali natijaga erishish mumkin.

O'quv jarayonida o'qitish texnologiyalaridan masofadan o'qitish tizimidvan foydalanish muhim ahamiyatga ega bo'lmoqda. Internet tarmog'idan masofali ta'limni amaliyotga tatbiq etishda foydalanish bir vaqtning o'zida an'anaviy hamda masofali ta'lim muhitini yaratadi, bu esa o'z o'rnida an'anaviy ta'lim tizimini sifatini oshiradi, chunki u ta'lim tizimida o'zining raqobatbardoshligini ta'minlashga intiladi va ta'limning umumiy darajasini oshiradi.

Bugungi kunda ta'lim tizimida ta'limni rivojlantirishning asosiy didaktik tamoyillari masofaviy ta'lim shakllari uchun ham asos bo'lib, ta'limning bunday texnologiyasi takomillashib, yangi o'quv muhiti uchun yangi shartlar va mezonlar bilan to'ldirib boriladi.

Masofadan o'qitish – bu o'qitishning progressiv metodlari va texnologiyalari bo'lib, yangi o'quv metodologiyasiga va kolekeyutar, telekommunikasiya bu asosida asoslangan bo'lib, o'qitishning barcha formalari sifatli uzluksizligi va samaradorligini oshirish uchun xizmat qiladi.

Masofaviy ta'lim – o'qitishning yangi shakli bo'lib, u o'qitishning ishlab chiqarishdan ajralgan va ajralmagan holdagi ko'rinishlaridan farq qiladi. U ta'limning yangi shakllari, metodlari, vositalari, tashkil etilishi, pedagog va talaba o'rtasidagi hamda talabalarning o'zaro muloqoti shakllarini nazarda tutadi. Shuningdek, bunday ta'limning o'ziga xos turli shakllari, ijtimoiy buyurtma bilan asoslangan o'z maqsadiga, tanlangan ta'lim muassasasining o'quv dasturlarida belgilangan mazmun hamda o'qitish metodlarining tashkiliy shakli va maxsus vositalariga ega bo'ladi

Masofadan o'qitish – o'qituvchi tomonidan bilimlarni uzatish jarayoni, masofadan o'qitish – o'qituvchilarni bilim olish jarayoni. Shunday qilib, masofadan o'qitish – masofadan o'qitish jarayonini amalga oshiriladigan va huquqiy, o'quv – uslubiy, dasturiy texnik va kadrlar ta'minoti kabi o'zaro bir-biri bilan bog'liq elementlarni o'z ichi oladigan tizimdir.

Masofadan o'qitish tizimida talabalar mustaqil o'qish, o'rganish va o'zlariga qulay vaqtni tanlash imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Masofadan o'qitish tizimi an'anaviy ta'lim tizimi kabi bir nechta tamoyillarni o'zida mujassam etadi.

Pedagog ta'limning tarbiyaviy hamda rivojlantiruvchi vazifalariga yo'naltirilganlik tamoyiliga ko'ra, talabalarda ma'lum bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish bilan birga, aniq bir mavzu bo'yicha mashg'ulotning tarbiyalovchi va rivojlantiruvchi omillarini ham e'tiborga olish lozim.

Masofaviy ta'limda bu tamoyil, talabani bilish faoliyatining kreativ tavsifi tamoyili ko'rinishida talqin qilinadi. Kreativ axborot texnologiyasi interaktiv xususiyatga ega bo'lib, talabadan qabul qilinadigan umumiy axborotlar tavsifini xususiy vaziyatlarga tatbiq qilishni talab qiladi.

O'qitishning ilmiylik tamoyilini masofaviy ta'lim jarayonida amalga oshirish talabalarning ma'lum fan mazmuni bo'yicha ilmiy dalillar, tushuncha va qonuniyatlar hamda nazariyalarni o'zlashtirishini nazarda tutadi. Ilmiylik tamoyili talabalardan ilmiy izlanish ko'nikmalarini rivojlantirishni talab qiladi. Buning uchun laboratoriya va amaliy mashg'ulotlarni bajarishda muammoli ta'lim metodlarini keng qo'llash talab etiladi. Mazkur tamoyilni masofaviy ta'limda muvaffaqiyatli amalga oshirilishi o'zlashtiriladigan bilimlarning fundamentalligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Ta'limning fundamentalligi tamoyili quyidagi psixologik mezonlar asosida amalga oshirilishi talabani o'quv dasturi materiallarini to'laqonli o'zlashtirishini ta'minlaydi:

- ta'lim oluvchining yuqori motivasiyaga egaligi;
- talaba shaxsining ta'lim maqsadlariga erishishga yo'naltirilganligi;
- muloqot qilish qobiliyatlarining shakllanganligi;
- faoliyatining tanqidiy tahlili asosida o'zini uzluksiz rivojlantirib borish;
- masofaviy o'quv rejalarini ishlab chiqishda talaba shaxsining psixofiziologik xususiyatlari, vaqt byudjetining e'tiborga olinganligi.

Ta'limning fundamentalligi tamoyiliga ko'ra talaba, o'quv dasturi mavzularini o'zlashtirishda ijodiy mazmundagi topshiriqlarni bajarishi talab etiladi. Bu tamoyil ijodiy mazmundagi masofali o'qitishni asosan ma'lum hajmdagi mazmunini to'g'ridan-to'g'ri o'zlashtirishni nazarda tutuvchi an'anaviy ta'limdan farqlab turadi.

Shuningdek, masofaviy o'qitishda, aniq faoliyat yo'li bilan axborotlarni qabul qilishning erkin tanlash tamoyilini ham yuqoridagi tamoyilning davomi sifatida qarash mumkin.

Tizimlilik va izchillik tamoyili esa an'anaviy o'qitishda bilimlar, ko'nikma va malakalarni ma'lum tizimda, aniq ketma-ketlikda, o'quv materialining har bir yangi elementini bir-birlari bilan uzviy bog'liqlikda hamda mantiqiy ketma-ketlikda berilishini taqozo etadi.

Masofaviy ta'limda talabani individual ta'lim olish bo'yicha chiziqli tamoyili shakllanadi. Talabani ta'lim olish jarayonini faollashtirish maqsadida, ta'lim mazmunining bosqichma-bosqich murakkablashib borishi tizimi shakllantirilgan bo'lib, u talabani shaxsiy maqsadini aniq belgilashi, mashg'ulotlarning ustuvor yo'nalishlari, o'qitishning shakl va tezkorligini tanlashiga imkoniyat yaratadi.

Masofaviy ta'limda o'quv materiallarining mazmun va murakkablik darajasiga ko'ra talaba darajasiga mosligi tamoyili talabalarning rejalashtirilgan bilim, ko'nikma va malakalarni aqliy hamda jismoniy jihatdan ortiqcha yuklanishsiz egallashlarini ta'minlashga xizmat qiladi.

Talabalarning individual xususiyatlarini hisobga olish tamoyili masofaviy ta'limni tashkil etishda muhim ahamiyat kasb etib, masofaviy kurslar moduli tuzilishini talaba shaxsining psixofiziologik, psixologik, psixososiologik individual xususiyatlarini hisobga olinishini ta'minlaydi.

Ko'rgazmalilik tamoyili – ta'limda shaxsning barcha sezgi organlariga ta'sir qilish orqali ta'lim samaradorligini oshirishni nazarda tutadi. Masofaviy ta'limda ushbu tamoyil asosan virtuallashtirish texnologiyasi vositasida ta'minlanadi. Xususan unda, videofilmlar, o'rgatuvchi kompyuter dasturlari, interaktiv texnologiyalardan keng foydalanish nazarda tutiladi. Ko'rgazmali materiallar hamda multimedia testlaridan foydalanish metodikasi masofaviy ta'limda ko'rgazmalilik tamoyilining keng tarqalgan muhim vositalari hisoblanadi.

Bilimlarni puxta va mustahkam egallash tamoyili ta'limning amaliy yo'naltirilganligini, kasbiy faoliyatda duch kelinadigan muammolarni hal etishga qaratilganligini ta'minlashi bilan muhim ahamiyatga ega.

Bulardan tashqari, masofaviy ta'limda uning natijalarini baholash, talaba tomonidan masofaviy ta'limda o'rganiladigan fanlar bo'yicha ijodiy ishlarni bajarishi pedagogga interaktiv metodlar asosida talaba faoliyatini butun o'quv kursi davomida nazorat qilishi va unga tuzatishlar kiritishi imkoniyatiga ega bo'ladi.

Masofadan o'qitish tizimini yaratishning bazaviy texnologiyasi – tarmoq texnologiyasi bo'lib, u masofadan o'qitish tizimiga ochiq kirish va murojaat qilish imkonini beradi.

Tarmoqli texnologiya ta'lim muassasasi uchun ancha iqtisodiy jihatdan arzon va samaraliroq texnologiya hisoblanadi.

Masofadan o'qitish tizimini yaratish asosida quyidagi tamoyillar yotadi: standartizatsiyalash, universallik va ochiqlik.

Standartizatsiyalash deganda birinchidan, Internet standart tarmoq texnologiyasi asosiy baza sifatida, ikkinchidan masofadan o'qitish tizimida kerakli komponentalarni kiritish, yaratish qoidalariga oid talablarni berish.

Universallik shundan iboratki, birinchidan tizim masofadan o'qitish vositasi sifatida qaraladi, lekin ixtiyoriy o'qitish formasi uchun kompyuter tarmoq texnologiyasi ham qaraladi. Ikkinchidan, tizim ixtiyoriy fanlarni o'qish va kurslarni yaratish uchun o'rinli bo'ladi: gumanitar, sosial-iqtisodiy, tabiiy ilmiy va texnik. Uchinchidan, tizim barcha ma'lum texnologichlar va masofadan o'qitish metodlarini tavsiya etadi: elektron darsliklar, o'qitish va nazorat qilish testlari, virtual laboratoriyalar, elektron kutubxona, shu jumladan axborotlarni almashtirish va individual ta'lim dasturini shakllantirishning turli xil vositalari.

Ochiqlik tamoyili shuni anglatadiki, tizimdan ro'yxatdan o'tgan barcha foydalanuvchilar, xoxlagan vaqtda, xoxlagan masofada foydalanishlari mumkin.

Masofadan o'qitish tizimiga qo'yiladigan asosiy talablar quyidagilardan iborat bo'ladi:

- interfaollik, ya'ni o'qitishning muloqot rejimini ta'minlaydi;
- dasturiy va apparatli ta'minotning bog'liqmasligi, o'qitishni xoxlagan vositaviy ta'minotda va ixtiyoriy operatsion tizim boshqaruvida olib borish;
- ma'lumotlar almashinuvchining yuqori tezligi, o'qitishda kutish vaqtini kamaytirish.

Masofaviy ta'lim kompyuter kommunikatsiyasi orqali tashkil etilganda yuqoridagi talablar asosida o'qitishning ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi tashkil etuvchisi, ularda qo'llaniladigan texnologik jarayonlar bilan jihozlangan kompyuter kommunikatsiyasi, kompakt disklar, shuningdek keys texnologiyasi kabi vositalarga asoslangan bo'ladi.

Masofaviy ta'lim asosini tashkil etgan zamonaviy kompyuter telekommunikatsiya texnologiyalari, bilimlarni uzatish va talabalarni turli xil o'quv axborotlari bilan ta'minlash bo'yicha o'qitishning an'anaviy vositalaridan ustunlik qilishi bilan farqlanadi. CD-ROM interaktiv disklar, e'lonlarning elektron doskasi, multimediali gipermatn, Internet interfeyslari yordamida global tarmoqdan ma'lumot va bilimlarni olish talabalarni o'zaro muloqot jarayoniga faol jalb qilishi bilan birga pedagogik jarayonlarni boshqarish imkoniyatini yaratuvchi zamonaviy texnologiyalaridan foydalanish zaruriyatini hosil qiladi.

Masofaviy ta'limning asosiy texnologiyalariga interfaol va interfaol bo'lmaganga texnologiyalarni kiritish mumkin:

Interfaol texnologiyalar bu:

- internet masofaviy ta'lim portali;
- video va audio konferensiyalar;

- elektron pochta orqali ta’lim;
- internet orqali mustakil ta’lim olish;
- uzoqdan boshqarish tizimlar;
- onlayn simulyator va o’quv dasturlar;
- test topshirish tizimlari.

Interfaol bo’lmagan texnologiyalar bu:

- video, audio va bosmaga chiqarilgan materiallar;
- televizion va radio ko’rsatuvlar;
- disklarda joylashgan dasturlar.

Video va audio konferensiyalar - bu Internet va boshqa telekomunikasion aloqa kanallari yordamida ikkita, uzoqlashgan auditoriyalarni telekommunikasion xolatda bir biri bilan bog’lab ta’lim olish yo’li. Video va audio konferensiyalar uchun katta xajmda maxsus texnika, yuqori tezlikga ega bo’lgan a’loqa kanali va o’qitishni tashkil qilish uchun xizmat ko’rsatuvchi mutaxassislarni jalb etish kerak bo’ladi.

Internet orqali mustakil ta’lim olish - bu Internetda joylashgan ko’pgina saytlarda joylashgan katta xajmdagi ma’lumotlar ustidan mustaqil ravishda ishlash va yangi bilimlar olish yo’li.

Elektron pochta orqali ta’lim esa eng ommaviy Internet xizmatlaridan foydalanib, talaba va o’qituvchi o’rtasida xatlar orqali muloqot o’rnatib ta’lim olish yo’li. U yordamida har xil test, vazifa, savol-javob va ko’rsatmalarni (matn, grafika, multimediyalar, dasturlar va boshqa kurinishida) jo’natib qabul qilishimiz mumkin.

Uzoqdan boshqarish tizimlari - murakkab dastur, tizim va uskunalarni real xolatda boshqarish va ularda ishlash imkoniyatlarini yaratuvchi maxsus tizimlar yordamida bilim olish yo’li. Uzoqdan boshqarish tizimlarning asosiy vazifasi talabaga faqatgina amaliy bilimlarni berish.

Simulyator, elektron darsliklar va o’quv dasturlar - bu asosan nazariy va amaliy bilimlarni kompyuter dasturlari orqali talabalarga on-layn xolatida olish yo’li. Simulyator va elektron darsliklar hozirgi kunda ta’lim sohasida juda keng qo’llanilayapti.

Test topshirish tizimlari - bu maxsus dasturlar yordamida talabalarning amaliy va nazariy bilimlarni tekshirishning asosiy vazifasi, bu talabalar bilimlarini tekshirib ularni baxolash.

Masofaviy kurslar asosida o’quv jarayoni doirasidagi talabalarning faolligi tamoyillarining paydo bo’lishi, o’qitishni individuallashtirish va differensiallashtirish, loyihali faoliyatga o’tishga asos bo’ldi. Masofaviy o’qitishda turli axborot va kommunikasion texnologiyalar qo’llaniladi. Bunda, har bir texnologiyaning qo’llanilishi masofaviy ta’lim oldida turgan maqsadlar va masalalarga bog’liq bo’ladi.

Masofaviy o’qitish tizimi o’ziga xos maqsad, mazmun, usul va vosita shakllariga ega bo’lib – masofaviy ta’limda o’quv tarbiyaviy jarayonni ta’minlovchi o’qitish metod va uslublar majmuasi - masofaviy o’qitishning pedagogik texnologiyalaridir.

Masofaviy ta’lim tizimida keng qo’llaniladigan pedagogik texnologiyalarga Keys texnologiya va TV texnologiya, Internet texnologiyalari turlarini kiritish mumkin.

Keys texnologiya - masofaviy ta’limda audiovizual va multimediali o’quv uslubiy materiallar majmuasini aks ettiradi;

TV texnologiya - o’quv metodik ma’lumotlarni televideniye yoki videomuloqotli dasturlar orqali yetkazish kiradi.

Internet texnologiya - masofaviy ta’limning jahon axborot ta’lim tarmoqlariga kirish, integrasiya va o’zaro ilmiy aloqa va mustaqil ta’lim tamoyillariga asoslanganligi bilan ahamiyatlidir.

Internetning masofaviy ta’lim portali bu maxsus Internet saytlar bo’lib, bu saytlarning asosiy vazifasi - ta’lim jarayonini tashkil qilish, yoki boshqa so’zlar bilan talaba va o’qituvchi o’rtasida elektron on-layn muloqotni o’rnatish, o’qituvchilarga o’quv materiallarni joylashtirish va talabalarga shu ma’lumotlar bilan ishlashga xamda boshqa masofaviy ta’lim servislardan foydalanish imkoniyatini yaratishdan iborat.

Adabiyotlar

1. O.Lavrov. Distansionnoye obucheniye: Klassifikatsiya problem. Terminy i opredeleniya. «Voprosi Internet - obrazovaniya», №15, 2003 g.
2. Polat V. Distansionnoye obucheniye: idey, texnologii, problem i perspektiv. –M., MIsM., 2005 s.

3. Uvarov A. Informatika v shkole: vchera, segodnya, zavtra // Informatika i obrazovaniye, 1990, №4.
4. Ivanov M. Puti sovershenstvovaniya metodov prepodavaniya v vysshey shkole// Sovr.vysssh.shkola, 1982. №3.
5. Bolotov V.A. O distansionnom obrazovanii// Informatika i obrazovaniye, №1, 1998 g.

UDK: 371

O'QUVCHILARDA KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYANI SHAKLLANTIRISHDA INFORMATIKA VOSITALARIDAN FOYDALANISH

U.X. Mingboyev

Jizzax davlat pedagogika instituti huzuridagi xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish hududiy markazi

E-mail: ulugbek1977@inbox.uz

Annotatsiya. Ushbu ishda umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilarida kommunikativ kompetensiyani shakllantirishda informatika vositalaridan foydalanish masalalari qaralgan.

Kalit so'zlar: kompetensiya, kompetentlik, ishbilarmonlik metodi, kommunikativ kompetensiya.

Использование средств информатики в формировании коммуникативной компетентности учащихся

Аннотация. В данной работе рассмотрены формирование использование средств информатики у учащихся общеобразовательных школ.

Ключевые слова: компетенция, компетентность, метод предпринимательства, коммуникативная компетенция.

Using informatics in the development of communicative competence of students

Abstract. In this paper the use of informatics tools in the formation of communicative competence of secondary school students is considered.

Keywords: competence, competency, method of entrepreneurship, communicative competence.

Zamonaviy jamiyatni tavsiflovchi asosiy jarayonlardan biri – uni axborotlashtirish hisoblanadi. Axborotlashtirish deganda, insonning ijtimoiy va shaxsiy hayoti, turli ishlab chiqarish sohalariga zamonaviy kompyuter texnikasining joriy etilishi tushuniladi.

Zamonaviy sharoitlarda shaxs muvaffaqiyatining asosi, bu mehnat bozoridagi raqobatbardoshlik hisoblanadi. Raqobatbardoshlik asosini esa kompetensiya tashkil etadi.

Hozirgi vaqtda umumta'lim maktablarida o'quvchilarda shakllanishi lozim bo'lgan tayanch kompetensiyalarning ro'yxati kengaytirilmoqda. A.V.Xutorskiyning tasnifiga ko'ra quyidagi kompetensiyalar eng ommalashgan hisoblanadi: qadriyatli va mazmunli; umummadaniy; o'quv-bilish; axborot; kommunikativ; ijtimoiy mehnat; shaxsning o'z-o'zini takomillashtirish [1].

“Informatika va axborot texnologiyasi” maktab kursi o'quvchilarda tayanch kompetensiyalarini shakllantirish va jamiyatni axborotlashtirishga yo'naltirilgan vazifani hal etishda muhim ahamiyatga ega.

Yuqorida qayd etilgan kompetensiyalar ichida, eng yetakchisi **kommunikativ kompetensiyadir**. Chunki, ushbu kompetensiya boshqa kompetensiyalarning rivoji va amalga oshirilishiga sharoit yaratadi.

Kommunikativ kompetensiya ta'lim oluvchilarda quyidagilarni ta'minlaydi:

- muloqatning o'quv-ilmiy, ijtimoiy-maishiy, ijtimoiy-madaniy sohalarida muloqot qilish ko'nikma va qobiliyatlarini takomillashtirish;
- turli xil faoliyat jarayonida nutqli muloqot shakllarini egallash;
- o'quv-ilmiy, matn va boshqa axborat manbaalari bilan ishlashda bilim va qobiliyatlarni rivojlantirish;
- mustaqil topilgan va berilgan asoslarga ko'ra axborotni talqin qilish ko'nikmasini takomillashtirish.
- **Kommunikativ kompetensiyalar** umumo'quv ko'nikma va malaka, shuningdek predmetli

ko'nikma, malaka va faoliyat usullari asosida shakllanadi. Ular haqidagi ma'lumotlar 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval

Faoliyatining umumo'quv ko'nikma, malaka va usullari	Faoliyatning predmetli ko'nikma, malaka va usullari
Turli xil manbaalarda berilgan mavzu bo'yicha kerakli axborotlarni izlash va olish	Telekommunikatsion kanallar bo'yicha axborotlarni izlash va uzatish
Fikrlashga asoslanishni anglab yetmoq ko'nikmasi	Foydalanilayotgan axborot- kommunikatsiya texnologiyalarining o'rni va vazifasini tushunish
Mustaqil tanlangan aniq misollarda o'rganilgan holatlarni tushuntirish	Kompyuter sinovini o'tkazish
Qayta ishlash, uzatish, axborotlarni tizimlashtirish uchun multimedia resurslari va kompyuter texnologiyalaridan foydalanish, ma'lumotlar bazasini yaratish, bilish va amaliy faoliyat natijalarining taqdimotlari	Axborot ob'ektlarini yaratish, jumladan: <ul style="list-style-type: none"> • matn tuzilmasi; • namoyishning turli shakllari; • aniq ob'ektning jadvalli namoyishi; • ma'lumotlar bazasi; • namuna asosida taqdimot.
Asosiy ommaviy chiqish turlarini egallash, estetik me'yorlar va muloqot (bahs) yuritish qoidalariga rioya qilish	Bilish va amaliy faoliyat natijalarining taqdimoti
Ta'limda erishilgan yutuqlarni ob'ektiv baholash	Foydalanilayotgan axborot- kommunikatsiya texnologiyalarning o'rni va vazifasini tushunish
Jamoaviy faoliyatni tashkil etish va ishtirok etish ko'nikmalarini egallash	Individual va jamoaviy loyihalarini bajarishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositalarini qo'llash

Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 10-sinfida o'tkazilgan tashxis natijasi shuni ko'rsatdiki, umumo'quv ko'nikma va malakalar va predmetli ko'nikma va malakalarni rivojlantirish ta'lim oluvchilarning kommunikativ kompetensiyasini shakllantirishga yordam beradi.

Informatika va axborot texnologiyalari darslarida **kommunikativ kompetensiyani** quyidagi uch yo'nalishdagi o'zarota'sirlashuv orqali shakllantirish mumkin:

1. "Inson – inson" o'zaro ta'sirlashuvi. Mazkur o'zaro ta'sirlashuv natijasida o'quvchilar mulohaza yuritish, tinglash va eshitishni o'rganishadi;
2. "Inson – kompyuter" o'zaro ta'sirlashuvi. Matn, jadval, son, tovush, videoaxborotlarni taqdimot etishda uning mazmun- mohiyatini tushunarli tarzda egallashni o'rganishadi;
3. "Inson-kompyuter-inson" o'zaro ta'sirlashuvi. Yangi bilimlarni o'zlashtirish uchun lokal va global kompyuter tarmoqlari imkoniyatlaridan foydalanish.

"Informatika va axborot texnologiyalari" fani bo'yicha tashkil etiladigan darslarda o'quvchilarda **kommunikativ kompetensiyasini** shakllantirish muammosini hal etishda quyidagi texnologiyalar va ulardan foydalanish maqsadga muvofiq xisoblanadi: muammoli o'qitish texnologiyasi; loyihali o'qitish texnologiyasi (Dj. Dyui, Ye.S Polat); vaziyatli masalalarni yechish usullari (O.L. Lebedeva va boshqalar).

Informatika vositalari orqali aniqlangan muammolarni to'liq yechish va **kommunikativ kompetensiyasini** shakllantirishda bizning nuqtai nazarimizda quyidagilarga imkon beruvchi loyihali o'qitish texnologiyasi muhim o'rinni egallaydi:

- 1) mehnat mahsuli yaratilishi bilan yakunlovchi aniq muammoni hal etishga qaratilgan faoliyatning tashkil etilishiga imkon yaratadi;
- 2) etishmaydigan bilimlar turli xil manbaalar orqali mustaqil ravishda to'ldirib boriladi;
- 3) bilishga oid va amaliy vazifalarni yechish uchun egallangan bilimlardan foydalaniladi;
- 4) tadqiqotchilik ko'nikmalari rivojlantiriladi;
- 5) o'z-o'zini baholash darajasi yuqoriga ko'tariladi va ba'zi bir o'zida mavjud bo'lgan shaxsiy va kasbiy kamchiliklardan xolos bo'ladi;
- 6) kompyuterdan ijodiy faoliyat uchun vosita sifatida foydalaniladi.

Loyihani bajarish jarayonida ishtirokchilar quyidagi kommunikativ kompetensiyani shakllantirishga imkon beruvchi doimiy o'zaro ta'sirlashuvlarda bo'lishadi.

- “Inson – inson” (muammoni hal etish rejasini ishlab chiqishda, muammoni yechishning samarali usullarini tanlashda, o‘z ish natijalarini himoya qilishda);
- “Inson – kompyuter” (o‘zining bilishga oid va amaliy faoliyat natijalarini umumlashtirish);
- “Inson-kompyuter-inson” (etishmayotgan axborotni qabul qilish, lokal va global kompyuter tarmoqlari imkoniyatlaridan foydalanishda loyiha ishtirokchilarining o‘zaro ta’sir harakati).

Biz tomondan o‘quvchilarda kommunikativ kompetensiyasini shakllantirishga yo‘naltirilgan dars va darsdan tashqari o‘quv faoliyatini tashkil etishning qo‘yidagi yo‘nalishlari ishlab chiqildi, sinovdan o‘tkazildi va amaliyotga tadbiiq etildi, ya’ni ularning kasbiy ko‘nikma va malakasini oshirilishiga yordam ko‘rsatish amalga oshirildi:

1) “Inson-inson” va “Inson-kompyuter” o‘zaro ta’sirlashuvida kommunikativ kompetensiyani shakllantirishga yordam ko‘rsatadigan amaliy yo‘nalishdagi vazifalarni yechish. Bunday vazifalar sifatida quyidagilarni qayd etish mumkin:

- MS Word vositalaridan foydalangan holda maktabda o‘qitiladigan informatika va axborot texnologiyalari hamda ingliz tili fanlari bo‘yicha glossariylar yaratish;
- o‘quvchi portfoliosini rasmiylashtirish;
- maktab kutubxonasi uchun ma’lumotlar bazasini yaratish;
- sinfning elektron jurnalini yaratish;
- “Sodda va murkkab funksiyalarning grafiklari”, “MS Excelning funksiyalar kutubxonasi” va “Mantiqiy funksiyalar” mavzulari bo‘yicha taqdimotlar yaratish [2].

2) “Inson-inson”, “Inson-kompyuter” va “Inson-kompyuter-inson” o‘zaro ta’sirlashuvlarida kommunikativ kompetensiyani shakllantirishga yordam ko‘rsatadigan, boshqa ilmiy sohalarga oid bilimlarni o‘zlashtirish va jalb etish orqali ishlanmalar yaratish va ijodiy loyihalarda ishtirok etish;

- “Ustoz - jamiyatning asosiy yaratuvchisi”, “Moddiy va ma’naviy boyliklarni bergan-istiqlol”, “Istiqlol shukronasi – bu vatan” va boshqa shu kabi mavzulardagi kompyuter rasmlar galareyasini yaratish;

- “MS Excel yordamida ba’zi masalalarni yechish”, “MS Access 2010 da ma’lumotlar omborini tashkil etish”, “Tenglamalarni taqribiy yechish”, “Geometrik masalalar va ularni yechish metodlari” mavzulari bo‘yicha multimediali taqdimotlar ishlanmasini yaratish [3, 4];

- Boshqa ta’lim tashkilotlari tomonidan o‘tkazilayotgan o‘quv va predmetlararo loyihalarda ishtirok etish.

3) Masofaviy o‘quv olimpiadalarida ishtirok etish. Bunda ta’lim oluvchilar nafaqat berilgan vazifalarni mustaqil ravishda bajarishni, balki “Inson-kompyuter-inson” o‘zaro ta’sirlashuv kompetensiyaning shakllanishiga yordam ko‘rsatuvchi o‘z oldiga qo‘yilgan vazifalarni bajarilishiga qaratilgan o‘quv kurslarini o‘tashlari ko‘zda tutiladi.

4) “Ishbilarmonlik o‘yini”, “Kasblar olamiga sayohat” va “Kompyuter viruslari” kabi dars shakllari.

“Kasblar olamiga sayohat” mavzusidagi ish bilarmonlik o‘yinini qarab chiqamiz.

Ushbu o‘yinning mohiyati shundan iboratki, uning ishtirokchilari MS Word dasturi vositalari bilan matnli hujjatni tahrir qilish imkoniyatlaridan foydalanishda o‘zining kompetensiyasini namoyish etishi talab etiladi.

O‘yin ikki bosqichda o‘tkaziladi. Birinchi bosqich – tayyorgarlik ko‘rish. O‘quvchilarga matn tavsiya etiladi va vazifa beriladi: uning kasbga mansubligini aniqlash. Chunki, matn formatlanmagan, bunda uni o‘qishda va mohiyatini tushunishda muammolar paydo bo‘ladi. Formatlangan matnning idrok uchun maqbulligi haqida o‘quvchilarda fikr yuzaga keladi. Shundan keyin formatlashning usullari aniqlanadi va ushbu matnda uni qayerda va qanday maqsadda qo‘llash zarurligi belgilanadi.

Ikkinchi bosqichda o‘quvchilarga kulinariya haqida kitob yozayotgan oshpaz, tarbiyaviy ishlar rejasini ishlab chiquvchi o‘qituvchi, kasal kishiga ko‘rsatmalar beruvchi vrach, gazeta maqolasini tahrir etuvchi muxbir bo‘lishi tavsiya etiladi. Tavsiya etilgan matnlarni formatlash vazifasi beriladi. O‘quvchilarga ushbu guruh ishini bajarilishiga 18-20 daqiqa vaqt ajratiladi.

Keyingi bosqich o‘z mehnati natijalarini himoya qilishdan iborat. Bu bosqichda ta’lim oluvchilar formatlashtirilgan matnlarni namoyish etish bilan birga formatlashning qanaqa usullari qayerda va qanday maqsadlarda qo‘llanilishi haqida tushuntirib, o‘z natijasini 5 ballik tizim bo‘yicha baholaydi. Qolgan ishtirokchilar javob berayotgan o‘quvchini diqqat bilan tinglab, savollar berishadi va guruhga o‘z bahosini beradi. Barcha loyihalar himoyasi yakuni bilan birinchi matnga qaytilib,

formatlanadi, biroq bunda har bir o'quvchi o'z ishini mustaqil bajaradi. Dars natijalarini umumlashtirish, qoniqarli va qoniqarsiz natijalar tahlili bilan yakunlanadi.

Mashg'ulotlarni ishbilarmonlik o'yin shaklida o'tkazish kommunikativ kompetensiyani shakllantirilganlik darajasini aniqlashga yo'naltirishda va ta'lim oluvchilarning hayotiy kompetensiyalarini shakllantirish bo'yicha ishini davom ettiradi.

O'quvchilarda kommunikativ kompetensiyani shakllantirishda quyidagi uslublardan foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

– og'zaki nutq shakllarini bilishi (monolog, dialog, savol bera olish, og'zaki javob berishda dalil isbotni keltirish, munozara, loyiha himoyasi va boshqalar);

– “Inson” – “texnika” tizimida so'zlashuvni olib borishi (interfeys qurilmalari tamoyillarini tushunish, muloqot oynalari bilan ishlash, muhit parametrlarini sozlash va boshqalar);

– og'zaki va yozma ishlarni o'zida tasavvur qilishni bilishi, matnni bezatish uslublarini egallashi, (elektron yozishma, tarmoq etiketi, mavjud namuna bo'yicha hujjatlar matnini yaratish, taqdimot jarayonida axborotlarni uzatish va boshqalar);

– tarmoqdan uzilgan suhbatdosh bilan muloqotni tashkil etish uchun telekommunikatsiyalarni o'zlashtirish (turli xildagi kommunikatsiya imkoniyatlarini tushunish, ularning sezilmas farqlaridan foydalanish va boshqalar);

– tilning ko'pma'noliligini tushunish, til, lingvistik kompetensiyalarini bilishi (jumladan, rasmiy tillar, tizimni kodlash, tilni dasturlashning tegishli darajasini egallash);

– guruhda ishlash, murosa bilan ishlashni bilish (dastur loyihalari bilan hamkorlikda ishlash, manbalarda o'zaro hatti-harakat, mijoz-server texnologiyasi, ilovalardagi hamkorlik ishlari va boshqalar).

– bag'rikenglik, boshqacha fikrlash vakillari bilan muloqot qilishni bilishi (safdan chiqarilganlar bilan telekommunikatsiya va boshqalar).

Tayanch kompetensiyalar o'z tarkibida to'liq qamrovli faoliyatlikka ega bo'ladi, biroq faoliyat turini aniq tayanch kompetensiya tasarrufiga ajratish mumkin emas. Masalan, loyiha taqdimoti faoliyati **predmetli** kompetensiya rivojlanishini talab etadi, chunki bu jarayon quyidagi bir necha tayanch kompetensiyalarning birikishidan hosil bo'ladi:

– kommunikativli (monologli chiqish, savollarga javoblar va boshqalar);

– axborotli (slaydda tayanch vaziyatlarni namoyish etish tanlovi, olingan ma'lumotlarni tizimlashtirish, ma'lumotlarni ajratish va boshqalar);

– bilishli (oldindan rejalashtirilgan tegishli dasturiy ta'minot yordamida bevosita slayd-shouni yaratish va boshqalar);

– umummadaniyatli (taqdimot dizaynini yaratish, ko'rgazmalilikni tanlash, so'z madaniyati va boshqalar).

Shunday qilib, maktab informatika fani o'qituvchisi dars va darsdan tashqari faoliyat turini boyitishni tashkil qilish bilan bir qatorda o'quvchilarda kommunikativ kompetensiyaning maqsadga muvofiq shakllanishiga muhim asos yaratadi, shuningdek o'quvchilar kompyuterda axborot bilan ishlashning yangi imkoniyatlari bilan tanishadi, bunda o'quvchilar quyidagi imkoniyatlar bilan ta'minlanadi: butun umr davomida ta'limni samarali davom ettirish (internet ta'lim xizmatlariga ega bo'lish); tanlangan kasbiy faoliyatga tayyorgarlik ko'rish; bilimga asoslangan iqtisodiy sharoitdagi axborot jamiyatida yashash va mehnat qilish.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, biz tomondan qo'llanilgan texnologiyalar va usullar o'quvchilarda kommunikativ kompetensiyani shakllantirishga imkon ko'rsatmoqda. Shuningdek, umumo'quv ko'nikma va malakalar yaxlitligi “Informatika va axborot texnologiyalar” fani va boshqa maktab kurslari bo'yicha ta'lim sifatiga ijobiy ta'sir ko'rsatib, ongli ravishda tanlangan ta'limni davom ettirishga va istiqboldagi kasbiy faoliyatga ko'mak sifatida sharoit yaratadi.

Adabiyotlar

1. Хуторской А.В. Ключевые компетентности и образовательные стандарты//Интернет журнал “Эйдес”.–2002.-2апреля. <http://www.eidos.ru/journal/2002/0423.htm>.

2. Н.А.Муслимов. Касб таълими ўқитувчилари амалий компетентлигини шакллантиришда ихтисослик фанларининг ўрни. Педагогик таълим. Тошкент, 2012. № 2. 56-66 бетлар.
3. Н.И.Тайлаков, А.Б.Ахмедов, М.Д.Пардаева, А.А.Абдуғаниев ва У.М.Мирсанов, “Информатика ва ахборот технологиялари” ўрта таълим муассасаларининг 10-синфи ва ўрта махсус, касб-хунар таълими муассасаларининг ўқувчилари учун дарслик. “Extremum-Press” наширёти. Тошкент, 2017 йил.
4. М.А.Мирзаахмедов, Ш.Н.Исмоилов, А.Қ.Аманов “Алгебра ва анализ асослари” ўрта таълим муассасаларининг 10-синфи ва ўрта махсус, касб-хунар таълими муассасаларининг ўқувчилари учун дарслик. “Extremum-Press” наширёти. Тошкент, 2017 йил.

УДК 377.5

MODULLI O'QITISH TEXNOLOGIYASI – ISHLAB CHIQRISH TA'LIMINI SAMARALI TASHKIL ETISH VOSITASI SIFATIDA

I.A. Otabayev

O'rta maxsus kasb-hunar ta'limi tizimi kadrlarining malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash instituti

Annotatsiya. Ushbu maqolada samarali o'qitish texnologiyalaridan biri modulli o'qitish jarayoniga tizimli faoliyatli yondoshuv va uning o'ziga xos xususiyatlari bayon etilgan. Shuningdek, maqolada ishlab chiqarish ta'limi jarayonida o'quvchilarning kasbiy ko'nikma va malakalarini samarali shakllantirilishi ishlab chiqarish ta'limi berish uchun tanlanayotgan o'qitish texnologiyalarining ishlab chiqarish sharoitlariga qanchalik yaqinligiga bog'liqligi asoslangan. Shuningdek, modulli o'qitish texnologiyasining ishlab chiqarish ta'limi jarayonida qo'llash imkoniyatlari va uning o'ziga xos jihatlari yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: ishlab chiqarish ta'limi, modulli o'qitish texnologiyasi, modul, tizimli yondoshuv, individuallashtirish, modul dasturi, o'quv paketi, o'quv elementi, o'rgatuvchi modul, ta'lim metodlari, ta'lim vositalari.

Технология модульного обучения – в качестве средств эффективной организации производственного обучения

Аннотация. В статье приведены возможности системно-деятельного подхода особенности использования технологии модульного обучения, также обоснована возможности технологии в процессе производственного обучения формирования умений и навыков у учащихся профессиональных колледжей.

Ключевые слова: производственное обучение, технологии модульного обучения, модуль, системный подход, индивидуализация, модульная программа, учебный пакет, учебный элемент, методы обучения, средства обучения.

Technology of modular training – as a means for the effective organization of industrial training

Abstract. The article describes the possibilities for system-active approach, particularly the use of technology of modular training as well as the reasonably possible technology in the form of vocational training and skills of students of professional colleges. As well as the possibility of using technology of modular training in the process of the production of learning and their features.

Keywords: industrial training, modular training technology, module, system approach, individualization, modular program, training package, educational element, training modules, teaching methods, teaching aids.

Hozirgi vaqtda modul texnologiyasi jahondagi turli mamlakatlarda (AQSH, Buyuk Britaniya, Golllandiya, Italiya, Fransiya, Germaniya, Belarus, Litva kabi xorij mamlakatlari oliy va kasb-hunar ta'limida) tez tarqalmoqda. Modulli o'qitish asoschisi amerikalik tadqiqotchi J.Rassel bo'lib, u o'quv modulini “o'quv materialining konseptual birligini va ta'lim oluvchiga belgilangan harakatlarni qamrab oluvchi o'quv paketi” sifatida birinchi bor ta'rifladi .

Modulli o'qitishning nazariyasi va amaliyotining rivojiga P.A.Yusevichene, R.S.Bekirova, E.V.Luzik, M.A.Choshanov, I.B.Sennovskiy, G.V.Lavrentev, N.V.Borodina, D.A. Matveyeva, N.E.Erganovalar o'z tadqiqotlarida katta xissa qo'shganlar.

Mamlakatimizda ham ta'lim jarayoniga modulli o'qitishni tadbiiq etish borasida bir qator tadqiqot ishlari amalga oshirilgan. N.H.Avliyov, S.Yu.Ashurova, M.G.Davletshin, G'.J.Yo'ldoshev, N.N.Musayeva, B.Nuriddinov, K.T.Olimov, R.I.Sunnatov, S.A.Usmonava, B.Faberman, D.Fayzullayeva, A.A. SHoyusupova, F.I. Haydarovlar tomonidan olib borilgan tadqiqot ishlari shular jumlasidandir.

Biroq shuni ta'kidlash mumkinki, hozirgi vaqtda pedagogik tadqiqotlarning mualliflari o'rtasida o'qitishning modulli texnologiyalarining mohiyatini yoritishga yagona yondashuv qaror topmagan. Yu.K.Balashov, V.L.Rudik, V.A.Rijovning ta'kidlashicha, modulli o'qitish deganda aniq mutaxassislik bo'yicha o'quv materialini mustaqil ahamiyatga ega bo'lgan tugallangan qismlarga (modullarga) taqsimlashni tushunish kerak deyiladi va mazkur turdagi ishlar uchun o'zlashtirish kerak bo'lmaydigan material chiqarib tashlanishi kerakligini ta'kidlashadi hamda modul dasturini va modulli o'qitish jarayonini individuallashtirish ko'zda tutiladi [5,6].

P.A.Yusyavichene, T.I.Shamova, M.A.Choshanov, M.A.Andenko va boshqalar modulli o'qitishning mohiyatini tahlil qilib, u ta'lim oluvchilarning mustaqil ishini maqsadlar, axborot banklari va qo'yilgan maqsadlarga erishish bo'yicha metodik qo'llanmalar, yakka tartibdagi dasturlar yig'indisidan iborat ekanini ta'kidlashadi. SHuningdek, tadqiqotchilar modulli o'qitishning sub'ekt-subektkli munosabatlarini ko'rsatishadi, chunki, modulli o'qitishda pedagog ham, ta'lim oluvchi ham o'qitish jarayonining teng huquqli sub'ekti bo'lib hisoblanadi [3,9].

D.A. Matveyeva modul tushunchasini, bu didaktik maqsadlarni, mantiqan tugallangan (fanlararo va fan ichidagi bog'lanishni hisobga olib tuzilgan) o'quv material qismi, (didaktik materiallarni o'z ichiga oluvchi) uslubiy qo'llanma va nazorat tizimini o'z ichiga oluvchi, o'quv fanining alohida tashkiliy uslubiy tuzilishi deb tushunadi [1].

M.G. Davletshin, F.I. Haydarov va R.I. Sunnatovlarning fikricha, modul – bu ishlab chiqilgan qoidalar asosida o'quv fanining bitta yoki bir nechta asosiy tushunchalarni o'rganishga yo'naltirilgan, o'quv materialini mantiqan tugallangan qismi deb qaraladi [4].

B. Nuriddinov esa, modul – ma'lum o'quv predmeti bo'yicha aniq maqsadni ko'zda tutib, ob'ektlarning muhim jihatlari mantiqan tugal va mukammal holda yorituvchi o'quv materialining didaktik birligi deb tushunadi [2].

D.Fayzullayeva modulni an'anaviy didaktik birlik emas, balki xuddi o'quv-uslubiy majmuaning axborotli tarkibi sifatida ko'rib chiqadi va quyidagicha ta'rif beradi: modulli o'quv axborot-bu ta'lim maqsadini belgilash va rejalashtirilgan natijalar bilan chegaralangan, fanlararo va fan ichidagi bog'liqlikni hisobga olib tuzilgan va yakuniy nazoratni darajali tizimini qamrab oluvchi, o'quv fani mazmunini mantiqan va tugallangan qismidir [1].

“Modul” tushunchasi modulli o'qitish tizimining markaziy tushunchasi hisoblanadi, biroq uni aniqlashga bo'lgan yondashuvlar ham bir qiymatli emas. M.A.Andenoning e'tirof etishicha, modul “mutaxassislik bo'yicha ishlab chiqilgan davlat o'quv rejasi birligini” ifoda etadi [3], R.A.Babitskiy fikricha “bitta mutaxassislikni o'rganishda zarur bo'ladigan turli o'quv fanlarining o'zaro bog'liq mavzular yig'indisi” ni bildiradi [5; 19 b.]. T.I.Shamova esa, modulni, “o'quv fanining muvaqqat tashkiliy tuzilmasi” sifatida tushunadi [9; 260 b.]. S.Yu.Chernoglazkinning ta'kidlashicha, modul “ma'lum bilimlarni integratsiyalash vositasi”dir [8; 14 b.], A.P.Belova modulni “mutaxassislik bo'yicha o'qitish mazmunining mustaqil tugallangan qismi” sifatida izohlaydi [6; 27 b.]. Q.Abdullaeva, S.Ashurova modul tushunchasini axborot tizimi modeli yoki o'qitishning uslubiy loyihasi sifatida ta'riflaydilar [1,4].

Yurtimiz va xorij tadqiqotchilari ishini tahlil qilish, modulli o'qitishning etakchi tadqiqotchilari tomonidan ishlab chiqilgan modul tushunchasini nazariy tahlil qilishning uchta asosiy yo'nalishini ajratishga imkon beradi.

“Modul” tushunchasini tahlil qilishning mazmun yo'nalishi M.A.Andenko, G.V.Lavrenteva, T.I.Shamova, N.E.Erganova, P.A.Yusyavichene ishlarida taqdim etilgan. Modul deganda o'quv materialining konseptual birligini qamrab oluvchi va qo'yilgan maqsadlarga erishish bo'yicha maqsadli blokni va metodik qo'llanmani o'z ichiga oluvchi, maxsus ishlab chiqilgan o'quv paketi tushuniladi [3,5,6,9].

“Modul” tushunchasini tahlil qilishning tashkiliy yo‘nalishlari O.A.Orchakova, P.F.Kubrushko, D.V.Chernilevskiyning ishlarida taqdim etilgan. Modul deganda o‘qitish jarayonining diagnostik ifodalangan maqsadlari va ularga mos holda tanlab olingan o‘qitish va nazoratning mazmuni, vositalari va metodlarini hamda o‘quv jarayoni tashkil etish shaklini o‘z ichiga olgan avtonom tashkiliy qismi tushuniladi [7,9].

“Modul” tushunchasi tahlilining tizimli yo‘nalishi N.V. Borodina, E.Kroshe, E.S.Samoylova, M.A.Choshanovning ishlarida taqdim etilgan. Faoliyatli yondashuvga asoslangan holda mualliflar modulni “nisbatan mustaqil funksiyani yoki faoliyat sohasini qamrab oluvchi bir jinsli o‘quv bloki” sifatida ta’riflashadi” [5,6,9]. Modul dasturi va modulning o‘zining tuzilmasi mutaxassis faoliyatini tizimli tahlili asosida ishlab chiqiladi, bu kasbiy xabardorlikning samarali shakllanishi to‘g‘risida gapirishga imkon beradi, uning tuzilmasi mutaxassisning kasbiy faoliyatini tizimli tahlil qilish asosida ishlab chiqilgan.

Mualliflarning ta’kidlashicha, modulli o‘qitish jarayonini “funksional bog‘lanishlar” tizimiga – kasbiy ahamiyatli atamalar va operatsiyalar tizimiga bo‘lish yo‘li bilan amalga oshirishni ifodalaydi, ular ta’lim oluvchilar tomonidan ko‘proq yoki ozroq bir qiymatli bajariladi, bu esa o‘qitishning rejalashtirilgan natijalariga erishishga imkon beradi. Dastur mazmunining o‘zlashtirilishini nazorat qilish tizimli loyihalanadi (kirish, joriy, oraliq, yakuniy), bu o‘qitish jarayonining borishi to‘g‘risida ma’lumotlarni tezkor ravishda olishga va shu asosda zaruriy tuzatishni amalga oshirishga imkon beradi.

Bunday yondashuv yurtimiz olimlaridan N.X.Avliyov va N.N.Musaevlarning ishlarida tadqiq etilgan. Ular ikki xil yondashuvni ajratib ko‘rsatishadi: fan bo‘yicha faoliyatli yondashuv va tizimli faoliyatli yondashuv. Modulli o‘qitish texnologiyasining fan bo‘yicha faoliyatga asoslangan yondashuvida, modullarni o‘quv rejasi va dasturlar tahlili natijasidan kelib chiqib tuzilishi taqazo etiladi. Tizimli faoliyatli yondashuvida, modullar bloki, mutaxassisning kasbiy faoliyati tahlili asosida shakllantiriladi [2].

Modulli o‘qitish texnologiyasining fan bo‘yicha faoliyatga asoslangan yondashuvi, modullarni o‘quv rejasi va dasturlar tahlili natijasidan kelib chiqib tuzishni taqazo etadi. Tizimli faoliyatli yondashuvda, modullar bloki, mutaxassisning kasbiy faoliyati tahlili asosida shakllantiriladi.

Fan bo‘yicha faoliyat yondashuvi ta’limning fanli tizimida modulli o‘qitish texnologiyasini qo‘llashni anglatadi. Bunday modulli o‘qitish texnologiyasini oliy ta’lim tizimida, akademik litseylar va kasb-hunar kollejlarda, pedagog va muhandis-pedagoglar malakasini oshirish tizimlarida qo‘llash maqsadga muvofiqdir.

Fan bo‘yicha faoliyat yondashuvi asosidagi modulli o‘qitish texnologiyasida modul o‘zida quyidagilarni aks ettiradi:

- o‘quv faning fundamental tushunchalari – muayyan hodisa yoki qonun, yoki bo‘lim, yoki yirik bir mavzu, yoki o‘zaro bog‘liq tushunchalar guruhi;
- o‘quv faning bir yoki bir necha fundamental tushunchalarini o‘rganishga (o‘zlashtirishga) qaratilgan.

Bunda odatda modul – 2-6 soatli ma’ruzaviy mashg‘ulotlar va shu bilan bog‘liq bo‘lgan amaliy (seminar), laboratoriya mashg‘ulotlaridan iborat bo‘ladi.

Modulli o‘qitishning tizimli faoliyatli yondashuvi, asosan kasb-hunar ta’limi tizimida qo‘llaniladi. Bu yondashuv doirasida modul bloklardan tashkil topadi, bunda kasbiy faoliyatning bir qismi tushuniladi, va ular ketma-ket bajariluvchi, o‘z navbatida, kasbiy ko‘nikma va malkalarni shakllantirishga imkon beruvchi ishlab chiqarish amallaridan (ishlar qadami) iborat bo‘ladi. Har bir ishlab chiqarish amali (ish qadami) kasbiy ko‘nikma va malakalarning ma’lum bir to‘plamini shakllantirilishini ta’minlaydi, ularni o‘zlashtirish ajratib olingan o‘quv materialini asosida tuzilgan o‘quv elementlari yordamida yuz beradi.

Modulni bunday tushunish “Mehnat malakalari moduli” (MMM- o‘qitish konsepsiyalari) Evropa o‘qitish konsepsiyasi asosiy qoidalariga mos keladi, u ko‘pgina mamlakatlarda ta’lim jarayonida qo‘llaniladi. MMM da – modul bloki deganda “qat’iy belgilangan boshlanish va oxiriga ega bo‘lgan faoliyatning qismi” tushuniladi, o‘quv elementi deganda – faoliyatning har bir elementini bajarish bilimi, ko‘nikmalari va malakalarini shakllantirish uchun zarur o‘quv materialni o‘z ichiga olgan risola tushuniladi.

MMM konsepsiyasi talablariga muvofiq modul dasturi avtonom modul blokining ketma-ket qatoridan tuziladi, modulli blok mazmun va funksional jihatdan yakunlangan kasbiy faoliyat birligidan iborat bo'ladi.

Tadqiqotimiz doirasida modul texnologiyasi "Mehnat malakalari modullari" (MMM) evropa konsepsiyasi talablariga muvofiq modulli yondashuv asosida ishlab chiqiladi. Bu tizimli faoliyat asosidagi modulli o'qitish texnologiyasi bo'lib, uning quyidagi asosiy xususiyatlarini qayd etish mumkin:

- o'qitish mazmuni, kichik mutaxassis faoliyatining tizimli tahlili asosida shakllantiriladi;
- modulli dastur tarkibi kichik mutaxassisning kasbiy faoliyatiga uyg'un tarzda tuziladi.

O'qitish dasturi, alohida modullardan, modul bloklaridan, o'quv elementlaridan iborat bo'ladi. Modul bloki, o'qitish dasturining tarkibiy qismi bo'lib, "boshlanishi va oxiri" kichik mutaxassis ishi va harakatining aniq ko'rsatilgan tugallangan bo'lagidir;

- har qaysi modul blokini o'rganish, "O'quv elementi" yoki "O'rgatuvchi modul" deb ataluvchi maxsus ishlangan turli uslubiy qo'llanmalar bo'yicha amalga oshiriladi. Zururiyat tug'ilganda, har qaysi o'quvchi uchun individual o'qitish dasturlari tuziladi. "O'quv elementi" (O'rgatuvchi modul) o'quvchiga, mustaqil ravishda o'quv materialini o'zlashtirishga imkon beradi;

- o'qituvchi va o'quvchining o'zaro munosabati teng huquqlilik va o'quv elementlari ("O'rgatuvchi modul") ni o'rganish jarayoniga o'zaro bog'liq holda kechadi.

Tizimli faoliyat asosidagi modulli o'qitish o'z ichiga o'qitish mazmunini tanlab olishni (mazmun darajasi) va o'qitish texnologiyasini ishlab chiqishni (texnologik daraja) oladi. Mazmun darajasida o'quv muassasasi sharoitida keng profilli dastgohchilarni o'qitishning modul dasturi ishlab chiqiladi, texnologik darajada esa ularning kasbiy ko'nikma va malakalarini shakllantirishning modul texnologiyasi ishlab chiqiladi.

Modul dasturini ishlab chiqish quyidagi bosqichlar asosida amalga oshiriladi: 1) tayyorlanadigan mutaxassislar kasbiy faoliyatini tahlil qilish; 2) modul bloklarini ajratish; 3) modul bloklarini tahlil qilish; 4) o'quv elementlarini ishlab chiqish; 5) o'quv elementlarini o'rganish ketma-ketligini ishlab chiqish.

Shunday qilib, modulli o'qitishda o'quvchilarni o'z qobiliyatiga ko'ra bilim olishi uchun to'la zarur shart-sharoitlar yaratiladi.

O'qitishning modul tizimiga o'tish samaradorligi quyidagi omillarga bog'liq bo'ladi:

- o'quv muassasasining moddiy-texnikaviy bazasi darajasi;
- professor-o'qituvchilar tarkibining malakaviy darajasi;
- ko'zlangan natijalarni baholash;
- didaktik materiallar ishlab chiqish;
- natijalarning tahlili va modullarni optimallashtirish.

O'qitishning modul tizimi mazmunidan uning quyidagi afzalliklari namoyon bo'ladi:

- fanlar, fanlar ichidagi modullar orasidagi o'qitish uzluksizligi ta'minlanadi;
- har bir modul ichida va ular orasida o'quv jarayonini barcha turlarining metodik jihatdan asoslangan muvofiqligi o'rgatiladi;

- fanning modulli tuzilish tarkibining moslashuvchanligi;
- o'quvchilar o'zlashtirishi muntazam va samarali nazorat (har qaysi moduldan so'ng) qilinishi;

- o'quvchilarning zudlik bilan qobiliyatiga ko'ra tabaqalanishi (dastlabki modullardan so'ng, o'qituvchi ayrim o'quvchilarga fanni individual o'zlashtirishni tavsiya etishi mumkin);

- informatsiyani «siqib» berish natijasida, o'qishni jadallashtirish, auditoriya soatlaridan samarali foydalanish va o'quv vaqti tarkibini, ma'ruzaviy, amaliy (tajribaviy) mashg'ulotlar, individual va mustaqil ishlar uchun ajratilgan soatlarni optimallashtirish.

Buning natijasida, o'quvchi etarli bilimlarga ham, ko'nikmaga ham, uquvga ham ega bo'ladi.

Shunday qilib, modulli o'qitishdan foydalanib kichik mutaxassisni tayyorlash quyidagilar asosida ta'minlanadi:

- o'qitishning uzluksizligi (bunda fanlarni o'zlashtirish samaradorligi oshadi);
- o'qitishni jadallashtirish (buning natijasida informatsiyaning ko'p qismi, individual va mustaqil ishlash paytida, kompyuter tarmoqlari orqali o'zlashtiriladi);
- o'qishni individuallashtirish (o'quvchi o'z qobiliyatiga ko'ra bilim olish imkoniyatiga ega bo'ladi).

O'qitishning istiqbolli tizimlaridan biri sifatida modulli ta'lim texnologiyalarida asosiy o'quv maqsadlar jumlasiga quyidagilarni kiritish mumkin:

- ta'lim oluvchining o'ziga mos sur'atda ishlashi;
- ularga o'z imkoniyatlarini aniqlash;
- ta'lim mazmunini o'zgaruvchan tarzda qurish;
- uning turli turlari va shakllarini integratsiyalash;
- o'quvchilarda mustaqil ravishda ta'lim olish ko'nikmalarini shakllantirish va ularning yuqori darajadagi natijalarga erishtirish.

O'z-o'zidan ko'rinadiki, yuqoridagi bayon qilingan maqsadlarning oxirgisi modulli o'qitishning bosh, etakchi maqsadi hisoblanadi.

Modulli ta'limning mohiyati shundan iboratki, bunda o'quvchi modul bilan ishlashda o'quv-biluv faoliyatining aniq maqsadlariga mustaqil ravishda (yoki o'qituvchining ba'zi bir yordamida) erishiladi.

Modul harakat rejasi maqsadini, axborotlar bankini; qo'yilgan didaktik maqsadlarga erishish bo'yicha metodik rahbarlikni o'z tarkibiga oladi.

Shu boisdan ham modul o'quv-pedagogik adabiyotlarda modulli o'qitishning vositasi sifatida qaraladi.

Modulli ta'limning o'ziga xos xususiyatlari sifatida qo'yidagilarni keltirish mumkin:

1. Modulli ta'limning mazmunini tugallangan mustaqil komplekslarida ifodalanadi. Har bir kompleks o'quv materialini shunday qurilishi kerakki, u har bir o'quvchi tomonidan uni oldiga qo'yilgan didaktik maqsadlarga erishishga imkon yaratish.

Bunda o'quvchi uchun o'quv maqsadi shunday ifodalanishi kerakki, u uni shaxsiy ahamiyat va kutilgan natija sifatida tushunish va anglash imkoniga ega bo'lsin. Didaktik maqsad o'z ichiga o'rganilayotgan material hajmiga va uni o'zlashtirish darajasiga ko'rsatmani oladi. Bundan tashqari har bir o'quvchi o'qituvchidan samarali faoliyat ko'rsatish o'quv materialni qaerdan topish bo'yicha yozma ravishda maslahatlar olishi kerak.

2. Modulli ta'lim o'qituvchini o'quvchilar bilan bo'ladigan muloqot shakllarini o'zgarishini ko'zda tutadi. U o'quvchilar bilan modullar orqali ham bevosita – har bir o'quvchi bilan individual tarzda muomala qiladi. Modulli ta'limgina o'qish-o'qitishni sub'ekt-sub'ekt asosga, ya'ni o'quvchini faol bo'lishga, o'quv jarayonida sub'ekt holatiga o'tkazishga imkon yaratadi. O'qituvchi har bir o'quvchiga individual yondashuv asosida maslahat – koordinatsiyalashuvchi funksiyani bajaradi. Bu esa pedagog va ta'lim oluvchiga o'qish-o'qitishni optimal yo'llarini birgalikda tanlashga imkon beradi. Natijada ta'lim jarayonida jarayonida o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi munosabatlar teng huquqlik bo'lib boraveradi.

3. O'quvchining o'quv-biluv faoliyatini yuqori darajada o'zini-o'zi tashkil etilishi. U o'quv maqsadlarni mustaqil qo'yishga, faoliyat usullarini tanlash ko'nikmasiga, o'z harakati va munosabatlarini boshqalar bilan moslashtirish va muvofiqlashtirishga asoslangan. Modulli o'qitish sharoitida bu shu bilan ta'minlanadiki, o'quvchilar o'z vaqtlarining katta qismida mustaqil ishlaydi, o'quv-biluv faoliyati ularning anglangan predmet iva idroki bo'lib qoladi.

O'quvchi maqsad qo'yishni, o'z faoliyatini tashkil etishni, nazorat qilishni va baholashni o'rganadi. Natijada har bir kishi o'zining bilimlari va ko'nikmalaridagi mavjud kamchiliklarni ko'rishi mumkin.

Shubhasiz, o'qituvchi ham o'quvchining o'quv-biluv faoliyatini modul orqali va bevosita boshqaradi, biroq bu qattiq, avtoritar boshqaruv emas, albatta.

4. Bosma materialga asoslangan modullarni mavjudligi o'qituvchiga o'quvchilar bilan ishlashni individuallashtirishga, ya'ni o'quvchiga alohida e'tiborda qaratgan holda ularning har biriga maslahat berishga imkon yaratadi.

Xulosa qilib aytganda, o'qitishning modul texnologiyasi qator afzalliklarga ega: o'qitishning modul texnologiyasi qo'llanilganda dastur mazmuni ta'lim oluvchining imkoniyat va ehtiyojlari, ishlab chiqarish korxonasi mutaxassislar kasbiy malakasiga qo'yadigan talablardan kelib chiqqan holda belgilanadi, zarurat tug'ilganda dasturga tuzatish kiritiladi, mavjud dasturlar asosida yangilari yaratiladi, o'qituvchi va ta'lim oluvchining teng huquqli munosabatlari shakllantiriladi, turli o'quv fanlari bilimlarini bitta ixtisoslik doirasida integratsiyalab o'rganiladi, eng muhimi, bo'lajak mutaxassislarda kasbiy ko'nikma va malakalar bosqichma-bosqich shakllantiriladi.

Bundan tashqari, kasb-hunar kollejlari o'quv amaliyoti jarayonida modulli o'qitish texnologiyasini qo'llash kasbiy motivatsiya asosida ta'limni individuallashtirish, o'qitish

mazmunining variativligini ta'minlash, o'quvchilarni amaliy faoliyatga o'rgatish, o'qitish natijalarini tezkor nazorat qilishga imkon beradi.

Adabiyotlar

1. Abdullayeva Q.M. Maxsus fanlarni o'qitishda bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy bilim va ko'nikmalarini shakllantirishning metodik asoslari: Dis. ... ped. fan. nom.- Toshkent: 2006. - 182 b.
2. Avliyakov N.X., Musayeva N.N. Kasb-hunar kollejlarda kasbiy fanlarning modulli o'qitish texnologiyalari. – T.: Yangi asr avlodi, - 2003. – 88 b.
3. Andenko M.A. Aktualnie problemi vzaimodeystviya spetsialnix kafedr visshey shkoli pri modulnom obuchenii. -Novosibirsk, 1993. -78 s.
4. Ashurova S.Yu. Yengil sanoat yo'nalishlari bo'yicha kichik mutaxassislar tayyorlashda maxsus fanlarni modulli o'qitishning ilmiy-uslubiy asoslari: Dis. ... ped. fan. nom.- Toshkent: 2005. - 137 b.
5. Babitskiy R.A. Standarti s kompetensiy // Lideri obrazovaniya. -2002. -№ 2 . - S. 32.
6. Belova A.P. Modulnoe obuchenie studentov // Sosialno-politicheskiy jurnal. – 1999. -№2. – S. 27.
7. Kroshe E. Rukovodstvo po modulnoy sisteme professionalno-texnicheskogo obucheniya. – Jeneva: Byuro prof.- tex obucheniya Mejdunarodnoy organizatsii truda, 1998. - 124 s.
8. Chernoglazkin S.Yu. O deyatelnostnix osnovax professionalnogo obrazovaniya // Spetsialist. - 2001. № 1. - s. 27 - 29.
9. Shamova T.I. Upravlenie obrazovatelnimi sistemami. - M.: Vlados, 2002. – 320 s.

УДК 371.1:159.9

BOSHLANG'ICH TA'LIM SAMARADORLIGINI TA'MINLASHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK ASOSLARI

T.Q. Tolipova

SamDU huzuridagi XTXQTMOHM

E-mail: durdonarasulova@inbox.uz

Annotation. Mazkur maqolada shaxs tarbiyasida muhim o'rin tutgan boshlang'ich ta'limning o'rni va uning pedagogik-psixologik asoslari batafsil yoritilgan. Muallif tomonidan pedagogik mahorat tamoyillari tavsiflanib, o'quvchilarga individual yondoshish, ularning diqqatini oshirish hamda mustahkamlash yo'llari tavsiya etilgan.

Kalit so'zlar: *boshlang'ich ta'lim, islohotlar, pedagogika, psixologiya, pedagogik mahorat, ta'lim tizimi, tarbiya, individual yondoshuv, diqqat, xotira, shaxs.*

Педагогико-психологическая основа обеспечения эффективности начального образования

Абстрактные. В этой статье дается важность начального образования, которое имеет особое значение при воспитании личности и педагогико-психологических основах. Автор классифицировал принципы педагогического мастерства и предлагал способы увеличения памяти отдельных учеников.

Ключевые слова: начальное образование, реформы, педагогика, психология, педагогическое мастерство, система образования, образование, индивидуальный подход, внимание, память, человек.

Pedagogics-psychological of a basis maintenance of efficiency of an elementary education

Abstract. In this article is given the importance of the elementary education which occupies special value at education of the person and pedagogical-psychological bases. Author classified principles of pedagogical skill and proposed the ways of increase individual pupils memory.

Keywords: elementary education, reforms, pedagogics, psychology, pedagogical skill, education system, education, individual approach, attention, memory, person.

Intellektual asr hisoblangan zamonaviy dunyoda sifatli ta'lim olish va undan hayotiy jarayonlarda foydalana olish kompetensiyalarining shakllanishi dolzarb masala hisoblanadi. Yurtimiz ta'lim tizimida ijobiy islohotlar o'tkazilib, kadrlar tayyorlashga nisbatan talab ham o'zgartirmoqda. Zamonaviy va raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash muhim ustuvor ahamiyat kasb etmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev ta'kidlaganlaridek, "Biz yoshlarga doir davlat siyosatini hech og'ishmasdan, qat'iyat bilan davom ettiramiz. Nafaqat davom ettiramiz, balki bu siyosatni eng ustuvor vazifamiz sifatida bugun zamon talab qilayotgan yuksak darajaga ko'taramiz. Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatga ega bo'lib, dunyo miqyosida o'z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo'sh kelmaydigan insonlar bo'lib kamol topishi, baxtli bo'lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz [1: 14].

Bunday ulkan vazifalarni bajarishda ta'lim tizimi xodimlaridan alohida tayyorgarlik va kasbiy malaka talab etiladi. Pedagog o'z kasbining ustasi va yuqori malakali xodim sifatida faoliyat yuritishi uchun mutaxassisligining eng nozik qirralaridan ham xabardor bo'lishga harakat qilishi lozim. Shuning uchun ham boshlang'ich ta'lim uzluksiz ta'limning ajralmas qismi sifatida keyingi ta'lim bosqichlari uchun poydevor vazifasini bajaradi.

Boshlang'ich sinf o'qituvchisi murg'ak qalb egalarini dunyo sirlari bilan tanishtiruvchi, ularga ta'lim-tarbiya beruvchi, dunyoqarashini shakllantiruvchi, shaxs sifatida tarbiyalovchi ustoz va murabbiydir. XXI asrdagi bunday pedagogning obrazi – davr bilan hamnafas qadam tashlashini, zamonaviy bilimlar egasi bo'lishini, xatolardan cho'chimasdan tajribalar o'tkazishga layoqatli bo'lishini, o'zida bolalikni saqlab qolishi va bola mehnatini rag'batlantira olishini taqozo etadi.

Boshlang'ich sinf o'qituvchisining kasbiy salohiyati va ma'lumot darajasi, uning bolalar psixologiyasi hamda hozirgi zamon boshlang'ich ta'lim metodikasini yaxshi bilishi, zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarini samarali qo'llay olishi bilan baholanadi [2: 7]. Bugungi kunda ustozning psixologik-pedagogik madaniyati e'tibortalab muammolardan biridir. Bu muammoning bir qator sabablari mavjud bo'lib, bular: jamiyatda olib borilayotgan kuchli ijtimoiy siyosat, mavjud bozor iqtisodiyoti siyosati davrida ta'lim-tarbiyani muvaffaqiyatli amalga oshirishni maqbul yo'larini izlashda ko'rinadi. Zamonaviy pedagogning milliy va umuminsoniy qadriyatlardan boxabarligi, ta'lim-tarbiya jarayonida ulardan o'rinli foydalanishi ko'p hollarda uni umumiy madaniyatini tashkil qilishi bugun hech kimga sir emas.

Hozirgi kunning vazifalarini amalga oshirishda, o'qitishning chuqur ijtimoiy e'tiqodlilik bilan uyg'un ilmiyligiga qo'yilayotgan talablar g'oyatda muhimdir. Didaktikada o'qitishning ilmiyligi nima ekani asosli ravishda bayon qilinadi. Ma'lumki, maktab ta'limi mazmuniga kirgan barcha bilimlar voqelik qanday bo'lsa, uni shundayligicha, hech bir qo'shimchalarsiz aks ettiradi.

Pedagogning vazifasi o'quvchilarga ilmiy, haqqoniy bilimlarni asli holicha tushuntirishdan, ularni bilimlarni mustaqil o'rganishlarida o'zlashtirilgan haqiqatlar borliqdagi – inson ongidan tashqari ob'ektiv mavjud narsalarga muvofiqligini kafolatlaydigan yo'lga solishdan iboratdir [3: 26]. Hatto bolalar ta'limning birinchi pag'onasida olgan juz'iy bilimlar ham haqiqatni buzmasligi kerak. Ilmiy asosdagi to'g'ri o'qitish natijasida o'quvchilar ongida ob'yektiv olamning haqqoniy manzarasi hosil bo'ladi.

Pedagogik jarayonlarni takomillashtirishda sub'yektlarning hamkorlikdagi faoliyatini tashkil etish va muvofiqlashtirish, erishish zarur bo'lgan maqsadlar yo'nalishida ularning faolligini rivojlantirish samaradorligi ko'p jihatdan mavjud motivlarga va motivlashtirishga bog'liq bo'ladi [4: 58].

Ular orasida quyidagi eng asosiy sifatlarni ko'rsatish mumkin: o'quvchiga bo'lgan munosabatda: uni tushunishga harakat qilish, kechinmalariga sherik bo'lish, uning mustaqilligini hurmat qilish, har bir o'quvchining ijodkorlik qobiliyatini yuzaga chiqarishga intilish; jamoadagi birgalikdagi faoliyatini tashkil qilish; o'z-o'zini boshqarishini rivojlantirish; jamoaviy an'ana va udumlarga rioya qilish.

Pedagogning o'ziga bo'lgan munosabati esa o'zgacha maqsadlar bilan ifodalanadi: o'quv-tarbiyaviy faoliyatda doimiy muvaffaqiyatga intilish, o'z ustida muntazam ravishda ishlash, o'z-o'zini tahlil va tanqid qilishni o'rganishdan iborat. Shundagina pedagogik madaniyat va mahoratga etishish mumkin.

Pedagogik madaniyat – bu inson madaniyatning ajralmas tarkibiy qismi bo'lib, unda yuksak ma'naviy ahloqiy sifatlar etakchi rol o'ynaydi. Shuningdek, pedagog ijodkorligi, shaxs

ijtimoiylashuvdagi faollik alohida ahamiyat kasb etadi. Pedagogik madaniyatning mohiyati shundaki, bolaning bolalik davrini eng ajoyib, yorqin ranglar bilan boyitishdagi ulkan imkoniyatlarga ega inson, shu bilan birga bolalikni betakror, o'qilmagan, yozilmagan katta bir asar sifatida ko'ra olishda ko'rinadi.

Bugungi kunda pedagog olimlar tomonidan yuksak pedagogik madaniyatning quyidagi mezonlari tavsiflanmoqda:

- pedagogning bolalarga bo'lgan munosabatidagi yuksak insonparvarlik maqomi;
- psixologik-pedagogik kompetentlik va pedagogik tafakkurning rivojlanganligi;
- o'z fanining bilimdoni bo'lishi, pedagogik texnologiyalarni o'zlashtirganligi;
- ijodiy faoliyatda orttirgan tajribasi, shaxsiy pedagogik faoliyatini tizimlashtira olishi (didaktik, tarbiyaviy, metodik);
- ta'limda mualliflik loyihalarini ishlab chiqar olishi;
- kasbiy madaniyat etikasini egallashi;
- o'z-o'zini rivojlantira olishi va faoliyatini boshqara olishi;
- mulohazaga erkin kirisha olishi.

Uzluksiz ta'lim tizimida tashkil etiladigan va boshqariladigan pedagogik jarayonlarning asosiy komponenti sifatida ta'lim oluvchi shaxsining rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etuvchi *ta'lim* – mustaqil ta'lim olish, *tarbiya* – o'zini-o'zi tarbiyalashi, *ma'lumotlar bazasi bilan ishlay olish* – mustaqil tarzda ma'lumotlarni yig'ish, saralash va yangi bilimlarni ishlab chiqishda foydalana olish ko'nikmasiga ega bo'lishi, *rivojlanish va tarbiyaviy munosabatlar jarayonida o'zaro ta'sir ko'rsatish malakasiga ega bo'lishi* zarur.

Uzluksiz ta'lim tizimida pedagogik jarayonlar bir butun organizm sifatida ichki o'zgarishlarga asosan rivojlanadi va o'zaro aloqalar tizimi barqarorlashadi. Turli xil muammolarni hal etish zamonaviy usullar yordamida maqsadga erishishdagi vazifalar amalga oshiriladi, natijalar zamon talablariga moslashadi va pedagogik tizim samaradorligi ta'minlanadi [4: 11].

Yuqorida ta'kidlangan faktorlardan tashqari ta'lim sifatini ta'minlovchi boshqa omillar ham mavjud bo'lib, ulardan ayrimlariga to'xtalamiz:

Shaxsning individualligini tan olish – ilk maktab yoshlaridanoq e'tibor talab etadigan xususiyatdir. Boshlang'ich maktab bola shaxsining ilk shakllanishini ta'minlashi, uning qobiliyatlarini aniqlash, o'quvchilarda bilim olish ko'nikmasi va istagini tarkib toptirishi kerak. Bunday maktabda o'quv faoliyatining zarur ko'nikma va malakalarini egallaydilar, o'qish, yozish, hisoblashni o'rganadilar, ijodiy fikrlash elementlarini, madaniy nutq va xulqni, shaxsiy gigiyena hamda sog'lom turmush asoslarini o'rganadilar [3: 31].

Mana shunday umumiy vazifalarni amalga oshirish uchun maqsadlarning ustunligini jiddiy, tubdan o'zgartirish zarur. Avvalo, predmetlarga doir bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirishning an'anaviy maqsadi o'rniga, bola shaxsini tarbiyalash uchun o'quv faoliyatini rivojlantirish, uni zamonaviy usullarda tashkil etish maqsadi egallaydi. Lekin bunda an'anaviy predmetlarga doir ko'nikma va malakalarning shakllanish darajasiga e'tibor sustlashmasligi lozim.

Bu jarayonda bolalarning turfa xil tabiati, layoqati, xususiyatlari va qirralarini o'rganish uchun ularni diqqat bilan kuzatish, har biriga alohida yondoshish talab etiladi. Shu o'rinda mashhur qadimgi Xitoy iborasini misol keltirish mumkin: “Agar sen insonlarni boshlab bormoqchi, yetaklamoqchi bo'lsang, ularning orqasidan kuzatib yur” [5: 4]. Bu purma'no hikmatdan ko'p narsani bilib olish mumkin. Xodimlarimiz yoki o'quvchilarimiz qanchalik mustaqil fikrlay olsa va kreativ yondoshsa, bizda shunchalik ularga spetsifik topshiriqlar berish imkoniyati oshadi. Boshqa tomondan esa, “o'zining odamlarining orqasidan yurishi” – bu katta san'at ekanligini anglaymiz. Bu jarayon esa bizdan kompleks sifatlar shakllanganligini talab qiladi. Mazkur holatda kuzatuvchi liderdan voqelikni kuzatish va idrok etish uchun katta ichki ruhiy kuch talab etiladi. O'qituvchi ham har bir o'quvchining qobiliyati va mas'uliyatini boshqarishi uchun unga optimistik nuqtai-nazar bilan qarashi zarur. Chunki har bir o'quvchi o'ziga xos yangi bir olam, takrorlanmas noyob mavjudotdir.

Ta'lim sifatini ta'minlovchi yana bir boshqa omillardan biri ***diqqat*** hisoblanadi. Shaxsning tarbiyalanishi va o'quvchilarning ta'limi sifatiga ta'sir ko'rsatuvchi ob'yektiv va sub'yektiv omillar qatoriga diqqat alohida o'rin egallaydi. Keyingi paytlarda ta'lim oluvchilarda o'ziga xos illat “diqqat eroziya”si kelib chiqmoqda. Ko'pchilik tug'ma parishonxotir, e'tiborsiz, boshqalari esa giperfaoldir. Bunday holatda birinchi yordam sifatida dori-darmonlarga murojaat etiladi [6: 4].

Diqqat insonning har tomonlama kamol topishida muhim ahamiyatga ega. Ta'lim olish jarayonida diqqatning bo'linishi olinadigan bilimning sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi, o'zlashtirish pasayadi. Pedagoglar tomonidan ta'lim oluvchilar asosan diqqat bilan eshitadigan va buni qila olmaydiganlarga bo'linadi. Birinchisi yaxshi o'zlashtiruvchilar guruhi bo'lib, qolganlari tarbiyasi qiyin o'quvchilarni tashkil etadi. O'quvchilar diqqatini qozonish va uni ushlab turish pedagogdan katta harakat va kasbiy mahorat talab etadi.

So'nggi paytlarda diqqatning oshirilishi masalasi bilan nafaqat psixologiya fani balki, biologlar va tibbiyot xodimlari ham shug'ullanmoqdalar. Bosh miyaning intensiv tadqiq qilinishi asosida diqqat xususida quyidagi ma'lumotlar aniqlangan:

- diqqatning asosiy vazifasi yashab qolish va insonning qulay holatini ta'minlash;
- diqqatni boshqarishda bosh miyaning barcha qismlari ishtirok etadi;
- e'tiborni harakatdagi, ovozdagi va emotsiyadagi kontrast ushlab turadi;
- diqqatni rivojlantirish va boshqarishda kimyoviy moddalar (mediatorlar) muhim rol o'ynaydi;
- diqqatning xarakteristikasi faqat uni rivojlantirish va o'qitishga bog'liq bo'lmay, genotipga ham bog'liqdir.

Demak, ta'lim oluvchilarning diqqatini qozonish pedagogning eng katta yutug'i bo'lib, ta'limning sifatini oshirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Ta'lim sifatini ta'minlovchi omillarning keyingisi *xotira* hisoblanadi. Insonning biologik xususiyatlari sifatida xotiraga murojaat etar ekanmiz, xotiraning turlari, ma'lumotlarni eslab qolish usullari, unutish, xotiraning pand berishi kabi masalalarga murojaat etishimiz tabiiydir.

Xotira kognitiv jarayonning vositachisi bo'lib, bizning xotiramiz – bizning bebaho boyligimizdir. Aynan xotira orqali inson kimligini va qanday maqsadlar ortida yashayotganligini his etadi. Qanchalik teran fikrlay olish, o'tmishdagi tajribani amalda qo'llay olish bilan amalga oshadi. Bunda esa xotira asosiy o'rinni egallaydi.

Xotiraning vazifasi kelajakda foydasi tegadigan ma'lumotlarni o'zlashtirish, lekin ehtiyoj tug'ilgan paytda qiynalmasdan yana takroriy yetkazib bera oladigan darajada eslab qolishdan iborat [7: 47]. Xotira izolyasion jarayon emas. U bir qator jarayonlar yig'indisi bo'lib, ularning har biri alohida o'ziga xos tamoyillarga ega. Xotiraning epizodik, semantik, motorli, implitsin, eksplitsin kabi turlarini ko'rsatish mumkin. Xotiraning turlari ko'p bo'lib, ularni sharhlashga o'rin yo'q. Asosiy maqsad esa mavjud ma'lumotlarni xotirada saqlab qolishni yengillashtiruvchi usullarni topish va uni amaliyotga tatbiq etishdir. Masalan diqqatni to'plash yo'li bilan, ma'lumotni o'rganish vaqtini to'g'ri taqsimlash yo'li bilan, olingan ma'lumotlarni tartibga solish yo'li bilan, eslash uchun kalit so'zlar tuzish, qayta o'rganib takrorlash yo'li bilan, o'xshash faktorlarni inobatga olish yo'llari bilan ta'lim oluvchilar xotirasini mustahkamlash mumkin.

Xulosa qilib aytganda, o'quv jarayonining mohiyati o'quvchi bilish faoliyatining mantig'i bo'lib, ta'lim oluvchilar o'quv faoliyati jarayonida optimal darajada fanga oid, tayanch va hayotiy kompetensiyalarga ega bo'lishlari zarur. Buni ta'minlashda quyidagi natijalar ta'minlanishi ko'zda tutiladi:

birinchidan, bilish bizdagi bilimlarning yagona manbai bo'lmish amaliyotni o'rganishdan boshlanishi va mavhum fikrlar asosida nazariy umumlashtirish kerakligidan hosil bo'lishini;

ikkinchidan, bilish olingan bilimlarni, nazariy umumlashtirishni, insondagi bilimlar haqiqiylikini yagona ob'ektiv mezonlari sifatida ham xizmat qiladigan amaliyotga taqqoslash zarurligidan kelib chiqadi. Bilish murakkab dialektik jarayon bo'lib, jonli mushohadadan abstrak tafakkurga va undan amaliyotga o'tish yo'lidir.

Mustaqillik yillarida ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan bebaho meros, ma'naviy qadriyatlar va urf-odatlarining qaytadan jonlanishi hamda ularning eng ibratli jihatlarini jamiyat hayotiga olib kirish bugungi kunning dolzarb vazifasidir. Chunki, bugungi kunda shiddatli kechayotgan globallashuv jarayonlari va turli tarixiy-etnografik, mintaqalararo kommunikatsiya tizimining takomillashuvi turli yangi g'oyalar, mafkuralar va madaniyatlarni jahonga eksport qilib, yoshlar qalbi va ongiga jiddiy ta'sir ko'rsatmoqda. Uning oldini olish, kelajakda Vatani va xalqi uchun jonkuyar, mard o'g'il-qizlarimizni tarbiyalashda boshlang'ich ta'lim sifatini yangi bosqichga ko'tarish talab etiladi. Shu yo'lda bir tan-u, bir jon bo'lib oldimizga qo'ygan maqsadimizga erishishimiz lozim. Zero, O'zbekiston taraqqiyotining hozirgi sharoitida yosh avlodning intellektual jihatdan yuqori darajada bo'lishi, milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalanishi muhim asos bo'lib xizmat qiladi.

Shunday holatdagina globallashuvning salbiy ta'siridan ularni asrab qolishimiz, taraqqiyotimiz kelajagini ta'minlovchi poydevor sifatida ularga suyanishimiz mumkin.

Adabiyotlar

1. Мирзиёев Ш. Эркин ва фаровон демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. – Тошкент, Ўзбекистон 2016. – 14 бет.
2. Inoyatova M., Nosirov A., Divanova M., Boymurodova G., Vaxromov A., Rasulova M., Abduqudusova F. Boshlangich ta'lim sifatini oshirishda zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarini qo'llash (Ingliz tili, Alifbe, Ona tili, O'qish, Matematika, va Tabiatshunoslik o'quv fanlari misolida). Toshkent: 2014. – 7 b.
3. Mavlyanova R., Rahmankulova N. Boshlangich ta'lim pedagogikasi, innovatsiya va integratsiyasi. – Toshkent: Voris-nashriyoti, 2013. – 26 b.
4. Turg'unov S.T., Maqsudova L.A., Tojiboyeva H.M., Nazirova G.M., Umaraliyeva M.A. Pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarish, sifat va smaradorligini oshirish texnologiyalari. Toshkent: 2014. – 58 b.
5. Фопель К. Уверенное управление. Тренинг, коучинг, саморазвитие / Пер. с нем. — 2-е изд. — М.: Генезис, 2004. — 4 с.
6. Фопель К. Энергия паузы. Психологические игры и упражнения. – М.: Генезис, 2004. – 4 стр.
7. Халперн Д. Психология критического мышления. – Москва.: Питер, 2000.– 47 б.

UDK: 370 + 371. X - 72

OLIY O'QUV YURT TALABALARI O'RTASIDA MILLATLARARO MUNOSABATLAR MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH

Sh.A .Xolmuratova

Samarqand iqtisodiyot va servis institute

Annotatsiya. Ushbu maqolada millatlar, madaniyatlararo munosabatlar va Oliy o'quv yurt talabalari o'rtasida millatlararo munosabatlar madaniyatini shakllantirish haqida fikr yuritilgan. Bundan tashqari diniy bag'rikenglik, millatlararo totuvlik, qushnichilik, qardoshlik haqida namunalar keltirib, talabalar tafakkurini boyitishdagi o'rni haqidagi fikrlar bilan maqola boyitilgan.

Kalit so'zlar: Davlat siyosati, bag'rikenglik, millatlararo totuvlik, umuminsoniy qadriyatlar, konfessiyalararo hamjihatlik, qardoshchilik

Формирование культурных отношений образовательной работой международных среди студентов высших учебных заведений

Аннотация. В этой статье обсуждается, как построить культуру межэтнических отношений между нациями, межкультурными отношениями и студентами университетов. Кроме того, в статье обсуждались идеи о роли религиозной терпимости, межэтнической гармонии, верности, братства и роли в обогащении мыслей студентов.

Ключевые слова: Государственная политика, терпимость, межэтническая гармония, универсальные ценности, межконфессиональная солидарность, братство

Formation of cultural international relations among students of higher learning

Annotation. This article discusses how to build a culture of inter-ethnic relations between nations, intercultural relations of university students. In addition, the article discusses ideas about the role of religious tolerance, interethnic harmony, fidelity, brotherhood and the role in enriching students' thoughts.

Keywords: State policy, tolerance, interethnic harmony, universal values, inter-confessional solidarity, brotherhood

Oliy o'quv yurt talabalari o'rtasida millatlararo munosabatlar madaniyatini shakllantirish

Mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab bag'rikenglik va insonparvarlik madaniyatini rivojlantirish, millatlararo va konfessiyalararo hamjihatlikni, jamiyatda fuqarolar totuvligini mustahkamlash, barcha fuqarolarga millati va diniy e'tiqodidan qat'iy nazar, teng huquq va imkoniyatlar yaratish, yosh avlodni vatanparvarlik, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat,

Vatanga muhabbat va sadoqat ruhida tarbiyalash O'zbekistonda davlat siyosatining muhim ustuvor yo'nalishlaridan biri etib belgilangan.

Bu borada 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha "Harakatlar strategiyasi"da xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni ta'minlash chuqur o'ylangan, o'zaro manfaatli va amaliy ruhdagi tashqi siyosat yuritishga yo'naltirilgan davlatimiz mustaqilligini va suverenitetini mustahkamlash. O'zbekistonning yon-atrofida xavfsizlik, barqarorlik va ahli qushnichilik muhitini shakllantirishga alohida e'tibor qaratilgan. Harakatlar strategiyasining yuqoridagi bosqichi bo'yicha respublikamizda ko'pgina ishlar amalga oshirildi. Bir qancha qushni davlatlar bilan iqtisodiy aloqalar o'rnatildi.

Respublikamizda faol "xalq diplomatiyasi" asosida xorijdagi vatandoshlarimiz bilan muntazam va o'zaro foydali munosabatlarni yo'lga qo'yish, xorijiy mamlakatlar bilan do'stona munosabatlarni qolaversa, madaniy-ma'rifiy aloqalarni mustahkamlash orqali o'z faoliyatini O'zbekistonda yashab kelayotgan barcha millat va etnik diasporalarning tarixi, madaniyati, ma'naviy qadriyatleri, milliy an'analari va urf-odatlarini saqlash hamda har tomonlama rivojlantirish tamoyillariga asosan olib borayotgan Respublika baynalminal madaniyat markazi, 138 ta milliy madaniy markazlar, O'zbekiston xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik va madaniy-ma'rifiy aloqalar jamiyatlari kengashi, shuningdek, 34 ta do'stlik jamiyatlari muvafaqqiyatli faoliyat yuritib kelmoqda.

Fuqarolar totuvligi barqarorligini, turli millatlar vakillari o'rtasidagi tinchlik va hamjihatlikni ta'minlashga, vatandoshlarimiz ongida ko'p millatli yagona oila tuyg'usini mustahkamlashga, milliy madaniy markazlar va do'stlik jamiyatlari faoliyatini har tomonlama qo'llab-quvvatlash va yanada rivojlantirishga, xorijiy mamlakatlar bilan madaniy-ma'rifiy aloqalarni kengaytirishga, mamlakatimizning jamiyat turli sohalaridagi yutuqlari mazmun va mohiyati targ'ibotiga, shuningdek, ushbu yo'nalishda bajarilayotgan ishlarni va amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarni samarali muvofiqlashtirishga yo'naltirilgan davlat siyosatini bosqichma-bosqich ro'yobga chiqarish maqsad qilib qo'yilgan.

O'zbekiston ko'p millatli, ko'p konfessiyali davlatdir. Bunday davlatda millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglik ijtimoiy-siyosiy barqarorlik va taraqqiyotni ta'minlashning asosiy shartlaridan biri hisoblanadi. Shuning uchun millatlararo totuvlik mamlakatimizda qurilayotgan demokratik jamiyatning asosiy tamoyillaridan biridir. O'tgan qisqa davr ichida mazkur yo'nalishda qator ishlar amalga oshirildi va millatlararo totuvlikni rivojlantirishga keng zamin yaratildi.

Fuqarolik jamiyati o'z navbatida, turli etnik nizolar, ziddiyatli vaziyatlar, to'qnashuvlar yuki ostida qolgan hozirgi davrda, bir tomondan, insoniyat o'zining bir butunligini, ikkinchi tomondan, alohida olingan har bir jamiyat ichki birlik, totuvlik va hamkorlik bo'lgandagina mavjud muammolarni hal qilish, yangilari paydo bo'lishining oldini olish va taraqqiyotni ta'minlash mumkinligini tobora chuqur anglab bormoqda. Shu nuqtai nazardan qaraganda, jamiyatda ijtimoiy bag'rikenglik muhitini qaror toptirish muhim ahamiyatga ega.

"Millatlararo totuvlik" ("tolerant") atamasining lug'aviy ma'nosi lotincha "chidamoq" so'zidan olingan. Tolerantlik biror narsani, o'zgacha fikr yoki qarashni, o'z shaxsiy tushunchalaridan qat'i nazar, imkon qadar bag'rikenglik va chidam bilan qabul qilishni anglatadi. Diniy bag'rikenglik vijdon erkinligi va ma'naviy jihatdan katta ahamiyat kasb etadi, u boshqa shaxs yo dinga hurmatni bildiradi. Turli din hamda konfessiya vakillari e'tiqodida aqidaviy farqlar bo'lishiga qaramay, ularning yonma-yon va o'zaro tinch-totuv yashashini anglatadi. Madaniy bag'rikenglik o'zga tilda yaratilgan san'at va madaniyat boyliklaridan o'z madaniyatini ustun ko'rmaslik, ulardagi ma'no va go'zallikni tan olish, o'zga madaniyatlardan nimanidir o'rganishni bildiradi. Madaniy bag'rikenglik turli millatga mansub ziyolilarni bir-biriga ruhan yaqinlashtiradi. O'zidagi yutuq va kamchiliklarni aniqlab olishga yordam beradi. Etnomadaniy hamkorlik yagona mamlakatda yashovchi turli millatga mansub xalqlarning muayyan mafkura asosida qo'lni qo'lga berib ishlashi, bir maqsad yo'lida faoliyat olib borishini bildiradi.

"Millatlararo totuvlik" ("tolerantlik") deyarli barcha tillarda bir xil yoki bir-birini to'ldiruvchi mazmunga ega. Ularni umumlashtirib "bag'rikenlik" chidamlilik, bardoshlilik, toqatlilik, o'zgacha qarashlar va harakatlarga hurmat bilan munosabatda bo'lish, muruvvatlilik, himmatlilik, kechirimlilik, mehribonlik, hamdardlik kabi ma'nolarga ega deyish mumkin. Bugungi kunda chuqur ijtimoiy-siyosiy va madaniy-ma'rifiy mazmun kasb etgan ushbu tushuncha ko'pchilik tomonidan tan olingan, ilmiy ta'rifi ishlab chiqilgan.

“Bag‘rikenglik tamoyillari Deklaratsiyasi”da bag‘rikenglik tushunchasiga shunday ta’rif berilgan: “Bag‘rikenglik-bizning dunyomizdagi turli boy madaniyatlarni, o‘zini ifodalashning va insonning alohidaligini namoyon qilishning xilma-xil usullarini hurmat qilish, qabul qilish va to‘g‘ri tushunishni anglatadi. Uni bilim, samimiyat, ochiq muloqot hamda hur fikr, vijdon va e’tiqod vujudga keltiradi. Bag‘rikenglik – turli tumanlikdagi birlikdir. Bu faqat ma’naviy burchgina emas, balki siyosiy va huquqiy ehtiyoj hamdir. Bag‘rikenlik – tinchlikka erishishni musharraf qilguvchi va urush madaniyatsizligidan tinchlik madaniyatiga eltuvchidir”.

“Bag‘rikenglik” tushunchasi ilmiy faoliyat va ijtimoiy hayotning turli sohalari, jumladan, siyosat va siyosatshunoslik, sotsiologiya, filosofiya, ilohiyot, ijtimoiy axloq, qiyosiy dinshunoslik kabi sohalarda keng istifoda etiladigan tushunchalardan biri hisoblanadi. Lotincha tolerare, ya’ni “chidamoq”, “sabr qilmoq” ma’nosini anglatgan bu so‘z, asosan bir insonning boshqa inson dunyoqarashiga toqat qilishini bildirsa-da, etimologik tahlil uning tom ma’nosini doim ham ochib beravermaydi.

Shu o‘rinda, YUNESKO “Bag‘rikenglik tamoyillari Deklaratsiyasi”da “tolerant” ya’ni “bag‘rikenglik” tushunchasiga berilgan ta’riflarni keltirib o‘tmoqchimiz:

1.2. Bag‘rikenglik – yon berish, andisha yoki xushomad emas. Bag‘rikenglik – eng avvalo, insonning universal huquqlari va asosiy erkinliklarini tan olish asosida shakllangan faol munosabatdir. Har qanday vaziyatda ham bag‘rikenglik ana shu asosiy qadriyatlarga tajovuzlarning bahonasi bo‘lib xizmat qilmaydi. Bag‘rikenglikni alohida shaxslar, guruhlar va davlatlar namoyon qilishi lozim.

1.3. Bag‘rikenglik – inson huquqlarini qaror toptirish, plyuralizm (shu jumladan, madaniy plyuralizm), demokratiya va huquqning tantanasi uchun ko‘maklashish majburuyatidir. Bag‘rikenglik – aqidabozlikdan, haqiqatni mutlaqlashtirishdan voz kechishni anglatuvchi va inson huquqlari sohasidagi xalqaro-huquqiy hujjatlarda o‘rnatilgan qoidalarni tasdiqlovchi tushunchadir.

1.4. Bag‘rikenglikni namoyon qilish inson huquqlariga ehtirom bilan hamohang, u ijtimoiy adolatsizlikka nisbatan sabr-toqatli munosabatda bo‘lishni, o‘z iymon- e’tiqodidan voz kechish yoxud boshqalarning e’tiqodiga yon berishni anglatmaydi. Har kim o‘z e’tiqodiga amal qilishda erkinligi va har kim bu huquqqa boshqalar ham ega ekanligini tan olmog‘i lozimligini hamda odamlar o‘z tabiatiga ko‘ra, tashqi ko‘rinishi, qiyofasi, o‘zini tutishi, nutqi, xulqi va qadriyatlari jihatidan farqlanishi e’tirofga loyiqligi barobarida, ular dunyoda yashashga va o‘zlarining ana shu individualligini saqlab qolishga haqliligini anglatadi. Shu bilan birga, bir kishining qarashlari boshqalarga majburan singdirilishi mumkin emasligini anglatadi.

Turli til va madaniyatlarni bilish, etnik va lisoniy bag‘rikenglik, o‘zgalar borlig‘i va dunyoqarashining ijobiy jihatlarini o‘ziga qabul qila olish xususiyati jamiyatga yangi g‘oyalari va yangi ijtimoiy-iqtisodiy resurslarning kirib kelishiga imkoniyat yaratadi. Buni mamlakatimiz misolida, etnik xilma-xillik turli yo‘nalishlarda “chegaralarimizni ochayotgani” hamda etnoslararo bag‘rikenglik tufayli jahon hamjamiyatining bizga nisbatan hurmati va ishonchining ortib borayotganida ham ko‘rishimiz mumkin.

Bugungi kunda zamonaviy jamiyatda faoliyat ko‘rsatayotgan barcha sohalarda tub o‘zgartirishlar, jumladan, iqtisodiy va ijtimoiy sharoitlar tubdan qayta tashkil etish, millatlararo to‘yingan va dinlararo ziddiyatlar, ijtimoiy ong, axloqiy qadriyatlar ma’naviy, axloqiy, ijodiy va mehnat salohiyatini shakllantirish va rivojlantirish darajasi vahokozolar. Xususan, madaniyat, urf-odatlar va boshqa etnik guruhlar odatlariga tolerant munosabatni ta’minlash, bu munosabat, xalqaro hamkorlikni zamonaviy yoshlar madaniyati shakllanishi muammosini va shu asosda turli millat va etnik jamoalar, hatto xalqlarning individual vakillari optimal munosabatlarini rivojlantiradi. Shu bilan birga, turmush va kundalik hayotda millatlararo munosabatlarga qarshi talabalar ongida ko‘proq namoyon bo‘ladi. Oliy ta’lim, zamonaviy ta’lim muassasalari o‘quv jarayonida sezilarli darajada bu hodisani rivojlanishini ta’minlaydi. Oliy ta’lim muassasalarida talabalarning o‘quv, ilmiy faoliyatiga e’tiborni kuchaytirish ularning munosabatlarni yaxshilash va talabalar hayotini demokratlashtirish xalqaro hamkorlik, madaniyatni shakllanishiga zamonaviy yondashuv asosini, ta’lim tizimini yangilash asosiy qoidalarga asoslangan bo‘lishi kerak. Bundan tashqari millatlararo, madaniyatlararo munosabatlarni o‘quv yurtlarida chuqur takomillashtirish maqsadga muvofiq. Tabiatan xalqaro hamkorlikni madaniyat xalqaro munosabatlarning ijtimoiy-siyosiy, ma’naviy-axloqiy mohiyatini aks ettiruvchi o‘ziga xos shaklda ma’naviy hayot hodisasi hisoblanadi. Hodisa xalqlarning alohida belgilangan ijtimoiy-iqtisodiy, ma’naviy va siyosiy shakllarini bir biri bilan bog‘liqdir. Bu umuminsoniy qadriyatlar ustuvorligi milliy psixologiya, insonparvarlik

boshlang'ich an'alariga rioya qilib, millatidan qat'i nazar, dini, irqi shaxsi, ularning tarixi, madaniyati, tili, urf-odatları va an'alaridan qat'iy nazar hurmat uchun bag'rikenglik hodisasi hisoblanadi.

So'nggi yillarda millatlararo munosabatlarni amalga oshirishda sezilarli eng muhim yozuvlar, umumiy yo'nalishini inson omillar ma'naviy ehtiyojini qondirish muhim omil odamlar harakatlar sifatida insoniy va axloqiy qadriyatlarıning o'rni ko'paydi. Bu, birinchi navbatda, shaxsning turli-tuman rivojlanishi uchun shaxslararo muloqotning o'ziga xos ahamiyatiga, uning shaxsiyat tarkibida axloqiy tamoyillarning o'sishi bilan bog'liq. Xalqaro hamkorlik, millatlararo totuvlik inson munosabatlarini ma'naviy-axloqiy mexanizmini rivojlantirish va mustahkamlash uchun bir asos bo'lib xizmat qiladi. O'zbek madaniyatining tajribasi turli etnik guruhlar va ularning shaxsiy vakillari o'rtasidagi munosabatlarning tarixiy jihatdan belgilanadigan qimmatli va foydali an'alari bilan boy. Shu munosabat bilan, u vatanparvarlik va enternatsionalizm tushunchalar xalqaro hamkorlik bugungi yoshlar madaniyati, xususan shakllantirishda birinchilardan ekanligini ta'kidlash lozim. Chunki Oliy maktab, xalqaro munosabatlar muammolarini hal qilish uchun haqiqiy ishga tushiriladi. Shuning uchun, ko'p millatli muassasada bo'lajak mutaxassislar tayyorlash o'ziga xosligi hisobga olib, ish va hayotning turli jihatlarini ma'lum xususiyatlari bilan harakterlanadi. Uning ijtimoiy va milliy tarkibi, milliy xususiyatlarini hisobga olgan holda, kadrlar tayyorlash va ta'lim holda shakllantirish uchun kompleks yondashuvni o'z ichiga oladi. Oliy ta'limda, jumladan, ta'lim mazmunan yangilash barcha bosqichlarida maktab islohoti davrida talabalarning millatlararo o'zaro madaniyatini tarbiyalash, tarixiy ildizlariga, ilg'or an'alar, xalqning ma'naviy va axloqiy qadriyatlarni tiklash tamoyili amalga oshirish, talabaning shaxsiyat tuzilmasida ushbu hodisani shakllantirish Vatan tarixi haqida bilmasdan o'ylab topilmaydi. Bizning bilimlarimizni kengaytirish va chuqurlashtirish istagi nafaqat har bir ravshan shaxsga xos bo'lgan ta'lim sohasidagi bo'shliqlarni to'ldirish, balki uning ma'naviy madaniyatining o'sishi haqida ham dalolat beradi. Shu bilan birga, bu jarayon ta'lim intizomlari mazmunini atrofdagi hayotga, bugungi kunning haqiqatiga va ehtiyojlariga maksimal yaqinlashishini nazarda tutadi. Bu oliy maktabda ma'rifiy ishlar sifati ongli va ongsiz ruhiy jarayonlarning butun kompleksi, ichki muhiti orqali ta'sir barcha tabiiy va ijtimoiy hodisalar uchun, asosan odamlar, iqtisodiy-ijtimoiy, siyosiy va madaniy rivojlanish albatta bog'liq ekanligi ma'lum. Kelajak mutaxassisning shaxsini shakllantirish bilan bir qatorda uning madaniy madaniyatini rivojlantirish orqali millatlararo munosabatlar, oliy o'quv yurtida keyingi avlod hayoti muayyan darajada aniqlanadi. Shuning uchun, oliy ta'lim muassasalarida talabalar tayyorlash bugungi kun darajasiga xalqaro hamkorlik madaniyatini o'zlashtirish, barkamollik, yangilash va jamiyatni demokratlashtirish masalalarini hal qilish, kelajak avlodlar qobiliyatini rivojlantirish bilan bog'liq.

Hozirgi kunda globallashtirish jarayoni aynan madaniyatlararo kommunikatsiyaga ham o'z ta'sirini o'tkazmoqda. Natijada davlat va xalqlar o'rtasidagi integratsiya va hamkorlik aloqalari kuchaymoqda; xorijiy investitsiya, kapital va tovaralar, ishchi kuchining erkin harakati uchun qulayliklar vujudga keltirmoqda; ko'plab yangi ish o'rinlari yaratilmoqda. Zamonaviy kommunikatsiya va axborot texnologiyalarining ilm-fan yutuqlarining tezlik bilan tarqalishi kuzatilmoqda; turli qadriyatlarıning umuminsoniy negizida uyg'unlashuvi kuchaymoqda; sivilizatsiyalararo muloqotning yangicha sifat kasb etishi ekologik ofatlar paytida o'zaro yordam ko'rsatish imkoniyatlari ortib bormoqda.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, mustaqillik, erkinlik shu bilan bir qatorda bag'rikenglik tuyg'isini ham berdi. Ushbu tuyg'u chet davlatlar bilan halqaro aloqalarni kuchaytirish hamda do'stlik, birodarlik kabi faxrli so'zni muhrlashga ham zamin yaratdi. O'zbekiston chet davlatlar bilan qat'iy ravishda yaqin munosabatlarni rivojlantirib kelmoqda. Bu esa diniy va etnik ziddiyatlar o'ta murakkab xalqaro muammolarga aylanib borayotgan hozirgi davrda muhim ahamiyatga ega. Zero, madaniyatlararo, konfessiyalararo va millatlararo hamkorlik, muloqot turli negativ stereotiplarga qarshi ziddiyatlarni bartaraf etishda turli madaniy va diniy birliklar va uyushmalar o'rtasidagi hamkorlikni shakllantirishda muhim vosita hisoblanadi.

Shunday ekan, bugungi kun intellektual salohiyatli yoshlarni tarbiyalashda madaniyatlararo, millatlararo kommunikatsiyani bag'rikenglik tamoyillarini ularning ongiga singdirishda kuyidagilarga e'tibor berish muhimdir. O'zbekiston turli millat va elat vakillarining umumiy uyidir. Bu, bizningcha, boylik va taraqqiyotning muhim manbaidir. Zero, polietnik salohiyat va xilma-xillikni o'zida mujassam eta olish imkoniyatiga ega bo'lgan mamlakat taraqqiyot kalitini o'z qo'lida tutib turadi, o'z madaniyatini sevmagan inson, oxir-oqibatda o'zgarar madaniyatini ham sevmay qo'yadi.

Adabiyotlar

1. Bag'rikenglik – barqarorlik va taraqqiyot omili.– B. 8-9.
2. Bag'rikenglik tamoyillari Deklaratsiyasi // YUNESKO xalqaro me'yoriy hujjatlari. – T.: Adolat, 2004. –B. 91.
3. Bag'rikenglik – barqarorlik va taraqqiyot omili. – B. 88.
4. Bag'rikenglik tamoyillari Deklaratsiyasi // YUNESKO xalqaro me'yoriy hujjatlari. – T.: Adolat, 2004. –B. 82.
5. Садохин А.П. Теория и практика межкультурной коммуникации. М.2004.58стр.
6. Абдулатипов Р.Г. Человек. Нация. Общество.- М.,1990.- В.143

УДК: 371:004**КЛАССИФИКАЦИЯ ТЕХНИЧЕСКИХ СРЕДСТВ ОБУЧЕНИЯ И ИХ ФУНКЦИИ****Л.Ю. Хусаинова***Самаркандский институт экономики и сервиса*

Аннотация. Автор данной работы, опираясь на современные достижения психолого-педагогической науки, рассматривает принципы технических средств обучения по используемым на уроках по иностранному языку в неязыковом ВУЗе. Изучение научной и методической литературы по проблеме позволило сделать вывод о том, что использование технических средств обучения на уроках иностранного языка дает возможность изложить материал наглядно, способствует повышению качества обучения и уменьшения утомляемости студентов.

Ключевые слова: Государственная политика, терпимость, межэтническая гармония, межконфессиональная солидарность, братство.

Classification of technical means of studying and their functions

Abstract. The author of this work, basing on modern achievements of psychological and pedagogical science, considers the principles of technical means of instruction in the lessons of a foreign language in a non-linguistic university. The study of scientific and methodological literature on the problem led to the conclusion that the use of technical means of instruction in the lessons of a foreign language makes it possible to present the material clearly, contributes to improving the quality of instruction and reducing the fatigue of students.

Keywords: State policy, tolerance, interethnic harmony, inter-confessional solidarity, brotherhood.

O'qitishning texnik usullarini tasniflash va ularning vazifalari

Annotatsiya. Muallif maqolada zamonaviy pedagogic va psixologik fanlardagi yutuqlardan foydalanib, chet tillarini o'qitishga mo'ljallanmagan oliy o'quv yurtlarida chet tillarini o'qitishning texnik usullarini ko'rib chiqadi. Ilmiy va metodik adabiyotlarni o'rganish natijasida shunday xulosa qilinadiki, chet tillarini o'qitishda texnik vositalardan foydalanish darsni yetkazishni yaxshilaydi va talabalarning toliqishini oldini oladi.

Kalit so'zlar: davlat siyosati, sabrlilik, millatlararo totuvlik, konfessiyalararo birdamlik, qardoshlik.

На протяжении всей истории человеческого общества человек изобретал и создавал машины, технику, которая давала бы возможность добиваться лучших результатов с меньшей затратой сил и энергии. Развитие техники внесло свои изменения во все аспекты жизни человека, в том числе и в процессе обучения.

В области преподавания иностранных языков использование ТСО и контроля относится к числу наиболее актуальных проблем. Появление обучающей техники, возможность использования ее для изучения иностранного языка изменили процесс обучения и коренным образом повлияли на методику преподавания. Еще несколько лет тому назад понятие «технические средства» связывались с занятиями и исследованиями в области технических и точных наук, но никак не относились к изучению иностранного языка. К традиционным, хорошо известным средствам обучения все шире привлекаются новые средства зрительной и

слуховой наглядности, такие как магнитофон, видеоманитофон, учебное кино и телевидение. Сейчас в распоряжении преподавателей иностранного языка находится целый арсенал ТСО - сложная техническая система, управление которой требует специальной подготовки.

Технические средства обучения - совокупность технических устройств с дидактическим обеспечением, применяемых в учебно-воспитательном процессе для предъявления и обработки информации с целью его оптимизации. ТСО объединяют два понятия: технические устройства (аппаратура) и дидактические средства обучения (носители информации), которые с помощью этих устройств воспроизводятся.

ТСО приобретает особое значение в преподавании иностранных языков в связи с переносом акцента на овладение языком как средством коммуникации. Передача информации теперь, при широком использовании средств массовой информации - радио, телевидения и кино,- осуществляется главным образом не в письменной форме, как это было раньше, а в устной. Необходимость научить большее количество людей говорить на иностранном языке и понимать иноязычную устную речь возросла и с ростом международных политических, экономических и культурных связей.

Технические средства обучения (ТСО) - совокупность технических устройств с дидактическим обеспечением, применяемых в учебно-воспитательном процессе для предъявления и обработки информации с целью его оптимизации. ТСО объединяют два понятия: технические устройства (аппаратура) и дидактические средства обучения (носители информации), которые с помощью этих устройств воспроизводятся.

Классифицировать технические средства обучения сложно в силу разнообразия их устройства, функциональных возможностей, способов предъявления информации. Перечислим их основные классификации:

- 1) по функциональному назначению (характеру решаемых учебно-воспитательных задач);
- 2) по принципу устройства и работы;
- 3) по роду обучения;
- 4) по логике работы;
- 5) по характеру воздействия на органы чувств;
- 6) по характеру предъявления информации.

По **функциональному назначению** ТСО подразделяют на технические средства передачи учебной информации, контроля знаний, тренажерные, средства обучения и самообучения, вспомогательные средства. Кроме того существуют технические средства, совмещающие функции различного назначения, - комбинированные.

Технические средства передачи информации: диапроекторы, графопроекторы, эпипроекторы, магнитофоны, радиоустановки, музыкальные центры (аудиосистемы), проигрыватели, радиоузлы, кинопроекторы и киноустановки, телевизоры, видеоманитофоны, ПЭВМ и т. п. Отличительной особенностью всех этих технических устройств является преобразование информации, записанной на том или ином носителе, в удобную для восприятия форму.

Видеоматериалы как техническое средство обучения

Технические средства контроля объединяют всевозможные технические устройства и комплексы, позволяющие по определенной программе и заданным критериям с той или иной степенью достоверности оценивать степень усвоения учебного материала. С этой целью используются как старые модификации устройств типа «АМК-2», так и новейшие компьютерные технологии. Контролирующие ТСО бывают *индивидуальные* и *групповые*. Они отличаются типом обучающих программ и методом ввода ответа учащихся. По степени сложности контроля знаний варьируются от простых карт, кассет и билетов автоматизированного контроля до специальных компьютерных программ. Однако применение этих устройств, как показала практика, целесообразно лишь в узких пределах и не может заменить непосредственные контакты учителя с учащимися во время анализа и оценки результатов их работы.

Основную трудность при овладении иностранным языком, представляет выработка навыков и умений аудирования и говорения. Неоценимую помощь в этом оказывают технические средства обучения.

Основное назначение ТСО - интенсификация процесса обучения, особенно процесса

ускорение ритма, скорости, динамики речи в целом, - как раз тех качеств, которые не может в должной степени подготовить практика обучения без ТСО.

ТСО могут взять на себя некоторые функции преподавателя; задавать вопросы, рассказывать, диктовать и т.п., т.е. ТСО частично освобождают преподавателя от трудоемкой работы по автоматизации речевых навыков и создают дополнительное языковое окружение.

Однако ТСО никогда не заменят преподавателя полностью. Преподаватель изучает возможности каждого из существующих ТСО для решений конкретных задач аудиторной и самостоятельной работы учащихся, выявляет экспериментально эффективность отдельных видов ТСО на разных стадиях обучения - при ознакомлении с учебным материалом, при тренировке и при самостоятельной работе.

Во время самостоятельной работы учащихся ТСО помогают закрепить и автоматизировать речевые навыки и умения, полученные на занятиях.

Метод, по которому ведется обучение, предопределяет использование ТСО, а также принципы создания пособий с использованием ТСО. Включение ТСО не должно нарушать целостность учебной программы.

Перспектива использования технических средств, специально предназначенных для обучения ИЯ, открыла большие возможности для создания новых комплексов учебных пособий, лабораторных работ и т.д. Высокая эффективность применения технических средств в обучении иностранным языкам неоспоримо доказана практикой преподавания иностранных языков в нашей стране.

В основу принципов использования ТСО легли уже сложившиеся методы обучения, в разной степени модифицированные, модернизированные и приспособленные к современным требованиям теории обучения иностранному языку.

Главная задача при выборе метода - научный подход к изучению иностранного языка, широкое использование достижений лингвистики, психологии и методики, изучение взаимодействия родного и иностранного языков на разных уровнях - фонетическом, грамматическом и лексическом.

В англоязычных источниках ТСО называют аудиовизуальными средствами которые делятся на жесткие (hardware) и мягкие (software). К жестким относятся магнитофоны, проекторы, телевизоры, компьютеры, к мягким - носители информации: грампластинки, магнитная лента, магнитные и оптические диски, слайды, кинофильмы.

Классифицировать технические средства обучения сложно в силу разнообразия их устройства, функциональных возможностей, способов предъявления информации:

- 1) по функциональному назначению (характеру решаемых учебно-воспитательных задач);
- 2) принципу устройства и работы;
- 3) роду обучения;
- 4) логике работы;
- 5) характеру воздействия на органы чувств;
- 6) характеру предъявления информации.

Технические средства обучения также классифицируются по характеру предъявления (экранные, звуковые и экранно-звуковые средства и аппаратура); по функциональному назначению (комбинированные средства-компьютеры, мультимедийная аппаратура, аудиторные технические комплексы и группа вспомогательных технических средств обучения).

Экранные технические средства включают проекционную аппаратуру; кодоскоп, диапроектор, диаскоп. С их помощью на экране возможно проецировать различные записи, картинки, диапозитивы и диафильмы.

Простота управления диапроектором и диаскопом делает их удобным и эффективным средством обучения иностранному языку. Диапозитивы имеют преимущество перед диафильмами в том, что их можно показывать в любой, удобной для преподавателя последовательности и в любом количестве.

Диапозитивы могут быть отобраны в серии по темам; города, искусство, география страны и т.д. Более широкие возможности использования зрительно-слуховой наглядности в обучении иностранному языку предоставляют экранно-звуковые средства; компьютер, кино, учебное телевидение.

Наиболее надежным звуковым средством, хорошо зарекомендовавшим себя на протяжении многих десятков лет, служит компьютер или запись учебного материала на иностранном языке. Эти записи предназначаются обычно для начального этапа обучения. Они делаются к учебникам, грамматическим и разговорным курсам.

Ни один из видов учебного оборудования, взятый в отдельности, не может полностью обеспечить успех обучения, и только правильное сочетание их, отвечающее особенностям изучаемого вопроса и познавательной деятельности студентов, дает возможность достигнуть оптимальных результатов.

Несомненным достоинством современных учебников английского языка является насыщенность их страноведческой информацией. Значительное место среди текстов занимают такие их виды, как письма, рекламные объявления, вывески, анкеты, меню.

Наряду с этим важно дать студентам наглядное представление о жизни, традициях, языковых реалиях англоговорящих стран. Этой цели могут служить учебные видеофильмы, использование которых способствует реализации важнейшего требования коммуникативной.

Более того, использование компьютерных записей на уроках способствует индивидуализации обучения и развитию мотивированности речевой деятельности обучаемых.

Следует отметить, что применение на уроке видеоматериала - это не только еще один источник информации. Использование видеоматериала способствует развитию различных сторон психической деятельности студентов, и, прежде всего, внимания и памяти. Во время просмотра в аудитории возникает атмосфера совместной познавательной деятельности. Для того чтобы понять содержание фильма, учащимся необходимо приложить определенные усилия. А интенсивность внимания оказывает влияние на процесс запоминания. Использование различных каналов поступления информации (слуховой, зрительный, моторное восприятие) положительно влияет на прочность запечатления страноведческого и языкового материала.

Актуальность проблемы применения компьютера при обучении иностранным языкам связана с тем, что одна из основных задач обучения иностранным языкам в ВУЗе – обучение иноязычной устной речи – должна решаться с широким использованием технических средств наглядности, и в частности видео-наглядности.

Одна из основных возможностей видео не свойственная никаким другим средствам наглядности - это способность создания речевой среды, которой так недостаёт студентам при обучении иностранному языку. Количество новых лексических единиц не должно превышать 3-7 и большинство из них студеты должны понять из ситуативного контекста. Работа с видеофрагментами состоит из следующих четырёх этапов:

1. *Работа с незнакомыми словами.*

Работа над новыми словами должна проводиться устно. Такую работу следует начать за 2 – 3 урока до демонстрации кинофрагмента, и она не должна занимать более 3 – 4 минут.

2. *Вступительная беседа.*

Использование записи с компьютера на начальном этапе обучения может помочь преподавателю решить проблему отстающих.

Очень важно, чтобы преподаватель предупредил студентов, что они могут встретиться со словами, которые им неизвестны.

3. *Просмотр фрагмента.*

С самого начала фрагмент надо показать в аудитории не менее двух раз.

4. *Проверка понимания видеофрагмента.*

Главная задача, которая стоит перед преподавателем на этапе проверки – это понимание учащимися кинофрагмента. Здесь можно рекомендовать следующие приёмы работы:

- диалог преподаватель – студент. Вопросы могут ставиться в таком порядке: общие, разделительные, альтернативные, специальные.

- определение студентами, соответствует ли то или иное утверждение преподавателя сюжету фильма.

- пересказать сюжет фильма.

Такое ценное качество видео, как сочетание яркой формы видео-наглядности с возможностью многократного предъявления, с каждым годом находит всё большее признание в качестве эффективного обучающего средства при изучении иностранных языков и в нашей стране, и за рубежом.

Материал урока должен соответствовать уровню знаний студентов на данном этапе обучения. При подборе материала надо учитывать также возрастные и индивидуальные особенности студентов.

Литература

1. Баранова М.В. Совершенствование грамматической стороны диалогической речи студентов пятого курса факультета иностранных языков в процессе работы над видеофильмом Автореферат дисс...канд.пед.наук. – С.Петербург, 2001. – 20 с.
2. Барменкова О.И. Эффективные приемы обучения английскому языку. – Пенза, 1997.
3. Городилова Г.Г. Обучение речи и технические средства. – М., 1979.
4. Карпов Г.В. Романин В.А. Технические средства обучения. – М.: Просвещение, 1979. – 271 с.
5. Кириш Т.К. Аудиовизуальные и технические средства в обучении. М.: МГУ, 1975.
6. Коджаспирова Г.М., Петров К.В. Технические средства обучения и методика их использования. - М.: Академия, 2003. – 256 с.
7. Комков И.Ф. Методика преподавания иностранных языков. – Минск, 1979.
8. Молибог А.Г., Гарнопольский А.И. Технические средства обучения и их применение. – Мн.: Университетское, 1985. – 208 с.
9. Цесарский Л.Д. Использование технических средств в преподавании иностранных языков. – М., 1966.
10. Barry Tomalin, Susan Stempleski. Video in action. 1991.

UDK:371,4

HARAKATLI O‘YINLAR YORDAMIDA O‘SMIR BOKSCHILARNING HIMOYA TEKNIKASINI RIVOJLANTIRISH SAMARADORLIGI

S.S. Tajibayev

O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya instituti

Аннотация. Mazkur maqolada 11-13 yoshli bokschiarning himoya harakati texnikasini bajarish ko‘nikmalarini rivojlantirishda qo‘llaniladigan harakatli o‘yinlar saralanib samaradorligi pedagogik tajribada tekshirish yuzasidan o‘tkazilgan tajribalarning natijalari o‘z aksini topgan.

Калит so‘zlar: o‘smir bokschi, harakatli o‘yinlar, boks texnikasi, oyoqlar yordamida himoyalani, gavda yordamida himoyalani, qo‘llar yordamida himoyalani.

Эффективность развития техники защиты подростков – боксеров с помощью подвижных игр

Аннотация. В настоящей статье отражены результаты педагогического эксперимента по исследованию эффективности специально подобранных подвижных игр для развития навыков выполнения техники защитных действий у юных боксеров 11-13 лет.

Ключевые слова: юные боксеры, подвижные игры, техника бокса, защита с помощью ног, защита с помощью туловища, защита с помощью рук.

Effectiveness of protection technics development of teenager-boxers with the help of flexible games

Abstract. In persisting article reflected results pedagogical experiment on study of efficiency specially selected rolling plays for development skill performing the technology defensive action beside young boxer 11-13 years.

Keywords: young boxers, rolling plays, technology of the box, protection by means of legs, protection by means of trunk, protection by means of hands.

Vatanimizda sportga bo‘lgan e‘tibor kundan-kunga rivojlanib bormoqda [1, 2]. Sportchi yoshlarimiz nufuzli halqaro musobaqalarda qator sovrinlarning sohibiga aylanib borishmoqda. Ayniqsa, yoshlarimizning erishgan yutuqlari yakkakurash sporti turlarida sezilarli darajada ko‘paymoqda. Shu jumladan boks sportida ham O‘zbekiston bayrog‘ini jahon sport sahnalarida baland

ko'tarishiga o'z hissalarini qo'shgan sportchilarimiz talaygina. Bu esa yoshlarimiz orasida boksni keng tarqalishiga va ularning boks sportiga qiziqishlarini jadal rivojlanishiga turtki bermoqda.

Ma'lumki har bir yakkakurash sportida shu jumladan boksdan ham g'oliblik asosan sportchining jismoniy, texnik-taktik va psixik tayyorgarligi orqali ta'minlanadi. Bu esa o'z navbatida iroda, kuch hamda qator harakat sifatlarini uzluksiz rivojlantirishni taqozo etadi. Buning uchun esa uzluksiz ravishda ma'lum dastur bo'yicha mashg'ulotlar o'tkazish talab qilinadi.

Ammo uzoq va uzluksiz mashg'ulotlar ba'zan boshlang'ich tayyorgarlik bosqichida boks bilan shug'ullanuvchi 11-13 yoshli bolalarda zerikish xissini paydo qiladi. Mazkur yoshdagi sportchilarni jismoniy, texnik-taktik, psixik tayyorgarliklarini oshirishga qaratilgan mashg'ulotlarni harakatli o'yin va estafetalar tarzida o'tkazish zerikish xissi bilan bog'liq muammolarni yechishda muhim ahamiyatga ega ekanligi ko'pchilik ishlarda qayd etilgan [8, 9, 10].

Mutaxassislar bokschilarni texnik tayyorgarligini rivojlantirishda samarali vosita sifatida harakatli o'yinlarni ko'rsatib o'tishgan [3]. O'tkazilgan ilmiy-uslubiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki o'smir bokschilarning texnik tayyorgarligini oshirishda harakatli o'yinlarni qo'llash yuzasidan yetarlicha ilmiy tadqiqotlar o'tkazilmagan. Mazkur holat tadqiqot ishimizning o'ta muhim ahamiyatga ega ekanligini va dolzarbligini belgilab beradi.

Tadqiqotning maqsadi: boshlang'ich tayyorgarlik bosqichida shug'ullanuvchi yosh bokschilarning texnik tayyorgarligini rivojlantirish.

Tadqiqotning vazifalari:

1. O'smir bokschilarning texnik tayyorgarligini rivojlantirishda samarali harakatli o'yinlarni aniqlash.
2. O'smir bokschilarning texnik tayyorgarligini rivojlantirishda qo'llanilgan vosita va usullarni samaradorligini pedagogik tajribada tekshirish.

Tadqiqot usullari: ilmiy-uslubiy adabiyotlar tahlili, anketa so'rovnomasi, pedagogik kuzatuv, ekspert baholash usuli, pedagogik tajriba, matematik statistik tahlil.


Tadqiqotni tashkillashtirish: Tajriba yakkakurash sport turlariga ixtisoslashgan bolalar-o'smirlar sport maktabining boshlang'ich tayyorgarlik bosqichida shug'ullanuvchi 11-13 yoshli bokschilarni jismoniy mashg'ulotlari jarayonida o'tkazildi.

Tadqiqot ishimizning vazifasini xal etishda 10 nafar yuqori malakali mutaxasislardan tashkil topgan ekspertlar jamoasi tashkil etildi.


Baholashni maqullash yo'li orqali amalga oshirildi. Bunda ekspertlar fikrlarining muvofiqlik darajasini guruhda baholash uchun konkordatsiya (W) koeffitsentidan foydalanildi. U bizning tadqiqotlarimizda etarlicha yuqori (W-0,864 hamda ishonchli $p < 0,05$) bo'ldi. Bu ekspertlar fikrlarining haqiqatdan ham o'zaro mos kelganligidan guvohlik beradi. Olinayotgan ma'lumotlarning ob'ektivligini oshirish uchun asosiy kvalimetriya g'oyalariga muvofiq holda ekspertizani tayyorlash va o'tkazishda barcha zarur talablarga rioya qilindi.

Respublikamiz viloyat, tuman va qishloqlarida faoliyat ko'rsatuvchi 83 nafar murabbiylar o'rtasida anketa so'rovnomasi o'tkazildi (O'zbekistonda hizmat ko'rsatgan murabbiylar $n=6$; Oliy toifali murabbiylar $n=14$; 1 - toifali murabbiylar $n=26$, 2 - toifali murabbiylar $n=37$).

So'rovnomada murabbiylardan harakatli o'yinlarni yosh bokschilarning texnik va jismoniy tayyorgarligida ta'sir etish xususiyatiga qarab 1 balldan 5 ballgacha baholab berishlari so'raldi.



1-rasm. O'zbekistonda hizmat ko'rsatgan va Oliy toifali murabbiylar ($n=20$).



2-rasm. 1 va 2 toifadagi muabbiylar ($n=63$).

O'zbekistonda hizmat ko'rsatgan va Oliy toifali murabbiylar o'rtasida o'tkazilgan so'rovnoma natijalariga ko'ra 65% respondentlar yosh bokschilarni texnik tayyorgarligini oshirishda yordam beruvchi harakatli o'yinlar sifatida "Po'sht-po'sht", "Ho'rozlar jangi", "Bir daqiqa yuzta zarba",

1-jadval

11-13 yoshli bokschilarning texnik harakatlarni bajarish ko'nikmalarini baholash natijalari

№	Texnik harakatlar	Yoshi	Guruh	n	O'zlashtirish darajasi				K _{o'sb}	K _{bdb}
					"A'lo"	"Yaxshi"	"Qoniqarli"	"Qoniqarsiz"		
1	Oyoqlar yordamid a himoyalani sh	11	TG	30	33%	41%	17%	9%	1,23>1	1,03>0
			NG	32	10%	17%	33%	40%		
		12	TG	30	39%	43%	11%	6%	1,4>1	1,01>0
			NG	28	14%	24%	26%	36%		
		13	TG	38	41%	37%	14%	8%	1,3>1	1,06>0
			NG	34	15%	22%	27%	36%		
2	Gavda yordamid a himoyalani sh	11	TG	30	33%	42%	18%	7%	1,4>1	1,04>0
			NG	32	11%	23%	27%	39%		
		12	TG	30	37%	40%	16%	7%	1,2>1	1,02>0
			NG	28	13%	21%	29%	37%		
		13	TG	38	44%	42%	11%	3%	1,4>1	1,04>0
			NG	34	14%	23%	28%	35%		
3	Qo'llar yordamid a himoyalani sh	11	TG	30	31%	36%	25%	8%	1,3>1	1,03>0
			NG	32	13%	25%	21%	41%		
		12	TG	30	36%	35%	21%	8%	1,2>1	1,03>0
			NG	28	12%	21%	31%	36%		
		13	TG	38	46%	35%	12%	7%	1,4>1	1,05>0
			NG	34	13%	22%	26%	39%		

Eslatma: O'zlashtirish samaradorligini baholash koeffitsenti, bilim darajasini baholash koeffitsenti.

"Oyoqqa ehtiyot bo'l", "Pyatnashka" o'yinlarini ko'rsatishdi. 23% murabbiylar "Pyatnashka" o'yinini eng samarali harakatli o'yinlar sirasiga kiritgan. 12% murabbiylar esa "Oyoqqa ehtiyot bo'l" va "Bir daqiqa yuzta zarba" o'yinlarini tavsiya etishgan [1-rasm].

1 - va 2 - toifadagi murabbiylar o'rtasida o'tkazilgan anketa so'rovnomasi natijalarini tahlil qilishda quyidagi natijalar qayd etildi. Ularga ko'ra 58% murabbiylar "Arqonga tegib ketma", "Burchakka taqab bor", "Ho'rozlar jangi" o'yinlarini bokschilarning texnik tayyorgarligini oshirishga yordam beruvchi o'yinlar deb xisoblaydilar. 20% murabbiylar "Po'sht-po'sht", "Ho'rozlar jangi", "Bir daqiqa yuzta zarba", "Oyoqqa ehtiyot bo'l" o'yinlarini samari o'yinlar sifatida ko'rsatib o'tishgan. Qolgan 12% murabbiylar harakatli o'yinlarni bokschilarning texnik tayyorgarligida samarali ekanligini e'tirof etishmagan [2-rasm].

Tadqiqotlar davomida ekspertlar tomonidan bokschilarda ko'p uchraydigan xatolar belgilandi; berilayotgan zarbadan himoyalani shni vaqtidan oldin bajarish; himoyaga o'tishda kechikish; og'ishlar va sho'ng'ishlar bilan himoyalani shlarni katta amplitudada bajarish; gavda harakati va oyoqlar o'rtasidagi koordinatsiyaning buzilishi; orqaga chekinish bilan himoyalani shda masofani haddan ortiq uzaytirib yuborish va boshqalar.

Ekspertlar tomonidan bokschilarni texnik harakatlari quyidagicha baholandi: Tajriba guruhining o'zlashtirish ko'rsatichilari va sportchilar sonini mos ravishda $X_{i;n_i}$ lar va shu kabi nazorat guruhidagini esa $Y_{j;m_j}$ lar orqali belgilab olib, statistik guruhlangan variatsion qatorlar, shuningdek, "A'lo" - texnik harakatlarning mutlaqo to'g'ri bajarilishi 86-100 ball; "Yaxshi" - texnik harakatlarning kichik xatolar bilan bajarilishi 71-85 ball; "Qoniqarli" - harakatlarning katta xatolar bilan bajarilishi 56-70 ball; "Qoniqarsiz" - bajarilgan texnik harakatlar 55 balldan kam. Talaba mezoni asosida tajriba va nazorat guruhidagi miqdor va sifat ko'rsatkichlari tahlil etildi.

Boksda himoyalani shlar - bokschi tayyorgarligining eng muhim bo'limi hisoblanadi Ular bokschi texnik jihatdan qurollanganligining asosiy mazmunini tashkil etadi. Agar texnik mahorat darajasi zarba variantlarining keng to'plami bilan belgilansa, unda bokschi jangovar qobiliyati aynan himoyalani sh harakatlari to'plami bilan belgilanadi [4, 5, 6, 7, 8, 9].

Ekspertlar guruhi tomonidan tajriba guruhidagi 11 yoshli bokschilarning oyoqlar yordamida himoyalani sh harakatini bajarish ko'nikmasi quyidagicha baholandi; 33% - "A'lo", 41% - "Yaxshi",

17% - “Qoniqarli”, 9% - “Qoniqarsiz”, nazorat guruhi sportchilari esa mos ravishda 10% - “A’lo”, 17% - “Yaxshi”, 33% - “Qoniqarli”, 40% - “Qoniqarsiz”. Olingan natijalardan o’rgatish samaradorligini baholash mezoni birdan ($1,23 > 1$) kattaligi va bilish darajasini baholash mezoni noldan ($1,03 > 0$) kattaligini ko’rish mumkin. Bundan ma’lumki, tajriba guruhidagi o’zlashtirish nazorat guruhidagi o’zlashtirishdan yuqori ekanligidan dalolat bermoqda [1-jadval].

Chap oyoqda yonga qadam tashlash bilan bir vaqtda gavdagi chapga burish bilan himoyalanih texnikasini bajarish sportchidan chaqqonlik va tezlikni talab qiladigan himoya usulidan biri hisoblanadi. Tajriba guruhida shug’ullanuvchi 12 yoshli bokschilarining mazkur himoya texnikasini bajarish ko’nikmasi quyidagicha baholandi: Unga ko’ra 37% - “A’lo”, 40% - “Yaxshi”, 16% - “Qoniqarli”, 7% - “Qoniqarsiz”, nazorat guruhi sportchilari esa mos ravishda 13%i - “A’lo”, 21%i - “Yaxshi”, 29% - “Qoniqarli”, 37% - “Qoniqarsiz”. Gavda harakati va oyoqlar o’rtasidagi koordinatsiyaning buzilishi qo’pol xatolardan hisoblanadi [7]. Chap oyoqda yonga qadam tashlash bilan bir vaqtda gavdani chapga burish bilan himoyalanih texnikasini bajarishda NG bokschilarida mazkur xato ko’p kuzatildi.

Gavda yordamida himoyalanih boks nazariyasi va uslubiyati sohasining yetuk mutaxasislari tomonidan eng qulay va samarali himoya usullaridan biri sifatida e’tirof etilgan [4, 5, 6, 9]. Mazkur himoya usullarini tajriba guruhidagi 11,12, 13 yoshli bokschilarning 33-37-44% - “A’lo”, 42-40-42% - “Yaxshi”, 18-16-11% - “Qoniqarli”, 7-7-3% - “Qoniqarsiz” baholangan. Ushbu ko’rsatkichlarning nazorat guruhi sportchilari bilan qiyosiy tahlil etilganda o’rgatish samaradorligini baholash mezoni birdan ($1,23 > 1$) kattaligi va bilish darajasini baholash mezoni noldan ($1,03 > 0$) kattaligi aniqlandi. Mazkur xolat tajriba guruhidagi o’zlashtirish nazorat guruhidagi o’zlashtirishdan yuqori ekanligidan dalolat bermoqda.

Xulosa.

Adabiyotlardagi manbalarni tahlil qilish hamda sportning har xil turlaridagi murabbiylarning ilg’or tajribalari ko’rsatadiki, o’smir bokschilarning boshlang’ich tayyorgarlik bosqichlaridagi o’quv-mashq mashg’ulotlarida o’yin vazifalarini qo’llash zarur ekan.

O’smir bokschilarning mashg’ulotlarida maxsus o’yinlarni qo’llash, o’smir yoshidagi bolalarning psixik xususiyatlariga to’liq mos keladigan sharoitlarni yuzaga keltiradi. Bu, boshlang’ich tayyorgarlik bosqichida harakat qobiliyatlarining optimal rivojlanishiga va ularni yuksak sport mahorati bosqichida takomillashtirish uchun potensialni saqlashga ko’maklashadi.

Bokschilarning mashg’ulotlari tarkibiga o’yin vazifalarini kiritilishi, texnik tayyorgarligini muvaffaqiyatli rivojlantirishga ko’maklashishi isbotlangan. Tajriba guruhida texnik tayyorgarligi ko’rsatkichlari nazorat guruhi natijalariga nisbatan ishonchli darajada yuqori bo’ldi.

Adabiyotlar

1. O’zbekiston Respublikasining «Jismoniy tarbiya va sport to’g’risida»gi Qonuni (yangi tahriri) Toshkent sh., 2015 yil 4 sentabr.
2. Постановление Кабинетов Министров Республики Узбекистан «О фонде развития бокса в Узбекистане» № 279 от 1 июня 1999 г. «Народное слово» 3 июня 1999 г.
3. Былеева Л.В. Подвижные игры. Практический материал: Учебное пособие для студентов вузов и ссузов физической культуры. – М.: Спорт Академ Пресс, 2002. – 279 с.
4. Филимонов В.И. Бокс. Спортивно-техническая и физическая подготовка. -М.: МНСАН, 2000.-432 с.
5. Ширяев А.Г. Бокс. Учителю и ученику (изд. 2-е, перераб. и допол.)/ А.Г.Ширяев. СПб:Изд-во «ШАТОН», 2002.–192с.
6. Теория и методика бокса.//Учебник. Под общ. ред. Е.В. Калмыкова. М.: Физическая культура. 2009, 340 с.
7. Xalmuxamedov R.D. Boks. O’quv qo’llanma. Toshkent.: “Lider-Press”, 2008. 308bet.
8. COACHES MANUAL. Prepared by: AIBA HQs Office. Coordinator: Adam Kusior, AIBA Coaches Comission Chairman Philip Jun. DATE:AUGUST 2011, 275 pg.
9. Boxing Mastery Advanced Technique, Tactics and Strategies from the Sweet Science. Mark Hatmaker with Doug Werner. Tracks Publishing San Diego, Colifornia. Copyright 2004. 225 pg.

UDK: 371.3:7

**BO'LAJAK AMALIY SAN'AT O'QITUVCHILARINING KASBIY-PEDAGOGIK
KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISH JARAYONINING MODELI****K.M. Gulyamov***Qori Niyoziy nomidagi O'zbekiston pedagogika fanlari ilmiy tadqiqot instituti*

Annotatsiya. Maqolada bir-biri bilan o'zaro bog'liq komponentlar: maqsad-vazifalar, tamoyillar, asosiy yunalishlar, ta'lim va tarbiyaning tashkiliy shakl, usullari, vosita va natijalaridan tashkil topgan bo'lajak amaliy san'at o'qituvchilarini kasbiy-pedagogik kompetensiyalarini shakllantirish modelini maxsus fanlarni o'rganishda pedagogika oliy ta'lim muassasasi o'quv jarayoniga tatbiq etish zarurati asoslandi.

Kalit so'zlar: model, kasbiy-pedagogik kompetentlik, bo'lajak amaliy san'at o'qituvchilari, maxsus fanlar.

**Модель процесса формирования профессионально-педагогической компетентности у будущих
учителей прикладного искусства**

Аннотация. В статье обосновывается необходимость внедрения в учебный процесс педагогического вуза, модели процесса формирования профессионально-педагогической компетентности у будущих учителей прикладного искусства в ходе изучения специальных дисциплин, которая состоит из ряда связанных между собой компонентов: цели, задачи, принципов, основных направлений, организационных форм, методов обучения и воспитания, средств и результата.

Ключевые слова: модель, профессионально-педагогическая компетентность, будущие учителя прикладного искусства, специальные дисциплины.

Process model of forming professional and pedagogical competence in future teachers of applied arts

Annotation. The article substantiates the necessity of introducing a pedagogical institution of higher education into the educational process, the model of the process of forming professional and pedagogical competence in future teachers of applied arts in the course of studying special disciplines, which consist from a number of interrelated components: goals, objectives, principles, main directions, organizational forms, methods of teaching and education, resources and results.

Keywords: model, professional and pedagogical competence, applied art teachers, special disciplines.

Bugungi kunda zamonaviy o'zbek tasviriy va amaliy san'atiga ko'plab yosh iste'dod egalari kirib kelayotgani, turli yo'nalishlarda faoliyat ko'rsatayotgan ijodkorlar, xususan, rassom va haykaltaroshlar, xalq ustalari ijodida yangicha mazmun va shakl, jahon san'at maydonida munosib o'rin egallashga intilish tendensiyalari ko'zga tashlanayotganini ijobiy baholash lozim.

SHu bilan birga, ta'kidlash lozimki, hozirgi vaqtda tasviriy va amaliy san'at hamda dizayn sohasini rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar talab darajasida emasligi, sohaga doir normativ-huquqiy hujjatlar mukammal tuzilmaganligi hamda moddiy-texnik bazaning etarli darajada tashkil etilmaganligi, malakali kadrlar etishmasligi bu boradagi ishlarning samarasiga salbiy ta'sir etmoqda.

Bugungi kunda Respublikamizning ta'lim tizimini yanada isloh qilish eng ko'p muhokama qilinadigan mavzularidan biriga aylandi desak mubolag'a bo'lmaydi. Bu esa, takomillashtirilgan yangi avlod ta'lim standartlarini joriy qilishni taqozo etadi. Pedagoglarni ta'lim-tarbiya berish sifatiga yangi talablarni qo'yadi. Shuningdek, zamonaviy ta'limning dolzarb muammolaridan biri – raqobatbardosh malakali bitiruvchilarni tayyorlash hisoblanadi.

Zamon talablariga mos ravishda pedagoglarning kasbiy kompetensiyasini oshirish - ta'lim tizimini modernizatsiya qilishning zarur shartidir. Ushbu jarayonning muvaffaqiyati ta'lim tizimi xodimlari faoliyatining sifat-samaradorligiga hamda ularning kasbiy kompetentligiga bog'liq. Hozirgi kunda jamiyatga tezda hayot faoliyatini davom ettira oladigan, ularning yo'lida paydo bo'ladigan turli xil kasb va hayot muammolarini darhol va sifatli hal qiluvchi, faol, ijodkor va tadbirkor bitiruvchilar zarur. Bularning barchasi bo'lajak o'qituvchining kasbiy va shaxsiy fazilatlarini hamda egallagan bilim, ko'nikma va malakalari bu bir butun kasbiy kompetentlikni hosil qiladi.

Avvalo, kompetensiya soʻzining maʼnosini izohlash muhim. Lotin tilidan oʻzlashgan “kompetensiya” soʻzi “oʻz kasbiga yaroqli, loyiq” degan maʼnoni anglatadi. Kompetensiya nafaqat olingan nazariy bilim, koʻnikma va malakalarning majmuasi, balki egallangan nazariy va amaliy bilim, koʻnikma va malakalar majmuini amaliyotga mustaqil va ijodiy qoʻllay olish darajasidir.

Ayrim davlatlarda shu paytgacha mavjud boʻlgan “professionalizm” tushunchasi oʻziga nisbatan kengroq mazmun kasb etuvchi kompetensiya soʻzi bilan oʻrin almashmoqda. Professionalizm kategoriyasi faqat muayyan fan boʻyicha chuqur bilimga ega boʻlishdir. Kompetensiya esa nafaqat kasbiy bilimlarni, balki psixologik va qisman falsafiy bilimlarni ham egallash zarurligini taqozo qiladi. Amaliy ahamiyatga ega boʻlgan kompetensiyaviy yondashuv kasbiy bilimlar va tanlangan fan boʻyicha faoliyat yuritish uchun zarur malakalar yigʻindisidir.

Taʼlimda kompetensiyaviy yondashuvning baʼzi olimlar tomonidan “bilim, koʻnikma va malaka” kategoriyalariga qarama-qarshi qoʻyib qoʻllanilishi kuzatiladi. Bunday munosabat – qarash bir jihatdan toʻgʻri. Uning toʻgʻriligi shundaki, bu uchlik asosida “bilim” berish yotadi, u bozor iqtisodiyoti sharoitini hisobga olmaydi. Kompetensiyaviy yondashuv asosida esa nafaqat bilim, balki malaka va turli qobiliyatlar shakllantiriladi hamda rivojlantiriladi.

Bugungi pedagogik-psixologik nazariya va amaliyotida “kompetentlik” va “kompetensiya” tushunchalari bir vaqtda qoʻllanilmoqda. Qisqa qilib aytganda, kompetensiya, taʼlim oluvchilarning tayorgarligiga avvaldan qoʻyilgan talablarni anglatasa, kompetentlik shaxsning mavjud sifatleri va qoʻyilgan doiraga, sohaga munosabati boʻyicha shaxs faoliyatining minimal tajribasi bilan belgilanadi. Nemis tilida ommalashtirilgan ilmiy-amaliy adabiyotlarda faqat bir soʻz kompetensiya shaklida qoʻllanilib, Hilbert Meyr oʻquvchi va oʻqituvchi kompetensiyalarini alohida izohlab, bu atamani, ayniqsa, oʻquvchiga yoʻnaltirish lozimligini taʼkidlab shunday deydi:

- Kompetentli oʻquvchi “quruq bilim” sohibi boʻlib qolmasdan, oʻz bilimlaridan yuzaga keladigan vaziyatlarda etarlicha foydalana oladi, u xotirasida tez tiklanadigan (faol) bilimlar mazmuniga ega.
- Kompetentli oʻqituvchi esa pedagogik faoliyatida oʻziga ishongan holda, oʻzini qiynamasdan (sogʻligini asragan holda) nazokat bilan dars bera oladi. Bundan tashqari, u taʼlimdagi qiyinchiliklarni anglagan holda oʻz ustida ishlashga tayyor turadi.

Kompetensiya soʻzining koʻplikdagi maʼnoni ifodalashi, uning muayyan sistemani tashkil qilishi, bu sistemadagi tushunchalarni alohida ajratib olgan holda mashq qilib boʻlmasligi, bir soʻz bilan aytganda, uning qobiliyatlar jamlamasi ekanligi eʼtirof etilgan[1].

Respublikamizning oliy taʼlim muassasalarida tahsil olayotgan talabalar kelajakda amaliy sanʼat oʻqituvchilari sifatida kasbiy tayyorgarlikka ega, yuqori malakali, raqobatbardosh mutaxassislar boʻlib etishlarini taqozo etadi. Bu esa, boʻljak amaliy sanʼat oʻqituvchilarining kasbiy-pedagogik kompetensiyasini takomillashtirishni, shuningdek, maxsus fanlarni oʻqitish metodlarini qayta koʻrib chiqishni taqozo etadi.

Taʼlimda olib borilayotgan tadqiqotlar, pedagogik, psixologik hamda falsafiy adabiyotlarni tahlil qilish, boʻljak oʻqituvchilarni kasbiy jihatdan tayyorlash boʻyicha amaliy faoliyatni oʻrganish va umumlashtirish natijalari shularni koʻrsatadiki, boʻljak amaliy sanʼat oʻqituvchilarini kasbiy-pedagogik kompetensiyalarini shakllantirish uchun oʻquv jarayonining modelini ishlab chiqish zarurdir.

«Model» soʻzi lotincha «*modulus*» soʻzidan kelib chiqib, «oʻlchov», «namuna» degan maʼnoni anglatadi. Bu eng muhim va kerakli xususiyatlarni aks ettiruvchi belgi yoki obʼektlar tizimidir [5, 101].

«Model» atamasi bugungi kunda koʻplab sohalarda qoʻllaniladi. Model – sunʼiy ravishda yaratilgan obʼekt deb tushuniladi, qaysiki ramziy formulalar yoki shakllar, davralar yoki jismoniy tuzilmalardan tashkil topadi. Shuningdek, u oʻrganilayotgan obʼektga oʻxshash boʻlib, uning eng oddiy, maqbul va yumaloq shaklida uning xususiyatlari, tuzilishi, munosabatlari va elementlari oʻrtasidagi aloqalarini koʻrsatadi va yaratadi [2, 11-20].

Olimlarning fikr-mulohazalari asosida biz maxsus fanlarni oʻqitish jarayonida boʻljak amaliy sanʼat oʻqituvchilarida kasbiy va pedagogik kompetensiyalarini shakllantirish jarayonining modelini ishlab chiqdik. Uning asosiy tarkibiy qismlari maqsad va vazifalar, tamoyil va mazmun, shakl va usullar, vosita va natijalardan iborat (1-rasm).

Maxsus fanlarni oʻqitish jarayonida boʻljak amaliy sanʼat oʻqituvchilarini kasbiy-pedagogik asosida biz maxsus fanlarni oʻqitish jarayonida boʻljak amaliy sanʼat oʻqituvchilarida kasbiy va

pedagogik kompetensiyalarini shakllantirish jarayonini takomillashtirish bu modeldagi tizimni shakllantirishning asosiy maqsadi hisoblanadi. Ushbu maqsadga erishish uchun muayyan vazifalar belgilandi, ularning echimi topish maqsadida bir qator nazariy yondashuv va tamoyillarni amalga oshirish nazarda tutilgan.

Pedagogikada «yondashuv» atamasi ta'lim yoki tarbiya strategiyasini belgilovchi tamoyillarning to'plami sifatida tavsiflanadi. Kasbiy pedagogikada «yondashuv» - bu o'qituvchi yoki ta'lim muassasasi rahbarining pedagogik faoliyatning muayyan tushunchalar majmuasi, g'oya va usullaridan foydalanishga turtki beradigan harakatlar yo'nalishi hisoblanadi [5, 264].

Biz qo'ygan vazifalarni hal qilish vakolatli, shaxsan yo'naltirilgan, kontekstli va harakatga yo'naltirilgan yondashuvni amalga oshirishni talab qiladi deb taxmin qildik.

Biz tomonimizdan ishlab chiqilgan bo'lajak amaliy san'at o'qituvchilarida kasbiy-pedagogik kompetensiyalarini shakllantirish modelining yana bir asosiy tarkibiy qismlaridan biri – bu ta'lim tamoyillari xisoblanadi. «Prinsip» atamasi lotincha «principium» so'zidan kelib chiqqan bo'lib, «asos, dastlabki, nazariyaning boshlang'ich xolati, ilm-fan, mashqlar» degan ma'noni anglatadi. Prinsiplar - bu asosan nazariya va fanning asosiy taxminlari bo'lib, ular har bir inson javob berishi kerak bo'lgan asosiy talablardir. Pedagogik tamoyillar – bu asosiy g'oyalar bo'lib, unga rioya etilishi pedagogik maqsadlarga erishishga yordam beradi. Oliy ma'lumotli o'quv jarayonini o'rganayotgan olimlar quyidagi didaktik prinsiplarni tanladilar:

- onglilik va faollik;
- muntazam va izchil;
- ilmiy tavsif;
- ko'rinishi;
- mahkamlik;
- mavjudlik;
- nazariya va amaliyot o'rtasidagi bog'liqlik [3, 296].

Oliy ta'lim muassasalarida malakali mutaxassislarni tayyorlashda kasbga yo'naltirish prinsipi asosiy o'rinni egallaydi. Bu tamoyilni birinchilardan joriy etgan pedagog olimlar R.A.Nizomov va A.V.Barabanshikov xisoblanadi. Shuningdek, ta'limning kasbga yo'naltirish masalalariga N.V.Kuzmina, A.A.Verbitskiy, V.A.Slastenin, S.Ya.Batshhev, A.Ya.Kudryavseva, M.I.Maxmutov va boshqalarning tadqiqotlari bag'ishlangan. Bunda ayrim olimlar kasbga yo'naltirishni umumta'lim va umumtexnik predmetlararo aloqalar shakllaridan biri deb hisoblaydi, boshqalari esa-bu shaxsning fazilatlaridan biri sifatida tan oladi [8, 115].

O'zbekiston olimlaridan N.N.Azizxodjaeva, S.Bazarova, U.Sh.Begimqulov, R.H.Djuraev, Sh.Q.Mardonov, N.A.Muslimov, U.N.Nishonaliev, N.Ortiqov, B.X.Rahimov, O'.Q.Tolipov, Sh.S.Sharipov, Sh.Shodmonova, N.G'.Egamberdieva va boshqalar bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish masalalari yuzasidan ilmiy izlanishlar olib borgan.

Kasbga yo'naltirilganlik asosida, insonning kelajak kasbiga nisbatan munosabatini ifodalovchi ehtiyojlar, qiziqish va nizomlar tizimi tushuniladi. V.V.Kuzmina, V.A.Slastenin o'z asarlarida pedagogik mutaxassisliklarga nisbatan kasbiy yo'naltirilganlik muammolarini ko'rib chiqadilar va muammolarni hal qiladilar.

Kasbiy - pedagogik kompetensiyani shakllantirish jarayonining o'ziga xos xususiyatlarini o'rganib, ushbu jarayonni amalga oshirish quyidagi prinsiplarga muvofiq amalga oshirilishi kerak deb taxmin qildik:

- kasbga yo'naltirish;
- hamkorlik faoliyatini etakchi o'ringa ko'tarish, ta'lim sub'ektlari o'rtasidagi shaxslararo o'zaro munosabatni ta'minlash (professor-o'qituvchi va talabalar, talabalar o'rtasida);
- talabaning o'quv faoliyatiga shaxs sifatida kiritilishini psixologik va pedagogik qo'llab-quvvatlash;
- ta'lim mazmuni va uni ta'limga joylashtirish jarayoni muammosi;
- kasbiy faoliyat uchun modellash orqali mashg'ulotlarga bosqichma-bosqich o'tish.

Maqsadi - bo'lajak amaliy san'at o'qituvchilarining kasbiy-pedagogik kompetensiyalarini shakllantirish.

Vazifalari:

- Amaliy san'at o'qituvchisining kasbiy faoliyatiga nisbatan ijobiy munosabatini shakllantirish va uning o'zlashtirishni zaruriyatini tushunish;
- talabalarni amaliy san'atni o'qitish nazariyasi va metodikasi hamda psixologik va pedagogik bilimlar bilan ta'minlash;
- bo'lajak amaliy san'at o'qituvchilarida, badiiy-loyihalash, ilmiy-tadqiqot ko'nikma va malakalarini ishlab chiqish;
- talabalarni kasbga yo'naltirilgan maxsus nazariy bilimlar tizimi bilan ta'minlash;
- talabalarni o'quv-kasbiy faoliyatga jalb qilish;
- talabalarni amaliy san'at o'qituvchisining kasbiy-pedagogik faoliyati mohiyati va tuzilishi hamda uni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan kasbiy-pedagogik kompetensiyalari bilan tanishtirish;
- boshlang'ich va joriy diagnostika natijalari asosida kasbiy-pedagogik kompetensiyani shakllantirish jarayonini tuzatish.

Prinsiplari:

- kasbga yo'naltirish;
- hamkorlik faoliyatini etakchi o'ringa ko'tarish, ta'lim sub'ektlari o'rtasidagi shaxslararo o'zaro munosabatni ta'minlash (professor-o'qituvchi va talabalar, talabalar o'rtasida);
- talabani o'quv faoliyatga shaxs sifatida kiritilishini psixologik va pedagogik qo'llab-quvvatlash;
- ta'lim mazmuni va uni ta'limga joylashtirish jarayoni muammosi;
- kasbiy faoliyati uchun professional modellash orqali mashg'ulotlarga bosqichma-bosqich o'tish.
- talabalarni amaliy san'at o'qituvchisining kasbiy-pedagogik faoliyati mohiyati va tuzilishi hamda uni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan kasbiy-pedagogik kompetensiyalari bilan tanishtirish;
- boshlang'ich va joriy diagnostika natijalari asosida kasbiy-pedagogik kompetensiyani shakllantirish jarayonini tuzatish.

Ishning asosiy yo'nalishlari

Nazariy tayyorgarlik:

- talabalarni umumkasbiy bilimlar qurollantirish;
- talabalar tomonidan amaliy san'atni o'qitish nazariyasi va metodikasiga oid bilimlarni egallashi;
- - talabalarni o'qituvchining kasbiy-pedagogik kompetensiyasi mazmun va mohiyati bo'yicha bilimlar bilan qurollantirish.

Uslubiy tayyorgarlik:

- talabalarda maxsus kasbiy ko'nikma va malakalarni shakllantirish; amaliy san'atni o'qitishga tayyorgarligi;
- bo'lajak o'qituvchilarni turli xil ta'lim muassasalarida amaliy san'at ustalari tajribasi bilan tanishtirish.

Amaliy tayyorgarlik:

- o'quv va kasbiy faoliyat jarayonida talabalarning nazariy bilimlarni qo'llashi;
- talabalar tomonidan pedagogik praktika davrda maqsadli o'quv-tarbiyaviy ishlarni tashkil etish;
- kelgusida kasbiy faoliyatda foydalanish maqsadida dars va darsdan tashqari mashg'ulotlar rejalarini ishlab chiqish.

«Amaliy san'at o'qituvchisining kasbiy-pedagogik kompetensiyasi» maxsus kursi

Shakllar:

ma'ruzalar; amaliy, seminar va laboratoriya mashg'ulotlari; talabalarning mustaqil ishlari; testlar va imtihonlar talabalar bilimini monitoring va baholashning bir shakli sifatida; olimpiada, ko'rgazma va konferensiyalar; kurs va diplom ishlari; ekskursiyalar; taniqli rassomlar, xalq amaliy san'ati ustalari va hunarmandlar bilan uchrashuv; to'garaklar va muammoli guruhlar; talabalar ijodiy ishlarining tanlovlari va boshqalar.

Usullari:

o'qitish;
tarbiya;
vizual
faoliyat

Qoidalar:

- umumiy;
-maxsus

Natija – bitiruvchining kasbiy-pedagogik kompetensiyalarini shakllantirishning yuqori darajasi.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, bo'lajak amaliy san'at o'qituvchilarining maxsus fanlardan nazariy va amaliy bilimlarni to'liq egallashi bu ularning kelajakda faoliyati davomida zarur bo'lgan yuqori darajadagi kasbiy-pedagogik kompetensiyaga ega ekanligini ko'rsatadi. Tahlillar shuni ko'rsatdiki, hozirgi ta'lim- tarbiya jarayonida talabalarda kasbiy-pedagogik kompetensiyalarni shakllantirish etarli darajada amalga oshirilmayotganligi ma'lum bo'ldi. Agar biz ushbu jarayonni rivojlantirsak hamda «Amaliy san'at o'qituvchisining kasbiy-pedagogik kompetensiyasi» maxsus kursini joriy qilsak, bu soha oldida echimini kutib turgan muammolarni hal qilishda alohida ahamiyat kasb etadi.

Bo'lajak amaliy san'at o'qituvchilarining kasbiy-pedagogik kompetensiyalarini shakllantirish bevosita ta'lim jarayonini tashkil etishning shakl, usul va vositalarini to'g'ri tanlashga bog'liqdir.

O'quv jarayonini tashkil etishning quyidagi shakllarini maqbul deb hisoblaymiz. Bular:

- ma'ruzalar;
- amaliy va laboratoriya mashg'ulotlari;
- talabalarining mustaqil ishi;
- testlar va kasbiy sinovlar (o'quvchilar bilimlarini nazorat qilish va baholash shaklida);
- olimpiada, ko'rgazma va konferensiyalar;
- kurs va diplom ishlari;
- ekskursiyalar;
- rassom-pedagoglar, san'atshunoslar, xalq amaliy san'ati ustalari bilan uchrashuvlar o'tkazish;
- talabalar ijodiy ishlarining tanlovlari va boshqalar.

Ta'lim berish va tarbiyalash usullari bo'lajak amaliy san'at o'qituvchilarining kasbiy-pedagogik kompetensiyalarini shakllantirish samaradorligini ta'minlashda katta ahamiyatga ega.

Pedagogikada o'qitish usullarining ko'plab tasniflari mavjud, ammo bizning o'rganishimiz uchun quyidagilarni ajratamiz:

An'anaviy usullar:

- hikoya;
- tushuntirish;
- ma'ruzalar: adabiy bo'lmagan va ilmiy (axborot, muammoli);
- suhbat (kirish so'zlashuvlari - yangi bilimlarni etkazish, sintezlash, nazorat-tuzatuvchi, intervyu);
- o'qitish tartibi;
- namoyish qilish (ko'rsatish);
- darslik va kitob bilan ishlash;
- mashq (og'zaki, yozma, grafik, o'quv);
- laboratoriya va amaliy ish [6, 234-242].

Innovatsion usullar:

a) taqlid:

- o'yinlar (tashkiliy-faoliyat, rol, biznes, didaktik);
- o'yinni loyihalash: loyihadagi asosiy faoliyat (tadqiqotli, ijodiy, rolli, amaliy va yo'naltirilgan) uchun mavzu-kontent maydoni (monoproekt va fanlararo loyiha), ishtirokchilar (yakka, juft va guruh bo'lib) soniga qarab, harakterni (ochiq va yashirin muvofiqlashtirish) muvofiqlashtirish, amalga oshirish (qisqa, o'rta va uzoq muddatli) davomiyligi;
- muayyan vaziyatlarni tahlil qilish (vaziyat-muammolar, vaziyat-baholash, vaziyat-illyustratsiya va vaziyat-mashq);

b) takrorlanmas:

- muammoli seminarlar, mavzuli munozaralar;
- muammoli ma'ruzalar;
- davra suhbatlari;
- evristik metodlar; («Aqliy hujum») [6, 243-254].

Ta'lim berish usullari buyurtma qilingan bilim, ko'nikma va malakalarning to'planishiga qaratilgan. Ular tarbiya usullaridan ajralib turadi, chunki ular o'qituvchilar va talabalar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning yo'llarini ifodalaydi. Bu jarayonda talabalarining shaxsiy fazilatlarini

rivojlanishida o'zgarishlar yuz beradi. Pedagogikada tarbiya usullarini tasniflashning turli xil variantlari mavjud. Biz quyidagi usullarni ajratishni maqsadga muvofiq deb xisoblaymiz:

- shaxsning ongini shakllantirish (hikoya, ma'ruza, tushuntirish, muhokamalar, ishonch, taklif, suhbat, ko'rsatma, bahs, munozara, misol va hokazo);
- xulq-atvor va faoliyatni rag'batlantirish (musobaqa, rag'batlantirish, jazo, tematik o'yinlar);
- ijtimoiy harakatlar tajribasini shakllantirish va tashkil etish (mashq, ko'rsatma, pedagogik talablar, jamoatchilik fikri, tarbiyaviy vaziyatlar);
- monitoring, o'z-o'zini nazorat qilish va tarbiyada o'zini-o'zi baholash (pedagogik kuzatuv, suhbatlar, psixologik so'rovnomalar) [6, 354];
- tasviriy-amaliy faoliyat usuli (tabiatdan chizish (stilizatsiya), mavzular asosida chizish, dekorativ chizma va uy-ro'zg'or buyumlarini, ma'muriy hamda maishiy binolarni naqshlash va boshqalar) [4].

Tasviriy va amaliy faoliyat usullarining asosiy maqsadi ijodiy salohiyatni rivojlantirishdan iborat. Didaktik vositalar to'g'ri loyihalangan o'quv jarayonining muhim qismidir. To'g'ri tanlangan, o'qituvchi tomonidan qo'llaniladigan usullar tizimida moxirlik bilan kiritilgan va ta'limning tashkiliy shakllari, didaktik vositalar ko'rgazmalilik prinsipini amalga oshirishga yordam beradi.

Shunday qilib, bo'lajak amaliy san'at o'qituvchilarini tayyorlash jarayonining ushbu modeliga qo'yilgan vazifalarning echimi ta'lim-tarbiyaning tanlangan shakl, metod va vositalari, barcha yuqorida ko'rsatilgan tamoyillarga rioya qilgan holda va pedagogika oliy ta'lim muassasalarining o'quv-tarbiya jarayoniga «Amaliy san'at» ta'lim yo'nalishi bo'yicha «Amaliy san'at o'qituvchisining kasbiy-pedagogik kompetensiyasi» maxsus kursi pedagoglarga o'z maqsadlariga erishishlarida imkon yaratadi. Bu esa pedagogika oliy o'quv yurtlarida bo'lajak amaliy san'at o'qituvchilarini tayyorlash tizimini takomillashishiga olib keladi hamda sifat-samaradorlikning ortganligida namoyon bo'ladi.

Adabiyotlar

1. Бегматова Р. Янгича ёндашув таълим сифатини оширувчи омил // www.journal.fledi.uz Илмий-методик электрон журнал. –Т.: 2016 №2 (10).
2. Дахин А.Н. Моделирование в педагогике / А.Н.Дахин // Идеи и идеалы. - 2010. - № 1 (3). Т. 2. - С. 11-20.
3. Подласый И.П. Педагогика: учебник для бакалавров / И. П. Подласый. - 2-е изд., перераб. и доп. - М. : Изд.-во Юрайт ; ИД Юрайт, 2012. - 574 с.
4. Ростовцев Н.Н. Методика преподавания изобразительного искусства в школе : учебник для студентов педагогических вузов / Н.Н.Ростовцев. - М. : АГАР, 2000. - 256 с.
5. Симоненко В.Д. Общая и профессиональная педагогика: учебное пособие для студентов педагогических вузов / В.Д.Симоненко. - М. : Вентана-Граф, 2005. - 368 с.
6. Сластенин В.А. Педагогика: учебник для студ. учреждений высш. проф. образования / В.А.Сластенин, И.Ф.Исаев, Е.Н.Шиянов; под ред. В.А.Сластенина. - 10-е изд., перераб. - М. : Академия, 2011. - 608 с.
7. Терентьева Т.П. Модель процесса формирования профессионально-педагогической компетентности у будущих учителей изобразительного искусства в процессе изучения специальных дисциплин Вестник ЧГПУ им. И.Я.Яковлева. 2013. № 3 (79) - С.156-162.
8. Худякова Г.И. Системообразующая роль принципа профессиональной направленности в обучении математике / Г.И.Худякова // Ярославский педагогический вестник. - 2009. - № 4 (61) (Психолого-педагогические науки). - С. 115-119.

UDK: 159.9.019

**BOLA SHAXSIDA REFLEKSIVLIK XUSUSIYATINI RIVOJLANTIRISHDA
OILAVIY TARBIYANING O'RNI****N.I. Xalilova***Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti*E-mail: xalilova_1979@mail.ru

Annonatsiya. Maqolada bola shaxsida refleksivlik xususiyatini rivojlantirishda oilaviy tarbiya uslublarining o'rni, maqsad va vazifalari yoritilgan. Shuningdek, oilaviy tarbiyaning o'ziga xosligi hamda bola shaxsini kamol topishi haqidagi g'oyalar ilgari surilgan va refleksivlikning rivojlanish xususiyatlari asosli ravishda tahlil qilib berilgan.

Kalit so'zlar: refleksivlik, oilaviy tarbiya uslubi, tarbiya, giperkompesasiya, o'smirlik davri, radial yondashuv, nuklear yondashuv, strukturaviy daraja.

Роль семейного воспитания в развитии рефлексивных свойств у личности ребенка

Аннотация. В статье освещена роль семейного воспитания в развитии рефлексивных свойств у личности ребенка, ее цели и задачи. А также анализируются своеобразности семейного воспитания и идеи достижения совершенства личности ребенка, свойства развития рефлексивности.

Ключевые слова: рефлексивность, стиль семейного воспитания, воспитание, подростковый период, радиальный подход, нуклеарный подход, структурная степень.

**The role of family education in development of reflexive properties
in the identity of the child**

Abstract. In the article the role of family education in development reflexive properties at the identity of the child is considered. Also originality of family education and the idea about achievements of perfection of the identity of the child, property of development of reflexivity are analyzed.

Keywords: reflexivity, style of family education, education, teenage period, radial approach, nuclear approach, structural degree.

Ma'lumki, oila ijtimoiylashuv institut sifatida shaxs psixik taraqqiyotida muhim rol o'ynaydi. Shu nuqtai nazardan olganda oilaviy munosabatlar, shaxs shakllanishi va rivojlanishida oiladagi psixologik muhitning ahamiyati haqida ko'pgina maxsus ilmiy tadqiqot ishlari olib borilgan. Mazkur sohaga doir ilmiy tadqiqot natijalarining xulosalarini tahlil qilish asosida oilaning shaxs taraqqiyotiga ta'sirini ko'rsatib beruvchi qator yo'nalishlarini ajratib ko'rsatish mumkin. Qoidaga binoan, shaxs psixik taraqqiyotida oilaning ahamiyati haqida fikr yuritilganda aynan uning ta'siriga oid natijalarga asosiy e'tibor qaratilgan tadqiqotlarni uchratishimiz mumkin. Shu bois, maqolamiz orqali psixik taraqqiyotda oilaning yetakchi rolini tushunishga qaratilgan asosiy yondashuvning samaradorligi va refleksivlik rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlarini tahlil qilishni asoslash haqidagi ilgari surilgan g'oyaning o'ziga xos jihatlari ochib berishga harakat qilamiz.

Mutaxassislarining ta'kidlashicha, oilaviy tarbiya uslubi boshqa ota-onalik ta'sir komponentlariga qaraganda bola shaxsining rivojlanishi va taraqqiyotida muhim ahamiyat kasb etadi. Bizga ma'lumki, oilaviy tarbiya uslubining turli klassifikatsiyalari mavjud. Xususan, professor V.M.Karimova tomonidan nashr qilingan "Oilaviy hayot psixologiyasi" nomli o'quv qo'llanmasida oilaviy tarbiyaning quyidagi turlari proteksiya, giperproteksiya, erkalanib g'amxo'rlik ko'rsatishga asoslangan giperproteksiya, ortiqcha g'amxo'rlikka asoslangan giperproteksiya, o'ta kuchli axloqiy mas'uliyat, emosional raddiya, qattiqqo'llik, gipoproteksiya, ziddiyatli tarbiya kabi turlari ko'rsatiladi [4, 106-116 b]. Ayniqsa, oilaviy tarbiya uslubining muayyan turlarini ajratish orqali tadqiqotchilar oilaviy tarbiyaning shaxs taraqqiyotidagi o'rnini ochib berganlar. A.I.Yegorova va I.V.Yegorovlar tomonidan olib borilgan tadqiqotining korrelyasion tahlili natijalari asosida o'spirinlik davrida infantil xususiyatlarini rivojlanishiga xavf soluvchi omillar qatoriga giperproteksiya va haddan tashqari g'amxo'rlik qilishdek oilaviy tarbiya uslubini nouyg'un tarzda qo'llanilishidir [3, c-137]. Shuningdek, L.B.Vyatkinaning tadqiqotlarini ko'rsatishicha, "haddan tashqari giperproteksiya"ga asoslangan tarbiya uslubi intellekt, samimiylik, muloqotchanlik kabi shaxs xususiyatlari bilan o'zaro bog'liqligi

ko'rsatiladi [2, c-445]. Ta'kidlash joizki, A.V.Barsukovning dissertasion tadqiqotlarida agressiv xulq-atvorli o'smirlarning oilalarida haddan tashqari g'amxo'rlik, avtoritarlik uslubi ustunlik qilib, ota-ona munosabatlarida rad etish va betartiblik kuzatilishi aniqlangan. Ayniqsa, oilada bola tarbiyasini o'rganish borasida tadqiqot olib borayotgan olimlardan O.S.Kovshova, D.V.Poresova, I.A.Poxomovalar tomonidan oilaviy tarbiya uslubining bola psixik taraqqiyotiga ta'sir xususiyatlarini o'rganish orqali haddan tashqari g'amxo'rlikka asoslangan giperproteksiya shaxsdagi gipertim shaxs xususiyatlarini rivojlanishiga ta'sir qilishini va giperproteksiyaning ustunligi - qaysarlik, qarama-qarshiliklarga moyillik, emosional rad etish – realistlik, sabrsizlik va axloqiy mas'uliyatlilik, majburiyatlarning shakllanishiga olib kelishini aniqlaganlar [5, c-436]. Shuningdek, soha vakillari tomonidan olib borilgan tadqiqot ishlarida qator o'zgaruvchilarga e'tibor qaratganlar: giper g'amxo'rlik, kemtiklik kompleksini shakllanishiga va o'z-o'ziga bahoning past bo'lishiga olib keladi, haddan tashqari qattiq talablar tobeklik psixologiyasini rivojlanishiga yoki boshqalar ustidan ayovsiz boshqarishga intilish, aybdorlik hissi, ota-onalar tomonidan emosional reaksiyalarning noaniqligi bolada o'ziga ishonchsizlik, ba'zida psixik taraqqiyotda ortda qolish, bolada ma'naviy soha rivojlanmasligi, iroda kuchini sust darajada namoyon bo'lishi, giperproteksiya asosiallik, betkrorlikni shakllanishiga olib keladi. Giperproteksiyaning ustunligi mustaqillik va tashkilotchilikning rivojlanishiga to'sqinlik qiladi, haddan tashqari g'amxo'rlikka asoslangan giperproteksiya negativ emosiyalardan qo'zg'aluvchanlik, muloqotdagi qiyinchiliklar, emosional rad etish qattiqqo'llik, muloqotdagi qiyinchiliklarga olib keladi [1, c-188].

Ma'lumki, fanda bir muammoni hal etishga qaratilgan turfa xil yondashuvlarni mavjud bo'lishi tabiiy hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan olganda, tadqiqotda qo'llanilgan radial yondashuv deb nomlangan yo'nalish oilaviy tarbiya uslubini alohida psixik tarkibi rivojlanishdagi rolini tahlil qilish uning ta'sir tizimi va mexanizmini tushunish imkoniyatini kamaytiradi. Xususi yondashuvlarda o'rganish predmeti ayrim psixik xususiyatlar va oilaviy tarbiya uslubi orasidagi o'zaro aloqa ta'siri kuchadi va global ahamiyatga ega bo'lgan tizimlashtirilgan ta'lim diqqat markazidan chetda qolib ketadi. Odatda tadqiqotchilar hodisalar o'rtasidagi aloqadorlikni aniqlash va tahlil qilish uchun ayrim psixologik xususiyatlar va oilaviy tarbiya o'rtasidagi ahamiyatli bog'liqlik aniqlagandan so'ng ta'lim tizimiga murojaat qilmoqdalar. Asosiy yondashuvlarda global psixologik omillar aksincha, tayanch nuqta sifatida yetakchi o'ringa chiqadi.

Shunga muvofiq shartli ravishda nuklear (lotina "nukleus" – yadro degani) deb nomlangan yondashuv oilaviy tarbiya tipini alohida psixologik sifatlarga emas, balki, qator xususi xulosalarni shakllantirish imkonini beruvchi tuzilmani rivojlanishiga ta'sirini o'rganadi. Refleksivlik rivojlanishini ilmiy o'rganish, ayniqsa, kamchiliklar qanday paydo bo'lishi va shakllanishi nuklear yondashuvni realizasiyalashning asosiy mazmunidan biridir.

Qoidaga binoan tadqiqotchilar refleksivlikni serqirra xususiyat deb biladilar hamda refleksivlik orqali shaxs biror-bir tirik mavjudotda bo'lmagan – anglash qobiliyati, ya'ni "o'zini o'zi anglash qobiliyati" ni tushunadi [5, c-45]. Refleksivlik shaxs xususiyati sifatida o'z shaxsiy psixikasi mazmunini idrok qilish qobiliyati va uni tahlil qilish, shuningdek, o'z meni haqidagi tasavvurlari orqali boshqalarning psixikasini tushunish qobiliyati sifatida namoyon bo'ladi. Xulq-atvor darajasida refleksivlik subyekt o'zining joriy faoliyatini doimiyligida, aniq hayotiy vaziyatlarda o'zini o'zi tahlil qilishda, shaxsiy xulq-atvorini detallarigacha rejalashtirishda, kelajakka munosabatda va kelajakka yo'nalganlikda namoyon bo'ladi. Keltirilgan fikrlarga asoslangan holda refleksivlik oilaviy tarbiya uslublari va bola shaxsining alohida xususiyatlari o'zaro aloqasi nazariy asosga egadir. Mutaxassislar refleksivlikni psixikaning kognitiv tuzilishiga kiruvchi va barcha tizimlar uchun boshqarish funksiyasini bajaruvchi metaqobiliyat sifatida ko'rib chiqqanlar [5, c-67]. Boshqa tomondan oilaviy tarbiya uslubini shaxsning alohida xususiyatlarini rivojlanishiga ta'sirini o'rganuvchi qator tadqiqotlar shaxs taraqqiyotidagi jadallashganlik yoki aksincha susayishi refleksivlik rivojlanganligining ijobiy va sustligi bilan bog'liq bo'lishi mumkinligi haqidagi fikrni ilgari surganlar. A.I.Yegorova va I.V.Yegorovlarning yuqorida ta'kidlab o'tilgan tadqiqotlarida keltirilganidek, infantilizm noturg'un oilaviy tarbiya natijasi bo'lib, refleksivlik sust rivojlangan bo'ladi [3, c-137]. Shuningdek, O.V.Udovanning dissertasion tadqiqotida keltirilishicha, bolalardagi refleksiya ota-onalarning bola shaxsini qabul qilishi, qisman qabul qilishi va qabul qilmaslik munosabati va ota-onalik munosabatlari tipiga bog'liq bo'ladi. Ayniqsa, maxsus tadqiqotlarda refleksivlik yopiq tipdagi ta'lim muassasalari o'quvchilariga qaraganda umumta'lim maktabi o'quvchilarida yaxshiroq rivojlangan bo'ladi [6, 68 b].

Yuqoridagilarga asoslangan holda shunday xulosa qilish mumkinki, oilaviy tarbiya tizimi yopiq tipdagi ta'lim muassasasi sharoitlariga yaqin bo'lgani bois, refleksivlikni shakllanishiga salbiy ta'sir etadi.

Umuman olganda, nazariy-tahliliy ma'lumotlarga asoslanib, quyidagi xulosalarni shakllantirishga asos bo'ladi:

1. Oilaning bola psixik taraqqiyotidagi ahamiyatini baholashga qaratilgan ko'pgina tadqiqotlarda radial yondashuv ustunlik qiladi. Bunda asosiy e'tibor oila omili bo'lib, u yoki bu alohida psixologik xususiyatlarning past tuzilishli darajada rivojlanishida namoyon bo'ladi.

2. Radial yondashuv oila omili va shaxs psixik taraqqiyoti o'rtasidagi to'g'ridan-to'g'ri o'zaro aloqani aniqlashga yordam beradi, lekin ushbu munosabatlarning umumiy, ya'ni oilaning psixologik ta'sir mexanizmini tahlil qilishda muhim rol o'ynaydigan omillar e'tibordan chetda qoladi.

3. Ilmiy (nuklear) yondashuv oilaviy tarbiya xususiyatlari va muhim ahamiyatga ega bo'lgan tuzilmalar orasidagi bog'liqlikni birlamchi yagona tahlil qilish bola psixik taraqqiyotiga oila omilining ta'sirini uzviyligi va tizimlilikini ta'minlashga keng imkoniyat yaratadi.

4. Psixik xususiyatlar umumiy tuzilmasida refleksivlikning o'zaro munosabatlardagi o'rni va tizimi refleksivlikning markaziy birlik sifatida ko'rib chiqib, ushbu serqirra xususiyat ilmiy tahliliy asos bo'luvchi nuklear yondashuv deb nomlanadi.

Adabiyotlar

1. Барсуков, А.В. Влияние типов семейного воспитания на формирование самооотношения у подростков с асоциальным поведением: автореф. дис. ... к.психол.н. /А.В.Барсуков-Нижний Новгород: Нижегородский государственный педагогический университет, 2011.-21с.
2. Вяткина, Л.Б. Особенности психического развития детей старшего дошкольного возраста, воспитывающихся в неполной/полной семье //Л.Б.Вяткина //Фундаментальные исследования №10, 2013.-С.442-445.
3. Егорова А.И. Исследование риска развития инфантильных черт в юношеском возрасте /А.И.Егорова, И.В.Егоров// Вестник ПСТГУ IV: Педагогика. Психология. 2013.-Вып. 3 (30).-С.12-138.
4. Каримова В.М. Oilaviy haёт psixologiyasi Ўқув қўлланмаси-Т., 2006.-142 б
5. Овчарова, Р.В. Родительство как психологический феномен: учебное пособие / Р.В.Овчарова,- М.: Московский психолого-социальный институт, 2006.-496с.
6. Рассудова, Л.А. Уровень развития рефлексивности учащихся образовательных учреждений закрытого типа //Л.С.Рассудова// Психопедагогика в правоохранительных органах, 2013, №1.-С.67-69.

УДК: 37.035.6

ПРОБЛЕМЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ ФОРМИРОВАНИЯ КРЕАТИВНОГО МЫШЛЕНИЯ В РАННЕМ ШКОЛЬНОМ ВОЗРАСТЕ

Р. Мусинова

Самаркандский государственный университет

Аннотация. В статье рассматриваются теоретические основы креативного мышления, определяется его актуальность в системе современного образования в республике, выделяются его основные характеристики. На основе изучения теоретических источников и анализа психологического процесса в школе определяются ключевые условия оптимального осуществления формирования креативности. Рассматривается специфика национального воспитания в младших классах. Подводятся итоги проведенного анкетирования по проблемам организации креативности в начальной школе. Полученные результаты систематизированы и представлены в обобщенной форме, позволяющей конкретизировать актуальные проблемы креативного мышления.

Ключевые слова: младший школьный возраст, креативность, мышление, личность.

Kichik maktab yoshida kreativ fikr yuritishni shakllantrish muommalari va istiqbollari

Annotatsiya. Maqolada kreativ fikr yuritishning nazariy asoslari, respublikamizning zamonaviy ta'lim tizimida uning dolzarbligi, asosiy xususiyatlari ko'rib chiqilgan. Nazariy manbalarni tadqiq qilish va maktabda psixologik jarayonni tahlil qilish natijasida milliy tarbiyani kreativlik ruxida amalga oshirishning optimal shartlari aniqlangan. Kichik maktab yoshi davrida o'ziga xosligi ko'rib chiqilgan. Boshlang'ich sinfda ushbu muammolarga bag'ishlangan anketa so'rovlari yakunlari umumlashtirilgan. Qo'lga kiritilgan natijalar kreativlik dolzarb masalalarini aniqlashtirish imkonini beradigan holatda tizimlashtirilgan va umumiy shaklga keltirilgan.

Kalit so'zlar: kichik maktab yoshi, kreativlik, fikr yuritish, shaxs. maktab o'quvchisi shaxsi.

Problems and perspectives for the formation of creative thinking in primary schools

Abstract: The article considers theoretical bases of national creative thinking, is determined by its relevance in the modern educational system in the Republic of Uzbekistan, highlighted its main features. On the basis of theoretical sources and the analysis of the psychological process at school identifies key conditions for optimal implementation of national education creativity spirit. Specifics of formation in the lower grades. Summarizes the results of the survey on the organization of creativity in primary school. The obtained results are systematized and presented in an aggregate form, allowing you to flesh out actual problems of creativity thinking.

Keywords: primary school age, creativity, thinking, the identity of the younger school student.

Получение Узбекистаном статуса независимого государства стало ключевым моментом в решении путей и перспектив развития всего общества. Сегодня, по прошествии двух десятков лет, мы можем с уверенностью сказать, что реформы были начаты своевременно и осуществляются планомерно и эффективно. Одной из ключевых задач независимого Узбекистана стало создание национальной модели образования, учитывающей как социально-экономические потребности республики, так и ряд сложных, взаимосвязанных факторов – полиэтничность и поликонфессиональность состава населения, численное преобладание молодого поколения над старшим, разрушение старой идеологии и сложившейся как индивидуальной, так и общественной системы ценностей и др. Как отметил первый Президент Республики Узбекистан И. А. Каримов, «будущее нашего народа прежде всего зависит от него самого, от духовной энергии и творческой силы его национального сознания. Естественное стремление к материальному благополучию не должно заслонить необходимость духовного и интеллектуального роста нации. Духовность и просвещенность всегда были самыми сильными отличительными чертами нашего народа на всем протяжении его многовековой истории» (1).

Разработанная и применяемая ныне в образовательных учреждениях республики система воспитания основывается не только на упомянутых ценностях, но и на сформированной в первые годы независимости национальной идее – таким образом, открываются перспективы повышения воспитательных возможностей системы образования, принципиального обновления содержания воспитания, интеграции воспитательного и учебного процессов.

Однако сегодня мы обязаны принимать во внимание и внешние вызовы – при этом, особо подчеркнем, речь идет не только о религиозном экстремизме или терроризме, но, в первую очередь, о процессах глобализации, способствующих формированию у человека технократического мировоззрения, потребительского отношения к окружающему миру. Именно эти проблемы служат причиной, например, снижения духовно-нравственного потенциала человека. Игнорирование национальной самобытности, психологии, менталитета, отход от истоков национально-культурных ценностей или же их подмена формами космополитизма и псевдокультуры приведет к моральной деградации человека, росту его нестабильности в поведении, агрессивности по отношению к окружающему миру, падению его духовно-нравственного потенциала. В этих условиях национальное воспитание является своеобразным гарантом устойчивого успешного развития общества каждой из стран.

Проведенный нами анализ научной и методической литературы, посвященной тематике креативности в Узбекистане (М. Куронова, О. Мусурмонова, Э. Гозиев, Б. Кадилова, Б. Умарова, Д. Мухаммедовой и др.) показал, что в настоящий момент наиболее четко и последовательно разработаны общие теоретические вопросы рассматриваемой нами

проблематики. Так, в частности, М. Куронов, определил содержание понятия «национальное воспитание» как многоаспектное и включил в него следующие толкования:

- «- целенаправленная воспитательная деятельность на основе национальных ценностей;
- общечеловеческое воспитание в форме, оптимально подходящей для каждого из народов;
- средство сохранения, возрождения и развития народа и его культуры;
- составная часть цели, задач и направлений Национальной программы подготовки кадров;
- источник духовного развития детей разных национальностей;
- воспитание культуры межнационального воспитания, путь и средство достижения общегражданского согласия;
- педагогическое условие подъема социальной педагогики и школьной педагогики...» [3,6].

Из приведенной цитаты очевидно, что школа должна стать главным участником национального воспитания. Для того, чтобы такое направление воспитания было наиболее эффективно организовано, нужно учесть множество факторов – уровень развития воспитательной системы школы; готовность педагога к ведению воспитательной работы; цели и содержание воспитания с учетом национальных целей, ментальных особенностей; учет современных прогрессивных педагогических течений, инноваций. Именно, как отмечает Ирисбаева М.Н., «интеграция национального и современного может дать ту результативность, которую ожидают в обществе. Совокупность этих объективных факторов в плюсе с условиями, целями, способами педагогического процесса, при котором также должны учитываться личность обучаемого, его семейные и национальные, порой метальные морально-этические, духовные ценности, желания, интересы, социальный заказ, его образовательные потребности и возможность их реализовать. Интеграция национального и общемирового в процессе обучения может стать основой повышения эффективности данного процесса и максимального достижения педагогической цели» [2,134-135].

Таким образом, в числе ключевых условий оптимального осуществления национального воспитания в школе можно назвать:

1. Наличие четкой и научно обоснованной концепции воспитания;
2. Наличие и активное развитие воспитательной системы школы (класса).
3. Достаточный уровень профессиональной и личностной готовности педагогов к ведению национального воспитания.
4. Внедрение новшеств и оптимальных методов и средств, учитывающие возрастные, индивидуальные и иные особенности учеников в процесс национального воспитания.

Каким должно быть рассматриваемое нами направление воспитания в начальной школе? И на каком уровне оно осуществляется в настоящий момент? Эти два ключевых вопроса составляют суть нашей статьи.

Младший школьный возраст характеризуется рядом специфических черт, формирующихся и развивающихся в личности воспитанника в данный период - впечатлительность и эмоциональность ребёнка, его открытость и готовность к познанию нового, высокий авторитет учителя, стремление занять социально значимую позицию, ориентация на социальные нормы. Таким образом, данные характеристики создают благоприятные предпосылки приобщения ребенка к национальным ценностям, к воспитанию у него патриотизма, культуры межнационального общения. Вместе с тем проводимая в этот период работа по национальному воспитанию ни в какой степени не может быть формальной, выполняемой по единому, общему «трафарету». В обязательном порядке должно быть принято во внимание, что в период начального обучения у ребенка формируется этническая идентичность, четче, явственнее проявляются проблемы личностного развития. Следовательно, в младших классах должен быть осуществлен комплексный, лично ориентированный подход к национальному воспитанию, основанный на принципах культуросообразности и этничности.

В процессе своего становления этническая идентичность проходит ряд этапов, соотносимых с этапами психического развития ребенка. Одним из первых концепцию развития у ребенка осознания принадлежности к национальной группе предложил Ж.Пиаже, который в 1951 году представил этническую идентичность как двухсторонний процесс – с одной стороны, формируется понятие «родина», с другой – образ «других стран/иностранцев». По мнению

ученого, «этнические чувства, являются своего рода ответом на знания об этнических явлениях. Пиаже выделил три этапа в формировании этнической идентичности:

1) в 6–7 лет ребенок приобретает первые – фрагментарные и несистематичные – знания о своей этнической принадлежности. В этом возрасте наиболее значимыми для него являются семья и непосредственное социальное окружение, а не страна и этническая группа;

2) в 8–9 лет ребенок уже четко идентифицирует себя со своей этнической группой, выдвигает основания идентификации – национальность родителей, место проживания, родной язык. Просыпаются национальные чувства;

3) в младшем подростковом возрасте (10–11 лет) этническая идентичность формируется в полном объеме, в качестве особенностей разных народов ребенок отмечает уникальность истории, специфику традиционной бытовой культуры» [5, 238-239].

Основываясь на рассмотренной теории Ж. Пиаже и учитывая многонациональный состав учащихся общеобразовательных школ СНГ, становится очевидно, что унификация процесса национального воспитания возможна лишь частично. Особо сложной нам представляется работа в русскоязычных начальных классах – педагогу необходимо владеть знаниями основ нескольких культур (например, русской, узбекской, армянской), иметь четкие представления о воспитательном потенциале народной педагогики, уметь выбирать оптимальные формы, методы и средства формирования как этнической идентичности, так и культуры межнационального общения. Другими словами, педагогу необходимо создать особую воспитательную систему. Более современное для общества. Креативность может играть положительную роль в повседневной жизни каждого человека, например, помогая разрешать проблемы в отношениях с другими людьми, встречающиеся в эмоциональной и профессиональной жизни. Насколько качественно в начальной школе республики, с позиции соблюдения рассмотренных требований, проводится национальное воспитание? В чем заключаются основные проблемы данного направления воспитания?

Ключевым понятием для определения уровня эффективности осуществления национального воспитания, по нашему мнению, является наличие воспитательной системы, служащей определенному рода гарантией успешного развития каждого воспитанника. Однако, как показывает проведенное нами (М.Р) исследование [4], если наличие воспитательной системы в конкретной школе признается педагогом, то на формальном уровне. Кроме того, было выявлено у большинства участников анкетирования «аморфное представление о сути воспитательной системы и отличии ее от системы воспитания, затрудненное толкование понятия «концепция воспитания» [4,80]. Учитывая приведенные результаты и понимая необходимость дальнейших исследований в этом направлении, а также подводя итог нашим собственным наблюдениям за педагогическим процессом в начальной школе, можно сделать вывод, что национальное воспитание в современной школе Узбекистане проводится на уровне внешней инициативы, в основном, с применением классического методического инструментария, внедрение нововведений и технологического подхода в креативный воспитательный процесс. Кроме того, недостаточно учитываются индивидуальные и этнические особенности воспитанников, практически не применяются методы диагностики воспитанности. Для более точного определения проблем организации национального воспитания в школах г. Самарканда, мы составили анкету для учителей начальных классов с русским и узбекским языками обучения. В анкетировании приняли участие 30 педагогов - как с большим педагогическим стажем, так и молодых специалистов.

Анкета включала в себя пять вопросов:

1. Что Вы понимаете под формированием в креативности ?
2. Какие методы Вы используете в формировании в раннем школьном возрасте Вашем классе? Применяете ли нетрадиционные формы (креативность) и методы национального воспитания?
3. Учитываете ли Вы индивидуальные, национальные особенности учеников в процессе формирования?
4. Как определяете, проводя национальное формирование, уровень воспитанности Ваших воспитанников?
5. Какие трудности у Вас возникают при организации креативном формировании в Вашем классе (нехватка методической, наглядной литературы и проч.)

Результаты исследования показали, что национальное воспитание трактуется всеми участниками примерно одинаково – приобщение воспитанников к обычаям и традициям, национальным ценностям Узбекистана, ознакомление с историей края. Методы преобладали у педагогов словесные – беседы, рассказы и проч., формы проведения национального воспитания также не отличались оригинальностью – учителя отмечали, что национальное воспитание не выделяется в отдельное направление в воспитательной работе, а присутствует чаще всего дополнительным элементом в организации всего процесса воспитания. Индивидуальные и национальные особенности учеников учитываются недостаточно, многие (10 чел.) посчитали нецелесообразным принимать во внимание национальность ученика. Уровень воспитанности определялся большинством участников анкетирования (15 человек) методом наблюдения или беседы, диагностические методики практически никем не используются. Пятый вопрос был интересен для педагогов, работающих в русскоязычных классах – они сообщили, что им доступно крайне мало методической литературы на русском языке, не достаточно наглядности (в частности, трудно найти соответствующие видеоматериалы), а учителя из классов с узбекским языком обучения высказали пожелание расширить список великих людей Узбекистана, включив в него известных деятелей XX века.

Таким образом, наше исследование показывает, что в настоящее время национальное воспитание является неотъемлемой составной частью воспитательного процесса в школе, а, учитывая специфику развития личности ребенка младшего дошкольного возраста, приобретает особое значение в начальных классах. Поэтому не даром во всем мире на первый план выходит проблема развития одаренности, это феномен охота за мозгами которая становится креативностью и служит в воспитание. Творчество основано на сотрудничестве интуитивный и логических процессов. Интуиция позволяет открывать новые идеи, а логика- оформлять их. Недаром живописцы иногда говорят, что стремятся дать волю своей руке. Анализ воспитательного процесса в младших классах и итоги анкетирования привели нас к выводу, что накопился ряд проблем в рассматриваемой области воспитательного процесса, требующий тщательного исследования и продуманного пересмотра. Национальное воспитание в современной школе должно иметь четко поставленные, диагностические цели; обновленное содержание воспитания (с учетом потребностей, индивидуальных и этнических особенностей развития ребенка); современный методический инструментарий и всестороннюю методическую поддержку деятельности педагога. Креативность позволяет открывать новые идеи, а логика-оформлять их.

Литература

1. Каримов. И.А. Узбекистан на пороге XXI века: угрозы безопасности, условия и гарантии прогресса. – Т.: Маънавият, 1997
2. Ирисбаева М.Н. Педагогические технологии: интеграция национальных и современных традиций [Текст] // Актуальные вопросы современной педагогики: материалы междунар. науч. конф. (г. Уфа, июнь 2011 г.). — Уфа: Лето, 2011. — С. 134-136.
3. Куронов, Мухаммад. Миллий тарбия/М. Куронов. Республика маънавият ва маърифат кенгаши. Миллий гоя ва мафкура илмий-амалий маркази. — Т.: Маънавият, 2007.- 240 б.
4. Наумова Е.С., Проблемы организации воспитательной работы в современной общеобразовательной школе в Узбекистане//Психология. № 1, 2014. сс. 76-81
5. Стефаненко. Этнопсихология: Учебник для вузов/ Т. Г. Стефаненко. – 4-е изд., испр. и доп. – М.: Аспект Пресс, 2006
6. Ильин. Е. П. Психология творчества креативности одаренности.-Питер;СПб.;2009.
7. Ludwig. A.M./ /Culture and creativity, American Journal of Psychotherapy, 46(3), 469.

UDK: 616.89(075.8)

PSIXOLOGIK HIMOYA KONSEPTI: NAZARIY TAHLILNING IJTIMOYIY-PSIXOLOGIK BAYONI**S.R. Sadriddinov***A. Avloniy nomidagi xalq ta'limi tizimi rahbarlari va mutaxassis xodimlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti*E-mail: Suxrob15155@mail.ru

Annotatsiya: Psixologik himoya, shaxsdagi ruhiy halovatsizlikni bartaraf etish uchun xizmat qilib, bazaviy va orttirilgan psixologik himoya kabi turlarga bo'linadi. Psixologik himoya aniq xulq namunasida ifodalanib, uni mazmunini sub'ektning psixologik madaniyati va hayotiy tajribasi hamda barqaror ijtimoiy moslashuv ta'minlaydi.

Kalit so'zlar: psixologik himoya, ma'naviy dunyo, xulq namunasi, psixologik madaniyat, psixologik himoya turlari, nazariy tasnif, shaxs, "Men"- konsepsiyasi, psixologik diskomfort, ehtiyoj, hayotiy tajriba, vaziyat.

Концепт психологическая защита: социально-психологическое изложение теоретического анализа

Аннотация: Психологическая защита служит для преодоления психологического дискомфорта личности и делится, на базовые и приобретенные психологические защиты. Психологическая защита проявляется в определенной форме поведения, и его сущность определяется наличием психологической культуры и жизненным опытом, в том числе благополучной социализацией субъекта.

Ключевые слова: психологическая защита, духовный мир, модель поведения, психологическая культура, формы психологической защиты, теоретическая классификация, личность, "Я"-концепция, психологический дискомфорт, ситуация.

Concept psychological defense: socio-psychological presentation of theoretical analysis

Abstract: Psychological protection serves to overcome the psychological discomfort of the individual and is divided into basic and acquired psychological defenses. Psychological protection manifests itself in a certain form of behavior, and its essence is determined by the presence of psychological culture and life experience, including the successful socialization of the subject.

Keywords: psychological defense, spiritual world, behavior model, psychological culture, forms of psychological defense, theoretical classification, personality, "I" -concept, psychological discomfort, situation.

Psixologik himoya mavzusining nazariy va amaliy jihatdan dolzarblashuvi shaxsiy, maishiy, ijtimoiy, madaniy, iqtisodiy kabi omillarga bog'liqdir. Chunki psixologik himoya, shaxsni ma'naviy dunyosi bilan psixologik holatiga moslashuvini ta'minlaydi. Shaxsning ma'naviy dunyosi (mikrokosmos sifatida) gipermurakkab ijtimoiy-psixologik tizim hisoblanib, teolog va faylasuf G.Skovorodaning "Uch dunyo" [9] konsepsiyasida shaxs – mikrokosmos tarzida tasvirlanib, undagi psixologik xossalari funksional aloqadorligi jihatdan talqin etiladi. Fikrimizcha, shaxsning ma'naviy dunyosi murakkab tuzulishga ega bo'lib, uning asosiy funksional elementlari quyidagilar hisoblanadi:

- shaxsning ma'naviy ehtiyojlari;
- shaxsning insoniyat, tabiat, jamoa va jamiyat haqida bilimlari;
- shaxsning ishonchi (uning haqqoniyligi) haqidagi tushunchalari;
- shaxsning faoliyatida namoyon bo'ladigan e'tiqodi;
- shaxsning (o'ziga, dunyoga, tabiatga, yaqinlari va kasbga bo'lgan munosabati zamirida ifodalanadigan) individual qadriyatlarini;
- shaxsning (biron bir ijtimoiy faoliyat bilan shug'ullanishiga bo'lgan intilishlarining asosini tashkil etuvchi) layoqati (kompetensiyasi);
- shaxsning (o'z oldiga qo'yadigan) maqsadi.

Shaxsning ma'naviy dunyosining asosiy elementlari, aniq vazifalarni bajarib, uning funksional holatining barqaror kechishini ta'minlash sharti hisoblanadi. Shu sababli, individual ma'naviyatni shakllantirish mavzusi barcha davru zamonlarda dolzarb psixologik masala sifatida o'z mohiyatini

yo'qotmasdan kelmoqda. Badiiy adabiyot, san'at, kino va teatr kabi madaniy institutlar ma'naviyatni shakllantiruvchi hamda rivojlantiruvchi vosita hisoblanadi. Prezidentimiz Sh.Mirziyoevning rahnamoligida mamlakatimizda Kitobxonlik madaniyatini oshirish [2] va 2017 yilning 1 sentyabr kuni "Hazrati Imom" majmuasiga qilgan tashriflari chog'ida Qur'on musobaqasini dastlab tuman, shahar va viloyat bosqichini so'ngra Respublika bosqichini o'tkazish bo'yicha bergan ko'rsatmalari [16] asosida amalga oshirilgan harakatlar zamirida milliy ma'naviyatni rivojlantirishga qaratilgan milliy manfaatlarini himoya etish g'oyasi mujassamlashgan.

Psixologik himoya esa, funktsionalligi jihatidan shaxsning ma'naviy dunyosini ijtimoiy muhit bilan moslashuvini ta'minlashda amal qilib, gohida psixologik himoya mexanizmidagi elementlarning ziddiyati natijasi ularoq, psixologik himoya ijtimoiy dezadaptatsiyaning sababi ham bo'lishi mumkin. T.Tulupeva ilk o'spirinlarda psixologik himoyaning ifodalanishini empirik tarzda o'rganib, ilk o'spirin yoshdagi o'g'il va qiz bolalar shaxsida psixologik himoya mexanizmidagi elementlarning ziddiyati ifodalanganda, ularda assotsial xulq namunalari mujassamlashib, ular turli destruktiv guruhlarining a'zosiga aylanishi mumkinligini ko'rsatib o'tgan [15]. Psixologik himoya genezisini o'rganib kelayotgan R.Granovskaya "psixologik himoya (destruktiv psixologik himoya - S.S.) mexanizmining umumiy ko'rinishi, bu shaxsning vujudga kelgan vaziyat yoki paydo bo'lgan muammoni samarali bartaraf etishga qaratilgan faoliyatini (faoliyatdan bosh tortishdir-S.S.) inkor qilishidir" [4].

Psixologik himoya ifodalanishi jihatidan agressiv va pozitiv turlarga bo'linib, bunda hissiyotlarni, ehtiyojlarni, qiziqishlarni ichki va tashqi tahdidlardan himoya etish nazarda tutiladi. Bizningcha, shaxsiy darajada psixologik himoya deganda, shaxsni ichki va tashqi tahdidlarning ta'sirini minimal darajada kamaytirib, psixologik barqarorlikni ta'minlovchi, joriy psixologik holatni muvozanatga keltiruvchi maxsus regulativ tizimni tushunish lozim. Tahdid (تحديد) arab tilidan olingan bo'lib, qo'rqitish, shoshiltirib qo'yish degan ma'nolarni anglatadi. Mazkur kontekstda ichki tahdidlarga, xavotirlanish, qo'rquv, salbiy kechinmalarni ta'siriga tushish, shaxsiy kompetentsizlik va boshqalar kiradi. Tashqi tahdidlarga esa, turli shakldagi kamsitilishlar, individual qadriyatlarini e'zozlanmaslik, ochiq agressiya va boshqalar kiradi.

Psixologiya lug'atida psixologik himoya keng ma'noda, psixologik halovatsizlikni (diskomfortni) bartaraf etish uchun vujudga keladigan negativizm, "yolg'on"ni yaratilishi, faoliyatni almashtiruvchi ko'rinishida namoyon bo'ladigan turli xulq ko'rinishlarining shaxslararo munosabatlar tizimini o'zgartiruvchi sifat ekanligi ko'rsatib o'tilgan [10]. Bizningcha, psixologik himoyaning bosh vazifasi shaxsni, anqrog'i shaxsning ong sathini salbiy mazmundagi, ya'ni ruhiy-ma'naviy jarohat keltirib chiqaruvchi axborotlardan "ihota etish"ni ta'minlashdan iborat. Ong, shaxsning intellektual faoliyati tarzida namoyon bo'lib, yangi taassurotlarni in'ikos etish bilan birga, uning tajribasini, joriy vaziyatni hissiy baholab, tashqi dunyoni aks ettiradi. Ong, dunyoning sub'ektiv timsoli, sub'ektni faoliyatining mazmuni, ya'ni paredmetning andazosi, inson "boshida" borliqni aks ettiruvchi hisoblanadi. Ong, ziddiyatlarni (inkorlarni) bartaraf etadigan vazifani bajaradi. Shaxs ongida boshqa birovlar hamda o'zining o'rni va joyi borligi o'z in'ikosini topgan bo'ladi. Ongdagina, o'rab turgan atrof yaqqol in'ikos etiladi. Shaxsning sub'ektiv hayoti, ong va anglash dunyosi bilan bog'langan bo'lib, shaxs o'z ongi vositasida xatar va tahdidlarning mohiyatini, ijtimoiy munosabatlarning dinamikasini anglab, xatarsiz va tahdidsiz nuqtalarni ajrata oladi. Shaxsning o'zi, xatar va tahdidlardan xalos bo'lish yo'llarini izlashi uning ongini predmeti hisoblanadi. Bu jarayonda ong, o'zini anglash shaklini olib, ijtimoiy ong esa funktsionalligi jihatidan xatarni bexatardan ajratish uchun amal qiladi (faoliyat yuritadi) [13].

Ontogenezda, har bir shaxs sezgi organlari vositasida axborotni idrok etib, unga ishlov berib va manzilga uzatishni faqat o'ziga xos bo'lgan (individual) texnologiyasini qo'llaydi, anglangan yoki turli xossalarni tarzida uni bilim shakliga keltiradi. Mazkur jarayon avtomatizatsiyalashib, individual kognitiv uslubga aylanadi. Kognitiv uslub, individual ong va ongsizlik dinamikasida ham ifodalanib, psixologik majmua tarzida "Men" va "Men-emas" ko'rinishida shaxsni o'ziga baho berish namunasida, atrof-muhitga bo'lgan munosabat tarzida, o'zlikni anglash ko'rinishida namoyon bo'ladi. Ifodalanishiga ko'ra, ong ijtimoiy, siyosiy, huquqiy, axloqiy, badiiy, diniy, ekologik kabi turlarga ajratiladi. Masalan, axloqiy ong - jamiyatda insonlar orasida yaxshilik va yovuzlik, oq va qorani in'ikos etuvchi ong turi hisoblanadi. Axloqiy ong, insonni turli faoliyat yuritishida me'yor, an'ana, urf-odat, tartib, yo'riqnoma tarzida munosabatlarni tartibga keltiradi. Badiiy ong esa, ijtimoiy borliq va uning go'zalligini in'ikos etadi. Badiiy ongning muhim ko'rinishi san'at hisoblanib, u insonni madaniy xossalarni o'zlashtirishini, ijtimoiylashuvi va moslashuvini (adaptatsiyasini) ta'minlab, individual

tarzda hissiyotni ifoda etish madaniyati, idrok va tafakkur madaniyati namunalari namoyon bo'ladi. Shu sababli, konstruktiv psixologik himoya, madaniy ahamiyat kasb etib, kechayotgan voqea va hoisalarning sub'ektiv mohiyatini belgilab beradi. E.Dotsenko "psixologik himoyani asosiy jihatini, shaxsni introeksiyaga tushmasligini ta'minlashdan iborat"-deb biladi [6]. Introeksiya [14], shaxsni ichki dnyosi doirasida yaratiladigan qarashlari, motivlari va boshqlar tomonidan beriladigan ko'rsatmadir (Psixologiya fanida ustanovka tushunchasi qo'llaniladi). Chunki, tashqi sabablar ichki sharoitning ta'siri asosida vujudga kelib, akademik S.Rubinshteynni ta'kidlashicha "tashqi ta'sir u yoki bu psixik natijada beradi" [11].

Shaxs, o'z hissiyotlarini, sha'nini, qadriyatlarini, manfaatlarini hattoki erkin "Men"ni himoyasiga ehtiyoj sezib yashaydi. Shu sababli, psixologiya fanida "shaxsiy maydon" yoki "shaxsiy hudud" tushunchasi ko'p qo'llaniladi [3]. Uni mohiyatini anglash uchun erkin "Men"ni tarkibiga e'tibor qaratamiz. Chunki har bir "Men" aniq funksional birlikka ega bo'lib, shaxs kamolotini ta'minlashda ishtirok etadi:

- nazariy aql darajasidagi "Men";
- tajribaviy ongning yopiqligi darajasidagi "Men";
- intuitsiya bilan sintezlashgan darajadagi "Men";
- deduktiv mulohaza yuritish darajasidagi "Men";
- axborotni bilim shakliga keltira oladigan darajadagi "Men";
- mulohaza yurita olish qobiliyatiga ega bo'lgan darajadagi "Men";
- amaliy yo'naltirilgan aql darajasidagi "Men" kabilarga ajratilishini inobatga olsak [12],

himoyaning maqsadi harakatlarni engillashtirishdan iborat.

Shu sababli bo'lsa kerak, R.Granovskaya va Yu.Krijanskayalar psixologik himoya haqida munosabat bildirib, "insonni, tajribasi ortishi bilan, unda maxsus tizim shakllanadi va u, insonni ichki muvozanatini buzuvchi axborotlardan himoya qiladi, bu psixologik himoya tizimining to'siqlaridir" [5]. Ilmiy manbalarning qiyosiy tahlilini natijasi shuni ko'rsatmoqdaki, psixologik himoya mexanizmlari nisbatan murakkab hisoblanib, turli aloqador komponentlardan tarkib topgan bo'ladi.

E. Kirshbaum va A. Eremeevalar "psixologik himoya nome'yoriy emas, balki vujudga kelgan nomaqbul (noxush - S.S.) vaziyatni bartaraf etish va xulqni psixologik regulatsiyasidir" [7]. Bu o'z navbatida, psixologik himoyaning vazifasi psixologik diskomfortni (halovatsizlikni) bartaraf etishdan iborat ekanligini ko'rsatadi. A.Krotning yozishicha "Barcha himoya (psixologik himoya - S.S.) turlari bazaviy (inkor, siqish, regressiya, kompensatsiya, proeksiya, almashtirish, intellektuallashtirish, reaktiv tuzilma) va ikkilamchi. Ikkilamchi himoya bazaviy himoya turlari asosida tuzilib, uni kombinatsiyasi hisoblanadi. Shu bilan birga, himoyalarni sodda va oliy tartibli kabilarga ham ajratiladi" [8]. Ularning barchasini birlashtiruvchi nuqta, bu psixologik diskomfortni (behalovatlikni) bartaraf etish hisoblanib, F.Bassinni ta'biri bilan aytganda, "faqatgina ularning ayrimlari "tozalagich mohiyati"dan o'tgach (ya'ni, amaliyotda qo'llanilgan so'ng natija bergach - S.S.), sub'ekt uchun mohiyat kasb etadi" [2] va xulq namunasida ifodalanadi. Mazkur ijtimoiy psixologik fenomen, psixologik madaniyati yuqori bo'lganlarda barqaror va psixologik madaniyati nisbatan past bo'lganlarda beqaror tarzda kechishi kuzatiladi.

Xulosa tarzida ta'kidlash mumkinki, psixologik himoya, murakkab tuzulishga ega bo'lib, shaxsning xulq namunasida sodda va oliy tartibli ko'rinishda namoyon bo'ladi. Nazariy jihatdan psixologik himoya ikki turga: **bazaviy psixologik himoya** va **orttirilgan (ikkilamchi) psixologik himoyaga** bo'linadi. Psixologik himoyaning asosiy vazifasi shaxsda ifodalangan psixologik diskomfortni (halovatsizlikni) bartaraf etishdan iborat. U, konstruktiv yoki destruktiv tarzda ifodalanishi mumkin. Bizningcha, psixologik himoyani konstruktiv ifodalanishi, shaxsning psixologik madaniyat va hayotiy tajribaga ega ekanligi bilan izohlanadi. SHu bilan birga, himoyalarni sodda va oliy tartibli kabilarga ham ajratiladi va ularning birlashtiruvchi nuqtasi, bu vujudga kelgan psixologik diskomfortni (behalovatlikni) bartaraf etishdan iborat.

Psixologik himoyaning destruktiv tarzda ifodalanishi, shaxsning psixologik madaniyat va hayotiy tajribaga etarlicha ega emasligi hamda ijtimoiy yoki kasbiy moslashuv jarayonida turli uzilishlarni kuzatilganligi bilan tasniflanadi. Shu sababli, aholini psixologik madaniyatini shakllantirish masalasiga e'tibor qaratish maqsadida, ommaviy axborot vositalarida "Shaxsiy madaniyat tizimida psixologik madaniyat", "Psixologik madaniyatning funksiyalari", "Psixologik madaniyatni shakllantirishning psixotexnikasi" mavzularida ma'rifiy axborotlarni etkazish maqsadga

muvofiqdir. Buning uchun “Ma’naviy hayot sarrishtasi” nomli rukni joriy etib, nazariyotchi va amaliyotchi psixologlarni ishtirokini ta’minlash tavsia etiladi.

Adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 13 sentyabrdagi PQ-3271-sonli [javascript:scrollText\(\)](#)“Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ib qilish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to‘g‘risida”gi Qarori. - <http://lex.uz/docs/3338600>
2. Бассин Ф. В. Сознание, «бессознательное» и болезнь // Вопросы философии. 1971. № 9. - С. 90-102.
3. Блюм Дж. Психоаналитические теории личности / Пер. с англ., вступ. ст. А.Б. Хавина. - М.: Академический проект; Екатеринбург: Деловая книга, 1999. - 222 с.
4. Грановская Р. М. Актуальность исследования психологической защиты // Вестник Балтийской академии. 1998. Вып. 18. - С. 47-51.
5. Грановская Р.М., Крижанская Ю.С. Творчество и преодоление стереотипов. - СПб.: OMS, 1994. - 180 с.
6. Доценко Е.Л. Психология манипуляции: феномены, механизмы и защита. - М.: Речь, 2004. - 304 с.
7. Киришбаум Э.И., Еремеева А.И. Психологическая защита. - М.: Смысл, 2000. - 181 с.
8. Крот А. Ф. Механизмы психологической защиты / Учебно-методическое пособие. – Минск: БГМУ, 2015. – 22 с.
9. Новейший философский словарь / Сост. А.А. Грицанов. - Минск: Изд. В.М. Скакун, 1998. – 896 с.
10. Психология. Словарь / Под ред. Петровского А. В., Ярошевского М. Г. - М.: Политиздат, 1990. - 494 с.
11. Рубинштейн С. Л. Бытие и сознание. - М.: Академия наук, 1957. - 328 с.
12. Samarov R. Axborotning psixologik xavfsizligini ta’minlash mexanizmi (uslubiy qo‘llanma). – Toshkent: Universitet, 2015. - 91 b.
13. Samarov R., Sadriddinov S. Psixika va ong: antropologik talqinning nazariy–psixologik bayoni // Psixologiya. 4 (28)–son. – Buxoro: BuxDU. 2017. 20-25– betlar.
14. Словарь иностранных слов (Около 10 000 слов). - СПб., ООО Виктория плюс. 2010. – 806 с.
15. Тулупьева Т.В. Психологическая защита и особенности личности в период ранней юности. - СПб.: СПбГУ, 2000. - 92 с.
16. <http://muslim.uz>

UDK: 333.32(575.1)

O'ZBEKISTONDA INNOVATSION TENDENSIYALAR SHAROITIDA SOG'LIQNI SAQLASH SOHASINING MEHNAT RESURLARINI SHAKLLANTIRISHGA TA'SIRI**D. A'zamov***Toshkent davlat iqtisodiyot instituti huzuridagi "O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning ilmiy asoslari va muammolari" ilmiy-tadqiqot markazi*

Annotasiya. Ushbu maqolada mamlakat mehnat salohiyatining birlamchi komponenti sanaladigan aholi salomatligi, mehnat resurslarining shakllanishiga ta'sir etuvchi holatlar, jumladan kasalliklarga chalinish, vafot etish ko'rsatkichlari tahlil qilingan. So'nggi yillardagi mehnat resurslarining shakllanishiga sog'liqni saqlash sohasining ta'siri o'rganilgan.

Kalit so'zlar: inson kapitali, aholi salomatligi, mehnat resurslarining shakllanishi, kasallikka chalinish, mehnat salohiyati.

Влияние здравоохранения на формирование трудовых ресурсов в условиях инновационных тенденций в Узбекистане

Аннотация. В статье анализируются основные компоненты трудового потенциала государства как показатели здоровья, факторы воздействующие на формирование трудовых ресурсов, в частности, исследованы показатели болезни, смерти. Изучено влияние сектора здравоохранения на формирование трудовых ресурсов.

Ключевые слова: человеческий капитал, здоровье населения, формирование трудовых ресурсов, болезни, трудовые ресурсы.

The impact of health on formation of labor resources in conditions of innovation trends in Uzbekistan

Annotation. In the article the main components of the state's labor potential as indicators of health, the factors affecting formation of labor resources, in particular, the indicators of illness and death are studied. The influence of the health sector on the formation of labor resources has been studied.

Keywords: human capital, population health, formation of labor resources, diseases, labor resources.

Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasi o'z taraqqiyot yo'lini iqtisodiyotning barcha tarmoq va sohalarida innovatsiyalarni keng joriy etish va rivojlantirish bilan bog'ladi. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 29 noyabrda "O'zbekiston Respublikasi innovatsion rivojlanish vazirligini tashkil etish to'g'risida" gi PF-5264 sonli farmoni muhim qadam bo'ldi. Mazkur farmonga binoan qabul qilingan PQ-3416 sonli Prezident qaroriga ko'ra O'zbekiston Respublikasi innovatsion rivojlanish vazirligi tashkil etildi.

Bizning fikrimizcha, innovatsion rivojlanishning, umuman iqtisodiy taraqqiyotni ta'minlashning muhim va zaruriy sharti inson kapitalining yuksakligi hisoblanadi. "Inson kapitali" nazariyasi asoschilari, jumladan G. Bekkerning fikricha, "har kimning bilimi, qobiliyati va qiziqishlari" inson kapitali hisoblanadi [2]. T. Shuls unga "inson kapitali uning istiqboldagi daromad manbaidir, u faqat insonga xos va uning tarkibiy qismidir"[3] deb, ta'rif bergan. L. Turou inson kapitalini moddiy buyum va xizmatlar ishlab chiqarish qobiliyati deb hisoblaydi. Yana bir nazariyotchi J. Kendrik fikriga ko'ra esa, u insonning umumiy va spesifik bilimlari, shuningdek insonning mehnat qobiliyatidir [7]. Bizningcha, inson kapitaliga yuqoridagi ta'riflarda berilgan sifatlar bilan birga uning jismoniy yoki biologik xususiyatlarini ifodalaydigan salomatlik ham xosdir.

O'zbekistonda innovatsion rivojlanishning asosiy yo'nalishlari o'n bitta bo'lib, sog'liqni saqlash sohasida kasalliklarni barvaqt aniqlash va profilaktika qilish, o'z vaqtida va samarali davolashga imkon beruvchi ilg'or texnologiyalarni keng joriy etish, shuningdek, jamiyatda sog'lom turmush tarzini shakllantirish va sog'lom avlodni tarbiyalashga qaratilgan kompleks tizimni yaratish masalasi ham alohida belgilangan [1].

Salomatlik – jamiyatning iqtisodiy resursi va salohiyatini qayta tiklashning asosiy shartidir. Faqat sog'lom va bilim darajasi yuqori aholigina mamlakatning iqtisodiy va ilmiy-texnikaviy taraqqiyotini ta'minlashga qodir. Bu har bir davlat uchun hozir, ayniqsa jahon globallashib borayotgan

sharoitda behad muhimdir. Shunday qilib, aholi salomatligi eng oliy qadriyat bo'lib, mehnat resurslarining takror barpo bo'lishida asosiy omillardan sanaladi[4]. Boshqacha aytganda, aholi salomatligi mamlakat mehnat salohiyatining birlamchi komponentidir.

Aholi salomatligi ijtimoiy-iqtisodiy kategoriya hisoblanib, unga qator omillar ta'sir ko'rsatadi[4]:

- obyektiv omillar;
- sog'lom turmush tarzi;
- subyektiv omillar.

Bunda obyektiv omillardan biri sifatida infratuzilmaning rivojlanganligi hamda subyektiv omil sifatida davolash imkoniyatlaridan qoniqish, bir so'z bilan aytganda sog'liqni saqlash sohasi imkoniyatlari muhim o'rin egallaydi.

Sog'liqni saqlash sohasi va tizimi mamlakat aholisining ijtimoiy-iqtisodiy hayotiga, turmush farovonligi darajasiga ta'sir etuvchi muhim omillardan biridir. Mavjud aholining takror barpo bo'lish jarayoni mehnat resurslarini shakllantirishda birinchi darajali me'zon ekanligini hisobga olib, so'nggi yillardagi aholining, shu jumladan, mehnatga layoqatli yoshdagi aholi va mehnatga layoqatli yoshdan kichik bo'lgan yoshdagi (zaxiradagi mehnat resurslari) aholining kasalliklarga chalinishi, o'lim darajasi va bu jarayonlarda sog'liqni saqlash sohasining ta'sirini hamda mehnatga layoqatli yoshda kasallikka chalingan (nogironligi bo'lgan shaxs deb topilgan, TMEK tomonidan mehnatga qobiliyatsiz deb topilgan) mehnat resurslarining ko'rsatkichlari tahlilini ko'rib chiqamiz.

Mehnat resurslarining qanday shakllanishini aniqlash uchun dastlab ularni uchta yosh guruhi bo'yicha tasniflaymiz: mehnatga layoqatli yoshdan kichiklar, mehnatga layoqatli yoshdagilar va mehnatga layoqatli yoshdan kattalar.

Oxirgi yillarda O'zbekistonda aholining tabiiy ko'payish koeffitsiyenti biroz pasaygan bo'lishiga qaramasdan, aholi soni o'sishda davom etmoqda. Uning tarkibida mehnatga layoqatli yoshdagi aholi soni katta ulushga ega. Lekin tug'ilishning kamayishiga qaramay aholi sonining o'sib borishi va mehnatga layoqatli yoshdan katta bo'lgan aholining ko'payib borishi evaziga mazkur ulush kamayib bormoqda. Xususan, jami aholi tarkibida mehnatga layoqatli yoshdagilarning ulushi 2012 yilda 61,5 %, 2013 yilda 61,7 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2014 yilda 61,4 %, 2015 yilda 61% va 2016 yilda 60,5 % bo'lgan. Jami aholiga nisbatan ulushi kamaygan bo'lsa-da, mehnatga layoqatli yoshdagi aholining soni ortib bormoqda. 2012 yilda respublikadagi mehnatga layoqatli yoshdagi aholining soni 18517,6 ming kishini, 2016 yilda esa 19440,8 ming kishi bo'lgan va 2012 yilga nisbatan o'sish 5% ni tashkil etgan. O'zbekistonda mehnatga layoqatli yoshdan kichik bo'lganlar va mehnatga layoqatli yoshdan katta bo'lganlarning jami aholi tarkibidagi ulushi mos ravishda 2012 yilda 30,6 % va 7,9 % bo'lgan, 2016 yilda esa mos ravishda 30,1 % va 9,4 %ni tashkil etgan (3.1 jadval).

1-jadval

Mehnatga layoqatli yoshga nisbatan jami aholi tarkibi, yil bosh iga
ming kishi

	2013		2014		2015		2016		2017	
	<i>ming kishi</i>	%	<i>ming kishi</i>	%	<i>ming kishi</i>	%	<i>ming kishi</i>	%	<i>ming kishi</i>	%
Jami aholi	29993,5	100	30492,8	100	31022,5	100	31575,3	100	32120,5	100
shundan: <i>mehnatga layoqatli yoshdan kichiklar</i>	9040,8	30,6	9116,6	29,9	9281,4	29,9	9469,2	30	9665,7	30,1
<i>mehnatga layoqatli yoshdagilar</i>	18517,6	61,5	18814	61,7	19044,1	61,4	19257	61	19440,8	60,5
<i>mehnatga layoqatli yoshdan kattalar</i>	2435,1	7,9	8579,6	8,4	8649,3	8,7	8711,9	9	8769,3	9,4

Manba: O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida tayyorlandi

Mamlakatning mehnat resurslariga jami aholidan mehnatga layoqatli yoshdagi aholi, ishlayotgan o'smirlar va ishlayotgan pensionerlarni kiritamiz. Mehnat resurslari orasida mehnatga layoqatli yoshdagilar asosiy o'rin egallaydi. Shundan kelib chiqib, ushbu yosh tarkibidagi aholining o'limi, kasalliklarga chalinishi va boshqa holatlar mehnat resurslarining sifat va miqdor ko'rsatkichlariga ta'sir etadi.

Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti tomonidan tasniflangan o'limning asosiy sabablari hisoblanadigan kasalliklardan mehnatga layoqatli yoshda vafot etganlar sonining o'zgarishi bo'yicha oxirgi yillarda O'zbekistonda quyidagi holat kuzatilgan.

2012 yilda qon aylanish tizimi kasalliklaridan jami 15668 kishi (11765 nafar erkak, 3903 nafar ayol), baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan 6614 kishi (3214 nafar erkak, 1470 nafar ayol), o'simtalar sababli 5297 kishi (2642 nafar erkak, 2655 nafar ayol), nafas olish organlari kasalliklaridan 1932 kishi (1233 nafar erkak, 699 nafar ayol), ovqat hazm qilish organlari kasalliklaridan 4612 kishi (3092 nafar erkak, 1520 nafar ayol), yuqumli va parazitlar kasalliklaridan 1979 kishi (1386 nafar erkak, 593 nafar ayol), boshqa kasalliklar tufayli 5165 kishi (3214 nafar erkak, 1951 nafar ayol) o'lgan. Bulardan ma'lum bo'ladiki, qon aylanish tizimi kasalliklari sababli eng ko'p o'lim qayd etilgan. Xuddi yuqoridagi holatlar bo'yicha 2016 yildagi ma'lumotlar tahlili qon aylanish tizimi kasalliklari tufayli 16655 (12678 nafar erkak, 3977 nafar ayol), baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan 7655 kishi (5994 nafar erkak, 1661 nafar ayol), o'simtalaridan 6253 kishi (3247 nafar erkak, 3006 nafar ayol), nafas olish organlari kasalliklaridan 1710 kishi (1079 nafar erkak, 631 nafar ayol), ovqat hazm qilish organlari kasalliklaridan 4958 kishi (3364 nafar erkak, 1594 nafar ayol), yuqumli va parazitlar kasalliklar sababli 1746 kishi (1193 nafar erkak, 553 nafar ayol) va boshqa kasalliklardan 5116 kishi (3177 nafar erkak, 1939 nafar ayol) o'lganini ko'rsatadi. Tahlildan ko'rinadiki, asosiy o'lim sabablari bo'yicha mehnatga layoqatli yoshda o'lganlar orasida erkaklar soni ayollar soniga nisbatan sezilarli darajada yuqori. Buni ko'p va og'ir jismoniy mehnat talab qilinadigan ishlarda, noqulay mehnat sharoitidagi ishlarda, tungi ishlarda, zararli va xavfli mehnat sharoitlarida aksariyat holatda erkaklarning jalb qilinishi va ishlashi, shuningdek, avtotransport vositalari bilan bog'liq baxtsiz hodisalarda va shu kabi boshqa vaziyatlarda erkaklarning ishtiroki yuqori ekanligi bilan izohlashimiz mumkin. Jadval ma'lumotlaridan ma'lumki, oxirgi yillarda respublikamizda asosiy o'lim sababi sifatida nafas olish organlari kasalliklari hamda yuqumli va parazitlar kasalliklaridan o'lganlar sonida kamayish tendensiyasi kuzatilgan, 2016 yil 2012 yilga nisbatan kamayish mos ravishda 11,5 % va 11,8 % ni tashkil etgan (2-jadval).

2-jadval

Asosiy o'lim sabablari bo'yicha mehnatga layoqatli yoshda o'lganlar, yil boshiga kishi

	2013			2017			2017 yil 2013 yilga nisbatan farq, % da		
	E+A	E	A	E+A	E	A	E+A	E	A
Qon aylanish tizimi kasalliklari	15668	11765	3903	16655	12678	3977	106,3	107,8	101,9
Baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlar	6614	5144	1470	7655	5994	1661	115,7	116,5	113,0
O'simtalar	5297	2642	2655	6253	3247	3006	118,0	122,9	113,2
Nafas olish organlari kasalliklari	1932	1233	699	1710	1079	631	88,5	87,5	90,3
Ovqat hazm qilish organlari kasalliklari	4612	3092	1520	4958	3364	1594	107,5	108,8	104,9
Yuqumli va parazitlar	1979	1386	593	1746	1193	553	88,2	86,1	93,3

kasalliklar									
Boshqa kasalliklar	5165	3214	1951	5116	3177	1939	99,1	98,8	99,4
Jami	41267	28476	12791	44093	30732	13361	106,8	107,9	104,5

Manba: O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining "Ayollar va erkaklar" statistik to'plami (2013, 2017) ma'lumotlari

Izoh: E – erkaklar, A – ayollar

Mehnatga layoqatli yoshda asosiy o'lim sabablari hisoblanadigan kasalliklar tufayli vafot etganlar 2012-2016-yillarda har yili mamlakatda jami vafot etganlarning o'rtacha 28,4 % ini tashkil etgan.

2012-2016-yillarda aholining yosh guruhlari bo'yicha kasallikka chalinishiga e'tibor qaratsak, eng ko'p o'smirlar yosh guruhidagi aholi kasalliklarga chalinganligi kuzatiladi. 2012 yilda 66271 nafar o'smir (har 100 000 aholiga nisbatan) kasallikka chalingan, 2016 yilda bu ko'rsatkich 94315,6 kishini tashkil etgan. Keyingi o'rinda bolalar yosh guruhida kasalliklarga chalinish holati turadi. 2012 yilda 57454,8 nafar bola (har 100 000 nafar aholiga nisbatan) kasallikka chalingan bo'lsa, 2016 yilda 62324,8 nafar bo'lgan. Katta yoshlar guruhi qolgan qolgan ikki guruhga nisbatan "immuniteti" yuqori bo'lib, 2012 yilda har 100 000 nafar aholiga nisbatan 42364,6 kishi, 2016 yilda esa 47480,6 nafar katta yoshdagi aholi kasallikka chalingan.

Ushbu tahlildan mehnat resurslarining aksariyati mansub kattalar yosh guruhida kasallikka chalinish darajasi yuqori emasligi ko'rinadi. Lekin 1-2 yil muddatda mehnat resurslari toifasiga to'laqonli ravishda kirib keladigan o'smirlar (15-17 yoshlilar) yosh guruhidagi aholining kasallanish darajasi yuqori (3.3 jadvalda kasalliklar turi bo'yicha keltirilgan). Bundan kelib chiqadiki, zaxiraviy mehnat resurslari hisoblanadigan o'smirlar toifasining kasalliklarga chalinishi sabablari yetarlicha tadqiq qilinishi lozim.

Mehnatga layoqatli yoshdagi aholining mehnat resurslari tarkibidagi iqtisodiy faol aholining asosi ekanligini inobatga olsak, yo'qotilgan mehnat resurslarining o'rnini to'ldiruvchi zaxiradagi aholi, birinchi navbatda 15-17 yoshli o'smirlarning salomatligi darajasi, ular o'rtasidagi o'lim holatlarini tahlilini ko'rib chiqish zaruriyati paydo bo'ladi. Yo'qotilgan mehnat resurslari o'rnining yetarli darajada to'ldirilishi yoki to'ldirilmasligi mehnat bozori konyukturasiga ta'sir ko'rsatadi. Agarda mehnat bozoriga yetarli darajadan kam miqdorda "yangi kuchlar" kirib kelsa, ishchi kuchi taqchilligi yuzaga keladi va aksincha, yetarli darajadan ko'p miqdorda yangi mehnat resurslari kirib keladigan bo'lsa, ishsizlik darajasi oshadi va davlat tomonidan zudlik bilan chora-tadbirlar qo'llanishiga olib keladi. Shu ma'noda, zaxira mehnat resurslari hisoblanadigan 15-17 yoshdagi aholi qatlamining gender xususiyatlari, salomatligi, xususan kasalliklarga chalinishi (asosiy kasalliklar tasnifi bo'yicha), nogironligi bo'lgan shaxslarning mavjudligi hamda ularga ko'rsatilgan tibbiy xizmatdan foydalanish ko'rsatkichlarini tahlil qilish zarur.

Statistika ma'lumotlariga ko'ra, 15-17 yoshli o'smirlar orasida nafas organlari kasalliklari, hazm qilish organlari kasalliklari, qon va qon yaratuvchi organlar kasalliklari hamda endokrin tizimi kasalliklariga chalinish holatlari ko'proq uchraydi. Xususan, 2012 yilda nafas organlari kasalligi bilan ro'yxatga olingan o'smirlar 350,2 ming bo'lgan bo'lsa, 2016 yilda esa 447,2 ming kishini tashkil etgan yoki 2012 yilga nisbatan 27,7 % ga ko'paygan. Hazm qilish organlari kasalliklariga chalinish holati 2012 yildagi 165 ming dan 36,7 % ga oshib, 2016 yilda 225,5 ming kishini tashkil qilgan. 2012 yil bilan taqqoslanganda 2016 yilda siydik tanosil tizimi kasalliklariga chalinish 28,5 %, endokrin tizimi kasalliklariga chalinish 14,5 %, ko'z kasalliklariga chalinish 27,9 %, quloq va so'rg'ichsimon o'sish kasalliklariga chalinish 20,8 %, teri va teri osti kletchatkasi kasalliklariga chalinish 15,4 %, suyak-mushak tizimi va qo'shuvchi to'qima kasalliklariga uchrash 27,3 %, asab tizimi kasalliklariga chalinish esa 19,8 % ga ortgani kuzatilgan. Qon va qon yaratuvchi organlar kasalliklari hamda qon aylanish tizimi kasalliklariga chalinish mos ravishda 7 % va 1,4 % ga kamaygan. Ruhiiy buzilishlar va xulq-atvor o'zgarishlari bilan bog'liq holatlar esa 32,1 % ga kamayganligi kuzatilgan (3-jadval).

3-jadval

Kasalliklarning asosiy sinflari bo'yicha 15-17 yoshli o'smirlarning kasalliklarga chalinishi, yil boshiga (bemorlarda birinchi marotaba tashxisi bilan ro'yxatga olinganlar, 1000 holat)

Kasalliklar \ Yillar	2013	2014	2015	2016	2017	2017 yil 2013 yilga nisbatan farq % da
Ayrim yuqumli va parazitlar kasalliklari	20,2	21,5	21,9	25,0	28,3	140,1
O'smalar	1,1	0,7	0,7	0,7	1,1	100,0
Endokrin tizimi kasalliklari, ovqatlanish tartibsizligi, modda almashinuvi buzilishlari	117,4	135,5	140,6	124,7	134,4	114,5
Qon va yaratuvchi organlar kasalliklari va immun mexanizmini jalb etuvchi ayrim buzilishlar	202,9	201,0	180,8	184,8	188,7	93,0
Ruhiy buzilishlar va xulq-atvor buzilishlari	2,8	2,8	3,3	2,2	1,9	67,9
Asab tizimi kasalliklari	28,3	30,1	31,4	30,2	33,9	119,8
Ko'z va uning qo'shimcha apparati kasalliklari	43	43,8	42,7	46,2	55,0	127,9
Quloq va so'rg'ichsimon o'sish kasalliklari	37,1	38,7	38,8	44,8	44,8	120,8
Qon aylanish tizimi kasalliklari	14,3	14,6	15,3	13,4	14,1	98,6
Nafas organlari kasalliklari	350,2	362,7	446,0	420,8	447,2	127,7
Hazm qilish organlari kasalliklari	165	155,1	181,6	208,2	225,5	136,7
Siydik tanosil tizimi kasalliklari	65,5	69,5	79,0	78,8	84,2	128,5
Homiladorlik, tug'ish va tug'ishdan keyingi asoratlari	0	0,0	0,0	0,0	0,0	
Teri va teri osti kletchatkasi kasalliklari	48,7	54,7	50,1	52,5	56,2	115,4
Suyak-mushak tizimi va qo'shuvchi to'qima kasalliklari	15,4	16,4	19,2	19,1	19,6	127,3
Tug'ma anomaliyalar (rivojlanish nuqsonlari), deformatsiyalar va xromosom buzilishlar	0,1	0,0	0,1	0,1	0,0	0,0
Tashqi sabablar ta'sirining jarohatlari, zaharlanishlar va ayrim boshqa oqibatlar	126,7	115,2	114,1	126,0	133,8	105,6

Manba: O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining "O'zbekistonda sog'liqni saqlash" statistik to'plami (2013, 2017) ma'lumotlari

Respublikamizda hozirgi davrda amalga oshirilayotgan barcha sohalardagi islohotlarda insonlarning, mamlakat aholisining yoki boshqacha aytsak, mamlakatdagi inson kapitalining ahamiyatini hisobga olish zarur deb hisoblaymiz. Iqtisodiyotda inson "ikki tomonlamalik" xususiyatiga ega, ya'ni ham ishlab chiqaruvchi, ham iste'molchi sifatida qatnashadi. Har ikkala holatda ham uning salomatligini ta'minlash lozim bo'ladi, negaki u mamlakat mehnat salohiyatining tarkibiy qismi hisoblanadi.

Xulosa sifatida yuqoridagi tahlillardan ma'lum bo'ladiki, so'nggi yillarda O'zbekistonda sog'liqni saqlash sohasida olib borilgan islohotlar o'z samarasini bergan. Lekin bugungi jadal globallashtirish jarayonlarida insonlar psixologiyasida yuz berayotgan o'zgarishlar aholi salomatligini saqlash chora-tadbirlarini yanada kuchaytirishni talab qiladi. Fikrimizcha, quyidagi vazifalar sog'liqni saqlash tizimining kun tartibidagi asosiy vazifalar bo'lishi lozim:

- aholi sog'lig'ini saqlash tizimini isloh etishni yanada chuqurlashtirish, davolash-profilaktika muassasalarining moddiy-texnika bazasini yaxshilash, aholiga yuqori sifatli, zamonaviy talab va standartlarga muvofiq tibbiy xizmat ko'rsatishni ta'minlash;

- uzoq va borish qiyin bo'lgan joylarda yashovchi aholini chuqur tibbiy ko'rikdan o'tkazishda tibbiyot oliy o'quv yurtlarining, respublika ixtisoslashtirilgan markazlarining va ilmiy-tadqiqot institutlarining yetakchi olimlari va mutaxassislari ishtirokini ta'minlash;
- to'g'ri ovqatlanish va gigiyena talablariga rioya qilish bo'yicha ishlar samaradorligini oshirish;
- sog'lom homiladorlik va bola parvarishi, reproduktiv salomatlik, sog'lom turmush tarzi masalalarida aholining tibbiy savodxonligini oshirish;
- ishlab chiqarishda mehnat qilishning xavfsiz shart-sharoitlarini ta'minlash;
- baxtsiz hodisalar, zaharlanishlar va jarohatlanishning oldini olish borasida targ'ibot ishlarini kuchaytirish.

Adabiyotlar

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон Республикаси инновацияларни ривожлантириш вазирлигини ташкил этиш тўғрисида”ги ПФ-5264 сонли Фармони, www.lex.uz
2. Капелюшников Р.И. Экономический подход Гэри Беккера к человеческому поведению. США: экономика, политика, идеология, 1993, № 11, С. 17–32.
3. Капелюшников Р.И. Современные западные концепции формирования рабочей силы. Москва, Наука, 1981, 136 с.
4. Абдурахмонов Қ.Х., Абдураманов Х.Х. Демография: Ўқув қўлланма, “Ношир”, Т.: 2011, 184-185 б.
5. Ўзбекистон Республикаси Давлат статистика қўмитасининг “Ўзбекистонда соғлиқни сақлаш” статистик тўплами (2013, 2017)
6. Ўзбекистон Республикаси Давлат статистика қўмитасининг “Аёллар ва эркаклар” статистик тўплами (2013, 2017)
7. <http://hmbul.ru/article01.pdf/101/1>

UDK 314.145

О‘ЗБЕКISTONDA DEMOGRAFIK XAVFSIZLIKNI TA‘MINLASH YO‘NALISHLARI

X.X. Abduramanov¹, D.A. Nasimov²

¹Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

²Samarqand davlat universiteti

Аннотасија. Ushbu maqolada demografik xavfsizlikni keltirib chiqaruvchi ijtimoiy-demografik omillar tasniflangan, O‘zbekistonda asosiy demografik jarayonlarning tahlili amalga oshirilgan hamda demografik xavfsizlikni ta‘minlashning asosiy yo‘nalishlari belgilab berilgan.

Калит со‘злар: demografik xavfsizlik, aholining tabiiy o‘sishi, migrasiya, demografik inqiroz, aholi salomatligi.

Пути обеспечения демографической безопасности в Узбекистане

Аннотация. В данной статье классифицированы социально-демографические факторы вызывающие демографический кризис, проведен анализ основных демографических процессов в Узбекистане а также определены основные направления демографической безопасности.

Ключевые слова: демографическая безопасность, естественный прирост населения, миграция, демографический кризис, общественное здравоохранение.

The directions of ensuring demographic security in Uzbekistan

Abstract. This article classifies the socio-demographic factors that cause the demographic crisis, analyzes the main demographic processes in Uzbekistan and identifies the main directions of demographic security.

Keywords: demographic security, natural population growth, migration, demographic crisis, public health.

Demografik xavfsizlik iqtisodiy xavfsizlikning tarkibiy qismlaridan birini o'zida namoyon etadi. U davlat, jamiyat va mehnat bozori demografik xavf-xatarlardan himoyalanganligining bunda davlat, jamiyat va shaxsning fuqarolarning konstitusiyaviy huquqlariga muvofiq tarzda muvozanatlashtirilgan demografik manfaatlari yig'indisini hisobga olgan holda mamlakatning rivojlanishi ta'minlanadigan holati sifatida talqin etiladi.

Demografik xavfsizlikni kompleks tahlil qilish va tadqiq etish demografik jarayonlarni yanada to'liq va chuqur o'rganish, ularning tendensiyalari va o'ziga xos xususiyatlarini, demografik xavfsizlik darajasini pasaytiruvchi salbiy demografik hodisalar sabablarini aniqlash imkonini beradi. Salbiy hodisalar va jarayonlar haqidagi ma'lumotlarni tahlil qilish, sifatli prognoz asosida demografik jarayonlarga boshqaruv ta'siri dasturlari tuziladi. Ayniqsa demografik inqiroz va salbiy jarayonlar oqibatlarini emas, balki sabablarini bartaraf etish muhim hisoblanadi.

Demografik muammolarning keskinligi aholi salomatligining yomonlashuvi bilan bog'liq. O'zbekiston Respublikasida miqdoriy demografik ko'rsatkichlar bilan bir qatorda sifatli parametrlar – aholining jismoniy, ruhiy va ijtimoiy salomatligida ham jiddiy o'zgarishlar kuzatilmoqda, bu o'lim darajasining yuqori bo'lishiga olib kelishi muqarrar. Birinchi navbatda, qon aylanishi a'zolari kasalliklari, jarohatlar va zaharlanishlar, yangi paydo bo'lgan kasalliklar, nafas olish a'zolari xastaliklari mamlakat aholisi o'limining asosiy sabablari hisoblanadi.

Insonlarning yarmidan ko'pi qon aylanishi tizmining kasalliklaridan o'lmoqda. Asosiy sabablar ichida yangi paydo bo'lgan kasalliklarning katta ulushga egaligi tashvishli holat. Shahar aholisining o'limi tarkibida ularning roli qishloq aholisidagiga qaraganda yuqori. Erkaklarda oshqozon va o'pka sarotani, ayollarda oshqozon va ko'krak bezi sarotani ustunlik qiladi.

Yashash uchun mablag'lar yetishmasligi tufayli yuzaga keladigan stress holatlari, ish o'rinlarining mavjud emasligi, bepul tibbiy xizmat ko'rsatish darajasining pasayishi va ko'plab boshqa omillar insonning turmush tarzi va salomatligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Shunday qilib, barcha yoshlarda va barcha sabablarga ko'ra aholining kasallanishi va o'limining keskin oshib borishi real demografik tahdid hisoblanadi. Bunda mehnatga layoqatli yoshdagi aholining kasallanishi bilan bog'liq eng keskin vaziyat kuzatiladi (1-jadval).

1-jadval

O'zbekiston Respublikasida asosiy o'lim sabablari bo'yicha mehnatga layoqatli yoshda o'lganlar soni, kishi

O'lim sabablari	Yillar				2017 yilda 2000 yilga nisbatan o'zgarishi, %
	2000	2005	2010	2017	
Jami	36477	39271	38603	43407	119,0
<i>Shundan:</i>					
Qon aylanish tizimi kasalliklari	11289	13432	14669	16212	143,6
Baxtsiz hodisalar, zaharlanish va jarohatlanishlar	6971	7032	6164	7592	108,9
O'simtalar	3933	4384	4760	5981	152,1
Nafas olish a'zolari kasalliklari	2328	1845	1689	1608	69,1
Ovqat hazm qilish a'zolari kasalliklari	3670	4489	4260	4873	132,8
Yuqumli va parazitlar kasalliklar	3238	2657	2196	1911	59,0
Boshqa kasalliklar	5048	8089	4865	5230	103,6

Manba: O'zbekiston davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, 2000-2017 yillar davomida mehnatga layoqatli yoshdagi o'lganlar soni 19,0 foizga ortgan. Ya'ni, 2000 yilda respublika bo'yicha jami o'lganlarning 26,9 foizi mehnatga layoqatli yoshga to'g'ri kelgan bo'lsa, 2017 yilda bu ko'rsatkich 28,6 foizga yetgan.

Mehnatga layoqatli yoshdagi aholida o'lganlar mutlaq sonining o'sishi o'lim sabablaridagi quyidagi o'zgarishlar bilan bog'liq:

– tahlil qilinayotgan yillarda qon aylanish tizimi kasalliklaridan o'lganlar soni 43,6 foizga ortib, jami o'lim sabablari tarkibida bu kasallikdan o'lganlar ulushi 2000 yilda – 30,9, 2017 yilda – 37,3 foizni tashkil etgan. Ko'rinib turibdiki, mehnatga layoqatli yoshdagi aholining aksariyat qismi mazkur kasallikdan o'lgan;

– 2000-2017 yillarda baxtsiz hodisalar, zaharlanish va jarohatlanishlardan o'lganlar soni 8,9 foizga ko'paygan. Biroq bu davrda mazkur kasalliklardan o'lganlar ulushi 19,1 foizdan 17,5 foizgacha kamaygan;

– ko'rilayotgan davrda o'lim sabablari ichida o'simtalardan o'lganlar soni eng yuqori sur'atda (52,1%) o'sgan va o'lim sabablari tarkibidagi ulushi 2000 yildagi 10,8 foizdan 2017 yilda 13,8 foizga ortgan. Mazkur kasallikka duchor bo'lgan ro'yxatga olingan bemorlarning 13 foizi mehnatga qobiliyatli o'rta yoshdagi aholi (35-44 yoshdagi) va 47 foizi pensiya yoshiga yaqinlashgan (45-64 yoshdagi) fuqarolardir;

– olib borilgan tahlillar mehnatga layoqatli yoshda nafas olish a'zolari hamda yuqumli va parazitar kasalliklardan o'lganlar sonining keskin kamayganligini ko'rsatadi. O'z navbatida, o'lim sabablari tarkibida nafas olish a'zolari kasalliklaridan o'lganlar ulushi 2000 yilda 6,4 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2017 yilda bu ko'rsatkich 3,7 foizga teng bo'lgan, yuqumli va parazitar kasalliklardan o'lganlar ulushi esa mos ravishda 8,9 va 4,4 foizlarni tashkil etgan;

– 2017 yilda ovqat hazm qilish a'zolari kasalliklaridan o'lganlar soni va ulushi 2000 yilga nisbatan muntazam ortib borgan.

Mehnatga layoqatli aholi kasallanishi va o'limi darajasining yuqoriligi nafaqat mehnat resurslarining sonini qisqartiradi, balki bevalar, yetimlar va to'liqsiz oilalar sonining oshishiga olib keladi. Mehnatga layoqatli yoshda o'lganlarning ko'pchiligini erkaklar tashkil qiladi, erkaklar o'limi ayollar o'limiga qaraganda 3,2 marta ko'p. Bunda agar O'zbekiston Respublikasi ayollari o'limining tarkibida asosiy ulush qon aylanishi tizimining kasalliklariga to'g'ri kelsa (49,3%), erkaklarda o'limning eng yuqori ulushini baxtsiz hodisalar, zaharlanish, jarohatlar tashkil qiladi (45,5%). Bu holat birinchi navbatda quyidagilar bilan izohlanadi:

- erkaklar ko'pincha sog'liq uchun zararli faoliyat turlari bilan band;

- ayollar o'z sog'lig'i bilan bog'liq muammolar haqida yaxshiroq xabardor, chunki bunga katta e'tibor qaratadi, vrachlarga tez-tez murojaat qilib turadi;

- erkaklardan farqli o'laroq ayollar xavfli bo'lmagan surunkali kasalliklarga ko'proq chalinadi;

- sog'liqning yomonlashuviga olib keluvchi va o'lim xavfini oshiruvchi tashqi sharoitlar erkaklarga ham, ayollarga ham deyarli bir xil ta'sir ko'rsatadi. Biroq erkaklarda salbiy tashqi ta'sirlar ko'pincha bevosita o'limga olib keladi, ayollarda esa bu sog'liqning yomonlashuvi bilan cheklanadi.

Aholi, birinchi navbatda onalar va bolalar sog'lig'ining yomonlashuvi tashvishli omillardan biri hisoblanadi. Respublikada homilador ayollar o'rtasida kasallanish darajasi yuqori sur'atlar bilan o'smoqda, ularning qariyb 70 foizida homiladorlik qiyin kechgan, to'rtidan bir qismi kam qonlikdan aziyat chekkan. Ayollar kasallanishining barqaror o'sishi ularning bola tug'ish funksiyasiga, keyinchalik esa bolalarning sog'lig'iga ta'sir ko'rsatadi. Har bir keyingi avlod sog'lig'ining yomonlashuvi mamlakat xavfsizligiga potentsial tahdid hisoblanadi hamda aholining reproduktiv salomatligi va mehnat resurslari sifatining pasayishiga olib keladi.

Aholining salomatligi uning barcha ijtimoiy-demografik tavsiflarining asosi hisoblanganligi bois, demografik siyosatning ustuvor yo'nalishi aholini sog'lomlashtirish, uning, ayniqsa mehnatga layoqatli yoshda o'limi sonini kamaytirish, umrni uzaytirishdan iborat bo'lishi lozim. Buni hal etish uchun sog'liqni saqlash muassasalarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, uni moliyalashni o'zgartirish, birinchi tibbiy yordamini qayta tashkil etish, jismoniy tarbiya, faol dam olishni rivojlantirish, ovqatlanish sifatini yaxshilashga yo'naltirilgan tadbirlar zarur.

Bugungi kunda mehnatga layoqatli yoshdagi aholining ulushi ustunlik qiladi, ayni paytda aholining umumiy tarkibida keksa insonlar ulushi ham ortib bormoqda. Aholining yosh tarkibida katta yosh guruhlariga mansub shaxslar ulushining asta-sekin oshishi jarayoni aholining keksayishiga olib keladi. Aholi keksaygan sayin davlat byudjetiga bosimning ortib borishi va pensiya ta'minoti tizimlarini moliyalash va aholini ijtimoiy himoyalashga bo'lgan ehtiyojning keskinlashuvi iqtisodiyot uchun muhim muammoga aylanadi. Mehnatga layoqatli yoshdagi aholi ulushining kamayishi va

mehnatga layoqatli kata yoshdagi aholi ulushining ortishi ishchi kuchining iqtisodiy xatti-harakati o'zgarishiga olib kelishi mumkin.

Aholining yosh tarkibini iqtisodiy tarkibiy qism nuqtai nazaridan o'rganishda har 1000 nafar mehnatga layoqatli yoshdagi aholiga qancha bolalar va keksalar to'g'ri kelishi haqida tasavvur beradigan demografik bosim ko'rsatkichlari katta amaliy ahamiyatga ega.

O'zbekiston Respublikasida yillar bo'yicha demografik bosim koeffitsiyenti hisoblandi (2-jadval).

2-jadval

O'zbekiston Respublikasida demografik bosim (har 1000 ta mehnat yoshidagi aholiga to'g'ri keladigan mehnatga layoqatsiz aholi soni)ning o'zgarishi (yil boshiga)

Yillar	Jami	shundan:	
		mehnatga layoqatli yoshgacha	mehnatga layoqatli yoshdan kattalar
1991	1038,7	880,7	158,0
1995	1016,9	862,7	154,2
2000	887,9	750,5	137,4
2005	726,4	604,7	121,7
2010	651,6	529,9	121,8
2011	635,7	511,1	124,7
2012	625,3	497,7	127,6
2013	619,7	488,2	131,5
2014	620,8	484,6	136,2
2015	629,0	487,4	141,6
2016	639,6	491,7	147,9
2017	652,2	497,2	155,0
2018	669,2	503,0	166,2
2018 yilda 1991 yilga nisbatan mutlaq o'zgarishi (+,-)	-369,5	-377,7	-8,2

* Jadval O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan hisoblangan.

2-jadvaldan ko'rinib turibdiki, hisob-kitoblarimizga ko'ra, 1991 yilda har 1000 ta mehnat yoshidagi aholiga to'g'ri keladigan mehnatga layoqatsiz aholi soni 1038,7 tani tashkil etgan bo'lsa, 2018 yilga kelib bu ko'rsatkich 669,2 taga teng bo'lgan. Boshqacha qilib aytganda, mehnatga layoqatli bir kishiga 1991 yilda 1 ta, 2016 yilda esa 0,67 ta mehnatga qobiliyatsiz aholi to'g'ri kelgan. Bu, albatta, ijobiy holat hisoblanadi. O'zbekistonda yuzaga kelgan mazkur demografik vaziyat mehnat resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirishni taqozo etadi.

Aholining harakatini o'rganishda aholi soni va tarkibi o'zgarishining sabablari va oqibatlarini ko'rib chiqish zarur. Birinchidan, aholining tabiiy harakatini o'zida namoyon etadigan tug'ilish va o'lim soni, ikkinchidan, migrasiya – aholining bir yashash joyidan boshqasiga ko'chishi aholi harakatining eng muhim tarkibiy qismlari hisoblanadi. O'z navbatida, aholi sonining umumiy o'sishi tabiiy va mexanik ko'payish hisobidan yuz beradi.

Qishloq joylari va shaharlar o'rtasidagi nooqilona migrasion oqimlar milliy xavfsizlikka real tahdidlardan biri hisoblanib, O'zbekistonda uning ulushiga 76% to'g'ri keladi.

Ta'kidlash lozimki, qishloqdan shaharga sof migrasiya hajmida 90 fizni yoshlar tashkil qiladi. Natijada qishloq aholisi yosh tarkibining deformatsiyasi kuchayadi. Bu qishloq xo'jaligini ishchi kuchi bilan ta'minlashda qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi.

Bizning fikrimizga ko'ra, yuqorida keltirilgan vaziyatlarni tartibga solish uchun quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

- O'zbekiston Respublikasining demografik xavfsizligi dasturini ishlab chiqish;
- korxonalar tomonidan xodimlarning salomatligini saqlash maqsadiga yo'naltiriladigan

moliyaviy mablag'larga imtiyozli soliq solinishini nazarda tutish;

– ichki migrasiyani tartibga solishning konseptual asoslarini ishlab chiqish, ushbu sohadagi davlat siyosatining maqsadlari, vazifalari va ustuvor yo'nalishlarini belgilash;

– qishloq hududlarida ishlovchi mutaxassislarning lavozim maoshlariga ustama haqlari belgilash va qishloq xo'jaligidagi ish stajiga qarab pensiya miqdorini oshirish;

– qishloq joylarida yosh mutaxassislarga uy-joyni xarid qilish uchun olgan kreditlarni qaytarishning imtiyozli shartlarini nazarda tutish.

– sog'liq uchun zararli bo'lgan odatlarning oldini olish va ularga barham berish, birinchi navbatda, xatar darajasi yuqori bo'lgan guruhlar ichida ruhiy kasalliklar, ichkilikbozlik va giyohvandlik profilaktikasi, OIV-infeksiyalar va tanosil kasalliklarining tarqalishini kamaytirish va h.k.

Adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Res-publikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar Strategiyasi to'g'risida"gi 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-sonli Farmoni. www.lex.uz
2. Inson taraqqiyoti. Darslik. I.f.d., prof Q.X.Ab-duraxmonov tahriri ostida. –T.: «Fan va texnologiya», 2013, 69-b.
3. Sarah G. Older people's rights, poverty and development. // Development and cooperation. №3 - Bonn: "DSE", 2001.-P.22
4. <http://www.stat.uz> <http://www.stat.uz/>- O'zbekiston Respublikasi Davlat statistikasi qo'mitasi rasmiy sayti.

UDK 728.5.05

MEHMONXONALARDA OVQATLANTIRISH XIZMATLARINI TASHKILLASHTIRISHDA XORIJ TAJRIBASIDAN FOYDALANISH MUAMMOLARI

A.Sh. Suyarov, M.X. Gadoyeva

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti

E-mail: muba.gmxon@mail.ru

Annotatsiya: Ushbu maqolada jahon mehmonxonalarida qo'llaniladigan ovqatlantirish servis xizmati bo'yicha ba'zi tahlillar va tajribalar keltirilgan. Shuningdek, maqolada dunyoda mavjud noan'anaviy servis uslublaridan na'munalar keltirilib, ularni O'zbekistonda qo'llash bo'yicha bir qator takliflar keltirilgan.

Kalit so'zlar: mehmonxona biznesi, ovqatlantirish xizmati, servis, xalqaro tajribalar, noan'anaviy uslub.

Проблемы использования международного опыта в сфере общественного питания в гостиницах

Аннотация: В статье представлены некоторые обзоры и опыт услуг общественного питания в мире. Кроме того, в статье приводятся примеры нетрадиционных методов обслуживания, доступных в мире, и предлагается ряд рекомендаций для их применения в Узбекистане.

Ключевые слова: гостиничный бизнес, услуги общественного питания, сервис, международный опыт, необычный метод.

The problems of using international experience on catering services in hotels

Annotation: In the article some reviews and experiences of catering services in the world are presented. Also examples of non-traditional service methods which available in the world are showed and some of recommendations for their application in Uzbekistan are offered.

Keywords: hotels business, catering service, service, international experience, unusual method.

Bugungi kunda turizm butun jahonning eng salmoqli sohalaridan biriga aylanib ulgurgan. Turizm har qnday mamlakatga yuqori daromad keltirishi ayni paytda isbot talab qilmaydigan omildir. Xususan, turizm sohasining daromad keltirish darajasi dunyo miqyosida neft va mashinasozlikdan

so'ng 3-o'rinda turadi. Mamlakatimizda ham turizm sohasiga bo'lgan e'tibor kundan-kunga ortib bormoqda. 2017 – 2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishlari bo'yicha Harakatlar strategiyasida ham aynan sayyohlik industriyasini yana takomillashtirish bo'yicha bir qancha ustuvor yo'nalishlar belgilab o'tilgan. Oxirgi yillarda yurtboshimiz Sh.M.Mirziyoyev tomonidan qabul qilinayotga farmon va qarorolar ham aynan mana shu maqsadlarni ko'zlagan. 2016-yil 2-dekabr sanasida PF-4861 – sonli “O'zbekiston Respublikasida turizm sohasini yanada takomillashtirishni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida”gi farmonida ham turizmni muhim strategik sektor sifatida belgilab, ushbu sohani rivojlantirish bo'yicha aniq vazifalar belgilab berilgan. Jumladan, quyidagilarni aytib o'tish mumkin:

- mamlakatda turizm sohasi sub'ektlariga qo'shimcha imtiyozlar yaratish;
- yangi turizm yo'nalishlarini ochish va mavjudlarini takomillashtirish;
- mehmonxonalar infratuzilmasini takomillashtirish, yangi xalqaro standartlarga javob

beruvchi mehmonxonalar faoliyatini yo'lga qo'yish yuzasidan tadbirkorlar va investorlarga turli imtiyozlar berish;

- ovqatlantirish xizmatlarini takomillashtirish bo'yicha turli vazifalarni belgilash;
- yo'l infrastrukturasi rivojlantirish;
- bir qancha davlatlarga viza tartibini bekor qilish va boshqalar.

Turizm sohasining asosi sifatida mehmonxonalarni hisoblasak bo'ladi. Mehmonxonalar hamda boshqa turdagi turistik majmualar insonning dam olish, turizm, ish safarlari bilan bog'liq bo'lgan ijtimoiy-madaniy, informatsion, sog'lomlashtiruvchi va boshqa xizmatlarini ta'minlab beruvchi obyektlar hisoblanadi. Mehmonxona va umumiy ovqatlantirish sanoati turar joy hamda ovqatlantirish xizmatini ta'minlab beruvchi biznesi desak adashmagan bo'lamiz.

Mehmonxona sharoitidagi ovqatlantirish xizmati boshqa boshqa yakka tartibdagi restoranolarga qaraganda oz bo'lsada farq qiladi. Mehmonxonadagi ovqatlantirish bo'limi sifatli taomlar va xizmatlarni taqdim etishga mas'ul hisoblanadi. Ovqatlantirish xizmati shu ma'noni anglatadiki, mijozlarga mehmonxona oshxonasida ichimlik va taomlar tayyorlash, keyinchalik ularni mehmonxona restorani, bari ovqatlantirish bazasida taqdim etish maqsadini ko'zlagan. Ovqatlantirish xizmatini tashkil etish quyidagi kategoriyalar bo'yicha taqdim qilinadi:[1]

- Restoranlar. Ular quyidagi turlarga bo'linadi:

- butun kun ishlovchi restoranlar
- eksklyuziv menyuli restoranlar. Bunda restoranlarning menyusi deyarli har kuni yangi taomnoma bilan o'zgartirib turiladi;

- ixtisoslashtirilgan restoranlar. Bunda restoranlarga milliy toki xorijiy taomnoma toifasi beriladi.

- Lanch. Ushbu holatda mehmonxona ma'lum vaqt davomida mijozlariga taom va ichimliklarni taklif qiladi.

- Bar. Barlarda asosan ichimliklar taklif qilinib, ularga maxsus gazaklar menyusi ham qo'shimcha qilinadi.

- Xonaga keltirish xizmati. Bunda buyurtma taomlari xonalarga keltirib taqdim qilinadi.
- Uchrashuv va konferensiya xonalarda taomlarni taqdim qilish.
- Delikates. Yangi va tabiiy mahsulotlar taqdim qiluvchi joylar va boshqalar.

Мехмонхона ресторани иш фаолияти бошқа оддий ресторанлар иш фаолиятидан биров фарқ қилади. Ресторан иш вақти шундай ташкил этилиши керакки, ушбу вақт мехмонхонада жойлашган кўпгина мехмонлар эҳтиёжини қондирсин, ҳатто бу ресторанга баъзи ҳолларда фойда келтирмаса ҳам. Мехмонхона мехмонларининг 70% тушлик, 50%га яқини кечки овқатни мехмонхона ресторанига қилмайдилар. Ресторан даромадининг учдан икки қисмини четдан кирган хўрандалар олиб келади. Бундан шунини хулоса қилиш керакки, мехмонхона ресторани ташқаридан алоҳида қирадиган эшикка ва автомобиллар тўхташ жойига эга бўлиши керак.[2]

Янги ресторан очаётганда бошқарувчи quyidagi omillariga e'tibor bериши керак:

- Restoran joylashuvi
- Restoran dizayni
- Restoran xizmatlari

Restoranlar nafaqat ovqatlanish, balki insonlarga estetik zavq bag'ishlovchi maskan bo'lib ham xizmat qilishi kerak. Restoranlar tizimi rivojlanib borar ekan, ovqatlantirish jarayonini san'at darajasiga ko'tarish ham dunyo miqyosida muhim ahamiyat kasb etmoqda. Xususan, mijozlarni jalb

qilish maqsadida turli takrorlanmas uslublardan foydalanilmoqda. Ular quyidagi kategoriyalarga ajratiladi:

- Dizayn va bezaklar;
- Menyudagi o'ziga xoslik;
- Servisning noodatiyligi;
- Restoran jihozlarida;
- Restoranning eksklyuziv tematikali bo'lishi;
- Restoranning nomlanishi va brendida o'ziga xos uslublardan foydalanish;
- Joylashgan joyi;
- Zamonaviy texnologiyalardan foydalanganlik va boshqalar.

Yuqoridagi omillar bo'yicha restoranlarda turli tuman eksklyuziv uslublarni o'zlarining faoliyatida qo'llashmoqda. Ko'zlangan maqsad esa ko'p qroq mijozlarni jalb qilish. Quyida biz Dunyoda mavjud noodatiy restoranlarning bir nechtasini keltirib o'tamiz:

1. "The Devil" : Bunda ovqat harakatsiz vulqon ustida pishiriladi.

Buni noodatiyligi shundaki, xo'randalarga ovqatni vulqon og'zida undan chiqayotgan 450 C atrofida issiqlik yordamida pishirib beriladi. Restoran xodimlari vulqon og'ziga katta gril qo'yishgan va shu orqali ular bir vaqtning o'zida ko'p miqdordagi taomlarni pishirish imkoniyatiga ega bo'ladi. Ushbu taomxona Timanfaya Xalqaro Parkda joylashgan.[3]

2. Ninja (Nyu York, AQSH) : Tanovvul vaqtida asabiylashish imkoniyatini taqdim etadi.

Qog'oz chiroqlar ostida ushbu restoran XVIII asrning sirli qishlog'idagidek muhitini taqdim etadi. Bu yerdagi xodimlar mijozlarga qo'pol munosabatda bo'lishadi hamda ovqatlanishayotgan paytida xanjarlar bilan sizga tashlanib qolishadi va bu sizni qo'rqtishi yoki asabiylashtirishi mumkin. Gulxan, tutun hamda janglyor san'ati namunalari bilan siz butun ovqatlanish jarayonlarini hayajon bilan o'tkizishingiz mumkin. [3]

3. Ithaa (Maldives): Dunyodagi birinchi va yagona butunlay oynadan iborat dengiz ostidagi restoran.

Restoranda sizga dengiz mahsulotlaridan tayyorlangan mahsulotlar taqdim etiladi. Darhaqiqat, 2014-yilda New York Daily News da "dunyodagi eng chiroyli restoran" deb baholashgan.[3]

4. Calico Cat Cafe (Tokiyo, Yaponiya): Bu shunday kafeki, qayerdagi mushuklar siz bilan bir jamoada bo'lishadi.

Calico kafesi butun dunyodagi yagona hamda mashhur kafelardan biri hisoblanadi. Ushbu kafe g'oyasi Tokiyodagi ko'pchilik binolarga uy hayvonlari kiritilmagan holda vujudga keldi. Bunday kafelar odamlarga yoqimtoy jonivorlar bilan vaqt o'tkazish imkoniyatini beradi. Kafeda taxminan 50 ga yaqin mushuklar bor hamda bu hayvonlar egalari mushuklarning ishonchli qo'llarda ekanliklariga ishonishadi. [3]

5. Samodagi kechki ovqat (Dinner in the sky, Belgiya): Nomidagidek huddi o'zi.

Taom, sarguzasht va hayajonning yaxlit birligi ostida bulutlar qo'ynida o'zingizgizni yettinchi osmondagidek his qilasz. Balki bu bir muncha ijodkaorona so'zlardir lekin chindan ham ushbu restoran sizga samoda taom tanovvul qilish imkoniyatini beradi. [2]

6. Dick's last resort (AQSH): Buyerdagi xodimlarning maqsadi bezbetlik qilish.

Bu AQSHdagi 17 ta restoranlarning bir fililali bo'lib, bu yerda xodimlar judayam qo'pol bo'lishadi va ularning bu hatti harakatiga sabab bor. birinchidan bunaqa restaranlar haqida restoran egalari bir qancha fikrlarga kelishgan. Birdaniga ulaning g'oyalari ish bermadi va ular bankrotlik holatiga tushdi. So'ngra birdaniga nimadir ish bera boshladi. [2]

Qo'pol xodimlardan tashqari juda ham noan'anaviy hamda ahmaqona bo'lgan dizayn tanlab olingan. Pknik stollariga dasturxon qo'yilmagan.

7. Dark Dine Invisible (Bangalor, Hindiston): Ushbu restoran chiroqlari mavjud bolmagan hamda xizmatkorlari ko'r bo'lgan restoran hisoblanadi.

Albatta qorong'ulikda taomni to'kib-sochmay yeyish oson emas. Lekin, navbatdagi g'ayrioddiy restoranda qorong'uligi sababli ovqatlanish paytida ehtiyotkorona yondashish qiyin va sizga xizmat qiluvchi offitsiantlar ko'r. Biroq yorug'likning yo'qligi ta'mni yaxshi his qilishlariga yordam beradi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, ushbu restoran chiroqlardan holi va bu yerda ishlovchi xizmatkorlar ko'rish qobiliyatiga ega emas.

Qizig'i shundaki, bunday restoranlar dunyo bo'ylab tarqalgan va yetarli darajada foyda ololadi.[3]

8. Viloa Escudero or Waterfall Restaurant (San Pablo, Filippin): Bu restoranda tanovvul qilish mo'ljallanga stollar sharsharaning pastki qismida joylashgan.

Boldirgacha bo'lgan chuqurlikdagi suvda ovqatlanish xo'randalarga o'zgacha zavq bag'ishlaydi albatta.[2]

- Kayabuki Izakaya (Tokyo, Yaponiya) Maymunlar xizmat qiluvchi restoran.

Izakaya yaponlarning noodatyi ichimlik uslubi. Bu yerda shunisi g'aroyibki, besh nafar maymunlar sizning xizmatigizda bo'lishadi. Ularning xizmat ko'rsatish jarayoni sizda stressni yengishga sabab bo'luvchi omillarni olib kelishi mumkin.[3]

- Rogo's (Yas orollari, Abu Dabi): Bu yerda taom sizning stolingizga 12 metrlik tornadosimon spiral bo'ylab tushadi. Bu uyerda fast food tushunchasi chinakam ma'noda o'zining ahamiyatiga ega bo'ladi. Ushbu restoran 30 ta ovqat bilan ta'minlovchi rollerlarga ega. Har bir rollaer maxsus tizimga ega bo'lib, mijoz buyurgan taom bilan avtomatik ta'minlaydi. Bosh oshpaz taomni rollerga tashlaydi va u mijozning oldiga borib tushadi.[2]

- De Goljer (Dayns, Belgiya): Bu yerda siz o'zingiz pishirish imkoniyatiga ega bo'lasiz.

Mahalliy aholi ushbu restoranni "O'zing tayyorla" restorani deb ataydi. Xizmatchilar sizni ichimlik hamda ovaqat uchun zariur bo'ladigan mahsulotlar bilan ta'minlaydi. Albatta ular sizga yordam berishadi. Agar mabodo qo'lingizda kapkir bo'lamasa tirnog'izdan fodalanishingiz mumkin. [2]

- Kinderkookkafe (Amsterdam, Gallandiya): Ushbu restoran bolalar tomonidan boshqariladi.

Bu yerda 5-12 yoshlardagi bolalarni notijorat maqsadida taom pishirishga o'rgatadigan restoran hisoblanadi. Bosh oshpazdan tortib kassirgacha, idish yuvuvchilar va hattoki farroshlar ham bolalar tarkibidan iborat. Ushbu restoranning ochilganiga 30 yil bo'lgan. Bu yerda bolalar bir qancha kattalar boshchiligida faoliyat olib borishadi.[3]

- Hajime Robot Restorani (Bangkok, Tailand): Bu yerda sizni robotlar kutib oladi.

Ushbu restoranda robotlar nafaqat sizning buyurtmangizni olib kelishadi, balki bir qancha ahmoqona harakatlari bilan sizga tamoshalar ko'rsatishadi. [3]

- Pay As You Please (O'zingizning xohishingizga qarab to'lang, Sen bu yerda o'z hisobingni yaratasan.

Albatta xohlaganingizcha to'lash barchaga yoqishi tayin, ammo restoranga kelishdan oldin uni band qilish esingizdan chiqmasligi zarur.[2]

- Grotto, Rayavadee, Krabi, Tailand: G'or tushligi deb ham ataladi. Ushbu restoran Pranang plyajidagi g'orlardan birida joylashgan. Romantik restoran Rayavadi oromgohining muhtasham qismlaridan birida joylashgan. Ammo u hamma uchun birdek ochiq, kimki sof, mazali taomlar va taassurotga boy bo'lgan atrof muhitdan rohatlanishni xihlasa. Restoranning o'ziga xosligi shundan iboratki, dengiz mahsulotlari barbikyusi har hafta ma'lum davrda maxsus taomnoma asosida tayyorlanadim. [4]

- "Qush ini" restorani (Soneva Kiri Ekobog'i, Tailand).

Daraxtdagi qush inlari 16 fut balandlikda joylashgan. Bunarsa sizga va sizning guruhingizga o'ziga xoslik shuning bilkan birga ovqatlanish paytidagi g'aroyib zavq olish imkoniyatlarni taqdim etadi. Bu restoran haqiqatdan ham ehtirolarga boy hisoblanib, bu yerdagi ofitsiantlar maxsus uslublardan foydalanishadi. [4]

- Huvaafen Fushi (Shimoliy Mala, Maldiv orollari): Beshyulduzlik xususiy orolda joylashgan ushbu oromgoh o'zining hovuzi bilan mashhur. U kechasi yonib turadi, ovqatlanish jarayoni ham eksklyuziv: plyajdagi ovqatlanish davomida suv ostiga vinolar qo'yilgan va ular yonuvchi chiroqlar oldida joylashgan. [4]

Yuqoridagi restoranlar marketingida o'ziga xoslik jihati shundan iboratki, restoranlar har xil yo'nalishlarda o'ziga xos uslublarni tanlab olgan. Xususan, bir qancha restoranlar dizaynga alohida e'tibor bergan bo'lsa, boshqalari taom taqdim etish usuli va menyuga alohida e'tibor qaratgan. Har qanday holatda ularning asosiy maqsadi ko'proq mijozlarni jalb qilish yoki mijozlarning ma'lum tipiga doimiy xizmat ko'rsatish hisoblanadi. Bunday tipdagi restoranlarni mehmonxonalar tarkibida

joriy etish orqali mehmonxonada qo'shimcha ekzklyuziv xizmatlarni joriy etish imkoniyati mavjud bo'ladi.

Mehmonxonalar faoliyatini mamlakatimiz miqyosida rivojlantirish, shuningdek, ularda ovqatlantirishning yuqori darajali servis uslubini hamda xilma-xillikni ta'minlash hozirgi kunning dolzarb masalalaridan biriga aylangan. Xalqaro tajribalardan foydalangan holda yurtimizdagi ovqatlantirish shahobchalari hamda retoranlarda noodatiy dizayn va servis uslublarini qo'llash imkoniyati mavjud. Odatda O'zbekistonda qo'llaniladigan dizayn milliy uslubda bo'lib, rang-baranglikdan ko'proq foydalaniladi, taomlar ham milliy menyu asosida tayyorlangan. Mamlakatimiz mehmonxonalari asosan B&B (Bed and Breakfast) uslubida faoliyat yuritadi. Shu sababli ushbu mehmonxonalarda sodda dizayndagi uslub ko'proq qo'llaniladi. Asosan, milliy ruhdagi so'rilar ustida sharq shirinliklari sayyohlar uchun taqdim qilinadi.

Mamlakatimiz mehmonxonalar dizaynida foydalanish mumkin bo'lgan asosiy elementlar tarkibida albatta, milliy uslubdagi sharqona bezaklar, atlas yoki adrasdan turli aksessuarlar, chorpoya yoki naqshinkor stol-stullar, ba'zida sayroqi qushlar va bedanadan foydalaniladi. Asosan ushbu holatning o'zigina mijozlarni jalb qilish uchun birlamchi omil bo'lib, xorijiy sayyohlar bunday muhitdan faqatgina zavq olishadi xalos. Ushbu dizaynga mazaliy milliy taomlar menyusi hamda yuqori sifatli servis xizmati qo'shiladigan bo'lsa, milliy retoranning zamonaviy uyg'unlikdagi ko'rinishi paydo bo'ladi va bu mijozlarga albatta yoqishi aniq. Bundan tashqari restoran xodimlariga ham alohida urg'u qaratish zarur. Misol uchun, yigitlarda belbog' va do'ppi, qizlarda esa nimcha va do'ppi kabilar bo'lsa, mijozlarda yanada yuqori taassurot uyg'otish mumkin.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, mehmonxonalar tarmog'ida ovqatlantirish xizmatlari ham alohida o'rin egallaydi. Ammo, mehmonxona restoranining menyusidagi va servisdagi ba'zi muammolar, bundan tashqari narxlarining balandligi tufayli mijoz faqatgina nonushta bilan kifoyalanib qo'ya qoladi xalos. Shuning uchun, mehmonxonalar retoranlarida ham yuqorida ko'rsatilgandek noodatiy uslublardan foydalanish yoki mijozlarga naf keltiruvchi servis xizmatini tashkil etish zarur. Mehmonxonalardagi restoranlar tizmini rivojlantirish uchun quyidagilar taklif qilinadi:

- O'ziga xos yoki milliy tematikali dizaynni tanlab olish;
- Servisning restoran mazmuniga mos bo'lishi;
- Buyurtmali va xilma-xil taomlar, ichimliklar, gazak va desertlar menyusining mavjudligi;
- Eksklyuziv muhitni yaratish va tashkil etish bo'yicha tematik uslublardan foydalanish;
- Qo'shimcha xizmatlardan foydalanish va imtiyozli ravishda ularni mijozlarga taqdim etish va boshqalar.

Adabiyotlar

1. <https://www.pandotrip.com/> Top 10 Unusual Restaurants Around the World – Dunyoning eng noan'anaviy 10ta restorani
2. <https://www.oddstuffmagazine.com/> 20 Weird and Unusual Restaurants around the World – Dunyodagi 20 ta eng noodatiy restoranlar
3. <https://www.rd.com/advice/travel/> Weird Restaurants Around the World – Dunyoning g'ayrioddiy restoranlari
4. <https://www.aluxurytravelblog.com> 10 of the world's most unusual restaurants – Dunyoning eng noodatiy 10ta restoranlari
5. [https://www.mentalfloss.com/10 Unusual Restaurants Found Around the World | Mental Floss](https://www.mentalfloss.com/10-Unusual-Restaurants-Found-Around-the-World-Mental-Floss) – Dunyoda topilgan 10 ta noodatiy restoranlar

UDK: 343.352

KORRUPSIYA – TARAQQIYOT KUSHANDASI**Z.O. Kuvandikov***Samarqand davlat universiteti*

Annotatsiya. Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasida korrupsiya jinoyatining qonuniy tushunchasi, uning oqibati va ushbu jinoyatning bugungi kundagi holati, uning oldini olish yuzasidan Prezident tomonidan olib borilayotgan chora-tadbirlar rejasi, shuningdek, korrupsiya jinoyatini oldini olish va unga qarshi kurash bo‘yicha qonun hujjatlarni takomillashtirish to‘g‘risida ilmiy-amaliy fikrlar va takliflar ilgari surilgan.

Kalit so‘zlar: korrupsiya jinoyatining qonuniy tushunchasi, korrupsiyaga oid huquqbuzarlik va manfaatlar to‘qnashuvi, Freedom House

Коррупция препятствует развитию

Аннотация. В данной статье анализируется правовая сущность правонарушения со стороны должностных лиц. Разработано и выработано конкретные теоретические и практические выводы и предложения по совершенствованию законодательства в данной сфере, исследовано состояние законодательной базы по борьбе с коррупцией в Республике Узбекистан.

Ключевые слова: юридический срок коррупционной преступности, столкновение незаконных действий и проблем связанных с коррупцией, Freedom House.

Corruption obstructs development

Annotation: this article analyzes the legal nature of the offense in the sphere of official persons. Theoretical and practical conclusions and proposals on the completion of the law in this sphere have been worked out, the state of the legislative basis for combating corruption in the society has been studied.

Keywords: legal term of corruption crime, collision of illegal acts and concerns related to corruption, Freedom House.

Mamlakatimizda korrupsiya jinoyatini oldini olish va ushbu illatga qarshi kurashish maqsadida Respublikamizda 2017 yil 2-fevralda “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi, 2017 yil 8-sentyabrda O‘zbekiston Respublikasida “Ma‘muriy isloxtlar konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi, 2017 yil 3 yanvarda O‘RQ-419-sonli “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining qonuni hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 2-fevralda “Korrupsiyaga qarshi kurash to‘g‘risidagi qonuni, 2017 yil 10 aprelda PF-5005-sonli “Ichki ishlar organlarining faoliyati samaradorligini tubdan oshirish, jamoat tartibini, fuqarolar huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilishni ta‘minlashda ularning mas‘uliyatini kuchaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Prezidentimizning Farmonlari qabul qilindi.

O‘zbekiston Respublikasida ilk bor korrupsiya jinoyatining qonuniy tushunchasi 2017 yil 4-yanvarda kuchga kirgan O‘zbekiston Respublikasining “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi qonunida belgilab qo‘yildi. Ushbu qonunga ko‘ra, *korrupsiya — shaxsning o‘z mansab yoki xizmat mavqeidan shaxsiy manfaatlarini yoxud o‘zga shaxslarning manfaatlarini ko‘zlab moddiy yoki nomoddiy naf olish maqsadida qonunga xilof ravishda foydalanishi, xuddi shuningdek bunday nafni qonunga xilof ravishda taqdim etish bilan bog‘lik harakat tushuniladi.*

Respublikamizda korrupsiya illatiga qarshi kurashish soxasida olib borilayotgan say-harakatlarga qaramasdan jamiyatimiz hayotida ushbu jinoyatlar sodir etilayotganligini ham inkor etib bo‘lmaydi. Bular haqida xalqimiz tomonidan xolis bildirilayotgan fikrlardan ma‘lum bo‘lmoqda. Respublika “Ijtimoiy fikr” nodavlat - notijorat tashkiloti tomonidan O‘zbekiston Respublikasida korrupsiya jinoyatchiligining xolatini o‘rganish maqsadida o‘tkazilgan monitoring natijasiga ko‘ra, bugungi kunda, jami aholining 56,8 foizi, O‘zbekistonda korrupsiyaning mavjudligini e‘tirof etishmoqda. Ushbu so‘rovnomada ishtirok etgan fuqarolar shaharda yashovchilar, tadbirkorlik sohasida band bo‘lganlar va xorijiy qo‘shma korxonalarda ishlovchi shaxslar hamda oliy ta‘lim muassasi va o‘rta maxsus kasb hunar ta‘limida o‘qiyotgan shaxslardan iborat bo‘lgan. Shuningdek,

ushbu tashkilot tomonidan Respublikamizning o'n ikkita hududida so'rovnomalar o'tkazilib, unda jami 1,7 ming fuqaro ishtirok etib, ularning 49 foizi erkaklar, 51 foizi ayollardan iborat. Shundan, shaharliklar 51 foizni, qishloq fuqarolari 49 foizni tashkil etgan. So'rovnomada ishtirok etganlarning eng kichigi 18yoshga to'lganlarni tashkil qilgan.

Monitoringda qatnashganlarning (76,3%) O'zbekistonda korrupsiyaga oid jinoyatlar ayrim sohalarda uchrab turishini ta'kidlashgan. Jumladan, korrupsiya jinoyatining sodir etilishi haqida (37,6%) ishtirokchi sog'liqni saqlash tizimida, (31,4%) ishtirokchi ta'lim tizimida hamda 25 foiz ishtirokchi huquqni muxofaza qiluvchi idoralar xodimlari tomonidan sodir etilayotganligini ta'kidlashgan. Shuningdek, ushbu so'rov natijasiga ko'ra 65,8% fuqaro korrupsiya jinoyatini sodir etgan shaxslarni javobgarlikka tortish va ularga nisbatan jazo tayinlash bugungi kunda o'z samarasini bermayotganligini bildirishgan. Shu bilan birga 41,3% so'rovda ishtirok etganlarning fikricha, respublika davlat idoralari tomonidan korrupsiyani oldini olish va uni bartaraf etishda fuqarolik jamiyati institutlarining faol ishtirokini ta'minlash natijasida amalga oshirilishi mumkinligini alohida e'tirof etishgan [2].

Ayrim manbalarga ko'ra, korrupsiyaga oid jinoyatlar hamdo'stlik mamlakatlarida jumladan, Rossiya Federatsiyasida 2012 yilda 22,5% ga (49 mingta) shundan 513 tasi rasmiy qayd qilingan. Bu haqda Rossiya Federatsiyasi bosh prokurori Yuriy Chayka o'z ma'ruzasida ta'kidlaydi. Shuningdek, Freedom House tashkilotining ma'lumotlariga qaraganda, bugungi kunda dunyoda yashayotgan insonlarning 2,3 mlrdga yaqini o'z davlatlarida erkin yashamayotganligini, dunyoning 89 davlatida insonlar tulikerkiyashayotganligi. Ushbu davlatlarda jami er yuzi aholisining 46% ni tashkil qilishini, dunyoning 58ta davlatida esa insonlarning yarim erkin yashayotganligini, ya'ni ularda er yuzi aholisining 20% yashayotganligini hamda dunyoning 47 ta davlatida esa insonlar erkin yashamayotganligini ma'lum kilingan[3]. Shuningdek, Rossiya Federatsiyasining 88% fuqarosi davlat muassasalariga u yoki bu ko'rinishdagi muammolarni hal qilish uchun murojaat qilishganda, ularning aksariyati ushbu davlat idorasi xodimlari tomonidan murojaat qiluvchilarga nisbatan qo'pol muomalada bo'layotganliklarini, hamda muammolarni hal qilishda fuqarolar turli xil byurokratik tusiklarga duch kelayotganliklarini bildirishgan[4]. 53% Rossiya fuqarolarining fikricha, davlat idoralari murojaat qilayotgan fuqarolarga mutassadi tashkilotlar xodimlari tomonidan pora olish evaziga, ularning muammosini hal qilish bilan bog'lik holatlar mavjudligini bildirishgan [5].

Shuningdek, Rossiya hisob palatasining ma'lumotlariga qaraganda, Rossiya sud tizimining korrupsiyalashib ketganliklarini (59%) fuqarolar, qonunchilik palatasining (54%), davlat xizmati xodimlarining (74%) va siyosiy partiyalarning (49%) hamda (66%) Rossiya fuqarolari Rossiya politsiya idoralari korrupsiyalashib ketganligini e'tirof etayotganligi haqida xabar berishgan [6].

Korrupsiya tufayli Italiya davlat byudjeti yiliga 60 milliard evro yo'qotmoqda. Italiya hukumati 2012 yilda korrupsiyaga qarshi kurash to'g'risida qonun qabul qilish haqida tashabbus ko'rsatib, ushbu qonun loyixasi mamlakat senati tomonidan qonunchilik palatasiga oxirgi variantini ishlab chiqish uchun taqdim etgan. Ushbu qonunning qabul qilinishidan norozi bo'lganlar ro'yxatini 117 dan iborat deputatlar tashkil qiladi[7].

Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, Respublikamizda korrupsiyaga qarshi kurash to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasining qonunini ishlab chiqishda, Oliy majlisimiz tomonidan Norvegiya va Singapur davlatlarining huquq amaliyoti tajribasini o'rganilganini ham alohida qayd etish kerak. Bunga sabab ushbu ikkala davlatda korrupsiya jinoyati eng past ko'rsatkichda turganligi inobatga olingan.

O'zbekistonda korrupsiyaga qarshi keskin kurash borasida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risidagi farmoni muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, ushbu normativ hujjatning "Qonun ustuvorligini ta'minlash va sud-huquq tizimini yanada isloh qilishning ustuvor yo'nalishi" deb nomlangan ikkinchi yo'nalishida, O'zbekiston Respublikasida jinoyatchilikka qarshi kurashish va huquqbuzarliklarning oldini olish borasidagi faoliyatni muvofiqlashtirishning samaradorligini oshirish; diniy ekstremizm va terrorizmga, uyushgan jinoyatchilikning boshqa shakllariga qarshi kurashish bo'yicha tashkiliy-amaliy choralarni kuchaytirish; *korrupsiyaga qarshi kurashishning tashkiliy-huquqiy mexanizmlarini takomillashtirish va korrupsiyaga qarshi kurashish tadbirlarining samaradorligini oshirish*; aholining huquqiy madaniyati va ongini yuksaltirish, bu borada davlat tuzilmalarining fuqarolik jamiyati institutlari, ommaviy axborot vositalari bilan o'zaro samarali hamkorligini tashkil etish vazifalari belgilandi.

Respublikada korrupsiya illatining oldini olish va unga qarshi kurashishda fikrimizcha, aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirishda biz avvalo, davlat organlari va boshqa tashkilotlarning korrupsiyaga qarshi kurashish maqsadida aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirishda faol ishtirok etishini, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish bo'yicha zarur chora-tadbirlarni ishlab chiqishni va ularni amalga oshirishni, shu jumladan korrupsiyaga qarshi kurashish masalalariga doir tushuntirish ishlarini amalga oshirish, huquqiy tarbiya va ta'limni, ilmiy-amaliy tadbirlarni tashkil etish, o'quv-uslubiy va ilmiy adabiyotlarni ko'proq chop etib borish maqsadga muvofiqdir. Ikkinchidan, fuqaro-shaxs va davlatning hamkorligini yanada kuchaytirish lozim. Uchinchidan, ta'lim muassasalarida korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha huquqiy ta'lim va tarbiyaviy ishlarni yanada faollashtirish zarur.

Xulosa qilganda, Respublikamizda korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlarni yanada mustahkamlash maqsadida rivojlangan xorijiy mamlaktlarning ushbu soxadagi tajribasidan samarali foydalanish, jamiyatda korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha murosasiz munosabatni shakllantirish; aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish, respublikada ma'muriy isloxotlar konsepsiyasini ta'minlash maqsadida davlat hokimiyati va boshqaruv organlari tizimini yanada isloh qilish, korrupsiya illatidan tubdan qutilish yo'lida ushbu soxada yanada ko'proq ilmiy-ommabop maqola, Respublika va xalqaro miqyosdagi konferensiyalarni tashkil qilish, o'quv qullanmalarini chop ettirish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Adabiyotlar

1. 2017 yil 4-yanvarda kuchga kirgan O'zbekiston Respublikasining "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi qonuni.
2. 2017 yil 2-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni.
3. <http://ru.sputniknews-uz.com/economy/oproso-korruptcii-v-ruz.html>
4. <https://www.kommersant.ru/doc/>.
5. //Журнал «Власть» № 2 (855) от 18.01.2010.
6. Сьуй, Шэн Шилян, Цао.Янь.inosmi.ru. 22.04.2013 <http://sudanet.ru/content>
7. Черкашина Е. А. Коррупция в России: причины возникновения и методы борьбы [Текст] // Право: современные тенденции: материалы II Междунар. науч. конф. (г. Уфа, апрель 2014 г.). — Уфа: Лето, 2014. — С. 77-80.
8. Джованни Бенси. //Независимая газета. 24.10.2012.

UDK: 343.2

JINOIY – HUQUQIY HODISALARNING ICHKI TABIATIGA XOS SABAB-OQIBAT DIALEKTIKASINING BA'ZI MASALALARI

F. Kuchkarova

Samarqand davlat universiteti

Annotatsiya. Ushbu maqolada har qanday jinoyatning salbiy madaniy hodisa sifatida eng tub mohiyati uning ijtimoiy xavfli qilmish ekanligi ochib berilgan. Mazkur bilish yo'li nafaqat jinoiy-huquqiy hodisalar genezisini, balki shu bilan birga jinoyatchilikni bartaraf etish ishlariga nazariy va amaliy jihatdan yordam beradi.

Kalit so'zlar: determinasion, substansional, yahlitlik, oqibat, proletar.

Некоторые вопросы причинно-следственной диалектики свойственной природе уголовно-правовых процессов

Аннотация. В данной статье раскрывается сущность всякого преступления как общественно-опасного поступка в качестве отрицательного культурного явления. Данный метод познания служит определению не только генезиса уголовно-правовых явлений, а также устранению и предупреждению преступности.

Ключевые слова: детерминация, субстанция, целостность, результат, пролетариат.

Some issues on cause-reason dialectics of inner nature of legal-juridical events

Abstract. This article is about the worst event of the society- crime. This ways help not only to clear the criminal genesis reveal the criminal events, but also in theoretical and practical preventing from criminality.

Keywords: determination, substantial, integral, proletariat

Determinasion aloqadorlik ichida sababiy-oqibatliy bog'lanishlar jinoiy-huquqiy hayotni huquqiy tartibga solishda o'ziga xos o'ringa egaki, ularni aniqlash jinoiy hayot sohasidagi huquqiy hodisalarning genetik yo'nalishini ochib beradi. Sababiy-oqibatli bog'lanishlarning mohiyati, mexanizmi falsafiy adabiyotlarda yaxshi yoritilgan. Sababiy-oqibatliy bog'lanishlar ijtimoiy hodisalar sistemasida o'ziga xos xususiyatlarga egaki, uni bilish huquq, jumladan, jinoiy hayotni huquqiy tartibga solishda metodologik ahamiyatga ega.

Birinchiidan, jamiyatning yadrosini madaniy borliq tashkil etadiki, jamiyat, jumladan, jinoiy-huquqiy hayotdagi sababli bog'lanishlar undan kelib chiqadi.

Ikkinchiidan, madaniy borliqning o'zagini kishilar tashkil etar ekan, jamiyat, jumladan, jinoiy-huquqiy hayotdagi qonuniyatlar inson va ularning sosial birliklari - huquq subyektlari orqali namoyon bo'ladi.

Uchinchiidan, jamiyat kishilarning munosabatlari-ijtimoiy, jumladan, huquqiy munosabatlar yig'indisi ekan, bunda sabab-oqibatli bog'lanishlarning tipik xususiyati - informasiya uzatishdir. To'rtinchiidan, sabab-oqibatli bog'lanishlar - ularning ketma-ketligi jamiyat, jumladan, jinoiy-huquqiy hayotda maqsadga muvofiq harakatga olib keladi.

Huquqiy hayotdagi sababiy-oqibatliy bog'lanishlar to'g'risida yuridik adabiyotlar ham mavjud. Ammo ular sovet huquqi, iqtisodiy materializm, proletar sinfiyligi doirasida yozilgan.

Har qanday jinoyatning salbiy madaniy hodisa sifatida eng tub mohiyati uning ijtimoiy xavfli qilmish ekanligidir. Ammo jinoyatni salbiy madaniy hodisa sifatida tahlil qilish, tipiklashtirish va turlarga bo'lish ijtimoiy xavfli qilmishgacha bo'lgan mohiyatlar mavjudligini ko'rsatadi. Jinoyat bir butun jamiyat darajasi va jamiyat sferalari-sosial, moddiy, siyosiy, huquqiy va ma'naviy hayot sohalaridagi substansional doiraviy aylanish qonuniyatlardagi bo'shliq va nizolardan kelib chiqadi. Lekin jinoyat salbiy madaniy hodisa ekan, u tarixiy makon va zamon nuqtai nazaridan qat'iy nazar, bir xil substansional elementlarga egadir.

Ijtimoiy hodisalar subyektlarsiz yuz bermaydi. Jinoyatchilik ham subyektsiz yuz bermaydi. Demak, huquqiy - falsafiy aspektda jinoyat ham bir butun salbiy madaniy hodisa bo'lib, jinoyatchi shaxs va uning faoliyatiga bog'lik holda quyidagi substansional komponentlardan tashkil topgan: 1) jinoyatchi shaxs, ya'ni jinoyatning birinchi tartibdagi subyekti; 2) jinoyat obyektiga nisbatan jinoyatchi shaxsning salbiy munosabati, ya'ni jinoyat yuz berishining motivi; 3) jinoiy ishni rejalashtirish yoki ijtimoiy xavfli oqibat yuz berishini anglay bilish; 4) jinoiy ishga tayyorgarlik ko'rish; 5) jinoiy ishni sodir etish; 6) sodir etilgan jinoiy oqibat, ya'ni jinoyatning obyektiv tomoni. Jinoyatchilikning bu substansional elementlari, ya'ni komponentlari madaniy hodisalaridir, chunki ularga ham oqilonalik maqsadga muvofiqliklar xosdir. Jinoyatning bu substansional elementlari bir - birlarini sabab - oqibatliy ko'rinishda keltirib chiqarar ekanlar, ularning o'q ildizini, yanada chuqurlashgan mohiyatini ijtimoiy xavfli qilmish tashkil etadi va ularni bir butun qilib birlashtiradi. Bu madaniy bir butunlik har qanday jinoyatning ichki sabab - oqibatliy bog'lanishlarning substansional negizini tashkil etadi.

Jinoiy javobgarlik jinoyat va jazo hodisalari o'rtasida joylashgan ekan, jinoiy javobgarlikda qo'llaniladigan majburiylik, jazoda qo'llaniladigan majburiylikdan mazmun jihatdan farq qiladi. Jinoiy javobgarlikda davlat majburlovchi adolatni qaror toptirishga qaratilgan. Jazoda esa davlat majburlovi sudlangan shaxsning huquqlarini cheklab, uni tarbiyalashga qaratilgan. Jinoiy javobgarlikda javobgarlikka tortilgan shaxs hali sudlangan hisoblanmaydi, uning aybsizligi isbotlansa jinoiy javobgarlikdan ozod qilinishi ham mumkin. Demak, jinoiy javobgarlik ongli, maqsadli jarayon. Shuning uchun ham u sof ijtimoiy, jumladan, huquqiy madaniy hodisadir.

Jinoiy javobgarlik ham o'ziga xos tashkiliy substansional bir-butunlikka ega huquqiy madaniy hodisadir. Jinoiy javobgarlikning makrosubyektlari butun mamlakat aholisidir. Chunki aholidi

jinoyatchiga nisbatan jinoiy javobgarlikka tortish va jazo tayinlab tarbiyalash ehtiyojlari mavjud. Jinoiy javobgarlik vositasida jinoyatchilikni hal qilish bu jamiyatning umumiy ehtiyoji va manfaati hisoblanadi.

Sud hukmining kuchga kiritilishi jinoiy javobgarlikning oltinchi substansional elementi bo'lib, jinoiy javobgarlikka xos ichki genetik ketma-ketlik – jarayon u bilan tugamaydi yoki to'xtab qolmaydi. Aksincha, sud hukmining kuchga kiritilishi bilan jinoiy javobgarlikka bo'lgan ehtiyoj qondirilib, jinoiy javobgarlik subyektlarining mavjudligi ta'minlanadi va bu bilan jinoiy javobgarlikning o'ziga xos bir butunlikdan iborat qonuni kelib chiqadi, sohada yuz berishi mumkin bo'lgan xaosga barham beriladi. Jinoiy javobgarlikka xos ushbu qonuniyat huquqiy borliqning substansional bir butunligi qonunining ushbu sohada o'ziga xos holda namoyon bo'lishi ham hisoblanadi. Jinoiy javobgarlikka xos yuqorida ko'rsatilgan substansional elementlar va ularning genetik substansional bir-butunligi jinoiy javobgarlikning ichki tabiatiga xos sabab – oqibatiy bog'lanishlarni belgilaydi. Agar jinoiy javobgarlikka oid sabab – oqibatiy bog'lanishlarni jarayon deb olsak, u har bir tarixiy mamlakat - sivilizasiyada o'ziga xos holda yuz beradi. Chunki substansional elementlardan birinchisi – jinoiy javobgarlik subyektlaridan biri - davlat hokimiyati har bir sivilizasiyada o'zgartirgan holda, o'ziga xos holda amal qiladi.

Jinoiy javobgarlik jinoyat va jazo o'rtasida ko'prikcha – bog'lovchi halqa bo'lib, nizolarni hal qilish usulidir. Bu usul tabiiy emas, balki inson faoliyatining ko'rinishidir. Shuning uchun ham jinoiy javobgarlik huquqiy madaniy hodisadir, jinoyatchilikka nisbatan maxsus ravishda yuzaga keltirilgan hodisadir. Jinoiy javobgarlik jinoyat sodir etishning huquqiy oqibatidir. Jinoiy javobgarlik o'z navbatida substansional sistema sifatida namoyon bo'ladi va jinoiy javobgarlikdan ozod qilishni yoki jinoiy jazoni keltirib chiqaradi.

Jinoiy javobgarlik natijasida kelib chiqadigan huquqiy oqibatlarining elementlari quyidagilardan iborat:

- ijtimoiy xavfli qilmishni sodir etganlikda sudlanganlik vujudga keladi;
- aybdor shaxsga nisbatan jazo yoki boshqa ta'sir chorasi qo'llaniladi;
- sodir etilgan ijtimoiy xavfli qilmishni sud hukmi bilan baholash natijasida ma'lum bir huquqiy oqibatlar kelib chiqishi. Bu elementlardan kelib chiqib shuni aytish lozimki, bironta shaxs sodir qilgan jinoyati uchun javobgarliksiz qolmasligi kerak. Jinoiy javobgarlik faqat davlat nomidan sud tomonidan qo'llanadigan javobgarlikdir. Bu degani shaxsni jinoyat sodir etishda ayblab davlat nomidan faqat sud javobgarlikka tortadi.

Jazo jinoyat va tor ma'nodagi jinoiy javobgarlikning oqibatidir. Chunki jinoiy jazo jamiyatni jinoyatchi shaxslarning ijtimoiy xavfli qilmishdan ximoya qilish va ularni qayta tarbiyalash vositasi hisoblanadi. Shuning uchun ham jinoiy jazo kishilarning maqsadli faoliyati va uning natijasi sifatida huquqiy madaniy hodisadir.

Jinoiy jazo ham o'ziga xos tashkiliy substansional bir-butunlikka ega huquqiy madaniy hodisadir. Jinoiy jazoning oltinchi substansional elementi – sohaga oid yuridik normalarning soha muassasalari orqali amalga oshishi jamiyatning jinoiy jazoga bo'lgan ehtiyojlarini, ya'ni jinoyatchi shaxslarning tajovuzlaridan himoya qilishga bo'lgan ehtiyojlarini qondiradi. Bu bilan jinoiy jazoga xos tashkiliy bir butunlik yuzaga keladi. Ko'rinib turibdiki, jinoiy jazoga ham oid yuqorida bayon qilingan substansional elementlar maqsadli xarakterga ega bo'lganligi uchun madaniy hodisalardir. Ularning bir-birlarini sababiy-oqibatiy holatida keltirib chiqarishlaridan jinoiy jazoni substansional yaxlitligi paydo bo'ladi. Bu o'ziga xos yaxlitlik har bir mamlakatda jinoiy jazoga xos jarayonlarni, tendensiyalarni va jinoiy-huquqiy tahlillarni keltirib chiqaradi. Jinoiy jazo jinoiy javobgarlikning oqibati hisoblanar ekan, lekin u ham substansional sistema sifatida amal qiladi va qator huquqiy oqibatlarga olib keladi. Jazo tizimi, sudlanganlik, xizmat bo'yicha cheklash kabilar jinoiy javobgarlik oqibatlaridir. Masalan, sudlanganlik ham o'ziga xos substansional, universal, strukturaviy va determinatsion, jumladan, sabab – oqibatiy aloqadorliklariga ega. Sudlanganlik o'ziga xos madaniy hodisadir, chunki uni xalq nomidan sud hokimiyati belgilaydi va tegishli muassasa, sudlangan shaxslar tomonidan amalga oshiriladi. Sudlanganlik jinoiy javobgarlikning oltinchi substansional elementi - sud hukmining kuchga kiritilishi bilan jinoiy jazoning oltinchi substansional elementi - ushbu sohaga oid huquq normalarni soha muassasalari orqali amalga oshirishining birligidir.

Jinoiy jazo ayni vaqtda jinoiy javobgarlikka nisbatan oqibat hisoblanadi, va ayni paytda uning natijasida yuzaga keladigan huquqiy oqibatlarga nisbatan sabab bo'lib xizmat qiladi. Haqiqatdan ham jinoyat yuz bermasa, jinoiy javobgarlik yuz bermaydi va uning natijasida – uning inkor sifatida jinoiy

jazo ham kelib chiqmaydi. Mazkur ketma – ketlik negizida ijtimoiy nizolarni, jinoyatchilikni hal qilish yotadi. Demak, sudlanganlik misolida aytish mumkinki, har qanday jinoiy-huquqiy hodisalar ham sabab-oqibatli bog'lanishlari zanjirida bo'ladi. Mazkur bilish yo'li nafaqat jinoiy-huquqiy hodisalar genezisini, balki shu bilan birga jinoyatchilikni bartaraf etish ishlariga nazariy va amaliy jihatdan yordam beradi.

Adabiyotlar

1. Saidov A., Yunusova O. O'zbekiston Respublikasining "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida"gi qonuni. –T.: Adolat, 1993.
2. «Kriminalistika» (-M.: "NORMA-INFRA", 1999) darsliklarida, 1997 yilda nashr etilgan.

MUALLIFLAR DIQQATIGA!

Hurmatli mualliflar, maqola muallif tomonidan qog‘ozda chop etilgan va elektron shaklida taqdim qilinishi shart. **Maqolada quyidagi bandlar:** UDK, ishning nomi (o‘zbek, rus va ingliz tillarida), maqola hammualliflarining ro‘yxati (to‘liq familiyasi, ismi, otasining ismi – o‘zbek, rus va ingliz tillarida), muallif haqida ma‘lumotlar: ish joyi, lavozimi, pochta va elektron pochta manzili; maqola annotatsiyasi (300 belgigacha, o‘zbek, rus va ingliz tillarida), kalit so‘zlar (5-7, o‘zbek, rus va ingliz tillarida) bo‘lishi lozim.

MAQOLALARGA QO‘YILADIGAN TALABLAR!

Maqolalarning nashr etilishi uchun shartlar nashr etilishi mo‘ljallangan maqolalar dolzarb mavzuga bag‘ishlangan, ilmiy yangilikka ega, muammoning qo‘yilishi, muallif tomonidan olingan asosiy ilmiy natijalar, xulosalar kabi bandlardan iborat bo‘lishi lozim; ilmiy maqolaning mavzusi informativ bo‘lib, mumkin qadar qisqa so‘zlar bilan ifodalangan bo‘lishi kerak va unda umumiy qabul qilingan qisqartirishlardan foydalanish mumkin; “Ilmiy axborotnoma” jurnali mustaqil (ichki) taqrizlashni amalga oshiradi.

**MAQOLALARNI YOZISH VA RASMIYLASHTIRISHDA
QUYIDAGI QOIDALARGA RIOYA QILISH LOZIM:**

Maqolalarning tarkibiy qismlariga: kirish (qisqacha), tadqiqot maqsadi, tadqiqotning usuli va obykti, tadqiqot natijalari va ularning muhokamasi, xulosalar yoki xotima, bibliografik ro‘yxat. Maqola kompyuterda Microsoft Office Word dasturida yagona fayl ko‘rinishida terilgan bo‘lishi zarur. Maqolaning hajmi jadvallar, sxemalar, rasmlar va adabiyotlar ro‘yxati bilan birgalikda doktorantlar uchun 0,25 b.t. dan kam bo‘lmasligi kerak. Sahifaning yuqori va pastki tomonidan, chap va o‘ng tomonlaridan - 2,5 sm; orientatsiyasi - kitob shaklida. Shrift - Times New Roman, o‘lchami - 12 kegl, qatorlar orasi intervali - 1,0; bo‘g‘in ko‘chirish - avtomatik. Grafiklar va diagrammalar qurishda Microsoft Office Excel dasturidan foydalanish lozim. Matndagi bibliografik havolalar (ssilka) kvadrat qavsda ro‘yxatda keltirilgan tartibda qayd qilish lozim. Maqolada foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati keltirilishi lozim. Bibliografik ro‘yxat alfavit tartibida - GOST R 7.0.5 2008 talablariga mos tuziladi.

- Ikki oyda bir marta chiqadi.
- “Samarqand davlat universiteti ilmiy axborotnomasi”dan ko‘chirib bosish faqat tahririyatning yozma roziligi bilan amalga oshiriladi.
- Mualliflar maqolalardagi fakt va raqamlarning haqqoniyligiga shaxsan mas’ul.

MAQOLAGA QUYIDAGILAR ILOVA QILINADI:

- Yo‘llanma xati;
- Ekspert xulosasi.

E- mail: axborotnoma@samdu.uz

SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI ILMIY AXBOROTNOMASI

НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК

SCIENTIFIC REPORTS

Mas'ul kotib
Musahhih
Texnik muharrir

X.Sh. Tashpulatov
M.M. Ro'ziboyev
S. D. Aronbayev

Muharrirlar:

E. U. Arziqulov	- f.-m.f.n., dotsent
O. R. Raxmatullayev	- geogr.f.n., dotsent
B. S. G'oyibov	- t.f.n., dotsent
I.Sulaymonov	- f.f.n., dotsent
A.I.Inatov	

Mas'ul muharrirlar:

D. M. Aronbayev	- k.f.n., dotsent
A. Sh. Yarmuxamedov	- f.-m.f.n.
R.Toshquvatova	- fals.f.n., dotsent

Muassis: Samarqand davlat universiteti
Manzil: 140104, Samarqand shahri, Universitet xiyoboni, 15.
Telefon: (0 366) 239-14-07, Faks: (0 366) 239-13-87
e-mail: axborotnoma@samdu.uz

SamDU «Ilmiy axborotnoma» jurnali tahririyati kompyuterida terildi.
Bosishga 17.09.2018 yilda ruxsat etildi. Qog'ozo'lchami A-4. Nashriyot hisob tabog'i
Buyurtma raqami 91. 10,00. Adadi 500 nusxa.

Manzil: 140104, Samarqand shahri, Universitetxiyoboni, 15.
SamDU bosmaxonasida chop etildi.